« **Техник механика** » **фанини ўқитиш методи.** Таълим методи – таълим олувчи ва таълим берувчининг муайян мақсадга қаратилган, биргаликдаги фаолиятини ташкил қилишнинг тартибга солинган усуллар йиғиндиси. Усул - таълим олувчи ва таълим берувчининг биргаликдаги фаолиятини ташкил этишнинг йўли. Таълим методларини таълим мақсадларига эришиш бўйича ўқувчи ва ўқитувчининг биргаликдаги иш фаолиятини ташкил этишнинг гуруҳ шакли мавжуд.

Таълимнинг гуруҳли шакли « таълим берувчи – таълим олувчи » диалогидан воз кечишни ва «таълим берувчи – гуруҳ - таълим олувчи » кўринишидаги уч томонлама ўзаро муносабатга ўтишни назарда тутди.

Таълим олувчиларнинг ҳамкорликдаги ҳаракати ташкиллашади, бу эса, ўқув – билиш жараёнини фаоллаштиришга кўмаклашади:

- вазифани ҳамкорликда бажариш жараёнида, таълим олувчиларда, ўртоқлари томонидан билидирилган фикрларни муҳокама қилишга мотивация пайдо бўлади;

- гуруҳларда ишлаш пайтида, зарурати бўлганда, таълим олувчилар ёрдам беришларини сўрайдилар ва бошқаларга ёрдам беришни ўрганадилар.

Ҳар бир таълим олувчининг потенциал имкониятларини ривожла- ниши ва амалга оширилиши таъминланади:

- қобилиятли ва иқтидорли талабалар ўз қобилиятларини кўрсатишлари мумкин; ўртача қобилиятли талабалар ўз билимлари ва маҳоратларини намоён қилиш имкониятини оладилар.

Таълимнинг ушбу шакли, таълим олувчилар билимини ўзаро ҳамкор- ликда бойишини таъминлайди, муаммони ечиш имконини беради.

Гуруҳда ишлашни вақтга, машғулот моделини танлашга ва иш жойини танлашга ва тайёрлашга боғлиқ равишда режалаштириш лозим.

- қўйилган мақсадларни амалга ошириш ва режалаштирилган натижаларга эришиш учун ихтиёрингизда қанча вақт борлигини аниқланг;

- гуруҳда ишлашни энг яхши модели – бу, ўқув гуруҳнинг барчасига вазифани тушунтиришдан бошланади, сўнгра кичик гуруҳларда ишлашдан ва ниҳоят, барча ўқув гуруҳи иштирокида якун ясашни белгиланг;

- гуруҳда ишлаш жойини танлашда – таълим олувчилар аудиторияда эркин ҳаракат қилиш имкониятига эга бўлиши керак, зарур ўқув қўлланмаларига барча осон етадиган бўлиши керак.

« **Техник механика** » фани бўйича талабалар жорий, оралик ва якуний назоратлар ҳамда мустақил ишда айрим мавзулардан реферат ёзадилар, ҳисоблаш – график ишини бажарадилар, тест саволларига жавоб берадилар.

Тест топшириқларидан ташқари барча назоратларга тайёргарликни талабалар таълимнинг гуруҳли шаклида олиб борадилар

« **Техник механика** » **фанидан талабалар мустақил ишини ташкиллашти- ришнинг** асосий мақсади – ўқитувчининг раҳбарлиги ва назорати остида талабада муайян ўқув ишларини мустақил равишда бажариш учун бўлган билим ва кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантиришдир.



«Техник механика» дан талаба мустақил иши учун ажратилган вақт бюджети мос равишда ҳар бир фан ва фаннинг бўлимлари бўйича ўқув – услубий (технологик) харитада белгиланган.

Талаба мустақил ишининг вазифалари қуйидагилардан иборат:

- янги билимларни мустақил тарзда пухта ўзлаштириш кўникмаларига эга бўлиш;

- керакли маълумотларни излаб топишни қулай ва самарали усуллари ва воситаларини аниқлаш.

«Техник механика» дан талаба мустақил ишини ташкил этишда фаннинг хусусиятларидан келиб чиқиб, қуйидаги таркибни қабул қиламиз:

- айрим назарий мавзуларни ўқув адабиётлари ёрдамида мустақил ўзлаштириш;

- амалий ва тажриба машғулотларига тайёргарлик;

- ҳисоблаш – график ишларига тайёргарлик;

- анжуманга маъруза тезисларини тайёрлаш.

### Адабиётлар:

1. **Н.С.Бибутов, А.Х.Ҳожиёв** Материаллар қаршилиги фанини ўқитиш методикаси. Фан ва технологиялар нашриёти. Тошкент, 2017 й.
2. **Н.С.Бибутов** .Амалий механика дарслик. Бухоро, Дурдона нашриёти 2020 йил, 553 б
3. **Н.С.Бибутов** .«Амалий механика». дарслик. Янгиюль полиграф сервис, Тошкент- 2008 й. олий ўқув юртлари учун , 544 бет
4. **Н.С.Бибутов** .Техник механика. дарслик. Бухоро, Дурдона нашриёти 2024 йил, 462 бет
5. **Н.С.Бибутов**. Техник механика. Амалий машғулотлар. ўқув қўлланма. Бухоро, Дурдона нашриёти 2022 йил, 378 бет
6. **Н.С.Бибутов** . Муродов Ш. Ҳожиёв А.Х., Асраев З.Р.Техник механика. Тажриба ишлари. Ўқув қўлланма. Бухоро, Дурдона нашриёти 2022 йил, 196 бет
7. **Н.С.Бибутов** Амалий механика.Мисоллар ечиш ва тажриба ишлари. ўқув қўлланма. Бухоро, Дурдона нашриёти 2024 йил, 280 бет
8. **Н.С.Бибутов**. Техник механикадан амалий машғулотлар. Kasb hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma T. «ILM ZIYO» 2006 y. 196 бет
9. **Н.С.Бибутов , М.М.Муродов**. «Амалий механика». Касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма. Ўз.ИНКОМ марказ. Тошкент 2002 й. С.171.
10. **Н.С.Бибутов, М.М.Муродов**.Механика: Тарихи ва тараққиёт йўли. ”Мухаррир ” нашриёти. Тошкент, 2019 й, 182 б.

## YO‘L TRANSPORT HODISASI SABABLARI

**Dots.X.R. Gaffarov**

**804-20 TVM guruhi talabasi D.Sh.Rasulov**

*Buxoro muxandislik-texnologiya instituti. Buxoro sh. O‘zbekiston.*

Ta'kidlash joizki, yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik normalari barcha rivojlangan mamlakatlar qonunchiligida mustahkamlangan. Ko'pincha bu «Yo'l harakati to'g'risida», «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida», «Yo'l harakati qoidalarini» va boshqa qonunlar, shuningdek boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlardan iboratdir. Masalan, Norvegiyada «Yo'l harakati to'g'risida» gi qonun bilan bir qatorda, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash masalalari yuzasidan 1936 yil 16 iyuldagi ayrim kasb egalari uchun amal qiladigan spirtli ichimliklar iste'mol qilish to'g'risidagi qonun bilan ham tartibga solinadi. Unda sayohat boshlanishidan kamida 8 soat oldin ma'lum kasb egalari, shu jumladan tijorat transporti vositalarining haydovchilari uchun alkogol ichimliklar, boshqa mast qiluvchi moddalar yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilishdan tiyilish talabi mavjud.

Ayanchli og'ir transport hodisalarining kelib chiqishining asosiy sabablaridan yo'l harakati qoidalariga rioya qilmaslik, tezlikni oshi rish, boshqaruvdagi bepisandliklarni keltirish mumkin. Bundan tashqari to'satdan qon bosimining ko'tarilishi, ko'z oldi pardasining tutilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Yo'l transport hodisalari ko'pincha quyidagi holatlarda kuzatiladi:

-katta tezlik. Bizga ma'lumki har qanday avtomobil boshqaruvchisiga katta tezlikni jilovlash imkoni bo'lavermaydi. Bunga asosiy sabab qilib, yo'llar infratuzilmasi talabga javob bermasligi, ularning keng yoki torligi, yo'llar ertalab va kechqurin tiqilinch bo'lishiga bog'liq. Yo'llarda tezlik cheklangan bo'lsada, havdovchilar unga amal qilmaydilar. Bunga asosiy sabab yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini bilmasliklari bo'lib hisoblanadi. Hursand bo'lmaydigan ish sodir bo'lib, boshqaruvchi o'sha vaqtda nadomat chekib yurmasligi uchun belgilangan tezlikdan oshirib yubormaslik lozim. Faqatgina zarurat vaqtida, hojat tushganda istisno qilinadi;

-qizil chiroqda o'tish. Shak-shubha yo'qki svetofor chorrahalarda transportlar harakatini tartibga solib turish uchun qo'yilgan. Transport boshqaruvchisi qachon to'xtab, qachon harakatga tushishni u orqali biladi. Svetoforning qizil ishorasiga amal qilmaslik yo'l qoidalarini buzilishidagi eng katta xatarlardan biri. Chunki uni buzgan boshqaruvchi boshqa transportlar harakatlanmasidan avval, tezda o'tib ketmoqchi bo'ladi, shunda to'satdan yo'ldan bir inson o'tib qolishi yoki yashil ishoraga tayanib boshqa tarafdagi transportlar harakatlanib qolishi mumkin. Natijada svetofor ishorasiga amal qilmagan kishi bir insonni urib yuborishi yoki boshqa transport bilan to'qnashib ketishi, bu esa o'z navbatida o'zi va boshqalar uchun ko'ngilsiz voqealarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi;

Garchi chorrahaning boshqa tarafida transport bo'lmasada qizil ishorada qat'iy to'xtab turish lozim. Chunki to'satdan qandaydir holatlar yuzaga kelib qolish ehtimoli bor degani. Davlat avtomobil nazorati inspeksiyasi tomonidan yo'llarni tartibga solib turish uchun maxsus belgilarni joriy qilganlar. Ana shu belgilar insonga "yur!", "tayyorlan", "to'xta!" deb ishora qiladi. Mana shu ishoralar DAN xodimlari so'zi o'rnida. Go'yoki DAN xodimi sizga "yur!" yoki "to'xta!" deyayotganday. Bunda boshqa tomonda transport yo'q bo'ladimi, bor bo'ladimi hukm bir xilligicha qoladi;

- charchoq holatda mashinani boshqarish. Charchoq holatda mashinani

boshqarish mumkin emas. Bunda transport boshqaruvchisi sergak tortishi lozim bo‘lgan uyqusirash, charchash, rulda uxlab qolish kabi sabablar kiradi. Chunki bu holatda mashinani boshqarish katta yo‘l transport hodisasiga sabab bo‘layotganini bugungi voqelik ham ko‘rsatib turibdi. Avtomobil trassalarida hozirda DAN xodimlari ogohlikka chaqirishlari odat tusiga kirmoqda;

-transportga e‘tiborsizlik va uni sozligini nazorat qilmaslik. Transportning texnik sozligini nazorat qilib turish lozim. Ularni yoqilg‘ilarini, ehtiyot qismlarini yaxshi ishlayotganiga ishonch hosil qilish kerak. Ayniqsa tormozini yaxshi sozlab olish kerak bo‘ladi. Chunki transportga e‘tiborsizlik oqibatida boshqaruvda kamchilikka yo‘l qo‘yilmagan holatda ham yo‘l transport hodisalariga sabab bo‘lishi mumkin.

Boshqaruv vaqtida telefondan foydalanish va xavfsizlik kamarini taqmaslik. Transport boshqaruvchisi telefondan foydalanayotganda e‘tibori chalg‘ishi, telefon orqali suhbatda a‘zolarini band qilib qo‘yishi, suhbatdan ta‘sirlanishi va hissiyotga berilishi kabi yo‘l transport hodisasiga olib boradigan sabablar vujudga keladi. Xavfsizlik kamarini taqmaslikda o‘z jonini xatarga qo‘yish holati kuzatilishi mumkin. Chunki birdaniga to‘xtashga majbur bo‘lganda tana a‘zolarini transport qismlariga urish natijasida shakastlanishi mumkin.

Yo‘l transport hodisasiga olib keladigan sabablardan yana biri alkogol mahsulotlarini iste‘mol qilish. Buni iste‘mol qilgan kishi tomonidan yuzaga kelgan hodisa yengilroq hodisaga kirmasligi barchaga ayon. Chunki alkogol iste‘moli natijasida sodir etilgan talofatlar kamida o‘lim hodisasi bilan yakunlanmoqda.

Tutqanoq va xushini yo‘qotib qo‘yish kasalligi kasalliklar orasida yo‘l transport hodisasiga olib boradigan eng xatarli kasallik turidan hisoblanadi. Xatarlisi shundaki, bu kasallik qaysi vaqt ro‘y berishini hech kim bilmaydi. Agar transport boshqarayotganda shunday kasallik xuruj berib qolsa katta talofatga olib borishi aniq. Bunday kasallik bilan kasallangan kishilar transport boshqaruviga o‘tirishi man qilinadi.

Bundan ko‘rinadiki, har bir kishi yo‘l transport hodisasiga bevosita yoki bilvosita sababchi bo‘lishdan ehtiyot bo‘lishda yuqoridagi sabablardan saqlanishi lozim. Yo‘l qoidalariga amal qilishda, transportlarni boshqarishda, yo‘lda insonlar bilan go‘zal muomala qilishda, baxtsiz hodisalar vujudga kelganda yordamga shoshishda boshqalarga namuna bo‘lishi xulqi yaxshi sanalgan ishlar sirasiga kirishi hech kimga sir emas.

Statistikaga ko‘ra, dunyodagi eng jiddiy qoidabuzarliklar tezlikni oshirish, mast holatda haydash, qizil chiroqdan o‘tish hisoblanadi. Bu huquqbuzarliklar uchun dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida eng katta jarimalar belgilangan. Belgilangan tezlikdan oshib ketish baxtsiz hodisalarning 40 foizigacha sabab bo‘ladi, natijada odamlar hayotdan ko‘z yumishadi. Harakatlanish tezligining avtohalokatlar soniga va ayniqsa avariya oqibatlarining og‘irligiga ta‘siri turli mamlakatlarda bir necha bor o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan tasdiqlangan.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda avtoulavlarning baxtsiz hodisalarini ro‘yxatga olish va oldini olish tizimi, O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud amaliyotdan farqli o‘laroq, sanksiyalarning jiddiyliги va

noqonuniy xatti-harakatlari uchun jazo choralarini amalga oshirish uchun yaxshi ishlaydigan tizim bilan ajralib turadi. Xususan, haydovchilarning mulkiy javobgarligi keng bo'lib, ta'kidlash lozimki, jarimalar va transport vositalarini musodara qilish, qoidabuzarliklarning soni va jiddiyligini avtoulavlarni majburiy yillik sug'urtasi uchun to'lanadigan haq bilan bog'laydi va hokazo.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, belgilangan tezlikni oshirib yuborish, mast holda haydash, texnika xavfsizligiga rioya qilmaslik kabi beparvolik bilan bog'liq huquqbuzarliklar eng xavfli hisoblanadi. Zero, avtotransport vositalarining yil sayin ko'payib borishi, kelajakda ularni tartibga solish bilan bog'liq juda katta muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoldan holi emas.

Umuman olganda, chet elda haydovchilar bilan bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi bilan aloqani qisqartirish tendensiyasi mavjud - huquqbuzarliklarni qayd etish va ko'rib chiqish bo'yicha elektron tizimga o'tish jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlarda mutaxassislar ularning yo'lda yaxshi «ko'rinishini» tartibli boshqarishni samarali kuzatish zarur va shart deb bilishadi, bu jarimalarni, hibsga olishlar sonini ko'paytirish uchun emas, balki politsiya tomonidan ushlanish xavfi yuqori bo'lgan umumiy muhitni yaratish.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy tajriba yo'l-transport hodisalaridan etkazilgan zararni kamaytirish masalalariga malakali yondashish ya'ni jarima va jazolarning qattiqligi har doim aholi o'rtasida ijobiy munosabat topayotganini ishonchli tarzda isbotlamoqda.

### **Adabiyotlar**

1. H.R.Gaffarov. Zamonaviy kasblarga o'rgatish. Buxoro -2023. "Umid" nashriyoti.
2. H.R.Gaffarov.,A.X.Samandarov.,M.N.Saidov. Logistika. Monografiya. Buxoro-2021. "Durdona" nashriyoti.

## **YO'L HARA-KATI BELGILARI VA QOIDALARI BILAN TANISHISH VA TA'LIMDA O'QITISH USULLARI**

### **Qudratova Gulnoza Jalilovna**

*Buxoro vil. G'ijduvon tuman 1-sonli khm o'qituvchisi +99891 406 4272*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolda muallif yo'l harakati belgilari bilan qisqacha tanishtirib o'tish bilan birga, ularni ta'lim jarayonida o'quvchi(talaba) larga qaysi metodlar yordamida o'qitish samaradorligi haqida so'z yuritiladi.

I.K. Shaxriman yo'l harakati haqida quyidagi cha fikr bildiradi: "Yo'l harakati – bu odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida shuningdek, odamlarning transport vositalarsiz, davlat organlari tomonidan tartibga solingan va va maxsus huquqiy normalar bilan chegaralangan yo'l harakati jarayoniga to'sqinlik qiluvchi real holatda xavfli vaziyat sharoiti yuzaga kelishi mumkin bo'lgan harakatlanish

hisoblanadi”. Ta’lim jarayonida yo’l va uning qoidalari bilan tanishish, xavfsizlik qoidalariga amal qilish eng muhim jihat hisoblanadi. Dastlab yo’l belgilari haqida ma’lumotlarga to’xtalamiz.

Yo’l belgilaridagi grafiklar, texnik tafsilotlar 1968-yilda Venada o’tkazilgan „Yo’l belgilari va signallari haqidagi konvensiya“ hamda bu konvensiyani to’ldiruvchi Yevropa kelishuvi (1971, Jeneva) talablariga ko‘ra ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasida 2001-yilda xalqaro me’yorlar asosida, mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda yangi „Yo’l harakati qoidalari“ ishlab chiqildi. Bu qoidalarga Y.b.ning quyidagi asosiy 4 ta guruhi:

- ogohlantiruvchi
- imtiyoz
- taqiqlovchi
- buyuruvchi

va undan tashqari axborot-ishora, servis, qo‘shimcha axborot belgilari kiritilgan. <sup>1</sup>

### 1. Ogohlantiruvchi belgilar



### 2. Buyuruvchi belgilar



### 3. Taqiqlovchi belgilar

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yo%CA%BB1\\_belgilari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yo%CA%BB1_belgilari)[https://uz.wikipedia.org/wiki/Yo%CA%BB1\\_belgilari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yo%CA%BB1_belgilari)



#### 4. Vaqtinchalik yo'l belgilari



Ushbu yo'l belgilarini o'rgatish davomida o'quvchilar oddiylikdan zerikishi mumkin va shu holatda quyidagi metodlardan foydalansa bo'ladi :

- Beshinchisi( oltinchisi, yettinchisi) ortqicha metodi
- Muammo texnologiyasi
- Toifalash texnologiyasi
- Qarama-qarshi texnologiyasi
- Mantiqiy chalkash zanjir metodi

- Gugurt donalari metodi( O'qituvchi o'quvchi (talaba)larga gugurt donalari yoki oddiy cho'plardan istaga'nicha tanlab olishi taklif etadi, o'quvchi i uz xoxishgaga ko'ra gururt donachalari ni tanlaydi. Xar bir o'quvchi (talaba) tanlangan gugurt donalari yoki oddiy chuplarining soniga kura mavzuga oid tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatib, ularning xar biriga izox berdi yoki qoidalarni aytadi)<sup>2</sup>

Ushbu usullar yordamida o'quvchi nafaqat belgilar bilan, shuningdek ularni hayotga tadbiiq etish muhimligi bilan tanishadilar .

Xususan, “Ortiqchasini top” usuli yordamida o'quvchining xotirasida belgilar qanchalik o'rnashganini va ularni guruhlariga ko'ra ajratishda qanchalik ustaligi sinaladi. Ushbu usulda, 5 yoki 6ta bir guruhga mansub belgi beirilib bir yoki ikta begona guruhga mansub belgi kiritiladi . Bunda o'quvchi topqirligi va xotirasi sinaladi.

Muammo tenologiyasida “Suhbat” metodi asosida o'quvchilar bian muammoli vaziyat yaratiladi va bu holatda ular qanday yo' l tutishi o'rganiladi.

“Toifalash” texnologiyasida o'quvchilarga belginiitanish va uni guruhlash erkin qo'yib beilishi kerak. Shuningdek xatosi mavjud bo'lgan belgilarni ham topa olishlari kerak bo'ladi.

“Qarama-qarshi” metoda esa kichik guruhlar bilan ishlash yo'lga qo'yiladi . Bunda guruhlar alohida toifalarni tanlaydi va muimligini isbotlashi lozim bo'ladi . Dolzarblikni aniqlash va to'g'ri yo'lga qo'yish metodning aosisy maqsadi sanaladi.

“Mantiqiy chalkash” metodi esa oq'ituvchining o'zidan ilg'orlikni talab qiladi ya'niki belgilarni sal chalkashtirish lozim o'quvchi esa belgini o'rnini, o'zini aniq topa oliishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Yo%CA%BB1\\_belgilar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yo%CA%BB1_belgilar)[https://uz.wikipedia.org/wiki/Yo%CA%BB1\\_belgilar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Yo%CA%BB1_belgilar)
2. Interfaol metodlari: mohiyati va ularning qo'llanishi” Toshkent: Nizomiy. TDPU nashr. 2013
3. <https://uzpdd.uz/lotin/ilovalar.php?id=1>
4. Yo'llarimiz bexatar bo'lsin desangiz / T. Mullaboyev, F. Sodiqov. -T.: O'zbekiston, 2011.

## **AVTOMOBIL DVIGATELLARINI EKSPLUATATSIYA TIZIMI**

**Хожиев Ойбек Одинаевич**

*Buxoro muhandislik –texnologiya instituti*

*(+99890-710-79-50)*

Avtomobil dvigatellarining ishga tushirish tizimi dvigatel tirsakli valini majburiy ravishda aylatirishni ta'minlovchi moslamalar majmuisidan iborat. Ichki yonuv dvigatellarini ishga tushirish uchun mexanik startorli, benzin dvigatelli, pnevmatik, gidropnevmatik va elektrostatorli tizimlar qo'llaniladi. Avtomobillarda

<sup>2</sup> “Interfaol metodlari: mohiyati va ularning qo'llanishi” Toshkent: Nizomiy. TDPU nashr. 2013

boshqa usullarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'lgan elektrostatorli ishga tushirish tizimi tatbiq topgan. Bu tizim ixcham, ishlatishdagi ishonchlilik darajasi yetarli darajada yuqori va murakkab bo'lmagan elektrotexnik va elektron moslamalar yordamida dvigatelni ishga tushirish jarayonini avtomatlashtirish imkoniyati bor.

Akkumulatorlar batareyasi elektr ta'minot va dvigatelni ishga tushirish tizimlari uchun umumiy element hisoblanadi. Elektr ta'minot tizimida akkumulatorning razryad toki (0,5-0,7)  $S_{20}$  dan ortmasa, startor rejimida ishlaganda, qisqa vaqt davomida, lekin qiymati katta ( $\sim 2000$  A gacha) tok bilan razryad bo'ladi. Shuning uchun akkumulatorning sig'imi, razryadlanganlik darajasi, elektrolit temperaturasi kabi batareya holatini belgilovchi omillar startor tavsifnomasiga va demak, dvigatelning ishga tushirish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Akkumulatorlar batareyasi dvigatelni ishga tushirish jarayonida, kuchlanishi belgilangan minimal qiymatdan (12 V li tarmoq uchun 6-8 V) kamaymagan holda, ma'lum miqdorda elektr toki berishi zarur. Akkumulatorlar batareyasi kuchlanishining pasayishini bu chegarasi, bir tomondan startorni dvigatelning tirsakli valini ishga tushirish chastotasidan kam bo'lmagan chastota bilan aylantirishini ta'minlash vazifasi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan o't oldirish tizimi (benzinli dvigatellar uchun) barqaror ishlashi uchun zarur bo'lgan minimal kuchlanish qiymati bilan belgilanadi.

Startor elektrodvigel, tortish relesi va yuritma mexanizmi dan iborat. Elektrodvigel sifatida ketma-ket yoki aralash uyg'otish tizimiga ega bo'lgan o'zgarmas tok mashinasi ishlatiladi. U quyidagi asosiy nominal parametrlari bilan tavsiflanadi: kuchlanishi  $U_{sn}$  (12,24 V) quvvati  $R_{sn}$ , aylanishlar chastotasi  $n$ , burovchi momenti  $M_{sn}$  va quvvatning maksimal qiymatidagi tok  $I_{sn}$ . Startor juda qisqa vaqt davomida (10-15 s) ishlaganligi tufayli uning zanjirlaridan o'tadigan tok va maksimal quvvati uning elektrodvigateli chulg'amlarining qizib ketish xavfi bilan cheklanmaydi. Tortish relesi yuritma shesternasi 6 ni maxovikning tishli gardishi 7 bilan ilashishini ta'minlaydi va lappaksimon kontakt yordamida startor elektrodvigel zanjirini akkumulatorlar batareyasiga ulaydi. Yuritma mexanizmi dvigatelni ishga tushirish jarayonida startor elektrodvigateli yakoridan tirsakli valga burovchi momentni uzatish va dvigatel ishga tushgandan keyin maxovikdan elektrodvigel yakoriga, ya'ni teskari yo'nalishda aylanma harakat uzatilishiga yo'l qo'ymaslik vazifasini bajaradi. Dvigatelni ishga tushirish sistemasi quyidagicha ishlaydi. O't oldirish kalitidagi normal ochiq kontaktlar "K" tutashtirilganda, tortish relesi chulg'amidan tok o'tadi va rele elektromagnitining tortish kuchi ta'sirida o'zak chulg'am ichiga tortiladi. Bu bilan bir vaqtda o'zak o'qi bilan bog'langan pishang yuritma mexanizmi shesternasi yakor vali bo'ylab harakatlantirib maxovikning tishli gardishi bilan ilashtiradi. Startor shesternasi maxovikning tishli gardishi bilan to'la ilashishi daqiqasida elektromagnit o'zak o'qining ikkinchi uchida joylashgan relening lappaksimon kontakti elektrdvigatel zanjirini akkumulatorlar batareyasiga ulaydi. Elektrodvigel ishga tushadi va dvigatel tirsakli valini aylantira boshlaydi. Dvigatel ishga tushgandan so'ng "K" kontakt o'zining oldingi, ya'ni normal ochiq holiga keltiriladi va tortish relesi chulg'amining zanjiri uziladi, natijada qaytarish prujinasi ta'sirida elektromagnit o'zagi o'zining dastlabki holatiga qaytadi. Bunda tortish



relesining lappaksimon kontakti startor elektrodvigateli zanjirini akkumulatordan uzadi va pishang ning harakati natijasida yuritma mexanizmining shesternasi maxovikning tishli gardishi bilan ilashishdan chiqadi va o‘zining oldingi holatiga qaytadi.

Atrof muhit harorati  $30^{\circ}\text{C}$  dan past bo‘lgan hollarda dvigatel ishga tushishini yengillatuvchi moslamalar qo‘llaniladi. Yengillatuvchi vositalar tirsakli valning aylanishga qarshilik momentini kamaytirish hisobiga uning aylanish chastotasini oshirish, yonilgi-havo aralashmasini tayyorlash va o‘t oldirish sharoitlarini yaxshilash vazifasini bajarishga mo‘ljallangan moslamalardan iboratdir. Ishga tushirishni yengillatuvchi usul va moslamalarni tanlash dvigatel turiga, uning tuzilishidagi o‘ziga xos tomonlariga, ishlatish sharoitlariga va iqtisodiy omillarga bog‘liq.

Dvigatelni ishonchli ravishda ishga tushirish uchun zarur bo‘ladigan startorning quvvati asosan ikki omilga bog‘liq: dvigatel tirsakli valining aylanishga qarshilik momenti  $M_q$  va dvigatelning ishga tushirish aylanish chastotasi  $n_{it}$  ga, ya’ni

$$P = \frac{M_q \cdot n_{it}}{9550} .$$

Qarshilik momenti  $M_q$  kattaligi dvigatel qismlari orasidagi ishqalanish kuchi (porshenlarni silindrlarda, tirsakli valni podshipniklarda) va silindrlarda havoni siqilishiga bo‘lgan qarshilik (dizel dvigatellarida) qiymatlari bilan belgilanadi.

Dvigatelning harakatlanuvchi qismlari orasida suyuqlikli ishqalanish bo‘lganligi va ishqalanuvchi qismlar orasi yupqa moy qatlami bilan ajralib turganligi sababli, ishqalanish qarshiligining qiymati ko‘p darajada motor moyining temperaturasiga ( $t^{\circ}\text{C}$ ) va uning qovushqoqligiga ( $\nu$ ,  $sSt$ ) bog‘liq. Moy harorati pasayishi bilan qovushqoqligi keskin ortadi va demak, dvigatelning qarshilik momenti ham oshadi. Dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi oshishi bilan ishqalanuvchi yuzalar orasidagi yupqa moy qatlamlaridagi tezlik gradientining o‘sishi, silindrdagi bosimning ortishi va podshipniklarga tushayotgan yuklamaning kuchayishi tufayli qarshilik momenti (ayniqsa past temperaturalarda) sezilarli darajada ortadi.

Muayyan turdagi dvigatelning qarshilik momentini eksperimental va hisoblash yo‘li bilan aniqlash mumkin. Eksperimental usul uzoq vaqt va mashaqqatli mehnat, bir qator murakkab tajribalar o‘tkazilishini talab qiladi. Turli xil dvigatellarning qarshilik momentini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan ko‘p sonli ilmiy tajribalardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va ishlab chiqish natijasida qarshilik momentini analitik usul bilan hisoblash uchun bir qator empirik ifodalar olinib, ular umumiy holda quyidagi ko‘rinishga ega.

$$M_q = k \cdot A \cdot \nu^x \cdot n_d^y .$$

Bunda  $k$  - doimiy koeffitsient;  $A$  - ishqalanish yuzalarini ifodalovchi kattalik;  $\nu$  - moyning qovushqoqligi;  $n_d$  - tirsakli valning aylanish chastotasi;  $x$  va  $y$  - dvigatel turiga bog‘liq bo‘lgan daraja ko‘rsatkichlari.

Startor dvigatelni ishga tushirish vaqtida, ya’ni tirsakli valni majburiy ravishda aylantirish jarayonida quyidagi qarshiliklarni yengishi zarur. Avvalo, startor dvigatel va uning qo‘shimcha mexanizmlaridagi harakatlanuvchi qismlarning ishqalanish

kuchlari ta'sirida vujudga kelgan momentlarini yengishi kerak. Ayniqsa, past temperaturada moyning qovushqoqligi ortib, dvigatel qismlarining ishqalanish qarshiligi kuchayganda, bu momentning qiymati ancha katta bo'ladi.

Ishga tushirish vaqtida startor dvigatelning aylanuvchi qismlarini va asosan uning maxovigi inersiyasini yengishi kerak. Bundan tashqari, silindrlarda ishchi aralashmani siqishdan hosil bo'ladigan moment ham hisobga olinmog'i zarur. Demak, tirsakli valni majburiy ravishda aylantirish uchun startor ancha katta burovchi momentga ega bo'lishi kerak. Bu momentning qiymati, albatta, dvigatelning turiga, ishchi hajmi va silindrlar soniga bevosita bog'liq.

Dvigatelni ishonchli ravishda ishga tushishi uchun tirsakli valni aylantirish chastotasi ma'lum belgilangan eng kichik qiymatdan kam bo'lmasligi kerak. Benzinli dvigatelni 10 s, dizel dvigatelni 15 s davomida, ikki urinishda (urinishlar oraligidagi vaqt - 1 minut) ishga tushib ketishini ta'minlovchi aylanish chastotasi dvigatelning minimal ishga tushish aylanish chastotasi deb ataladi. Uning qiymati dvigatelning silindrlar soniga, ularning joylashishiga, temperaturaga, moyning qovushqoqligiga, yonilg'i sifatiga bog'liq.

Benzinli dvigatelning tirsakli vali minimal ishga tushish chastotasi bilan aylantirilganda, kiritish quvurida zarur siyraklanish hosil qilinishi va yonilg'i-havo aralashmasini kondensatsiya bo'lmasdan, yetarli tezlik bilan yonish kamerasiga kirishi ta'minlanadi. Benzinli dvigatellar uchun ishga tushirish chastotasining minimal qiymati 40-60 ayl/min ni tashkil qiladi.

Dizel dvigatellarida ishga tushirish chastotasi yuqoriroq bo'ladi, chunki silindrga purkalanadigan yonilg'i o'z-o'zidan o't olishi uchun siqish taktining oxirida havoning temperaturasi yetarli darajada ( $600-700^{\circ}\text{C}$ ) katta bo'lishi zarur. Dvigatelni muvaffaqiyatli ishga tushirish uchun havoni siqish jarayoni tez sodir bo'lishi kerak. Aks holda, havoning siqilishi natijasida ajralgan issiqlikning ko'p qismi silindr devorlari orqali sovitish suyuqligiga (yoki havoga) o'tib ketadi va siqilish takti oxirida havoning temperaturasi zarur qiymatga erishmaydi. Bundan tashqari, ishga tushish chastotasi yonilg'i so'rg'ichning (nasosning) me'yorida ishlashini ta'minlab, yonilg'ini purkash uchun zarur bosim hosil qilishi kerak.

Yonilg'i bevosita yonish kamerasiga purkalanadigan dizel dvigatellarida ishga tushish chastotasining minimal qiymati 100-150 ayl/min, ajratilgan yonish kamerasiga (old kamera, uyurmali kamera va hokazo) ega bo'lgan dizel dvigatellarida esa 150-250 ayl/min oralig'ida qabul qilingan. Dvigatelni ishonchli ishga tushirish mumkin bo'lgandagi atrof muhitning eng past harorati, ishonchli ishga tushirishning chegaraviy temperaturasi deb ataladi. Chegaraviy temperaturaning qiymati benzinli dvigatellar uchun moyning qovushqoqligiga qarab  $20\dots 25^{\circ}\text{C}$ , dizel dvigatellari uchun esa  $12\dots 17^{\circ}\text{C}$  ni tashkil qiladi. Harorat bundan ham pasaysa, dvigatelni ishga tushirishni yengillatuvchi maxsus moslamalar qo'llaniladi

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goering C.E., Stone M.L., Smith D.W., Tumquist P.K. OfT road vehicle engineering principles. ASAE, 2006.
2. Xudoyberdiyev T.S. Traktor va avtomobillar (Ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi

- va ishlashi). T. “Barkamol fayz media”, 2018.
3. Salixov I.S. Traktor va avtomobillar. T. Cho'lpon, 2012.
5. Kornilov A.I. Traktor va avtomobillar nazariyasi asoslari. T. 2019
6. Maxmudov G., Xoshimov D. Avtomobillarning elektr va elektron jixozlari. T. 2003.
7. Baratov R.J. “Raqamli texnika asoslari va raqamli sistemalar” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent, TIQXMMI, 2020. -200 b.
8. Aripov X.K. va boshqalar “Elektronika” O.F.M.J.T. 2012 e.400b.
11. Fraiden Dzh. Handbook of “Modem sensors”, Sovremennie datchiki.2004, New-York, 470 p.
12. N.R.Yusupbekov va boshqalar Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish. T.2011, 576 b.

## **KONTAKTLI O‘T OLDIRISH TIZIMI**

**Хожиев Ойбек Одинаевич**

*Buxoro muhandislik –texnologiya instituti*

(+99890-710-79-50)

Avtomobil transporti taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida ishlab chiqilgan avtomobillarda, o‘t oldirish tizimining tok manbai vazifasini faqat akkumulatorlar batareyasi bajargan. Keyinchalik akkumulator bilan parallel ravishda generator ham ishlatila boshlandi. Lekin hozirgi kungacha "batareyali o‘t oldirish tizimi" degan atama keng ishlatilmoqda. Bu 50 yildan ortiq vaqt mobaynida avtomobillarda qo‘llanilgan yagona o‘t oldirish tizimi bo‘lib keldi va kelgusida yaratilgan yangi, takomillashgan o‘t oldirish tizimlarga asos bo‘ldi. Natijada, bu tizim "klassik o‘t oldirish tizimi" deb ham atala boshlandi. Oxirgi vaqtlarda, yarim o‘tkazgichlar qo‘llanilgan turli xil o‘t oldirish tizimlari paydo bo‘lishi munosabati bilan batareyali (yoki klassik) o‘t oldirish tizimi tuzilishining o‘ziga xos tomonlarini eng to‘la aks ettiradigan "kontaktli o‘t oldirish tizimi" atamasi tobora ko‘proq ishlatilmoqda.

Kontaktli o‘t oldirish tizimining prinsipial sxemasi 3.5-rasmda keltirilgan va u quyidagi asosiy elementlardan iborat: akkumulatorlar batareyasi 1, o‘t oldirish kaliti 2, o‘t oldirish g‘altagi 5, bir o‘qqa o‘tkazilgan uzgich-taqsimlagich 6-12, kondensator 14 va o‘t oldirish shamlari 13.

O‘t oldirish g‘altagi tok manbaining past kuchlanishini yuqori kuchlanishga aylantirib berish uchun xizmat qiladi va u o‘zakka o‘ralgan ikkita chulg‘amdan iborat. Birlamchi chulg‘am o‘ramlar soni kichik bo‘lib, u nisbatan yo‘g‘on simdan, ikkilamchi chulg‘am o‘ramlar soni, aksincha juda katta bo‘lib u ingichka simdan o‘raladi. O‘t oldirish g‘altak chulg‘amlari avtotransformator sxemasi bo‘yicha ulangan, ya’ni birlamchi chulg‘amning oxiri ikkilamchi chulg‘amning boshiga tutashtirilgan.


Klassik o‘t oldirish tizimidagi uzgich - aylanuvchi kulachok 9, pishangchaga o‘rnatilgan qo‘zg‘aluvchi 7 va massaga ulangan qo‘zg‘almas kontakt 8 lardan iborat mexanik moslamadir. Uzgich kulachoklari qirralarining soni dvigatel silindrlari

soniga teng. Pishangcha o'z o'qi atrofida harakatlana oladi va u, uzgich kulachoklari qirralariga qadalib turadigan tekstolit yostiqlar bilan ta'minlangan. Uzgich kulachogi aylanib, kontaktlarni navbatma-navbat uzib-tutashtirib turadi.

Taqsimlagich aylanuvchi rotor 11, taqsimlagich qopqog'iga o'rnatilgan qo'zg'almas yon kontaktlar 12 va markaziy elektroddan iborat. Yon kontaktlar silindrlar soniga teng bo'lib, ular yuqori voltli o'tkazgichlar yordamida taalluqli o't oldirish shamlari bilan tutashtirilgan. Taqsimlagichning markaziy elektrodi yuqori voltli o'tkazgich vositasida o't oldirish g'altagining ikkilamchi chulg'ami bilan ulangan. Yuqori kuchlanish rotorga markaziy elektrod orqali sirpanuvchi ko'mir kontakt yordamida uzatiladi. Uzgich kulachogi 9 va taqsimlagich rotor 11 bir valga o'rnatilgan bo'lib, harakatni tishli uzatma orqali dvigatelning gaz taqsimlash validan oladi va demak, tirsakli valga nisbatan ikki marta kichik tezlik bilan aylanadi.

**Kontaktli o't oldirish tizimining ishlash prinsipi.** O't oldirish kaliti 2 ulanganda, tok akkumulatorlar batareyasi 1 ning musbat qutbi, o't oldirish kaliti 2, qo'shimcha qarshilik 4, o't oldirish g'altag 5 ining birlamchi chulg'ami va uzgich kontaktlari 7, 8 (ular tutash bo'lganda) orqali massaga o'tadi va massadan batareyaning manfiy qutbiga qaytib keladi. Birlamchi chulg'amdan o'tayotgan tok uning atrofida magnit maydon hosil qiladi. Maydon kuch chiziqlari o't oldirish g'altagining har ikkala chulg'amini kesib o'tadi va g'altak o'zagi orqali tutashadi. Aylanayotgan kulachok kontaktlarni uzganda, birlamchi chulg'amdan o'tayotgan tok zanjiri uziladi va natijada u hosil qilgan magnit maydon katta tezlik bilan yo'qola boshlaydi. Yo'qolib borayotgan magnit maydon har ikkala chulg'amda o'zinduksiya EYUK hosil qiladi va elektromagnit induksiya qonuniga asosan uning kattaligi magnit maydonning yo'qolish tezligiga va chulg'amlardagi o'ramlar soniga to'g'ri proporsional bo'ladi. Natijada, o'ramlar soni juda ko'p bo'lgan ikkilamchi chulg'amda, o't oldirish shami elektrodlari orasidagi tirqishni teshib o'tishga yetarli bo'lgan, 15000-20000 V kuchlanish induksiyanlanadi va taqsimlagich rotor 11 orqali o't oldirilishi lozim bo'lgan navbatdagi silindrdagi sharga uzatiladi. Yuqori kuchlanishli tok sham elektrodlari orasidagi tirqishdan uchqun sifatida o'tib, massa, akkumulatorlar batareyasi va qo'shimcha qarshilik orqali o't oldirish g'altagiga qaytib keladi.

Kontaktlar uzilganda, birlamchi chulg'amda ham kattaligi 200-400 V ga etadigan, yo'nalishi birlamchi tok yo'nalishida bo'lgan va uning yo'qolishiga qarshilik ko'rsatadigan o'zinduksiya EYUKi hosil bo'ladi. Bu EYUKi, uzgich kontaktlari uzilganda, ular orasida kuchli elektr yoyini hosil qilib kontaktlarning kuyishiga va ularning juda tez ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Bu zararli jarayonning oldini olish uchun uzgich kontaktlariga parallel ravishda kondensator 14 ulanadi. Bu holda birlamchi



1-rasm. Kontaktli o't oldirish tizimining umumiy sxemasi

chulgʻamda hosil boʻlgan oʻzinduksiya EYUK kondensator 14 ni zaryadlaydigan tok hosil qiladi. Keyingi davrda kondensator oʻt oldirish gʻaltaging birlamchi chulgʻami, qoʻshimcha qarshilik 4 va akkumulatorlar batareyasi 1 orqali, yaʼni birlamchi tok yoʻnalishiga qarama-qarshi yoʻnalishda razryadlanadi. Shunday qilib, uzgich kontaktlariga parallel ulangan kondensator, birinchidan kontaktlar orasida uchqun hosil boʻlishini deyarli bartaraf qilib, kontaktlar ishlash muddatini oshirsa, ikkinchidan birlamchi zanjirdagi tokni va demak, magnit maydonni yoʻqolishini tezlatish hisobiga ikkilamchi chulgʻamda induksiyanadigan yuqori kuchlanishni maʼlum darajada orttirishga yordam beradi.

Qoʻshimcha qarshilik 4 dvigatelni ishga tushirish vaqtida oʻt oldirish tizimining meʼyorida ishlashini taʼminlash uchun xizmat qiladi. Bizga maʼlumki, startor ulanganda (ayniqsa, qishda) akkumulatorlar batareyasining kuchlanishi belgilangan chegarada, keskin kamayadi. Natijada, akkumulatorlardan tok isteʼmol qiluvchi oʻt oldirish gʻaltagida induksiyanadigan yuqori kuchlanish qiymati ham kamayib ketadi va bu silindrlardagi ishchi aralashmani oʻt oldirishda uzilishlarga olib kelishi mumkin. Bu hodisani bartaraf qilish maqsadida startor ulanishi bilan bir vaqtda oʻt oldirish kaliti yoki startor relesiga oʻrnatilgan qoʻshimcha kontaktlar 3 ulanib, qarshilik 4 qisqa tutashtiriladi. Shu tarzda, dvigatel startor yordamida ishga tushirilayotgan vaqtda, tok akkumulatorlardan oʻt oldirish gʻaltaging birlamchi chulgʻamiga qoʻshimcha qarshilik 4 orqali emas, balki qoʻshimcha kontaktlar orqali oʻtadi. Bu esa oʻt oldirish gʻaltagida talab qilingan darajada yuqori kuchlanish induksiyanishini va oʻt oldirish tizimi-ning startor ulangan vaqtda ham ishonchli ishlashini taʼminlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Goering C.E., Stone M.L., Smith D.W., Tumquist P.K. OfT road vehicle engineering principles. ASAE, 2006.
2. Xudoyberdiyev T.S. Traktor va avtomobillar (Ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi va ishlashi). T. “Barkamol fayz media”, 2018.
3. Salixov I.S. Traktor va avtomobillar. T. Choʻlpon, 2012.
5. Kornilov A.I. Traktor va avtomobillar nazariyasi asoslari. T. 2019
6. Maxmudov G., Xoshimov D. Avtomobillarning elektr va elektron jixozlari. T. 2003.
7. Baratov R.J. “Raqamli texnika asoslari va raqamli sistemalar” fanidan oʻquv qoʻllanma. Toshkent, TIQXMMI, 2020. -200 b.
8. Aripov X.K. va boshqalar “Elektronika” O.F.M.J.T. 2012 e.400b.
11. Fraiden Dzh. Handbook of “Modem sensors”, Sovremennie datchiki.2004, New-York, 470 p.
12. N.R.Yusupbekov va boshqalar Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish. T.2011, 576 b.

#### **КОНСТРУИРОВАНИЕ ПОВЕРХНОСТЕЙ ПЛАСТИН СЛОЖНОГО**

## ОЧЕРТАНИЯ

Доцент кафедры Основы механики Мурадов Шухрат Мустафаевич,  
доцент кафедры инженерной графики Юнус Ахмедов,  
студент группы 522-23\_СКТ (водоснабжения) Аллаев Х.,  
студент группы 506-21\_Бик (строительства здания и  
сооружения) Явкочев Р.

Актуальность настоящего тезиса заключается в том, что исследования на совершенствования проектных решений в области эффективных пространственных покрытий. Результаты исследований позволяют получить экономичных решения как для уникальных покрытий, так и для покрытий массового применения. Разработка методов геометрического моделирования начальных поверхностей оболочек, покрывающих планы сложного очертания, а также изогнутых поверхностей таких оболочек и пластин; исследование несущей способности и оптимального проектирования оболочек и пластин сложной формы.

В настоящей тезисе рассматривается конструирование изогнутых поверхностей пластин, имеющих сложное очертание, с использованием  $R$ -функции, а также расчет несущей способности таких оболочек.

Расчеты несущей способности плит обычно проводят кинематическим методом теории предельного равновесия.

Методика расчета основана на следующих исходных допущениях:

- рассматривается геометрически линейная постановка задачи, т.е. деформации считаются настолько малыми, что ими можно пренебречь, по сравнению с первоначальными размерами;

- материал конструкции обладает хорошо выраженными пластическими свойствами, они с определенной степенью точности представляются идеальным упругопластическим или жесткопластическим материалом.

В общем случае условие пластичности плиты задаётся выражением.

$$F(M_x, M_y, M_{xy}) \leq k \quad (1)$$

где,  $k$  – константа, связанная с физическими свойствами материала и размерами сечений;  $M_x$ , и  $M_y$  – изгибающие моменты;  $M_{xy}$  – крутящий момент.

При достижении внешней нагрузкой предельного значения плита превращается в механизм с одной степенью свободы, на возможных перемещениях которого внутренние усилия  $M_x, M_y, M_{xy}$  могут совершить работу  $T$ .

В каждом элементе плиты

$$dT = (M_x \mathcal{H}_x + M_y \mathcal{H}_y + M_{xy} \mathcal{H}_{xy}) dx dy \quad (2)$$

здесь:  $\mathcal{H}_x, \mathcal{H}_y, \mathcal{H}_{xy}$  – искривления плоскости плиты, равные

$$\mathcal{H}_x = \frac{\partial^2 w}{\partial x^2}; \quad \mathcal{H}_y = \frac{\partial^2 w}{\partial y^2}; \quad \mathcal{H}_{xy} = \frac{\partial^2 w}{\partial x \partial y}; \quad (3)$$

где  $w(x, y)$  – функция, описывающая поле прогибов плиты.

Определяя величину работы внутренних сил во всем поле, просуммируем

элементарные виртуальные работы (2).

$$T = \int_{\Pi} dT \quad (4)$$

где,  $\Pi$  – площадь плиты.

Пусть плита находится под воздействием нагрузки, распределенной по поверхности по произвольному закону  $q(x, y)$ . Тогда нагрузка может быть представлена произведением

$$q(x; y) = q_0 \eta(x, y)$$

где,  $q_0$ -параметр;  $\eta(x, y)$ -конфигурации нагрузки.

Нагрузки, приходящуюся на бесконечно малый элемент  $d\Pi = dx dy$ , считаем постоянной в пределах элемента и находим виртуальную работу внешней нагрузки:

$$\vartheta = q_0 \int_{\Pi} r(x, y) w(x, y) dx dy \quad (5)$$

По принципу возможных перемещений условие равновесия заключается в равенстве нулю суммы виртуальных работ. Приравнивая правые части (4) и (5), получим

$$q_0 \left( \int_{\Pi} (M_x \mathcal{H}_x + M_y \mathcal{H}_y + M_{xy} \mathcal{H}_{xy}) dx dy \right) * \left( \int_{\Pi} \eta(x, y) w(x, y) dx dy \right)^{-1} \quad (6)$$

Среди нагрузок (6) истинная-наименьшая.

Задача состоит в отыскании поля прогибов  $w(x, y)$ , минимизирующего функционал (6). Чтобы решить описанную задачу, воспользуемся сеточной дискретизацией. Для этого область занятая плитой была покрыта прямоугольной сеткой, имеющей  $n$  ячеек в каждом направлении. Все характеристики, описывающие свойства плиты и нагрузку-толщина, верхнее и нижнее армирование в двух направлениях, прочность бетона и другие, могут быть представлены значениями, отнесенными к каждому узлу сеточной области.

После введения сеточной дискретизации взамен функционала (6) получаем функцию, независимыми переменными которой являются узловые прогибы  $w_{ij}$ . Если обозначить

$$K = q_0 \mathfrak{S}^{-1} = n^2 q_0 B_o; \quad A_o = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n F_{ij}; \quad B_o = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n \eta_{ij} w_{ij}$$

где,  $\mathfrak{S}$ -предел текучести стальной арматуры;  $q$ -интенсивность нагрузки в узле сетки, совпадающим с началом координат.

Из (6) получим

$$K^* = n^2 \min(A_0 B_0^{-1}) \quad (7)$$

Тогда задача о несущей способности плит сводится к варьированию значений  $w > 0$ , удовлетворяющих условиям закрепления. Поэтому в тезисе описаны требования, предъявляемые к изогнутым поверхностям.

Выводы. На основе метода логических  $R$ -функций предложена методика конструирования срединных поверхностей оболочек сложного очертания, в том числе оболочек с плоским контуром. Методика предназначена для проектирования эффективных пространственных покрытий.

Для расчета несущей способности пластин и оболочек сложного очертания разработан метод формирования их изогнутых поверхностей с помощью логических  $R$ -функций. Метод предназначен для использования в расчетах несущей способности таких конструкций кинематическим методом теории предельного равновесия.

## ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИДА ПАСТ ЧАСТОТАЛИ ЭЛЕКТРО МАГНИТ МАЙДОНИ ҚЎЛЛАШ ОҚИБАТЛАРИ.

С.А.Буронов, Н. У Самадова

*Бухоро мухандислик технология институти, Ўзбекистон Республикаси*

Бир қатор кимёвий ва биокимёвий реакцияларни тезлаштириш ёки секинлаштириш учун паст частотали электромагнит майдондан фойдаланиш хусусиятлари ўрганилган. Ўсимликлар уруғининг униб чиқиши ва униб чиқишига кам энергия таъсирини қўллашнинг илмий жиҳатларини кўриб чиқиш муҳим ўрин тутди. Электромагнит тўлқинларни суяқ ва қаттиқ муҳит билан ютиш шартларига, хом ашё таркибидаги мумкин бўлган ўзгаришларни ўрганишга олиб келади.

Ўта паст частотали диапазоннинг паст частотали тўлқинлари мевасабзавот, гўшт, балиқ ва сут хомашёсининг физик-кимёвий ва биокимёвий хусусиятларига таъсир қилиш усуллари таҳлил қилинган. Ўз тадқиқотлари натижаларидан фойдаланган ҳолда консерва саноати, виночилик, қанд лавлаги ишлаб чиқариш, гўшт ва балиқ саноатидаги технологик жараёнларни такомиллаштириш бўйича янги техник ечимларни таклиф қилишмоқда. Хулоса сифатида хавфсизлик масалалари қисқача муҳокама қилинади ва озиқ-овқат саноатида паст частотали электромагнит майдондан фойдаланиш истиқболлари тавсифланади. [16]

Ҳозиргача паст частотали магнит майдоннинг биологик объектларга таъсир қилишининг ишончли назарияси мавжуд эмас. Ўтказилган тадқиқотларнинг аксарияти магнит майдоннинг маълум параметрларга эга бўлган таъсирини турли биологик объектларнинг ҳаётий фаолиятининг индивидуал кўрсаткичларига ўрганишга бағишланган. Олдиндан олинган маълумотларга асосланиб, ушбу қурилма паст частотали магнит майдоннинг биосистемаларга таъсирини ўрганишга ҳаракат қилади.



Ресурсларни тежайдиган технологияларни излаш замонавий озиқ-овқат саноати олдида турган долзарб вазифалардан биридир. Замонавий физика, кимё, радиоэлектроника ва биология ютуқларини ишлаб чиқаришга жорий этиш энергия сарфини сезиларли даражада камайтириши ва шунга мос равишда ишлаб чиқарилаётган маҳсулот таннархини пасайтириши мумкин.

Биологик тизимлар ҳам ўсимлик, ҳам ҳайвонот манбаларидан келиб чиққан ҳолда доимо электромагнит майдоннинг табиий ва сунъий манбалари таъсирида бўлиб, эволюция жараёнида улар электромагнит майдон билан ўзаро таъсир қилиш орқали атроф-муҳит ҳолати тўғрисида маълумотни қабул қилиш механизмларини ишлаб чиқдилар.

Табиий нурланиш манбаларига қуёш, Қуёш тизими сайёралари ва бошқа космик объектлар киради. 100-300 Гц частоталарда Ер юзи яқинида безовталанмаган Қуёшнинг нурланиши  $2 \text{ W } 10^{-6} \text{ Вт / м}^2$  га тенг ва -30% гача ўзгариши мумкин.

Электромагнит майдоннинг (ЭММ) сунъий манбаларининг кучи табиий манбалар томонидан яратилган фондан сезиларли даражада ошиб кетиши мумкин.

Электромагнит майдоннинг (ЭММ) биосистемаларга таъсири амалда биринчи ЭММ генераторлари пайдо бўлганидан бери ўрганилмоқда. Ҳозирги вақтда ЭММ сезиларли кескинликдаги биологик тизимларга таъсири (биосистемаларда иссиқлик таъсирига олиб келади) жуда тўлиқ ўрганилган, паст интенсивли майдонларнинг (термик бўлмаган табиатнинг) заиф таъсири ҳали етарлича ўрганилмаган. [87]

Заиф таъсирларни ўрганишда объектларнинг миқдорий хусусиятларини тавсифлаш билан боғлиқ анъанавий ёндашув асосий ва енгиб бўлмайдиган қийинчиликларга дуч келади. Ушбу соҳада таъсирнинг миқдорий хусусиятлари муҳим рол ўйнайди (масалан, мувофиқлик ёки қандайдир тартиблилик).

Бундан ташқари, биринчи турдаги таъсир остида биологик объектлар, қоида тариқасида, ушбу таъсирни қоплашга ёрдам берадиган муодофаа механизмларини ишга туширадилар, аммо заиф таъсирларда, одатда, бу кузатилмайди.

Ионлаштирмайдиган электромагнит нурланиш диапазони 10<sup>4</sup> дан 10<sup>15</sup> Гц гача кенг бўлганлиги сабабли, ЭММ спектрининг алоҳида қисмларининг таъсири жуда яхши ўрганилмаган бўлиб қолмоқда.

Электромагнетик соҳанинг сабзавот маҳсулотларига таъсирининг назарий асослари.

Электромагнит майдоннинг ўсимликлардан келиб чиққан хом ашёларга таъсирининг замонавий асосларини яратишда муҳим омиллардан бири бу динамик ўзгарувчан тизим сифатида хом ашёга илмий асосланган ёндошувлар, маҳсулот сифатига ҳал қилувчи таъсир кўрсатадиган биокимёвий жараёнлар табиати.

Хом ашё ва ярим тайёр маҳсулотларга таъсир кўрсатишнинг физик усуллари ҳозирги пайтда энг истиқболли ҳисобланади, чунки улар хавфсиз маҳсулотларни олиш учун хом ашёни қайта ишлаш технологияларини ишлаб

чиқишда илгари этарлича баҳоланмаган. Сўнгги 20 йил ичида биофизика ва биология соҳасида паст интенсивликдаги электромагнит майдоннинг биологик объектлар ва сувга таъсирини тушунишда сифатли сакраш бўлди. электромагнит майдоннинг (ЭММ) ўта паст частоталар (ЭЛФ) (3-30 Ҳз) диапазони катта қизиқиш уйғотмоқда. Консервалаш, қанд лавлаги, вино ишлаб чиқариш, хамиртуруш биотехнологияси ва қишлоқ хўжалигида ЭЛФ ЭМФ дастурини амалга ошириш бўйича олиб борилаётган ишлар унинг истиқболли имкониятларидан далолат беради.

Шу сабабли, технологик жараён давомида ЭЛФ ЭМФ таъсири остида ўсимлик хом ашё таркибий қисмларининг ўзгариши ва янги энергия тежовчи технологияларни ишлаб чиқиш бўйича янги билимлар тизимини яратиш агросаноат мажмуаси замонавий ривожланиш босқичининг энг муҳим муаммоси ҳисобланади.

ЭЛФ ЭМФ дан фойдаланишга асосланган технологиянинг энг муҳим афзалликларидан бири бу консервантлар, пломба моддалари, ароматик моддалар ва бошқа қўшимчаларнинг йўқлиги.

Ушбу монографияни нашр этишдан мақсад шакарни лавлаги ва консервалаш саноатида, шароб, пиво, коньякни паст частотали электромагнит майдон билан қайта ишлашда янги физик усулларни сифат жиҳатидан яхшилаш ва ресурсларни тежаш технологиясини яратиш учун илмий асослаш, ишлаб чиқиш ва жорий этишдир.

Ушбу мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифалар ҳал қилинди:

буғдой, арпа, кунгабоқар ва қанд лавлаги уруғларининг ўсишига ўта паст частотали электромагнит майдон таъсирининг қонунийлигини ўрнатиш;

ўта паст частотали электромагнит майдоннинг ўсимлик хом ашёси, оралик маҳсулотлар ва тайёр маҳсулотларнинг реологик ва биокимёвий хусусиятларига таъсирини ўрганиш;

ўта паст частотали электромагнит майдон таъсирида микробиологик ферментатсия жараёнларининг қонуниятларини ўрганиш;

хомашё ва ярим тайёр маҳсулотларнинг электромагнит майдони билан ишланган ўта паст частоталардан олинган материалларнинг физик-кимёвий кўрсаткичлари ва хусусиятларининг ўзгариш хусусиятини аниқлаш;

жуда паст частотали электромагнит майдон таъсирида хамиртуруш хусусиятларининг физикавий ва кимёвий кўрсаткичларининг ўзгаришини текшириш;

ўта паст частотали электромагнит майдони бўлган маҳсулотларни қайта ишлаш усулини илмий асослаш ва ишлаб чиқиш;

Кўп йиллик тадқиқотлар натижалари асосида ЭЛФ, ЭМФ ёрдамида қанд лавлаги ишлаб чиқаришни интенсивлаштириш, винолар, ичимликлар ишлаб чиқариш технологияси таклиф қилинган ва ишлаб чиқаришнинг турли босқичларида тажриба асосида синовдан ўтган. Шу билан бирга, қуйидагилар ўрнатилди: - электромагнит майдон томонидан озиқ-овқат маҳсулотларининг ўта паст частоталарини қайта ишлаш режимлари: частота, майдон кучлилиги, таъсир қилиш муддати;

- қишлоқ хўжалиги экинлари уруғларининг ўта паст частотали электромагнит майдон билан ишлов бериш усуллари: частотаси, майдон кучлилиги, таъсир қилиш муддати

### Фойдаланилган адабийотлар

1. Gulyaev R.A., Sulstonov A.A., Ismoyilov H.B. Comprehensive hardware and software approach to digitalization of agricultural industry/ Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. December 2021. Issue № 12, Vol.9, pp. 512-518
2. Исмойилов Хаёт Баротович Стили сайтов в веб-дизайне // Современные материалы, техника и технологии. 2018. №2 (17). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/stili-saytov-v-veb-dizayne> (дата обращения: 15.04.2024).
3. Определены приоритеты цифровизации апк [Электронный ресурс]. [https://www.norma.uz/novoe\\_v\\_zakonodatelstve/opredeleny\\_prioritety\\_cifrovizacii\\_apk](https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/opredeleny_prioritety_cifrovizacii_apk)
Detalni cho'ktirish kuchi detal materialining oqish chegarasiga, detalning deformatsiyalanayotgan yuzasi (A)ga, va diametri (d)ning uzunligi (h)ga nisbatiga bog'liq.

Detal deformatsiyalanganda, uning hajmini 'zzgarmaslik shartidan cho'ktirib tiklangan detal diametri: tashki diametr kattalashtirilganda

$$d_2 = d \sqrt{\frac{h}{h_r}} \quad (2)$$

tekshik diametri kichraytirilganda

$$d_2 = d \sqrt{\frac{h_r}{h}} \quad (3)$$

Cho'ktirish kuchi F ta'sirida detalning ustki va ostki yon yuzalari hamda ezuvchi moslama tyuzalari o'rtasida katta ishqalanish kuchi mavjud bo'lganligi uchun detal bir xil deformatsiyalanmaydi. Natijada detal tanasida qo'shimcha kuchlanishlar xosil bo'lib, yuzada buylama yiriklar vujudga kelishiga sabab bulishi mumkin.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sh. U. Yo'ldashev. Mashinalar ishonchliligi va ularni ta'mirlash asoslari. Uzbekiston, 1994, 480 bet.



2. U. Ikromov, A. Ergashev va M. Sablikov. Traktorlarni ishlatish va ta'mirlash asoslari. T. Ukituvchi. 1995. 222 bet.

3. M.O. Arbuzov. Yesh remontchi slesar spravochnigi. T. Ukituvchi, 1988,-240 bet.

4. I.Ye. Ulman. Mashinalar remonti. T. Ukituvchi 1979, 476 bet.

5. S. M. Babusenko. Traktor va avtomobillar remonti. T. Ukituvchi, 1990-366 bet.

6. M.I. Худых. Ремонт текстильных машин. М. Legprombytizdat, 1991-288 bet.

7. Gocring C.E., Hansen A.C. Engine and tractor power. 4th edition ASAE, 2008.

## **TEXNIKANI TA'MIRLASH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH SISTEMASI.**

**Ibragimova Dinara Rustam qizi**

*G'ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi*

Texnikani ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish rejali-ogohlantiruvchi sistema detallarning ko'p va erta yopilishi hamda boshqa yemirilishlarning oldini olish, shuningdek mashinalarning butun ishlatish davrida normal texnik holatini va yuqori unumli tejimli ishlashni ta'minlashga xizmat qiladi.

Texnikani ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish sistemasi mashinalarning butun ishlatish davrida zarur texnik holat va ishlay olish xususiyatini ta'minlash hamda tiklashga karatilgan ishlar majmuasini nazarda tutadi. Bu sistema quyidagi asosiy elementlardan iborat: Sinovli ishlatish, har smenada (avtomobillar uchun har kuni) rejali va mavsumiy xizmat ko'rsatish, nazorat ko'rigi, ta'mirlash va saqlash.

*Sinovli ishlatish* — bu yangi yoki ta'mirlangan mashinadan normal ishlatish rejimigacha foydalanish bosqichi bo'lib, u detallar ishchi sirtlarini ko'nikma hosil qilishini ta'minlaydi.

*Har oylik (kunlik), davriy va mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish* — bu mashinalardan foydalanishda qat'iy belgilangan muddatlarda bajariladigan majburiy operatsiyalar bo'lib, agregat va birikmalarni rostlash, mahkamlash, texnik holatni tekshirish, tozalash, yonilg'i kuyish va hokazolardan iborat. Barcha bu operatsiyalar muddatidan oldin yeyilishni, nosozlik va ishlamay qolishlarni oldini olib, mashinalarni ishlash qobiliyatini ta'minlaydi.

*Nazorat ko'rigi* — bu mashinalar xakikiy holatini texnik hujjatlarga mosligini belgilangan muddatlarda tekshirish. Mashinalarni nazorat ko'rigidan ugkazish uchun mashinalar texnik pasporti mavjudligi va to'g'ri tuldirilishi, xaydovchilik xuqo'qini beruvchi guvoxnomasi mavjudligi, mashinaning texnik holati va rakam belgisi berilganligini to'g'ri ro'yxatdan o'tkazilganligini tekshirish uchun har bir tumanda maxsus xay'at tuziladi.

Ishlatishda hamda saqlashda bo'lgan va ro'yxatdan chiqariladigan barcha mashinalar ko'rikdan o'tkaziladi.

*Ta'mirlash* — bu mashina yoki uning agregatlarini soz va ishga yaroqli holatini tiklash va saqlash uchun yo'naltirilgan ishlar majmuasi. Avtomobillar uchun ikki turdagi joriy va kapital ta'mirlash belgilangan.

*Joriy ta'mirlash* — mashina uzul va agregatlaridagi nosozliklar va ba'zi ishlamay qolishlarni bartaraf etishga karatilgan. U rejali texnik xizmat ko'rsatishga kirgan barcha ishlarni, shuningdek mashinalarni qismlarga ajratish va alohida agregat, birikma va detallarni yangisiga yoki ta'mirlanganiga almashtirishdan iborat barcha ishlarni uz ichiga oladi.

*Kapital ta'mirlash* — mashinani va uni barcha agregat va uzellarini to'liq ishlash qobiliyatini tiklash uchun mo'ljallangan. U mashinani butunlay qismlarga ajratish va yig'ish, barcha yeyilgan detallarni (shuningdek tayanch), agregatlari va qismlarini yangi yoki ta'mirlanganiga almashtirish, shuningdek tarkibiy qismlar hamda butun mashinani o'zini chiniqtirish va sinash bilan xarakterlanadi.

*Mashinalarni saqlash* — bu mashinalarni ishlamaydigan davrida ishlash qobiliyatini to'liq saqlashi uchun belgilangan tadbirlar yig'indisi.

Mashinalarni saqlashga kuyishdan oldin chang va islofliklardan tozalanadi va navbatdagi texnik xizmat ko'rsatish o'tkaziladi.

Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish sistemasi har bir elementni bajarish muddati, tartibi va tarkibi qoidalar bilan belgilangan bo'lib, mashinalarni ishlatishda ularga rioya qilish majburiydir.

Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash davriyligi. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash turlari va davriyligi. Avtomobil transportini harakatlanuvchi tarkibini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xakidagi nizomga ko'ra quyidagi turdagi ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish turlari belgilangan: kundalik texnik xizmat ko'rsatish (KXK), birinchi texnik xizmat (1-TXK), ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish (2-TXK), mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish (MXK), joriy ta'mirlash (JT), kapital ta'mirlash (KT) va nazorat ko'rigidan o'tkazish.

*Kundalik xizmat ko'rsatish* avtomobilni yo'lga chiqarishdan oldin va avtomobil ishdan qaytgandan so'ng bajarildi. KXK — avtomobil xavfsiz harakatlanishi, tashki ko'rinishini saqlash, yoqilgi kuyishga yo'naltirilgan umumiy nazorat. Birinchi va ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish ishlatish sharoitini (2-jadval) hisobga olib belgilanadigan, avtomobil ma'lum masofani bosib utgandan keyin bajariladi. 1-TXK va 2-TXKning asosiy vazifasi — avtomobilni soz holatda saqlash va detallar yeyilanishini jadalligini kamaytirishdir.

*Joriy ta'mirlash.* Avtomobillarni joriy ta'mirlash qabul qilingan davriylikdan kat'iy nazar 1-TXK va 2-TXKda zarurat bo'lganda bajariladi. Joriy ta'mirlashda sodir bo'ladigan buzilish va ishlamay qolishlar bartaraf qilinadi. U minimal turi qolishlar bo'lganda kapital ta'mirlashgacha belgilangan yurish me'yorini ta'mirlash imkonini beradi.

*Kapital ta'mirlash* — tabiiy iqlim mintaqalari va ishlatish sharoiti toifasini hisobga olib, avtomobillar kilometrlarda belgilangan yo'l bosish me'yorini o'tgandan so'ng bajariladi. Kapital ta'mirlashda yangi avtomobillar va ularni agregatlari uchun belgilangan me'yoriy yo'l bosishdan kamida 80 % yo'l bosishini ta'minlovchi avtomobilni ishlash qobiliyati tiklanadi.

Yo‘l sharoitiga bog‘liq holda avtomobillarni ishlatish sharoiti uchta toifa bilan aniqlanadi.

*I ishlatish sharoiti toifasi* — bu asfalt-betonli, sement-betonli va ularga tenglashtirilgan qoplamali shahar va uning atrofidagi, shuningdek kichik shaharlar (aholisi 100 ming kishiga bo‘lgan) kuchalari.

*II ishlatish sharoiti toifasi* — bu tog‘lik joilardagi asfaltbetonli, sementbetonli va ularga tenglashtirilgan qoplamali avtomobil iullari, katta shaharlar kuchalari, chakik tosh yoki shag‘al qoplamali, puxtalab tekislangan tuproqli va o‘rmon yo‘llari.

*III ishlatish sharoiti toifasi* — bu tog‘lik joylardagi chaqir tosh yoki shag‘al bilan qoplangan avtomobil yo‘llari, tekislanmagan yo‘llar, karerlar, xavza va vaqtinchalik yo‘llar.

1 va 2-jadvallarda mamlakatning markaziy mintaqalarida II — toifa ishlatish sharoiti uchun avtomobillarni ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish davriyligi keltirilgan.

1 – jadval

***Avtomobil transporti harakatlanuvchi tarkibiga texnik xizmat ko‘rsatish davriyligi.***

<b><i>Harakatlanuvchi tarkib turi</i></b>	<b><i>Texnik xizmat ko‘rsatish davriyligi, km</i></b>	
	<b><i>1 – TXK</i></b>	<b><i>2 – TXK</i></b>
Yengil avtomobillar	2500	10000
Yuk avtomobillari	1700-1800	6800-7200
Shassidagi maxsus yuk avtomobillari	1500	6000
Tirkama va yarim tirkama	1200-1800	4800-7800

2 – jadval

***Avtomobil va uning agregatlarini kapital ta‘mirlashgacha yo‘l bosish me‘yorlari.***

<b><i>Birinchi kapital ta‘mirlashgacha yo‘l bosish me‘yori, 1000 km</i></b>					
<b><i>Avtomobil markasi</i></b>	<b><i>To‘liq avtomobil</i></b>	<b><i>Dvigatel</i></b>	<b><i>Uzatmalar qutisi</i></b>	<b><i>Oldingi ko‘prik</i></b>	<b><i>Orqa ko‘prik</i></b>
<b><i>1</i></b>	<b><i>2</i></b>	<b><i>3</i></b>	<b><i>4</i></b>	<b><i>5</i></b>	<b><i>6</i></b>
Moskvich 408, 427	80/60	80/60	80/60	80/60	80/60
Moskvich 412	100/80	100/80	100/80	100/80	100/80
Moskvich 434	70/55	70/55	70/55	70/55	70/55
Volga GAZ – 24	150/120	150/120	150/120	150/120	150/120
UAZ – 469	140/120	80/60	80/60	80/60	80/60
Avtobuslar: RAF	200/160	100/80	100/80	100/80	100/80

1	2	3	4	5	6
UAZ 452	140/120	80/60	80/60	80/60	80/60
PAZ 672	200/160	100/80	100/80	100/80	100/80
LAZ	240/190	120/95	120/95	120/95	120/95
Yuk avmobillari: GAZ 52 – 03	105/90	60/45	105/90	105/90	105/90
GAZ 53	120/95	120/95	120/95	120/95	120/95
ZIL 130	140/110	140/110	140/110	140/110	140/110
MAZ 500	125/100	125/100	125/100	125/100	125/100

Qishloq xo‘jaligi avtomobillarni ishlatish va II yoki III toifa ishlatish sharoitiga mos keladi.

Avtomobillar III —toifa ishlatish sharoitida ishlatilganda 1 va 2 — jadvallarda keltirilgan kapital ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish davriyligi 25 % ga kamaytiriladi. Avtomobillar qumli-cho‘l va yuqori tog‘lik, issiq va sovuq iqlim sharoitlaridagi mintaqalarda ishlatilganda esa 10...30 % kamaytiriladi.

Amalda avtomobilni kapital ta‘mirlash haydovchini arizasiga ko‘ra hay‘at nazorat ko‘rigi tomonidan belgilanadi. Odatda avtomobilni tuliq kapital ta‘mirlash yengil avtomobil va avtobus kuzovi yoki yuk avtomobilini ramasi va kabinasi, shuningdek ko‘p boshqa asosiy detallar yaroqsiz holga kelib qolganda o‘tkaziladi. Agregatni tayanch detalini almashtirish yoki ta‘mirlash, shuningdek agregatni ko‘plab detallarini yeyilishi oqibatida joriy ta‘mirlashda qayta tiklab bo‘lmasa agregat kapital ta‘mirlanadi. Avtomobillarni nazorat ko‘rigidan o‘tkazish va mavsumiy texnik xizmat ko‘rsatish traktorlardagi kabi o‘tkaziladi.

*Eslatma: sur‘atda yangi avtomobillarga, maxrajda kapital ta‘mirlangan avtomobillarga bosib o‘tish yo‘li keltirilgan.*

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gocring C.E., Hansen A.C. Engine and tractor power. 4th edition ASAE, 2008.
2. Goering C.E., Stone M.L., Smith D.W., Tumquist P.K. OfT road vehicle engineering principles. ASAE, 2006.
3. Xudoyberdiyev T.S. Traktor va avtomobillar (Ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi va ishlashi). T. “Barkamol fayz media”, 2018.
4. Salixov I.S. Traktor va avtomobillar. T. Cho‘lpon, 2012.
5. Kornilov A.I. Traktor va avtomobillar nazariyasi asoslari. T. 2019
6. Neil Storey. Electronics a systems approach. Pearson Education Limited, USA, 2009. - 821 pages.
7. Giorgio Rizzoni. Fundamentals of Electrical Engineering. McGraw - Hill Companies, USA, 2009 - 766 pages.
8. Maxmudov G., Xoshimov D. Avtomobillarning eleetr va elektron

jixozlari. T. 2003.

9. Baratov R.J. “Raqamli texnika asoslari va raqamli sistemalar” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent, TIQXMMI, 2020. -200 b.

10. Aripov X.K. va boshqalar “Elektronika” O.F.M.J.T. 2012 e.400b.

11. Fraiden Dzh. Handbook of “Modem sensors”, Sovremennie datchiki.2004, New-York, 470 p.

## **DETALLARNI YEYILISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR.**

**Kamolov Xabib Xakimovich**

*G‘ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi*

Har qanday holatda detallar sirtida ma’lum yeyilishlar izlarini ko‘rish mumkin: ba’zilarida – zo‘rg‘a ko‘rinadigan yoriqlar, ba’zilarida – metallarni yupqa pardalarga ajralganligi, boshqalarida – xuddi ajralib turgan sirtlar va hokazo. Sirtlarni yemirilishi turlarini ko‘pligi va ularni sodir bo‘lishi sabablari yeyilish turlarini turkumlarga ajratishni qiyinlashtiradi.

Yeyilish turi yuklama xarakteri va qiymatiga, ishqalanuvchi sirtlarni o‘zaro siljish tezligi va ular orasidagi temperaturaga, detallar ishlatilayotgan muhitga, ular tayyorlangan materialga, ularni tayyorlanganlik sifati va boshqa bir nechta omillarga bog‘liq.

1) Har bir ishlatilayotgan detal yoki detallar birikmalari ishlatishda detalni chidamliligini aniqlovchi yeyilishning aniq biror turiga duchor bo‘ladi; shuningdek bir paytda ishqalanish kam ta’sir etuvchi boshqa tur yeyilishlar ham sodir bo‘lishi mumkin;

2) Turli xildagi yeyilishlar sodir bo‘lishi asoida metallar va qattiq jismlar fizikasi qonuniyatlariga bo‘ysunadigan hodisalar yotadi. B.I.Kosteskiy taklif qilgan turkumlarga ko‘ra mashinalar detallari yeyilishining asosiy turlari: birinchi turdagi qadalib yeyilish, oksidlanib yeyilish, issiqlikdan (ikkinchi turdagi qadalib) yeyilish, abraziv yeyilish, toliqib yeyilish.

Oksidlanib yeyilish deb metall va uning kimyoviy birikmalarida kislorodni qattiq korishmasi hosil bo‘lib, sirt qatlamlarini ishqalanishda deformatsiyalovchi metalga kislorodni diffuziyalanish hodisasi ishqalanish ishi tavsifnomasiga bog‘liq bo‘lgan yeyilishga aytiladi. Bu turdagi yeyilish sirpanib ishqalanish va dumalab ishqalanishda sodir bo‘ladi, sirpanib ishqalanishda oksidlanib yeyilish yetakchi bo‘ladi.

Oksidlanib yeyilish juda keng tarqalgan, masalan u ichki yonuv dvigatellari slindrlari devorlari uchun urinli. Oksidlanib yeyilishda boshqa tur yeyilishlagrga nisbatan yeyilish jadalligi kamroq va shuning uchun u yeyilishni ruxsat etiladigan turiga kiradi.

Issiqlikdan yeyilish deb mashinalar detallari ishqalanish sirtini qizishi metallarni yumshash temperaturasigacha bo‘lganda yemirilish jarayoniga aytiladi. Bu turdagi yeyilishda yemirilishlar metallar orasida bog‘lanishlar hosil bo‘lishi natijasi hisoblanadi: kontraktlashuvchi sirtlar orasida, yumshashida, metallarni eritish va

kuyishda.

Bu turdagi yeyilish tez yuradigan va og'ir yuk ortiladigan ta'sirlashuvchi sirtlari nisbatan katta harakatlanish tezligida ishqalanishda sirpanib (po'lat bo'yicha 3 — 4 dan ortiq sirpanishda) ishlovchi mashinalar detallarida keng tarqalgan.

Abraziv yeyilish metallarni sirtqi qatlamini sirpanib ishqalanishda yemirilishida sodir bo'ladigan yeyilishning oddiy turi. U mikroplastik deformatsiyalar va detallarni ishlashi sodir bo'layotgan muhitning qattiq abraziv zarrachalari bilan metalni yupqa sirt qatlamini kesish bilan xarakterlanadi. Qattiq abraziv zarrachalar bosim ostida detallar sirtida sirpanib, sirt qatlamlarini mikrohajmda deformatsiyalaydi va qirindi sifatida kesadi. Abraziv yeyilish jadalligi metall va abraziv dona mikro qattiqligi nisbati, shuningdek ishqalanishdagi bosim tezligi bilan aniqlanadi. Bu turdagi yeyilish tuproq bilan ta'sirlashuvchi detallar (gusinesali yurish zvenosi, ekskavator uchichi, bo'ldozer validagi pichoq va boshqa), abraziv muhitdagi qurilish mashinalari ishchi organlari (beton qorgich, barabanlar, shniko vintlari, tosh maydalagich, yuza qismlari va bromli plitalar).

*Toliqib yeyilish* – deb shunday yeyilishga aytiladiki unda detallarni sirtidan yemirilish jarayoni mikroplastik siqilish deformatsiyasi, sirt qatlamlarni puxtalanishi, qoldiq kuchlanishlar hosil bo'lishi va qaytariluvchan — o'zgaruvchan yuklamalar ta'sirida metallarni, toliqi shi natijasida sodir bo'ladi. Toliqib yeyilishda yemirilish ishqalanish sirtiga eng katta burchak ostida joylashgan mikro va mikrodarzlar hosil bo'lishi va uni uni kattalashib chuqurcha va yoriqchalar paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi

Bu tur yeyilish tebranib ishqalanishda kuzatiladi va og'ir yuklangan shesternya tishlarini tebranma podshipniklari uchun asosiy hisoblanadi.

Ko'rib chiqilgan yeyilish turlari mashina detallarini yeyilishi hosil bo'lishini ko'p shakllari mavjudligini bildiradi. Yeyilishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish detallarni qayta ishlash va tiklashni to'g'ri usulini belgilash, ishlatish materiallarini tanlash, ishlamay qolishlar sabablarini taqlil qilish va mashinani muddatidan oldin ishdan chiqish sabablarini aniqlash va oldini olish chora tadbirlarini belgilash.

*Detallarni yeyilishiga ta'sir etuvchi omillar.* Detallarni yeyilish tezligi ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ularni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin: konstruktiv, texnologik, ekspluatatsion.

*Konstruktiv omillar* bu shakl, o'lchamlar, detallar birikmalarining zazorlari va utirishi, ularni tayyorlash uchun mo'ljallangan materiallar, birikmalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish oson bo'ladigan holatda joylashishi mashinalarni konstruksiyalashda hisobga olinadi. Ularni to'g'ri tanlash mashinalarni ishonchli va uzoq muddat ishlashiga katta ta'sir ko'rsatadi.

*Texnologik omillar* detallarni tayyorlash jarayonlari bilan bog'langan. Ularga: detallarni tayyorlashda ishlatiladigan material sifati, detallarni termik va mexanik qayta ishlash.

*Ekspluatatsion omillarga* quyidagilar kiradi: mashinalarni ishlash rejimi, ularni ishlatish mintaqalaridagi iqlim sharoitlari, o'z vaqtida va sifatli texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash.

Detallarni yeyilish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi sabablarni ko'pligi ushbu

qisqa ko‘rsda ularni chuqur o‘rganish imkonini bermaydi. Shuning uchun yeyilish jarayonini belgilovchi asosiy omillarni ko‘rib chiqamiz. Ularga: ishqalanish turi, detal va birikmalarni qayta ishlash va ularning sirtlari metallarning sifati, mashinalarni ishlatish sharoiti.

*Detallarni yeyilishi va ishqalanishi.* Ishqalanish detallar yeyilish jarayonini aniqlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi, bir-biriga tegib turgan jismlarning nisbiy harakatlanishida sirpanib ishqalanish va dumalab ishqalanish sodir bo‘ladi. Ko‘p hollarda bir tur ishqalanish boshqa tur ishqalanishlar bilan birga sodir bo‘ladi. Masalan, sharikli podshipnikda shariklar nafaqat ichki va tashki halqalar bo‘ylab harakatlanadi, balki ulardan sirpanadi ham, chunki bu sirtlarning radiuslari bir xil emas.

Ishqalanish kuchini, shuningdek detallarning ta’sirlashuvchi sirtlari yeyilishini kamaytirish uchun ular moylanadi. Moylash mahsulotlarini bor yoki yo‘qligi, shuningdek moylash mahsuloti xususiyati va qatlami qalinligiga ko‘ra quyidagi sirpanib ishqalanish turlari mavjud:

Chegaraviy ishqalanishda ta’sirlashuvchi sirtlar, qalinligi 0,1 mkdan kichik bo‘lgan moy qatlami bilan ajratilgan; bunday qalinlikdagi moy qatlami gidrodinamika qonunlariga bo‘ysunmaydigan xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Quruq ishqalanish, bunda detallarni ta’sirlashuvchi sirtlari orasida moy mahsulotlari butunlay bo‘lmaydi. Barcha bu turdagi ishqalanishlarni sirpanish podshipniklari ishida kuzatish mumkin.

Val tinch holatda turganda, ya’ni aylanishlar tezligi nolga teng bo‘lganda podshipnik sirtida yotadi va uning markazi podshipnik markazidan pastda joylashgan bo‘ladi. Valni kamroq aylanishlar tezligida podshipnik bilan ta’sirlashishi saqlanadi va ikkita qattiq jism orasida ishqalanish sodir bo‘ladi, yeyilish koeffitsienti ancha katta bo‘lib, ta’sirlashuvchi sirtlar bir-birini yeyilishiga sabab bo‘ladi.

Yeyilish natijasida zazor oshganda moylash qatlami qalinligi kamayadi va h qiymati val va podshipnik sirti notekisligiga teng bo‘lganda suyuqlikli ishqalanish yarim suyuqlikli ishqalanishga aylanadi, chunki val va podshipnik sirtlarini o‘zaro kontaktlashishi sodir bo‘ladi. Bu holatni suyuqlikli ishqalanish sharoitida ishlashda birikmalar uchun ruxsat etilmaydigan holat deb qarash mumkin. Demak, berilgan birikmani ishlash qobiliyati yeyilishda zazor kattaligi mumkin kadar kichik bo‘lishi bilan aniqlanadi. Bundan tadbirlarga birikmani ortiqcha yuklanishini oldini olish va moylash rejimi va sifatiga e’tibor berish kiradi. Tabiiyki podshipniklarda zazorni kamaytirish an’anasi mavjud, chunki faqat uning kichik boshlang‘ich qiymatlarida suyuqlikli ishqalanish bo‘lishi mumkin.

Suyuqlikli ishqalanish sharoitida ishlovchi birikmalar deyarli yeyilmaydi. Masalan, ichki yonuv dvigatellari podshipniklari vkladishlari avtomobilni un minglab kilometr masofa yurishiga xizmat qiladi. Amaliy sharoitlarda yeyilish albatta sodir bo‘ladi, chunki suyuqlikli ishqalanish mavjud bo‘lmagan mashinani yurgizish va to‘xtatish zarur bo‘ladi. Shuningdek mashinani ishlash rejimi keskin o‘zgarishini, ya’ni bunda suyuqlikli ishqalanish buzilishini oldini olish qiyin.

Avtomobil mashinasi va mexanizmlari ko‘plab detallari birikmalarini suyuqlikli ishqalanish sharoitida ishlaydigan qilib konstruksiyalash mumkin emas.

Bunday birikmalarga quyidagilarni kiritish mumkin: kichik tezliklarda aylanishlarda ishlaydigan yuqori yuklangan vallar, detallari aylanma harakatlanadigan birikmalar, yuqori temperaturalarda, demak moyni qovushoqligi kichik bo'lganda ishlaydigan birikmalar va hokazo. Bunday hollarda ishqalanishni asosiy turi yarim suyuqlikli va yarim quruq bo'ladi. Bu holatda ishqalanish qarshiligi ancha ortadi va yeyilish tezligi ham ortadi.

Bu turlardagi ishqalanishlarda yeyilish qonuniyatini belgilovchi analitik bog'liqliklar xali aniqlanmagan.

Quruq ishqalanishni bir-biriga tegadigan qismlar orasida tishlashishni oshirish va sirpanishni bartaraf etish zarur bo'lganda ta'minlash lozim, ya'ni tormozlash mexanizmlari va friksion uzatmalarda. Ta'sirlashuvchi sirtlarni biri ikkinchisida sirpanganda ishqalanish sodir bo'lmasligi kerak, chunki bunda albatta detallarni yeyilishi ortadi. Ammo abraziv muhitlarda ishlovchi ko'rilish mashinalarining ba'zi uzellarida bu turdagi ishqalanish albatta sodir bo'ladi, masalan, ekskavator va bo'ldozer zanjirli atasmalarida. Quruq ishqalanish shuningdek moy yetarli berilmayotgan yoki ta'sirlashuvchi sirtlar orasidagi zazordan okib ketayotgan holatlarda ishlayotgan birikmalarda ham bo'lishi mumkin.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. P.V. Laush "Praktikum po texnicheskomu obslujvaniyu i remontu mashin" Moskva «Agropromizdat» 1985 g. 10 — 22 b.
2. I.Ye. Ulman va boshqalar "Mashinalar remonti" Toshkent 1979, 476 b.  
Gocring C.E., Hansen A.C. Engine and tractor power. 4th edition ASAE, 2008.
3. Goering C.E., Stone M.L., Smith D.W., Tumquist P.K. OfT road vehicle engineering principles. ASAE, 2006.
4. Xudoyberdiyev T.S. Traktor va avtomobillar (Ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi va ishlashi). T. "Barkamol fayz media", 2018.
5. Salixov I.S. Traktor va avtomobillar. T. Cho'lpon, 2012.
6. Kornilov A.I. Traktor va avtomobillar nazariyasi asoslari. T. 2019
7. Neil Storey. Electronics a systems approach. Pearson Education Limited, USA, 2009. - 821 pages.
8. Giorgio Rizzoni. Fundamentals of Electrical Engineering. McGraw -Hill Companies, USA, 2009 - 766 pages.
9. Maxmudov G., Xoshimov D. Avtomobillarning eleetr va elektron jixozlari. T. 2003.
10. Baratov R.J. "Raqamli texnika asoslari va raqamli sistemalar" fanidan o'quv qo'llanma. Toshkent, TIQXMMI, 2020. -200 b.
11. Aripov X.K. va boshqalar "Elektronika" O.F.M.J.T. 2012 e.400b.
12. Fraiden Dzh. Handbook of "Modem sensors", Sovremennie datchiki.2004, New-York, 470 p.
13. N.R.Yusupbekov va boshqalar Texnologik jarayonlami nazorat qilish va avtomatlashtirish. T.2011, 576 b.
14. Sh. U. Yo'ldashev. Mashinalar ishonchliligi va ularni ta'mirlash asoslari. Uzbekiston, 1994, 480 bet.



15. U. Ikromov, A. Ergashev va M. Sablikov. Traktorlarni ishlatish va ta'mirlash asoslari. T. Ukituvchi. 1995. 222 bet.

## **MATERIAL SIFATINI YEYILISHGA TA'SIRI.**

**Kamolov Xabib Xakimovich**

*G'ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi*

Mashinalar detallarini tayyorlashda ishlatiladigan metallar, ularning qotishmalari va antifriksion materiallarni yeyilishga chidamliligi turlicha. Ta'sirlashuvchi sirtlarda sodir bo'ladigan yeyilish jarayonlari va ularni tezligi u yoki bu darajada detallar materiallarining fizik —mexanik xususiyatlariga bog'liq.

Bu xususiyatlar plastik deformatsiya xarakteri va jadalligini, oksidlanish jarayonlari tezligini, issiqlik ta'siriga qarshi chidamlilik va boshqa.

Yeyilgan detallarni tiklash yoki ishdan chikkanlari urniga yangisini tayyorlashda, nafaqat mustahkamlik ko'rsatkichlari, korroziyaga chidamliligi, materialni yonginga chidamliligi, balki yeyilishga chidamliligini, ham hisobga olish zarur. Detailarni yeyilishga chidamliligini ifodalovchi eng keng tarqalgan ko'rsatkich ularning qattiqligi hisoblanadi.

Abraziv yeyilishda termik ishlov berilgan po'latning yeyilishga chidamliligi qattiqlik yuqori bo'lganda ortadji, lyokin biroz sustrok va metallning strukturasi, kimyoviy tarkibi va qattiqligiga bog'liq.

Po'latlarda uglerodni yoki karbid hosil qiluvchi elementlarni ortishi abraziv yeyilishni kamaytiradi. Po'latni yeyilishga qarshiligini oshirishga ijobiy ta'sir etuvchi qo'shimcha elementlar xrom, marganes, nikel, volfram va molibden hisoblanadi.

Marganesli po'latlar xromlilariga nisbatan yeyilishga chidamlirok. Marganesli po'lat G-13 L (tarkibi S 1 - 1,3 %, Mp=11 -14 %) ko'rilish mashinalarining quyidagi detallarida qo'llaniladi: traktor va ekskavatorlar tishli g'ildiraklari, maydalash mashinalaridagi maydalagich plitalari, yer kozish mashinalari ishchi organlari va boshqalar, chunki u abraziv yeyilishga chidamli.

Nikel po'latni yeyilishga chidamliliga kamroq ta'sir qiladi, lyokin xrom bilan birga ko'pchilik muxim po'latlarda qo'llaniladi, chunki u po'latni egiluvchanligi va qovushoqligini oshiradi.

Volfram va molibden po'latni yeyilishga chidamliligini oshiradi, lyokin ular qimmat qo'shma elementlar bo'lib, faqat detalni vazifasiga ko'ra o'zini oqlaganda ishlatiladi.

Metallni qattiqligini va yeyilishga, qarshiligini oshirish turlicha qo'shimcha qayta ishlov berib amalga oshiriladi: toblash, sementlash, azotlash, xromlash va boshqa.

Ko'rilish mashinalarining juda ko'p detallari cho'yandan tayyorlanadi. Muhim bo'lmagan detallar odatiy kuyma cho'yandan, muximroklari esa legirlangan cho'yandan tayyorlanadi. Cho'yanning ko'p navlari antifriksion material sifatida foydalaniladi.

Cho'yanda grafit qo'shimchasini bo'lishi yeyilishga ikki tomonlama ta'sir

ko'rsatadi. Grafitning moyini adsorbiyalash xususiyati metall massasiga nisbatan yuqoriligining ijobiy xususiyati hisoblanadi. Bu xususiyat ayniqsa moylash mukammal bo'lmagan sharoitda ishlovchi detallar uchun muximdir. Grafitning uzi ham yaxshi moylash xususiyatiga ega. Boshqa tomondan cho'yanda grafit miqdorini ortiqcha bo'lishi uchun kuchsizlashtiradi, bu esa ishqalanishda metall zarrachalarining oson parchalanishi, ya'ni ta'sirlashuvchi sirtlarning jadal yeyilishi sodir bo'ladi. Shuning uchun, yeyilishga chidamliligi nuqtai nazardan grafitning miqdori emas balki shakli va uning qo'shimchalarining joylashishi ahamiyatga ega.

Asosiy metall massasini mustahkamligini grafitning aylana va sharsimon qo'shimchalari kamroq kamaytiradi. Bunday cho'yanlar modifikatsiyalab olinadi.

Nikel miqdori 1,2-1,5 va xrom 0,4-0,5% bo'lgan cho'yan yeyilishiga chidamli hisoblanadi. Bunday cho'yanlardagi nikel va grafitni maydalanishiga va cho'yanni grafitlashishiga olib keladi, xrom esa karbidlar, hosil qilib cho'yanni mustahkamlanishiga sabab bo'ladi. Cho'yanlarni yeyilishigachidamligi toblanganda 2-3 marta ortishi mumkin. Toblash po'latniki kabi bajariladi.

Sirpanib ishqalanish sharoitida ishlayotgan ko'rilish mashinalarining ko'p vtulka va vkladishlari rangli metallardan taerlanadi. Shunni yedda to'tish lozimki rangli metallar qimmat va noeb hisoblanadi., shuning uchun ularni faqat boshqa materiallar bilan almashtirish mumkin bo'lmagan va asoslangan hollarda ishlatish o'rinli bo'ladi.

Antifraksion podshipnikli qotishmalar guruhlariga bo'linadi: A) qalay va qo'rg'oshinli babilar ; B) qalay va qo'rg'oshinli bronzalar

*Aluminiy va ruxli podshipnik qotishmalari.* Babbitlarni antifraksionligi qalay va qo'rg'oshinli asosiy yepishkok massasida qo'rg'oshin va qalayni surma va misli birikmalarini mikroskopik kichik qattiq kristallari joylashganligi bilan tushuntiriladi.

Qotishmani bunday tuzilishida yumshoq asos kuchliroq yeyiladi va uning sirti valni quvvatlovchi qattiq tizimli tarkib bilan taqqoslanganda pasayadi. Hosil bo'lgan chuqurchalar moy bilan tuladi va u sirkulyatsiya hosil qilib ta'sirlashuvchi sirtlar soviydi va ishqalanish koeffitsienti kichik bo'ladi. Babbitlar antifraksion xususiyatidan tashqari detallarni bir - biriga nisbatan oson ishlanishini ta'minlaydi, kam yeyiladi va moyini ifloslovchi abraziv zarrachalarni uziga singdirish xususiyatiga ega. Oxirgi holat vkladushlarni tez almashtirishni babbitni yeyilishiga ko'ra emas, balki uning yeyilish mahsulotlari bilan tuyinishi keltirib chiqaradi, bu esa detall birikmalarini tez yeyilishiga olib keladi. Babbitlar avtomobil va traktor dvigatellari shatunli va ildizli yupqa devorli vkladishlarini, avtomobillar podshipniklarini, kom - pressorlarni, metallarga ishlov beruvchi dastgoxlarni, markazdan kochma nasos va maydalagichlarni kuyish uchun qo'llaniladi. Babbit markasi to'g'ri tanlanib, sifatli moy qo'llanilib, talab qilinadigan zazor ta'minlanganda babbitni yeyilishga chidamliligi juda yuqori. Ko'pincha babbitni yemirilishi uni toliqishi yoki sifatsiz ko'yilishi natijasida sodir bo'ladi. Birinchi holatda babbit sirtida yirik turlar hosil bo'ladi va uzoq muddat ishlatilganda qatlam hosil qilib ajralib chiqadi.

Babbitlarni o'rnini bosuvchi sifatida qattiq asos va unga o'rnashgan yumshoq donlardan tashqil topgan ko'rroshinli bronza qo'llaniladi. Bunday bronza babbitdagiga nisbatan ikki marta yuqori temperaturada ishlaganda, nisbatan kichik

ishqalanish koeffitsientida asta —sekin yeyilishni ta'minlaydi. Qo'rg'oshinli bronzani ishlatilishi babbitga nisbatan kam bo'lib, birikma — larni montaj qilishda yuqori tayyorgarlik va ko'proq majburiy moylash talab qilinadi. Katta tezliklarda ishlaydigan podshipnik va vtulkalar uchun BrSZO bronzasi ishlatiladi. Bunda val termik qayta ishlangan va uning ishchi sirti puxta saykallangan bo'lishi kerak.

Ruxli qotishmalar bronzanikiga nisbatan ikki marta arzon va ularning sarfi zichliklari farqiga ko'ra (bronza - 8,7 gRsmZ, sAM -6,3 g.sm<sup>3</sup>) 40 % ga kam. Tuzilishiga ko'ra bu qotishmalar babbitlarni eslatadi, tinch, zarbali va tebranma yuklanishlarda ishlaydigan podshipnik va vtulkalar vkladishlarini quyishda ishlatiladi. Ular katta bosimga chidamli, yuqori mexanik va korroziyaga qarshi xususiyatlarga ega, yuqori toliqishga chidamli, issiqlik o'tkazuvchanligi va solishtirma hajmi katta.

Bu qotishmalarni asosiy kamchiligi cho'yan yoki po'lat jismlarga kuyish qiyin va shuning uchun qotishmani vkladishni ichki sirti bilan birlashtirish ko'pincha “qaldirg'och dumi” kabi mexanik mahkamlashda amalga oshiriladi. Bundan tashqari ularni qo'llashda val va vkladishni puxta ishlash va termik kengayish koeffitsienti yuqori (po'latdagidan 2 marta ko'p) bo'lganligi sababli zazorni oshirishga erishish lozim. Oxirgi yillarda metall qirindilarini grafit bilan briketlab tayyorlanadigan antifriksion materiallar keng qo'llanilmoqda. Bunday materiallar temir va bronza asosida tayyorlanadi, ular podshipniklar tayyorlashda muvaffakiyatli qo'llanilmoqda.

Metall qirindilari maydalanib poroshok tayyorlanadi va unga 3 % gacha grafit qo'shiladi. Olingan aralashma poroshokka buyumni shakli berilib, yuqori bosimda presslanadi. Bunda hosil bo'ladigan govaklik moylash sharoitini yaxshilaydi va podshipnik o'qi tayyorlanadi. Bunday usulda tayyorlangan vtulkalar ishlatish sharoitiga ko'ra, podshipnikka muntazam ravishda moy yetkazib berish mumkin bo'lmaganda katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda kimyo sanoatini tez rivojlanishi antifriksion materiallarni yangi urnini bosuvchilarini yaratish imkonini beradi plastik massalar (yorocho plastinkasi, tekstolit, kapron va boshqalar).

Plastmassadan tayyorlangan vtulka va vkladishlarni katta afzalligi: yeyilishga yuqori chidamliligi, metallarnikidan 2 - 3 marta katta; vkladishlarni uziga boshqa turdagi qo'shimchalarni singdirish xususiyati, bu valni buzilishdan asraydi. Bu xususiyat ayniqsa yuqori changli xonalarda (beton korgich, tosh maydalagich, tegirmonlar, barabanli elak va hokazo) joylashgan mashinalar podshipniklarini muvaffakiyatli ishlashi uchun muxim.

Moylash mahsuloti sifatida suv va emulsiyani qo'llash imkoni mavjudligi sirpanish sirtiga suv kirishini oldini olish qiyin bo'lgan holatlarda katta afzallikka ega. Plastik massalardan tayyorlangan podshipnik materiallarining bu xususiyatlari ularni ko'rilish mashinalari konstruksiyasida keng qo'llash imkonini beradi.

Yeyilishga chidamlikka ayniqsa ta'sirlashuvchi sirtlarning boshlanrich holati katta ta'sir qiladi, chunki yeyilishni boshlanishida mashina detallari sirtlarida silliqdashda, charxlashda va boshqa usullarda ishlov berishda hosil bo'lgan mikronotekisliklar yemiriladi va ushbu detallar ishlashiga va yeyilish turiga mos yangi mikrorelief paydo bo'ladi,

Yana paydo boʻladigan notekisliklar boshqa shakl oladi, koʻp hollarda koʻpol sirtlar ancha toza va aksincha ancha tozalari esa koʻpol koʻrinish oladi, ularning notekisligi yoʻnalishi esa sirpanish notekisligi yoʻnalishiga mos keladi.

Bu notekislikni yangi shakli, boshlanrich mexanik ishlov berishdan hosil boʻlgan gʻadir — budirlikka bogʻliq boʻlmai optimal deyiladi. Demak mashinalar detallarini batamom texnoloigk qayta ishlagandagi sifati, sirtlarga ishlov bergandan keyingi holatga yaqinlashadi, chunki bu holatda detallarni yeyilishi ishlaganda va ishlov berilganda eng kam boʻladi.

Yetarli moylash amalga oshirilganda va katta boʻlmagan bosimda har ikkala taʼsirlashuvchi sirtga shunday ishlov berish lozimki, ishlov berish yoʻnalishi detallarni ishlatish jarayonidagi harakat yoʻnalishiga toʻgʻri kelsin, chunki bunda kontaktlashuvchi sirtlar yuzasi ortadi va yeyilish kamayadi. Bu shuningdek bosimni kamayishiga, moy qatlamini ajralib chiqishini oldini oladi va sirtni asraydi.

Agar moylash yetarli boʻlmaidi, bosim katta boʻlsa, u holda har ikkala taʼsirlashuvchi sirtlarga shunday ishlov berish lozimki, ishlov berish yoʻnalishlari kesishsin. Bu holda chegaraviy ishqalanish sodir boʻladi va bunda sirtlarni tuknashishi kichik gʻadir – budirliklarda sodir boʻladi.

Perpendikulyar joylashganda sirtlar va yeyilish kamayadi. Detailarni biriktirish paytida gʻadir-budirliklar ancha yuqori boʻlganda ularni yumshashi kuzatiladi va taranglik hisoblanganidan kichik boʻlishi mumkin va oʻrnatish ishonchsizrok. boʻladi. Sirtlarni puxta pardoqlash detallarni korroziyaga chidamliligini oshiradi. Silliq qilib ishlov berilgan sirtlar korroziyaga kam uchraydi, chunki chuqurchalar boʻlganda, unga kirib qolgan namlik, kislota va gazlar korroziyani tezda sirtga yeyilishiga sabab boʻladi. Demak, oʻyiqalar chuqurligi qancha kichik boʻlsa, korroziya hosil qilish manbalari ham shunchalik kam boʻladi.

Shuningdek qayd etish kerakki, sirt sifati detallarning toliqish mustaqkamligiga katta taʼsir koʻrsatadi, chunki mexanik ishlov berishdagi tirnalgan joylar koʻplab yuklanishlarga olib keladi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. Gocring C.E., Hansen A.C. Engine and tractor power. 4th edition ASAE, 2008.
2. Goering C.E., Stone M.L., Smith D.W., Tumquist P.K. OfT road vehicle engineering principles. ASAE, 2006.
3. Xudoyberdiyev T.S. Traktor va avtomobillar (Ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi va ishlashi). T. "Barkamol fayz media", 2018.
4. Salixov I.S. Traktor va avtomobillar. T. Cho'lpon, 2012.
5. Kornilov A.I. Traktor va avtomobillar nazariyasi asoslari. T. 2019
6. Neil Storey. Electronics a systems approach. Pearson Education Limited, USA, 2009. - 821 pages.
7. Giorgio Rizzoni. Fundamentals of Electrical Engineering. McGraw - Hill Companies, USA, 2009 - 766 pages.
8. Maxmudov G., Xoshimov D. Avtomobillarning eleetr va elektron jixozlari. T. 2003.

9. Baratov R.J. “Raqamli texnika asoslari va raqamli sistemalar” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent, TIQXMMI, 2020. -200 b.
10. Aripov X.K. va boshqalar “Elektronika” O.F.M.J.T. 2012 e.400b.
11. Fraiden Dzh. Handbook of “Modem sensors”, Sovremennie datchiki.2004, New-York, 470 p.

## **MOYLASHNI DETALLARNI YEYILISHIGA TA’SIRI. MATERIAL SIFATINI YEYILISHIGA TA’SIRI.**

**Kamolov Xabib Xakimovich**

*G‘ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi*

Ishqalanish va yeyilish massalarini ko‘rib chiqishda ko‘p marta qayd qilinganidek, yeyilishga qarshi eng samarali tadbirlardan biri bu moilash hisoblanadi. Orasida moy bo‘lganda detallarni yeyilishi asosan moilash mahsuloti sifati, moilash rejimi, birikmalarga abraziv zarrachalar kirishini oldini oluvchi himoya qurilmalari sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Detallarni ta’sirlashuvchi birikmalarida moilash mahsuloti bir nechta funksiyalarni bajaradi: ishqalanish turini o‘zgarishi natijasida yeyilish kamayadi, ishqalanish sirtlaridagi yeyilish mazqsulotlarini chiqarib yuboradi, tashki muqitdan zazorlarga abraziv zarrachalar kirishidan birikmalarni asraidi, ishqalanish sirtlaridan issiqlikni chiqarib yuboradi, ishqalanishga quvvat yo‘qotilishini kamaytiradi, ishqalanish sirtlarini korroziyadan asraydi.

Moylarni sifatini aniqlovchi asosiy xususiyatlari quyidagilar: qovushoqlik, moylilik, kislota, ishqor va mexanik aralashmalarni foiz miqdori.

Qovushoqlik ichki ishqalanishni xarakterlaydi, suyuqlikni harakatlanishiga qarshiligida ifodalanadi. Suyuqlikli ishqalanish birikmalarida moyni qovushoqligi bunday moy pardasi hosil bo‘lishini osonlashtiradi. Bundan hamma vaqt ham qovushoqligi yuqori moylarni ishlatish kerak degan xulosa chiqarmaslik lozim. Birikmalarning zazorlari ma’lum qovushoqlikdagi moylardan foydalanishga mo‘ljallangan, shuning uchun ortiqcha qovushoqlik ta’sirlashuvchi sirtlar orasiga yetarli miqdorda moy kirmasligi va ishqalanishni ortishiga olib kelishi mumkin.

Yuqori qovushoqli moylarni qo‘llash (yo‘riqnomalarda keltirilganidan) faqat detallarni yeyilishi natijasida birikmalardagi zazorlar ancha oshganda tavsiya qilinadi. qovushoqlikni kam bo‘lishi odatda yeyilishni ortishiga olib keladi, chunki bu sharoitda valni harakatlanish jarayoni yomonlashadi. Bunday moylar yangi va kapital ta’mirlashdan chikkan ichki yonuv dvigatellarida dastlabki sinov paytida ishlatiladi, chunki ular kichik zazorlarga ham oson kiradi.

Mashinalarni moylash uchun moy mahsuloti tanlashda mashina ishlayotgan atrof-muhit temperaturasini hisobga olish kerak. Masalan, yozda kishga nisbatan qovushoqligi yuqori moy ishlatiladi. Shuni ham hisobga olish lozimki moyni qovushoqligi doimiy emas-u qizdirish temperaturasiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Temperatura ortishi bilan moyni qovushoqligi pasayadi. hozirgi paytda avtomobil dvigatellarida turli murakkab qo‘shimchalar kompozitsiyasi asosida barcha mavsum

uchun ham ishlatiladigan moylar yaratilgan.

Moylash kartasida tavsiya qilingan moy bo'lmaganda moylash materiallarini boshqa turdagi moyga almashtirish mumkin. Bunday holatda almashtirilgan moyni qovushqoqligi asosiy navdagi moy qovushoqligiga taxminan teng bo'lishi lozim. Tavsiya qilingan moyni almashtiruvchi moy ichki yonuv dvigatellari va kompressorlar uchun qovushoqlikdan tashqari boshqa talablarga ham javob berishi lozim: chaqnash temperaturasi, qotish temperaturasi.

Moylilik suyuqliksiz ishqalanishda ishlayotgan birikmalarda qo'llaniladigan moylar uchun juda muqim ahamiyatga ega. Moyni moylilik va yopishqoqligi ta'sirlashuvchi sirtlarni ajratib turadi va ular orasidagi zazordan moyni okib chiqishiga yo'l qo'ymaydi.

Tabiiyki moyni moylilik qancha yuqori bo'lsa sirtlarni yeyilishi shunchalik kamayadi.

Mineral yoki usimlik yogidan olingan barcha moylar ma'lum darajada moylikka ega. Usimlik yogini moylilik ancha yuqori, lyokin uning ancha qimmatligi keng qo'llash imkonini bermaydi.

Hozirgi paytda mashina va mexanizmlarni moylash uchun neftdan olinadigan mineral moylar ishlatiladi. Ularning moylilik maxsus moddalar qo'shib oshiriladi, Tarkibida smolalar (tozalanmagan), shuningdek qoldiq moylar (nitrol, polugudron) bo'lgan moylar yuk.ori moylilikka ega. Sirkulyatsiya sistemalarida bu moylarni qo'llash mumkin emas, chunki ular moy kanallariga tiqiluvchi emulsiya va cho'qindilar hosil qiladi.

Kislota va ishqor miqdori bo'yicha moylash mahsulotlari neytral bo'lishi kerak. Ammo ba'zi moylarni tozalashda kislota to'liq neytrallanmaydi. Moyda kislota bo'lishi metallarni korroziyalanishiga olib keladi va detallarni yeyilishini tezlashtiradi. Moyda ozroq miqdorda ishqor bo'lishi ham detallarni yeyilishini sezilarli oshiradi, shuningdek rangli metallardan tayyorlangan ta'sirlashuvchi sirtlarni xiralashtiradi.

Mexanik aralashmalar moyga ularni tashishda, saqlashda va mashinalarni chang sharoitlarda ishlatishda kiradi. Mexanik aralashmalarga mashinalarni ishlatish jarayonida mayda hosil bo'ladigan yeyilish mahsulotlari kiradi. Mayda mexanik aralashmalar bo'lmasligi kerak, chunki bu hol detallarni yeyilishini tezlashtiradi.

Mexanik aralashmlarni zararli ta'sirini kamaytirish uchun moyni sirkulyatsiyalash sistemasiga moy filtrlari qo'yiladi va uz vaqtida ifloslangan moy almashtirib turiladi.

Avtomobillarni k.urilish maydonlarida yuqori changda ishlaydi, shuning uchun moyga uni saqlashda va kuyishda chang va namlik kirishini oldini olish zarur, shuningdek zichlagich qurilmalari soz holatda bo'lishi lozim, chunki hosil bo'layotgan zazorlarga atrof-muhitdan moy sifatini pasaytiruvchi chang, iflosliklar va nam kirishi mumkin.

Avtomobillarni ishlatishda mineral moylar bilan birga konsistent moylari ham keng ishlatiladi, bu moy kuyuklashtirish uchun mineral moyga 10 - 20 % sovun qo'shilgan arlashmadan iborat bo'ldi. Quyushtirgich naviga bog'liq holda konsistent moylari kalsiyli (solidol), natriyli (konstalinlar) va kalsiy - natriyli (moy 1-

13). Solidollar tarkibida suv 3% bo‘ladi. Ular namlikka chidamli va suv bilan ta’sirlashuvchi yoki atmosfera namligi tushishidan himoyalangan va katta yuklama kuyilmagan va ko‘p kizimaydigan detallarni moylashda ishlatiladi.

Konstalinlar ko‘proq sirpaluvchan, lyokin suv ta’sirida qatlamlarga ajralib ketadi, shuning uchun ularni namlikdan himoyalangan, ortiqcha yuklangan va qiziydigan birikmalarga qo‘llash maqsadga muvofiq.

Konsistent moylar sirpanish va dumalash podshipniklarini moylash uchun, ularda suyuq moylash mahsuloti qiyin turganda yoki changli muhitda ishlaganda, shuningdek unga xizmat ko‘rsatish qiyin bo‘lganda ishlatiladi.

Bundan tashqari bu moylar ochik tishli va zandirli uzatmalarni moylash uchun ishlatiladi. Ular barcha zazorlarni yaxshi tuldiradi va ishqalanish joylariga tashki muhitdan chang kirishini oldini oladi. Yeyilishni oldini olish va ta’sirlashuvchi sirtlar tozaligini saqlash uchun davriy ravishda qolpachoqli maydon va shprislar yordamida moylar yangilanib turiladi.

Ignasimon podshipniklar mineral moylar bilan moylanadi, chunki konsistent moy ishlatilganda ular tezda ishdan chiqadi. Tishli g‘ildiraklarni, ochiq podshipniklarni, elevator zanjirlarini, resor va boshqa noaniq mexanizmlrni katta bo‘lmagan tezlik va yuqori yuklanishda moylash uchun grafitli maz ishlatiladi. Uni tayyorlash uchun solidolga 10 % li kukunsimon grafit aralashtiriladi.

Po‘lat troslarni moylash arkonli- maz yordamida bajariladi, u yuqori qovushoqli neft mahsulotlariga (moyli gurdon, texnik vazelin) kanfola, grafit va ozokerit qo‘shib tayyorlanadi. Bu moy quruq va uncha sovuq bo‘lmagan iqlim sharoitida kizdirilgan holda surkaladi. Moyni muntazam ravishda surkab turish iplarini o‘zaro siljishi oqibatida trosslarda sodir bo‘ladigan ichki ishqalanishni kamaytiradi va ularni korroziyadan asraydi. Podshipniklarni uzoq muddat ishlashiga moylash arkonlarini joylashishi va shakli katta ta’sir o‘tkazadi.

Moylash arkonlarini joylashishi va moy uzatish asosiy qoidalari quyidagilar;

1. Suyuqlik ishqalanishda ishlayotgan tez yurar podshipniklarda moyni eng kata zazor joyidagi ko‘p yuklanmagan qismga yuboriladi. Arkonlar moylash teshigidan har ikala tomon bo‘yicha ko‘ndalang yo‘nalishda shunday kesiladiki, ular podshipniklarchekalarigacha 12 -15 mm koladi., vkladishlarni birlashtirish joylarida moyni podshipnik bo‘ylab tarqalishini ta’minlovchi qo‘shimcha rezervuarlar tashqil etuvchi faskalar yechiladi.

2. Yarim suyuqli ishqalanishda ishlaydigan podshipniklarda ko‘ndalang moy tarkatish arkoniga moy uzatuvchi teshik valni harakatlanish tomonidan o‘rnatish maqsadiga muvofiq. Arqonlarni kesuvchi yoki podshipnik markaziga intiluvchi qilish tavsiya qilinmaydi. Chunki ularni bu aylanishda moy panasida bosimni pasayishiga olib keladi.

3. Qo‘zg‘almas chupchag atrofida aylanuvchi podshipniklarda moy uzatuvchi teshikni chupchagda uncha yuklanmagan joyiga mo‘ljallash lozim. Bu hollarda moy tarqatuvchi arkon val sirtida moyni podshipnik orqali uzatish sharoitidagi kabi qilinadi.

4 Uncha katta bo‘lmagan tezlik va katta yuklanishda konsistent mayda ishlaydigan podshipniklarda shuningdek valni tebranma harakatlanishida moylash

arqon ariqlarini bosimli joyga yaqin yuklangan qismiga qo‘llashga ruxsat etiladi.

5. Vertikal joylashgan podshipniklarda tarkatuvchi arqon ariq vkladishini yuqori chekaga, undan okayotgan moy pastga oqib vkladishni barcha ishchi sirtini teng moylaydigan qilib, unga aylana shakliga berib joylashtirilishi lozim. Aylanasimon taqsimlovchi arqon ariq, shuningdek vkladishni yuklangan qism valni aylanishi bo‘lib harakatlanishiga qo‘llaniladi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. Gocring C.E., Hansen A.C. Engine and tractor power. 4th edition ASAE, 2008.
2. Goering C.E., Stone M.L., Smith D.W., Tumquist P.K. OfT road vehicle engineering principles. ASAE, 2006.
3. Xudoyberdiyev T.S. Traktor va avtomobillar (Ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi va ishlashi). T. “Barkamol fayz media”, 2018.
4. Salixov I.S. Traktor va avtomobillar. T. Cho'lpon, 2012.
5. Kornilov A.I. Traktor va avtomobillar nazariyasi asoslari. T. 2019
6. Neil Storey. Electronics a systems approach. Pearson Education Limited, USA, 2009. - 821 pages.
7. Giorgio Rizzoni. Fundamentals of Electrical Engineering. McGraw - Hill Companies, USA, 2009 - 766 pages.
8. Maxmudov G., Xoshimov D. Avtomobillarning eleetr va elektron jixozlari. T. 2003.
9. Baratov R.J. “Raqamli texnika asoslari va raqamli sistemalar” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent, TIQXMMI, 2020. -200 b.
10. Aripov X.K. va boshqalar “Elektronika” O.F.M.J.T. 2012 e.400b.
11. Fraiden Dzh. Handbook of “Modem sensors”, Sovremennie datchiki.2004, New-York, 470 p.
12. N.R.Yusupbekov va boshqalar Texnologik jarayonlami nazorat qilish va avtomatlashtirish. T.2011, 576 b.
13. Sh. U. Yo‘ldashev. Mashinalar ishonchliligi va ularni ta‘mirlash asoslari. Uzbekiston, 1994, 480 bet.
14. U. Ikromov, A. Ergashev va M. Sablikov. Traktorlarni ishlatish va ta‘mirlash asoslari. T. Ukituvchi. 1995. 222 bet.
15. P.V. Laush “Praktikum po texnicheskomu obslujvaniyu i remontu mashin” Moskva «Agropromizdat» 1985 g. 10 — 22 b.
16. I.Ye. Ulman va boshqalar “Mashinalar remonti” Toshkent 1979, 476 b.

### **AVTOMOBIL DETALLARINI RUXSAT ETILADIGAN YEYILISHI. MATERIAL SIFATINI YEYILISHGA TA’SIRI.**

**Nosirov Hamdam Hamroevich**

*G‘ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi*

Mashinalarni normal ishlashini uning texnik ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlanadi. Mashinani vazifasiga ko‘ra bu ko‘rsatkichlar har xil bo‘lishi mumkin.



Masalan, kompressor yoki nasosni normal ishlash ko‘rsatkichi uzluksiz ravishda magistralga ma’lum miqdordagi siqilgan havoni yoki suyuqlikni talab qiladigan bosimni uzatish hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlarni normal ishchi xarakteristikasidan har qanday chetga chiqishi mashinadan u yoki bu nosozliklar mavjurligini bildiradi. Nosozliklar detallarni yeyilishi natijasida yoki mashinani Ushbu turdagi ishga rostlanganligini buzilishdan kelib chiqadi. Birinchi holatda nosozlik qayta tiklanib yoki yeyilgan detalni almashtirib ikkinchi holatda esa odatiy rostlash natijasida bartaraf qilinadi.

Mashinani rostlash buzilishi bilan bog‘liq nosozliklarni bartaraf etish masalalari, ularga xizmat ko‘rsatish buyiyaa zavod yo‘riqnomalarida keltirilgan. Shuning uchun quyida faqat yeyilish bilan bog‘liq nosozliklarni ko‘rib chiqamiz. Tashqi ko‘rik ko‘rinadigan birikmalarni yeyilganligini ta’sirlovchi detallar sirlari orasidagi zazor qiymatini paypaslab ko‘rib aniqlash imkonini beradi. Masalan 0,05-0,1 mm va undan yuqori zazorni detallarini bir-biriga nisbatan tebratib ko‘rib aniqlinishi mumkin. 0,05 mm dan kichik zazorlarni tebratib ko‘rib aniqlab bo‘lmaydi, ammo bunday zazorlarda bita moylangan detal boshqasiga nisbatan erkin siljishi mumkin. Tashqi ko‘rik bilan shuningdek rezkali, shponka shlitsali birikmalardagi defektlarni, moy, suv, yonilg‘i okishini ko‘rish, uzellarni ishonchli mahkamlanganligi va puxtaligini aniqlash mumkin.

Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlardan surash mashinani turli rejimlarda ishlashida ko‘rinadigan nosozliklarni aniqlash imkonini beradi.

Tajribali mexanik shovqinni eshitib tishli g‘ildiraklar, vtulkalar, barmoqlar va boshqa detallarni ishlashidagi nosozliklarni aniqlashi mumkin. Mashinani fibralli kulokka taqilgan metal sterjen — stetoskop yordamida eshitiladi. O‘tkir sterjenlar eshitiladigan predmetga shunday qo‘yiladiki, ovoz yo‘li birikmadan stetoskpgga eng qisqa va metall devor orkali o‘tishi lozim.

Tishli uzatmalardagi shovqin — tishlar profilini yeyilishi belgisi. Sharikli podshipniklarni normal ishlashida bir tekis, yeyilganida qattiq shovqin hosil bo‘ladi. Mushtchasimon shovqin podshipnikda moy qolmaganligini yoki sharik va roliklar halqali yugurish yo‘llari orasida qisilgan. Guldiragan shovqin va podshipnikdagi taqiqlashlar sharik yoki yugurish yo‘llari yeyilganligini, shuningdek separatorga iflosliklar kirganligi yoki uni yeyilganligini bildiradi. Past va keskin tebranishlar aylanish yo‘nalishi o‘zgarganda shponkali va shlitsali birikmalarni yeyilganligini bildiradi.

Qiziganlik darajasiga ko‘ra podshipniklar va boshqa ta’sirlovchi detallar ishini tekshirish mumkin. Sirpanib ishqalanish ishlayotgan ko‘plab birikmalarni normal ishchi temperaturasi, ba’zi hollarda 30 — 50°S dan oshadi. Qizish tem — peraturasini 70°S dan oshishi nosozliklar borligini bildiradi. Birikmalarni qizishini tekshirish mashina to‘xtashi bilan aniqlanadi. Ammo yuqorida keltirilgan usullarda nosozliklarni aniqlash detal holati xakida taxminiy tasavvur hosil qiladi. Shuning uchun mashina detallarini yeyilish qiymatini tekshirish asosiy usul hisoblanadi.

Integral usul — detallarni yeyilishini ularni tashqil qiluvchi birikmalarni “xizmat vazifasi xususiyatlari” o‘zgarishi bo‘yicha aniqlash. Masalan, ichki yonuv dvigatellarida porshen barmoqlari porshen — silindr birikmasiga gazlar kirishini oldini olish uchun mo‘ljallangan. Demak, porshen guruhini yeyilishi to‘g‘risida

kompresiyani o'zgarishi va dvigatel karteriga gaz o'tishi bilan xulosa qilish mumkin. Bu yeyilish shuningdek moy sarfi bilan ham ifodalanadi, ya'ni porshen guruhi detallari yeyilganda ortadi.

Bosim ostida qilayotgan gidrosistema va mashinalarni moylash sistemalari birikmalarida zazor ortganda moy sarfi ortadi va bosim pasayadi. Bunday turdagi birikmalarda yeyilishni o'lchash mezoni sifatida ishchi suyuqligini sizib chiqarish va sistemada bosimni pasayishini foizda ifodalanishini qabul qilish mumkin.

Yig'inda usuli yeyilishni aniqlashni quyidagi usullarini birlashtiradi:

a) detallarni yeyilishdan oldin va keyin ketma-ket o'lchash: yeyilish natijasi og'irlik o'zgarishi bo'yicha aniqlanib, keyin chiziqli qiymatga keltiriladi;

b) davriy ravishda moydagi temir miqdorini (yeyilish mahsulotlarini) ishlatilgan moyni kimyoviy tahlil qilib aniqlash;

v) "tamg'ali atomlar" usuli, bu usul yeyilish sodir bo'layotgan metall qatlami sirtiga surmani radioaktiv izotopi, volfram va kobalt surtib foydalanishga asoslangan.

Rasmda tovon 2 ni yeyilishi to'g'risida avtomatik signal berishda foydalaniladigan radioaktiv metall 1 dan yasalgan vstavkadan foydalanish sxemasi ko'rsatilgan. Valning chekka uchi ma'lum qiymatga yeyilganda vanna 3 ni tuldurib turgan moyda yeyilishni radioaktiv mahsulotlari paydo bo'ladi, u birikmani ishlatishni to'xtatish to'g'risida signal bo'ladi.

Mashinalarni ta'mirlash va ishlatish sharoitida eng oddiy va oson bo'lgan detallarni bevosita o'lchash (mikrometraj usuli) usuli eng keng tarqalgan. Usulning mazmuni shundan iboratki bunda detallarning yeyilishidan oldingi va keyingi o'lchamlari taqqoslanadi. Bu usulda detallarni yeyilishini aniqlash katta mehnat talab qiladi va ba'zi noaniqliklar bilan chiqadi.

*Detallarni eng ko'p yeyilish qiymatlari.* Birikmalarni normal ishlashiga xalakit bermaydigan yeyilish qiymati ruxsat etiladigan deyiladi. Mashina yoki uzellarning keyingi ishlashi texnik jihatdan ishonchsiz yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan yeyilish eng ko'p yeyilish deyiladi.

Detallarning o'lchamlarini o'zgarishi va yeyilishi turlicha sodir bo'lishi mumkin. Odatda ta'sirlashuvchi sirtlardan biri boshqasiga nisbatan biroz notekis yeyilishi mumkin; masalan, podshipniklar vkladishi valga nisbatan notekisrok yeyiladi. Notekis yeyilishga shesternya va yo'lduzcha tishlari, ekskavator chumichi tishlari, tirsakli val bo'yini va boshkd detallar duchor bo'ladi.

Demak, detallarni yaroqsizga chiqarish shunday yeyilish darajasiga mos kelishi kerakki, bu ular uchun eng ko'p yeyilish bo'lishi lozim.

Ko'p hollarda detallarni eng ko'p yeyilishi quyidagi belgilar bo'yicha belgilanadi:

1) yeyilish natijasida detal o'lchamlari o'zgarib mustahamligi pasayadi. Ushbu belgi bo'yicha tishli g'ildiraklar tishini eng ko'p yeyilishi aniqlanadi;

2) detal yoki uzellarni xizmat qilish xususiyatini o'zgarishi. Masalan, ichki yonuv dvigatellarida porshen xalqalari yeyilganda gazlarni karterga kirishi, moy sarfi ortadi, demak porshen guruhlari xizmat ko'rsatish xususiyatini yo'qotgan va ularni almashtirish lozim;

3) metalni yumshashi natijasida qo'zg'almas birikmani tortilganligi kamayadi,

shuningdek zazorni ortishi natijasida birikmani o‘rnashganligi o‘zgaradi;

4) yeyilgan detallarni uzelni boshqa detallarini normal ishlashiga ta’siri. Masalan, tishli reduktor podshipniklarini katta yeyilishi oqibatida valni egilishi tishli g‘ildiraklarni to‘g‘ri ishlashishini buzilishiga, bu o‘z navbatida yeyilishni me’yordan chiqishiga va ba’zi hollarda sinishiga olib keladi;

5) detallarni yeyilishga chidamliligini pasayishi. Masalan, val gupchagi sirtini sementlashtirilgan qatlam qalinligidan ko‘p yeyilishida, uni ishlatish to‘xtatilishi lozim, chunki bundan so‘ng yeyilish tezligi bir necha marta ortadi.

Eng ko‘p yeyilish qiymatlari detallarni ta’mirlash uchun turlarga ajratish va nazorat qilish texnik sharoitlari bo‘yicha belgilanadi. Ko‘pchilik ko‘rilish mashinalari uchun bunday me’yorlar xali ishlab chiqilmagan, shuning uchun eng ko‘p yeyilishlarni belgilashda quyidagi mashinani ishlatish qobiliyatini yo‘qotilishi belgilaridan foydalaniladi: ta’sirlashuvchi detallar orasiga o‘rnatish xarakterini o‘zgarishi, sinishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan mashina mexanizmlarida qo‘shimcha yuklama hosil bo‘lishi, olinadigan mahsulotni sifati va unumdorligini o‘zgarishi, mashinani yurgizishni qiyinlashishi va boshqa ko‘rsatkichlar.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. *P.V. Laush “Praktikum po texnicheskomu obslujvaniyu i remontu mashin” Moskva «Agropromizdat» 1985 g. 10 — 22 b.*

2. *I.Ye. Ulman va boshqalar “Mashinalar remonti” Toshkent 1979, 476 b.*

### **MASHINALARNI TA’MIRLASHDA ISHLAB CHIQRARISH JARAYONI.**

#### **Nosirov Hamdam Hamroevich**

*G‘ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi*

Ishlab chiqarish jarayoni — bu ishlab chiqariladigan buyumni ta’mirlash (xizmat ko‘rsatish) yoki tayyorlashga mo‘ljallangan, ma’lum korxonadagi odamlar o‘z qo‘l kuchi va ish qurollari yordamida bajariladigan ishlar majmuidir. Ta’mirlash jarayonida korxonada ishchilarini ishlab chiqarish faoliyati natijasida ob’ekt yoki buyum resursi va uning tarkibiy qismlarini sozligi, ishlash qobiliyati tiklanadi.

Mashinalarni ta’mirlash ishlab chiqarish jarayoni korxonani asosiy va yordamchi xizmat ko‘rsatish bo‘limlari ishtirokida turli texnologik jarayonlarni tashkil etish va ketma — ket bajarishni ifodalaydi. Unga nosoz buyumni (mashinalar, agregatlar) qismlarga ajratish, detallarni ta’mirlash va tiklash, buyumlarni yig‘ish, sinash va tashish jarayonlari, material va ehtiyot qismlarni saqlash va boshqa ishlar kiradi.

Texnologik jarayon — ishlab chiqarish jarayonini bir qismi bo‘lib, ishlab chiqarish predmeti holatini ketma — ket o‘zgartirish va aniqlash ishlarini o‘z ichiga oladi. Bunda, masala, ob’ektni (mashina, agregatlar) yig‘ish jarayonida qo‘llaniladigan detallarni o‘rnatish, jihozlash, ketma — ketligi va nazorat asboblari ko‘rsatiladi.

Detailarni tiklash texnologik jarayoni, misol uchun, detallarni tiklash

jarayoniga tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan texnologik operatsiyalarni bajarish ketma—ketligini va tiklangan detallarni texnik hujjatlar talablariga mosligini tekshirish va qayta ishlov berish bo'yicha zaruriy operatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Texnologik operatsiya — bir xil mahsulot ishlab chiqarishda bitta ishchi urinishda bajariladigan texnologik jarayonning tugallangan qismi. Masalan, tirsakli valni o'rnatish operatsiyasi — dvigatelni yig'ish texnologik jarayonini bir qismi, tirsakli val bo'ynini qoplash uni tiklash jarayonini bir qismi va hokazo.

Texnologik o'tish ishlov beriladigan detallar sirti va qo'llaniladigan asbob doimiyliги bilan ifodalanuvchi texnologik operatsiyaning tugallangan qismi.

Texnologik operatsiya texnologik jarayonni kartasi ko'rinishida hujjatlarda rasmiylashtiriladi, unda operatsiyani ratsional bajarish vaqti, ish razryadi, jihozlar, asboblari, ish rejimi, o'tishlarni bajarish ketma-ketligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'ladi.

Texnologik jarayonlar kartasi iqtisodiy, texnik va tashkiliy hisoblashlarni bajarishdagi dastlabki hujjat. Bitta texnologik jarayonga tegishli texnologik kartalarni albom (texnologik kartalar albomi) shaklida guruhlanadi.

Texnologik kartalar albomi mashinalarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha boshqa me'yoriy hujjat bo'lib, texnologik hujjatlar majmuasiga kiradi.

Me'yoriy — texnik hujjatlar majmuasi qoida, sharoit, talab va me'yor, shuningdek jihozlar va chizmalarni zaruriy ro'yxatini o'z ichiga oladi. Unga katta ixtisoslashtirilgan ta'mirlash korxonalari, jamoa va shirkat xo'jaligi ustaxonalari ishchilari rioya qiladi. Mashinalarni jamoa va shirkat xo'jaliklari sharoitida ta'mirlash uchun majmua traktor, kombayn, avtomobil va boshqa murakkab mashinalarni joriy ta'mirlashga texnik talablar, kombaynlarni ta'mirlashni tashqil etish bo'yicha tavsiyalar, plug, seyalka va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalarini ta'mirlashga texnik talablar, nostandart jihozlar chizmalari va boshqa hujjatlarni o'z ichiga oladi.

*Mashinalarni ta'mirlashga tayyorlash.* Mashina traktor, avtomobil va o'zi yurar mashinalarni ta'mirlashga tayyorlash uni ishlatishning oxirgi kunlarida boshlanadi va karterlarni sovutish sistemasini tozalash ishlarini o'z ichiga oladi.

Sovutish sistemasidan cho'qindilarni ketkazish uchun u quyidagi eritmalardan biri bilan tayyorlanadi. 10 l suvga 1 l besh foizli nitrat kislota qo'shilgan eritma; 1 l suvga 100—150 g kalsinatsiyalangan soda ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) qo'shilgan eritma. Dvigatel ana shu eritmalarning birida 10—12 soat ishlaydi, so'ngra ajratma to'kiladi va butun sovutish sistemasi toza suv bilan yuviladi.

Dvigatel karteri va transmissiyani yuvish uchun dizel yonilg'isidan foydalaniladi. Smena tugagach sovimagan moylash mahsulotini transmissiya karteridan to'kiladi, dizel yonilg'isi qo'yiladi va salt yurishda mashina 5—10 min, yurgiziladi, so'ngra yonilg'i to'kiladi. Issiq dvigateldan moy to'kiladi, dizel yonilg'isi qo'yiladi va dvigatel 3 — 5 min. yurgizilib karter yuviladi va yonilg'i to'kib tashlanadi.

Boshqa elementlarni tozalash. Mashinalarni ta'mirlashga berish va saqlashga kuyishdan oldin uning detallari sirtidagi chang va o'simliklar qoldiqlari suv oqimi bilan yuvib tozalanadi. Buning uchun ish unumi 0,3... 13 lyosek bo'lgan, 1,5...6 mPa bosim hosil qiluvchi MI 07, MI 25, 1112, OM —830 nasos qurilmalaridan

foydalaniladi, mashinalar maxsus betonli maydonga (estakada) qo'yiladi.

Yuvishga mo'ljallangan maydon qurilmasi yuvish suyuqligini ko'p marta ishlatish (yopik sikl), neft mahsulotlari va boshqa texnik suyuqliklarni (eritmalar) tuproqqa tushmaslik imkonini beradi.

Yilning sovuq davrida mashinalarni tozalash uchun yuqori bosimli ko'chma — 5285 (suv berishi 0,28 l.sek, bosimi 5...6 mPa) suv oqimli tozalash mashinalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'mirlashdan oldin mashinani texnik holatini aniqlash uchun, u nazorat ko'rigidan o'tkaziladi va tashxis qo'yiladi. Texnik ko'rik va tashhislash natijalari mashinani zavod pasportiga yoziladi. Agar ko'p agregatlar to'liq qismlarga ajratishni yoki barcha tarkibiy qismlarini, shuningdek tayanch qismini, almashtirish yoki ta'mirlash talab qilinsa mashina kapital ta'mirlashga yuboriladi. Agar mashina va uning tarkibii qismlarini ishlash qobiliyatini joriy ta'mirlash yoki texnik xizmat ko'rsatish natijasida tiklash imkoni bo'lsa, ular kapital ta'mirlashga yuborilmaydi.

Mashinani xo'jalikdan ta'mirlash korxonasiga odatda texnik almashtirish punkti orkali yuboriladi, bunda ta'mirlash korxonasigacha bo'lgan masofaga bog'liq; holla uzi yurib yoki avtomobil, temir yo'li yoki suv transporti yordamida tortib olib boriladi.

Mashinani (agregatni) ta'mirlashga topshirish va qabul qilish buyurtmachi (mashinani ishlatuvchi korxonasi, xo'jalik) va bajaruvchi (ta'mirlash korxonasidagi) vakillari tomonidan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Dalolatnomada mashinani (agregatni) texnik holati va mujassamligi, ishlatishdan boshlab (oxirgi kapital ta'mirlashdan so'ng) ishlatilganligi, buyurtmachi aybi bilan ishdan chiqqan tarkibii qismlari (blok muzlab qolgan, rama deformatsiyalangan va boshqa) ko'rsatiladi.

Avtomobillar uchun ikki tur mujassamlilik belgilangan: birinchisi — to'liq komplektlashgan; ikkinchisi — platforma, furgon va ramaga mahkamlangan detallarsiz (yuk avtomobillari uchun). Agar korxonasi pnevmoshinalari va akkumulyatorlarni ta'mirlamas, ularni buyurtmachiga ta'mirlamasdan mashina bilan topshiriladi.

Ta'mirlashga kerak qilingan mashina ta'mirlash fondi maydoniga (ombor) yoki birdan korxonani qismlarga ajratish-yuvish sexiga (bo'limiga) yuboriladi. Saqlash maydonidan mashinani shatak, maxsus moslama yoki lebedka bilan tortib keltiriladi va maydonga o'rnatiladi; bu yerda elektr jihozlari, ta'minlash sistemasining ba'zi elementlari, o'tirgich, suyangich, tirsak osti, kapot va to'siqlar yechiladi.

*Sirtni tozalash.* Qismlarga ajratishdan oldin mashinalar oqim usulida yoki botirib tozalanadi. Avtomobillarni oqim usulida sirtqi tozalash uchun buralib aylanadigan oqim — kamerali turdagi OM — 8036 yuvish mashinasi qo'llaniladi. OM — 5535 polli konveyerli va kuchma gidrantli ON — 1438 mashinalari ancha universal hisoblanadi.

Oqimli usul oqim bilan bevosita kontaktlashuvchi ochik sirtlarda ancha samarali. Karterlarni ichki va ekranlashtirilgan tashki sirtlari amalda tozalanmaydi.

Mashinalarni botirib tozalash nafaqat karter va boshqa detallar ichki sirtlarini tozalash, balki qisqa muddatda mashinani barcha detallarini isitish imkonini beradi.

Botirib tozalash (yuvish) sifatini yaxshilash uchun tebaranadigan platforma,

suvga botiruvchi oqim (suyuqlikdagi suyuqlik oqimi) va boshqa vositalaradn foydalaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. P.V. Laush “Praktikum po texnicheskomu obslujvaniyu i remontu mashin” Moskva «Agropromizdat» 1985 g. 10 — 22 b.
2. I.Ye. Ulman va boshqalar “Mashinalar remonti” Toshkent 1979, 476 b.

**QISHLOQ XO’JALIGI MASHINALARINING TEXNOLOGIK  
MOSLAMA VA JIHOZLARI.**

**Nosirov Hamdam Hamroevich**

*G’ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi*

Rezbali birikmalarni qismlarga ajratish va yig’ish paytida mexanizatsiyalashtirilgan asboblari qo’llaniladi (gayka buragich, shpilka buragich, vint buragich va hokazo), bu ish unumdorligini shuningdek ish sarfini oshirish imkonini beradi. Masalan, shaqildokli kalitlarni kallakli va kolovorotli kalitlarga almashtirish bolt va gaykalarini burab chiqarishni mos ravishda 25 va 65% ga, Mexanizatsiyalashtirilgan asboblari qo’llash esa ushbu operatsiyaga ish unumdorligini yanada ko’proq oshiradi.

Ta’mirlesh ishlarida zarbiy impulsi elektrik va pnevmatik gayka buragichlar keng qo’llanilmoqda. Barcha diapazonlarda ko’rsatilgan burash momentlari zarbiy pnevmatik yoki elektrik (IE — 3113, IE — 3115 va boshqa) gayka buragichlar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Elastik osmalar uncha katta bo’lmagan, qattiq osmalar esa kattaroq reaktiv burash momenti bo’lgan asboblari uchun ishlatiladi.

Katta kuch talab qilinadigan 3 klassdagi traktorlarning tayanch katoklari, reszor uzangisini mahkamlagich gaykalarini bushatish va qotirish uchun maxsus elektromexanik qurilmalar ishlatiladi.

*Presslar.* Birikmalarni kafolatli tortish bilan qismlarga ajratish yoki yig’ishni mexanizatsiyalash presslar yordamida bajariladi va mehnat sarfini ancha kamaytiradi.

Presslar detallarni presslash va bushatish uchun komplekt moslamalar bilan ta’minlanadi.

*Ko’tarish — tashish uskunalari.* Ular uch xil: ko’tarish, ko’tarish — tashish va tashish turlarga bo’linadi.

*Ko’tarish uskunalari.* Ularga dastagi va elektrik tallar, pnevmatik ko’targichlar, gidrovlik va elektromexanik harakatlanuvchi va qo’zg’almas domkratlar kiradi. Keltirilgan qurilmalar mashinani butunlay yoki agregat va uzellarni joriy ta’mirlesh, paytida ko’tarishda qo’llaniladi. Agregat yoki detallarni ko’tarish qurilmalari ilmog’i yordamida ko’tarishda puxta va qulay mahkamlash imkonini beruvchi yuk changallash moslamalaridan foydalaniladi.

*Ko’tarish — tashish uskunalari.* Ta’mirlesh korxonalarida kran — balka,

ko’prik — kranlar, monorel burilma konsollari kranlar, shtabbellerli kranlar va monepulyatorlar qo’llaniladi.

Kran balka ko’shtavrli balkadan iborat bo’lib, unda elektrik val yuradi. Kran balkani elektrik tili va mexanizmlarini harakatlanishi tugmachalari bilan boshqariladi, yuk ko’taruvchanligi 1, 2, Z t.

Ko’prik — kranlar 5, 10 va 20 t. li yuklarni ko’tarishda foydalaniladi.

Harakatlanuvchi elektrik osma monorelsli yo’llar odatda ta’mirlash ustaxonasi bo’lmi va ishchi o’rinlari orasida yuklarni tashish va ko’tarishda foydaniladi, yukni osma uvidan chetga chiqishi 0,40...0,60 m. dan oshmasligi lozim.

Burilma konsolli kranlardan ishchi o’rinlariga xizmat ko’rsatish uchun foydalaniladi.

Ko’tarish mexanizmi elektrik, pnevmatik yoki dastlabki bo’lishi mumkin. Yuk ko’tara olishigi qarab konsolli kranlar strelasining qulochi quyidagicha tavsiya etiladi: 0,5 t yuk uchun 6 m. gacha, 1 — 2 t. uchun 4,5 m. gacha va 3,5 t uchun 3,5 m gacha.

Shtabellerli kranlar yuk ko’tarish stellajlarda maxsus taralarda omborxonalarda saqlashda xizmat ko’rsatish uchun mo’ljallangan. Ular aylanuvchi vertikal ustun bilan jihozlangan, yuk harakatlanadigan aravachali ko’prik — krandan iborat. Shtabellerli kranlardan ta’mirlash korxonalarida foydalanilganda poldan boshqariladigan (KShO — 0,25 KShT — 0,25).

*Tashish uskunalari.* Ularga relssiz aravachalar (daslabki va uzi yurar), konveyerlar va rolganglar kiradi. Bu uskuna asosan turli yuklarni (mashina, detallar va agrigatlar) gorizonttal yo’nalishda uzliksiz yoki davriy ravshda harakatlantirish uchun mo’ljallangan.

Dastlabki aravachalarda barcha turdagi ta’mirlash korxonalarida ishchi o’rinlari orasida yuk tashishda ishlatiladi. Elektrik yuk ortgich va elektrik shtabellerlardan asosan yopiq xonalarda yuklarni transport vositalariga ortish, tashish, tushirish, ularni stellajlarga joylashtirish yoki ulardan olishda foydalaniladi.

*Konveyerlar* – mashina, agregatlar, yig’ma birikmalarni ketma-ket ishlab chiqarishni tashkil etishda harakatlantirishda foydalaniladi.

*Zanjirli osma kranlar* detallar, uzellar, konteynerlar qismlarga ajratish, tozalash, defektovka qilish va komplektlash, bo’yash va bo’limlari orasida tashishda foydalaniladi. Bunday konveyerlarni konstruksiyasi ko’tarish, tushirish va burishda yuklarni ko’chirish imkonini beradi. Manipulyatorlar, ko’proq pnevmatik, asosan ta’mirlash zavodlarida katta dasturdagi ta’mirlashlarda foydalaniladi.

Tozalash ishlarini bajarishning zamonaviy texnologiyasi yangi yuvish vositalarini (preparatlarni) qo’llash, samarali usul va texnologik jihozlardan foydalanishga asoslangan. Ta’mirlash korxonalarining ish tajribasi shuni ko’rsatadiki, qishloq xo’jaligi texnologiyasini ishlatish sharoiti mashinalar detallarni shunday ifloslanishiga olib keladiki, bu ko’p bosqichli tozalash ishlarini bajarishni talab qiladi.

*Tozalash ishlari* (ta’mirlashga kirilayotgan mashinani tashqi yuvishni hisobga olmasdan) qismlarga ajratilgan detallar va shassini tozalash, detallarni tozalash, agrigat va uzellarni yig’ishdan oldin tozalash, bo’yashdan oldin mashina va agregatlarni yuvish.

Tozalash ishlarini sifatli bajarish ta’mirlangan agrigatlar resursini 25 — 30 % ,

qismlarga ajratish va yig'ish ishlarini bajarishda mehnat unumdorligini 15-20 % oshirish imkonini beradi.

Avtomobilni ta'mirlashda detal va uzellar sirti moy va moylash mahsulotlari, tashqi chang loy qoldiqlari, usimlik qoldiqlari, uglerodli cho'qindilar (smola, koks) konservatsiyali qoplamalar, zaharli ximikat qoldiqlari lak bo'yoq qoplamalari, quyqum, korroziya mahsulotlaridan tozalanadi. Iflosliklarni turliligi ularni tozalashning turli vosita va usullaridan foydalanishni talab qiladi.

*Sintetik yuvish vositalari.* Sintetik yuvish vositalari eritmaları (SYuV) ko'ra metallarni zanglashiga olib kelmaydi, ishchilarning terisi va kiyimlariga zararli ta'sir ko'rsatmaydi, bu eritmalarda yuvilgan detallarni chaykash shart emas.

SYuV — bu kalsinatsiyalangan soda, metosilikat natriy (suyuq shisha), uch polifosfat natriy, sirtiy aktiv moddalar (SAM) va boshqa qo'shimchalardan iborat bo'lgan ko'p komponentli tarkib.

SAM — bu qutbli organik birikmalar bo'lib, moy qatlamlarini oson ketkizadi, yuvish erimasini suvli tarkibiga kirganda barqaror impulsiya hosil qiladi, bu esa turli iflosliklar ML – 51, Labomid – 101 va Labomid – 102, Temp – 100 A, MS — 16, MS — 18 turdagi SYuV mo'tadil ko'prik hosil qilgani uchun 10 — ZOg.1 konsentratsiyada har qanday oqimli turdagi mashinalarda ishlatiladi.

Shuning bilan bir paytda Temp — 100 A detallarni tozalangan sirtini passivlashtiradi va ularni korroziyadan asraydi.

ML – 52, Labomid – 203, MS – 8 va MS – 18 turdagi SYuV detallarni qoldiq smolalardan, eritmalar bilan aktivlashtirilgan vannata solish usulida tozalashga xizmat qiladi. MS — 5, MS — 6, MS — 8, MS — 15 turdagi yuvish vositalari detallarni oqim bilan tozalashda va vannaga solib tozalashda ishlatiladi (oxirgisi yuqori konsentratsiyada ishlatiladi).

SYuV larning barcha erimalari qizdirishni talab qiladi, bu ko'p vaqt va energiya sarflanishini talab qiladi.

Organik eritmalar va erituvchi-emulgatsiyalovchi vositalar asfalt – smolali qoldiqlarni normal temperaturalarda ketkazish uchun qo'llaniladi.

Barcha EEV lar zaharli, shuning uchun xavfsizlik qoidalariga rioya qilib yuk ortiladigan germetik mashinalarda foydalanish zarur. EEV larda tutib turilgan detallar har qanday SYuV eritmasida 500S — 70°C temperaturada yuviladi.

Qattiq qatlamni ketkazish, qattiq cho'qindilar (qurim, korroziya mahsulotlari) mexanik yoki termik — kimyoviy usulda ketkaziladi.

*Mexanik usullar.* Ularga metall cho'tka bilan tozalash, qum va danak uvoqlarini siqilgan havo bilan yo'naltirish, gidroabraziv qayta ishlov berish kiradi.

Danak uvoqlarini (mevalar danaklari po'chog'i) yo'naltirish moy va smola qoldiqlaridan tozalangandan so'ng detallarni qurimdan tozalash uchun ishlatiladi.

Gidroqum oqimli qayta ishlash, boshqacha aytganda gidroabraziv qayta ishlash, ya'ni bunda abraziv zarrachalarini tashish uchun suyuqlik qo'llaniladi, u nafaqat qurimni tozalash uchun, balki eski bo'yoqlardan tozalash uchun ham ishlatiladi.

Detailarni qurimdan titratib abraziv tozalash — mexanik usullardan biri hisoblanadi. Bunda tozalanadigan detallar abraziv doyra mahsulotlari yoki marmar



uvoqlari bilan (zarrachalar o‘lchami 10...30 mm) konteynerga yuklanadi va titratish smolaga joylashtiriladi.

Titratishda abraziv zarrachalar detallar sirtiga nisbatan harakatlanadi va uni qurimdan tozalaydi. Konteynerga berilayotgan SYuV eritmasi cho‘qindilarni yuvadi.

*Termik usulda* tozalash shundan iboratki, bunda ba’zi detallarga (chiqaruvchi va suruvchi kollektorlar) yopishgan koks va qurim qatlamlari ortiqcha kislorod berib gazli gorelka alangasida yondirib kerkizadi.

Termik kimyoviy usul kora metallardan ishlangan detallardan qurim va quyqumni ketkazish uchun (qo‘llaniladi), ularni 400°S temperaturada 65% NaOH, 30% NaNO va 5% NaCe tarkibida bo‘lagn erimaga tushiriladi, Tozalashni bu bosqichida cho‘qindilarni eritmalar bilan kimyoviy ta’sirlanishi va kuyishi sodir bo‘ladi. Eritmada 5 —10 minut turgach detallar suv bilan yuviladi. Shidatli bug‘ hosil bo‘lishi ishqorli birikmalarni erishi va qoldiq cho‘qindilarni yemirlashiga olib keladi.

Ishqor qoldiqlarini neytrallashtirish uchun detallar tirqishlari oldin nordon eritmada (125 g.l fosfor kislotasi eritmasi), so‘ngra issiq suv yoki SYuV asosidagi yuvuvchi eritma bilan chayqaladi. Bu usul odatda ixtisoslashtirilgan ta‘mirlash zavodlarida qo‘llaniladi.

Tozalashning boshqa usullari obektning turi va vazifasiga bog‘liq.

Quyqum va korroziya mahsulotlarini ketkazish uchun yuqorida qayd qilingan usullardan tashqari, ingibirlashtirilgan tuz kislotasi ta’sirida detallarni 10 — 12% li eritmada 75 — 85°S temperaturada 20-25 minut mobaynida qayta ishlanadi. Nordon eritmada ishlov berilgandan so‘ng ular 5g.l kalsinatsiyalangan soda va 2 g.l uch polifosfat natriy eritmasi yoki «Labomid — 102» turidagi eritmada chayqaladi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. *P.V. Laush “Praktikum po texnicheskomu obslujvaniyu i remontu mashin” Moskva «Agropromizdat» 1985 g. 10 — 22 b.*
2. *I.Ye. Ulman va boshqalar “Mashinalar remonti” Toshkent 1979, 476 b.*
3. Xudoyberdiyev T.S. Traktor va avtomobillar (Ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi va ishlashi). T. “Barkamol fayz media”, 2018.
4. Salixov I.S. Traktor va avtomobillar. T. Cho'lpon, 2012.
5. Kornilov A.I. Traktor va avtomobillar nazariyasi asoslari. T. 2019
6. Neil Storey. Electronics a systems approach. Pearson Education Limited, USA, 2009. - 821 pages.
7. Giorgio Rizzoni. Fundamentals of Electrical Engineering. McGraw - Hill Companies, USA, 2009 - 766 pages.
8. Maxmudov G., Xoshimov D. Avtomobillarning eleetr va elektron jixozlari. T. 2003.
9. Baratov R.J. “Raqamli texnika asoslari va raqamli sistemalar” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent, TIQXMMI, 2020. -200 b.
10. Aripov X.K. va boshqalar “Elektronika” O.F.M.J.T. 2012 e.400b.
11. Fraiden Dzh. Handbook of “Modem sensors”, Sovremennie datchiki.2004, New-York, 470 p.
12. N.R.Yusupbekov va boshqalar Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va

avtomatlashtirish

13. Gocring C.E., Hansen A.C. Engine and tractor power. 4th edition ASAE, 2008.

14. Goering C.E., Stone M.L., Smith D.W., Tumquist P.K. Off road vehicle engineering principles. ASAE, 2006.

## YO'LLARDAGI TRANSPORT OQIMINING HAVFSIZIKKA TA'SIRI

**Ataxanov A. Y.<sup>1</sup>, Radjapov B. Sh.<sup>1</sup>, Boltoyev A. Sh.<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>Urganch davlat universiteti "Transport tizimlari" kafedrasida o'qituvchisi  
(O'zbekiston, Urganch) +99 899 968 53 60*

Xozirgi kunda yo'llarda harakatlanish xavfsizligini tashkil etish kundalik muhim muammolardan biriga aylanib bormoqda. Transport vositalarining atrof muhitga etkazadigan ta'siri zararlari kundan kunga oshib bormoqda, asosiysi yo'llarda sodir etilayotgan yo'l transport xodisalarini soni oshmoqda, natijada fuqorolarning YTHdan mayib-majrux bo'lib qolishi, xayotdan ko'z yumishi hollarini o'sishi kuzatilmogda. Yo'l transport xodisalarining oldini olishga qaratilgan xatto davlat darajasidagi tadbirlarga qaramasdan, ularning miqdori kamayishiga erishib bo'lmayapdi.

Bu esa yo'l xarakati xavfsizligi mammlariga o'ta jiddiy yondashishni talab qilmoqda. Buning uchun yo'l xarakati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar, yo'l xarakatining asosiy ko'rsatkichlarini, yo'llardagi sharoitlarning transport oqimlarini boshqarishning texnik vositalari orqali yo'l xarakatini boshqarish bilimlariga ega bo'lishlari kerak.

Sodir etilayotgan yo'l transport xodisalarini sabablarini atroflicha o'rganish, ularning turlarini, miqdorlarini, tartib buzarlilklarni sodir etilish sabablarini mukammal bilish, yo'l harakati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar zarur bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Transport oqimi zichligi ortgan sari transport vositasi oraliq masofasining kamayishi, tezlikning pasayishi xaydovchilarning psixologik ish rejimining qiyinlashishini umumiy yo'l xarakatining qiyinlashishiga olib keladi.

Transport oqimi zichligi – transport xarakatini tavsiflovchi keyingi ko'rsatkich bolib, transport vositalari 1 km uzunlikdagi bitta xarakat tasmasiga joylashgan soni bilan o'lchanadi (q-km /dona). Bu ko'rsatkich harakat sharoitiga, harakat tezligiga va harakatlanuvchi tarkib turiga qarab o'zgarib turadi.


Harakatlanuvchi tarkib-transport oqimida har hil transport vositalarining nisbatini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, u foizda va ulushda aniqlanadi.

Harakat oqimining tezligi-yo'l bo'laklari bo'yicha har hil transport vositalarining tezligini alohida va umuman o'zgarishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich, o'lchov birligi m/s yoki km/s.

Maqsad va vazifalariga ko'ra harakatlanish tezligi quyidagi turlarga bolinadi. (hisobiy, oniy, aloqa, texnik, konstruktiv).

Hisobiy tezlik- yakka avtomobillarning (havfsizlik va ystuvorlik sharti

bo'yicha) ob -havoning muqim sharoitida avtomobil shinasining yo'l qatnov qismi yuzasi bilan meyyoriy tishlashish holatida,yo'ning eng noqulay ruxsat etilgan elementlariga ega bo'laklarida mumkin bo'lgan eng katta tezlikdagi xarakatiga aytiladi.



1-rasm. Transport oqimining asosiy diagrammasi.

Bu erda  $V_{0_2pk}$  –avtomobillarning erkin tezligi.

$q_{0_2pk}$ - erkin tezlikdagi zichlik.

$V_0$ - maksimal harakat miqdoridagi tezlik.

$q_0$ .maksimal harakat miqdoridagi zichlik.

Oniy tezlik –aniq kichik masofaning real yo'l sharoitidagi haqiqiy tezlik. Y yakka avtomobillarning yoki transport oqimlarining u yoki bu belgilangan qisqa masofadagi (odatda masofa 50,100,150,200 m belgilanadi)tezligini bildiradi.Bu tezlikdan ma'lum yo'l bo'laklarida harakatni tashkil qilishda foydalaniladi.

Yo'l harakatining qonuniyatlarini taxlil qilishda hamda harakatni boshqarishning amaliy masalalarini echishda transport oqimi tavsiflarining o'zaro ta'siridan foydalanish tezligidan foydalanish kerak bo'ladi.

Transport oqimining asosiy diagrammasidan ko'rinadiki,transport oqimining zichligi oshgan sari,unig tezligi kamaya boradi, $q_{mak}$  erishganda  $V=0$  bo'ladi.Bunday holatni turib qolish ,tirbandlik deyiladi.Harakat miqdori avvaliga zichlik oshishi bilan orta boradi va ma'lum “q” qiymatdan so'ng  $N'max$ ” ga erishadi,so'ngra “q” orta borgan sari”N”kamayadi. $N_{max}$  qiymati tasmaning o'tkazish qobiliyatini ko'rsatadi.

Diagrammaning koordinata boshidan tangens burchagi ostida o'tkazilgan chiziq oqimning o'rtacha tezligini va o'rtacha va bu o'rtacha tezlikdagi harakat oqimining miqdorini ko'rsatadi.Xulosa qilib shuni aytish kerakki ,bu grafik yordamida yo'lharakatiga oid ayrim masalalarni echishda foydalansa bo'ladi.

Adabiyotlar.

1. Xarakat xavfsizligi asoslari.RizayevSh.Sh.O'quv metodik qo'llanma.2014y.

2. Xarakat xavfsizligi asoslari.AzizovK.X.Toshkent.2009y.Fan va texnologiyalar.244b.

3. A.A.Aqilov.Q.A.Karimova.SH.SH.Rizaev.Yo'l harakati qoidalariga suratli sharxlar va mavzuga oid testlar.Toshkent.Avtohamroh.2017y,192b.
4. N.F.Muxiddinov,J.R.Kulmuhamedov Yo'l harakati qoidalariga suratli sharxlar va yuqori tezlik chegaralari.Toshkent.2016 y.
5. Б.И.Конопленко и др.Организация и безопасность дорожного движение.Учебник для ВУЗов.М.»Высшая школа»2007г-383стр.

## CHO'YANNI PAYVANDLASHDA ISHLATILADIGAN ELEKTRODLAR CHO'YANING XUSUSIYATLARI

**Radjabov B. Sh.<sup>1</sup>, Ataxanov A. Y<sup>1</sup>, Boltoyev A. Sh.<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>*Urganch davlat universiteti "Transport tizimlari" kafedrasida o'qituvchisi  
(O'zbekiston, Urganch) +99 899 968 53 60*

**Cho'yanni payvandlashda ishlatiladigan elektrodlar.** Cho'nni payvandlash uchun elektrod tanlashda materialning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ko'p ommalashgan va samaradorligi yuqori elektrod asosi nikelli elektroddir. Bu elektrod birikmani payvandlanuvchanligini va mustahkamligini ta'minlaydi. Bundan tashqari ko'p ishlatiladigan elektrodga asosi nikel temir qo'shilgan va asosi nikel temir va kremniy qo'shilgan elektrodlar hisoblanadi. Bu elektrodlar payvand birikmani turg'unligini va mustahkamligini ta'minlaydi.

1-jadval[1]

Elektrod markasi	Cho'yan turi	Payvand yo'nalishi	Payvand turi	Xususiyati
Elektrod МНЧ-2	Kul rang; Bolg'alanuvchi	Pastki holat; Pastdan yuqoriga vertikal holat; Yarim ship holat	Sovuqlayin; Quyma nuqsonlarni bartaraf etish, Qetallarni qoplash	Birikmalarni yuzasini tozaligini birinchi qatlam bilan saqlash va chokning yuqori zichligini ta'minlash
Elektrod ЦЧ-2	Kul rang; Bolg'alanuvchi; O'ta mustahkam	Pastki holat	Detallarni darz ketgan joylarini, nuqsonlarni sovuqlayin va qizdirib payvandlash	Shar shaklidagi grafitli o'ta mustahkam va plastinasimon grafitli cho'yan konstruksiyalar uchun
Elektrod ОЗЧ-6	Kul rang; Bolg'alanuvchi	Pastki holat; Pastdan yuqoriga vertikal holat	Sovuqlayin payvandlash	Cho'yan buyumlarni payvanlash, qoplash va quyma nuqsonlarni bartaraf etish

**Sovuqlayin payvandlash.** Cho'yan detal sirtidagi darzlar va nuqsonlarni bartaraf qilish uchun sovuqlayin payvandlash usulidan foydalaniladi. Bu usul past haroratli maxsus payvandlash elektrodlariga mo'ljallangan bo'lib, detal yuzasida yupqa payvand metalini hosil qiladi. Bu usul detalni yuqori haroratsiz, deformatsiyalarsiz payvanlashga imkon beradi. Sovuqlayin payvandlash uchun

ishlatiladigan maxsus elektrodlar quyidagilar: MHЧ-2, O3Ч-2, O3Ч-6, IЧ-4

**Qizdirib payvandlash.** Choʻyan detallarni mustahkam payvand birikmalarini olish uchun qizdirib payvandlash usulidan foydalaniladi. Bu usulda payvandlashda yuqori haroratli maxsus elektrodlar ishlatiladi. Bu elektrodlar yuqori haroratda choʻyanni eritib birikma hosil qiladi. Qizdirib payvandlashdan oldin detallar +500...+600 °C gacha qizdiriladi. Yarim qizdirib payvandlashda detallar oldindan +300...+400 °C gacha qizdiriladi.[2]

### **Choʻyanni payvandlash uchun asosiy elektrod markalari**

**Elektrod MHЧ-2.** Bolgʻalanuvchi, kul rang va oʻta mustahkam choʻyanlarni tarkibida nikel va mis boʻlgan elektrodlar bilan payvandlanadi. Ushbu elektrodning oʻzagi nikel (28,5% dan ortiq) va mis, temir va marganets, maxsus qoplama bilan qoplangan. Sovuqlayin payvandlashda, detallarni yuzasini qoplashda va quyma nuqsonlarni bartaraf etishda MHЧ-2 markali elektrod ishlatiladi. Ship va yuqoridan pastga vertical payvandlashdan tashqari hamma vaziyatlarda teskari qutbli oʻzgarmas tokda payvandlash amalga oshiriladi.

Ushbu elektrodning afzalliklari:[3]

1.Oldindan qizdirish talab etilmaydi, faqat qalin detallarni oldindan biroz qizdirish kifoya.

2.Past haroratda erish tezligi yuqori, yoy barqaror yonadi, shlakni koʻchirish oson.Payvand chokning mustahkamligi, plastikligi yuqori, korroziyaga chidamli.

3.Asosiy metal va payvand chokning pangi deyarli bir xil.

4.Payvand chokning qattiqligi nisbatan past boʻlgani sababli konstruksiyalarni birikish joylarida darzlar hosil boʻlish xabfi kam.

MHЧ-2 elektrodi uzatma va mexanizmlarning detallari shesterna, nasos, reduktor, ekskavator kovshalarining eyilgan joylarini taʼmirlashda keng qoʻllaniladi.

**Elektrod O3Ч-2.** Bu elektrod kislotali qoplamali mis elektrod, choʻyanni payvandlashga moʻljallangan. Ushbu elektrod faqat bolgʻalanuvchi va kul rang choʻyanni sovuqlayin payvandlashda hamda yuzalarni qoplashda va quyma nuqsonlarni bartaraf etishda ishlatiladi. O3Ч-2 elektrodi bilan uzunligi 30 dan 50 mm gacha choklar bilan payvandlash tabsiya etiladi. Payvandlashdan keyin chok 60 °C gacha sovutilib prokatlanadi, yaʼni bolgʻahca bilan sekin uriladi. Payvandlashdan oldin elektrod bir soat davomida 190-210 °C da qizdirish kerak boʻladi.[4] Payvandlash pastki va vertical holatda teskari qutbli oʻzgarmas tokda bajariladi.

**Elektrod O3Ч-4.** Tavsifiga koʻra O3Ч-4 elektrodi MHЧ-2 markali elektrodga yaqin boʻlib, u ham deyarli hamma choʻyan turlarini payvandlashda ishlatiladi. O3Ч-4 elektrodi eyilishga chidamli payvand choki hosil qilib, u ishqalanib ishlaydigan detallar uchun qoʻl keladi. MHЧ-2 markali elektrodan farqi O3Ч-4 elektrodleri payvandlashdan oldin 250...280 °C haroratda qizdiriladi.

Xulosa qilib aytganda, choʻyanni payvandlash uchun ishlatiladigan elektrodlar choʻyan buyumlarni qayta tiklashda va taʼmirlashda muhim ahamiyatga ega. Elektrod markasini va payvand turini toʻgʻri tanlash bilan mustahkam payvand birikma hosil qilishga imkoniyat beriladi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. M. M. Abralov, M. A. Abralov, Payvandlash materiallari. Toshkent 2017-240
2. Dunyashin N. S., Ermatov Z. D. Payvandlashning asosiy uslublari. TToshkent Lessonpress-2021.
3. M. M. Abralov, Dunyashin N. S. Payvand birikmalarning sifatini nazorati. TToshkent Lessonpress-2021.
4. G. G. Chernishen, V. B. Mordinskiy. Yosh elektr payvandchilar uchun spravochnik.

### BUXURO HUDUDI EKIN YERLARINING FIZIK-MEXANIK XUSUSIYATLARI

*Mexanika asoslari kafedrasida dosenti Muradov Shuxrat Mustafayevich,  
Mexanika asoslari kafedrasida stajor-o'qituvchisi Rizoqulov Mirzohid Nabijon o'g'li,  
512-23\_Qmb guruh talabasi Xo'jaqulov Fatxullo Ziyodullo o'g'li,  
522-22\_Skt guruh talabasi Pulatova Zinura Umidovna.*

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tuproqning fizik-mexanik xossalari ishchi organlarning konstruksiyasini yaratishda va ishlov berish mashinalarining ish rejimlarini asoslashda hal qiluvchi omillardir. Ular asosan tuproqning turiga va mexanik tarkibiga bog'liq.

Mexanik tarkibi turidan qat'i nazar, qishloq xo'jaligi texnikasi va energetika nuqtai nazaridan tuproqga ishlov berishda ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri tuproqning namligi, qattiqligi va zichligi hisoblanadi.

Buxoro cho'l va yarim cho'l zonasida joylashgan bo'lib, bu mahalliy tuproqlarning xususiyatlariga sezilarli ta'sir qiladi. Tuproqning fizik-mexanik xususiyatlarni aniqlashda ma'lum bir hududning maxsus tadqiqotlarini o'tkazish talab qilinadi. Shu bilan birga, ushbu hudud tuproqlariga xos bo'lgan ba'zi umumiy xususiyatlarni aniqlash mumkin:

#### 1. Tuproq turi:

- Bo'z yerlar: bunday tuproq turi Buxoro viloyatidagi aksariyat qismini tashkil etadi. Kam gumus miqdori, ochiq rang va yuqori karbonat miqdori bilan tavsiflanadi;

- Taqir yerlar: yuzasida zich qobiqli gil tuproqlar. Issiq iqlim sharoitida va namlik etishmasligida shakllangan;

- o'tloqi bo'z tuproqlar: daryo vodiylarida va yer osti suvlari yaqin bo'lgan joylarda uchraydi. Ular bo'z tuproqlarga nisbatan organik moddalarning ko'pligi va tuzilishi yaxshiroqligi bilan ajralib turadi.

#### 2. Fizik xususiyatlari:

- granulometrik tarkibi: tarkibida gil zarralari ko'p bo'lgan qumli va qumloq tuproqlar;

- zichlik: tuproq turiga va siqilish darajasiga qarab o'zgaradi. Bo'z yerlar va takir yerlar odatda yuqori zichlik bilan ajralib turadi, bu esa tuproqqa ishlov berish hamda o'simlik ildizlarining rivojlanishini qiyinlashtiradi;

- suv o‘tkazuvchanligi: zich tuzilishi va organik moddalarning pastligi tufayli suv o‘tkazuvchanligi past;

- suv o‘tkazuvchanlik qobiliyati past, bu qishloq xo‘jaligi uchun sun‘iy sug‘orishni talab qiladi.

### 3. Mexanik xossalari:

- siqilish qobiliyati yuqori, ayniqsa gil takir yerlarda;

- qattiqligi: tuproq namligiga bog‘liq. Quruq bo‘lsa, tuproqlar juda qattiq, ammo namlanganda ular plastik bo‘lib, yuk ko‘tarish qobiliyatini yo‘qotadi;

- yopishqoqlik: asosan namligi yuqori bo‘lgan gil tuproqlarda o‘zini namoyon qiladi.

### 4. Tuproq xossalariga ta‘sir etuvchi omillar:

- iqlim sharoiti: issiq va quruq iqlim tuproqning qurishiga, zich qobiqning shakllanishiga va tuzlarning to‘planishiga sabab bo‘ladi;

- relyef: namlikning taqsimlanishiga va har xil turdagi tuproqlarning shakllanishiga ta‘sir qiladi:

- antropogen ta‘sir: uzoq muddatli sug‘orish tuproqlarning sho‘rlanishi va botqoqlanishiga olib kelishi mumkin.

### 5. Qishloq xo‘jaligi uchun ahamiyati:

Buxoro tuproqlarining fizik-mexanik xossalari dehqonchilik uchun ma‘lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Tuproq unumdorligini oshirish va barqaror hosil olish uchun maxsus agrotexnik tadbirlarni qo‘llash zarur bo‘ladi.

- melioratsiya: sho‘rlangan tuproqlarni yuvish, drenajni yaxshilash;

- organik o‘g‘itlarni qo‘llash: organik miqdorini oshiradi, tuproq tarkibini va uning suvni ushlab turish qobiliyatini yaxshilaydi;

- mulchalashdan foydalanish: tuproqni haddan tashqari qizib ketish va quritishdan himoya qiladi, namlik bug‘lanishini kamaytiradi;

- qurg‘oqchilikka chidamli ekinlarni tanlash, ya‘ni mahalliy sharoitga moslashgan.

Shuni yodda tutish kerakki, bu faqat Buxoro tuproqlarining umumiy xususiyatlari. Muayyan hududning fizik-mexanik xossalari to‘g‘risida aniq ma‘lumotlarni olish uchun nafaqat Buxoro viloyatida, balki butun O‘zbekiston hududida maxsus tadqiqotlar olib borish talab etiladi.

## **Adabiyotlar**

1. Мурадов Ш.М. Обоснование параметров рабочих органов для рыхления подпахотного слоя без уплотнения дна борозды. Nomzodlik dissertasiya. –Buxaro, 2001. – 129 bet

2. Муродов Н.М., Мурадов Ш.М. Изучение физико-механических свойств почвы в период основной обработки. O‘zbekiston konchilik xabarnomasi ilmiy-texnik va ishlab chiqarish jurnali, oktyabr-dekabr 2013. №55. 97-98 betlar.

3. Shukhrat Muradov. Research of Working Bodies for Uncomplacing the Underground Layer of Soil. International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry “Interagromash”, XV International Scientific Conference

“Interagromash 2022”, Lecture Notes in Networks and Systems book series 574.05 (2023): 1099-1108.

4. Mustafaevich, MS, Results of studies of the impact of agricultural tractors and machines on soil // European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, 7 (7), pp. 834–845,

<https://www.scopus.com/authid/detail.url?origin=resultslist&authorId=57220178349&zone=>

## **СНИЖЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ЖИРНЫХ КИСЛОТ, ПОЛУЧЕННЫХ ИЗ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ МАСЛИЧНЫХ КУЛЬТУР, ЯДЕР ХЛОПЧАТНИКА**

**Савриев Йулдош Сафарович**

*Доцент Бухарского инженерно-технологического института.*

Изобретение относится пищевой промышленности в частности производству растительного масла, из ядра семян хлопчатника прессованием. На существующих заводах по получению масла прессовым способом, масло выходящее из прессов собирается на один шнековый транспортер и она поступает на фузо отделитель, на фузо отделителе происходит процесс осаждения фузы на дно аппарата, из нижней части фузо отделителя наклонный редлер транспортирует масличную фузу на ковшовый транспортер, отделенная масличная фуза с помощью ковшového транспортера доставляется на шнековый транспортер для измельченной мятки далее она смешивается с мяткой поступающего на пропарочно-увлажнительную шнек после измельчения, далее мятка подвергается жарению а затем прессованию.

Известен способ производства хлопкового масла прессованием (Руководства по производству растительных масел. Автор Сергеев А. том 1, книга первая) ядра семян хлопчатника включающее измельчение ядра семян на вальцевых станках с целью получения мятки, влаготепловая обработка мятки для достижения влажности 11,5-17,2% в зависимости от сорта семян, температуры 70-80 С, жарение в течении одного часа под температурой 100-105 С, затем прессование для получения черного масла и масличного жмыха, жмых направляется на экстракцию, черное масла собирается на фузо отделителе, фуза отделяется в количестве 0,8-1% или для производительности завода по прессовому черному маслу 24 тон составляет 2,4 тон в сутки, отделенная фуза с масличностью 50-55% и температурой 90 С обратно возвращается на жарение, а черное масла с помощью центробежного насоса перекачивается на фильтрацию, после чего на сборник черного масла, откуда направляется на рафинацию.

Недостатком данного способа является повышение кислотного числа черного масла до 5-6 мг КОН/г на фузо отделителе за счет возвращения отделенной фузы на жарение, так как, продолжительность жарения мятки



составляет около одного часа и температура процесса более 100 С, которое способствует повышению кислотности масла. Для снижения кислотности полученного черного масла на норму до 2- 3 mg KOH/g требуется дополнительные расходы при рафинации черного масла, калцинированной соды и отбеливающей глины, самое важное потери рафинированного масла увеличивается в пределах 0,5-1% от общего объема перерабатываемого черного масла .

При суточном производительности завода по прессовому черному маслу 24 тон, потери рафинированного масла, за счет повышения кислотности масла составляет 0,12-0.24 тон за сутки масла.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Й.С.Савриев Исследование технологии экстракции жмыхов масличных семян.
2. Й.С.Савриев,. Ш.Ш.Хакимов Исследование и оптимизация технологии экстракции хлопковых жмыхов.
3. Savriyev Y.S., SH.SH.Hakimov., K.H.Majidov Technological features of olive seeds.
4. Savriyev Y.S., SH.SH.Hakimov., K.H.Majidov Structure of some olive seeds.
5. Й.С.Савриев., К.Х.Мажидов Технология экстракции жмыхов масличного сырья.

## **EKISH MUDDATLARI VA ME'YORLARINI KUZGI ARPANING BIOLOGIK QURUQ MASSA TO'PLASHIGA TA'SIRI**

**B.Q.Axmadjonov**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti mustaqil izlanuvchisi  
+99893-412-92-50*

Bugungi kunda dunyoda g'alla yetishtiruvchi mamlakatlar arpa seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyasining ilg'or usullari, xususan, ekish muddatlari va me'yorlari, o'g'itlash tizimi, sug'orish muddati va me'yorlari hisobiga don hosildorligi va sifatini oshirib bormoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlashda boshoqli don ekinlari, jumladan arpa navlari hosildorligi va sifatini oshirish bugungi kundagi g'allachilikdagi eng muhim ahamiyatga molik vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz seleksioner olimlari ham mamlakatimiz donchiligini rivojlantirishda xorijiy davlatlar seleksionerlari bilan hamkorlikda arpaning jahon kolleksiya namunalarini o'rganish va mamlakatimiz iqlim sharoitiga mos namunalar tanlash ustida ilmiy ishlar olib bormoqdalar.

Adabiyotlardagi ma'lumotlarning ko'rsatishicha, arpadan eng yuqori hosil olish uchun ma'lum tuproq-iqlim sharoitida maqbul ekish muddatlari va me'yorlari

hamda o'g'itlash tizimiga rioya qilish talab etiladi. Ko'p olimlarning fikricha, arpa hosildorligi ekish muddatiga, ekish me'yoriga, nav xususiyatiga, o'g'it bilan ta'minlanganligiga bog'liq. [1,2]

Bu esa arpa ekish muddatlari va o'g'itlash me'yorlari bo'yicha sug'oriladigan yerlarda yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda mintaqa tuproq-iqlimi, navlarning biologik xususiyatlariga mos maqbul ekish muddatlari va o'g'itlash me'yorlarini aniqlash hamda ularni ishlab chiqarishga joriy qilish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Andijon viloyati sharoitida sug'oriladigan yerlarga ekiladigan kuzgi arpanavlaridan eng yuqori va sifatli don hosili olishni ta'minlaydigan maqbul ekish muddatlari va me'yorlarini aniqlash maqsadida dala tajribilari o'tkazdik.

Ilmiy-tadqiqot ishlari Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanida joylashgan "Bozarboy" fermer xo'jaligining qadimdan sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlari sharoitida olib borildi.

Tajriba 24 ta variantdan iborat bo'lib, 3 takrorlanishda bir yarusda joylashtirildi. Tajriba dalasida egat kengligi 70 sm, uzunligi 50 m. Har bir bulakchalar maydoni 280 m<sup>2</sup>, hisobga olinadigan maydon 140 m<sup>2</sup>.

Tajribada kuzgi arpani "Ixtiyor" va "Bolg'ali" navlarini to'rt xil urug' ekish (1-oktabr, 15-oktabr, 1-noyabr, 15-noyabr) muddatida kuzgi arpa urug'lari uch xil ekish (3,0 mln/ga, 4,0 mln/ga, 5,0 mln/ga) meyorlarda ekib o'rganildi.

Tadqiqot olib borilgan 2019 yilda kuzgi arpa urug'larini ekish muddatlari va me'yorlari hamda qo'llanilgan agrotexnik tadbirlarni quruq massa to'plashiga ta'sirini aniqlash maqsadida variantlar kesimida kuzatuvlarimizni olib bordik.

Olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, (2016-2017 yy.) kuzgi arpaning "Ixtiyor" navi urug'lari 1-oktabr muddatida gektariga 3,0 mln. dona unuvchan urug' hisobida ekilgan (1-variant)da o'simlikning quruq massa to'plashi tuplash fazasida 14,11 s/ga ni, nay tortish fazasida 42,47 s/ga ni, boshhoqlash fazasida 133,55 s/ga ni, pishish fazasining sut pishish davrida 190,50 s/ga va mum pishish davrida 215,37 s/ga ni tashkil etgan bo'lsa, shu muddatda gektariga 4,0-5,0 mln. dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 2-3 variantlar tahlil qilinganida esa o'simlikning quruq massa to'plashi tuplash fazasida 16,32-18,60 s/ga ni, nay tortish fazasida 51,63-59,89 s/ga ni, boshhoqlash fazasida 154,68-173,11 s/ga ni, pishish fazasining sut pishish davrida 223,38-263,28 s/ga va mum pishish davrida 250,44-300,44 s/ga ni tashkil etganligi aniqlandi.

Kuzgi arpa urug'lari 15-oktabr muddatida ekilgan variantlar tahlil qilinganida esa, gektariga 3,0 mln. dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 4-variantda o'simlikning quruq massa to'plashi tuplash fazasida 13,48 s/ga ni, naychalash fazasida 40,56 s/ga ni, boshhoqlash fazasida 127,71 s/ga ni, pishish fazasining sut pishish davrida 180,62 s/ga va mum pishish davrida 199,15 s/ga ni tashkil etib, 1-oktabr muddatida gektariga 3,0 mln. dona unuvchan urug' ekilgan variantga nisbatan tuplash fazasida 0,63 s/ga ni, nay tortish fazasida 1,92 s/ga ni, boshhoqlash fazasida 5,85 s/ga ni, pishish fazasining sut pishish davrida 9,88 s/ga va mum pishish davrida 16,23 s/ga kam natija ko'rsatganligi aniqlangan bo'lsa, shu muddatda gektariga 4,0-5,0 mln. dona unuvchan urug' hisobida ekilgan 5-6 variantlarda o'simliklarning quruq massa to'plashi

o‘rganilganida, tuplash fazasida 15,46-17,06 s/ga ni, naychalash fazasida 47,62-54,06 s/ga ni, boshloqlash fazasida 143,40-156,39 s/ga ni, pishish fazasining sut pishish davrida 205,76-237,16 s/ga va mum pishish davrida 223,49-262,24 s/ga teng bo‘lib, 1-oktabr muddatida gektariga 4,0-5,0 mln dona unuvchan urug‘ hisobida ekilgan 2-3 variantlarga nisbatan o‘simliklarning quruq massa to‘plashi tuplash fazasida 0,86-1,54 s/ga, naychalash fazasida 4,00-5,83 s/ga, boshloqlash fazasida 11,27-16,72 s/ga, pishish fazasining sut pishish davrida 17,62-26,12 s/ga va mum pishish davrida 26,95-38,20 s/ga yuqori bo‘lganligi qayd etildi.

Olingan ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, urug‘ ekish muddatlarining kechiktirib borilishi o‘simlikning quruq modda yig‘ishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan holda 1-oktabr muddatiga nisbatan gektariga 3,0 mln dona unuvchan urug‘ hisobida ekilganida amal davri oxiriga borib, 16,23 s/ga dan 45,73 s/ga gacha, gektariga 4,0-5,0 mln dona unuvchan urug‘ ekilganida esa 26,95-38,20 s/ga dan 65,63-86,83 s/ga gacha kam bo‘lganligi kuzatildi.

Tajribada kuzgi arpaning “Bolg‘ali” navi ekilgan variantlar muddatlar va me’yorlar kesimida tahlil qilinganida ham yuqoridagi qonuniyatlar takrorlanganligi kuzatilib, o‘simlikning quruq massa to‘plashi ekish muddatlarining kechiktirib borilishi bilan kamayib borganligi kuzatilgani holda 1-oktabr muddatiga nisbatan gektariga 3,0 mln dona unuvchan urug‘ hisobida ekilganida amal davri oxiriga borib, 18,33 s/ga dan 50,47 s/ga gacha, gektariga 4,0-5,0 mln dona unuvchan urug‘ ekilganida esa 28,18-38,96 s/ga dan 69,26-92,45 s/ga gacha kam bo‘lganligi qayd etildi.

Tajriba variantlaridan olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, kuzgi arpa o‘simligini quruq massa to‘plashiga ekish muddatlari hamda ko‘chat qilinligi sezilarli ravishda ta’sir ko‘rsatgan. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘simlikning quruq massa to‘plashi urug‘larni ekish muddatlariga, ko‘chat qalinligiga hamda qo‘llanilgan agrotexnik tadbirlarga uzviy ravishda bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Желтопузов В.Н., Дубина В.В., Шабалдас О.Г. Зависимость урожайности и качества зерна озимого ячменя от условий возделывания // Вестник АПК Ставрополя. - 2012г. - №3(7). - С.23-27.
2. Jumaboev P. Sug‘oriladigan maydonda kasallikka chidamli arpa navlari yaratishning ahamiyati // O‘zbekistonda g‘allachilikning yaratilgan ilmiy asoslari va uni rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. -Jizzax «Sangzor», 2013. -B. 104-105.
3. Зокоева В.Р., Козырева М.Ю., Базаева Л.М. Агрэкологические приемы повышения продуктивности растений озимого ячменя // Достижения науки–сельскому хозяйству: материалы Всероссийской научно-практической конференции. -2017. -С. 1620.
Ipakchilik tarmog‘i oxirgi yillarda rivojlanib borayotgan sohalardan biri bo‘lib kelmoqda. Yurtimiz 2023-yilda 25,9 ming tonna pilla xom-ashyosi tayyorlangan [1]. Pillachilikda va pillakashlik korxonalarida ko‘p miqdorda chuvib bo‘lmaydigan pillalar, pillalarni chuvishda tolali chiqindilar va g‘umbak hosil bo‘ladi. Bu chiqindilardan foydalanish (utilizasiya qilish) xalq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega, chunki har bir kilogramm ishlab chiqilgan xom ipakga 1 kg ga yaqin turli chiqindilar to‘g‘ri keladi. Quruq pilla og‘irligining 60 % ni tashkil etuvchi ipak qurti g‘umbaklari ipakchilik sanoatida bio-o‘g‘it sifatida foydalanish uchun qishloq xo‘jaligi yerlariga, tashlanadi [2]. Ipakchilik sanoatida eng keng tarqalgan ipak qurti turlari tut ipak qurti (*Bombyx mori* L.), eman ipak qurti (*Antheraea pernyi*) va eri ipak qurti (*Samia cynthia ricina*) hisoblanadi [3].




### 1-rasm. Tut ipak qurti g‘umbagini elementlarning tarqalishi Skanerli elektron mikroskop (JSM-IT200, JEOL) dagi ko‘rinishi.

O‘zbekistonda yetishtirilayotgan tut ipak qurti (*Bombyx mori* L. t) g‘umbaklari ipak to‘qish zavodlarida har yili 15 ming tonnagacha to‘planadi [4]. Tut ipak qurti g‘umbagi tarkibida 27 % moy va 50 % oqsildan iborat shuning uchun asosiy qismi baliqchilik va tovuqchilik sohasida ozuqa sifatida foydalaniladi. Ipak qurti g‘umbagi tarkibidagi moddalar va ularning miqdori ipak qurti boqishda foydalaniladigan ozuqaning tarkibiga, hududning iqlim sharoitiga va turli omillarga bog‘liq [5]. O‘rganilgan tadqiqotlar asosida ipak qurti g‘umbagidan jahonda yuqori baholanadigan g‘umbak yog‘i olish mumkin, undan tashqari qishloq xo‘jaligida o‘g‘it sifatida qo‘llash va hozirda ishlatilayotgan karbamid, ammoniy nitrat va shu

kabi mineral o‘g‘itlar bilan o‘zaro aralashmasi natijasida yuviluvchanligi juda past bo‘lgan tuproqni sho‘rlanishini oldini oladigan organo-mineral o‘g‘it olish mumkinligini ko‘rsatmoqda (1-rasm).

Tut ipak qurti g‘umbagining asosiy tarkibiy qismi organik birikmalardan iborat uning tarkibida juda kam miqdorda makro va mikroelementlar mavjud. Tarkibida juda kam miqdorda Ca, Fe, Mn, Mg, S, P, K shu kabi elementlar mavjudligini ko‘rsatmoqda (2-rasm)



**Rasm-2: Skanerli elektron mikroskopda (JSM-IT200, JEOL) tut ipak qurti g‘umbagining elementar tahlili**

Yuqorida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlillaridan shunday xulosa qilish mumkinki, kelajakda O‘zbekistonda yetishtirilayotgan tut ipak qurti (*Bombyx mori* L. t) g‘umbaklarini karbamid, bentonit va glaukonit o‘zaro aralashmasi o‘simliklar uchun zarur bo‘lgan organo-mineral tarkibga boy bo‘lgan yangi turdagi organo-mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bu sohada yuqori iqtisodiy samara beradigan dolzarb muammolarni yechimiga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan bo‘lishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi “Respublikamizda qancha pilla yetishtirilgan” <https://www.agro.uz/respublikamizda-qancha-pilla-yetishtirilgan/>

2. Z.J. Wei, A.M. Lia, H.X. Zhang, J. Liu, S.T. Jiang, Optimization of supercritical carbon dioxide extraction of silkworm pupal oil applying the response surface methodology, *Bioresour. Technol.* 100 (2009) 4214–4219.

3. Ferdousi L, Begum M, Yeasmin MS, Uddin J, Miah MA, Rana GMM, Chowdhury TA, Bobby F, Maitra B, Khan R, Emran TB, Siddique MAB. Facile acid fermentation extraction of silkworm pupae oil and evaluation of its physical and chemical properties for utilization as edible oil. *Heliyon.* 2023 Jan 6;9(1):e12815. doi: 10.1016/j.heliyon.2023.e12815. PMID: 36647348; PMCID: PMC9840356.

4.Хамидов Б.Т. Совершенствование процесса извлечения масла из куколок тутового шелкопряда. Канд. диссертации. Ташкент-2004, –5 с.

5.Махмудов, Рафик Амонович, and Шамшод Файзулла Угли Фатиллоев. "ИЗУЧЕНИЕ МАКРО И МИКРОЭЛЕМЕНТНОГО СОСТАВА ОТХОДОВ, ПОЛУЧАЕМЫХ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПЕРЕРАБОТКЕ ШЕЛКОВИЧНОГО СЫРЬЯ." *Universum: технические науки* 6.2 (119) (2024): 46-49.

## **ПАХТА ХОМ АШЁСИНИ НАМЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ**

**М.Х.Гаппарова<sup>1</sup>, Р.А.Гуляев<sup>2</sup>**

*Бухоро муҳандислик-технология институти<sup>1</sup>, Бухоро ш., Ўзбекистон*  
*Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти<sup>2</sup>, Тошкент ш., Ўзбекистон*  
*+99890 611 70 53*

Маълумки, жаҳон бозорида пахта толаси тўқимачилик саноатининг асосий хом ашёси ҳисобланади. Бугунги кунда Ўзбекистон пахта етиштириш бўйича дунёда 6-ўринда туради. Ҳозирги кунда эса республикада йилига 3,5 млн. тонна пахта хом ашёси қайта ишланади ва 1-1,2 млн. тонна пахта толаси олинади.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини ривожлантириш, соҳа корхоналарининг инвестиция ва экспорт фаолиятини кўллаб-қувватлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилиши натижасида республикада ишлаб чиқарилаётган пахта толаси тўлиқ ва ип калаванинг 45 фоизи қайта ишланмоқда, шунингдек, соҳанинг йиллик экспорт салоҳияти 3,2 миллиард доллардан ошди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60 сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони, 2021 йил 6 ноябрдаги ПҚ-16 сон «Пахта-тўқимачилик кластерлари фаолиятини тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 22 июндаги 397-сон «Пахта-тўқимачилик ишлаб чиқаришини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ли қарори ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш зарурлиги кўрсатиб ўтилган.

Пахта тозалаш корхоналарида сифатли тола ва тўқимачилик саноатида калава ипларнинг олинисида пахта хомашёси ва толанинг намлик кўрсаткичи катта роль ўйнайди.

Пахтани қайта ишлаш жараёнида пахта хомашёси бир қанча технологик жараёнлардан ўтиши натижасида унинг намлик кўрсаткичи тушиб бораверади. Бу эса пахта хом ашёсида калта толаларнинг кўпайиши, бу калта толаларнинг чиқиндиларга ортиқча чиқиб кетиши, нуқсонларнинг кўпайиши ва механик шикастланишларга олиб келади. Натижада бу тўқимачилик корхоналарида йигирув жараёнида ундан олинандиган калава ипларининг сифатига салбий



таъсир кўрсатади: пилта ва пиликларнинг нотекислиги, узилиши ва ҳ.к. Бу эса бугунги кунда пахтачилик саноатининг долзарб муаммолардан бири бўлмоқда.

Бу муаммоларни бартараф этиш мақсадида бир қанча олимларимиз илмий тадқиқотлар олиб бормоқдалар.

Ҳозирги вақтда пахта хом ашёсини ва пахта толасини намлаш технологиясини такомиллаштириш, намликнинг тола сифат кўрсаткичларига таъсири масалалари бир қатор олимлар: G.J.Mangialardi, S.E.Hughs, I.Price, A.C.Griffin, V.P.Moore, W.Anthony, R.K. Byleg ва бошқаларнинг ишларида кўриб чиқилган. Толали материалларни намлаш технологияси бўйича назарий-методологик асосларини ёритувчи фундаментал масалалари билан боғлиқ тадқиқотлар бир қатор олимлар томонидан олиб борилган, жумладан, А.П.Лыков, Р.П.Никитин, А.П.Парпиев, А.Е.Лугачев, А.М.Гуляев, Б.М.Мардонов, Р.П.Саидов, Л.С.Рябинская, О.О.Джураев, Ф.Исанов, Н.А.Хусанова, З.С.Усманов каби олимлар томонидан тадқиқ қилинган ва маълум даражадаги ижобий натижаларга эришилган.

Тадқиқотчилар томонидан 20 дан ортиқ толани намлаш усуллари ва уларни амалга ошириш ускуналари ишлаб чиқилган. Намлаш агентлари нам ҳаво, тўйинган ва тўйинмаган буғ, ҳаво ва буғ аралашмалари ҳамда дисперс ҳолдаги сувни толани намланиши ва сифатига таъсири аниқланган.

Н.А.Хусановнинг диссертация ишида пахта ва толани намлаш объекти сифатида хосса ва хусусиятлари, уларни намлаш усуллари ва технологияларининг ҳозирги ҳолати таҳлил қилинган. Таҳлиллар натижасида толани намланиш объекти сифатида гигроскопик ва сорбцион хусусиятлари инобатга олинмаганлиги, намлаш жараёнининг назарий асослари яратилмаганлиги, мавжуд намлагичларнинг намлаш самарадорлиги 0,2-0,5% дан ошмаслиги хулоса қилинган.

Шунингдек, пахта ва толани намлашни назарий масалалари, тола юзасидаги сув томчиси, аэродинамик кучлар таъсиридаги ҳаракати ўрганилган, пахта тозалаш корхоналарида пахта ва толани намлаш самарадорлиги аниқланган. Пахтани намлашни самарали технологияси танланган ва тажрибалар натижасида асосланган. Қуритиш барабанида пахтани намлашни рационал режимлари аниқланган.

толани сув буғи билан намлаш жараёнида намликни тола юзасида томчи ҳолатида конденсация бўлиши ва очиқ ҳаво билан контактда бўлган ҳолатда ва пневматик узатишда қисқа муддатда буғланиб кетиши ўтказилган тажрибалар асосида аниқланган;

пахтани қуритиш барабанида намланиш фоизи, толани намлашдан кейин ва жин тарновидаги намлиги ҳамда ишлаб чиқарилган толадаги нуқсонлар ва ифлос аралашмалар миқдорини аниқлаб берувчи регрессия тенгламалари кичик квадратлар усули ёрдамида олинган ҳамда пахтани намлашни рационал режимлари аниқланган. [1]

З.С.Усмановнинг диссертация ишида конденсор корпусида ўрнатиладиган пахта толасини инновацион портативли намлаш қурилмаси яратилган, пахта толасини конденсорда намлаш самарадорлигини ошириш

режимлари ишлаб чиқилган, электр энергияни тежаш мақсадида конденсорнинг сиқувчи валиклари зонасида толани намлашнинг инновацион технологияси ишлаб чиқилганлигини кўриш мумкин.

Шунингдек, конденсер ичида намланиш жараёнида пахта толасининг ҳаракатланиш модели қурилган ва уларнинг қонуниятларини акс эттирувчи ечимлар олинган. [2]

Ушбу олиб борилган илмий тадқиқотлар афзаллик томонлари билан бир қаторда камчиликларга ҳам эга. Буғ генераторлари ёрдамида пахта хомашёси ва толасини намлашда бир қанча камчиликлар учраб туради: унда деталлар сонининг кўплиги, уларнинг ишдан чиқиши, синиши, ишлаш вақтида шовқин бўлиши, таннархининг қимматлиги, энергиянинг кўп сарфланиши, иситиш, уларда чўкиндиларнинг ҳосил бўлиши, коррозияга учраши, сувга тўйинганлигининг камлиги, толанинг сарғайишига олиб келиши шулар жумласидандир.

Ушбу таҳлиллардан келиб чиқиб, пахта хомашёсини совуқ буғ ёрдамида намлаш технологиясини қўллашни тавсия этмоқчимиз. Биз тавсия этаётган ушбу намлаш технологияси пахта хом ашёсини толаажратиш жараёнидан олдин тадбиқ этилиши назарда тутилган. Ушбу қурилма таннархи харажатлари арзон бўлиб, энергиянинг тежамкорликка, пахта хомашёсининг сифатини сақлаб қолишга эришилади ва пахта тозалаш корхоналарининг иқтисодий самарадорлигини ошишига олиб келади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6-мартдаги ПҚ-4633-сонли “Пахтачилик соҳасида бозор тамойилларини кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
2. Гуляев Р.А. Разработка нового способа увлажнения хлопкового волокна перед прессованием. Диссертация на соискание ученой степени кандидата технических наук. - Ташкент, 2004-11 с.
3. Гуляев Р.А. Методы создания комплексной технологии увлажнения хлопко-сырца и хлопкового волокна на хлопкоочистительных заводах: Диссертация на соискание степени доктора технических наук. - Ташкент, 2016.-11 с.
4. Н.А. Хусанова. Пахта толасини намлашнинг тежамкор технологиясини ишлаб чиқиш. Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2022-

## СИНТЕЗ И ИССЛЕДОВАНИЕ КАРБОКСИЛЬНОГО КАТИОНИТА НА ОСНОВЕ ПРОДУКТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ АКРИЛОВОЙ КИСЛОТЫ И ФУРФУРОЛА

Н.К.Жамилова<sup>1</sup>, М.Х.Заприпов<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Бухарский инженерно-технологический институт, г. Бухара, Узбекистан

<sup>2</sup>Бухарский инженерно-технологический институт, г. Бухара, Узбекистан  
+998907155060


В статье приведены данные по исследованию процесса образования карбоксильного катионита, поликонденсацией акриловой кислоты с фурфуролом. Было изучено влияние температуры, концентрации катализатора и соотношения акриловой кислоты и фурфурола на процесс поликонденсации и определены оптимальные условия синтеза катионита. Представлялось целесообразным установить оптимальные условия синтеза катионита с помощью кинетических исследований: зависимость от температуры реакции, концентрации катализатора, и соотношения исходных веществ, и др.

Синтез катионита проводили в 3-х горловой колбе, помещенный в термостат, снабженный мешалкой и гидравлическим затвором, термометром и обратным холодильником. Отсчет времени начинали после введения первой капли фурфурола в колбу, содержащую акриловую кислоту и катализатор хлористый цинк. Течение реакции контролировали по изменению концентрации фурфурола путем отбора проб через определенные промежутки времени. Реакционная смесь отбиралась в количестве 1-1,5 гр. и помещалась в колбы с шлифованными пробками, в которые предварительно заливался 1 М раствор сульфата натрия, нейтрализованный минеральной кислотой и спиртово-бензойной смесью (1:1). Выделившийся NaOH оттитровали известным способом 0,1 н. раствором HCl в присутствии фенолфталеина до исчезновения окраски.

### Влияние температуры реакции на взаимодействие акриловой кислоты с фурфуролом

Для выявления влияния температуры реакции на процесс поликонденсации акриловой кислоты с фурфуролом, реакцию проводили при температуре 60, 70, 80°C. Мольное соотношение акриловой кислоты к фурфуролу было 1:1, количество катализатора соответственно 0,05 молей ZnCl<sub>2</sub> на 1 моль фурфурола и было постоянным.

На рис. 1. представлена зависимость степени превращения полимера от продолжительности реакции при различных температурах.



**Рис. 1. Зависимость степени превращения (F) поликонденсации акриловой кислоты с фурфуролом от продолжительности реакции при различных температурах.**

На основании полученных данных был определен характер логарифмической зависимости изменения концентрации реагирующих веществ по времени при различных температурах. Для расчета принимались результаты соответствующие неглубокой степени превращения (до 20 %) (рис. 2). Линейный характер зависимости, представляемый на рис. 2 свидетельствует о том, что реакция поликонденсации акриловой кислоты с фурфуролом протекает как реакция второго порядка. Об этом же свидетельствует постоянное значение констант скоростей реакции вычисленных для реакции второго порядка. Из значений констант скоростей реакции поликонденсации при различных температурах и графической зависимости  $-\lg K$  от  $1/T$  и по уравнению Аррениуса была определена энергия активации реакции поликонденсации акриловой кислоты с фурфуролом, которая соответствовало 12,8 ккал/моль.

#### Список литературы

1. Nigina, J., & Mizrob, Z. (2023). PRODUCTION OF VINYL ETHERS OF FURFURYL ALCOHOL. *Universum: химия и биология*, (9-2 (111)), 57-62.
2. Даврон о'гли, Северная Дакота (2023 г.). ПРИМЕНЕНИЕ МОЧЕВИНО-ФОРМАЛЬДЕГИДНЫХ И МОЧЕВИНО-ФУРФУРОВЫХ СМОЛ В РАЗЛИЧНЫХ РАСТВОРИТЕЛЯХ. *Американский журнал педагогических и образовательных исследований*, 12, 265–267.
3. Zuhridin, R., Niginabonu, J., Aminjon, V., & Temurbek, D. (2022). MECHANISMS OF ETERIFICATION OF TEREFTALIC ACID WITH ETYLENGLYCOL. *Universum: технические науки*, (5-11 (98)), 63-67.
4. O'G'Li, R. Z. K., & Qizi, J. N. Q. (2022). ANALYSIS OF IMPORTANCE AND METHODS OF PRODUCTION OF BLOCK SOPOLYMERS BASED ON POLYETYLENTEREPHTALATE. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, 3(1), 51-55.

5. Zuhridin, R., & Niginabonu, J. (2022). PRODUCTION OF POLYETHYLENE TEREPHTHALATE. *Universum: технические науки*, (5-11 (98)), 58-62.

## **HARORATNING METTALL KESUVCHI DASTGOHLARNING STATIK ANIQLIGIGA TA`SIRI**

**R.N.Isamov**

*Buxoro muhandislik texnologiyasi instituti*

Po'lat va cho`yanning termik kengayish koeffitsientlaridagi farq tufayli prezitsion dastgohlarning statik aniqligidagi mumkin bo'lgan o'zgarish xonada doimiy haroratni saqlab turish bilan cheklanadi.

Prezitsion mashinalar, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri yoki isitish moslamalari bilan isitishdan va isitiladigan yoki sovutilgan havo oqimlarining ta'siridan himoyalangan bo'lishi kerak, shuning uchun jilvirlash dastgohlari kabi prezitsion dastgohlar kerakli haroratni saqlab turadigan avtomatik ishlaydigan konditsioner qurilmalar bilan jihozlangan maxsus xonalarga o'rnatiladi.

Metall kesish dastgohlarida mexanik ishlov berish jarayoni issiqlik ajralishi bilan kechadi. Ishlov berishda ajralib chiqadigan issiqlik dastgohni to`la quvvatda ishlatish shuningdek, yuklama va kesish tezligining oshishi bilan absolyut qiymatda oshib boradi. Ajralib chiqadigan issiqlikning bir qismi atrof muhitga tarqalsa, asosiy qismi dastgohning issiqlik o`tkazuvchi materialdan tayyorlangan qismlari orqali qabul qilinadi. Dastgoh qismlarining notekis qizishi ayrim qismlarining deformatsiyalanishiga, o`lchamlarining va alohida ishchi yuzalarining o`zgarishiga sabab bo`ladi. Natijada, kesuvchi asbob va ishlov beriladigan tayyorlanmaning nisbiy holati o`zgaradi va ishlov berishdagi xatolik ortadi.

Metall kesish dastgohlarida issiqlikning ajralib chiqishi asosan podshipniklardagi ishqalanish, gidrotizimda va kesishdagi ishqalanish natijasida yuzaga keladi. Tekshiruvlarga ko`ra [1], o`rta o`lchamdagi mod.3151 doiraviy jilvirlash dastgohida quyidagi miqdorda issiqlik ajralib chiqishi aniqlangan: jilvirlash babkasi podshipniklarida 0.2 kkal/sek, gidravlika tizimida 0.27 kkal/sek, kesishda va MMS tizimida 0.96 kkal/sek, detalda 0.03 kkal/sek. Bu miqdordagi issiqlik 1 litr suvni 1 minutda qaynatish uchun yetarli hisoblanadi.

Aniq dastgohlar sirasiga kiruvchi jilvirlash dastgohining ishlash paytida qizishi, kesuvchi asbob (jilvirlash toshi) yuza qismining detal o`qiga kesish kuchi ta`sirida texnologik tizimda yuzaga keluvchi elastik deformatsiyalardan ko`ra sezilarli siljishiga olib keladi. Issiqlik ayniqsa, detalning berilgan o`lchamini jilvirlash babkasining tirkaklari orqali yoki surish mexanizmining tirkaklari orqali jilvirlash toshiga nisbatan belgilashda yuqori aniqlikda ishlovchi avtomatik tsikli jilvirlash dastgohlariga katta ta`sir ko`rsatadi.

B.T.Breev [1] silliqlash dastgohlarini isitish ta'sirida ish qismiga nisbatan bir necha yuz millimetrga va hatto 0,1 mm dan ko'proq siljishini ko'rsatadigan bir qator misollar keltiradi 3A182 mashinasi, bu bo'ylab silliqlash g'ildiragining o'qiga nisbatan


og'ish, u oldingi podshipnikda 0,07 mm, orqa podshipnikda esa 0,11 mm ga yetgan.

Dastgohning isishi kesib kirish bilan silliqlash paytida o'lchov moslamasi yordamida o'lchamlarni avtomatik nazorat qilish bilan ham, ishlov beriladigan detalning shakliga ta'sir qiladi, silliqlash g'ildiragi va ishlov beriladigan detalning o'qlari orasidagi parallellikni buzadi va val bo'yinchasining sezilarli darajada konuslanishiga, ko'pincha 2-3-chi aniqlik sinflarining joizligidan tashqariga chishiga olib keladi.

[1] ga ko'ra, tokarlik va vertikal frezalash dastgohlarining podshipniklar va tishli uzatmalarida ishqalanish natijasida shpindel kallagining qizishi natijasida shpindellarning millimetrning bir necha yuzdan bir qismiga siljishiga olib keladi, ba'zan esa 0,1 mm dan oshib ketadigan qiymatlarga yetadi.

Ish paytida qizishdan yuzaga keladigan dastgohlarning deformatsiyasi dastgoh qismlarining katta massaga ega ekanligi tufayli sekin (1-4 soat) sodir bo'ladi va dastgohning to'xtatilgandan keyin sovishi undan ham sekinroq (10-20 soat) sodir bo'ladi.

Eksperimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, (1-rasm) qizdirilganda, siljishlar birinchi navbatda nisbatan tez sodir bo'ladi va keyin asta-sekin sekinlashadi, bu joy almashishning o'sishini to'xtatish va mashinani to'xtatish bilan tavsiflangan termik muvozanatga erishgandan so'ng, dastgohning sekinlashishi bilan ham sodir bo'ladi.



**1-rasm. Tokarlik dastgohi shpindelining, oldingi babkaning temperaturaviy deformatsiyalanishi natijasida siljishi**

Issiqlik rejimining barqarorlashuvi dastgohning konstruktsiyasiga, uning massasiga, issiqlik taqsimotiga va issiqlik uzatish sharoitlariga bog'liq. Qizishdan oldin va keyin aynan shu dastgohda ishlov berilgan detallarning shakl aniqligidagi farq ruxsat etilgandan katta bo'lishi mumkin. Shuning uchun dastgohni ish holatida sinab ko'rish, agar u uzoq muddat ishlamay turgan bo'lsa, dastgohni qizdirgandan keyingina unda detalga barqaror aniqlikda ishlov berish mumkin. Smenada yoki smenalar oralig'ida vaqtincha to'xtashlar dastgohning sekin sovishi tufayli uni oldindan qizdirishga zarurat tug'dirmaydi.

#### Adabiyot:

1. Бреев Б.Т. Влияние нагрева шлифовальных станков на точность их

работы.- «Станки и инструмент».

2. Маталин А.А., Френкель Б.И., Панов Ф.С. Проектирование технологических процессов обработки деталей на станках с числовым программным управлением. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1977. – 240 с.

3. Энтелис С.Г., Берлинер Э.М. Смазочно-охлаждающие технологические средства для обработки металлов резанием: справочник. – М.: Машиностроение, 1986. – 352 с.

## ОСНОВЫ ТЕОРИИ ПРОЦЕССА ИЗМЕЛЬЧЕНИЯ ЗЕРНА В РОТОЦИОННЫЕ МАШИНЫ.

**Нематов Эркинжон Хамроевич, Каландаров Наврузбек Олимбаевич**  
*Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова*

В мукомольном производстве степень измельчения зерна и его частиц в вальцовом станке оценивается коэффициентом извлечения  $k_n$ , который является функцией зазора между вальцами  $b$  и выражается следующей экспоненциальной зависимостью:

$$k_n = Ae^{-Bb}$$

где,  $b$  зазор между вальцами (м),  $e$ -основание натуральных логарифмов,  $A$  и  $B$  коэффициенты, зависящие от структурно-механических свойств зерна и геометрических и кинематических параметров вальцов.

Установлено, что на величину коэффициента извлечения при неизменном зазоре между вальцами оказывают влияние первоначальные размеры частиц измельчаемого продукта. При этом величина  $k_n$  находится в прямой зависимости от крупности частиц исходного материала.

Разрушение частиц происходит под действием их сжатия и сдвига. В зависимости от структурно-механических свойств частиц и соотношения между величиной межвальцового зазора  $b$  и размером измельчаемых частиц  $a$  разрушение их может произойти как за однократный пропуск между вальцами, так и многократный, что предопределяет степень измельчения зерна.

Производительность вальцового станка - это фактическая пропускная способность при достижении заданной степени измельчения зерна или промежуточных продуктов размола. Пропускная способность совместно работающей пары нарезных вальцов теоретически может быть определена по формуле

$$Q = 3.6 \cdot \rho \cdot l(b+h)v_n \cdot \psi$$

где,  $\rho$  плотность измельчаемого продукта (кг/м<sup>3</sup>),  $l$  длина вальца (м),  $b$  величина зазора между вальцами (м),  $h$  высота рифлей (м), для определения пропускной способности ненарезных вальцов в формуле значение  $h=0$ .  $\psi$  коэффициент объемного заполнения зоны,  $v_n$  средняя скорость продукта в зоне

измельчения (м/с).

Скорость движения продукта в зоне измельчения в первом приближении можно считать равной полусумме окружных скоростей быстро вращающегося и медленно вращающегося вальца. Однако в зоне измельчения гладких вальцов она определяется по формулам

$$v_n < \frac{2v_{\sigma}}{i+1} \cos \alpha; v_n < \frac{2v_m}{i+1}$$

где,  $v_{\sigma}$ ,  $v_m$  окружная скорость соответственно быстро вращающегося и медленно вращающегося вальца (м/с),  $i$  степень измельчения,  $\alpha$  угол захвата продукта вальцами (град).

Скорость зерна в зоне измельчения зависит от взаиморасположения рифлей вальцов. Мелкие фракции движутся в межрифельном пространстве «быстрого» и «медленного» вальцов со скоростями равными соответственно скоростям этих вальцов, а остальные частицы продукта движутся в пространстве межвальцового зазора со скоростью, которая больше скорости  $v_m$  «медленного» вальца и меньше скорости  $v_{\sigma}$  «быстрого» вальца. В соответствии с этим скорость продукта (м/с) при выходе и измельчения равна

$$v_n = k_1 \cdot v_{\sigma} + k_2 \cdot v_2(x) + k_3 \cdot v_m$$

где,  $v_2(x)$  скорость продукта в пространстве межвальцового зазора (м/с),  $k_1$ ,  $k_2$ ,  $k_3$  коэффициенты, показывающие, какая часть продукта движется соответственно со скоростями «быстрого» и «медленного» вальцов и со скоростью  $v_2(x)$ .

Причем распределение скоростей в пространстве зазора условно принято по прямой. С учетом сделанных допущений получена следующая зависимость:

$$v_n = k_1 \cdot v_{\sigma} + k_2 \frac{v_{\sigma} + v_m}{2} + k_3 \cdot v_m$$

Коэффициенты  $k_1$ ,  $k_2$ ,  $k_3$  зависят от шага  $P$  рифлей, их высоты  $h$ , в расположения рифлей и коэффициента заполнения межрифельных пространств (впадин между рифлями) и выражаются следующими зависимостями:

$$k_1 = \frac{0.432 \cdot P \cdot h \cdot l \cdot \psi_1 \cdot z_1 \cdot v_{\sigma}}{Q_{\phi}}; k_3 = \frac{0.432 \cdot P \cdot h \cdot l \cdot \psi_3 \cdot z_2 \cdot v_m}{Q_{\phi}}; k_2 = 1 - k_1 - k_3$$

где,  $z_1, z_2$  число рифлей на 1 см окружности вальцов,  $\psi_1, \psi_3$  коэффициенты заполнения межрифельных пространств «быстро вращающегося» и «медленно вращающегося» вальцов и коэффициент заполнения зоны межвальцового зазора,  $Q_{\phi}$  фактическая производительность вальцового станка (кг/сут),  $l$  длина вальца (м).

Очевидно, что степень измельчения продукта зависит, при прочих равных условиях, от числа воздействий  $R_z$  рифлей на продукт за время  $\tau$  пребывания его в зоне измельчения, определяемой длиной пути обработки. Зоной воздействия рифлей на продукт будет дуга  $L$  круга.

$$L = \frac{\pi \cdot R \cdot \alpha}{180}$$

где,  $R$  радиус вальца (м),  $\alpha$  — угол дуги (град).

Чтобы определить число воздействий рифлями «быстрого» вальца на



продукт, нужно знать время прохождения продукта в рабочей зоне

$$L = v_n \cdot \tau$$

где,  $\tau$  – время прохождения продукта в рабочей зоне (с).

За это время через зону пройдет число рифлей  $z$  «быстрого» вальца (или число воздействия  $R_z$ ,

$$R_z = (v_o - v_m) \cdot \tau \cdot z = \frac{v_o - v_m}{v_n} L \cdot z$$

Подставляя в уравнение значение  $L$  из формулы и значение  $v_n$  из формулы, после преобразования получим

$$R_z = \frac{2\pi}{180} \cdot R \cdot z \cdot \frac{i-1}{A_i+1} \cdot \alpha$$

Считая, что предельное значения угла  $\alpha$  равна углу трения  $\varphi = \arctg f$ , окончательно получим

$$R_z = \frac{2\pi}{180} \cdot R \cdot z \cdot \frac{i-1}{A_i+1} \cdot \arctg f$$

Уравнение показывает, что для вальцов при определенном числе рифлей  $z$  на 1 см и при постоянном дифференциале число воздействий  $R_z$  остается постоянной величиной. Отсюда следует, что  $R_z$  может увеличиваться или уменьшаться при постоянных  $R$  и  $z$  только при увеличении или уменьшении коэффициента соотношения скоростей быстро и медленно вращающихся вальцов (дифференциала межвальцовой передачи)  $i$ .

### Литература.

1. Антипов С.А и др. Машины и аппараты пищевых производств: учебник для вузов: в 3 кн.: Кн. 2, Т.1 Под ред. акад. РАСХН В.А. Панфилова, проф. В.Я. Груданова. — Минск: БГАТУ, 2008.
2. Бутковский В.А., Л.С. Галкина, Г.Е. Птушкина. Современная техника и технология производства муки. – М.: ДеЛи принт, 2006.
3. Демский А.Б., Веденьев В.Ф. Оборудование для производства муки, крупы, комбикормов. Справочник. – М.: ДеЛи принт, 2005.

## ТАБИЎ ВО'YOQLARNI QO'LLANILISH ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

**N.T.Kurbanova<sup>1</sup>, M.I.Temirova<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro sh. O'zbekiston

<sup>2</sup>Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro sh. O'zbekiston

+998907187326

Respublikada keng turdagi sifatli to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, paxta va ipak asosidagi to'qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlash texnika, texnologiyalarini takomillashtirish orqali eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[1].

O'simliklardan olingan tabiiy bo'yoqlarning ko'p turlari mavjud bo'lib, qadimgi Xitoyda indigo, valerian, za'faron, komfri, yashil o't va skutellariya turlari bo'lgan. Hayvonlardan olinadigan tabiiy bo'yoqlar kamroq, asosan shellakli binafsha, karmin va boshqalarni misol qilish mumkin. Shu bilan birga, tabiiy bo'yoqlarni ekstraksiya qilish, ranglarni uyg'unlashtirish va tabiiy bo'yoqlarni matoga bosish uchun ishlab chiqarishda qo'llash sintetik bo'yoqlar kabi qulay bo'lmasada, tabiiy bo'yoqlarni qo'llash bugunki kunning eng dolzarb masalaridan biridir. Tabiiy bo'yoqlar ko'pgina o'zining xususiyatlari bilan sintetik bo'yoqlardan ustun turadi. 1996 yil Germaniya: ba'zi ozo bo'yoqlardan foydalanishni taqiqlay boshladilar, olimlar bu bo'yoqlarning teratogen, kanserogen va inson tanasiga allergik ekanligini aniqladilar. Bu esa yashil bo'yoqlarning ahamiyatini yanada oshiradi. Tabiiy bo'yoqlar, ayniqsa o'simliklardan olingan bo'yoqlar, inson tanasi uchun juda xavfsiz yashil mahsulotdir va bo'yoqlarni chiqarib oladigan ko'plab o'simliklar ma'lum shifobaxsh ta'siri bo'lgan o'simlik dorivor moddalari. Shu bilan birga, matolar sog'liqni saqlashning muayyan funktsiyalariga ega bo'lishi mumkin. Ko'pgina o'simlik bo'yoqlari sintetik bo'yoqlarning ajralib turadigan xususiyati bo'lgan maxsus hidga ega. Tabiiy bo'yoq matolarini afzal ko'rgan ko'plab iste'molchilar ushbu noyob xushbo'y hidni jalb qilishadi. Shu sababli, so'nggi yillarda dunyoda tabiiy bo'yoqlar va tabiiy tolalarga qaytish to'qimachilik moda tendentsiyasiga aylandi. Tabiiy bo'yoqlar bilan bosilgan ipak va paxta kabi tabiiy tolali to'qimachilik yuqori qo'shimcha qiymatga ega yuqori sifatli moda mahsulotlariga aylandi va ularning bozor istiqbollari porloq. Tabiiy bo'yoqlarni chop etishning eng mashhur usullari asosan bo'yash va pardalarni bosib chiqarish, eng ko'p ishlatiladigan tabiiy bo'yoqlar o'simliklardan olingan bo'yoqlardir.

O'simliklardan olingan bo'yoqlar o'simliklarning ildizlaridan, barglaridan, qobig'idan, jarohatidan yoki mevalaridan olinadi [2].

IPAK, pilla tolasi — ingichka, pishiq, yaltiroq, tovlanib turadigan tola; ipak qurtining ipak ajratuvchi ikkita bezidan chiquvchi suyuqlikdan hosil bo'ladigan tabiiy to'qimachilik xom ashyosi. Ipak ipak qurti pillasini o'rab turgan uzunasiga bir-biriga yopishmagan, seritsin (ipak yelimi) bilan qoplangan va yelimplangan ikki toladan iborat. Bu tolada 70—75% fibroin (oqsil modda), 20—25% seritsin, 2—3% turli mineral moddalar, 1 — 1,5% mum va yog'lar bor. Ipak qurtining turiga qarab, pilla tolasining uz. 400—1500 m, ingichkaligini ifodalovchi ko'rsatkich — metrik nomeri (№) 2500—3500 yoki 0,4—0,3 teks bo'ladi. Bitta pilladan olinadigan tola juda ingichka bo'lgani sababli sanoatda ishlatilmaydi. Pillakashlik f-kasida pillani qaynatib, har bir pilladagi tola uchi topib, chiviladi. Tolalarning 5—10 tasi uzunasiga qo'shib yigirilib, kalava holidayi xom ipak olinadi. Qaynatilgan pillaning ham-masidan Ipak chiqmaydi; pilla tolasining 10—15% g'umbak bilan birga qoladi.

Bu qoldiq pilla chiqindisidir. Ularni ham yigirib Ipak olinadi. Nam Ipak tolasining pishikligi 10—15% ga ka-mayadi. Ipak yaxshi elektr izolyatsiya materiali hisoblanadi. Ipak olish uchun katta mehnat sarf bo'ladi. Shu sababli Ipak qimmatbaho to'qimachilik xom ashyosiga kiradi. Ipakdan shoyi to'qish, pishitilgan ip tayyorlash va texnika, aviatsiya, kosmonavtika, elektrotexnika maqsadlarida foydalaniladi.

Eng qadimgi davrlardan boshlab odamlarda kiyimga ehtiyoj tug'ilgan. Kiyim

tayyorlash uchun foydalanilayotgan matoga ko'p narsa bog'liq. Hozirgi kunda teri, paxta, jun, ipak va sun'iy tolalardan mato tayorlanadi. Ular orasida ipak matolar o'zining jilosi, pishiqligi, bejirimligi, ayniqsa, chiroyi bilan ajralib turadi. Ipak qadimdan odamlar hayotida muhim o'rin tutadi. 1877-yilda nemis olimi F. Rixtgofening tomonidan “Xitoy” asarida mil. avv. II – milodiy XVI asrlarda Sharq bilan G'arbni bog'lovchi asosiy yo'lga “Buyuk ipak yo'li” nomini berishi ipakning ahamiyati naqadar kattaligini ko'rsatadi.

Insoniyat qachondan ipak yetishtirish va undan mato to'qishni boshlagan degan haqli savol tug'iladi? Ko'pchilik manbalarda ta'kidlanishicha, pillachilik va pilladan ipak olish hunarining vatani Xitoy bo'lgan. “За Рубежом” jurnali (1984 yil)ning dalolat berishicha, pillachilik miloddan avvalgi 2640-yilda (ya'ni bundan 47 asr muqaddam) imperator Xuan Yuan va uning umr yo'ldoshi Xi Lin Shi hukmdorliklari davrida yuzaga kelgan. Malika qizi bilan bog'da tut daraxti soyasida choy ichib o'tirishsa, piyolasiga tut daraxtidan bir dona pilla tushib eriy boshlaydi. U pillani olmoqchi bo'lganda pilla cho'zilib uzun, ingichka ip bera boshlaydi. Tepaga qarasa, ipak qurti, chiroyli ingichka ip to'qiyotganini ko'radi. Shunday qilib, malika qizi Lun Chen bilan ipakni kashf qilgan. Ipakdan hayratga tushgan malika darhol xizmatchilarini chaqirib, ipak ipni o'rash va yigirib o'ziga gazlama to'qishni topshiradi. Malika o'limidan so'ng ipakchilik xudosi va himoyachisi, ipak qurti esa “kichik imperator” deb e'lon qilinadi. Tut daraxti esa quyosh va hosildorlikni ifodalovchi “muqaddas daraxt” hisoblandi.

Xitoy adabiyotlarida pillachilik dastavval, bundan 4–5 ming yil ilgari Xitoyda paydo bo'lgan, keyin Turkiston va Yevropa davlatlariga tarqalgan deb yoziladi. Buning isboti uchun bir nechta ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, 1958- yilda Chjejang viloyati Usin tumanidan topilgan buyumlar orasida ipak mato va belbog' ham bo'lgan. Hozircha ular Xitoy hududidan topilgan eng qadimiy ipak matolar hisoblanadi. Bu matolar tadqiq etilganida, ular miloddan avvalgi XXVII asrda, ya'ni bundan 4700 yil avval to'qilgan ekan.

Xitoy olimlari tomonidan ipakchilikning qaysi hududda paydo bo'lgani to'grisida uch xil fikr mavjud. Birinchisi, ipakchilik dastlab Xuanxe daryosi bo'yida paydo bo'lgan. Bundan 4–5 ming yil oldin Xuanxe daryosining yuqori va o'rta oqimida turkiy xalqlar yashagan, xitoylar esa mazkur daryoning quyi oqimi janubida yashaganlar. Bu holda Xuanxe daryosi bo'yidagi ipakchilik madaniyati Xitoyga tegishli bo'lmay qoladi. Ehtimol bu, ipakchilik Yanszi daryosi bo'yida paydo bo'lgan degan ikkinchi nazariyaning paydo bo'lishiga olib kelgandir. Uchinchisi esa, bir vaqtning o'zida bir qancha hududlarda paydo bo'lgan. Biz uchinchisi fikrni to'g'ri deb o'ylaymiz. Chunki, tut daraxti Xitoyning bir necha viloyatlarida, Xeshi yo'lagida, Taklamakon vohasida, Pomirning g'arbiy tomonidagi bir qancha joylarda o'sgan.

Yuqoridagi naqshlar asosida ayollarimiz so'zanalar, yostiqlik, turli sumkalar, sharflar va boshqa turdagi maxsulotlar tayyorlaydilar. Tabiiy ipakdan tayyorlangan mahsulotlarga bo'lgan qiziqish nafaqat o'z yurtimizda balki sayyohlar tomonidan juda yuksak e'tirof etilmoqda.

#### **Adabiyotlar:**

1. Temirova, M. I. (2013). Branch Chemistry and Technology. T.: Dizaynpress.

2. Курбанова Н.Т., Темирова М.И. Қоракўл териларини бўяшда табиий бўёқларни кўллаш. «Проблемы, инновационные предложения и решения в области химии и технологии нефти и газа» Сборник материалов международной научно-технической конференции. Бухара. 2023. С.353-357.
3. Temirova, M. I. (2022). Development of Effective Compositions Based on Local and Secondary Raw Materials For. Texas Journal of Engineering and Technology, 14, 76-79.
4. Темирова, М. И. (2022). Чарм ва мўйна чиқиндиларини ишлаб чиқаришнинг замонавий йўналишлари. International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences, 3(2), 39-45.

## **POLIMERLARNI QAYTA ISHLASH SANOATINING TARIXI VA UNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

**Niyozova R.N.**

*Buxoro muxandislik texnologiya instituti, Buxoro shaxar, O'zbekiston  
+998 91 400 26 88*

Fan, texnika va texnologiyaning o'tgan asrning o'rtalaridagi yutuqlari, shubhasiz zamonaviy ilmiy texnik taraqqiyot uchun zamin yaratdi.

XX asrda ayniqsa uning ikkinchi yarmida fan taraqqiyotining sur'ati, o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishdi. Bu davrda to'plangan ilmiy ma'lumotlar, insoniyatning butun tarixi davomida to'plangan bilimlar hajmining  $\frac{3}{4}$  qismidan ortig'ini tashkil etadi. Nazariy va amaliy fanlarga olingan inqilobiy natijalarning olamshumul yutug'i - bu kosmos va yadro energiyasining o'zlashtirilishidir.

Fan, texnika, texnologiyaning ushbu samarali taraqqiyoti yangi ilm talab ishlab chiqarish jarayonlarini vujudga kelishga va uzluksiz rivojlanishiga, chiqariladigan mahsulotlar sifatini yaxshilanishiga va hajmini oshishiga olib keldi. Tabiiyki ishlab chiqarish usullarini o'zgarishi, ta'lim sohasidagi tegishli o'zgarishlarni taqozo etadi.

Polimerlarni qayta ishlash bu yakunlovchi etap bo'lib undan buyum olish va bu buyum konkret talablarga javob bera olishi kerak. Shuning uchun har xil usullar kashf qilish bilan bir qatorda yangi polimer materiallar ishlab chiqarildi.

Agar tarixga ko'z tashlasak, XIX asrning o'rtalarida kauchukni vulkanizatsiyalash uchun uskunalari, tsellyulozani atsetillash va nitrolash usullari paydo bo'ldi. Shundan taxminan 100 yil keyin plastmassalarni qayta ishlash usullari, ularni takomillashtirish va bu usullarni fizik-kimyoviy asosida modellashtirish yuzaga kela boshladi va natijada yangi "Polimerlarni qayta ishlash texnologiyasi" fanining yaratilishiga asos bo'ldi. Polimerlarni qayta ishlash texnologiyasiga rezina materiallar olish, lok-bo'yoq tayyorlash, kimyoviy tolalarni shakllash jarayonlari kiradi. Bular ichida plastmassalarni qayta ishlash (va buyumlar olish) texnologiyasi asosiy o'rinni egallaydi.

Bu yo'nalishni ilmiy jiqatdan asoslab borish 1952 yilda boshlangan

(Berndarm va Mak-Kelvi tomonidan). Hozirgi paytda plastmassani qayta ishlash sanoati yangi usullar va uskunalarga asoslangan. Individual polimerlar polimer kompozitlar va polimerlar aralashmasi bilan almashtirilib borilayapti. Bularning natijasida materiallarning xossalari kengaymoqda va ulardan xalq iste'mol buyumlaridan tortib to harbiy va kosmik texnikada qo'llaniladigan detallarni olish imkoniyatlari yaratilmoqda.[1]

Plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasiga quyidagi jarayonlar kiradi:

1. Kimyoviy tarkibni o'zgartirish, polimerga to'ldiruvchilar, plastifikatorlar kiritish va termomexanik ishlov berish.

2. Olingan materialni shakllash va plastmassadan buyum olish. Buyum konstruksiyasi ilmiy jihatdan asoslangan va konkret ekspluatatsiya sharoiti hisobga olingan holda ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

Shunday qilib polimerlarni qayta ishlash texnologiyasi o'z ichiga turli jarayon va uskunalarini olib, polimerlarning zaruriy (foydali) xossalarni yaxshilash va ularni tayyor buyumga aylantirish jarayonlaridan iboratdir. Polimerlarni qayta ishlaganda ular deformatsiyaga uchraydi, ularda kimyoviy reaksiyalar ketishi mumkin hamda fizik xossalarning qaytmas tarzda o'zgarishini kuzatish ham mumkin. Plastmassalarni qayta ishlashning texnik usullariga quyidagilar kiradi: bosim asosida quyish, ekstruzitsiyalash, kalandrlash, pigmentlarni polimerlarga aralashtirish, polimer plyonka yuzasini modifikatsiyalash va boshqalar. Bosim ostida quyish, ekstruziyalash usullari keng tarqalgan va unumli usullar bo'lib, ularda polimerlarning oqimini kuzatish mumkin, ya'ni bunda ularning fizikaviy va kimyoviy xossalari o'zgarmaydi.

Termoreaktiv materiallarni presslashda, polimer plyonka yuzasiga gaz alangasi yoki koronniy razryad ta'sir qilishi natijasida materialda kimyoviy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Kristallanish darajasi orqali makromolekularning orientatsiyalanishini rostlash, tekstil tolalari va plyonkalar ishlab chiharishda mexanik xossalarni yaxshilash mumkin. Bunday holda materiallarda fizik xossalarning qaytmas tarzda o'zgarishi sodir bo'ladi va oq'ish jarayonida kimyoviy reaksiyalar sodir bo'lmaydi. Polimerni qayta ishlashda reologiya fani katta rol' o'ynaydi, chunki polimerlarni qayta ishlash protsesslarida deformatsiyalanish va oquvchanlik aloqida o'rin olgan. Polimerlarni qayta ishlashda kristallanishni, polimerlarning dielektrikligini hisobga olish lozim. SHuningdek, polimer yuzasida sodir bo'ladigan kimyoviy reaksiyalarni, issiqlik o'tkazish xossalarni ham e'tiborga olish kerak.

Ishlab chiharish samaradorligini oshirish va maqsulot sifatini yaxshilash maqsadida plastmassalarni qayta ishlashda yarim avtomat va avtomatlashgan liniyalarni qo'llash, mikroprotessorli texnikani va sanoat robotlarini keng qo'llash hozirgi kun talabidir.

Plastmassalarni qayta ishlash usuli bilan olingan buyumlarga yaxshi dekorativ ishlov berish, pardozlash va ularni bozorbop qilish, hamda buyumni qaysi sohada qo'llashni texnik-iqtisodiy asoslab berish kerak. Har bir polimerdan qanday buyum yoki maqsulot ishlab chiqarish kerakligini va shu maqsulotga bo'lgan talabni

yaxshi o`rganish lozim. Polimerlarni plastmassa, rezina-texnik buyumlar, lok-buyoq va tolalarga qayta ishlashda xom ashyoni yaxshi tanlab olish va buning uchun o`z navbatida bu polimerlarning xossalarini, tuzilishini va qayta ishlash jarayonida o`zgarishlarini yaxshi bilish kerak.[2]

Plastmassa va rezina-texnik buyumlarini ishlab chiqishda chiqindilar hosil bo`lishi mumkin (ayniqsa, reaktoplastlarda, revulkanizatsiyaga uchragan kauchuklarda), ularni yoqish, suvga tashlash yoki erga ko`mish yaramaydi (masalan, polietilentereftalatdan tayyorlangan idishlarni). Buning uchun har bir korxonada o`zining ekologik tadbirini ishlab chiqishi lozim. Bu tadbirlarda chiqindini kamaytirish, uni qayta ishlash, ifloslangan havoni tozalash va h.k. lar aks ettirilgan bo`lishi lozim.

### Adabiyot

1. Ниёзова, Р. Н., Хужакулов, К. Р., & Фозилов, С. Ф. (2020). Модификация синтетического жира и применение его для жиrowания кож. *ВВК* 79, 600.

2. Хужакулов, К. Р., Ниёзова, Р. Н., Исломов, У. У. У., & Махмудов, А. Ж. (2020). Изменение жира в коже в процессе ее хранения и эксплуатации. *Universum: технические науки*, (12-4 (81)).

3. Ниязова Раъно Нажмиддиновна. "Жиrowание коллагеновых волокон кожной ткани." Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсутович, д-р техн. наук; Заместитель главного редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии (2021): 28.

4. Ниязова Р.Н. "Взаимодействие жиrowующих веществ с коллагеном." *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences* 2.2 (2021): 55-59.

5. Ниёзова Раъно Нажмиддиновна. "Экологические и эксплуатационные свойства жиrowанных кож на основе синтетических жирных кислот." *Science and Education* 2.12 (2021): 347-352.

## OKSIDLI PIROLIZ REAKTORLARI

### Rayimov Zuhridin Xayridin o`g`li

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti, Buxoro sh, O`zbekiston*

O`zbekistonda gazni qayta ishlash sanoati yaxshi rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo`lib, uning xalq xo`jaligidagi salmog`i mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu sohaga tegishli sanoat korxonalari zamonaviy asbob-uskuna va qurilmalar bilan jihozlangan bo`lib, ularda eng ilg`or texnologiyalar asosida mahalliy xomashyolar qayta ishlanib, tayyor mahsulodar olinmoqda.

Zamonaviy kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlarining takomilashishi kimyogar-texnolog muhandislarga ham texnologik jarayonlarni va jihozlarni o`rganish va loyihalashda, qurilmalarni ekspluatatsiya qilishda qator vazifalarni qo`yadi. Yangi mahsulotni ishlab chiqarishga, ushbu mahsulotni kerakli hajmda va belgilangan sifat

darajasida ishlab chiqarish uchun ratsional sanoat texnologik tizimi yaratilgandan so'ngina erishiladi. Qurimalarning uzoq muddat barqaror ishlashi dastlabki ma'lumotlarni tahlil qilish va sistemaga solish, takomillashgan keng o'rganilgan texnologik tizimlarni mukammal bilish va texnologik normalarni aniq hisoblashlar asosida loyihalay olish bilan bog'liq.

Organik sintezda «piroliz» so'zining ma'nosi - organik birikmalarni yuqori temperaturada parchanishi natijasida kichik molekula massaga ega bo'lgan mahsulotlar hosil bo'lishidir. Piroliz yo'li bilan yoqilg'i va moylar yoki neftkimyosi sintezi uchun xomashyolar olinadi.[1]

Piroliz jarayoni isitiladigan reaktorlarda olib boriladi. Jarayonga quyidagi texnologik parametrlar ta'sir etadi: temperatura, xomashyoni reaktorga kelish vaqti va suv bug'i konsentratsiyasi (suyultirgich). Temperatura ko'tarilishi bilan reaksiya tezligi ortadi. Piroliz jarayoni unumdorligi xomashyoni reaksiya zonasiga kelish vaqtiga bog'liq.

Oksidlanish pirolizi uglevodorodlarni ekzotermik yonish reaksiyalari va endotermik piroliz jarayonlari bilan birgalikda bitta apparatda olib boriladi.

Uglevodorodlar pirolizining ushbu usullari sanoatda keng qo'llaniladi, lekin ular orasida eng tejamli oksidlanish pirolizi hisoblanadi. [2]


Kislorod yetishmaganda va yuqori temperaturada metanning yonishi juda tez sodir bo'ladi. Atsetilenning hosil bo'lishini kislorodsiz muhitda sodir bo'ladi. Shu yerda uglerod oksidi konversiyasi ham ro'y beradi.

Tajribada taxminan 1/3 qism kislorod suv, 10-15 % CO<sub>2</sub> va 50-55 % CO hosil bo'lishi uchun sarflanadi.

Jarayon avtotermik sharoitda sodir bo'lgani sababli, metanni parchalanishi uchun kerakli =1500°C temperaturani ushlab turishi uchun CH<sub>4</sub> va O<sub>2</sub> boshlang'ich hajmlari nisbati 100 (60÷65) bo'lishi kerak. [3]

Metanni o'z-o'zidan bir necha yonishi induksiya davri orqali sodir bo'ladi. Bu induksiya davrining davomiyligi temperatura va bosimga bog'liq.

Uglevodorodlarning qisman yonishi hisobiga zarur bo'lgan 1400-1600 °C haroratni hosil qilish uchun oksidli piroliz kislorod ishtirokida olib boriladi.




$$\Delta H = - 803 \text{ kDj/ mol}$$



$$\Delta H = + 376803 \text{ kDj/ mol}$$

Oksidli piroliz reaktori aralashish zonasiga ega bo'lib, u yerda metan va kislorodning aralashish jarayoni sodir bo'ladi. Shuningdek reaktor reaksiyon zonadan iborat bo'lib, bu zonada reaksiyon gazlar toblanadi. Aralashish zonasi reaksiyon zonadan qalinligi 200-500 mm li, teshigi 8-10 mm diametrga ega bo'lgan olov to'suvchi panjara bilan ajratilgan. Reaksiyon zonaning uzunligi jami 150 mm ni tashkil etadi. Reaksiyon zona oxirida uning maxsulotlari forsunkalar orqali sachratilayotgan suv oqimi bilan to'qnashadi. [4]



**1-rasm. Oksidli piroliz reaktori**

1-Aralashish zonasi, 2-Olov to'suvchi panjara, 3-Forsunka

Natijada gazlarning harorati keskin pasayadi va uglevodorodlarning parchalanish jarayoni to'xtaydi. Gazlar 50 m/s tezlikda oksidli piroliz reaktoriga kiritiladi. Reaksiyon zonada, reaksiyaning boorish vaqti  $\tau = 0,003$  s ga teng bo'ladi. Bu kontaktning optimal vaqti, reaksiya vaqti  $\tau$  ning oshishi bilan atsetilenning vodorod bilan sajaga parchalanishi oshib boradi. Oksidli piroliz reaktorida jarayon 30-40 kPa bosimda olib boriladi. [5]

Apparatga kirishda reagentlarning temperaturasi 600 °C ni va reaksiyon zonada esa 1500 °C ni tashkil etadi. Gazlarning toblangandan (sovutilgandan) keyingi temperaturasi 80 °C ni tashkil etadi. Texnologik tizimda toza kisloroddan foydalanish va xomashyoning qisman yondirish zarurati jarayonning kamchiligi hisoblanadi.

### Adabiyotlar

1. Тимофеев В.С, Серафимов Л.А. Принципы технологии основного органического и нефтехимического синтеза. М.: «Высшая школа». 2003. -536 с.
2. Yusupbekov N.R., Nurmuxamedov S , Zokirov S.G. Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari. - T.: «Sharq», 2003. - 644 b.
3. Rayimov, Z. K. U., & Rajabov, G. A. U. (2023). Use of stripping column in methanol production technology based on synthesis gas. Science and Education, 4(6), 484-487.
4. Negmurodovich, M. M. (2023). PECULIARITIES OF CORROSION OF THE EQUIPMENT OF THE SYSTEM OF PURIFICATION OF HYDROCARBON GASES FROM ACIDIC COMPONENTS. American Journal of Pedagogical and



Educational Research, 18, 85-89.

5. Соколов Р.С. Химическая технология. – М.: Владос, 2000. – 814 с.

## **РАЗРАБОТКА ОПЫТНО-ЛАБОРАТОРНОЙ УСТАНОВКИ ДЛЯ ПРОВЕДЕНИЯ ЖИДКОСТНЫХ ПРОЦЕССОВ В ПРОИЗВОДСТВЕ КОЖИ И МЕХА**

**С.Н.Садирова**

*Бухарский инженерно-технологический институт, г. Бухара, Узбекистан  
+998973012411*

В производстве кожаных и меховых изделий шкуры животных и кожаный полуфабрикат несколько раз обрабатываются раствором химических веществ. Для этой цели используются подвижные и неподвижные аппараты: чаны, баркасы, рамочные и подвесные барабаны, аппараты с транспортирующей установкой для бесперебойного перемешивания полуфабриката в химических растворах [1].

Строение и принцип работы барабанов предприятий по производству кожаных и меховых изделий являются одинаковыми, но их размеры и количество оборотов меняются в зависимости от технологии производства, при этом не внося изменений в общее строение.

Барабан запускается путём передачи движения от мотора к редуктору, который сокращает большое количество оборотов, поступающих с мотора; далее движение через зубчатую шестерню передаётся на винт.

Принимая во внимание, что используемые в производстве барабаны и баркасы имеют очень большой объем и соответственно приходится перерабатывать большое количество сырья, нами было разработана специальная установка для проведения экспериментов в лабораторных условиях с целью разработки новых видов кожаного и мехового ассортимента, в том числе перспективных технологий обработки шкур каракуля.

На устройстве обработки жидкостью в лабораторных условиях одновременно выполняются 16 процессов; емкость, используемая нами для проведения каждого процесса, выполняет функцию одного барабана. Из этого можно заметить, что на данном станке можно установить уменьшенный вид всех барабанов кожаного и мехового предприятия. Данный станок позволяет одновременно испытать на обрезках сырья все виды химических материалов, используемых в производстве готовой продукции, а также одновременно испытать эти химические материалы несколькими способами. [2]

В производстве кожаных и меховых изделий количество оборотов барабана зависит от технологической последовательности. В производственных процессах в зависимости от типа и сорта продукции меняются коэффициенты заполнения барабанов, и определяются следующей формулой. Для мехового производства в зависимости от массы производимой партии, вместимости


аппарата и эффективности заполнения с учётом коэффициента жидкости определяется следующей формулой :

$$P = \frac{V_{умум} \cdot L}{C.K.+1}$$

Именно в этом устройстве проводились эксперименты по обработке каракулевых шкур образцами молочной сыворотки разной концентрации. Устройство было очень компактным и удобным, а также позволяло полностью повторить производственный процесс. Результаты обработки в аппарате позволили выбрать оптимальный вариант проведения процесса квашение.

Экономическая значимость станка равна несколько тысяч крат, и составляет несколько десятков миллионов.


### Устройства для проведения испытательных исследований с растворами в экспериментальных условиях



А

*А-Общий вид станка для проведения испытательных исследований с растворами в экспериментальных условиях*

- Agar qurilma uzoq muddat davomida ishlatilmasa, uni quritish klapani yordamida quriting zararlanishi mumkin.

Agar qurilma uzoq muddat davomida ishlatilmasa suvni quritish orqali yo'qoting.

Regeneratsiya qilingan tozalovchi agent sovtiladi va yana zanjirga – absorberga yuboriladi.

Absorbsiya/disorbsiya jarayonlarining soddalashtirilgan diagrammasi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. S.A. Buronov. Metodicheskie soveti po razlozhenie funktsiy mnogix peremennyykh v ryad teylora. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskie-sovety-po-razlozhenie-funktsiy-mnogih-peremennykh-v-ryad-teylora/viewer0842,2022>.

2. S.A. Buronov. Monoton Funktsiyalar mavzusini o'tishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash. <https://cyberleninka.ru/article/n/monoton-funktsiyalar-mavzusini-tishda-il-or-pedagogik-tehnologiyalarni-llash-a-ida/viewer>

3. S.A. Bo'ronov. static and dynamic calculation of strength of pipelines. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2019>

## **АРОМАТИЧЕСКИХ СОЕДИНЕНИЙ ПРИ ДЕЗОДОРАЦИИ РАСТИТЕЛЬНЫХ МАСЕЛ**

**PhD.Д.Ж.Хужакулова., PhD.Л.Т.Йулдашов**  
*Бухарский инженерно-технологический институт.,  
Бухарский Государственный Университет.*

**Ключевые слова:** Хлопковое масло, показатели качества, вкус и запах масел, сушка, одорирующих веществ, совмещение технологических процессов.

**Аннотация.** Дезодорация представляет собой дистилляционный процесс,

осуществляемый паром в условиях глубокого вакуума и высокой температуры. Удаление одорирующих веществ в этих условиях происходит за счет того, что основная масса одорирующих веществ и жирных кислот.

Качественный состав ароматических веществ каждого масла, химическая природа и количественные соотношения их смеси до сих пор еще точно не известны.

Температуры кипения ароматических веществ колеблются в довольно широких пределах.

Ароматизирующие вещества жира находятся в нем со времени их образования в жироносных тканях животного или растения и сохраняются в нем при извлечении из этих тканей, например, при холодном прессовании масличных семян. Кроме того, в процессе извлечения могут возникать новые ароматизирующие вещества в результате тех или иных химических превращений составных компонентов жира. Так, например, при огневой вытопке сала, при жарении мезги масличных семян, особенно в огневых жаровнях, появляется характерный аромат пригорелого сала или масла, обязанный своим происхождением продуктам разложения жира, подвергшегося локальному перегреву.

Наконец, и в процессах дальнейшей переработки жиров в них могут возникать новые ароматические особенности. Так, например, при чрезмерно длительной обработке масел отбельными землями или при обработке их слишком большим количеством земли в масле возникает, как уже отмечалось, «землистый привкус», т. е. своеобразный аромат земли.

К веществам, придающим вкус и запах, относят ненасыщенные углеводороды, низкомолекулярные кислоты, альдегиды, кетоны, природные эфирные масла. Вкус и запах масел обусловлен качеством исходного масличного сырья, а также условиями извлечения масла и дальнейшей его обработки. Показано, что основные технологические схемы извлечения масла и различные вспомогательные операции оказывают значительное влияние на возникновение и развитие вкуса и запаха в маслах. В процессе добывания и переработки наживные одорирующие вещества претерпевают изменения, при этом не исключена возможность образования трудно летучих соединений, что является причиной, плохой дезодорируемой жиров.

Дезодорация представляет собой дистилляционный процесс, осуществляемый паром в условиях глубокого вакуума и высокой температуры. Удаление одорирующих веществ в этих условиях происходит за счет того, что основная масса одорирующих веществ и жирных кислот.

Совместно с одорирующими веществами удаляются некоторые вещества, не обладающие запахом, но имеющие сходную упругость паров: углеводороды, жирные кислоты, моно- и диглицериды, стерин.

На эффективность дезодорации оказывают влияние следующие факторы:

- температура;
- абсолютное давление;
- количество и качество впрыскиваемого пара и степень смешения пара и

жира;

- продолжительность процесса; упругость паров отгоняемых веществ.

Все эти параметры связаны между собой, изменение одного из них вызывает изменение других. Так, количество впрыскиваемого пара неразрывно связано с величиной абсолютного давления в аппарате.

Повышение температуры до оптимальной для определенного вида жира способствует интенсификации процесса. Длительность дезодорации зависит от физических параметров процесса - температуры и вакуума, а также от конструкции аппарата. На первой стадии процесса дезодорации происходит интенсивная отгонка веществ, сообщающих жиру вкус и запах. Наряду с этим происходит отгонка жирных кислот, повышается стойкость жира при хранении, снижается цветность (для некоторых видов масел). Однако установлено также, что существует оптимальная продолжительность процесса дезодорации; если заметно падает стойкость жира при хранении.

Некоторые из аромата заторов кипят при сравнительно высокой температуре, поэтому нецелесообразно вести отгонку их из перегонного куба под нормальным давлением. Масло в этих условиях должно и может подвергнуться таким превращениям, которые ухудшат его вкусовые особенности, вызовут потемнение его и, наконец, повлекут образование новых ароматических веществ, обуславливающих запах пригорелого масла.

#### **Список использованной литературы:**

1. Технология переработки жиров. Б.Н. Тютюнников.
2. Технология переработки жиров. Н.С. Арутюнян.
3. Арутюнян Н.С., Корнена Е.П., Янова Л.И и др. Технология переработки жиров.-М.:Пищепромиздат,1999.-452 С.
4. Арутюнян Н.С. и др. Технология переработки жиров. М.: Пищепромиздат. 1999.
5. Ильясов А.Т., Серкаев К.П., Вахабова Д.З. Дробная рафинация хлопкового масла. //Масложировая промышленность. 1999 - №4, с.30-31.
6. Хужакулова Д.Ж., Мажидов К.Х., Мажидова Н.К. Технология дезодорации растительных масел//Монография. –Тошкент,«Наврўз», 2019, 101 с.
7. Hujakulova D.J., Majidov K.H. Technology of deodorization of soyabean oil // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. –Vienna, 2019. - №3-4, pp.24 25. (02.00.00; №2)

### **KORXONALARDAGI GAZ ABSORBSIYASINI TAMINLASH ASOSLARI.**

**Buxoro muhandislik - texnologiya inistituti o'qituvchisi A.X.Fayziyev.  
2 bosqich talabasi Z.N.Bekmurodov**

Gaz absorbsiyasini nazariy jihatdan yanada to'liqroq tushuntirish uchun shu sohaga oid adabiyotlarga murojaat qilingan.



Absorbsiya to‘plashga va gazlar va bug‘larning suyuqliklardagi eritmalariga tegishli.

Absorbsiya gaz va bug‘ aralashmalarni qisman ajratish imkonini beradi. Eritish jarayoni turiga yoki gazlar erituvchi absorpsion tizim turiga bog‘liq bo‘lgan, suyuq erituvchi (tozalovchi agent, absorbent)dan foydalanib selektiv absorbsiya yordamida aralashmadan gaz komponentini qisman ajratish uchun biz fizik eritmani (fizik usulda gazni tozalash, fizik sorbsiya) ajratamiz yoki gaz komponenti va erituvchi o‘rtasidagi kimyoviy bog‘ni uzamiz (kimyoviy yo‘l bilan gazni tozalash, ximosorbsiya).


Fizik absorbsiyada tozalovchi agent toza suyuqlikdir, gaz va suyuqlik o‘rtasidagi bog‘ esa molekulararo o‘zaro ta’sirlar (masalan, van der Vaals kuchlari) natijasidir.

Kimyoviy absorbsiyada esa, ko‘pincha biror modda absorbsiyalanishi kerak bo‘lgan gaz komponenti bilan bog‘ hosil qiluvchi tozalovchi agentda eritiladi.

Absorbsiya jarayonida olingan gazga to‘yingan erituvchi absorbsiyaga teskari jarayonda tez-tez regeneratsiya qilinadi va so‘ngra yana absorbsiya uchun qaytadan ishlatilishi mumkin. Bu jarayon disorbsiya deb ataladi.

Absorberda determine gazga to‘yinib qoladi. Oqim bo‘yicha pastki disorberda erigan gaz tozalovchi agentdan ajratiladi.

Regeneratsiya qilingan tozalovchi agent sovitiladi va yana zanjirga – absorberga yuboriladi.



**1-rasm. Absorbsiya/disorbsiya jarayonlarining soddalashtirilgan diagrammasi.**

Fizik absorbsiya natijasida absorbsiyalangan gaz va tozalovchi agent ideal aralashmani hosil qilsa, u holda erigan gaz uchun Raul qonuni qo‘llaniladi.

Agar eritma molekular o‘rtasidagi turli xil o‘zaro ta’sirlar, masalan

kuchsiz kimyoviy bog'lanishlar tufayli ideal holatni namoyon qilmasa, u holda ideal holat o'zgarishi faollik koeffitsiyentlari orqali ifodalanadi.

Faollik koeffitsiyenti  $\gamma$  temperatura va erigan modda konsentratsiyasiga bog'liq.

Absorbsiya jarayonlari ko'p hollarda gaz komponentining kritik temperaturasidan yuqoriroq bo'lgan ishchi temperaturalarda sodir buladi. Bu holda gaz komponent gaz sifatida eritiladi va absorbsiya jarayonida kondensatlanmaydi. Absorbsiya sharoitlarida suyuq holatlar mavjud bo'lmaydi, to'yingan bug' bosimi  $p_{0,i}(T)$  aniqlanmaydi va fazoviy muvozanat Raulning kengaytirilgan qonuni yordamida ifodalanmaydi.

Biroq, gazning eruvchanligini ifodalovchi usulga ega bo'lish uchun, ideal holatda suyultirilgan eritmaga murojaat qilamiz. Bu eritmada gaz komponent erituvchining juda ko'p miqdorida eritiladi.


Genri konstantasi  $H_i$  – ko'pincha Genri koeffitsiyenti deb ham ataladi. Bu Uilyam Genri nomi bilan ataladi va suv fazasi/eritma tizimining gaz absorbsion qobiliyatini ifodalovchi kattalik. Uchuvchan modda suyuq faza bilan muvozanatda bo'lgan eritma tarkibida bo'ladi

### Diagrammalar taqdimoti.

Quyidagi diagrammalardan absorbsiya uchun fazaviy muvozanatni grafik ko'rinishda ifodalashda foydalaniladi:

Tarkib diagrammasi moddalarning chiziqli fizik xossasini muvozanat chizig'idan foydalanuvchi to'g'ri chiziq sifatida ifodalaydi.

Og'irlik taqsimoti diagrammasi muvozanat chizig'ini egri chiziq ko'rinishida ifodalaydi. Buning ustunligi balans chizig'ining to'g'ri chiziq ko'rinishida ifodalanishidadir.



2-rasm Absorbsiya jarayoni uchun temperatura va bosim bog'liqligi grafigi tarkib diagrammasida

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1.S.A. Buronov. Metodicheskie soveti po razlozhenie funktsiy mnogix peremennyyh v ryad teylora. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskie-sovety-po-razlozhenie-funktsiy-mnogih-peremennyh-v-ryad-teylora/viewer0842>, 2022.

2. S.A. Buronov. Monoton Funktsiyalar mavzusini o'tishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

<https://cyberleninka.ru/article/n/monoton-funktsiyalar-mavzusini-tishda-il-or-pedagogik-tehnologiyalarni-llash-a-ida/viewer>

3. S.A. Bo’ronov. static and dynamic calculation of strength of pipelines.  
<https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2019>

## TIKUV MASHINASINING QO’SHIMCHA QURILMALARINING YANGI AVLODI:TAHLAMALAR TAYYORLASH USKUNASINING MODERNIZATSIYASI.

**Saidova Gulchiroy Shokirovna, Mansurova Munisa Anvarovna**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*

*Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti*


Tahlama tayyorlash uskunasini tikuv mashinasining biriktirilishiga, xususan, an’anaviy uy tikuv mashinasida tahlamali tasmalar, shifon materialni yig’ish uchun mo’ljallangan moslamadir. Ushbu turdagi qurilmalarda nafaqat nozik yoki qo’pol yig’ish yoki burmalarni olish uchun, balki burmalar orasidagi masofani ta’minlash, ya’ni qo’shni burmalar orasidagi tikuv mashinasi tikuvlari sonini o’zgartirish uchun turli xil sozlashlarni ta’minlash uchun qulay. Uskunani har bir tikuv mashinaning har oltinchi chokida yoki tikuv mashinasining har o’n ikkinchi chokida qilish mumkin bo’lgan shunday sozlashlarni o’lchagich bilan ta’minlash qulay. Har bir modelda uskuna, oltita bahyali burma yoki o’n ikki bahyali chizg’ichga aylanishi mumkin.

Mavjud asbob yordamida to’rt xil sozlash mumkin bo’lsa-da, qurilma nisbatan sodda tuzilishga ega bo’lgan va iqtisodiy jihatdan ishlab chiqarilishi mumkin bo’lgan tarzda ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, qurilmani kichikroq yoki qo’polroq yig’ilishlarga yoki mashinkaga o’rnatayotganda, sozlash mexanizmi sozlanishini ko’rsatish uchun mo’ljallangan bo’lib, hatto ushbu sozlama biron-bir sababga ko’ra buzilgan yoki o’zgartirilgan bo’lsa ham, qurilma aynan bir xil holatga qaytarilishi mumkin.

Tikuv mashinasi uchun yig’ishning kengligini sozlash uchun yangi va takomillashtirilgan vositalarga ega bo’lgan mahkamlash moslamasini ta’minlashdan iborat. Har xil turdagi frezalash ishlari uchun sozlanishi va sozlashni o’qimagan operator tez va oson bajarishi mumkin. Qurilmani, masalan, olti halqadan ikki halqaga osonlik bilan o’zgartirishi mumkin bo’lgan, tahlamalarni sozlash va oraliq joylashtirish uchun yangi va takomillashtirilgan vositalarga ega bo’lgan qo’pol nozulni ishlab chiqarish nisbatan qimmat bo’lgan murakkab qismlarga ehtiyoj sezmasdan ishlab chiqarish mumkin. Tikuv mashinalari uchun turli ishlab chiqaruvchilarning maishiy tikuv mashinalari bilan foydalanish uchun osongina moslasha oladigan tahlama uskunasi ta’minlashdir.

Ushbu qurilmaning ishlashida, vilkalar qo’li elementning ulanishining yo’qolishi tufayli uning zarbasi oxirida harakatning biroz yo’qolishiga imkon berishi ko’rinadi, uyasida pastga qarab



harakatlanayotganda, bu frezalash pichog'ining teskari ta'sirini kechiktirib, besleme pichog'i orqaga harakat qilishni boshlashdan oldin igna materialga kirishiga imkon beradi.

Tikuv mashinalari uchun shtutser-rufiler, rom, ustki uchi romga burilgan mayatnik dastagi, ko'rsatilgan dastakka ulangan pichog'i, romga burilgan, ignaga ulash vositalariga ega bo'lgan vilkalar dastagidan iborat. Mashinaning paneli tikuv mashinasida ko'rsatilgan dastagida sozlanishi mumkin bo'lgan kamera elementi vilkalar qo'lida ko'rsatilgan kameraga ulanishi va dastakni bir yo'nalishda harakatlantirishni anglatadi, ko'rsatilgan kamera elementi ko'rsatilgan tutqich tomon aylanadi va o'qga nisbatan eksantrik kamera yuzasiga ega va moslamalar sharnir elementni sozlangan holatda mahkamlash uchun ilgakdan bir-biridan oraliqda joylashganki, aytilgan vositalar mayatnik qo'lidagi yoysimon teshikdan o'tuvchi elementni o'z ichiga oladi.

2. Tikuv mashinalari uchun shtutser-rufiler, o'z ichiga rom, ustki uchi romga burilgan mayatnik dastagi, aytilgan dastakka ulangan kesish pichog'i, romga burilgan vilka dastagi, igna tirgak bilan bog'lash vositalariga ega. Tikuv mashinasidan mashinada ko'rsatilgan dastagida sozlanishi mumkin bo'lgan va mayatnik tutqichining orqasida ko'ndalang yo'naltirilgan vilka dastagida ko'rsatilgan kamerani ulash va tutqichni bir yo'nalishda harakatlantirish uchun mo'ljallangan kamera elementi ushbu dastagi tomon buriladi va aylanma o'qiga nisbatan eksantrik bo'lgan kamera yuzasi, belgilangan aylanishdan uzoqda joylashgan, belgilangan aylanish joylarida ko'rsatilgan kamerani va o'zaro ta'sir qilish vositalarini ko'rsatilgan tutqichga va ko'rsatilgan kamera elementiga o'rnatish uchun vositadir.

3. Tikuv mashinalari uchun burmalash moslamasi, tarkibida rom, ustki uchi romga burilgan mayatnik dastagi, belgilangan dastakka ulangan pichoq, romga burilgan vilka dastagi, igna tirgak bilan ulash uchun vositalar mavjud. Tikuv mashinasining, yuqorida ko'rsatilgan dastagida sozlanishi mumkin bo'lgan kamera elementi, vilkalar dastagida aytilgan kamera bilan bog'lanish va tutqichni bir yo'nalishda harakatlantirish uchun vositadir, bu kamera elementi ko'rsatilgan tutqich tomon buriladi va uning o'qiga nisbatan eksantrik kamera yuzasiga ega. Aylanish, deyiladi. Qo'li unda bir uyasi ega, va tirgak elementiga o'rnatilgan va ko'rsatilgan trubadan o'tadigan mahkamlash moslamasi, kamera elementini sozlangan holatda mahkamlash uchun hizmat qiladi.

4. Tikuv mashinalari uchun rom, kesuvchi pichoq, romga burilgan va pichoqqa ulangan va uning ustida yelkasi bo'lgan tutqich, vilkalar dastagi, vilkalar dastagi bilan sozlanishi va ulanishga moslashtirilgan panjasi bo'lgan nozul-rufiler. Belgilangan tutqich bilan. Yelka, ramkaga aylanadigan tarzda o'rnatilgan va undagi chuqur va sayoz chuqurchaga ega bo'lgan g'ildirakning bir yuzasiga birlashtirilgan tahlamlash g'ildiragi, ko'rsatilgan sayoz chuqurchalarni ochish va kesish uchun mandal g'ildiragidan kichikroq diametrga ega bo'lgan niqoblash g'ildiragi segmentlangan tarzda, aytilgan chuqurchalardan birini ochish uchun va yuqorida ko'rsatilgan mandalni ko'rsatilgan tahlamlash g'ildiragini va mandal g'ildiragini ulash holatiga moslashtirish uchun vositalar hisoblanadi.

5. Tikuv mashinalari uchun rom, shpatelli pichoq, romga burilgan va pichoqqa ulangan va uning ustida yelkasi bo'lgan tutqich, vilkalar dastagi, vilkalar dastagi bilan

sozlanishi va moslashtirilgan panjadan iborat mustahkamroq qurilma. Belgilangan tutqich bilan ulang. Yelka, ramkaga aylanadigan tarzda oʻrnatilgan va undagi chuqur va sayoz chuqurchaga ega boʻlgan gʻildirak, gʻildirakning bir yuzasiga biriktirilgan niqoblash gʻildiragi, koʻrsatilgan sayoz chuqurchalarni ochish va kesish uchun mandal gʻildiragidan kichikroq diametrga ega boʻlgan niqoblash gʻildiragi segmentlangan tarzda, aytilgan chuqur chuqurchalardan birini ochish uchun va yuqorida koʻrsatilgan panjani ikkala niqob gʻildiragini ham, gʻildirakli gʻildiragini ham ulash uchun sozlash uchun vositalar va ushbu niqoblash gʻildiragidan yuqorida koʻrsatilgan mandal gʻildiragini ulash va ajratish.

6. Tikuv mashinasining tirgak uchun qoʻshimchasi, rom, qirrali pichoq, romga burilgan va pichoqqa ulangan va uning ustida yelkasi boʻlgan tutqich, vilkalar dastagi, koʻrsatilgan yelka bilan bogʻlanish uchun moslashtirilgan panja va panjani qoʻllab-quvvatlovchi tutqich. Ramkaga burilish bilan biriktirilgan va belgilangan vilkalar qoʻli bilan harakatsiz ulanishga ega.

5. Tikuv mashinalari uchun rom, shpatelli pichoq, romga burilgan va pichoqqa ulangan va uning ustida yelkasi boʻlgan tutqich, vilkalar dastagi, vilkalar dastagi bilan sozlanishi va moslashtirilgan panjadan iborat mustahkamroq qurilma. Belgilangan tutqich bilan ulang. Yelka, ramkaga aylanadigan tarzda oʻrnatilgan va undagi chuqur va sayoz chuqurchaga ega boʻlgan gʻildirak, gʻildirakning bir yuzasiga biriktirilgan niqoblash gʻildiragi, koʻrsatilgan sayoz chuqurchalarni ochish va kesish uchun mandal gʻildiragidan kichikroq diametrga ega boʻlgan niqoblash gʻildiragi segmentlangan tarzda, aytilgan chuqur chuqurchalardan birini ochish uchun va yuqorida koʻrsatilgan panjani ikkala niqob gʻildiragini ham, gʻildirakli gʻildiragini ham ulash uchun sozlash uchun vositalar va ushbu niqoblash gʻildiragidan yuqorida koʻrsatilgan mandal gʻildiragini ulash va ajratish.

6. Tikuv mashinasining tirgak uchun qoʻshimchasi, rom, qirrali pichoq, romga burilgan va pichoqqa ulangan va uning ustida yelkasi boʻlgan tutqich, vilkalar dastagi, koʻrsatilgan yelka bilan bogʻlanish uchun moslashtirilgan panja va panjani qoʻllab-quvvatlovchi tutqich. Ramkaga burilish bilan biriktirilgan va belgilangan vilkalar qoʻli bilan harakatsiz ulanishga ega.

7. Tikuv mashinalari uchun burmalash uchun moslama, rom, spatula pichogʻI, romga burilgan va pichoqqa ulangan va uning ustida yelkasi boʻlgan tutqich, romga burilgan vilkalar dastagi, romga burilgan dastagidan iborat. Oʻqda. Vilkalar dastagi va koʻrsatilgan tutqich tomonidan ushlab turilgan va koʻrsatilgan yelka bilan bogʻlanish uchun moslashtirilgan panja, bunda oxirgi nomli tutqichda teshik bor va aytilgan vilkalar dastagi ushbu teshikka erkin kiradigan protrusion bilan taʼminlangan.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki ushbu yuqoridagi uskuna matoni taxlamlash uskunasi yutuqlarini, tuzilishini koʻrib chiqdik. Shu bilan birga usbu uskunaning oʻziga yarasha kamchiliklari va noqulayliklari ham mavjud.

#### **Foydalanilgan adaboyatlar roʻyhati.**

1. Q.T.Olimov, “Tikuvchilik korxonlari jihozlari va uskunalari.” “Mehnat” 2003
2. N.Gayipova, “Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari” “fan va texnologiya” 2016

3. Improving the design of sewing machine elements for the environmentally sustainable development of the light industry

Munisa Mansurova, Anvar Djuraev and Gulchiroy Saidova

E3S Web of Conferences 390, 04016 (2023)

4. RUFFLER ATTACHMENT FOR SEWING MACHINES Filed June 29, 1949 2 SHEETS-SHEET

## **KOSTYUM KOLLEKSIYASINI YARATISHDA IJODIY RESURSLAR**

**Bebutova N.N.<sup>1</sup>, Komilova X.A.<sup>2</sup>-magistr**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti<sup>1</sup>*

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti<sup>2</sup>*

*nbebutova@gmail.com*, +99899:702-06-60

Har bir dizayner o'z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an'analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbalarga murojat qiladi.

Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manba sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitning turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, stirk, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me'morchilik, muhandislik inshootlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san'at asarlari (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, er fakturasi, yulduzli osmon, origami o'yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassik kostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizastiyalash usuli va h.k. bo'lishi mumkin.

Ekzotik mamlakatlarning madaniyati ko'p badiiy uslublarda g'oya o'zlashtirish moda tarixida doimo bo'lgan. XX asr modasi ko'pincha etnik va tarixiy manbalarga murojaat qilgan. Klassik shaklni va egzotik xalqlaridan o'zlashtirilgan bezakni birga qo'shib, modellarni barpo etadigan dizaynerlar avlodi paydo bo'ldi, masalan, J.P.Gotening "eskimos" kolleksiyasi.

Tabiat azaldan inson uchun ish maydoni bo'lgan. Tashqi dunyoni tushunish va o'rganish ehtiyoji uning qonunlarini o'rganishga va o'zlashtirishga olib keladi.

Asrlar mobaynida ma'lumot yig'ib, odamzod bionika (yunoncha *biou* – "hayot elementi") fanni barpo etdi. Bu yo'nalish 1950 yillarning oxirida paydo bo'ldi. Ushbu fanning asosiy maqsadi – biologik tizimlar va jarayonlarning imkoniyatlarini o'rganish edi. Leonardo da Vinchi, N.E.Jukovskiy, L.Galvani bionikaning kashfiyotchilari deb hisoblasa bo'ladi.

XIX-XX asrlar oralig'ida paydo bo'lgan badiiy uslub Modern jonli tabiatga asoslangan va aynan shu davrda cheklangan me'morchilik imperiyasi paydo bo'ldi. Ispan me'mori A.Gaudining ishlari bunga yorqin dadil. Uning ishlarida egri chiziqli yuzalar me'mor konstruktiv shakllarni biologizastiyalanishi desa bo'ladi. Bionika boshqa sohalarda jadal tarqaldi: maishiy texnikada, harbiy sanoatda (suv osti kemalarining shakli baliq shaklida) va b.

Tabiat million yillar davomida durdona asarlar yaratib, o'z mahoratini doimo oshiradi. Tabiatning organik va mantiqiy bog'liqlari mujassamlashgan yangi shakllarni yaratish imkoniyatni topish, zamonaviy dizayn yangi yo'nalishning asosiy

vazifasi bo'ldi, bunga o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bionika va kristallografiya katta ta'sir etmoqda. Ularning asosida ko'p ob'ektlar va dizayn buyumlari (aksessuarlar, zargarlik buyumlari va b.) barpo etilmoqda.

Jonli tabiatda yashash jarayoni organik ma'qullik bilan bog'liq. Huddi shunday odam ham o'z faoliyatida istagan natijaga erishishga intiladi. Muammoni echish uchun birinchi planga buyumning ko'pfunkstionalligi chiqadi, ya'ni buyumlar bir necha mo'ljalda qo'llash mumkinligi. Bu muammoni transformastiyasiz yechish mumkin emas (bu usulni 1920 yillarda konstruktivistlar taqdim etishgandi, ammo u hozirgi kunlarda amalga oshirildi).

Transformastiya – bu buyum shakli va hajmini har xil usulda biriktirish, joyini o'zgartirish, ayrim detallarni almashtirish hisobiga o'zgartirish. Boshqacha aytganda, buyum loyihasiga qandaydir qo'zg'aluvchanlikni asos qilinadi, chunki iste'molchining hamkorligi nazarda tutiladi. Standart detallar to'plamidan asosiy shaklga har xil biriktiruv usullari yordamida ko'p variantlarni hosil qilish mumkin. Zamonaviy moda buyumlarni funkstional transformastiyasi normativ operastiyalarni doimo bo'lganligi oqibatidir. So'nggi yillarda dizayn stilistik o'zgarishlarga uchraganligi ayniqsa seziladi, bu stilistik o'zgarishlarni impulslari esa faqat funkstional-konstruktiv tarkibidagina emas, balki formal-estetik izlanishlaridan ham.

Dizaynerlar ko'proq shakllantirish sohasida konstruktivizmga murojat etishadi. Bu yo'nalish “xay-tach” deb nomlanadi. Xay-tach dizaynning rivojlanishida zamonaviy yo'llardan biridir. Bu yuqori texnologiyalar, insonning yashash muhitiga korxonalar elementlarini o'tqazishdir. Oxirgi paytlarda sun'iy muhitning o'zgarish tezligi insonning unga moslashish qobiliyatidan o'tib ketdi. Texnogen muhitda antropologik adaptastiyaning asosiy qiyinchiligi buyum dunyosining real moddiylikni yo'qotilganligi, shuning uchun dizaynerlar oldida yangi o'ta ta'sirli dunyoni hosil qilish masalasi qo'rilgan. “Xay-tech” – bu o'ziga xos shakllantirish, sensorlik, moddiylik, rang, muhitning akustik rejimi, yorug'lik dizayni. Kostyum kompozistiyasida ifodali siymolarni barpo etishga assostiativ fikrlash imkon to'g'diradi – buyum, abstrakt va psixik assostiatiyalarni, ob'ekt echimini grafik izlanishlarga aylantirish, ya'ni assostiativ rasm solishdir.

Transformastiya (lot. transformasio – o'zgarish) – kiyim shaklini boshqa turga aylantirish yoki o'zgartirish uchun kiyim loyihalashda ko'pincha foydalanadigan usul. Transformastiya jarayoni dinamika, o'zgartirish harakati bilan mavjud bo'ladi. Transformastiya quyidagicha amalga oshiriladi: bir shaklni ikkinchisiga o'zgartirish (masalan, uzun yubkani kalta qilish, taxlama sumka va b.); bir detal shaklini o'zgartirish (masalan, yoqaning uchi qaytariladi, o'riladi, bog'lanadi va h.k.).

Kombinatorika – dizaynda fazoviy, konstruktiv, funkstional, grafik tarkiblarni variantli o'zgarish qonuniyatlarini qidirish, tadbiiq etish, foydalanishga va tipik elementlaridan dizayn ob'ektlarini loyihalash usullariga asoslangan kiyim shaklini hosil qilish tarzi.

Soddaroq aytganda, kombinatorika – bu har xil tarzda shakl va uning elementlarini kombinastiyalash.

Kombinatorika – bu variantli izlanish, uni loyihalashda bir qator asosiy usullarga ajratish mumkin:

- to'qimachilik kompozitsiyalarini, rapportli gazlamalarni yoki trikotaj polotnosini ishlab chiqqanda elementlarni tekislikda kombinatsiyalash;

- yaxlit shakl hosil qilinganda tipik standart elementlarni (modul) kombinatsiyalash;

- muayyan shakl ichida (bir konstruktiv asos yoki bazaviy shakl) detallarni va proporsional bo'linishlarni kombinatsiyalash;

- tayyor komplekslarni tashkil etish, tayyor variantlarni kompyuterda qidirish.

Kombinatorika usullari: joyini o'zgartirish, qo'shimcha guruhlash, aylanish, ritmlarni tashkil etish.

Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manba sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitning turli elementlari, dunyoda sodir bolayotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me'morchilik, muhandislik inshootlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san'at asarlari (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, origami o'yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassik kostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va h.k. bo'lishi mumkin.

Har bir dizayner o'z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an'analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbalarga murojaat qiladi.

### Adabiyotlar

1.X.X.Kamilova, N.A.Isaxojayeva, K.R. Fuzailova Kosryum kreativ grafikasi T "Fan va texnologiya", 2017. 240 b

2.X.X.Komilova, U.A.Voxidova Loyihalash T "Fan va texnologiya", 2017, 188 b.

3.Самиева Ш. Х., Рахматова Б. К., Бутко Т. В. Инновационные направления в технологии разработки текстиля. – 2021.

4.Pulatova S., Bebutova N. Ergonomic design of overalls for agricultural workers of Uzbekistan //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2020. – T. 548. – №. 2. – С. 022006.

## TEKTONIK BELGILARI BO'YICHA BOSH KIYIMLAR TASNIFI

**X.X.Saidova<sup>1</sup>, J.Sharapova<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro, O'zbekiston*  
([saidova\\_hulkar@mail.ru](mailto:saidova_hulkar@mail.ru))

Kiyim kishining tashqi ko'rinishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kiyim chiroyli bo'lsa va did bilan tanlansa, u kishini yaxshi didlik ekanligini bildiradi. Shu jumladan bosh kiyim ham. Bosh kiyimlar shakli, silueti, o'lchami va mutanosibligi, bichimi, rangi va pardozi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Ular har xil usullarda ishlab chiqariladi. Mazkur kiyimlarning o'lchami boshning aylanasi bilan sm. larda aniqlanadi.

Bosh kiyim bu - ikkinchi darajali buyum emas, balki kiyimning asosiy qismlaridan biridir. Kiyim ansamblini eng asosiy elementlardan biri — bosh kiyimdir.



Uning shakli kiyim shakliga bog‘liq bo‘lib, buyum umumiy uslubiga 6 mos kelishi kerak. Masalan: sport uslubidagi paltoga beretka shaklidagi bosh kiyim yoki sport uslubidagi bashang ko‘ylakka «fantazi» uslubidagi shlapalar tanlanishi kerak.

Bosh kiyim ikki xil: amaliy va bezak vazifalarini bajarishi mumkin.

Amaliy vazifasi - boshni tashqi ta’sirlar (shamol, yomg‘ir, sovuq, issiq)dan himoya qiladi. Bezak vazifasi - boshni bezash, kostumni to‘ldirib turishi kerak.

Bosh kiyim kiyishga qulay, mo‘ljallanishiga mos, figuraga nisbatan mutanosib va tayyorlanishi jihatidan oddiy va chiroyli bo‘lishi kerak.

Bosh kiyim simmetrik holatda (1-a rasm), chap yoki o‘ng yon tomonlarga egilgan holatda (1-b rasm), biroz orqaga surilgan (1-d rasm) yoki peshonaga tushirib qo‘yilgan (1-e rasm) holatda kiyib yurilishi mumkin.



**1-rasm. Shlyapalarni boshda har xil turishi:**

a — simmetrik; b — egilgan holatda;  
d — biroz orqaga surilgan; e — peshonaga tushirib qo‘yilgan.

Barcha bosh kiyimlar jinsiga, gazlama turiga qarab (namat, ip gazlama, zig‘ir, charm va mo‘ynali hamda modeliga, o‘lchamiga va tayyorlov usuliga qarab tasniflanadi:

Jinsi va yoshi belgisiga qarab bosh kiyimlar — ayollar, erkaklar, yoshlar, o‘smirlar va bolalar bosh kiyimiga bo‘linadi. Jinsi, yoshi belgisiga qarab, bosh kiyimi har xil fason va modelda bo‘lishi mumkin: kepka, beret, kapushon, shlem, shlapka, kapor, telpak (moskvacha, gogol, boyarka) va h.k.

Mo‘ljallanishiga ko‘ra bosh kiyimlar: kundalik kiyishga, ishlab chiqarish, sport bilan shug‘ullanuvchilar uchun va formalikka ajratiladi.

Kundalik bosh kiyimlar oddiy shaklda va kiyishga qulay bo‘lishi lozim. Ularni yaxlit va aralash usulda tayyorlash mumkin. Bunda, qimmatbaho mo‘ynalaridan (sobol, norika, kumush-qora tulki, pesets, kunitsa, qorako‘l va qorako‘lcha) keng foydalanadilar. Kundalik bosh kiyimlar oddiy shaklda, chiroyli hamda kiyishda qulay bo‘lishi kerak.

Ishlab chiqarish bosh kiyimlari asosan, yo‘l ishchilari, temir yo‘l ishchilari, ovchilar, o‘rmon kesuvchilar, cho‘ponlar va hokazolar uchun tayyorlanadi.

Sport bosh kiyimlari ham yaxlit va aralash to‘rli bo‘lishi mumkin. Ularni tayyorlash uchun tuki kalta bo‘lgan mo‘ynalar ishlatiladi. Bu bosh kiyimlar asosan yoshlarga mo‘ljallangan.

Formalik bosh kiyimlar - asosan, xizmatchilar (fuqaro aviatsiyasi, militsiya, qorovullar va h.k.) uchun ishlab chiqariladi.

Materialiga qarab bosh kiyimlar yaxlit va aralash gazlamadan

tayyorlanuvchilarga bo‘linadi. Masalan: yaxlit mo‘ynali bosh kiyimlar tikish uchun barcha detallar tabiiy mo‘ynadan tayyorlanadi. Ularga: quloqchin, gogol, moskvacha, boyarka, ukraincha, kapor tipidagi bolalar va o‘smirlar bosh kiyimi, yarim eskimoska, har xil modeldagi ayollar shlapalari va hokazolar kiradi.

Aralash tipdagi bosh kiyimlarni tayyorlashda manjetning asosiy detallarini (soyavon, quloqchin ensalik) tabiiy mo‘ynadan bichiladi. Ostki manjet detallari va bosh qismi - movutdan, charmdan, sun‘iy mo‘ynadan, velur va suv o‘tkazmaydigan materiallardan bichiladi. Masalan: erkaklar aralash telpaging manjetli qo‘y yoki quyon mo‘ynasidan bichilsa, ostki detallar esa movut, charm yoki velurdan bichiladi.

Ishlov berilish usuliga ko‘ra, bosh kiyimlar yumshoq va shakllantirilgan bo‘ladi. Yumshoq bosh kiyimlarda model, shaklni loyihalash yo‘li, detallarni qo‘llash va shakl saqlovchi yordamchi materiallardan foydalanib beriladi. Shakllangan bosh kiyimlar esa metall yoki yog‘och qoliplarda namlab-issiqlik bilan ishlov berish natijasida shakllantiriladi. Shaklni mustahkamlash maqsadida to‘rli yordamchi moddalar, yelimli qorishmalar ishlatiladi.

O‘lchamiga ko‘ra - bosh aylanasi kallaning bo‘rtib turgan nuqtalari bo‘ylab, qoshdan 1 sm yuqori, quloq boshlanish joyidan 1,5 sm yuqoridan o‘lchanadi:

— kattalar uchun - 53, 54, 55, 56, 57, 58, 59, 60, 61;

— bolalar uchun - 48, 49, 50, 51, 52, 53, 54, 55, 56, 57.

Tektonik yechim qobiqli va kerakli tuzilmani o‘z ichiga olib, bosh kiyimlar shu holat bo‘yicha kostum elementi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Bosh kiyimlar funksiyaning tarixiy rivojlanishi, Ovro‘po kostumida shakllarning ko‘p turliligini namoyish etdi. Material xossalari bilan to‘g‘ri muvofiqlilikda yoki material xususiyatining kontrast o‘zaro ta‘siriga asoslangan. Turli fazoviy yechimga ega bo‘lgan bosh kiyimlarning konstruktiv yechimi quyidagicha: shaklni takrorlagan holda (qobiqli tur) boshga zich yopishib turishi, materialning plastik xususiyatlari tufayli yoki karkas (qolip) konstruksiyalar yordamida berilgan shaklga egadir.

Zamonaviy kostumda bosh kiyimlarga ham kostumdagidek talablar qo‘yiladi va kostum shakliga bo‘ysunuvchi shakl sifatida rivojlanib, ba‘zan uning dominant bo‘lib hisoblanadi. XXasr kostumi, tarixiy fondan faqatgina, bosh kiyimlarning ayrim turlarini olgan bo‘lib, ularning hajmiy-fazoviy tuzilmasi kostumning asosiy qismi shaklni to‘ldiradi (palto, plash, kostum). Bu murakkab bo‘lmagan shakllar, fazoviy tashkil qilish aniqligiga ega. Ularda asosan, boshning tuzilishi har xil hajmda bo‘lganligini hisobga olib, bosh hajmi aniq tasvirlanadi.

Bosh kiyimlarning sotsial belgilari bo‘yicha tasnifi. Bosh kiyimlar odamlarning aniq bir va har xil ehtiyojlarini qondirish uchun yaratiladi. Bu ehtiyojlar ularni loyihalash va ishlab chiqarishning har bir bosqichida hisobga olinadi. Tayyor mahsulotda katta jamoaning faoliyati va ishlab chiqarish korxonasining texnik darajasi aks etadi. Bu esa, rassomdan, kostum loyihalovchidan, asosan, bosh kiyimni yaratuvchisidan yangi mahsulotni yaratishda katta mas‘uliyatni yuklaydi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Z.A. Fatxutdinova, N.N.Xasanova “Bosh kiyim texnologiyasi” o‘quv qo‘llanma, T. “Turon-Iqbol” 2006 y.
2. M.K. Rasulova “Tikuv buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi” T., “Turon-Iqbol” 2006 y.

3. Саидова, Х. Х., Темирова, Г. И., Золотошвейные узоры, применяемые в тюрбетейках Бухарского региона. Молодой ученый, (8), (2014). С.:252-255.
4. Саидова, Х.Х. Тюрбетейка-национальный головной убор. in дизайн, Технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (инновации-2022) p. 150-154.

## **TABIY GAZNI AMIN BILAN TOZALASH JARAYONNING BAYONI VA KIMYOVIY MEXANIZMI**

**Raxmatov Sherzod Shuxratovich**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti,*

*Buxoro sh, O'zbekiston*

*G-mail: [sherzodjon3003@gmail.com](mailto:sherzodjon3003@gmail.com)*

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy sohada tub islohotlar va o'zgarishlar amalga oshirilib, ular xalqimizning xoxish irodasi bilan, qat'iy tanlab olingan milliy taraqqiyot yo'liasosida keng ko'lamda, izchil davom ettirilmoqda. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqiroziga qaramay, iqtisodiyotimizda o'sish sur'ati ta'minlanmoqda. Aholining tobora o'sayotgan hayot va farovonlik darajasi barqaror saqlanib kelinmoqda. Mamlakatimizda qabul qilingan muhim davlat dasturlari o'z samarasini bermoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xojaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni taminlash kabi masalalar energetik xomashyolardan oqilona foydalanshni taqazo etish bilan birga atrof-muhitga zarar keltirmaydigan muqobil energiya manbalari topish va joriy qilish yo'nalishidagi amalga oshiriladigan asosiy vazifalarning dolzarbligini oshiradi. Shu sababli ekologiyaga antropogen ta'sirni kamaytirish va yuqori sifatli yoqilg'i ishlab chiqarish hamda yurtimizda transport sohasi uchun tovar yoqilg'ilar tayyorlashda ekologik toza energoresurslarni qo'llash borasidagi tadqiqotlar bugunning ustuvor masalalaridandir. O'tgan besh yil, ya'ni 2017-2021 yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida sanoatning yetakchi tarmoqlari (to'qimachilik, elektrotexnika, avtomobil sanoati, qurilish materiallari sanoati, kimyo va neft-kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, energetika kabi tarmoqlar)ni rivojlantirish strategiyalari qabul qilindi.


Bu borada "Besh yillik muvaffaqiyatli islohotlar - yangi taraqqiyotning boshlanishi" deyish o'rinli bo'ladi. Bugungi kunda mazkur siyosatning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 yildagi PF - 4947-sonli O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasining III-ustuvor yo'nalishi "yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatdan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatniyanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish doirasida boshlangan islohotlarning uzviy davomi sifatida

Yangi O‘zbekistonni 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo‘nalishi - milliy iqtisodiyotni, uning o‘shish sur‘atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalarining Kimyo va gaz kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini oshirish yo‘nalishida o‘z aksini topgan. O‘z o‘rnida shuni ham aytish joizki, samarali amalga oshirilgan islohotlar navbatdagi muvaffaqiyat garovidir.

Tabiiy gaz oqimidan nordon (kislotali) gazlar ( $H_2S$  va  $CO_2$ ) ni ajratib olish zaruriyati ularning suv ishtirokida, ayniqsa yuqori temperaturalar sharoitida korrozion aktivlik qobiliyati bilan, shuningdek, metanni ajratib olish bo‘limida uglerod dioksidining kristall gidratlari hosil qilishi bilan belgilanadi.

Tabiiy gazni aralashmalar  $H_2S$  va  $CO_2$  dan tozalash jarayoni yutuvchi suyuqlikning nordon (kislotali) gazlarni tanlab yutish (kimyoviy absorbsiya) usuli bilan amalga oshiriladi, binobarin, yutilgan moddalarning gaz aralashmasidan, kimyoviy birikmalar hosil qilib, suyuq yutuvchiga o‘tishi ro‘y beradi.

Gaz holdagi moddalar  $H_2S$  va  $CO_2$  ning suyuq fazada dietanolamin (DEA) eritmasi bilan o‘zaro ta’siri natijasida quyidagi reaksiyalar amalga oshadi:



bunda R- radikal  $-CH_2CH_2OH$

Reaksiya natijasida kimyoviy barqaror bo‘lmagan moddalar – suvda eriydigan kompleks tuzlar hosil bo‘ladi.

Reaksiyalar qaytardir. Reaksiyalarning muvozanati bosim va temperaturaning parametrlariga rioya qilish, gazlar va suyuq yutuvchining xossalari, uskunalarning konstruksiyaviy xususiyatlari bilan ta’minlanadi.

Nordon (kislotali) gazlarning dietanolaminga yutilish jarayonlari issiqlik ajralib chiqishi bilan amalga oshadi, ya’ni ekzotermik hisoblanadi.

Absorbsiya jarayoni kolonna turidagi apparatda – absorberda amalga oshiriladi. Kimyoviy o‘zaro ta’sir reaksiyalari suyuq fazada absorberning nasadkasi yuzasida qarama-qarshi oqimda to‘xtovsiz xom ashyo - tabiiy gaz oqimining (pastdan yuqoriga) va suyuq yutuvchi – DEA eritmasining (yuqoridan pastga) o‘zaro ta’siri natijasida amalga oshadi.



Tozalangan tabiiy gaz tarkibidagi uglerod dioksidining miqdori 10 ppm gacha bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Suyuq yutuvchini regeneratsiyalash desorbsiya jarayonida amalga oshiriladi, bunda kimyoviy birikmalar DEA va gazlargacha parchalanadi. Desorbsiya reaksiyasi issiqlikning yutilishi bilan boradi, bu jarayonning endotermikligini bildiradi.

Desorbsiya jarayoni kolonna ko‘rinishidagi apparatda – desorberda amalga oshiriladi. Desorbsiya reaksiyasi bosimning pasayishi va temperaturaning ko‘tarilishi hisobiga boradi.

Issiqlik-massa almashish jarayonida nasadkaning yuzasida fazalarning o‘zaro ta’sir etishi ta’minlanadi.

Desorbsiya jarayonida quyidagi reaksiyalar amalga oshadi:



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Akhmedov, V., Rakhmatov, S., & Olimov, B. (2023). STUDYING THE FRACTIONAL COMPOSITION OF SPENT SECONDARY HEXANE PRODUCED BY JV LLC “UZ-KOR GAS CHEMICAL”. *Universum: texnicheckie nauki*, (12-8 (117)), 35-37.
2. Vohid, A., & Sherzod, R. (2024). PHYSICAL AND IR-SPECTRAL ANALYSIS OF THE FRACTION SEPARATED FROM THE WASTE OF" UZ-KOR GAS CHEMICAL" JV LLC. *Universum: texnicheckie nauki*, 8(3 (120)), 41-44.
3. Bobir, O., Vokhid, A., Gulnoz, G., & Sherzod, R. (2022). SYNTHESIS AND PROPERTIES OF NITROGEN-RETAINING CORROSION INHIBITORS. *Universum: ximiya i biologiya*, (4-2 (94)), 43-46.
4. Raxmatov, S. (2023). Synthesis of corrosion inhibitor based on local raw materials. *Scientific Collection «InterConf»*, (142), 431-434.
5. Olimov, B. B., & Rakhmatov, S. (2022). SYNTHESIS AND USE OF CORROSION INHIBITORS ON THE BASIS OF DIATOMIC PHENOLS IN THE OIL AND GAS INDUSTRY. In *Kimyo va tibbiyot: nazariyadan amaliyotgacha* (pp. 141-143).
6. Сатторова, Гулноза Тўймуродовна. "ТАБИЙ ГАЗНИ АБСОРБЦИЯ УСУЛИДА МЕТИЛДИЭТАНОЛАМИН ЁРДАМИДА ТОЗАЛАШ." *Новости образования: исследование в XXI веке* 2.19 (2024): 92-97.
7. Gulnoza Sattorova, [13.02.2024 14:19] Sattorova, G. T. (2023). Termoplast polimerlarning reologik xossalari va ularni o'rganish usullari. *Science and Education*, 4(4), 503-508.
8. Zuhridin Xayridin O'G'Li Rayimov, & Sadullo Toyir O'G'Li Hayitov (2023). Ikkilamchi polietilentereftalatning mexanik qayta ishlash retsikli. *Science and Education*, 4 (4), 490-494.
9. Zuhridin, R., & Niginabonu, J. (2022). Production of polyethylene terephthalate. *Universum: texnicheckie nauki*, (5-11 (98)), 58-62.
10. Rayimov, Z. X. O. G. L. (2021). Ftal anhidridning vinillanish jarayoni erituvchilari. *Science and Education*, 2(12), 266-269.
11. Vohid, A., & Zukhriddin, R. (2023). DETERMINATION OF THE EFFICIENCY OF THE IKFA CORROSION INHIBITOR IN THE AGGRESSIVE ENVIRONMENT OF MDEA ABSORBENT ON A SAMPLE OF STEEL 09G2S. *Universum: texnicheckie nauki*, (5-7 (110)), 59-63.

## ПОЛУЧЕНИЯ ОРГАНОСОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ ХИТОЗАНА *APIS MELLIFERA* И КРАНТАУСКОЙ ГЛИН, И ИЗУЧЕНИЕ ИХ СВОЙСТВ

А.А.Хайдаров<sup>1</sup>, Г.А.Ихтиярова<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Бухарский инженерно-технологический институт

<sup>2</sup>Ташкентский государственный технический университет

В последние годы активно развивается ряд научных направлений, связанных с синтезом и исследованием гибридных органо-неорганических материалов. Эффективная модификация поверхности органическими соединениями позволяет расширить области применения слоистых силикатных материалов. Получение таких органосиликатных комплексов позволяет использовать силикатные материалы в качестве адсорбентов, катализаторов, наполнителей полимерных сред и пластификаторов.

Исходя из вышеизложенных нами был получен новые органосорбенты на основе хитозана *Apis Mellifera* и местного бентонита, и исследованы адсорбционные свойства модифицированных адсорбентов.

Процесс получения органо-бентонитов включает в основном следующие стадий:

-замещение обменных катионов монтмориллонитов с разрушением исходных гидратно-ионных прослоев;

-адсорбция органических катионов и формирование полимерных ассоциатов на базальных поверхностях кремнекислородных слоёв;

-образование новых частиц – кристаллитов, в которых связующим звеном могут служить органические ассоциаты.

Готовились препараты органо-бентонита при разных соотношениях неорганических и органических сырьевых материалов. Синтезированные органо-бентониты условны названы ГДТМА-КР (модификатор гексадецилтриметиламмоний бромид), Х-КР (модификатор хитозан), ТМЭА-КР (модификатор триметилэтиламоний бромид).

Далее были исследованы адсорбционные способности органо-бентонитов по отношению красителей в зависимости от примесных в системе ПАВ.

При выполнении исследований был проведен сравнительный анализ химико-аналитических показателей исходных проб воды красильного цеха и общего стока предприятия ООО «Вухоро Cotton Textile», а также их фильтратов через гранулы образцов модифицированных органо-бентонитов ГДТМА-КР, Х-КР и ТМЭА-КР.

В результате проведенных промышленных исследований установлено эффективность адсорбционной очистки сточных вод красильного цеха с использованием разработанных адсорбентов: ГДТМАКР и ХКР по отношению красителей составляет 94,5 и 93,0 %, соответственно. Средний степень очистки по значениям БПК и ХПК отвечают требованиям предприятий для мытья оборудования, что дает возможность многократное использование очищенной сточной воды в производственных циклах компании ООО «Вухоро Cotton

Textile».

Таблица

**Результаты лабораторно-аналитических исследований очистки сточных вод красильного цеха предприятия ООО «Вухоро Cotton Textile». (в статических условиях, температура раствора  $22\pm 1^\circ\text{C}$ ;  $\text{pH}=5-6,5$ ; расход адсорбента  $2\pm 0,1\text{г/л}$ )**

Проба	Адсорбент	Показатели					
		Интенсивность окраски (по разбавлению до бесцветной)	Азот, мг/л:	Фосфаты, мг/л	ПАВ мг/л	ХПК, мг/л	БПК, мг/л
№1	-	1:560	46	30	28	320	148
	КР	1:440	43	28	8	180	123
	ГДТМА-КР	1:3	5	9	2	23	18
	Х-КР	1:4	3	12	4	25	24
	ТМЭА-КР	1:338	39	24	12	98	98
№2	-	1:1021	54	61	39	679	459
	КР	1:889	48	38	7	435	435
	ГДТМА-КР	1:18	9	13	5	49	44
	Х-КР	1:14	6	14	7	51	37
	ТМЭА-КР	1:785	23	45	14	228	385
	ПДК	1:15	18	10,6	3,07	50	200

Таким образом, можно сделать выводы, что определены оптимальные условия синтеза органобентонитового адсорбента на основе Крантауского бентонита с катионным ПАВ гексадецилтриметиаммонием бромидом и хитозаном *Apis Mellifera*. Установлено, при расходах модификаторов в количестве 1-2% от веса натриевого монтмориллонита, находящегося в суспензии, достигаются высокие технологические показатели адсорбентов. Выявлено эффективность адсорбционной очистки сточных вод красильного цеха с использованием разработанных адсорбентов: ГДТМА-КР и Х-КР по отношению красителей составляет 94,5 и 93,0 %, соответственно. При внедрении новой технологий на предприятие ООО «Вухоро Cotton Textile» удельные затраты на удаления одинакового количества загрязнителей до ПДК в 5,34 раз ниже, чем на стадии с использованием импортного адсорбента.

## СОЯ УРУҒЛАРИНИ МОЙ ОЛИШГА ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНИ ТАҲЛИЛИ

**Н.З. Шарипов, М. Ҳ. Бешимов**

*Бухоро Муҳандислик технология институти, Бухоро шаҳар.*

*E-mail: [nodirzhons@bk.ru](mailto:nodirzhons@bk.ru)*

Давлатимиз раҳбари белгилаб берилган вазифалардан келиб чиқиб, ёғ-  
мой тармоғининг рақобатбардошлигини ошириш ва соҳани  
278

замонавийлаштириш мақсадида корхоналардаги мавжуд техника ва технологиялар инвентаризация қилиниб, бугунги кун талабларига жавоб бермайдиган, эски ишлаб чиқариш қувватларини модернизация қилиш ҳамда янги замонавий корхоналар барпо этиш бўйича 2019-2022 йилларда амалга ошириладиган инвестиция лойиҳалари дастурини ишлаб чиқилган.

Ҳозирги кунда мазкур лойиҳалар ижросини таъминлаш юзасидан тизимли ишлар олиб борилмоқда. Белгиланган тадбирлар ва тасдиқланган дастурларга кўра, 2019-2022 йилларда соҳада жами 143 та инвестиция лойиҳасини амалга ошириш ва бунинг натижасида 265,5 млн. долларлик маблағни ўзлаштириш мўлжалланмоқда. Бу лойиҳалардан 70 таси ўсимлик мойи ишлаб чиқариш замонавий корхоналарини барпо этиш, 9 таси мавжуд корхоналарни модернизация ва реконструкция қилиш, 27 таси гранулаланган омукта ем маҳсулотлари ишлаб чиқариш, 2 таси технологик ускуналар ва эҳтиёт қисмлар ишлаб чиқариш, 35 таси ишлаб чиқаришга оид бошқа лойиҳалардир. Ушбу лойиҳага асосан импорт ўрнини қопловчи маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва маҳаллийлаштириш масалалари кўрилган. Бунинг учун республика истеъмол бозорига кириб келаётган импорт ёғ-мой маҳсулотлари таркиби ва сифатини доимий таҳлил қилиш тизими йўлга қўйилди. Маҳаллийлаштириш дастур доирасида Республикамизга бир йилда 19,2 млн. долларлик 7,3 минг тонна соя уни, оксил изоляти импорт қилинаётганлиги аниқланиб, уюшма тизимида қуввати йилига 30 минг тонна соя донини қайта ишлашга мўлжалланган соя уни, оксил изоляти ишлаб чиқарувчи корхона ташкил этилди. Натижада 11,4 млн. долларлик импорт ўрнини қоплаш кўзда тутилмоқда.

Юқоридаги маълумотлардан кўриниб турибдики соя уруғини қайта ишлаб республикамиз ривожига улкан ҳисса қўшилади. Соя уруғи дароматли бўлиши билан бир қаторда фойлали хусусиятлари ҳам жуда кўп. Мойли уруғининг баъзи бир хусусиятларини кўриб чиқамиз. 1 кг соя уруғи таркибида 173 г мой ва қуйдаги минераллар мавжуд: натрий-440 мг, калий-160 мг, калций-3480 мг, магний-1910 мг, фосфор-5100 мг, темир-3950 мг. Улардан ташқари ҳайвонларни биологик тўлиқ озикланиши учун зарур бўлган марганец ва кобалт мавжуд. Республикамиз худудида етиштирилаётган соя навларининг физик-кимёвий таркиби (жадвал 1.) келтирилган.

**Соя навлари донининг кимёвий таркиби  
(уруғнинг куруқ моддасига нисбатан, % ҳисобида)**

**Жадвал 1.**

Навлар	Оксил	Углеводлар	Мой	Клетчатка	Кул
Орзу	38	24	22	3,5	5,0
Парвоз	38	24	22	3,4	5,0
Ойжамол	42	25	20	7,0	6,0
Олтинтож	40	25	20	6,0	6,0

Соя уруғи мой олишдан олдин уруғни тайёрлаш сифатли мой ва кунжара олишга сабаб бўлади. Тайёрлаш жараёни қуйдаги асосий жараёнларга шартли равиш бўлиб кўриш мумкин: уруғларни тозалаш, ўлчам бўйича



саралаш, чақиш ва чақилмадан соя пўстлоғини ажратиш киради.

Уруғларни тозалаш усулари куйдаги амалга оширилади. Уруғлар таркибида 2 хил аралашмалар мавжуд бўлади: 1) Минерал аралашмаларни: тупроқ, қум, тош ва хаказолар киради. 2) Органик аралашмаларни барглар, хазон, уруғ пўчоғи, пояси ва ҳоказо.

Хом ашёни тозалаш усуллари ва принциплари куйидагича:

1. Хом ашёларни аралашмадан уларнинг шакли ва ўлчамларига асосланган, элакли юзаларда тозалаш усули;
2. Хом ашёни аралашмалардан уларнинг аэродинамик хусусиятларидан фарқланашига асосланиб тозалаш усули;
3. Уруғлик ва аралашмаларнинг металломагнит хусусиятларнинг фарқланишига асосланиб тозалаш усули;
4. Мойли уруғларни аралашмалардан сув ёки бирор бир эритма ёрдамида ювиб тозалаш.
5. Мойли уруғларни аралашмалардан механик таъсир ёки ишқалаш йўли билан ажратиш бу усул қуруқ ҳолатда ювиш усули.

Хом ашёдан аралашмаларни ажратиш учун металллик штампланган элаклар ҳамда туқилган элаклар ишлатилади.

Металлик элакларнинг тешиклар формаси доиро шаклида ёки чўзиқроқ шаклида бўлиши мумкин. Доира шаклидаги тешикдан хом ашё ўзининг кенглиги бўйича ўтади. Узунчоқ шаклдаги тешиклардан қалинлиги бўйича ўтади. Органик ва минераллар аралашмалардан тозаланган уруғларни ўлчами бўйича сараланади. Саралаш жараёни турли ўлчамдаги элаклар ёрдамида амалга оширилади. Тозаланган ва саралган соя уруғлари чақиш қурилмасига юборилади. Мой ва кунжарани сифатини орттиришнинг асосий васифаларидан бири шелуха ёки лузгани ядродан иложи борича ажратиб олиниши керак. Баъзи бир мойли хом ашёларни, индов, зиғир ядроси қобиғидан яхши ажралмаганлиги сабабли улар чақилмайди ва мағизи ажратилмайди. Пахта чигити, кунгабоқар, соя уруғларини албатта чақиш ва пўчоқини мағизидаги ажратиш керак. Мағизни пўчоқдан максимал ажратиш, юқори сифатли мой ва шрот олиш имкони беради. Уруғларнинг эластиклигига намликнинг таъсири катта бўлгани туфайли чақилаётган уруғларнинг бу кўрсаткичи чақиш жараёни учун оптимал бўлиши лозим. Оптимал намлик кунгабоқар уруғи учун 14,1 %, пахта чигити учун эса 9-11 % ни, соя уруғи учун 11-12 % горчица учун 5,8-6,5% ташкил қилади.

Соя уруғини чақиш жараёни бир қанча усуллари технологик жараёнларда қўлланиб келинмоқда. Масалан: дарралаб, марказдан қочма куч ва бошқа усулларда чақилиб келинмоқда.

Чақиш жараёни тугаганидан сўнг янчилма таркибидан пўстлоқни ажратиб олиш керак. Ажратишни асосан ҳаво оқими билан ажратилади.

Хулоса қилиб шуни келтириш мумкинки, хом ашёни намлигини ва чақилган махсулотларни фракцияларга ажратишни оптималаштириш билан соя уруғидан сифатли мой ва юқори оксилли шрот олишга эришилади.

### Адабиётлар

1. N.Z. Sharipov, O. R. Abdurakhmanov, N.N. Safoev “High-effective cracking-classification device of oil of local sunflower in preparation for production”, "Problems and prospects of development of innovative cooperation in research and training." Bukhara. 2019.-№5 Pp. 13
2. N.Z. Sharipov, R.R. Ibragimov, N.N. Safoev “Classification of raw materials in the process of producing oil from seed of local sunflower”, Problems and prospects of development of innovative cooperation in research and training." Bukhara. 2019.-№5 Pp. 13
3. Ibragimov R. R., Sharipov N. Z., Narziyev M. S. Analysis of product processing at extremely high frequency //Academia Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 10. – С. 264-268.
4. Sharipov N. Z., Gafurov K. X., Jumayev J. Mahalliy soya urug ‘ini po ‘stlog ‘idan ajratish jarayonini tadqiq qilish //Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy-texnikaviy jurnal. – 2022. – №. 4.
5. Sharipov N. Z., Gafurov K. X. Soya urug ‘ini chaqish jarayonini nazariy asoslari va pichog ‘ni tanlash //Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy-texnikaviy jurnal. – 2023. – №. 1. – С. 48.
6. Кулдошева Ф. С., Шарипов Н. З. ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕПЛОВОЙ ОБРАБОТКИ ВИНОГРАДНЫХ КОСТОЧЕК ПОД ВОЗДЕЙСТВИЕМ ВЫСОКОЧАСТОТНОГО ПОЛЯ //Universum: технические науки. – 2023. – №. 5-5 (110). – С. 32-34.
7. Sharipov N. Z., Gafurov K. H. MS Mizomov. Soya seeds from the peel seperating of local growing //International Journal For Innovative Engineering and Management Research. – Т. 10. – С. 337.
8. Sharipov N. Z., Kuldosheva F. S., Jumaev J. Research of the Effect of Factors on the Process of Separation of Shadow Seeds from the Peel //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 7. – С. 86.

### О‘ТА YUQORI CHASTOTADA MEVA-SABZAVOTLARGA ISHLOV BERISH TAHLILI

**C126-21 TMJ guruh talabasi Mavlonova N.I.,  
Ibragimov R.R., Qo‘ldosheva F.S.**  
*Buxoro muhandislik – texnologiya instituti*  
+99897 303 19 79

Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan davlatlari qatorida respublikamizda ham yuqori chastotali va o‘ta yuqori chastotali dielektriklarning qizishi, hamda yarim o‘tkazgichlarning rivojlanishi bilan masalaga bo‘lgan qiziqish tobora ortmoqda. Yuqori chastotali maydon ta’sirida turli materiallariga issiqlik ishlov berish mexanizmini o‘rganish bo‘yicha bir qator xorijiy va mahalliy olimlar ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borganlar.

O‘ta yuqori chastotali isitishda mahsulot ichidagi temperaturani tezda oshishi xarakterli hisoblanadi, buning natijasida unda muhit bosimiga nisbatan bug‘ning

oshiqcha bosimi yuzaga keladi. Ushbu gradient, quritish jarayonini keskin jadallashtiradi, chunki bug‘ning o‘tishi molekulyar diffuziya yo‘li bilan materialning g‘ovaklari va kapillyarlari orqali ham filtrlanib o‘tadi.

Materiallarni yuqori chastotali elektr maydonida qizdirish bir qancha afzalliklarga ega:

1. Oddiy sirtiy issiqlik almashinish qurilmalariga qaraganda issiqlik oqimini quvvati oshishi hisobiga issiqlik almashinish jarayonni davomiyligini kamaytirish imkoniyatini beradi.
2. Material hajmining bir xilda qizishi issiqlik almashinish tezligini oshiradi. Yuqori chastotali elektr maydonida materialning intensiv qizishi, ba’zi hollarda materialning sirtidagi harorat ichki qavatlarining haroratidan past bo‘lishi termodiffuziya orqali namlikni materialning ichki qavatidan sirtiga migratsiyasini kuchayishiga olib keladi.
3. Yuqori chastota manbasi sifatida ishlatiladigan qurilmaning inersiyasini nisbatan pastligi.
4. Issiqlik almashinish jarayonida rostdash imkonini beradi.
5. Issiqlik oqimi qiymatini rostdash oson.
6. Ishlab chiqarishda oqimli uslublarni qo‘llash imkoniyatini mavjudligi.
7. Ishlab chiqarishda sanitariya sharoitlarini yaxshilash imkonini beradi.
8. Mahsulotni sifatli sterilizatsiyalash imkonini beradi.

Oxirgi yillarda texnologik jarayonlarda o‘ta yuqori chastotali toklardan keng foydalanilmoqda. Buni quyidagicha tushuntiriladi:

- kontaktsiz isitishni amalga oshirish va mahsulotda, o‘zi rostdanadigan isitish rejimida, haroratning bir tekisda taqsimlanishiga erishish;
- yorug‘lik tezligida energiyani uzatish va energiya berishning an’anaviy usullaridan xech biri bajara olmagan hajmiy birlikda quvvatni ajratish imkoniyati mavjudligi;
- yuqori namlikka ega bo‘lgan materiallar, o‘simlik va hayvonot mahsulotlarining o‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydoni energiyasini katta miqdorda yutishi;
- issiqlik ta’sirini bir zumda yoqilishi va o‘chirilishi, bu holat issiqlik inersionsizlik rejimini va isitishning yuqori darajada aniqligini rostdanishini ta’minlaydi;
- o‘ta yuqori chastotali energiyaning, isitilayotgan materialdan ajraladigan issiqlik energiyasiga aylanishidagi FIK i qariyb 60% bo‘ladi, ishchi kamerada energiya yo‘qotishlari past.

Oziq - ovqat mahsulotlarini elektrofizikaviy qayta ishlov metodlaridan yana biri bu o‘ta yuqori chastotali (**O‘YuCh**) elektromagnit maydon (EMM) energiyasining suyuq mahsulotlarini **pasterizatsiyalash va sterilizatsiyalash** hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda, bu borada yuqori effektivli o‘ta yuqori chastotali sterilizatsiya va pasterizatsiya jihozlarini yaratish uchun turli ishlar olib borilmoqda. Chunki, O‘YuCh EMM energiyasi suyuq oziq - ovqatga juda yengil kirib boradi va tezlik bilan qisqa vaqt va past temperaturalarda mikroorganizmlarni o‘ldiradi va mahsulot sifatini saqlab qoladi.

Mahsulotlarni ўта юқори частотали pasterizatsiya va sterilizatsiyasida nurli, rezonatorli va to‘lqinli elektrodinamik tizimlardan foydalaniladi. Nurli qurilmalarda energiyaning nurlanishi rупorli qurilmadan foydalaniladi. Rупorli qurilmaning energiyasi lokal ta’sir ko‘rsatadi. AQSH da yaratilgan rупorli ўта юқори

sterilizatorida 2450 MGs chastotada rupor mahsulot formasiga moslashtirilgan va ushbu jarayonda mahsulotlar bir tekisda qizdirishga erishilgan. Nurlantiruvchilar kameraning ichiga o'rnatilgan achitqi mahsulotlar idishda bo'lib massa kameraning ichida aylanib turib pasterizatsiyalanadi.

AQSH da uzluksiz sterilizatsiya qurilmasi ishlab chiqilgan, unda maxsus tonel elektromagnit maydon xosil qilinadi va ichidan mahsulotni transportyor yordamida o'tkazishadi. Bajarilgan sinovlar shuni ko'rsatdiki, unda sterilizatsiya jarayoni oddiy avtoklavdagidan 10 - 20 barobar tez bajariladi. Ushbu jarayonda barcha mahsulotlar shishali yoki polietilenli idishda o'tkaziladi. Jarayonni optimal rejimda o'tkazilishi uchun rezanatorli kameradan foydalaniladi va unda energiya zichligini boshqaruvchi tizimdan foydalaniladi.

Fransiyada suyuqliklarni sterilizatsiyasi uchun uzluksiz ishlovchi ўта юқори частотали qurilmadan foydalaniladi. Qurilma электр магнит майдон energiyasi generatoridan, tўlqin uzatgich va silindrsimon rezonatorli kameradan tuzilgan bo'lib, ichida ilon izli quvurchalar o'rnatilgan. Uning ichidan qayta ishlovga berilgan suyuq mahsulotlar o'tkazilib sterilizatsiya qilinadi. Kamerada EMM tulqinlari maxsus tirqishlardan uzatiladi.

Shvesiyada uzluksiz to'g'ri burchakli tulqin uzatkich asosida sterilizator ishlab chiqarilgan. Bu qurilmada kattiq oziq - ovqat mahsulotlardagi mikroorganizmlarni ularning kartonli yoki polietilenli qadog'ida o'ldirish uchun qo'llaniladi. Uning ishchi chastotasi 2450 MGs, germetik kameraning ichida transporterdan foydalaniladi. Mahsulotlarni kirishi va chiqishi uchun maxsus germetiklangan kirish va chiqish qurilmasi o'rnatilgan. Bundan tashqari idishlar yorilib ketmasligi uchun kameraga bosim ostida xavo yuboriladi. Nonni sterilizatsiyasi 2 -3 min 65 - 70 °C da olib boriladi, bunday qayta ishlangan nonlarning ishlatilish vaqti sezirarli darajada uzayadi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. P.P. Ибрагимов. Сверхвысокочастотная стерилизация пищевых продуктов. International journal of discourse on innovation, integration and education. Volume: 02 Issue: 02 | February 2021 ISSN: 2181-1067, с.281-284

2. P.P. Ибрагимов. Стерилизация пищевых продуктов обрабатываемых в сверхвысокочастотном поле. Техника и технология пищевых производств. Материалы XIV Международной научно-технической конференции 21–22 апреля 2022 года. С. 43

3. P.P. Ибрагимов. Стерилизация плодов и овощей в свч поле. Международная научно практическая конференция «Наука и инновационные технологии в производстве продуктов питания», Бухара 21-22 октябрь 2022 г., с.312-315

4. M.C. Нарзиев, P.P. Ибрагимов. Анализ процесса СВЧ – стерилизации пищевых продуктов. Материалы международной научно-практической конференции.

5. Ibragimov R.R., Kuldasheva F.S. The possibility of using ultra-high-frequency energy in the technologies of sterilization of plant raw materials. Universum. Технические науки 11 (116). Nov.2023

## **ПРОИЗВОДСТВО ПОДСОЛНЕЧНОГО МАСЛА ПРИ УМЕРЕННЫХ ТЕМПЕРАТУРНЫХ РЕЖИМАХ ПРЕССОВАНИЯ**

**Д.Н.Сафарова, К.Х.Гафуров**

*Бухарский инженерно-технологический институт*

*+998 93 454 4554*

На сегодняшний день в Республике работает 300 маслодобывающих предприятий, суммарная мощность по переработке составляет 4,3 млн тонн маслосемян в год. При этом загрузка мощностей достигает всего 62 % [1].

В 2022 году предприятиями масложировой отрасли произведено промышленной продукции на сумму 6,13 трлн сумов, в этом отношении достигнут темп роста на уровне 108,2 процента по сравнению с предыдущим годом. В том числе: 201 тыс. тонн растительного масла (темп роста 103,6 процента).

Одной из современных тенденций инновационного развития масложировой промышленности является производство конкурентоспособных продуктов, особенно масел и белкового шрота с повышенной биологической ценностью безопасных в потреблении. Поэтому разработка новых и совершенствование существующих технологий получения и переработки растительных масел, позволяющих получать высококачественные масла и белкового шрота, является важнейшей задачей.

Подсолнечник является третьей масличной культурой, производимой в мире, занимает четвертое место по производству растительного масла и третье место – по производству шрота как источника белкового корма [2].

Подсолнечное масло — растительное масло, получаемое из семян масличных сортов подсолнечника масличного.

Содержание жирных кислот в подсолнечном масле (в %): стеариновая 1,6-4,6, пальмитиновая 3,5-6,4, миристиновая до 0,1, арахидовая 0,7-0,9, олеиновая 24-40, линолевая 46-62, линоленовая до 1. Из полиненасыщенных жирных кислот в подсолнечном масле содержится всего лишь 1 % кислот омега-3 [3], а преобладают омега-6-ненасыщенные жирные кислоты до 74%. Омега-3 и омега-6 ненасыщенные жирные кислоты (витамин F) являются эссенциальным (т.е. жизненно необходимым) компонентом пищевых продуктов, который наш организм не может синтезировать сам. А линолевая кислота необходима для хорошего иммунитета, она мешает усталости перейти в хроническую стадию и не даёт коже высыхать.

В настоящее время производство подсолнечного масла в мире осуществляется в основном методом высокотемпературного прессования и методом экстракции растворителем. После процессов предварительной обработки, таких как первоначальная очистка, сушка, повторная очистка, шелушение, дробление, влаготепловая обработка, сырье из семян подсолнечника прессовали для получения масла. Метод высокотемпературного прессования имеет преимущества особого вкуса, но скорость извлечения масла

ниже, остаточная масличность жмыхе выше. Этапы рафинации влияют на качество масла, такие как окисление жира, токсичные и вредные вещества, такие как глицидиловый эфир, ацетон-пропиловый спирт и т.д. Кроме того, белок высокотемпературного измельченного подсолнечного шрота сильно денатурирован и имеет низкое качество, можно использовать только в качестве обычного корма для животных.

Второй метод - экстракция масла с использованием органического растворителя, а затем путем дистилляции и других этапов для получения масла. Преимуществом этого метода является высокая эффективность экстракции масла, но плохой вкус, в то же время из-за использования токсичных, горючих, взрывоопасных органических растворителей в процессе экстракции, это приведет к остатку растворителя в масле и шроте.

Объекты исследования: семена местных сортов и гибридов подсолнечника, процессы термообработки и прессования [4].

Цель работы – разработка технологии производства высококачественного подсолнечного масла методом низкотемпературного прессования и внедрение этой технологии в промышленных масштабах.

При использовании технологии совместного производства подсолнечного масла и белкового шрота будет решена проблема денатурации белка, происходящего в процессе высокотемпературного прессования подсолнечного масла, а белок и масло будут эффективно и тщательно разделены при переработке семян подсолнечника.

В работе использованы методики определения количественных и качественных характеристик материалов, согласно соответствующим ГОСТам, применена методика композиционного (последовательного) планирования экспериментов и методология поверхности отклика (Response Surface Methodology).

В процессе работы проводились экспериментальные исследования по определению физико-механических характеристики семян некоторых сортов и гибридов подсолнечника, выращиваемых в Узбекистане. На основании этих характеристик (особенно по показателям масличности и содержания протеина в семенах) отобраны 3 сорта и гибрида для дальнейших исследований [4,5].

Проведены экспериментальные исследования процесса термообработки мятки семян подсолнечника перед прессованием.

В результате исследований доказано положительное влияние прерывистой инфракрасной термообработки мятки семян подсолнечника при подготовке к прессованию, при которой температура материала не превышает 60°C, определены рациональные значения факторов, влияющих на процесс термообработки, а именно: плотность лучистого потока 7,2 кВт/м<sup>2</sup>; время облучения 160 с.

Проведены исследования по изучению влияния изменения основных технологических параметров холодного отжима отдельных сортов подсолнечного масла на шнековом прессе (частоты вращения вала шнека  $n$  и толщины выходной щели жмыха  $\delta$ ) на выход и качественные показатели масла. По результатам экспериментов определены рациональные значения этих

параметров:  $n=35$  об/мин;  $\delta=7,5$  мм, при которых остаточная маслячность жмыха составляет 10,0-10,5 %, а кислотное число получаемого масла будет на уровне 1,65-1,7 мг КОН.

### Список литературы

1. Официальный сайт Ассоциации «O`zyog`moysanoat» URL <https://yogmoj.uz/ru/post/view?slug=613-trillion-sum-mikdorida-eg-moj-masulotlari-islav-cikarildi>
2. Étienne Pilorgé. Sunflower in the global vegetable oil system: situation, specificities and perspectives. The OCL Journal. 2020. Vol.2, #34. doi:10.1051/ocl/2020028
3. Гусева Д. А., et al. Антиоксидантная активность растительных масел с разным соотношением омега-6/омега-3 жирных кислот. Биомедицинская химия, 56.3 (2010): 342-350.
4. Гафуров К.Х., Сафарова Д.Н., Guo Qin. Физико-механические свойства семян сортов подсолнечника, выращиваемых в Узбекистане. Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2023. 11(116). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/16315>
5. Gafurov K.Kh., Safarova D.N. Development of technology for oil extraction from local sunflower seeds at moderate temperature. International journal Global Scientific Review. Volume 8, 2022. -P.33-37.

## MEVA DANAGI MAG‘ZIGA ISSIQLIK ISHLOV BERISH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH

**F.Yu.Xabibov, A.X.Fayziev**

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti*

Optimallashtirish – bu mavjud sharoit uchun ichki imkoniyatlardan foydalanib eng yaxshi natijalarga erishish (optimumni aniqlash) maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat yo‘nalishi, hatti harakatidir. Har qanday optimallashtirish masalasini yechish dastlab undan ko‘zlangan maqsadni aniqlashdan boshlanadi, ya’ni optimallashtirish ob’ektiga (jarayon, qurilma, texnologik tizim va hokazo) ko‘rsatiladigan talablar majmui shakllantiriladi. O‘rganilayotgan jarayon odatda bitta kattalik bo‘yicha (uning eng katta yoki eng kichik qiymatlari bo‘yicha) optimallashtiriladi, masalan, “xom ashyoni belgilangan sarfi bo‘yicha maxsulotning maksimal chiqishini ta’minlash” yoki “maxsulot belgilangan miqdori uchun xom ashyoning zaruriy minimal sarfini aniqlash” va hokazolar optimallashtiriladi.

Optimizatsiyalashning optimal vazifalarini yechish uchun asosan taxlil funksiyalarning klassik taxlilining tadqiqot usullari, Lagranj noaniq ko‘paytmasini qo‘llanilishiga asoslangan usullar, shuningdek, variatsiyali hisoblash, dinamik dasturlash, chiziqli va nochiziqli dasturlash va boshqalar qo‘llaniladi. Shuni ta’kidlash kerakki amaliyotda yuzaga keladigan vazifalarni yechish uchun muayyan bir usulni qo‘llanilishini tavsiya etib bo‘lmaydi. Muayyan vazifani yechish uchun eng

qulay bo‘lgan optimallashtirish usulini tanlashda eng yaxshi yo‘l bu optimallashtirish usullarini qo‘llash sharoitini tadqiq qilishdir.

Nochiziqli funksiyalarning optimal vazifalarini yechishda aniq dasturlash usuli qo‘llaniladi. Nochiziqli dasturlash usulida bir qator sonli usullar birlashib ularning anchasi muayyan sinflarning optimal vazifalarini yechishga shakllangan. Nochiziqli dasturlashda bir qancha usullar doimiy ravishda optimallashtirishning boshqa usullari bilan birgalikda qo‘llaniladi (masalan, dinamik dasturlashdagi skanirovanie usuli bilan birgalikda).

Skanirovanie usuli bir qancha nuqtalarda optimallashtirish kriteriyasini ketma-ket ko‘rikdan o‘tkazishda asoslangan bo‘lib, bu nuqtalar o‘zgaruvchan bog‘liq bo‘lmagan o‘zgarishlarga tegishli hamda bu nuqtalar orasida shunday nuqtani aniqlashga asoslanganki, unda optimallashtirish kriteriyasi maksimal (minimal) qiymatga ega. Ajratib olingan nuqtalar mustaqil o‘zgarishlarning ruxsat berilgan o‘zgarish doirasida qancha darajada “quyuq” joylashishiga qarab usulning aniqligi bilinadi.

Skanirovanie usulining afzalligi shundan iboratki, tadqiq qilinadigan nuqtalarning yetarli darajada “quyuq” joylashishi lozim bo‘lgan global optimumni topishga kafolat beradi, chunki bunda bog‘liq bo‘lmagan o‘zgarishlarning o‘zgarish oblastining hammasi taxlil qilinadi. Shunga asosan meva danagi mag‘zini issiqlik ishlov berish jarayonini optimallashtirish vazifasini bajarish uchun biz skanirovanie usulini tanlab oldik.

Danadan yog‘ olishda IK – konvektiv quritish natijasidagi optimal kriteriyasini kislotlilik soni va chiqish miqdorini, mag‘zlarning oxirgi holatidagi temperaturasi va namligini tanlab olamiz. Quyidagi ko‘rinishda ularni ko‘rsatamiz:

$$Y_{\text{чик}} = f < E, \tau_{\text{ymym}}, t_{\text{e}}, V_{\text{e}} W_H > \rightarrow Y_{\text{чик.max}}$$

$$K = f < E, \tau_{j,k}, t_{\text{e}} V_{\text{e}} W_H > \rightarrow K_{\text{min}}$$

$$t_K = f < E, \tau_{\text{ymym}}, t_{\text{B}} V_{\text{e}} W_H > \rightarrow t_{K \text{min}}$$

$$W_K = f < E, \tau_{\text{ymym}}, t_{\text{e}} V_{\text{e}} W_H > \rightarrow W_{K \text{min}}$$

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. S. Narziev, O. R. Abdurakhmanov, F. Y. Khabibov, Karimova, D. sh. Investigation of flow hydrodynamic structures in the final distillation of a cotton micella. "Problems and prospects of development of innovative cooperation in research and training." Bukhara. 2017.- Pp. 52-53

2. M.S.Narziev, F.Yu.Habibov. Opredelenie optimalnix texnologicheskix parametrov protsessa okonchatelnoy distillyatsii binarnix smesey // “Oliy ta’lim innovasion faoliyati va faol tadbirkorlik integratsiyasi rivojlanishining muammolari” mavzusida professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, magistrilar va talabalarning ilmiy-amaliy anjumani materiallari. II-tom. 17-19 aprel, 2019. -Buxoro. -96-98 b.

3. M.S.Narziev, F.Yu.Habibov, D.S.Karimova Razrabotka sistemi upravleniya protsessom okonchatelnoy distillyatsii misselli xlopkovogo masla na osnove adekvatnoy matematicheskoy modeli // Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya “Integratsiya sovremennix nauchnix issledovaniy v razvitie obshchestva” I- tom. 28-29 dekabr, 2016. Kemerovo. - S.41-44



## **MEVA DANAGI MAG’ZIGA ISSIQLIK ISHLOV BERISH JARAYONINI SISTEMALI TAHLIL ETISH**

**F.Yu.Xabibov, A.X.Fayziev**

*Buxoro muxandislik texnologiya instituti*

Zamonaviy ishlab chiqarishga qo`yiladigan yuqori talablarga javob beradigan optimal texnologik sxemalarini taxlil qilish uchun sistemaning to`liq ishini ko`rib chiqmasdan, o`zaro qurilmalarni bir - biriga va butun sistemaga ta`sir etishini hisobga olmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Bunda faqatgina miqdoriy baxolashni qo`llash orqali texnologik chizmalarning yuqori darajada funktsiyasini formalizatsiyalash orqali amalga oshirish mumkin. Bunda ishlab chiqarish samaradorligini sistema elementlari orasidagi o`zaro ta`sir sharoitlari sifatida texnologik qurilmalar orasidagi o`zaro ta`sirlar va jixozlarning sifati bilan aniqlanadi.

Meva danagidan yog` ishlab chiqarish tizimining sistemali strukturaviy taxlili natijasida ko`rib o`tiladigan sistemada yog` chiqish miqdori va sifatiga ta`sir etuvchi eng nozik tomoni aniqlanadi. Bu meva danagi mag`zlariga issiqlik ishlov berish jarayoni bo`lib hisoblanadi.

Meva danagidan yog` ishlab chiqarish texnologik tizimining asosiy elementlarini ko`rib chiqishda sistemali yondoshish asoslarini qo`llash maqsadga muvofiqdir. Har xil texnologik jixozlarni taxlil qilishda ularning funktsiyasi, sifati, undagi fizikaviy - kimyoviy va biokimyoviy jarayonlar kompleksining o`zaro ta`siriga bog`liq bo`lishini ko`rsatadi. Sistema sifatida jixozlar murakkablik darajasi elementar fizikaviy - kimyoviy va biokimyoviy effektlarning ko`p qirrali ekanligi bilan aniqlanadi.

Issiqlik ishlov berish jarayonini takomillashtirish maqsadida va mag`zga issiqlik ishlov berishda o`tadigan issiqlik almashinuv va biokimyoviy jarayonida yog`ning ajralib chiqishi va sifatiga har xil faktorlarning ta`sirini o`rganish uchun jarayonning sifatini taxlilini amalga oshiramiz va issiqlik ishlov berish texnologiyali jarayonining ierarxiyali sistemasini quramiz.

Ierarxiyali ko`rinish har xil pog`onalarda o`tuvchi biokimyoviy va fizikaviy jarayonlar oqibatida sodir bo`luvchi fizikaviy - kimyoviy samaradorligi va ko`rinishlarining o`zaro ta`sirini ochib berish imkonini yaratadi, ya`ni atomli molekula ko`rinishlardan o`zlashtiriladigan maxsulot qatlamiga boruvchi ko`rinishlar va samaralar darajasini ochib beradi. Ierarxiyaning har bir darajasida o`z navbatida ma`lum bir funktsiyalarni bajaruvchi o`zining sistemalarini hamda bu pog`onadan o`tuvchi samaralar va ko`rinishlarning mujassamligini ko`rsatish mumkin.

Bizning meva danagi mag`zlarini issiqlik ta`sirida ishlov berish jarayoni ierarxiyasining ettita o`zaro bog`langan darajalari sifatida ko`rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. 1 - jadvalda funktsiyalari aks ettirilgan ierarxiya darajalari hamda har bir pog`onadan o`tadigan jarayonlar ko`rsatib o`tilgan.

Ierarxiyaning birinchi darajasida murakkab molekularlarning tarkibiy elementlari ko`rib chiqiladi. Ulardan oqsillar, lipidlar, hujayralar va boshqalardan tashkil topgan, shuningdek, mag`zlarni infraqizil nurlar bilan issiqlik ishlov berish

jarayonida o'z o'rnini bo'lgan fizikaviy - kimyoviy ko'rinishlar va funktsiya energiyalarini bajaradigan fermentlar, inhibitorlar, o'tkazuvchanlik xususiyati bo'lgan boshqa moddalar ko'rib o'tiladi. Ierarxiyaning bu darajasi alohida hujayralarning yashash sharoiti bilan xarakterlanadi. Ierarxiyaning ikkinchi va uchinchi darajasida oqsillar, murakkab lipidlar, membranalar, meva danagi mag'zlari tarkibidagi organlarda o'tadigan jarayonlar, biokimyoviy o'zgarishlar, fazali o'tishlar va tarkibli o'zgarishlar ko'rib o'tiladi.

Ierarxiyaning to'rtinchi darajasida meva danagi mag'zlari hujayralaridan o'tadigan fizikaviy - kimyoviy jarayonlar va faktorlar ko'riladi, shuningdek, substratga ta'sir etuvchi fermentlar ta'siri o'z aksini topadi.

Ierarxiyaning beshinchi darajasida infraqizil nurlanish sharoitida meva danagi maqzlarida o'tadigan jarayonlar tadqiqoti olib boriladi hamda mag'zda nur to'plamining yutilishi va taqsimlanishi ko'riladi. Ierarxiyaning qolgan darajalarida danak mag'zlariga issiqlik ishlov berish jarayoniga tashqi faktorlarning ta'siri aks ettiriladi.

**Meva danagi mag'zlariga IK – nurlar bilan issiqlik ishlov berish natijasida o'tadigan biomodda issiqlik almashinish jarayonlarining ierarxik strukturasi**

1-jadval

<b>№</b>	<b>Darajalar</b>	<b>Struktura elementlari</b>	<b>Biologik va texnologik funksiyalar</b>	<b>Darajalarda o'tadigan ko'rinishla</b>
I	Aminokislotalar monodisaxaridlar, sodda lipidlar, vitaminlar va x.k.	Molekulalar achchiq va asosiy guruxlari	DNK ni tuzish xususiyati, oqsil, membrana, moddalar karkasi (klechatka) va boshqalar	Fazali o'tishlar, eritishlar
II	Klechatka, oqsil murakkab lipidlar, membrana va boshqalar.	Aminokislotalar, fosfolipidlar, sellyuloza, gemisellyuloza va boshqalar.	Energiyani o'tkazish, hujayra organellilarini tashkil topganligi	Bioximik o'zgarishlar, fazali o'tishlar, tarkibli o'zgarishlar
III	Yog'li urug'lar (mitoxondriyalar, kichik mag'z) organellilar	Fermentlar, makroenergetik birlashmalar, DNK, membrana, oqsil va boshqalar.	DNK, RNK, oqsillar va fermentlarmikro va makro elementlar, hufayralarda moddalar almashinuvi	Bioximik o'zgarishlar, I va II darajalarida o'tadigan ko'rinishlar ierarxiyasi

IV	Meva danagi mag'lari hujayralari	Organela, hujayralar yadrosi	Meva danagi mag'zlarining hayotini saqlash, hujayra buzilishi	I va III darajada bioximik o'zgarishlar, TMO jarayonlar
V	Meva danaklarining alohida ajratigan mag'zi	Hujayralar, hujayra orasidagi moddalar	Yog'ni ajratib olish uchun mag'zni hujayrali tarkibini yaxshilash	IK ta'sirlar yordamida ichki issiqlik og'irlik o'tkazishlar
VI	Meva danagi mag'zlari qatlami	Alohida olingan mag'z, maydalagich	Mag'zni presslash uchun uning tarkibini yaxshilash	IK ta'sirlar yordamida tashqi issiqlik og'irlik o'tkazishlar
VII	Material qatlami va jixozi	Jixozning konstruksiyasi elementlari	Materialni presslashga tayyorlash	I dan IV darajaga o'tadigan biomodda issiqlik almashinuv jarayonlari va ularning jixoz va atrof muhit bilan bog'liqligi

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Xabibov F.Yu. Razrabotka texnologii proizvodstva odoranta iz gazokondensatov mestorojdeniy «Dengizkul» buxarskoy oblasti. Sbornik trudov mejdunarodnoy nauchno-teoreticheskoy konferensii na temu: «Kuatbekovskie chteniya-1: Uroki nezavisimosti», posvyashchenoy 30-letiyu Nezavisimosti Respubliki Kazaxstan. 2021. S.157-159

2. Xabibov F.Yu. Based on the systematic analysis of samarkand the oven to bake bread o'to rga. NX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230, Volume7, ISSUE 6, June. -2021. P. 409-4123. Xabibov F.Yu. Samarkand noni pishirish tandirini tizimli tahlil asosida o'rganish. «Sanoat injeneriyasining dolzarb muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro: 2021. 112-113 b.

3. Xabibov F.Yu. Hamroyev H.H. “Samarqand noni” pishirish qurilmasi (tandir)ni tizimli tahlil asosida o'rganish. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmiy-texnikaviy jurnal. Buxoro: 2022. №1, 121-126 b.

## MANEKEN TAYYORLASHNING TARIXIY BOSQICHLARI

**Xabibova Munavvar Shamsulloyevna**

*Buxoro muhandislik texnologiyalari instituti*


*“Tikuvchilik sanoatida innovatsion texnologiyalar” kafedrası*

Manekenlar insoniyatning eng qadimgi ixtirosidir. Fir’avn Tutankhamun qabrida uning tanasi kiyimlar to’plami bilan birga topilgan va Shaolin rohiblari mankenlarda kung-fu texnikasini mashq qilishgan. Yevropada XVII-XVIII asrlarda pandoralar deb ataladigan kichik manekenli qo’g’irchoqlar paydo bo’lgan. Ushbu qo’g’irchoqlarning asosiy maqsadi kiyim modellarini namoyish qilish edi. Pandora ishlab chiqarishda yog’och, mum, chinni, charm, shisha kabi materiallar ishlatilgan. Rassomlar tanani yig’ishda harakatlanuvchi qo’llar va oyoqlarni yog’och yoki mumdan yasalgan tanaga biriktirib, yuzni bo’yash va pardozlash bilan ishlov berganlar. 100 yil o’tgach, Parijda birinchi yirik do’konlar paydo bo’la boshladi, ularning derazalarida mumli mankenlar ishlatilgan. Ular atrof-muhitga ta’sir qildilar, quyosh va lampalar ta’sirida eridi yoki sovuqdan yorilib ketdi. Plastmassaning paydo bo’lishi bu muammoni hal qilish imkonini berdi.

Mankenlarning nisbati va “figura turlari” moda tendentsiyalariga muvofiq o’zgardi. Qoida tariqasida, manekenlar “ideal” raqamga ega edi va kiyim-kechak buyumlari uchun yuzsiz fon edi. “Manekenlar olamida”



haqiqiy inqilob amalga oshirildi, razmer o’lchamlariga tegishli raqamlarni qiziqarli va



esda qolarli qilish, ularga g’ayrioddiy pozalarni berish, ajoyib tafsilotlarni qo’shishni boshladi. Zamonaviy manekenlar statik bo’lishi mumkin yoki “harakatlana oladi”, ular butunlay yoki yig’iladigan, to’liq o’sishda

bajariladi yoki faqat tanasini qoldiradi. Qator kompaniyalar ko’p vaqtlardan beri manekenlar ishlab chiqaradi va o’zini haqli ravishda ushbu sohada mutaxassis deb biladi. Shu vaqt ichida ular yangi tendentsiyalarning boshida bo’lib, ushbu bozorda yuqori raqobatbardoshlikni saqlashga harakat qilishgan. Hozirda yengil sanoat sohasi uchun manekenlarni ishlab chiqarish sharoitida qisqa vaqt ichida istalgan o’lchamda, rangda va kerakli miqdorda manekenlar va “demo” shakllari ishlab chiqarilmoqda. Manekenlar assortimenti doimiy ravishda yangi zamonaviy modellar bilan bir qatorda yangilanib boradi. Bundan tashqari, biz tobora rivojlanib borayotgan kiyim uslublari uchun eksklyuziv modellarni ishlab chiqishimiz mumkin, zavodda brend ko’rinishiga muvofiq yoki mijozning tanlagan eskiziga ko’ra ishlab chiqarilishi mumkin. Manekenlar eng yangi texnologik mahkamlagichlar bilan jihozlangan, yig’ish va demontaj qilish oson, foydalanish uchun qulay. Fabrikalarda manekenlarni tayyorlash uchun ekologik toza materiallar va yuqori sifatli ingliz bo’yog’idan foydalanadi, ular toksik emas va hidsizdir. Stend 10 mm maxsus chidamli temperli shishadan qilingan

bo'ladi.

Muvaffaqiyat siri shundaki, sohadagi eng so'nggi tendentsiyalarga amal qilgan holda, agar jahon bozori manekenlar uchun modani talab qilsa, biz sanoatda ularga bo'lgan talabni shakllantiramiz. So'nggi besh yil ichida maneken ishlab chiqarish sohasida keskin o'zgarishlar bo'ldi. 3D printer bilan ishlab, turli ko'rinish va o'lchamlardagi manekenlar individual parametrlarga moslashtirildi. Dastlab, mahsulotlarning faqat alohida qismlari – boshlar, qo'llar chiqarilgan, keyin ular mahsulotlarni to'liq o'sishda chop etishni boshladilar. 3D-printerning paydo bo'lishi bilan manekenlarning ko'lami sezilarli darajada kengaydi.

Hozirda manekenlarni avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarida loyihalash va ko'p razmerli transformatsiyalanuvchi holatda tayyorlash yengil sanoat sohasining dolzarb masalalaridandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. F.Yu.Khabibov, O.R.Jamolova. Use of experimental planning methodology to study the final distillation of vegetable oils. Novateur publications journalnx- a multidisciplinary peer reviewed journal. VOLUME 7, ISSUE 6, June. -2021.

2. F.Yu.Khabibov, F.Sh.Atamuratov. Development of a functional diagram "Acoustic-convective drying process ict". Novateur publications journalnx- a multidisciplinary peer reviewed journal. VOLUME 7, ISSUE 6, June. -2021

3.Khabibov F.Yu., Niyazov Kh.Kh., Ismatova A.A. (2023). CURRENT STATE OF FRUIT AND VEGETABLE JUICE PRODUCTION. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, 3(6), 210–214. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012176>

## **ZAMONAVIY DENIM KIYIMLARDA KASHTACHILIKNING O'RNI**

### **Sharipova S.I., Juraeva Z.B.**

Bugungi kunda tikuvchilik gazlamalari bozorida sharaflari o'rin egallagan denim yoki jinsi matosining yaratilishi to'qimachilik tarixi XIX asrning o'rtalarida ya'ni 1853 yilda boshlangan.


Amerikalik tadbirkor Levi Strauss birinchi bo'lib qalin va qishloq ish kiyimlarini tikishda kema elkanlari uchun ishlatiladigan kanop matosidan foydalangan. O'sha paytlarda Amerika floti jiddiy yo'qotishlarga duch keldi va to'qilishi mustahkam va ekspluatatsiyada yaroqli bo'lgan ushbu mato juda ko'p miqdorda mavjud bo'lgan [1].

Levi Strauss & Co firmasining tarixi 1873 yilda, Levi Strauss va Jeykob Devislar tomonidan denim matosidan (serge de Nîmes —(frans.) termin, sarja to'qilish turi) cho'ntaklarida temir zaklepkali va yorqin sariq ipdan ikki chokli bostirma bezak chokli fermerlar va konchilar ish kombinezoni ixtiro qilgan va patentlagan paytdan boshlangan - ishchilar uchun ekspluatatsiyaga yaroqli mustahkam kiyimlarga, funksional garderobga muhtoj bo'lgan har bir kishi uchun kiyimlar ya'ni, konchilar, kovboylar, temir yo'lichilar uchun juda qo'l kelgan [2].

Denim matosidan ishlab chiqarilgan kiyimlar har bir insonning garderobidagi eng mashhur va ko'p qirrali kiyimlardan biridir. Biroq, ular ko'pincha zerikarli va qiziqarli ko'rinmaydi. Oddiygina qo'shimcha kiritish orqali jins kiyimlarini romantik uslubda, kundalik hayotda, o'qishda ham kiysa bo'ladi. Bunday qo'shimcha – kashta deb nomlanadi. Bir qarashda kashta mahsulotlarini ko'rganda slavyanlarning ko'ylagini eslatibgina qolmasdan, hozirgi kunda denim matosidan ishlab chiqarilgan kiyimlarda ham qo'llansa bo'ladi.

Hozirgi kunda kashta tikishning bir qancha usullari mavjud bo'lib ularni ham qo'lda ham avtomatlashtirilgan tizimda ham tiksa bo'ladi[3].

Har bir millatda milliy kostyumining kashtasi boy va xilma-xildir. Bezakda mahalliy xususiyatlar aks etgan. U ayollar va erkaklar ko'ylaklari, tashqi kiyimlari, bosh kiyimlari bilan bezatilgan. Bezaklar, kompozitsiyalar, ranglarning motiflari avlodan-avlodga o'tib, an'anaviy bo'lib qoldi.



**1-rasm Denim mahsulotlarida kashta namunalari.**

Kashtachilikning asosiy mavzulari turli qadimiy madaniyatlarning ramzlari edi. Ko'p asrlar davomida kashtachilikdagi ramzlarning o'ziga xos ma'nosi yo'qolgan, ammo ularni tasvirlash an'analari o'zgarmagan. Bezak mavzulari uchta asosiy guruhga bo'linadi: mavhum rasm, o'simliklar va hayvonlar [3].

Ayollar jinsi ko'ylaklarida kashtado'zlik nafaqat butun ko'ylakga chiroy berib qolmasdan, balki ko'ylakning kichik detallari yeng, yoqa, old cho'ntak va ko'ylak etagiga ham qo'llansa bo'ladi. Kashtado'zlik dastlab jins shimlarning orqa cho'ntaklariga bezak bergan bo'lsa hozirgi kunda turli xil iqtiboslar, emblemalar logotiplar insonlarning kayfiyatini ham ko'tarishga sabab bo'lmoqda.



**2-rasm. Ayollar ko'ylaklarida kashtado'zlik namunalari**

Ko`pgina muvafaqqiyatlarga erishgan Ukrainalik Olga Streltsova o`zining bir nechta mualliflik ko`rgazmalarini tashkil etgan. Bundan tashqari kashtado`zlik studiyasiga ega Olga Streltsova istalgan matolarga kashtado`zlik san`atini qo`llaydi.

O`zbekistonda ham milliyligimizni uyg`unlashtirgan holda ko`plab dizaynerlarimiz ish olib bormoqdalar. Taniqli o`zbek dizayneri Kumush Kasimova ham shulardan biri hisoblanadi. Yaqinda bo`lib o`tgan Dildora Kasimova & B jeans milliyligimiz aks etgan denim matosidan foydalanilgan kiyimlar ko`rgazmasi bo`lib o`tdi. Unda “Paxtagul”, “Do`ppi”, “Qalampir bosh”dan foydalangan[4].



**3-rasm . D. Kasimovaning «Denim i vostochnoe ubranstvo» nomli kolleksiyasidan namunalar**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Djinsy: Istoriya i sovremennost. [Elektron resurs]: <https://finedenim.ru/blog/istoriya-dzhinsov.html> (murojaat qilingan sana 09.11.2023).
2. Magazin tkanin Atlas. [Elektron resurs]: <https://tkani-atlas.com.ua/dzhinsovaya-tkan-istoriya-materiala-ego-vidy-i-oblast-ispolzovaniya>. murojaat qilingan sana 04.11.2023).
3. Islovovna, S. S. (2021). Factors influencing the design of adolescent uniforms and determining their functions. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), pp. 1315-1319.
4. Denim i vostochnoe ubranstvo: pokaz Dildora Kasimova x BJeans proshel v Tashkente. [Elektron resurs]: <https://www.afisha.uz/ru/fashion/2022/09/23/dk-bjeans> (murojaat qilingan sana 04.11.2023).

## СВОЙСТВА ФРУКТОВ И ЯГОД КАК ОБЪЕКТА СУШКИ

**Ямалетдинова Мунира Фадитовна**

*Бухарский инженерно – технологический институт, г. Бухара, Узбекистан*  
+998907158679

Большинство фруктов и ягод содержат более 85% воды. Это обуславливает их нестойкость при хранении. Большая часть сухого вещества (более 90%) фруктов и ягод приходится на углеводы. Из углеводов состоит опорная ткань плодов; они являются резервным веществом, которое частично используется при дыхании и других физиологических процессах. Углеводную часть составляют пектиновые вещества, сахара, крахмал и клетчатка.

Пектиновые вещества представляют собой высокомолекулярные полисахариды. Они находятся в фруктах и ягодах в виде двух основных веществ- протопектина и пектина. Основной структуры пектиновых веществ является галактуроновая кислота. Она образуется при полном гидролизе пектина. В незрелых плодах преобладает содержание протопектина-нерастворимого в воде вещества с высокой молекулярной массой. По мере созревания плодов протопектин превращается в пектин. Пектин растворим в воде и способен образовать студни. Студнеобразующая способность пектина плодов значительной степени связана с их зрелостью; наибольшая - в период их созревания. При перезревании и неблагоприятных условиях хранения пектин гидролизуеться и его студнеобразующая способность падает.

Основными представителями сахаров, содержащихся в фруктах и ягодах, являются глюкоза, фруктоза и сахароза. Сахара в значительной степени обуславливают вкусовые и пищевые достоинства фруктов и ягод. Общее содержание сахаров колеблется в широких пределах (от 0,5% в лимонах до 25% в винограде). Доля сахара в значительной степени зависит от условий выращивания, степени зрелости, сорта и т.д. Содержание глюкозы и фруктозы почти во всех плодах значительно превышает содержание сахарозы. В некоторых видах плодов сахароза вообще отсутствует (виноград, красная смородина и т.д.). Повышенное содержание сахарозы имеют абрикосы и персики.

Наряду с пектиновыми веществами и сахарами плоды содержат еще такие углеводы, как крахмал и клетчатка. Клетчатка наряду с протопектином составляет основную массу клеточных стенок. Крахмал образуется в плодах в период раннего их развития и откладывается в клетках как резервное вещество. По мере созревания крахмал подвергается гидролизу и почти полностью превращается в сахара и органические кислоты.

Фрукты и ягоды содержат многие органические кислоты. Кислоты могут находиться как в свободном состоянии, так и в виде солей. Массовая доля кислот колеблется в широких пределах (от 0,7% в некоторых сортах яблок до 8% в лимонах). Наибольшее распространение находят яблочная, лимонная и винная кислоты. В фруктах, произрастающих в северных районах, обычно



преобладают яблочная и лимонная кислоты, а в южных — винная. Однако цитрусовые содержат лишь лимонную кислоту, в некоторых плодах в небольших количествах содержатся щавелевая, бензойная, салициловая и др. Бензойная и салициловая кислоты даже в небольших количествах являются хорошими консервантами. Их присутствие в клюкве и бруснике обуславливает хорошую сохраняемость этих ягод при хранении. При повреждении фруктов и ягод в них могут образовываться молочная и уксусная кислоты.

Фрукты и ягоды содержат также дубильные вещества или полифенолы. Их общее содержание в плодах не превышает 1 %, однако даже эти небольшие количества существенно влияют на вкус (придают терпкость и делают его вяжущим). При ферментативном окислении кислородом воздуха дубильных веществ они дают темноокрашенные продукты. Этим объясняется потемнение поврежденных или резаных плодов.

К красящим веществам плодов и ягод относят антоцианы, хлорофилл, каротиноиды. Антоцианы обуславливают красный и синий цвет плодов. Они представляют собой глюкозиды. При гидролизе дают глюкозу и окрашенное вещество, которое называют анто - цианидином. Это вещество более реакционноспособно, чем антоциан. Этим объясняется необходимость введения глюкозы или патоки при уваривании красителя, получаемого из виноградных выжимок и применяемого для подкраски кондитерских изделий. В зависимости от кислотности среды или кислотности подкрашиваемого объекта антоцианы могут изменять окраску. Обычно содержание анто-цианов в плодах не превышает 0,1%. Однако в таких ягодах, как черноплодная рябина, их содержание в соке около 3%.

Из семечковых плодов наиболее широко используются яблоки, которые в виде пюре и подварок предусмотрены рецептурами многих кондитерских изделий. Яблочное пюре является основным видом сырья в производстве пастиломармеладных изделий. В этих производствах используют пюре с высокой студнеобразующей способностью. Этим качеством обладают яблоки зимних сортов. Особую ценность представляет пюре из сорта "Антоновка". Это является следствием того, что зимние сорта яблок, и в первую очередь "Антоновка", содержат пектин с наилучшими технологическими качествами. При изготовлении карамельных начинок к студнеобразующей способности пюре не предъявляют таких высоких требований и для этой цели обычно применяют пюре из любых сортов яблок. Кроме яблок, в кондитерском производстве применяют грушу, айву и т. д. Грушевое пюре, так же как и айвовое, используют как добавки к яблочному.

Из косточковых плодов в кондитерском производстве наиболее широко применяют абрикос, вишню, сливу. Пюре из абрикосов является основой многих сортов жележных конфет и пата (один из видов фруктового мармелада). Пюре из всех видов косточковых, в том числе и кизилковое, широко используют для производства начинок для карамели, носящей соответствующее название ("Абрикос", "Слива", "Вишня"). Кроме того, пюре из абрикос и вишни применяют при изготовлении различных фруктово-ликерных начинок для

карамели, корпусов конфет, драже и других кондитерских изделий.

Пектин абрикосового и сливового пюре обладает отличными от яблочных свойств. В частности, жележную массу на основе абрикосового и сливового пюре можно уваривать до содержания сухих веществ выше 80%. Масса желирует и дает студень с хорошими потребительскими и технологическими свойствами. Из вишни, кроме пюре, готовят припасы, а кроме того, ее консервируют спиртом. Особенно ценным в заготовках из вишни является сильный, хорошо выраженный аромат, который сохраняется в изделиях.

Из ягод наиболее широко применяют клубнику (землянику), малину, черную смородину и клюкву. Особенно ценным для кондитерского производства наряду с прекрасными вкусовыми качествами является аромат, присущий ягодам. Большую часть ягод заготавливают в виде припасов. В производстве мучных кондитерских изделий широко применяют варенье из ягод для отделки тортов, пирожных и других целей.

Фрукты и ягоды в кондитерском производстве используют в основном в консервированном виде. Шире всего применяют химическое консервирование, главным образом с использованием сернистой кислоты (пульпа и пюре). Широко используют уваривание с сахаром (подварки и т.д.) и консервирование спиртом (заспиртованные ягоды). Сухие фрукты и ягоды находят ограниченное применение. Однако в последние годы разработаны технология и рецептуры для изготовления конфет с использованием фруктовых и яблочных пюре сублимационной сушки. Такая сушка позволяет сохранить ароматические вещества плодов.

#### Список использованной литературы

1. Хикматов Д.Н. Исследование гигроскопических свойств абрикоса при комбинированном способе сушки. // Журнал «Киме ва киме технологияси» –Тошкент, 2007. № 2. –Б. 70 - 73.
2. Хикматов Д.Н., Хабибов Ф.Ю., Сафаров О.Ф. Исследование влияние факторов на процесс обработки абрикоса в сахарном растворе. // Юбилейная международная научно-практическая конфе. пищевая и легкая промышленность в стратегии вхождения Республики Казахстан в число 50-ти наиболее конкурентоспособных стран мира: тез. докл. – Алматы, 2007. – с 99 - 101.

## **JUN TOLALARIGA DASTLABKI ISHLOV BERISH, TITISH SAVASH MASHINALARINUIG NAZARIY TAHLILI.**

**Ismoyilov.I. B<sup>1</sup>, Ismoyilov.F. B<sup>2</sup>**

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti, Buxoro.shahri, O'zbekiston.*

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti, Buxoro.shahri, O'zbekiston.*


+998992661585

Junni titish jarayoni murakkab va juda ahamiyatli hisoblanadi. Jun tolasi boshqa tabiiy tolalarga nisbatan mexanik ta'sirlarga chidamliligi bilan qadrlanadi.

Ammo tolaga ishlov berishda navlarni hisobga olishning ahamiyati shundaki jun tolalarining navlari bir-biridan ingichkaligi bilan farq qiladi. Ishlov berish jarayonida mayin junlar uchun alohida dag‘al junlar uchun alohida mashinalardan foydalaniladi. Bunga asosiy sabab ishlov berish jarayonida mexanik ta’sirlar tolaning tabiiy uzunligini saqlashi muhim hisoblanadi.

Jun xomashyosining navi va mexanik xossalarini inobatga olgan holda ishlov berish texnika va texnologiyasini takomillashtirish lozim. Turli tipdagi jun tolasini fizik-mexanik xossalari bir-biridan farq qiladi.

Shuning uchun jun xomashyosini dastlabki ishlash korxonasida standart asosida sinflarga ajratishni taqozo qiladi. Bu junni qabul qilish vaqtida amalga oshiriladi. Junni qayta ishlashda ishlatiladigan mashinalarning ketma ketligi 1.1-rasmda keltirilgan.




**1.1-rasm.** Junni qayta ishlash mashinalari ketma-ketligi.

1. Junni saralash (rangi bo'yicha), 2. Titish-savash mashinasi (2BT-150SH), 3. Avtota'minlagich (PU-120-SH), 4. Yuvish va quritish agregati, 5. Tozalash mashinasi, 6. Presslash

Junni dastlabki tozalashda titish-savash mashinalaridan foydalaniladi. Savash mashinalarining asosiy vazifasi junni titish va savash hisoblanadi. Junni sifatli tozalash titish-savash natijalari va titish-savash mashinalarining asosiy ishchi qismlarining konstruktiv tuzilishiga bog‘liq. Ya’ni, barabanlar soniga, ishchi yuzalarning shakliga, ularning aylanishlar soniga, ishchi harakatlanuvchi qismlarning va mashinaning qo‘zg‘almas qismlari orasidagi masofalarga bog‘liq.

Yuqoridagi omillar titish-savash jarayonida junni o‘rtacha o‘lchamdagi bo‘lakchalarga bo‘lib berishda muhim ahamiyatga ega.


Junning turiga qarab turli ishchi yuzalardagi qoziqlarning shakli va o‘lchamlari tanlanadi. Titish-savash mashinalarida asosan 3 xil shakldagi qoziqlardan (1.2-rasm) foydalaniladi.



**1.2-rasm.** Titish-savash mashinalari qoziqlari konstruksiyalari.


Bunday qoziqlardan foydalanilganda jun tolalarini uzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, tolalar bir-biri bilan qattiq kirishganligi tufayli ularni yaxlit tolalarga ajratishda qulaydir. Qoziqlarning ostki tomoniga rezba ochilgan bo‘lib, ularni barabanga yoki plankaga mahkamlash uchun mo‘ljallangan.

Junni titish-savash mashinalari qoziqli barabanlariga yetkazib berishda quyidagi turdagi ta‘minlovchi qismlardan foydalaniladi .




**1.3-rasm.** Bir juftli ta‘minlash valiklari

1.3-rasmda berilgan ta‘minlash juftligida ta‘minlovchi stoldan kelayotgan jun to‘plamini bir juft baraban bir-biriga qarama-qarshi aylanishi hisobiga qoziqli barabanga uzatib beradi. Bu ta‘minlovchi valiklarning ishchi yuzasi egilgan tishli bo‘lib, ular orasida jun tolalari to‘plami qisilib o‘tishi vaqtida qoziqli baraban tolalarni qoziqlarga ilingan qismini tortib ketadi va jarayon takrorlanadi.



**1.4-rasm.** Ikki juftlik ta'minlash valiklari

1.4-rasmdagi ta'minlash juftligi ikki juft ta'minlash valiklaridan iborat bo'lib, ta'minlash stolidan kelayotgan jun bo'lakchalari birinchi juftlik orasidan o'tayotganda valiklarni ishchi yuzasi ariqchali bo'lganligi uchun jun tarkibidagi yirik begona aralashmalarni maydalash imkoniyati vujudga keladi. Keyingi valiklar juftligining biri silliq yuzali va ikkinchisi ariqchali bo'lgani uchun ular orasida tolalar mahkam ushlanib qolmaydi va qoziqli barabanning qoziqlari o'zi bilan ilashtirib olib ketish imkoni tug'iladi.



**1.5-rasm.** Bir juftli ta'minlash valiklari

1.5-rasmdagi ta'minlash juftligi yuqoridan yuk bilan siquvchi prujina bilan bosib turiladi. Tolalar qalinlashgan vaqtda prujina ko'tarilish imkoniyati mavjud.

Junni dastlabki ishlash korxonalarida «Ivtekmash» (Rossiya), «Petri Maknot» (Angliya), «Tekstima» (Germaniya), BS-2A (Polsha), Almir (Fransiya), hamda boshqa ko'plab zavod va firmalarning tozalash, titish-savash va yuvish mashinalari o'rnatilgan.

Junni titishda chang hosil bo'lib, titish mashinasining oldida changlanish 200-250 g/m<sup>3</sup> bo'ladi. Changni yo'qotish uchun titish mashinasiga so'ruvchi ventilyator o'rnatiladi. Havo trubalar orqali tozalash kamerasiga chiqariladi.

Titish-savash mashinasining ishchi organlarida ruxsat etilgan texnologik tirqishlar mavjud. Ikkita ishchi organlar orasidagi masofa texnologik tirqish deyiladi. Texnologik tirqish ijobiy bo'ladi ishchi yuza bir chiziqda yoki undan uzoqroq bo'lsa, qachonki ishchi yuza bir-biriga kirib qolsa (-) salbiy bo'ladi:

Ta'minlash valigi – birinchi baraban +10...15

Birinchi – ikkinchi barabanlar +10

Qoziqli baraban – kolosnikli panjara +25

Hozirgi kunda mavjud junni titish-savash mashinalarining asosiy kamchiligi jun xomashyosi tarkibidagi mahkam o'rnatilgan qiyin ajraluvchi o'simlik

qoldiqlari to'liq ajralmay qolishi va ishlab chiqarishning keyingi texnologik jarayonlarida qiyinchilik tug'dirishidir. Shu sababli mazkur mashinalarning qoziqli barabanlaridan so'ng, cho'tkalar, pichoqli baraban, qo'zg'almas pichoq va tolani tozalovchi ishchi barabanlarni o'rnatish orqali junni tozalash samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. F.B.Ismoyilov., Junni dastlabki ishlashda takomillashtirilgan texnologik jarayonni tadqiq qilish., diss PhD., Buxoro. BMTI., 2021
2. I.B.Ismoyilov Значение использования наклонного очистителя первичной обработки шерсти. Universum: технические науки: 2023. 7(112).
3. I.B.Ismoyilov .Mechanical engineering robots are the foundation of our future. Methodical Research Journal. 2022.10 октябрь.11-15-б

### **JUN XOM - ASHYOSINI MEXANIK TOZALASH JARAYONI VA VOSITALARINI ASOSIY USLUBLARI.**

**Ismoyilov.F. B<sup>1</sup> Ismoyilov.I. B<sup>2</sup>,**

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti, Buxoro.shahri, O'zbekiston.*

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti, Buxoro.shahri, O'zbekiston.*

+998936876685

Ma'lumki har xil turdagi junlarni shtapelligi bo'yicha uzilish kuchini aniqlash davlatlararo standartda keltirilgan. Ushbu standartda jun tolasini uzilish kuchini aniqlash metodi va unda ishlatiladigan asbob-uskunalar, ularni ishlatish tartibi, junni uzilish kuchini aniqlashning barcha uslublari batafsil keltirilgan. Lekin, jun tolasini o'simlik qoldiqlaridan ajratish kuchlarini aniqlash keltirilmagan.

Junni o'simlik qoldiqlaridan ajratish kuchini aniqlash tajribaviy qurilmaning umumiy ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan. Jihoz 1-jun tolasini qisgichi, 2-o'simlik qoldiqlari mavjud jun xomashyosini ildirgichi, 3-tarozi, 4-yuqori va pastga harakatlanuvchi polzun, 5-asos, 6-polzunni harakatga keltiruvchi richag, 7-shkalalardan tarkib topgan.

Jun tolalarini o'simlik qoldiqlaridan ajratish kuchini aniqlash uchun o'simlik qoldiqlarini to'liq qamrab olgan yuvilmagan jun tanlab olindi.

O'simlik qoldiqlari mavjud jun xomashyosi qo'l bilan har bir idishda 2÷3 daqiqa yuvildi. Tutamni buzmaganda holda jun tolalari qo'lda sekin siqildi. Harorati 38-40<sup>0</sup> S bo'lgan toza suvda ohista chayildi. Namuna 60-70<sup>0</sup> S da to'liq quritildi.



**1-rasm.** Junni ajratish kuchini aniqlash jihozi

1-jun tolasini qisgichi, 2-o‘simlik aralashmali junni ildirgichi, 3-tarozi, 4-polzun, 5-asos, 6-polzunni harakatga keltiruvchi richag, 7-shkala.

Qurilgan namunadan bir nechta jun tolasini sanab qisqich 1 ga mahkamlandi. O‘simlik qoldiqlari mavjud bo‘lgan jun xomashyosi ildirgich 2 ga ildirildi. Polzun harakati richag 5 orqali amalga oshirildi. Polzunga mahkamlangan ildirgich pastga tortiladi va elektron tarozi shkalasi bo‘yicha raqamlar qayd qilinadi. Jun tolasini o‘simlik qoldiqlaridan ajralguncha polzun harakatlantiriladi va elektron tarozi shkalasi ko‘rsatkichi yozib olinadi (1-rasm). Shu tarzda tajriba takrorlanadi. Junni o‘simlik aralashmalaridan ajratishda uzilishdagi uzayish kuchi aniqlangan qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.


**1-jadval**

**Junni o‘simlik qoldiqlaridan ajratishda uzilishdagi uzayish kuchi**


T/r	Junning qalinligi bo‘yicha guruhi	Jun tolalarining soni (dona)	Ajralish kuchi (N)	Uzilishdagi uzayishi (mm)
Jun tolalari qo‘ytikanni to‘la qamrab olganda				
1.	Mayin tolali	40	8,3	1,5
		100	38	1,8
2.	Dag‘al tolali	40	4,1	0,7
		100	18	1,6
Jun tolalari qo‘ytikanni yarmini qamrab olganda				
1.	Mayin tolali	40	4,42	1,2
		100	15,6	2
2.	Dag‘al tolali	40	1,2	0,8
		100	6,5	1

Olingan bog‘lanish grafiklari 1-rasmida keltirilgan tartibda amalga oshirildi. Olingan natijalar tahliliga asosan ta‘kidlash lozimki, jun tolalari sonini ortishida junni qo‘ytikandan ajratish kuchi ham ortib boradi. Bunda dag‘al jun tolalariga nisbatan

mayin jun tolalari qo'ytikandan ajratish kuchi 1,8÷2,2 martagacha ko'p ekanligini tajriba natijalaridan ko'rish mumkin. Tajriba natijalari grafigi 2.6-rasmda keltirilgan.




**2-rasm.** Mayin jun tolalari qo'ytikanni to'liq qamrab olganda aniqlangan ajratish kuchi grafigi.




**3-rasm.** Dag'al jun tolalari qo'ytikanni to'liq qamrab olganda aniqlangan ajratish kuchi grafigi.





**4-rasm.** Mayin jun tolalari qo'ytikanni yarim qamrab olganda aniqlangan ajratish kuchi grafigi.



**5-rasm.** Dag'al jun tolalari qo'ytikanni yarim qamrab olganda aniqlangan ajratish kuchi grafigi.

O'tkazilgan tajribalar natijasida qirqib olingan mayin jun tolalari qiyin ajraluvchi qo'ytikan va tikanak kabi o'simlik qoldiqlarini 40 tadan 100 tagacha jun to'lasini to'liq qamrab olganda undan tolani ajratib olish uchun ajratish kuchi 8,3 N dan 38 N gacha oshadi, dag'al jun tolalari qiyin ajraluvchi qo'ytikan va tikanak kabi o'simlik qoldiqlarini 40 tadan 100 tagacha jun to'lasini toliq qamrab olganda esa undan tolani ajratib olish uchun ajratish kuchi 4,1 N dan 18 N gacha oshadi. Qirqib olingan mayin jun tolalari qiyin ajraluvchi qo'ytikan va tikanak kabi o'simlik qoldiqlarini 40 tadan 100 tagacha jun to'lasini yarim qamrab olganda undan tolani ajratib olish uchun ajratish kuchi 4,42 N dan 15,6 N gacha oshadi, dag'al jun tolalari qiyin ajraluvchi qo'ytikan va tikanak kabi o'simlik qoldiqlarini 40 tadan 100 tagacha jun to'lasini yarim qamrab olganda esa undan tolani ajratib olish uchun ajratish kuchi 1,2 N dan 6,5 N gacha oshadi.

Bunda jun tutamlarini uzilishdagi uzayishi mayin tolalari uchun 2,0 mm ga

yetsa, dag'al tolalar uchun 1,0 mm gacha yetadi. Ma'lumki, jun tolalarini qo'ytikandan ajratish jarayonida jun tolasini uzilishi va bir qism tolalarni qo'ytikandan bilan qolishi namoyon bo'ldi. Ko'p hollarda yo'qotilayotgan tolalar  $1,5 \div 2,0$  % ga yetadi. Ushbu holatni yo'qotish uchun junni begona aralashmalardan tozalash mashinasining tavsiya qilingan konstruksiyasida ishchi organlarning kinematik va dinamik parametrlarini, ayniqsa ishlash rejimlarini to'g'ri tanlash kerak.

Mamlakatimizda boqiladigan qo'y zotlaridan qirqib olingan jun xomashyosini titish-savash va tozalash jarayonida junni titilish darajasini aniqlashda A.G.Pechnikova metodidan foydalaniladi.

Junni titish jarayonidan maqsad qirqib olingan junni begona aralashmalardan tozalash, ularni ajratish va junni yumshatishdan iborat. Titish-savash jarayonining mohiyati shundan iboratki, unda chigallashgan jun tolalarni kamaytirish va jun xomashyosini mayda tolalarga ajratishdan iborat.

Texnologik jarayonni samaradorligini baholashda har qanday texnologik jarayonning samaradorligini baholash singari titishda ham biror-bir muhim ko'rsatkichni inobatga olmaslik mumkin emas. Taklif etilayotgan takomillashtirilgan mashinaning ko'rsatkichlarini titish-savash texnologik jarayoniga mos holda tanlash ham muhim. Olib boriladigan tajribalarda kam ahamiyatli ko'rsatkichlarni kiritmaslik kerak, bu tozalash samaradorligini ortiqcha baholashga olib kelishi mumkin.

Texnologik jarayonda titish-tozalash samaradorligi junni titilish darajasi va bir-birigi yopishib qolgan junlarning massasini kamayishi, jun tolalarini turli begona aralashmalardan tozalanish darajasi bilan baholanadi. Keyingi texnologik jarayonga mos bo'lishi uchun junning hajmiy og'irligi past bo'lishi va uzunlik bo'yicha esa bir tomonga qarab yupqa qatlam shakliga yaqin bo'lishi kerak bo'ladi.

O'tkazilgan tajriba natijalarini tahlil qilishda 2.6-jadvalda keltirilgan formulalardan foydalaniladi. Junni titilish samaradorligini aniqlashda jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega.

Qo'yilgan yuk og'irligining ta'sirida jun siqilib jipslashadi, jipslashgandan so'ng junni egallagan hajmi aniqlanadi, uning vazni va junning hajmiy og'irligi hisoblab chiqiladi,  $g/sm^3$ .


Hisoblashdan oldin mavjud sig'im hajmi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$V = V_n + V_k = \pi R^2 H + \frac{\pi h}{3} (R^2 + r^2 + Rr) \quad (2.5)$$

Bunda,  $V$ - idishning hajmi,  $sm^3$

$V_n$ -idishning tsilindrik qismining hajmi,  $sm^3$

$V_k$ -idishning konussimon qismining hajmi,  $sm^3$



**7-rasm.** Junning titilish darajasini aniqlash tsilindrsimon idish sxemasi.

$H$ -tsilindrsimon qismining balandligi, sm;

$D$ -tsilindrsimon qismining diametri sm;

$d$ -konussimon qismining diametri sm.

Shundan so‘ng idishning bo‘sh qismini hajmi hisoblanadi, (sm<sup>3</sup>)

$$V_n = \pi R^2 H_1 \quad (2.6)$$

Bunda,  $H_1$ -idishning bo‘sh qismining hajmini balandligi, sm

Junning hajmiy og‘irligi g/sm<sup>3</sup>

$$\eta = \frac{G}{V_{\text{ш}}} = \frac{g_1 - g_2}{v - v_k} \quad (2.7)$$

Bunda:  $G$ -junning haqiqiy vazni, gr;

$V_{\text{ш}}$ -idishning jun egallagan hajmi, sm<sup>3</sup>;

$g_1$ -idishning to‘liq vazni, kg;

$g_2$ -idishning bo‘sh qismining vazni, kg.

Titilmagan jun tutamlari massasini aniqlash bilan junni titilish darajasini baholanadi. Jun tutamlarining o‘rtacha og‘irligi qanchalik past bo‘lsa, u shunchalik yaxshi titiladi. Yana bir junni titilganlik darajasini aniqlash usuli mavjud bo‘lib, bunda titish mashinasidan chiqqan jun xomashyosi ikkiga: titilgan jun va yaxshi titilmagan junga ajratiladi. Junni titilganlik darajasi ko‘rsatkichi bir-biri bilan taqqoslash natijasida aniqlanadi. Tajriba sinovlari o‘tkazilganda titilmagan jun tutamlarining umumiy vaznini mashinada titilgandan keyin 150 g miqdorda olish tavsiya etiladi [81]. Titilmagan jun tutamlarining og‘irligini aniqlanadi va junning titilish darajasi foizda hisoblanadi. Jun xomashyosini ta‘minlash valiklarida yoki qoziqli barabanlarda tiqilib qolishi eng muhim salbiy texnologik va iqtisodiy xususiyatdir, chunki u nafaqat tolali materialning holatini, balki qayta ishlashning texnologik jarayonini ham belgilaydi.

Titish-savash jarayonida jun tolalari uzunligini qisqarishi titish samaradorligining yana bir ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich mayin tolali jun xomashyosini titish-savashda muhim hisoblanadi. Tola uzunligini qisqarishi salbiy xususiyat hisoblanib, bu titish-savash jarayonidagi mexanik ta‘sir natijasida jun

tolasining qisqarishi bilan bog'liq.

Dag'al junlarni titish-savash jarayonidan oldin uning zichligi aniqlanadi. Titilmagan junning o'rtacha zichligi  $28 \text{ kg/m}^3$  ni tashkil qiladi. Titilmagan junni o'rtacha zichligi jun qirqib olinadigan qo'ylarni boqilish sharoitiga, qirqim vaqtiga, yaylovda yoki uyda boqilganligiga, ozuqalanishiga, jun tarkibidagi turli xildagi begona aralashmalarni ulushiga qarab turlicha chiqishi mumkin. Titish jarayonida jun zichligini 50-20 % gacha pasaytirish mumkin. 20 % dan ortiq junning zichligini pasayishi chiqayotgan tola shikastlanishiga olib keladi va kalta tolalarning 10 % dan ortib ketishiga sabab bo'ladi.

Ta'minlovchi valiklar, qoziqli baraban va kolosnik panjara titish samaradorligiga ta'sir qiladi. Ta'minlash jarayonidagi jun to'shamasining og'irligi bo'yicha notekisligini aniqlash uchun enining uchdan bir qismini namuna sifatida olinadi. Uzunligi 1 m bo'lgan uchta namuna tanlab olinadi, har bir namunaning og'irligi yig'indisini aniqlashda 1 gr aniqlikkacha o'lchanadi. Shuningdek namunaning umumiy og'irligi 100 % deb olinadi. Mavjud va takomillashtirilgan titish savash mashinasida junni titib sinovlar o'tkazildi. Sinov natijalarini solishtirish jadvalida keltirilgan (7-jadval).

Junni tituvchi qoziqli barabanlarda olib borilgan tajribalar tahlil qilinib, qoziqli barabanlarning aylanishini turli tezliklarda olingan natijalari va baraban diametriga bog'liqligi aniqlandi. Shu bilan birga tituvchi qoziqli barabanlar orasidagi texnologik tirqishlarning muqobil ko'rsatkichlari aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar titish samaradorligini to'liq baholash uchun yetarli. Barcha tahlillar davlat standartlarida keltirilgan uslubiyatlar bo'yicha aniqlandi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati.**

4. F.B.Ismoyilov., Junni dastlabki ishlashda takomillashtirilgan texnologik jarayonni tadqiq qilish., diss PhD., Buxoro. BMTI., 2021
5. I.B.Ismoyilov Значение использования наклонного очистителя первичной обработки шерсти. Universum: технические науки: 2023. 7(112).
6. I.B.Ismoyilov .Mechanical engineering robots are the foundation of our future. Methodical Research Journal. 2022.10 октябрь.11-15-б

### **YIGIRISH MASHINALARIDA BEGUNOKLARNING ROLI.**

**BMTI To'qimachilik maxsulotlari texnologiyasi kafedrasini o'qituvchilari  
Nurboyev R.X, Xudayberdiyev M.R. 2-boskich magistranti Ismoilova G.I.  
To'yeva Gulbodom- 400-22 YeSB gurux talabasi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 21-dekabrda «2017-2019-yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi qarori sohada yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Dastur doirasida 2017-2019-yillarda sohaga 2,2 milliard dollardan ortiq mablag' (shuning deyarli yarmi xorijiy investitsiya) jalb qilinadi. Investitsion loyihalar to'rt bosqichli tizim asosida paxta xomashyosini qayta ishlab, tayyor

mahsulotgacha ishlab chiqarishga ixtisoslashgan maxsus to‘qimachilik komplekslari va 27 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, 120 yangi korxonani tashkil etish va o‘ndan ortiq ishlab chiqarish korxonasini modernizatsiya qilish rejalashtirilgan. Demakki, barcha 9 hududlarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi.

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirishda ish o‘rinlariga talab yuqori bo‘lgan hududlar tanlab olingan, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Sherobod tumanlari, Sirdaryoning Guliston, Sayxunobod, Jizzaxning G‘allaorol, Jizzax, Qashqadaryoning Yakkabog‘, Shahrisabz, Namanganning Uchqo‘rg‘on, Pop, Samarqandning Oqdaryo, Urgut, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Xo‘jayli, Chimboy tumanlari shular sirasidandir. Loyihalarda avvalo hududlarda yetishtirilayotgan paxta tolasini o‘sha joyning o‘zida to‘liq qayta ishlab, yuqori qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish hamda hudud aholisining real daromadlarini oshirish nazarda tutilgan.

Ip ishlab chiqarish korxonalarida yigirish mashinalarida sifatli ip olish bir qator mexanizm va detallarning talab darajasida ishga qay darajada yaroqliligiga bog‘liq. Masalan: cho‘zish mexanizmi, urchuq mexanizmi, o‘rash mexanizmi va begunok (yugurdak)lar shular jumlasidandir. Yigirish mashinasida begunoklar asosan po‘lat materialdan mexanik ishlov berib xalkacha shaklda tayyorlanadi. Konstruksiyasi bo‘yicha begunoklar S-simon va ellepssimon shaklda tayyorlanadi. Begunok shunday tayyorlanishi kerakki bunda uning ichki qismi (ishchi yuzasi) ya‘ni, ip o‘tadigan joyi silliq bo‘lishi kerak. Tayyorlangan begunok ishchi yuzasi sillikli darajasi (g‘adirbudirligi) yuqori bo‘lsa ipning uzilishi shuncha ko‘p bo‘ladi. Bu esa bir qator ko‘rsatkichlarga salbiy ta‘sir qiladi. Masalan: mashinaning ish unumdorligining pasayishi, qo‘l mexnatining oshib ketishi va eng asosiysi uzilgan ipni ulangan joyida tuguncha paydo bo‘lib, ipning sifatiga ta‘sir qiladi.

Begunoklar asosan ikki tipda: ellipssimon (og‘irlik markazi yengillashtirilgan) va S simon shaklda ishlab chiqariladi. Ularning asosiy o‘lchamlari halqaning profiliga mos kelishi lozim. Begunokning xizmat muddati uning qanday materialdan ishlanganligiga, ishlash sharoitiga va unga o‘z vaqtida sifatli xizmat ko‘rsatilishiga, urchuqning tezligiga, ipning pishitilish darajasiga, halqaning sifaiga bog‘liq.

Begunokning xizmat mudati vibratsiyaga (titrashga) ham bog‘liq. Begunok titrab ishlasa, uning xizmat muddati kamayadi. Begunoklarning titrashini yo‘qotadigan vibratorlardan foydalanib, ularning xizmat muddatini 40% gacha oshirish mumkin. Begunok bilan ip o‘rtasidagi ishqalanish oshsa, begunokning titrashi kamayadi, binobarin, uning xizmat muddati ortadi.

Yigirish mashinasida ip pishitish va o‘rash jarayonlarining normal kechishida begunok bilan bir qatorda halqalar ham kata rol o‘ynaydi. Halqalar halqa plankalariga bikiq qilib mahkamlangan bo‘lib, begunoklar uchun tayanch sirthisoblanadi, chunki begunoklar halqa ustida aylanadi. Halqalar ma‘lum markali po‘latdanyasalib, toblanadi, sementitlanadi, jilvirlanadi va elektr toki bilan jihozlanadi. Shunday qilganda begunok bilan halqalar o‘rtasida ishqalanish minimal bo‘ladi, ularning xizmat muddati uzayadi va ip ko‘p uzilmaydi. Begunokning oyoqchalari halqaning devoriga tegmaydi.

Mashinada ipning taranglanishi natijasida yugurdak xalka bo'ylab urchuq orqasidan harakatlanadi va urchuk atrofida aylanadi. Yugurdak bir marta aylanganda ip bir martaga buraladi. Demak, yugurdak necha marta aylansa, ip shuncha marta buram olib pishitiladi ya'ni mustahkamligi oshadi. Bundan kelib chiqadiki, begunokning aylanishlar soni ortib borgan sari ipning pishiqligi ham ortadi. Ip qayishqoq bo'lganligi uchun u olayotgan buramlar soni yugurdak bilan cho'zish asbobigacha bo'lgan oraliq masofada bir xil tarqaladi. Ma'lumki buramlar cho'zish asbobining oldingi cho'zuvchi silindridan chiqadigan nuqtasigacha teng tarqalishi uchun yigiruv mashinalarining cho'zish asbobi qiya  $45^\circ$  ostida o'rnatiladi. Xalkali yigirish mashinalarida to'lgan naychalarni yig'ib olgandan keyin mashinani ishga tushirish vaktida bir oz qatlamlari urchukga o'ralib qoladi. Mana shu qoldiq iplarini o'z vaqtida qirqib tushurib tozalanmasa maxsulot sifati buziladi. Buning uchun maxsus najdak qog'ozli moslama mavjud bo'lib urchuq pastiga o'ralib qolgan qoldiq iplarni qirqib tashlash uchun kompyuter buyrug'iga asosan moslama tez aylanib turgan urchuqqa kelib uriladi va ip qoldiqlaridan urchuqlar tozalanadi.

Bizga ma'lumki haraktlanayotgan begunokka quyidagi kuchlar tasir qiladi. Begunokning markazdan qochma kuchi  $C_6$ ; bu kuch halka radiusi bo'ylab yo'naladi:

$$C_a = m_a \cdot \omega^2 \cdot R,$$

Bu yerda:  $m_a$  - begunokning massasi, g;  $\omega$  — uning burchak tezligi, ayl/min; R—aylanish radiusi (xalkaning radiusi), mm

1. Begunokning markazdan kochma kuchi qancha katta bo'lsa, ip ham shuncha taranglanadi, demak ipning begunokning massasi  $m_6$  uning og'irligi g, nomeri. Tezligi va halqaning radiusi Ya ga bog'liq. Halqaning radiusi qancha katta bo'lsa, ip shuncha tarang bo'ladi: ishqalanish koeffitsenti f katta bo'lsa va o'rash radiusining halqa radiusiga nisbati  $r/R = \sin \alpha$  kichik bo'lsa ham ipning tarangligi ortadi.

2. Yukori tezlikda ishlanganda ipning tarangligi juda oshib ketmasligi uchun halqa va begunoklarning holatini doimo kuzatib turish kerak, ishkalanish koeffitsenti f mumkin qadar kichik bo'lishi, kichik massali (yengil) begunok ishlatish lozim.

3. Katta tezlik bilan ishlanganda ip juda taranglashib ketmasligi uchun yengil begunok ishlatish ishkalanish koeffitsenti f ni esa kichraytirish kerak. Xalka va begunoklar sifatli bo'lishi lozim.

4. Urchuklarning tezligi va xalkalarning diametri katta bo'lganda yengil begunok bilan ishlash kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.X.Nurbayev, M.R.Xudayberdiyev, A.U.Abdullaev, O.Sharofov, O.Aripova Improvement of product drafting process in drafting devices of the spinning machines with the application of straps. <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1742-6596/2094/4/042079> "Conference on Applied Physics, Information Technologies and Engineering" APITECH-III-2021 (Krasnoyarsk, 24 sentabrya – 3 oktabrya 2021 g.) 1-5 b.

2. R.X.Nurbayev M.R.Atanafasov T.A.Ochilov M.A.Mansurova D.A.Xalmatov Maintenance of Physical and Mechanical Properties of Cotton Fiber During Storage of Raw Cotton. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-9 Issue-1, May. 2020.p.11275-11282

## **YIGIRISH MASHINASIDA YIGIRILGAN IPNING TARANGLIGINI EKSPERIMENTDA ANIQLASH.**

**BMTI Tʻykimachilik maxsulotlari texnologiyasi kafedrası oʻqituvchilari  
Nurboyev R.X, Xudayberdiyev M.R. 2-boskich magistranti Ismoilova G.I.  
Toʻyeva Gulbodom- 400-22 YeSB gurux talabasi**

Ip yigiruv mashinalarida odatda xom ip olinadi va bu ip yakka ip deb ataladi. Avval aytganimizdek, xom yakka ipning koʻndalang kesimida joylashgan tolalar bir-biriga maxkam bogʻlanmaganligi tufayli, u boʻshroq boʻladi, baʼzan tolalar ipning sirtiga chiqib, uni tukli, paxmoq qiladi. Agar yakka ipni tarang tortib qoʻyib yuborilsa, u halqalar hosil qiladi. Ip etarlicha pishiqlik, silliq, tekis boʻlishi uchun va boʻshashganda halqa hosil qilmasligi uchun u pishiriladi. Odatda, pishirilayotgan yakka iplarning soni 2 dan 30 gacha boʻladi. Pishiriladigan ipdagi yakka iplarning soni uning vazifasiga qarab tanlanadi. Shunday qilib, bir nechta yakka iplarni yoki kompleks ximiyaviy iplarni qoʻshib tayyorlangan ip pishirilgan ip deb ataladi. Ishlab chiqarish usuliga qarab, pishirilgan iplar oddiy buramli, maxsus buramli va shakldor pishirilgan xillarga boʻlinadi. Ishlab chiqarish usuliga koʻra quruq va hoʻllab pishirilgan iplar boʻladi. Bundan tashqari, pishirilgan iplar bir qayta pishirilgan va ikki qayta pishirilgan xillarga boʻlinadi. Agar ip bir qayta pishirilishi kerak boʻlsa, u holda qoʻshilgan yakka iplar bir marta pishiriladi (birinchi pishitish), agarda ip ikki qayta pishirilishi kerak boʻlsa, u holda avval 2-3 ta yakka ip bir marta pishiriladi (birinchi pishitish), keyin mana shu birinchi marta pishirilgan iplarning bir nechtasini qoʻshib, ikkinchi qayta pishiriladi

Toʻqimachilik korxonalarida toʻqima hosil qilishda tanda va arqoq iplarining roli muximdir. Shuning uchun iplarning sifatiga taʼsir qiladigan koʻrsatkichlarni aniqlash va baholash ishlab chiqarish korxonalarining asosiy muommolardan biridir. Ipning asosiy koʻrsatkichlardan biri bu ipning tarangligi hisoblanadi. Ipning amaliy tarangligini eksperiment orqali aniqlash maqsadga muvofiq. Bizga ipning ikkita tarangligi maʼlum boʻlib, birinchisi – ip oʻtkazgich bilan yugurdak orasida, yani ballonda hosil boʻladigan taranglik  $T_1$  yoki  $T_x$ , ikkinchisi – naycha bilan yugurdak orasida hosil boʻlgan taranglik R. Ilmiy tadqiqotlar natijalari boʻyicha yakka ipning pishiqligi 200 – 300g ga tengligiga qaramasdan yugurdakdan 25 – 40\*10 mN taranglik bilan oʻtayotgan ip uziladi.

Ipning pishiqligi uning taranglik kuchidan taxminan 10 marta ortiq. Ammo shunga qaramay, ip uziladi. Ushbu muommoni yechish uchun ip oʻtkazgich bilan yugurdak orasida hosil boʻladigan taranglik kuchi  $T_x$  ni aniqlash uchun tenzometrik oʻlchov moslamalaridan foydalanib va bir sekundda 10000 kadr gacha kinosyomka

qilishga imkon beradigan usullarni qoʻllaymiz. Oʻtkazilgan eksperimentlarimiz natijasi shuni koʻrsatdiki, ip -nig ifloslik darajasi qancha yuqori boʻlsa, u shuncha koʻp uziladi. Chunki ifloslik darajasi yuqori boʻlgan ip, ip oʻtkazgich va yugurdakdan oʻtayotganda balanddagi taranglik oshib ketishi oqibatida ip uziladi. Ipning uchta qismidagi tarangligi eksperimental usulda tekshirilgan, yani:

1. Oldingi silindr bilan ip oʻtkazgich oʻrtasidagi taranglik
2. Ip oʻtkazgich bilan ballonni cheklovchi moslama oʻrtasidagi taranglik.
3. Ballonni cheklovchi moslama bilan yugurdak oʻrtasidagi taranglik.

Eksperiment olib borilayotganda yigiruv mashinasi quyidagi uch xil tezlik rejimida ishlatildi:

Urchuqlarning tezligi, min <sup>-1</sup>	Ipning tarangligi 10 mN (old silindrda)
6000 - - - - -	23 ± 2
8000 - - - - -	34 ± 3
10000 - - - - -	22 ± 2

Ipning tarangligi va uning dispersiyasi (sochilganligi).			
Urchuqlarning tezligi min <sup>-1</sup>	Ipning boshlangʻich tarangligi, x 10 mN	Ipning oʻrtacha tarangligi, x 10 mN	Ip tarangligining sochilganligi
6000	23 ± 2	25	27.7
8000	34 ± 3	37	98.0
10000	22 ± 2	40	360.0

Yuqorida keltirilgan hossalardan tashqari, pishirilgan ipning pastlikligi, zichligi, silliq (yaltiroq) ligi ham zarur xossalardan hisoblanadi. Mana shu hamma xossalarga ega boʻlgan pishirilgan ip aʼlo sifatida boʻladi va undan aʼlo sifatli buyumlar tayyorlanadi.

Pishirilgan ip olish uchun halqali ip pishitish mashinalari ishlatiladi. Pishirilgan ipning nimaga ishlatilishiga qarab, har xil markadagi ip pishitish mashinalaridan foydaniladi. Pishirilgan usullarga koʻra quruqlayin va hoʻllab pishirilgan iplar boʻladi. Shuning uchun mashinalar ham quruqlayin va hoʻllab pishitishga moʻljallangan boʻladi. Odatda, pishirilgan ipga yuqori talablar qoʻyilasa, yakka iplar hoʻllab pishiriladi.

Hozir pishirilgan ip ishlab chiqarishda bir necha markadagi ip pishitish mashinalari qoʻllaniladi. Iplarni quruqlayin pishitisha quyidagi markali mashinalar ishlatiladi: K-66-1, K-83-1, K-100-1, K-132, K-176-2 va hokazo.

Hoʻllab pishitishda quyidagi markali mashinalar ishlatiladi: KM-66-1, KM-83-1, KM-100-1, KM-128-1, KM-132 va hokazo.

Bundan tashqari, ip pishitish mashinalari engil va ogʻir tipdagimashinalarga boʻlinadi. Masalan, K-66-1, KM-66-1, K-83-1, KM-83-1, K-100-1, KM-100-1 mashinalari engil tipdagi mashinalarga kiradi. Bu mashinalar yoʻgʻonligi 25×2, 5,88×2 (№ 40/2 – 170/2), 20×3 – 5,88×3 teks (№ 50/3 – 170/3) boʻlgan iplarni pishitish uchun ishlatiladi. Bu iplar, asosan, toʻquvchilik, trikotaj, deraza pardalar (toʻrlar) va odatdagi gʻaltakka oʻralgan iplar ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Ogʻir



tipdagi ip pishitish mashinalarining markalari quyidagilardan iborat: K-132, KM-132, KM-128-1, K-176-2. Bu mashinalar texnik gazlama va buyumlar (avtomobil pokrishkasi uchun ishlatiladigan kord, dvigateldan mashinalarga harakat uzatuvchi tasmalar, baliq ovlash uchun to`rlar va hokazo) tayyorlash uchun ishlatiladi.

Og`ir tipdagi mashinalarning engil tipdagi mashinalardan farqi shundaki, bu mashinalarda qo`shib pishitilayotgan yakka iplarning soni 4 dan 30 gacha, halqalarning diametrlari katta, mashinaning ish unumi yuqori bo`ladi.

Ip pishitish mashinalari tuzulishi halqali ip yigiruv mashinalarnikiga o`xshaydi. Asosiy farqi shundaki, ip pishitish mashinalarida, halqali ip yigirish mashinasidek, cho`zish asbobi bo`lmaydi, uning o`rninga silliq cilindr va uning ustiga qo`yilgan silliq va o`z massasi bilan bosib turuvchi valikdan iborat bo`lgan juft o`rnatilgan. Bu juft orasidan ip bir xil taranglikda o`tadi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o`tkazilgan eksperiment natijalardan ko`rinib turibdiki, yigirish mashinasiga o`rnatilgan urchuqlarning tezliklar qancha ortsa, ipning tarangligi, uning sochilishi shuncha oshadi va aksincha. Yigirish mashinasida yengil yugurdaklar ishlatilsa va mashinaga berilayotgan yarim mahsulot (pilik) sifatli (yani xas-cho`p kam) bo`lsa, ipning tarangligini kamaytirish, vaqtni tejash va bu bilan ipning uzilishini kamaytirib, mashinaning ish unumdorligiga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. R.X.Nurbayev, M.R.Xudayberdiyev, A.U.Abdullaev, O.Sharofov, O.Aripova Improvement of product drafting process in drafting devices of the spinning machines with the application of straps. <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1742-6596/2094/4/042079> “Conference on Applied Physics, Information Technologies and Engineering” APITECH-III-2021 (Krasnoyarsk, 24 sentabrya – 3 oktabrya 2021 g.) 1-5 b.
2. R.X.Nurbayev M.R.Atanafasov T.A.Ochilov M.A.Mansurova D.A.Xalmatov Maintenance of Physical and Mechanical Properties of Cotton Fiber During Storage of Raw Cotton. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-9 Issue-1, May. 2020.p.11275-11282

## **ПЕРЕРАБОТКА ПЛОДООВОЩНЫХ КУЛЬТУР С ПРИМЕНЕНИЕМ МЕХАНИЧЕСКИХ И ТЕПЛОМАССООБМЕННЫХ ПРОЦЕССОВ**

**Жамолова Озода Рамазоновна**

*Бухарский инженерно-технологический институт, Республика Узбекистан  
[ozodajamolova72@gmail.com](mailto:ozodajamolova72@gmail.com)*

Сочетание аккумулирующих устройств и теплового насоса обеспечивает высокую эффективность процесса сушки плодов и овощей в гелиосушилке [1,2]. Применение теплового насоса, позволяет уменьшить затраты первичной энергии за счёт более рационального способа её преобразования, расширяет

возможность использования солнечной энергии, вторичных тепловых ресурсов и выбросных тепловых отходов для сушки плодов.

Следует отметить, что в настоящее время предлагаемые и используемые за рубежом устройства не нашли широкого практического применения для сушки плодов и овощей выращиваемых в Узбекистане.

Ещё одна из физических методов сушки, является искусственная сушка - конвективная сушка. Конвективная сушка основывается на передаче тепла к высушиваемому продукту за счёт энергии нагретого сушильного агента (воздуха или парогазовой смеси). Удельные энергозатраты составляют от 1,6 до 2,5 кВт ч/кг. Температура сушильного агента при сушке продуктов составляет 50-80<sup>0</sup>С. Продолжительность процесса сушки нарезанных яблок при различных удельных нагрузках составляет: для туннельной сушилки 18-25 ч для паровой конвейерной сушилки – 6-7 ч.

Одним из основных недостатков конвективных сушилок является большой расход топлива и тепла на единицу готовой продукции. В связи с этим дальнейшее развитие техники и технологии конвективной сушки ведется по направлению интенсификации процесса за счёт создания активных гидродинамических режимов, повышения его экономичности, усовершенствования конструкций сушилок, создания безотходной технологии в области сушки, а также улучшения качества готовой продукции.

Из физических методов подготовки плодов к процессу сушки следует отметить контактный (кондуктивный) способ обработки сырья.

Кондуктивный способ сушки основывается на передаче тепла высушиваемому продукту путем контакта с нагретой поверхностью. Воздух служит только для удаления водяного пара из сушилки. Сушильные установки, основанные на этом способе сушки, металлоёмки и их изготовление трудоемки. Коэффициент теплоотдачи составляет 170-180 Вт/м<sup>2</sup> удельная энергетические затраты 1,5- 1,7 кВт·ч/кг. Одним из основных недостатков данного способа являются высокая температура контактируемой поверхности с продуктом. Неравномерность прогрева продукта по высоте слоя, перегрев нижних слоев, обуславливающий термическую деградацию основных показателей качества продукта. Продукт, контактирующий с нагретой поверхностью, пересушивается, что приводит к необратимости процессов восстановления. [3,4].

Сублимационная сушка основана на удалении влаги из продуктов в замороженном состоянии в условиях глубокого вакуума. При сублимационной сушке процесс является энергоёмким, получаемый продукт сохраняет питательные и биологические активные вещества, цвет и аромат. Вследствие замораживания происходит разрушения клеточных мембран вещества, в процессе сушки приобретает пористое строение, что ухудшает его потребительские свойства при восстановлении.

При сушке токами высокой и сверхвысокой частоты диполи молекул продукта приходят в колебательное движение, энергия электромагнитных волн переходит в теплоту. Этот способ обработки экологически опасен, требует для обслуживания специализированного персонала и постоянного контроля фона

СВЧ излучения.

В области инфракрасного излучения, есть способ воздействия селективного излучателя средней- и длинноволнового инфракрасного диапазона.

Следует отметить, что увеличение движущих сил процесса на всем этапе сушки плодов и овощей за счет повышения потенциала сушильного агента ограничивается их термоустойчивыми свойствами. Так интенсивная высокотемпературная сушка плодов приводит к термической деструкции биологически активных веществ и ухудшению качества продукции. Другим путем интенсификации процесса сушки растительного материала является повышение его влагопроницаемые характеристик на основе изменения физико-химических свойств. Это достигается применением различных способов предварительной обработки плодов и овощей, которые можно разделить на биохимические, химические и физические.

При сушке плодоовощных культур желательно предотвратить окисление фенолов, что способствует лучшему сохранению Р- витаминной активности, предотвращению потемнения материала и повышения товарной ценности готовой продукции. Для предотвращения окисления полифенолов кроме бланширования применяется химическая обработка плодов и овощей различными антиоксидантами (сернистым ангидридом, аскорбиновой кислотой и др.), которые подавляют деятельность окислительных ферментов. По технологической схеме производства сульфитированной продукции плоды перед сушкой окуривают сернистым газом в течении 1,5-2 часов или погружают на 3-4 минут в раствор сернистой кислоты, содержащей 0,2-0,3% сернистого ангидрида, а остаточное содержание  $SO_2$  в плодах перед сушкой должно быть 0,06-0,08% [3]. Сульфитация придает продукции неприятный вкус, а остаточные содержание в плодах выше определенной нормы оказывает общее токсичное воздействие на организм человека. [4,5].

Анализируя выше изложенное можно сделать вывод, что в настоящее время по вопросу подготовки плодов к процессу сушки уделяется недостаточное внимание. Интенсификация процесса обезвоживания может быть достигнут повышением его кинетических характеристик на основе применения эффективной технологии.

Производство сушеных фруктов, овощей и плодов является одним из наиболее экономичным способом переработки сырья. Затраты на сушки более чем в 2–3 раза ниже затрат на консервирование 1 тонн плодов.

В настоящее время не все сорта плодоовощного сырья подвергается к переработке, так как сырьё является неоднородной по своему химическому составу, в частности по содержанию сахара. Из сырья с низким содержанием сахара (8-12 %) выход готовой продукции при сушке низкий, вкус готовой продукции не отвечает требованиям стандарта. Поэтому необходимо подготовить такое сырьё с целью доведения уровня сахара до требуемых значений (13-18 %).

Энергетические затраты на осуществление тепло-массообменных

процессов в первичной обработке сырья и в производствах пищевых продуктов составляют 70% от общей затрачиваемой энергии. Недостаточно используется сбросное тепло, а использование солнечной энергии с применением теплового насоса труб отсутствует в производстве.

При этом особое значение приобретает широкое использование нетрадиционных и энерго-ресурсосберегающих способов подвода энергии, разработка инновационной техники и технологии, таких как использование ТН и ТТ, а также предварительная подготовка сырья методом погружения в сахарный сироп и предварительной инфракрасной (ИК) обработкой перед сушкой.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Сафаров А.Ф. Гелиосушка винограда с использованием теплового насоса.-Автореф. дисс. канд. техн. наук. -1984, -24 с.
2. Сушилка, использующая солнечную энергию. Заявка ФРГ. № 2701198. - 1978.
3. Хусаинов У.М. Сушка плодов и винограда с использованием аккумуляированной солнечной энергии. М.: Легкая и пищевая промышленность. - 1983, 39 с.
4. Сафаров О.Ф., Артиков А.А., Джураев Х.Ф., Хикматов Д.Н., ва бош./ Қуритилган мева олиш усули. // Ихтирога патент № IAP 03373 рақамли. 30.05.2007 йилда Ўзбекистон Республикаси ихтиролар давлат ресстрида рўйхатдан ўтказилган.
5. Технология переработки бахчевых культур. Джураев Х.Ф., Додасв К.О., Хикматов Д.Н. и др. // Теоретический журнал «Хранение и переработка сельхозсырья» - М. 2001. № 9. – с. 52.

## ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ШЕРСТИ

**Ходжаева.М. Ю<sup>1</sup>, Исмойлов.И. Б<sup>2</sup>**

*Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности. город  
Ташкент. Узбекистан*

*Бухарский инженерно-технологический институт. город Бухара. Узбекистан  
+998992661585*

**Аннотация.** В данной статье представлены химические свойства шерсти. Шерсть не теряет своего естественного состояния при взаимодействии с несколькими кислотами в процессе начального карбонизации.

**Основные термины:** концентрации, карбонизация, кислота, раствор, гидро-оксид натрия, целлюлозы, кератина, кальцинированный.

Ранее был рассмотрен химический состав шерсти и раскрыт амфотерный характер кератина шерсти, его способность взаимодействовать и с кислотами, и со щелочами. Однако кислотные свойства у кератина выражены сильнее, поэтому он легче реагирует со щелочами. Рассмотрим, какое действие оказывают на шерсть слабые и сильные кислоты и щелочи.

Отношение к кислотам. Слабые растворы кислот (концентрации 4—5 ‰) при кратковременном воздействии (3—5 мин) и обычной температуре не оказывают на шерсть вредного воздействия. Неорганические кислоты (серная  $H_2SO_4$ , соляная  $HCl$ ) и органические (уксусная  $CH_3COOH$ , муравьиная  $HCOOH$ ) используются для специальных обработок шерсти. Например, 4—5%-ный раствор серной кислоты применяется для карбонизации шерсти. Карбонизацией называется процесс очистки шерсти от растительных примесей, основанный на различном отношении кератина шерсти и целлюлозы растительных примесей к действию серной кислоты. В результате карбонизации растительные примеси обугливаются и легко удаляются из шерсти, шерсть же повреждается незначительно.

Отношение к щелочам. Сильные щелочи (основания) легко разрушают шерсть. Даже слабый растворный (0,05%-) гидро-оксида натрия  $NaOH$  при температуре  $60^\circ C$  настолько понижает прочность шерсти, что она становится непригодной для дальнейшей переработки. Кипячение в этом же растворе полностью разрушает шерсть

Действие щелочей на шерсть начинается с поверхности. Сначала разрушается чешуйчатый слой, затем межклеточное вещество и, наконец, клетки коркового и сердцевинного слоев.

Слабые щелочи-соли угольной кислоты ( $Na_2CO_3$ —кальцинированная сода и  $K_2CO_3$ —поташ)—не оказывают разрушающего действия на шерсть, но значительно снижают ее прочность, упругость и удлинение.

Кальцинированная сода  $Na_2CO_3$  применяется при промывке шерсти в мыльно-содовых растворах, но следует иметь в виду, что раствор соды концентрации 0,5 ‰ при температуре  $55^\circ C$  резко снижает прочность шерсти. Шерсти разработаны типовые режимы мойки шерсти в слабощелочной среде, в которых концентрация соды не превышает 3г/л (0,3 ‰). Такая концентрация соды обеспечивает хорошее качество промывки при минимальных повреждениях шерсти.

Перекись водорода  $H_2O_2$  почти не оказывает вредного влияния на шерсть и применяется для ее отбеливания.

#### Список использованной литературы

1. Горбунова Л.С, Погачев Л.Н. Учебник “Первичная обработка шерсти”
2. <https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/335>

## JUNNI TITISH JARAYONINI YANGICHA AVTOMATLASHTIRILGAN NAZARIY TADQIQOTI.

Qayumov.J.A<sup>1</sup>, Ismoyilov.I. B<sup>2</sup>

*Samarqand davlat arxitektura- qurilish universiteti, Samarqand.shahri, O'zbekiston.*

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti, Buxoro.shahri, O'zbekiston.*

+998990510855

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada junni titish jarayonida qo'llaniladigan 2BT-

150SH mashinasitaxlil qilingan. Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, titish mashinasida yangicha avtomatlashtirilgan mexanizm orqali jarayonda yuqori samaradorlikka erishiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'minlovchi tsindr juftligi, prujina, titish barabanlari, kolosnik panjara, chiqindi kamerasi, chiqindi transportiyori, prizma, qoziqli planka, qopqoq, kontaktli stabilizator, chang chiqarish trubasi.

O'zbekiston Respublikasidagi junni dastlabki ishlash korxonalarida asosan qorako'l zotli qo'y junlari qabul qilinib ishlov beriladi. Mintaqa iqlim va qo'ylarni o'tlatish sharoitini tahlili shuni ko'rsatadiki, jun xomashyosini sinfi va ifloslik ko'rsatkichlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

Junni titish jarayoni murakkab va juda ahamiyatli hisoblanadi. Jun tolasi boshqa tabiiy tolalarga nisbatan mexanik ta'sirlarga chidamliligi bilan qadrlanadi. Ammo tolaga ishlov berishda navlarni hisobga olishning ahamiyati shundaki jun tolalarning navlari bir-biridan ingichkaligi bilan farq qilidi. Titish jarayonida mayin junlar uchun alohida dag'al junlar uchun alohida mashinalardan foydalaniladi.


Bunga asosiy sabab ishlov berish jarayonida mexanik ta'sirlar tolaning tabiiy uzunligini saqlashi hamda tolaning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish muhim hisoblanadi.

Jun xomashyosining navi va mexanik xossalari inobatga olgan holda ishlov berish texnika va texnologiyasini takomillashtirish lozim. Turli tipdagi jun tolasini fizik-mexanik xossalari bir-biridan farq qiladi. SHuning uchun jun xomashyosini dastlabki ishlash korxonasida standart sinflarga ajratishni taqozo qiladi.

Mintaqamizdagi junni dastlabki ishlash korxonalarida asosan dag'al va past navli merinos va qorako'l junlari 2BT-150SH mashinasida titib tozalanadi. Bu mashina qoziqchali barabanning mexanik ta'siri natijasida junni titilishiga asoslangan. 2BT - 150SH mashinasining konstruktiv kamchiliklari sabab samaradorligi past hamda xomashyoni tabiiy xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.


2BT-150SH dag'al junlarni titish mashinasi uzluksiz ishlaydi, shuningdek junni qoziq tishlari yordamida kolosnik yuzasidan sudrab o'tib titib tozalaydi, so'ngra jun yuvish jarayoniga uzatiladi.

2BT-150SH Titish mashinasining ishlash printsipi quyidagicha (1- rasm): jun xomashyosini ishchi ta'minlovchi tasma 1ga tashlaydi. Jun xomashyosini taminlovchi tasma 2-3ga ta'minlovchi tsindr juftligiga etkazib beradi. Bu jarayonda junni tasma orqali kelish oqimiga qarab 4prujina ta'minlovchi tsindr 3ni ko'tarib tushiradi. Qoziqli titish barabanlari 5-9 junni tutamlarga ajratib, 6ga kolosnik panjara uradi. Jun tarkibidagi dag'al iflosliklar 7ga ifloslik kamerasiga tushadi.



1- rasm. 2BT-150SH - rusumli titish-savash mashinasi sxemasi  
1-taminlovchi tasma, 2-3-ta'taminlovchi tsindr juftligi, 4-prujina, 5-9-titish barabanlari, 6-kolosnik panjara, 7-ifloslik kamerasi, 8-ifloslik transportiyori, 10-prizma, 11-qoziqli planka,12-qopqoq, 13-chang chiqarish trubasi

Jundagi chiqindilar ya'ni ajratilgan iflos aralashmalar ifloslik transportiyori 8 yordamida mashinadan olib chiqib tashlanadi. Kolosnik panjara orasidagi 10 titish jarayonini jadalashtiradi. Qoziqli planka 11 junning chala titilgan katta tutamlarini ikkinchi baraban 9ga o'tib ketishiga yo'l qo'ymaydi.



Barabanlar ustidagi teshikli qopqoq 12 junni tarkibidagi changlarni chiqarib yuboruvchi to'siq vazifasini o'taydi. Jun tarkibidagi changlar 13 chang chiqarish trubasi orqali tashqariga chiqadi.

Taklif etilayotgan avtomatik qurilmaning yangi ilmiy g'oyasi shundan iboratki qoziqli planka 11ning ilgarilanma-qaytma harakati bilan bog'liq. Qoziqli planka sharnirli qo'zg'aluvchan holatda 45° o'ng tomonga 45° chap tomonga harakat qiladi. Umuman junni tozalash va uni ishlash jarayoni samaradorligini oshiradi. Bu ilmiy tadqiqot junni tozalash va uni ishlash sohasida ijobiy bir yechimga ega.

### Adabiyotlar ro'yxati.

1. F.B.Ismoyilov., Junni dastlabki ishlashda takomillashtirilgan texnologik jarayonni tadqiq qilish., diss PhD., Buxoro. BMTI., 2021
2. I.B.Ismoyilov Значение использования наклонного очистителя первичной обработки шерсти. Universum: технические науки: 2023. 7(112).

3. I.B.Ismoyilov .Mechanical engineering robots are the foundation of our future. Methodical Research Journal. 2022.10 октябрь.11-15-б

## **ASALARI OILASIDAGI ONADONLARINING TUZILISHI.**

**N.A.Azizova**

*Buxoro Davlat Universiteti*

**D.U.To'xtamurodova**

*Buxoro Davlat Universiteti talabasi*

Annotatsiya: Asalarichilikda sun'iy usulda ona asalari yetishtirish ishchi asalari lichinkalarini ko'chirib o'tkazish yo'li bilan amalga oshirish texnologiyasi, sun'iy usulda ona asalari yetishtirishda asosan mum kosachalari andoza yordamida tayyorlanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Asalarichilik xo'jaligida har xil usulda yetishtirilgan ko'ch va sun'iy onadonlar sonini hisoblab ular o'rtasidagi farqlarni taqqoslangan.

Kalit so'zlar: Ona asalari, onadon, ko'ch ajratish davri, sun'iy onadon, asalari tuxumi onadoni, ko'ch onadoni, mum kosachalari, sun'iy usulda ona asalari yetishtirish texnologiyasi.

Аннотация. Была разработана технология искусственного разведения пчел путем перемещения пчелиных личинок из естественных сот в искусственные ячейки в пчеловодстве. В искусственном разведении пчел королевы в основном готовятся с помощью метода пикировки. Различные методы разведения пчел были сравнены путем подсчета количества королев и рабочих пчел, выращенных различными способами в пчеловодстве.

Ключевые слова: Пчелы, рабочие пчелы, период пикировки, искусственные рабочие пчелы, ячейка королевы, ячейка рабочей пчелы, метод пикировки, технология искусственного разведения пчел.

Abstract. A technology has been developed to rear honeybees artificially by moving bee larvae from natural honeycombs to artificial cells in apiculture. In artificial rearing of honeybees, queens are primarily prepared using the grafting method. Various methods of rearing have been compared by calculating the number of queen and worker bees raised in different ways in apiculture.

Keywords: Honeybees, worker bees, grafting period, artificial worker bees, queen bee cell, worker bee cell, grafting method, technology for artificial rearing of honeybees.

Asalarichilikda har xil usullarda ona asalari yetishtiriladi. Asalari oilasi o'zlariga yangi ona asalari yetishtirish maqsadida 3 xil davrlarda yangi onadonlar qura boshlaydi ya'ni ko'ch ajratish davrida, oilada ona asalari yo'qolib qolgan taqdirda yoki ona asalarida biror xil nuqsonlari bolganida, tinch yo'l bilan ona asalarilarni almashtirisha ulardan foydalanadilar.

Asalari oilasida yosh ishchi asalarilar haddan ziyod to'planib qolganida, ishsiz asalarilar yangi ko'ch oilasi ajratib chiqarishga harakat qiladi va yangi romlarning chekka qismiga to'planib ko'ch onadonlari quradilar. Asalari oilasining ana shu biologik xususiyatlari asosida asalarichilikda ishchi asalari lichinkalarini ko'chirib



o'tkazish yo'li bilan sun'iy usulda ona asalari yetishtirish texnologiyasiga asos solingan.



(1-Rasm. Sun'iy usulda yetishtirilgan onalarning ko'rinishi.)

Asalarilar oilada erkin ravishta rom chekkalarida ko'plab ko'ch onadonlari asosi bo'lgan mum kosachalarni quradilar. Lekin, ularning hammasiga ham ona asalari tuxum qo'yavermaydi. Bitta maxaliy populyatsiyadagi asalari oilalaridagi o'rtacha 15-25 tagacha mum kosachalari qursa agar, ularning teng yarmisiga ona asalari tuxum qo'yadi va ko'ch onadonlarining cho'zilib, undan ona asalari yetishtirib chiqaradi.

Sun'iy usulda ona asalari yetishtirishda esa mum kosachalar asosiy maxsus andoza asosida, mumni eritib tayyorlanadi. Ular payvandlovchi ramkalarga maxsus patronchalar yordamida yetishtirib qo'yiladi. Bunday mum kosachalariga ishchi asalarilarning 1 kunlik lichinkalari maxsus kurakcha yordamida olib o'tqaziladi.

1-jadval.

Har xil turdagi onadonlar hajmi, sm

Onadonlar Turi	n	Onadon hajmi							
		Balandligi		Chuqurligi		Diametiri		Ichki hajmi	
		M+m	Cv,%	M+m	Cv,%	M+m	Cv,%	M+m	Cv,%
Ko'ch onadonlar	15	3,26±0,04	1,60	2,80±0,02	2,30	1,03±0,04	3,61	1,11±0,01	3,37
Sun'iy onadonlar	13	3,06±0,02	2,63	2,82±0,01	1,32	0,98±0,01	4,00	1,06±0,01	2,86
Asalari tuxumi onadonlari	20	3,17±0,01	1,55	2,86±0,01	2,24	1,01±0,01	3,70	1,09±0,01	3,36

Shu maqsadda bizlar Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi “Saidov Samad Sanoyevich” dehqon xo’jaligida o’tkazgan tajribalarimizda har xil usulda yetishtirilgan ko’ch va sun’iy onadonlar soni hisoblab, ularning hajmi o’lchab borildi. Buning uchun ko’ch va sun’iy usulda yetishtirilgan onadonlarning tashqi balandligi, ichki chuqurligi, diametri, ichki hajmi ( $\text{sm}^3$ ) kabi asosiy ko’rsatkichlari hisobga olindi va bunday onadonlar har ikkalasi bilan taqqoslab baholab borildi. Bu to’g’ridagi ma’lumotlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, mahalliy populyatsiyadagi asalari oilalaridan ko’ch va sun’iy usulda yetishtirilgan onadonlar hajmidan shular aniqlandiki, eng yirik hajmli onadon asalari tuxumidan yetishtirilgan onadonlari bo’lib, ularni balandligi 3.17 sm ni, ichki chuqurligi esa 2.86 sm ni tashkil etgan yoki bu sun’iy onadonlarga nisbatan, uning balandligi 103.6% ga ko’p bo’lgan. Xuddi shunday onadonlarning diametri ham bir biridan keskin farq qildi. Asalari tuxumidan yetishtirilgan onadonlar diametric 1.01sm ni tashkil etgan yoki bu ko’rsatgich asalari tuxumidagi onadonlarga nisbatan 0.03sm ga yoki 103.1% ga kam bo’lgan. ( $P>0,950$ ). Xuddi shunday har ikkala turdagi onadonlarning ichki hajmi o’lchab ko’rilganida sun’iy onadonlarda bu ko’rsatgich  $1.06 \text{ sm}^3$  ni tashkil etgan bo’sa, asalari tuxumidan yetishtirilgan onadonlarida esa bu ko’rsatgich  $1.09 \text{ sm}^3$  ni tashkil etgan yoki bu ko’rsatkich  $0,003\text{sm}^3$  ga farq qiladi yoki 102.8 % ga ko’p bo’lgan. ( $P>0,999$ ). Ko’ch onadonlardagi ko’rsatkichlari deyarli farq qilinmagan.

Mahalliy asalari oilalarida asalari tuxumidan ona asalari yetishtirishda ona asalarilarning vaznini oshishida onadonlarning ichki hajmi va diametrining kattaligi sabab bo’lganligi hamda uning hajmi bilan ona asalari vazni o’rtasida ishonchli korrelatsion bog’liqlik borligi aniqlandi. Bu ko’rsatkich asalari tuxumidan yetishtirilgan ona asalarilar vaznida esa ko’proq namoyon bo’ladi. Chunki asalari tuxumidan yetishtirilgan ona asalarilarda onadon asosi bo’lgan mum kosachalar hajmi asalarilar tomonidan bir xil andoza shaklida (9mm) tayyorlanib oldindan belgilab berilgan bo’ladi.

Xulosa: Asalarichilikda ona asalarilar yetishtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki erkin ravishta asalarilar ko’payishida ko’ch onadonlari asosi bo’lgan mum kosachalarining hammasiga ham ona aslari tuxum qo’ymaydi va natijada ona asalari kam yetiladi. Shuning uchun ko’ch onadonlar, asalari tuxumi onadonlari va sun’iy onadonlarda ona asalarilar yetishtiriladi va bu onadonlardan eng yirik hajmli onadon asalari tuxumidan yetishtirilgan onadonlar hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tўraev O.C. Asalari tuxumidan ona asalari etiштириш истиқболлари. “Зооветеринария” журнали.2012, №1, 46-47 бетлар.

2. Tўраев O.C., Ўрманов Ш.Ш. “Асаларичиликда кўч онадонларидан она asalari etiштиришда фойдаланиш. Республикада Чорвачиликни ривожлантириш ва сохада озукa базасини мустахкамлашнинг устувор вазифалари” мавзусидаги республика илмий амалий конференция материаллари. Тошкент, 2011, 20-22 б.

3. Azizova N., Maxmadiyarov O., Qo'ldosheva F., To'rayev O. Sun'iy usulda

ona asalari yetishtirishda sumalak suvini ona asalari vazniga ta'siri. Chorvachilik bo'yicha respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Samarqand, 2019, 82-84 betlar.

Meva va sabzavotlarning alohida turlari o‘zaro tarkibidagi kimyoviy moddalarning soni va sifati bilan farq qiladi, ammo suvning miqdori kam bo‘ladi, bu esa mahsulotning ko‘p saqlanishiga olib keladi.

Meva va sabzavotlarning ozuqaviy va biologik qiymatini aniqlovchi asosiy elementlar bu-uglevodlar, oqsil va boshqa azotli moddalar, organik kislotalar, vitaminlar va mineral moddalar.

Uglevodlar. Meva va sabzavotlarda 80-90% quruq massani tashkil qiladi, bolalar organizmi uchun asosiy energiya va plastik modda manbai hisoblanadi.

Meva va sabzavotlarning uglevodlariga shakar, kraxmal, sellyuloza gemitsellyuloza va pektin moddasi kiradi.

Shakar. Meva va sabzavotlar tarkibida monosaxaridlar, asosan glyukoza va fruktoza, disaxaridlar, saxaroza mavjud. Katta miqdorda bo‘lmagan monosaxaridlar xam bor, arabinoza, ksiloza, mannoza, galaktoza, riboza, rolenoza, sorboza, disaxaridlar-maltoza, gensibioza va olti atomli spirtlar va sorbit, ular tarkibi va tami bo‘yicha shakarga yaqin.

Inson organizmida monosaxaridlar-glyukoza va fruktoza qon tarkibiga so‘rilib ketadi va shuning uchun yaxshi o‘zlashtiriladi. Saxaroza kislotalar invertazlar fermentlari tasirida oson suyuqlanadi va glyukoza hamda fruktozani hosil qiladi.

Shakar va 6 atomli spirtlar shirin tamga ega. Uning tarkibidagi shirasi-0,25% ni, glyukoza uchun-0,55 % ni va saxaroza uchun - 0,38 ni tashkil qiladi. Sorbitning shirasi, saxarozaga nisbatan 2 marta past.

Meva tarkibidagi shakarining foizi o'rtacha- 8..12%, uzumda- 16..18%, mevada-5..8%.


Tuxumli mevalarda fruktoza ko'prok, glyukoza va saxaroza kamrok.

Olcha, gilos, olxo'ri, uzum tarkibida asosan glyukoza bor, saxaroza deyarli juda kam. Shaftoli va zaldorida saxaroza ko'p.

Eksperimental qurilma quritish kamerasi 1-issiq havo quvuri 2-assilograf 3-akustik to'lqin intensivligini boshqarish moslamasi 4-akustik to'lqin kattaliklarini boshqarish uchun maxsus dastur o'rnatilgan kompyuter 5-akustik nurlatkich 6-mahsulotning ichki temperaturasini o'lchash uchun potensimetr 7-quritish kamerasidagi temperaturani o'lchash uchun manometrik termometr 8-quritish jarayoni davomida mahsulotni massaviy o'zgarishini nazorat qilib borish uchun VLKT – 500 markali tarozi 9-hamda quritish jarayonini taqqoslash maqsadida o'rnatilgan infraqizil nurlatgichlar bilan jihozlangan 1-rasm.

Eksperimental qurilmada mahsulotga akustik nurlatgich bilan boshlang'ich ishlov beriladi. Bunda mahsulot tarozini yuqori qismida o'rnatilgan podga joylashtiriladi.

Mahsulotga qurilmadagi akustik nurlatgich yordamida boshlang'ich ishlov beriladi. Ishlov berish jarayonida akustik nurlatgichdan chiqayotgan kattaliklarni o'lchash uchun assilograf hamda maxsus dastur o'rnatilgan kompyuter bilan nazorat qilib boriladi.



1 – rasm. Mahsulotga akustik ishlov berib infraqizil konvektiv quritish qurilmasi.

Maxsulotga boshlang'ich ishlov berilgandan so'ng 60°C temperaturada jarayonni davom ettiramiz. Qurituvchi agent hosil qilish uchun kaloriferdan hamda Infraqizil lampalaridan foydalaniladi.

Materialning quritish jarayonida issiqlik almashinish jarayonlari nazariyasi asosida materialning namlik o'zgarishi va material haroratining o'zgarish tezligini ifodalovchi hamda quritish aralash usulda ishlaydigan qurilma gidrodinamik oqim strukturasi o'rganish asosida apparatning umumiy konstruksiyasi taklif qilindi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Исломова З.Қ., Ахмедов В.Н., Шарипов Қ.Қ., Хабибов Ф.Ю. Разработка технологии производства одоранта из газоконденсатов месторождений «Денгизкуль» бухарской области. Сборник трудов международной научно-теоретической конференции на тему: «Куатбековские чтения-1: Уроки независимости», посвященной 30-летию Независимости Республики Казахстан. 2021. С.157-159

2. Исломова З.Қ., Хабибов Ф.Ю. Based on the systematic analysis of samarkand the oven to bake bread o'to rga. NX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230, Volume7, ISSUE 6, June. -2021. P. 409-4123. Хабибов Ф.Ю. Самарканд нони пишириш тандирини тизимли таҳлил асосида ўрганиш. «Саноат инженериясининг долзарб муаммолари» Республика илмий-амалий анжумани. Бухоро: 2021. 112-113 б.

4. Исломова З.Қ., Хабибов Ф.Ю. Ҳамроев Ҳ.Ҳ. “Samarqand noni” pishirish qurilmasi (tandir)ni tizimli tahlil asosida o'rganish. Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий-техникавий журнал. Бухоро: 2022. №1, 121-126 б.

5. Исломова З.Қ., Нарзиев М.С. Самарканд нони ишлаб чиқишдаги пишириш жараёни технологик параметрларини тадқиқ қилиш. Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий-техникавий журнал. Бухоро: 2022. №4, 152-157 б.

### **QOLDIQ TUKDORLI CHIGITLARNI REGENERATSIYA QILISH MASHINALARINI TAHLIL QILISH**

**Yormatov Abbas Ismatullo o'g'li<sup>1</sup>, Tursunov Xamidulla Qo'chqorovich<sup>2</sup>,  
Ismoyilov Furqat Barotovich<sup>3</sup>**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, magistr<sup>1</sup>*

*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, dotsent<sup>2</sup>*


*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, dotsent<sup>3</sup>*

*tel: +998936876685*

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 10.01.2023 yildagi PF-2-sonli farmonida Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan qator masalalar ko‘zda tutilgan. Shu bois paxtani dastlabki ishlash texnologiyasini takomillashtirish lozim. Hozirda paxtani dastlabki ishlash korxonalaridagi mashinalarni takomillashtirish lozim. Sababi ushbu mashinalar ma‘nan eskirganligi bois chiqarilayotgan tola xomashyosi sifati va korxonalarining unumdorligi xorij texnologiyalariga nisbatan past. Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasidagi asosiy xomashyo hisoblangan tolaning tabiiy xususiyatlarini inobatga olgan holda mashinalarni qayta loyihalash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dastlabki ishlashga tayyorlangan paxta xom ashyosini qayta ishlash jarayonida

undan olinadigan mahsulot turlarining tabiiy sifat ko'rsatkichlarini yaxshilanishi va ular miqdorini oshishi korxonalar rentabelligini yuqorilashishiga imkon beradi. Hozirgi vaqtda paxta tozalash korxonalarida arrali jinlardan (4DP-130 yoki 5DP-130) keyin tolasi ajralgan chigitlarda qoldiq tukdorlik 10-14% ni tashkil qiladi. Izlanishlardan ma'lumki jinlash jarayonidan keyingi chigitdan yigirishga yaroqli tolalarni ajratish texnologiyasi taklif etilgan.



1- ta'minlagich; 2- yo'naltirgich; 3- arrali baraban; 4- kolosnikli panjara; 5- yo'naltirgich; 6- cho'tkali baraban; 7- yo'naltirgich; 8- ishchi kamera; 9- tezlatgich valigi; 10- chigit tarog'i; 11- kolosnik; 12- arrali silindr; 13- yo'naltirgich; 14- kamerani ko'tarish richagi; 15- havo kamerasi; 16- zichlik klapani.

### 1-rasm. DR-119 kalta shtapelli tola ajratuvchi jin-regeneratori.

DR-119 jin-regeneratori (1-rasm) qurilmasi quyidagi tartibda ishlaydi. Qoldiq tolali chigitdan yigirishga yaroqli tolani ajratish qurilmasi jin-regenerator linter uskunasi yuqori qismiga o'rnatilgan konstruksiyasiga asoslangan. Mazkur mashinaning arra geometrik o'lchamlari linter uskunasi kabi bo'lib qurilma 4DP-130 jinining uzunasiga kichraytirilgan, ishchi kamerasi 5LP linterining kattalashtirilgan diametrdagi to'zitqichi va 119 ta linter arrasidan iborat. Arrali silindrdagi arralar oraliq qadami 13 mm qilib o'rnatilgan.

Mashinaning yuqori qismida ta'minlovchi-ajratuvchi vazifasini bajaruvchi RNS regeneratori joylashtirilgan.

Jin qurilmasining ish unumdorligini ko'p yoki oz bo'lishi chigit tarog'i yordamida sozlanadi. Bunda uning ochiq, yopiq yoki o'rta holatda turishini amalga oshirish mumkin. Birinchi bosqichda jindan chiqqan tukdorligi ko'p chigitlar yoki paxta bo'laklari yig'uvchi shnek orqali elevatorda ko'tariladi va taqsimlovchi shnek 1 yordamida jinlangan chigit o'tuvchi ta'minlash quvuri 2 orqali arrali baraban 3 ga yuboriladi. Arrali barabandan me'yorida jinlangan chigitlar kolosnikli panjara 5 ning kolosniklari 4 oralaridan o'tib, qiya yo'naltirgich 7 orqali ishchi kamera 8 ga tushadi.

To'liq jinlanmagan tukdorligi yuqori chigitlar arrali baraban tishlari yordamida ushlab qolinadi va cho'tkali baraban 6 yordamida arra tishlaridan ajratib olinib, birinchi bosqich (asosiy) jinga qaytib uzatiladi.

Ishchi kamerasiga uzatilgan chigitlar va arrali baraban 3 ushlab qololmagan to'liq jinlanmagan chigitlar to'zitg'ich valigi 9 yordamida arrali silindr 12 ga ta'sirida uzatiladi. Chigitlardan to'quvga yaroqli tolalarni arra tishlari qirib oladi va havo kamerasi 15 yordamida arra tishidagi tolalar ajratilib, kondensorga yuboriladi. Jin qurilmasining ish unumdorligini ko'p yoki oz bo'lishi chigit tarog'i 10 ning ochiq, yopiq yoki o'rta holatida amalga oshiriladi.

DR-119 kalta shtapelli tola ajratuvchi jin-regeneratorining texnik tavsifi

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich miqdori
Chigit bo'yicha ish unumdorligi, kg/s (kam emas)	7000
Chigitning shikastlanganligini oshishi, % (ortiq emas)	1,3
O'rnatilgan quvvat, kW,	53,1
Texnologik tirqishlar, mm, orasida: ta'minlash yo'naltirgichi bilan arrali baraban (o'zgartiriladi)	30÷80
kolosnikli panjara bilan arrali baraban tishi	16÷18
yo'naltirgich bilan arrali baraban tishi	18÷20
kolosniklar va ishchi zona	2,4÷3,0
yuqori zonadagi kolosniklar	3,0÷3,5
pastki zonadagi kolosniklar aylantirgich parraklari bilan arrali silindr	3,5÷4,7 20
chigit tarog'i bilan arrali silindr	25
havo kameraning brusi bilan arrali silindr	1,5
aylantirgich yon tomoni bilan kamera yon devori	1,5
o'lik koziryog'i va arrali silindr	15÷60
Kolosnikli panjaradan arraning chiqib turishi, mm	32÷37
Arralar soni, dona	119
Arralarning oralig'i, mm	13,0
Qisqartmaning kengligi, mm	12,05

Mazkur texnologoyaning kamchiligi shundaki, bir qism tolasi to'liq jinlangan chigitlar tolasi to'liq jinlanmagan chigitlarga ilashib, paxtaning umumiy oqimiga qaytarilganda jinning taminlovchi-tozalovchi qismida qoziqli baraban ostidagi to'rtli yuzalar orasidan iflos aralashmalar bilan birga chigitlar tushib chiqindiga qo'shiladi. Shuni takidlash lozimki, bir qism tolasi to'liq jinlanmagan chigitlar tolasi to'liq jinlangan paxta chigitlarining umumiy oqimiga qo'shilib ketishi hisobiga tola nobudgarchiligiga yo'l qo'yiladi.

Shu bois ushbu regeneratorni takomillashtirish orqali tola olish samaradorligini oshirish hozirgi kunda soha olimlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ismoyilov F, Kuldashv E, Abrorov A, Ismoyilov I, Bozorov R Improvement of the machine for wool scutching for obtaining ecologically clean fiber *E3S Web of Conferences* **390**, 01010 (2023)
2. Abrorov A, Kuvoncheva M, Ismoyilov F, Fayziev S, Mukhammadov M Computational analysis of multivariant physical and mechanical experiments on laser hardening of gin disc saws *Journal of Physics: Conference Series* **2573** (2023) 012038

3. F. B. Ismoyilov, E. I. Kuldashev, N. N. Sattarova and R. R. Bozorov Significance of using a screw cleaner at pretreatment of wool AIP Conf. Proc. **2969**, 060029 (2024)

## CHIGITLI PAXTANI REGENERATSIIYA QILISH MASHINASINING SAMARALI KONSTRUKSIYASI


Yormatov Abbas Ismatullo o'g'li<sup>1</sup>, Ismoyilov Furqat Barotovich<sup>2</sup>

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, magistr<sup>1</sup>

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, dotsent<sup>2</sup>

tel: +998936876685

Mavjud paxtali chigitni qayta ishlash reglamentiga binoan arrali jinlardan keyin qoldiq tolali chigitdagi, qisman o'tib ketayotgan tolali paxta bo'lakri tarkibidagi tolalarni linterlash jarayonida momiqga o'tib ketishi hisobiga yo'qotilishini kamaytirish maqsadida qoldiq tolali chigitlarni ajratish uchun RNS regeneratordan (1-rasm) foydalanish tavsiya etilgan.



1- ta'minlovchi vint; 2- rostlovchi shtok; 3- chigitni ta'minlovchi jalyuz; 4- yo'naltirgich; 5- arrachali baraban; 6- bosuvchi cho'tka; 7- kolosnikli panjara; 8- chigit tushadigan nov; 9- ajratuvchi cho'tkali baraban.


**1-rasm. RNS regeneratori.**



Regenerator quyidagicha ishlaydi: jinlash jarayonidan chiqqan chigit xomashyosi elevator orqali vint 1 ga uzatiladi. Qayta ishlanadigan qoldiq tukdorli chigitlar vint ostida loyihalangan tirqish orqali yo'naltirgich 4ning ustuga tushadi. Xomashyoni bir maromda uzatish uchun tirqish o'lchamini ta'minlovchi jalyuz 3 yordamida rostlovchi shtok 2 orqali o'zgartirib turiladi.

Chigit xomashyosi arrachali baraban 5 ning arra tishlariga bosuvchi cho'tka 6 yordamida yaxshilab ilashtiriladi. Arra tishlariga ilashgan tolali chigitlar kolosnik panjarada joylashtirilgan kolosnik 7 larga urilishi natijasida tukdorligi kam chigitlardan ajratib olinadi. Tukdorligi kam chigitlar esa kolosniklar orasidan o'tib chigit tushadigan nov 8 ga tushib linterlash jarayoniga uzatiladi. Arrachali baraban arra tishlariga ilashib qolgan tukdorligi yuqori chigitlar hamda paxta bo'laklarini ajratuvchi cho'tkali baraban 9 ning cho'tkasi orqali ajratilib maxsus sig'imga uzatiladi. Ajratib olingan qoldiq tukdorli chigit hamda paxta bo'laklari jinlash jarayonida uzatilib qo'l mehnati yordamida arrali jin xomashyo kamerasiga tashlanadi va qayta jinlanadi [18].

Shuni aytish mumkinki, chet el va Respublikamizda ishlatilayotgan regeneratorlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ularda asosan arra konstruksiyasi, arrachali va ignali baraban ishchi qismlari hamda har xil kolosnikli panjaralardan foydalanilgan.



**2-rasm. Takomillashtirilgan RNS regeneratori.**

Amaliy izlanishlardan ma'lum bo'lishicha barcha konstruksiyadagi regeneratorlar bajarilishi kerak bo'lgan vazifasini to'la-to'kis bajarmaydi. Umumiy chigitli aralashma miqdoridan qisman tolasi to'liq jinlanmagan chigitlarni va kam miqdorda yigiruvga yaroqli tolasi bor chigitlarni ajratishi hisobiga tola nobudgarchiligiga yo'l qo'yilmoqda.

Mazkur RNS regeneratorining kamchiligi shundaki tukdorligi meyorida bo'lgan xomashyolar xam arrali baraban tishlariga yaxshi ilashmaydi shu bois kolosniklar orasidan tushib ketadi. Agar kolosniklar konstruksiyasini 2- rasmda keltirilgan o'lchamlarda loyihalansa xomashyoni kolosniklar arra tishlariga itarishi natijasida qoldiq tukdorli chigitlarni ham ajratish imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ismoyilov F, Kuldashev E, Abrorov A, Ismoyilov I, Bozorov R Improvement of the machine for wool scutching for obtaining ecologically clean fiber *E3S Web of Conferences* **390**, 01010 (2023)
2. Abrorov A, Kuvoncheva M, Ismoyilov F, Fayziev S, Mukhammadov M Computational analysis of multivariant physical and mechanical experiments on laser hardening of gin disc saws *Journal of Physics: Conference Series* **2573** (2023) 012038
3. F. B. Ismoyilov, E. I. Kuldashev, N. N. Sattarova and R. R. Bozorov Significance of using a screw cleaner at pretreatment of wool *AIP Conf. Proc.* **2969**, 060029 (2024)

## **YONG'INBARDOSH QAVARIQLANUVCHI QOPLAMALARNI SEM VA ELEMENT ANALIZINI O'RGANISH.**

**Z.K. Buvaraimov, F.B. Axmedov, F.N. Nurqulov, E.A. Voxidov**

<sup>1</sup>O'z. Res. FVV, Jamoat xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar ilmiy-tadqiqot instituti

<sup>2</sup>O'z. Res. FVV, Samarqand viloyati favqulodda vaziyatlar katta inspektori

<sup>3</sup>Toshkent kimyo texnologiya ilmiy tadqiqot instituti laboratoriya mudiri

<sup>4</sup>Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro, O'zbekiston

+998934319991


Hozirgi zamonda bino va inshoot ( zavod va fabrika ) larni qurishda ishlatiladigan metall konstruksiyalarni yong'indan himoya qilishga juda ko'p ehtiyoj sezilmoqda. Ularni yong'indan himoya qilish usullari ham ko'payib bormoqda [1]. Hozirgi zamonda bino va inshootlarni qurilishida foydalaniladigan materiallarni yong'indan himoya qilishni qimmatbaho usullaridan deyarli foydalanilmayabdi. Konstruksiyalardan qo'shimcha yuklarni olib tashlashga va ularni yengilroq qilishga imkon beradigan juda ko'p samarali usullar izlab topilmoqda [2].

Yong'inga chidamli qoplamalarni ishlatishning zamonaviy usullari ularga nisbatan ancha qat'iy talablarni qo'yadi: chidamlilik, yupqa qatlam, korroziyaga chidamlilik, ovoz yutish xususiyatlari, kuchli yopishqoqlik xususiyatlari, kimyoviy qarshilik, kam miqdorda tutun hosil qilish qobiliyati [3].

Tadqiqotchilar uchun katta qiziqish uyg'otadigan variantlardan biri yong'indan himoya qilish usullarini, shu jumladan qavariqlanuvchi qoplamalarni qo'llashdir. Ular

odatda epoksid qatronidan tayyorlanadi va uchta asosiy komponentdan iborat: uglerod manbai (qatronning o'zi bo'lishi mumkin), puflovchi vosita (kengayadigan grafit kabi) va kislotali manba (masalan, bor kislotasi). Qoplamalar yuqori harorat ta'sirida bu komponentlar o'rtasida ketma - ket reaksiyalar sodir bo'ladi, bu jarayon oxirida himoya va past issiqlik o'tkazuvchanligi kengaygan ko'mir hosil bo'lishiga olib keladi [4-5].


Ushbu maqolada olingan NFN-2 markali polimer kampazitni tarkibi va tuzulishi tadqiq etish uchun skanerlovchi elektron mikroskop (SEM)da kampazit tarkibidagi zarralarning bir xil tarqalganligi va element analizda kampazit tarkibidagi elementlar o'rganildi.



**1-rasm. O'z DSt 2313 bo'yicha: 140 mm × 80 mm × 1 mm bo'lgan metall plastinkalar yuzasiga qoplangan yong'inbardosh qavaruqlanuvchi qoplamasi va yong'inbardosh qavariqlanuvchi qoplamaning skanerlovchi elektron mikroskop (SEM)da ko'rinishi.**

Sinovda foydalanilgan yong'inbardosh qavaruqlanuvchi kampazitni tarkibidagi moddalarni teng taqsimlanganini yanada aniqroq ko'rish uchun metallga qoplama qilib foydalanilgandan keyin xar xil joylaridan olib skanerlovchi elektron mikroskop (SEM)da 250 marta kattalashtirilib kampazit tarkibidagi zarralarning bir xil tarqalganligini ko'dik.

Sinovda foydalanilgan yong'inbardosh qavaruqlanuvchi kampazitni tarkibidagi elementlarni yanada aniqroq ko'rish uchun metallga qoplama qilib foydalanilgandan keyin xar xil joylaridan olib element analizda kampazit tarkibidagi elementlar ko'rildi.



**2-rasm. Yong'inbardosh qavariqlanuvchi qoplamaning element analizi.**

Olovdan kelayotgan issiqlik oqimi ta'sirida yong'inga chidamli qoplamaning yupqa qatlami yuzasi qizadi, uning qalinligi issiqlik oqimining quvvatiga bog'liq bo'lib, bir necha mm ni tashkil etilishi mumkin. Yong'indan kelayotgan issiqlik

oqimning ta'sirida qavariqlanuvchi, mustahkam karbon qavat hosil bo'ladi. Natijada yong'indan kelayotgan issiqlik oqimi reaksiyaga kirishmagan qavatlarga ta'siri kamayadi va reaksiya to'xtaydi. Keyingi bosqichda hosil bo'lgan ko'pikli koks shunday sharoitlargacha isiydiki, yangi qizigan qavat issiqlik oqimi ta'siri ostida reaksiyaga kirishni boshlaydi va jarayon qoplama to'liq ishlanmaguncha qayta takrorlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. E.A.Voxidov, F.N.Nurqulov, A.T.Djalilov. Akril kislotani sopolimeri va tarkibida metall tutgan polifosfat ammoniy kompozitlari asosidagi yong'inbardosh qavariqlanuvchi qoplamalarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini tadqiq etish. // ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР ТАРАҚҚИЁТИ ИЛМИЙ – ТЕХНИКАВИЙ ЖУРНАЛ. 2021. №4. – С. 147-151.
2. E.A.Voxidov, F.N.Nurqulov, A.T.Djalilov. Tarkibida metall tutgan yong'inbardosh qavariqlanuvchi qoplamalarni fizik-kimyoviy xususiyatlarni tadqiq etish. // Namangan davlat universiteti ilmiy axbarotnomasi. 2021. №9-son С-98-104.
3. E.A.Voxidov, F.N.Nurqulov, A.T.Djalilov, A.M. Erkayev. Metall tutgan yong'inbardosh qavariqlanuvchi polimer kompozitlar asosidagi qoplamalarni fizik-kimyoviy xususiyatlarni tadqiq etish. // O'zbekiston Kompozitsion Materiallar Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali 2021. №2 С-48-50.
4. J. Alongi, Z. Han, S. Bourbigot, Intumescence: tradition versus novelty. A comprehensive review, Prog. Polym. Sci. 51 (2014) 28–73, <https://doi.org/10.1016/j.progpolymsci.2015.04.010>.
5. S. Duquesne, S. Magnet, C. Jama, R. Delobel, Thermoplastic resins for thin film intumescent coatings - towards a better understanding of their effect on intumescence efficiency, Polym. Degrad. Stab. 88 (2005) 63–69, <https://doi.org/10.1016/j.polyimdegradstab.2004.01.026>.

## YONG'INBARDOSH QAVARIQLANUVCHI QOPLAMALARNI ULARNI FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINI TADQIQ ETISH.

**Z.K. Buvaraimov, F.B. Axmedov, F.N. Nurqulov, E.A. Voxidov**

*10'z. Res. FVV, Jamoat xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar ilmiy-tadqiqot instituti*

*20'z. Res. FVV, Samarqand viloyati favqulodda vaziyatlar katta inspektori*

*3Toshkent kimyo texnologiya ilmiy tadqiqot instituti laboratoriya mudiri*

*4Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro, O'zbekiston*


+998934319991

Yong'inga chidamli qoplamalarni ishlatishning zamonaviy usullari ularga nisbatan ancha qat'iy talablarni qo'yadi: chidamlilik, yupqa qatlam, korroziyaga chidamlilik, ovoz yutish xususiyatlari, kuchli yopishqoqlik xususiyatlari, kimyoviy qarshilik, kam miqdorda tutun hosil qilish qobiliyati [1].

Yong'inga chidamli qavariqlanuvchi qoplamalar yong'inni pasaytiradigan chidamli material bo'lib, o'ziga xos afzalliklari tufayli keng qo'llaniladi. Masalan boshqa materiallarning ichki xossalari ta'sir etishmasligi, ularni qayta ishlash

qulayligi va bir necha xil materiallarga qo'llanilish qobiliyati [2-3]. Odatda yong'inga chidamli qoplamalar bog'lovchi moddasi bilan birga "faol" moddalarni (kislota manbasi, uglerod manbasi va ko'pirtiruvchi vosita) o'z ichiga oladi. Yarim koks himoya qavatini xosil etuvchi samarali himoya qatlamining fizik -kimyoviy xususiyatlari nuqtai nazaridan optimal xarakteristikasi - bu asosiy moddani olovdan himoyalashdir [4-5].

Ushbu maqolada olingan NFN-2 markali polimer kampazitni tarkibi va tuzulishi tadqiq etish uchun IQ-spektridan foydalanildi (1-rasm), termik analizi amalga oshirilib kompozitni massa yoqotishi, koks hosil qilishi va termik barqarorligi o'rganildi (2-rasm).



**1-rasm. Tarkibida magniy saqlagan yong'inbardosh va qavaruqlanuvchi qoplamaning IQ spektri**

Tarkibida magniy saqlagan yong'inbardosh qavaruqlanuvchi qoplamaning IQ spektroskopiyasining yutilish chizig'i bog'larning –N-H guruhlarini spektri 3026,31 sm-1 sohasidagi valent va bundan tashqari strukturada 2814,14 sm-1 –CH2- valent tebranishlarni hosil qiladi. 1435,04 sm-1 sohasida NH4 va 1159,22 sm-1 –P=O sohasida valent guruhlariga tegishli yutilish chiziqlari mavjud. Magniy tutgan metall organik birikmalarga tegishli valent bog'lanishlari 692,44 sm-1 sohasida valent guruhiga ta'luqli yutilish chiziqlari mavjud (1-rasm).

Tarkibida magniy saqlagan yong'inbardosh qavaruqlanuvchi qoplamaning dervotogrammasi 2-rasmida keltirilgan bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat. Dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA) (1-egri chiziq) tahlili shuni ko'rsatadiki, TGA egri chizig'i asosan 3 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig'ida amalga oshadi.


1-parchalanadigan oraliq 27.35-266.73 °C temperaturaga, 2-parchalanadigan oraliq 266.73-502.96 °C temperaturaga, 3-parchalanadigan oraliq 502.96-901.02 °C temperaturaga mos keladi.

1- termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA); 2- differensial termik analiz egri chizig'i (DTA);

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2- parchalanadigan oraliq intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'ladi. Bu oraliqda parchalanishning miqdori, ya'ni parchalanishning 40.954 % amalga oshadi.

Bu derivatogrof tadqiqotlar natijasida ko'rinadiki asosiy massa yuqolishi 1-

parchalanishda 27.35-266.73 oC oralig'ida kechadi unda asosiy massaning 23.431 % yo'qoladi. 2-parchalanish 266.73-502.96 oC da amalga oshadi, bunda massaning 40.954 % yo'qoladi. 3-parchalanish 502.96-901.02 oC oralig'ida kechadi unda asosiy massaning 21.241 % yo'qoladi. 500 oC dan keyin o'zgarish deyarli kuzatilmaydi.



**2-rasm. Tarkibida magniy saqlagan yong'inbardosh va qavaruqlanuvchi qoplamaning dervotogrammasi**

Yong'inga chidamli kompozitsiyalarning termogravimetrik egri chizig'i vazn yo'qotishning 3 bosqichini ko'rsatadi, bu bug'lar va gazlar (odatda suv bug'lari, ammiak, azot, karbonat angidrid) chiqarilishi bilan intoksikatsiya (shishish) jarayoniga to'g'ri keladi. Eng katta vazn yo'qotilishi odatda 300-500 °C harorat oralig'ida kuzatiladi, bunda intoksikatsiya jarayoni eng qizg'in kechadi.

Differentsial termik analiz egri chizig'i 400-500 °C gacha bo'lgan haroratda 2 ta endotermik cho'qqilarni ko'rsatadi, bu erish va tirishish jarayonlarini ko'rsatadi va 500 °C dan yuqori haroratlarda katta murakkab ekzotermik cho'qqini ko'rsatadi, bu yonuvchi komponentlarning yonib ketganligini ko'rsatadi. Yong'inga qarshi vositadan koks hosil bo'lishi 700 °C dan yuqori.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. E.A.Voxidov, F.N.Nurqulov, A.T.Djalilov. Akril kislotani sopolimeri va tarkibida metall tutgan polifosfat ammoniy kompozitlari asosidagi yong'inbardosh qavariqlanuvchi qoplamalarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini tadqiq etish. // ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР ТАРАҚҚИЁТИ ИЛМИЙ – ТЕХНИКАВИЙ ЖУРНАЛ. 2021. №.4. – С. 147-151.
2. E.A.Voxidov, F.N.Nurqulov, A.T.Djalilov. Tarkibida metall tutgan yong'inbardosh qavariqlanuvchi qoplamalarni fizik-kimyoviy xususiyatlarni tadqiq etish. // Namangan davlat universiteti ilimiy axbarotnomasi. 2021. №9-son С-98-104.
3. H.L. Vandersall, Intumescent coating system, their development and chemistry, J. Fire Flammable 2 (1971) 97–140.
4. J. Wang, Y. Chen, Flame-retardant mechanism resulting from an intumescent system, J. Fire Sci. 23 (2005) 55–74.

5. M. Jimenez, S. Duquesne, S. Bourbigot, Intumescent fire protective coating: toward a better understanding of their mechanism of action, *Thermochim. Acta* 449 (2006) 16–26.

## **SUYUQ SHISHADAN NATRIY SILIKAT PENTAGIDRAT ISHLAB CHIQRISHDA QO‘LLANILADIGAN BARABANLI KRISTALLIZATOR QURILMASINI JORIY ETISHDAN OLINADIGAN IQTISODIY SAMARADORLIKNI ANIQLASH**

**Ibragimov Shohruh Ramazon o‘g‘li, tayanch doktorant**  
*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*

O‘zbekistonda kimyo sanoati bo‘yicha turli xil ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritadi. Kimyo sanoati ham bir nechta tarmoqlarga bo‘linadi. Shundan kir yuvish kukunlari, santexnik qurilmalarni tozalovchi vositalar ishlab chiqaradigan korxonalar mavjud. Biroq, bu ishlab chiqarish korxonalari, ayrim turdagi mahsulotlarni boshqa mamlakatlardan olib keladi. Shuning uchun O‘zbekiston sharoitida ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan mahsulotlarni mahalliyashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Buxoro viloyatida “Buxara shaten clean” MChJ hamda “Buxoro ECO LYUKS” MChJ ishlab chiqarish korxonalari bir nechta turdagi kir yuvish vositalarini ishlab chiqaradi. Bu kir yuvish vositalari uchun ishlatiladigan noorganik modda, natriy silikat pentagidrat mahsulotini ehtiyojdan kelib chiqib, Xitoy, Rossiya, Ukraina va boshqa mamlakatlaridan import qilinadi. Ushbu mahsulotning korxonagacha yetib kelishi, korxonada iqtisodiy ko‘rsatgicha anchagina katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, bu masalaga yechim topish uchun mahalliy ishlab chiqariladigan suyuq shishani qayta ishlash orqali olinadigan natriy silikat pentagidratni mahalliyashtirish maqsad qilib olindi.

Suyuq shishani qayta ishlash orqali ishlab chiqariladigan natriy silikat pentagidrat mahsuloti kristallanish jarayoni bo‘yicha boradi. Bunda kristallanish jarayonini amalga oshirish uchun barabanli kristallizator qurilmasi yordamida amalga oshirish asosiy vazifa qilib belgilab olindi. Tadqiqot natijalarini ilmiy asoslash uchun eksperiment tadqiqot ishlari olib borildi. Bu tizim bo‘yicha mahsulot temperaturasi, mahsulot qalinligi hamda kristallanish jarayonining vaqt davomiyligi ta‘sir etuvchi asosiy faktorlar hisoblanadi. Chiqish faktor sifatida esa mahsulotning suv molekular soni belgilab olingan. Eksperiment tadqiqot ishlarini bajarishda barabanli kristallizator qurilmasidan foydalanildi. Barabanli kristallizator qurilmasini yig‘ish uchun issiqlik o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgan material AISI 304 markadagi zanglamaydigan po‘latdan foydalanildi. Tadqiqot olib borilgan qurilma quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Barabanli kristallizator.

Ta'sir etuvchi faktorlarning chegaraviy qiymatlari aniqlab olindi va shu asosida barabanli kristallizator qurilmasida eksperiment tadqiqot ishlari amalga oshirildi. O'tkazilgan eksperiment tadqiqot ishida yuqori sifatli mahsulot olish uchun ta'sir etuvchi faktorlarning optimal qiymatlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari bo'yicha ta'sir etuvchi faktorlarning optimal qiymati quyidagicha:

- mahsulot temperaturasi  $t=147\text{ }^{\circ}\text{C}$ ;
- mahsulot qalinligi  $\delta=1,1\text{ mm}$ ;
- jarayonning vaqt davomiyligi  $\tau=160\text{ sek}$ .

Ushbu ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqariladigan natriy silikat pentagidratning suv molekullari soni 5 ni tashkil etadi.

Shundan so'ng olingan natijalar va qurilmaning ishlash printsipti bo'yicha 2023 yilda "Buxara shaten clean" MChJ hamda "Buxoro ECO LYUKS" MChJ ishlab chiqarish korxonalarida ma'ruzalar qilindi. Bu ishlab chiqarish korxonalari ijobiy xulosa berib, joriy etish dalolatnomasini tasdiqladi. Iqtisodiy samaradorlik "Buxara shaten clean" MChJ korxonasining yillik quvvatiga qarab hisoblandi. Bu korxonada bir yilga o'rtacha 810 tonna kir yuvish vositasi ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish korxonasi bir martalik jarayonda 3,36 tonna kir yuvish kukuni ishlab chiqaradi. Bunda uning tarkibiga 540 kg natriy silikat pentagidratdan foydalanadi. Yuqoridagi ko'rsatkichlardan kelib chiqib, korxonada yiliga 130 tonna natriy silikat pentagidratga ehtiyoj kerak. 2024 yil mart oyidagi narx-navo bo'yicha 130 tonna natriy silikat pentagidrat Xitoydan korxonagacha kelishi 1 kg natriy silikat pentagidrat 5720 so'mdan jami 130 tonna uchun 743,6 mln so'mni tashkil etadi. Taklif etilayotgan qurilma bo'yicha natriy silikat pentagidratni ishlab chiqarishda 1 kg natriy silikat pentagidratning tannarxini hisoblash uchun quyidagi ko'rsatkichlarga asoslanib amalga oshiriladi. 1 kg natriy silikat pentagidrat ishlab chiqarish uchun 1,6667 kg suyuq shisha sarflanadi. 1 kg suyuq shishaning narxi 2200 so'mni tashkil etadi. Qurilmadagi elektr energiya o'rtacha soatiga 5 kW energiyani sarflaydi. Bunda elektr energiyaning 1 soatlik xarajati 2250 so'm bo'ladi. Barabanli kristallizator 1 soatda 880 kg suyuq shishani qayta ishlaydi. Qurilma 1 soatda 528 kg natriy silikat pentagidrat ishlab chiqaradi. Agar bir kunda ish vaqti 8 soatni tashkil etadigan bo'lsa,



bir kunda jami 4 tonna 224 kg natriy silikat pentagidrat ishlab chiqariladi. 130 tonna natriy silikat pentagidrat ishlab chiqarish uchun o‘rtacha 31 kun vaqt sarflanadi. Ushbu tizimda ishchi kuchi bir kishini tashkil etishi kifoya. Shuni inobatga olib bu tizimda o‘rtacha oylik ish haqi 5 mln so‘mni tashkil etadi. Hammasi bo‘lib 31 kunda o‘rtacha ish haqi 6 mln so‘mga teng deb belgilab olindi. Keying qismlarda 130 tonna natriy silikat pentagidrat ishlab chiqarish uchun jami xarajatlar quyidagicha ifodalanadi.

130 tonna natriy silikat pentagidrat ishlab chiqarish uchun 216,6667 tonna suyuq shisha sarfalanadi. Suyuq shishaning umumiy narxi o‘rtacha 477 mln so‘m hisoblanadi. Elektr energiya sarfi jami 1240 kW ni tashkil etadi. Elektr energiyaning o‘rtacha narxi 550 ming so‘m. Ishchi kuchining 31 kunlik oylik ish haqi 6 mln so‘m bo‘ladi. Hammasi bo‘lib 483,55 mln so‘mlik mahsulotning tannarxi kelib chiqadi. Bunda 1 kg natriy silikat pentagidratning o‘rtacha narxi 3720 so‘mni tashkil etadi.

Bir yillik ehtiyoj uchun Xitoy davlatidan sotib olinadigan 130 tonna natriy silikat pentagidrat 743,6 mln so‘mni tashkil etib, O‘zbekiston sharoitida aynan shu tonnadagi natriy silikat pentagidratning tannarxi 483,55 mln so‘m ekanligi aniqlandi. Bunda ishlab chiqarish korxonasi bir yilga o‘rtacha 260 mln so‘mlik iqtisodiy samaradorlikka erishadi.

Shunday qilib O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan tozalash vositalariga qo‘llaniladigan natriy silikat pentagidratni taklif etilayotgan usulda foydalanish ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. URL [https://www.made-in-china.com/video-channel/jk-ingredients\\_oBUmugayJqrR\\_Sodium-Metasilicate-Pentahydrate-CAS-No-10213-79-3.html?acc=8642081837-lxy&cpn=20797098137-157334412433&tgt=dsa-2172470005862&net=g&dev=c-&gid=CjwKCAjw9IayBhBJEiwAVuc3flcgqiBYJ8cpJwXDGBDkstA4JEiupXFFNEhXNPoVysPsd1L6FIs9WRoCNJQQAuD\\_BwE&kwd=&mtp=&loc=9075970-gad\\_source=1&gclid=CjwKCAjw9IayBhBJEiwAVuc3flcgqiBYJ8cpJwXDGBDkstA4JEiupXFFNEhXNPoVysPsd1L6FIs9WRoCNJQQAuD\\_BwE](https://www.made-in-china.com/video-channel/jk-ingredients_oBUmugayJqrR_Sodium-Metasilicate-Pentahydrate-CAS-No-10213-79-3.html?acc=8642081837-lxy&cpn=20797098137-157334412433&tgt=dsa-2172470005862&net=g&dev=c-&gid=CjwKCAjw9IayBhBJEiwAVuc3flcgqiBYJ8cpJwXDGBDkstA4JEiupXFFNEhXNPoVysPsd1L6FIs9WRoCNJQQAuD_BwE&kwd=&mtp=&loc=9075970-gad_source=1&gclid=CjwKCAjw9IayBhBJEiwAVuc3flcgqiBYJ8cpJwXDGBDkstA4JEiupXFFNEhXNPoVysPsd1L6FIs9WRoCNJQQAuD_BwE)

## **ОДЕЖДЫ С ЭЛЕМЕНТАМИ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**Махмудова С.Н, Пулатова С.У.**

*Бухарский инженерно-технологический институт*

[makhmudovasn@gmail.com](mailto:makhmudovasn@gmail.com)

Конкурентная борьба среди производителей модной и удобной детской одежды зачастую приводит к применению нестандартных решений с целью привлечения клиентов. Одним из таких решений является создание многофункциональных изделий, которые называются также

трансформируемыми.

Морфологическая трансформация применяется для компенсации возрастной динамики размерных признаков тела детей. Известен ряд приемов, обеспечивающих трансформацию в костюме: растяжение – сжатие; отделение – присоединение; регулирование – фиксация; свертывание – разворачивание; исчезновение – появление; замещение деталей; совмещение – вкладывание; перестановка.

На основе комплексного анализа информации о проектировании детской одежды и взаимодействия элементов системы «внешняя среда – одежда – ребенок» во временном аспекте (учитывая, что за время эксплуатации изделия происходят изменения во внешней среде: климатические, социально-экономические и культурные; в самом изделии: износ, вызванный активностью ростовых процессов у детей, старение материалов и соединений и др.; изменения самого ребенка: морфологические, психофизиологические; а также условия и особенности современного воспитательного процесса) систематизированы требования и обоснован выбор вариантов художественно-конструктивного решения проектируемой коллекции одежды для детей дошкольного возраста, в том числе с использованием принципов трансформации одежды.

Некоторые из видов трансформации, такие, как отделение – присоединение (съемные детали: отделяемые рукава); свертывание – разворачивание (подворачивающиеся манжеты рукава, низа брюк); регулирование – фиксация (регулировка ширины жилета) отдельных предметов и гардероба в целом, а именно, с целью адаптации к внешности ребенка, видоизменения функций одежды, адаптации ее к возрастным, динамическим и климатическим условиям» [5].



Рисунок 1.1. Комплект одежды для детей дошкольного возраста с элементами трансформации: а-одежда для мальчиков, б-одежда для девочек

На основе результатов маркетинговых исследований потребительских требований и предпочтений, изучения ассортимента, представленного в торговых сетях разработан комплект детской повседневной одежды. Для компенсации возрастной динамики размерных признаков тела детей были использованы приемы и средства морфологической трансформации, такие как присоединение-отсоединение, свертывание-развертывание, расширение-сжатие.

В результате изучения эскизов для дальнейшей конструкторско-технологической разработки был выбран комплект детской одежды (рисунок 1.1) состоящий из куртки, трансформируемой в жилет и брюк.

Проектируемые многофункциональные изделия детского гардероба могут изменять свой внешний вид за счет трансформации. В проектируемом многофункциональном изделии применяются следующие виды приемов трансформации: «отделение – присоединение», «свертывание – развертывание», «регулирование – фиксация» [2].

Первый прием трансформации «отделение – присоединение» позволяет зачастую изменить принадлежность изделия к той или иной ассортиментной группе. На рисунках 1.1(а) и (б) представлена трансформация жилета в жакет за счет прикрепления рукава.

Второй прием трансформации в проектируемом детском костюме – «регулирование – фиксация», при помощи которого можно регулировать ширину жилета. На рисунках 1.2 (а), (б) представлена трансформация жилета одного размера в другой за счет регулирования ширины изделий с помощью хлястиков.

### **Список использованной литературы**

1. Шарипова С.И. Исследование и разработка метода проектирования одежды стабильного ассортимента (форменная одежда для учащихся школ). Автореферат дисс. д.ф.т.н.(PhD). Бухара, 2022.16 с.
2. Ларькина Л.В. Разработка технологии проектирования детской одежды с учетом психофизического развития ребенка: диссертация кандидата технических наук: 05.19.04.- Москва, 2001.- 272 с
3. Детская одежда. Построение основных чертежей и моделирование. //Спецвыпуск «Ателье. Детская и подростковая одежда», 2002. с.33-50.
4. Дунаевская Т.Н., Коблякова Е.Б., Ивлева Г.С, Ивлева Р.В. Основы прикладной антропологии и биомеханики. -М.: Информационно-издательский центр МГУДТ. 2005. 280 с.
5. Пулатова С.У., МАхмудова С.Н. Маркетинговые исследования по выбору предпочтительного ассортимента детской одежды. International conference dedicated to the role and importance on innovative education in the 21 st century 2022\7. ISSN:2181-3523, Tashkent, 90-94 б.
6. Пулатова С.У., Махмудова С.Н. Обеспечение эргономического соответствия при проектировании одежды для детей дошкольного возраста. - Монография.Бухара: Vuxoro Nashr, 2023/117 стр.

## **ISTE`MOL BOZORIDAGI BOLALAR KIYIMLARINI HOZIRGI HOLATI**

### **Maxmudova Sitora Nasriddin qizi**

Hozirgi vaqtda korxonalar tomonidan taklif etilayotgan bolalar mahsulotlari ko'pincha narx-navo nisbatiga mos kelmaydi. Barcha manfaatdor tomonlarni (ot-onalar, bolalar, o'qituvchilar) qondiradigan kundalik bolalar kiyimlari uchun maqbul yechimni izlashning dolzarbligi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kiyim-kechak assortimenti va sifatiga zamonaviy iste'molchilar talablarini o'rganish, aholining mavjud bolalar kiyimlaridan norozilik sabablarini aniqlash va ularning sifatini oshirish yo'llarini ishlab chiqish zarurligini belgilaydi. O'zbekistonda, statistika ma'lumotlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar taxminan 3 432 468 kishini tashkil qiladi. Bolalar bizning kelajagimiz, shuning uchun har qanday mamlakat ularning rivojlanishi haqida qayg'uradi. Axir, bugungi bolalar ertaga kattalar bo'lishadi. Va bizning jamiyatimiz qanday shaxslar bo'lishiga bog'liq. Shuning uchun bolalarni o'qitish masalasi dolzarbdir. Axir, bolalar bog'chasida bola atrofdagi dunyoni o'rganadi, boshqa bolalar bilan bog'lanadi.

O'zbekistondagi bolalar bog'chalari, ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi, bola bilim olishni boshlaydigan birinchi joy. O'qishni, yozishni va tashqi dunyo bilan tanishishni o'rganish bolalar bog'chasidan boshlanadi. Bugungi kunda mamlakatda bolalar bog'chalari soni 28842 tani tashkil etadi, ulardan 6482 tasi davlat va 22 312 tasi nodavlat. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida 1,7 million bola tarbiyalanmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, agar 2016 yilda respublikada 5211 ta maktabgacha ta'lim muassasasi mavjud bo'lsa, hozirgi vaqtda ularning soni 2021 yil oxiriga kelib 19 316 taga yetdi, ya'ni deyarli to'rt baravar ko'paydi. Maktabgacha ta'lim qamrovi 62 foizni, 6 yoshli bolalar orasida esa 77 foizni tashkil etdi. Vazirlik maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish va infratuzilmani yaxshilash bo'yicha vazifalarni investitsiya dasturi doirasida hal qiladi.

Bolalar bog'chasi katta ta'lim doirasidagi birinchi bosqich sifatida ajralib turadi. Shu sababli, so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda davlatning tobora ko'proq harakatlarini ko'rish bejiz emas. 2019 yil oxirida O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" alohida Qonuni qabul qilindi. Qonunning nomi shuni ko'rsatadiki, bolalar bog'chasi nafaqat ta'lim olish, balki bolalarni tarbiyalash uchun ham joydir.

Bularning barchasi bolalar kiyim-kechaklarining qisqa muddati bilan birgalikda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ichki kiyim bozorining yuqori sig'imi uchun sharoit yaratadi.

Ko'pgina hollarda, firmalar har bir bola uchun o'ziga xos o'lchamlari bo'yicha alohida-alohida kiyim-kechak ishlab chiqaradilar, bu esa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun "manzilli" kiyim-kechak dizayni metodologiyasini qo'llash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bolalar kiyimlarining turli xil modellarini taklif qiladigan ishlab chiqaruvchilarning yetarli soniga qaramay, aholining ehtiyojlari qondirilmayapti.

Ushbu assortimentni rivojlantirish uchun tashqi qulay sharoitlarda xaridorning

qiziqishi pastligi sababli, bolalar kiyimlarini ishlab chiqarishga kompleks munosabatni aniqlash va ularga iste'molchilar talablarini belgilash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish vazifasi qo'yildi, ularni amalga oshirish sifatini va natijada uning talabini oshiradi.

Marketing tadqiqotlari mahsulotlarni muvaffaqiyatli sotishning eng muhim shartlaridan biri bo'lgan iste'molchilar talabini o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning asosida korxonaning assortiment strategiyasi ishlab chiqiladi, talab prognozlari ishlab chiqiladi.

MGUDDA t.f.d., professor E. B. Koblyakova rahbarligida olib borilgan ko'plab ishlar natijalari asosida iste'molchilarning turli xil assortiment guruhlari mahsulotlariga bo'lgan talabini o'rganish metodologiyasi ishlab chiqilgan. Ushbu metodologiyaga muvofiq sanoat kolleksiyalarining oqilona tuzilishini shakllantirish ko'p o'zgaruvchanlik printsipli asosida amalga oshiriladi, uning mohiyati iste'molchilarning kiyim-kechaklarga bo'lgan turli talablarini maksimal darajada hisobga olishdan iborat.

Iste'molchilarning tikuvchilik mahsulotlariga bo'lgan talabini o'rganish metodologiyasi besh bosqichni o'z ichiga oladi. Metodologiyaning birinchi bosqichida tadqiqot maqsadlari belgilanadi va iste'molchilarni qamrab olish darajasi (ommaviy, tabaqalashtirilgan, maqsadli) bo'yicha marketingni tanlash amalga oshiriladi. Kiyim-kechak sanoati uchun eng maqbul marketing maqsadli marketing bo'lib, u iste'molchilar guruhlari o'rtasida farq qilish (bozor segmentlarini ajratish), ularning bir yoki cheklangan sonini tanlash, tanlangan tipologik guruhlarning ehtiyojlarini o'rganish va ushbu guruhlar uchun sanoat kolleksiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Ikkinchi bosqichda tadqiqot usullari va vositalari (kuzatish, so'rov o'tkazish, eksperiment), auditoriya bilan aloqa qilish shakllari (shaxsiy yoki vositachilik) tanlanadi. Eng keng tarqalgan, arzon va samarali tadqiqot usullaridan biri iste'molchi va uning tovarga munosabati haqida barcha kerakli ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi aholi so'rovi hisoblanadi [60]. Yopiq turdagi anketa so'rovlari keng tarqaldi, chunki ular ishonchli ma'lumot olish imkonini beradi va ma'lumotlarni qayta ishlash va talqin qilishni osonlashtiradi.

Uchinchi bosqichda to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot to'planadi, uni qayta ishlash to'rtinchi bosqichda amalga oshiriladi. Yakuniy beshinchi bosqichda kiyim-kechak modellarining sanoat kolleksiyasini shakllantirishga qaratilgan ishlar mavjud.

Belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq, maqsadli so'rovnoma usuli o'tkazildi. Bolalar tovarlari bozorining o'ziga xos xususiyati, ayniqsa yosh guruhlar uchun xaridor va foydalanuvchining nomuvofiqligi (ota-onalar sotib olish to'g'risida qaror qabul qilishadi va bolalar mahsulotlardan foydalanadilar), so'rov ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida maktabgacha ta'lim muassasalari vakillari sifatida o'tkazildi. Namunaning umumiy hajmi 500 kishini tashkil etdi, tadqiqot 2023 yil davomida Buxoro shahridagi bolalar bog'chalarida o'tkazildi. Namunaviy anketalar 2-ilovada keltirilgan. Ota-onalar uchun so'rovnoma ikki qismdan iborat edi: birinchi qism mijozning ijtimoiy portretini aniqlashga, bolalar kiyimlarini iste'mol qilish bilan bog'liq asosiy masalalarni aniqlashga imkon berdi, savollarning ikkinchi bloki

maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kiyimning badiiy va konstruktiv xususiyatlarini bevosita aniqlashga imkon berdi.

Maktabgacha yosh bir tomondan tanani funktsional qayta qurish va boshqa tomondan bolalar bog'chasi hayotining boshlanishi bilan bog'liq o'zgarishlar bilan ajralib turishi aniqlandi. Bu yoshdagi bolalar uchun maktab kiyimlarini loyihalashda alohida yondashuvni talab qiladi. Bolaning tanasining o'zgaruvchan o'lchovli xususiyatlariga moslashtirilgan bolalar kiyimlarini yaratish uchun dastlabki ma'lumotlarni ishlab chiqish zarurati asoslanadi. Bu mahsulotning ma'naviy va jismoniy aşınma holatiga kelguniga qadar to'liq ishlash davrida mahsulot va bolaning tanasining tashqi shakli mutanosibligini ta'minlaydi.

Funktsional va ergonomik xususiyatlarini oshirish uchun maktab kiyimlarini loyihalashda ergonomik yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqligi asoslanadi.

Bolalar kiyimlarini loyihalash usullarini tahlil qilish asosida statik va dinamik yozishmalar bo'limlarini aniqlash usullarini takomillashtirish yo'llari aniqlandi.

O'tkazilgan marketing tadqiqotlari natijasida bolalar kiyimlarining eng maqbul model-dizayn echimlari ham aniqlandi, bu bolalar kiyimlarining assortimenti, modellari va dizayn echimlarini tanlash bo'yicha dissertatsiya ishini keyingi o'rganishda asos bo'ldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli «2022-2026 yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrda PQ-5285-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori.

3. 2019 yil 16 sentyabrdagi PQ-4453-son «Engil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori.

4. 2019 yil 12 fevraldagi PQ-4186-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

5. 2016 yil 21 dekabrda PQ-2687- sonli «2017 — 2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" gi qarori.

#### **ИГНА ИПИ БИЛАН ТАРАНГЛАГИЧ ТАРЕЛКАЛАРИ ОРАСИДАГИ ИШҚАЛАНИШ КУЧНИ ХИСОБЛАШ**

**С.Дж.Мухамеджанова<sup>1</sup>, О.А.Салимов<sup>2</sup>, О.В.Бекмуродов<sup>2</sup>**


<sup>1</sup>Бухоро муҳандислик-технология институти,

<sup>2</sup>Пешку тумани 1-сон касб-хунар мактаби

Маълумки игна ипини тарелкали таранглигичида ишқаланиш кучи ипнинг таранглагичдан чиқишидаги таранглигини белгилайди. Бу эса ипни игна

орқали халқа хосил қилиш зонасидаги ҳолатига тўғридан-тўғри таъсир кўрсатади. Шунинг учун ишқаланиш кучини сиқувчи пружина бикрлик коэффициентига боғлиқлик қонуниятини аниқлаш муҳим ҳисобланади.

1-расмда тарелкали ип таранглагичда игна ипи билан тарелкалар юзалари орасидаги ишқаланиш кучини сиқувчи пружина бикрлик коэффицентини боғлиқлик графиклари келтирилган. Олинган графиклар тахлилига кўра мавжуд тарелкали ип таранглагичида пружина бикрлик коэффицентини  $0,5 \cdot 10^4 \text{Н/м}$  қийматидан  $3,1 \cdot 10^4 \text{Н/м}$  гача ортганида ип билан тарелкалар орасидаги ишқаланиш кучи  $f = 0,25$  бўлганида  $0,45 \text{ Н}$  дан  $2,15 \text{ Н}$  гача чизикли қонуниятда ортиб боришини кўришимиз мумкин.



бу ерда, 1 –  $f = 0,25$ ; 2 –  $f = 0,30$ ; 3 –  $f = 0,35$

1-расм. Тарелкали ип таранглагичда игна ипи билан тарелкалар юзалари орасидаги ишқаланиш кучини сиқувчи пружина бикрлик коэффицентини боғлиқлик графиклари

Таъкидлаш лозимки, ишқаланиш коэффицентини кўп омилларга боғлиқ, жумладан ип зичлиги, геометрик ўлчамлари, тарелкалар юзаларини ғадур-будурлиги ва бош параметрларига боғлиқдир. Ишқаланиш коэффицентини  $0,35$  қилиб олинганда ишқаланиш кучи  $0,85 \text{ Н}$  дан  $5,96 \text{ Н}$  гача чизикли қонуниятда кўпайиб боришини 2.2-расмдаги 3-графикдан кўришимиз мумкин. Мантикий жиҳатдан ҳам, ишқаланиш коэффицентини кучни пропорционал ортишига олиб келади.


Тавсия қилинган конуссимон икки сиқувчи пружинали ва ўқ бўйича силжиш имкониятига эга бўлган тарелкали ип таранглагич конструкциясида ишқаланиш кучи бир мунча камайишини таъкидлаш мумкин.

2-расмда тавсия қилинган икки пружинали тарелкали таранглагичда ип билан тарелкалар орасидаги ишқаланиш кучини сиқувчи конуссимон пружиналар бикрлик коэффицентларига боғлиқлик графиклари келтирилган.

бу ерда,  $c = c_3 = c_5$ ;  $1,2,3 - c_4 = c_6 = 0,23 \cdot 10^4 \text{Н/м}^3$ ;  $4,5,6 - c_4 = c_6 = 0,34 \cdot 10^4 \text{Н/м}^3$ ;  $1,4 - f = 0,25$ ;  $2,5 - f = 0,30$ ;  $3,6 - f = 0,35$

Шунингдек, тарелкаларни ўқ бўйича тебранишларини минималлаштириш учун олинган графикларда ҳар иккала конуссимон пружиналар бикрликлари бир хил қийматларга эга деб олинди. Бунда, айниқса конуссимон пружиналар бикрликларини ночизикли ташкил этувчилари муҳим рол ўйнаганлиги сабабли

уларни икки хил вариантда ҳисоблаб аниқланди.




2-расм. Тавсия қилинган икки пружинали тарелкали ип таранглагичда ип билан тарелкалар орасидаги ишқаланиш кучини сиқувчи конуссимон пружиналар бикрлик коэффициентларига боғлиқлик графиклари

Жумладан, конуссимон пружиналар бикрлик коэффициентларининг чизикли ташкил этувчилари  $0,45 \cdot 10^4 \text{ Н/м}$  дан  $3,15 \cdot 10^4 \text{ Н/м}$  гача ортирилганда ишқаланиш кучи  $0,21 \text{ Н}$  дан  $1,56 \text{ Н}$  гача очизикли қонуниятда ортиб боради. Бунда  $c_4 = c_6 = 0,23 \cdot 10^4 \text{ Н/м}^3$  қилиб олинган. Лекин уларнинг қийматлари  $0,34 \text{ Н/м}^3$  гача ортганида ишқаланиш кучи  $1,42 \text{ Н}$  гача ортишини кўришимиз мумкин, яъни боғланишларини очизиклиги бир мунча кўпаяди (2-расм, 4-график). Ишқаланиш коэффициенти  $0,35$  гача кўпайганида ишқаланиш кучи  $0,75 \text{ Н}$  дан  $3,71 \text{ Н}$  гача очизикли қонуниятда ортиб боради. Мос равишда конуссимон пружиналар бикрлик коэффициентларини очизикли ташкил этувчиси қийматлари  $0,34 \cdot 10^4 \text{ Н/м}^3$  гача ортганида игна ипини тарелкалар юзалари билан ишқаланиш кучи  $105 \text{ Н}$  дан  $4,32 \text{ Н}$  гача очизикли қонуниятда ортиб боришини  $f = 0,35$  бўлган ҳолда кўришимиз мумкин (2-расм, 6-график). Демак ишқаланиш кучини камайтириш учун асосан тавсия қилинган ип таранглагичнинг конуссимон пружиналари бикрлик коэффициентларини ўзаро тенг қийматларида чизикли ташкил этувчилари  $(2,5 \div 2,8) \cdot 10^4 \text{ Н/м}$  дан, очизикли ташкил этувчилари  $(0,25 \div 0,30) \cdot 10^4 \text{ Н/м}^3$  дан ошмаслиги мақсадга мувофиқдир. Умуман олганда тавсия қилинган икки конуссимон пружинали ўқ бўйлаб силжиши имкониятига эга бўлган тарелкалари бўлган игна ипини таранглигида ишқаланиш кучи мавжуд конструкциядаги (2.1-расм) ип таранглагичга нисбатан  $(15 \div 20)\%$  гача камайишини кўришимиз мумкин.

Маълумки тикув машинаси, иш унуми бош валнинг айланишлар частотасига тўғридан - тўғри боғлиқдир. Бош вални айланиш частотаси ортиши билан игна ипини узатиш тезлиги ортади, мос равишда ип тарангликни ўзгариши ҳисобига уни тарелкалар юзасига таъсир частотаси ортиши кўпаяди. Бунда частота ортиши билан ишқаланиш кучи камайиб боради. Лекин таранглик кучи мос равишда кўпаяди. 3-расмда тавсия қилинган икки сиқувчи пружинали тарелкали ип таранглагичда ип билан тарелкалар орасидаги ишқаланиш кучини бикрлик коэффициентлари ва тикув машинаси иш унумига



боғлиқ графиклари келтирилган. Қурилган графиклар тахлилига асосан, қайд этиш мумкинки, бош вални айланиш частотаси ортиши бикрлик коэффициентлари ортганидаги эгри чизик бўйлаб ортиш интенсивлиги камаяди (2.4-расм 1-график).



бу ерда,  $c = c_3 = c_5$ ; 1,  $-c_4 = c_6 = 0,2 \cdot 10^4$  Н/м; 2 –  $c_4 = c_6 = 0,3 \cdot 10^4$  Н/м;  
 1 –  $k = 0,65$ ;  $n_{б,в} = 4000$  мин<sup>-1</sup>; 2 –  $k = 0,85$ ;  $n_{б,в} = 3500$  мин<sup>-1</sup>

3-расм. Тавсия қилинган икки сиқувчи пружинали тарелкали ип таранглагичда ип билан тарелкалар орасидаги ишқаланиш кучини бикрлик коэффициентлари ва тикув машинаси иш унумига боғлиқлик графиклари

Жумладан, бикрлик коэффициентлари  $0,3 \cdot 10^4$  Н/м дан  $3,12 \cdot 10^4$  Н/м гача ортганида,  $k = 0,65$  ва  $c_4 = c_6 = 0,2 \cdot 10^4$  Н/м<sup>3</sup> бўлганида ишқаланиш кучи 0,21 Н дан 1,0 Н гача нозичли қонуниятга ортса, мос равишда  $c_4 = c_6 = 0,3 \cdot 10^4$  Н/м<sup>3</sup> ва  $k = 0,85$  ( $n_{б,в} = 3500$  мин<sup>-1</sup>) бўлганда ишқаланиш кучи 0,81 Н дан 3,34 Н гача ортишини кўриш мумкин. Демак, иш унумини ортиши ип билан тарелкалар орасидаги ишқаланиш кучи бир мунча камайгани билан, таранглаш кучларини кескин ортишига олиб келади. Тавсия қилинган ип таранглагичда ишқаланиш кучи мавжуд конструкциядаги қийматларга нисбатан иш унумини ортиши имкони юқори бўлади.

### Адабиётлар

1. Ганчини Шухратзода, А.Джураев, М.А.Мансурова, С.Дж.Мухамеджанова, “Разработка конструкции и математическая модель колебаний тарелок натяжения игольной нити швейной машины”/ Фан ва технологиялар тараққиёти илмий–техникавий журнал №3/2019 16-22 б.
2. Баранов Г.Г. Курс теории механизмов и машин, М., «Маш-ние», 1975 г.
3. С. П. Стрелков. Механика: Учебник. -6-е изд., стер.-СПб: Издательство «Лань», 2019. — 560 с.
4. Мансурова Д.С. Влияние параметров упругой связи на характер движения толкателя нижней нити швейной машины [Текст] / Д.С.Мансурова и др. – Россия: Известия ВУЗов, 2008. -№3.
5. Мансурова М.А., Мансурова Д.С., Эрматова Б.П. Расчет натяжения и расход верхней нити нового двухниточного стежка. Материалы МНПК

«Влияние индустриально-инновационной политики и качество образования»  
Тараз, 2012 с. 295-299.

## ИГНА ИПИНИ ТАРЕЛКАЛИ ТАРАНГЛАГИЧЛАРДА ИШҚАЛАНИШ КУЧЛАРИНИ АНИҚЛАШ МЕТОДИ

С.Дж.Мухамеджанова<sup>1</sup>, М.Н.Сайфиддинов<sup>2</sup>, Ш.В.Зиёдуллаева<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Бухоро муҳандислик-технология институти,

<sup>2</sup>Пешику тумани 1-сон касб-хунар мактаби

Тикув машиналарида игна ва моки ипларини керакли тарангликда узатиб бериш натижасида ишчи зонада халқа ҳосил қилиб бахяни олиш муҳим ҳисобланади [68]. Бунда таъкидлаш лозимки, игна ва моки ипларни тарангликлари бахя ҳосил қилиш циклида керакли чегарада ўзгаради. Шунинг учун керакли ип тарангликларини таъминлаш билан бирга иплари узилмасликлари, бахяларни ўтказиб юбормаслик, умуман сифатли чок олиш қатор талабларини амалга ошириш асосий омиллардан ҳисобланади.

Игна ипини таранглигини таъминлаб бериш учун бир қатор классдаги тикув машиналарида кенг миқёсда тарелкали ип таранглагич қўлланилади [4]. Юқорида қайд этганимиздек, мавжуд игна ипини тарелкали таранглагичларида тарелкалардан бирини қўзғалмас қилиб олинганлиги, таранглаш фақат пружинани иккинчи тарелкани биринчисига босиб туриши билан таъминланади. Бунда асосий камчилик шундан иборатки, ип таранглигини ўзгаришида, айниқса кескин ўзгаришида, ипни ўзгаришига олиб келади. Таранглик кучини таъминлаш учун тарелкалар орасидан ўтаётган игна ипи билан ҳосил қилинадиган ишқаланиш кучини ўзгариши асосий кўрсаткичлардан ҳисобланади. Ип билан тарелкалар орасидаги ишқаланиш кучини қиймати қатор омилларга, жумладан сиқувчи пружина бикрлик қийматига, тарелкалар материалига, геометрик ўлчамларига, ипнинг физик-механик хусусиятларига боғлиқ бўлади. Шунинг учун, ушбу параметрларини игна ипи билан тарелкалар орасидаги ишқаланиш кучини ўзгаришига, шунингдек ипни кириш ва чиқишдаги тарангликлари қийматига боғлиқлигини аниқлаш, назарий асосларини топиш асосий вазифалардан ҳисобланади.

1-расмда игна ипини тарелкали таранглагич конструкцияларини бажарилиш вариантлари ҳисоб схемалари келтирилган. Бунда мавжуд тарелкали игна ипини таранглагич ҳисоб схемасида (1-расм, а) чапдаги тарелка 1 қўзғалмас, ўндагиси эса қўзғалувчан бўлиб, пружина 3 орқали ип 2 ни сиқувчи элемент ролини ўйнайди. Бунда ип 2 га қуйидаги кучлар таъсир этади:  $\bar{T}_1, \bar{T}_2$  – кириш ва чиқишдаги таранглик кучлари,  $\bar{N}$  – босим кучи,  $\bar{F}_u$  – ишқаланиш кучи. Таъкидлаш лозимки, ипнинг массаси жуда кичик бўлгани сабабли унинг оғирлик кучини инобатга олмадик.

Ишқаланиш назарияси, Амонтон - Кулон қонунига асосан [69,70]:

$$F_u = fN \quad (2.1)$$

Бу ерда,  $f$  – игна ипи билан тарелкалар орасидаги ишқаланиш коэффициентини,  $N$  – босим кучи.

Босим кучи асосан цилиндрик пружина деформацияланиши ҳисобига ҳосил қилинади, яъни


$$N = c \cdot \Delta x \quad (2.2)$$

$c$  – цилиндрик пружина 3 нинг бикрлик коэффиценти,  $\Delta x$  – пружинани деформацияланиш қиймати.

(2.2)дан кўришиб турибдики тарелкаларга қўйилган босим кучи асосан пружинанинг тикланувчи кучига тенг бўлади. Маълумки [71,72], ишқаланувчи деталларга ҳаракат берилишига тик бўлган тебранишлар берилганда ишқаланиш кучи бирмунча камаяди,

бўғин  $F_u$  камайиши  $\bar{N}$  қийматини ўзгариши ҳисобига бўлади. Ушбу ҳолатни инобатга олиб ишқаланиш кучини аниқлаш ифодасини қуйидагича ҳосил қиламиз:

$$F_u = f \cdot k \cdot c \cdot \Delta x \quad (2.3)$$



1-расм. Игна ипини тарелкали, пружинали конструкцияларини бажарилиш вариантлари ҳисоб схемалари.

1а-бир цилиндрик пружинали; б-бир конуссимон пружинали; в-икки цилиндрик пружинали; г-бир цилиндрик ва бир конуссимон пружинали; д-икки конуссимон пружинали

Бу ерда,  $k$  – босим кучи циклини ўзгаришини инобатга олувчи коэффициент, бизни ҳолатимизда  $k = 0,7 \div 0,8$ .

1 – расмда сиқувчи пружинани конуссимон қилиб олинган вариантдаги ипни таранглагич ҳисоб схемаси келтирилган. Маълумки конуссимон пружиналар бикрликлари нозизиқли коэффициентга ўзгаради [84], яъни қайтарувчи кучи:

$$F_k = c \cdot \Delta x = c_1 \cdot \Delta x + c_2 \cdot \Delta x^3 \quad (2.4)$$

бу ерда,  $\Delta x$  – конуссимон пружина деформацияси қиймати,  $c_1, c_2$  – конуссимон пружина бикрлик коэффициентини чизиқли ва нозизиқли ташкил этувчилари.

Ушбу тарелкали таранглагич учун ип билан тарелкалар орасидаги ишқаланиш кучи қуйидаги ифода орқали аниқланади:

$$F_u = k \cdot f \cdot \Delta x \cdot (c_1 + c_2 \cdot \Delta x^2) \quad (2.5)$$

Мос равишда 2.1 в, г – расмдаги тарелкани ип таранглагичлар учун ип билан тарелкалар юзалари орасидаги ишқаланиш кучини аниқлаш ифодалари қуйидагича бўлади, 2.1 в – расмдаги вариант учун:

$$F_u = k \cdot f \cdot (c'_1 \Delta x'_1 + c'_2 \Delta x'_2) \quad (2.6)$$

бу ерда,  $c'_1$  ва  $c'_2$  – мос пружиналарнинг бикрлик коэффициентлари;  $\Delta x_1$  ва  $\Delta x_2$  – мос цилиндрик пружиналарнинг деформацияланиш қийматлари,

2.1. г – расмдаги схема учун:

$$F_u = k \cdot f \cdot \{c''_3 \Delta x''_1 + \Delta x''_2 [c''_1 + c''_2 (\Delta x''_2)]\} \quad (2.7)$$

Бу ерда,  $c''_3 \Delta x''_1$  – цилиндрик пружина бикрлик коэффициентива деформацияланиш қиймати,  $c''_1, c''_2, \Delta x''_2$  – конуссимон пружинанинг бикрлик коэффициентини чизиқли ва нозизиқли ташкил этувчилари, ҳамда деформацияланиш қиймати. 2.1. д – расмда тавсия қилинган икки конуссимон сиқувчи пружиналари бўлган тарелкали игна ипини таранглагич ҳисоб схемасига асосан ип билан тарелкалар орасидаги ишқаланиш кучини аниқлаш ифодаси қуйидагича аниқланади:

$$F_u = k \cdot f \cdot \{\Delta x_3 [c_3 + c_4 \cdot (\Delta x_3)^2] + \Delta x_4 [c_5 + c_6 \cdot (\Delta x_4)^2]\} \quad (2.8)$$

бу ерда,  $c_3$  (н/м),  $c_4$  (н/м<sup>3</sup>),  $\Delta x_3$  – тарелкали ип таранглагич чап қисмдаги конуссимон пружинанинг бикрлик коэффициентини чизиқли ва нозизиқли ташкил этувчилари, ҳамда деформацияланиш қиймати;  $c_5$  (н/м),  $c_6$  (н/м<sup>3</sup>),  $\Delta x_4$  – ип таранглагичнинг ўнг қисмидаги конуссимон пружинанинг бикрлик коэффициентини чизиқли ва нозизиқли ташкил этувчилари, ҳамда деформацияланиш қиймати.

### Адабиётлар

1. Shukhratzoda G. et al. Mukhamedjanova," Design development and mathematical model of vibrations of plates of the tension regulator of the tension needle

sewing machine //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – 2019. – Т. 6. – №. 7. – С. 10208-10210.

2. Мухамеджанова, Сабрина Джамолитдиновна, and Мансури Дилрабо Сайдулло. "Анализ результатов сравнительных производственных испытаний модернизированной швейной машины с рекомендуемыми натяжными устройствами." *Инновацион технологиялар* 1.4 (48) (2022): 68-71.

3. Ганчини Шухратзода, А.Джураев, М.А.Мансурова, С.Дж.Мухамеджанова, “Разработка конструкции и математическая модель колебаний тарелок натяжения игольной нити швейной машины”/ *Фан ва технологиялар тараққиёти илмий–техникавий журнал №3/2019* 16-22 б.

4. Ганчинина Шухратзода, М.А Мансурова, С.Дж.Мухамеджанова “Эффективная конструктивная схема регулятора натяжения челночной нити шпульного колпачка швейной машины”/ *Академик Х.Х.Усмонхўжаев таваллудининг 100 йиллигига бағишланган Республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами 2-қисм 2, 3, 4 - ШЎЪБАЛАР 20-21 ноябрь Т. 2019, С. 120-122.*

## **BOLALAR KIYIMI KOLLEKSIYALARINI LOYIHALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

**Sharipova S.I.,**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti,*

**M.J.Alimova, D.I.Islomova**

*G‘ijduvon tuman 1-son kab hunar maktabi o‘qituvchilari*

Turli xil assortimentdagi bolalar kiyimlarini loyihalash dizaynerlar va kiyim ishlab chiqaruvchilar uchun ham, alohida ahamiyatga ega. Bolalar uchun modellarni yaratishda, dizaynerlar birinchi navbatda, bolaning qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlari haqida va ayni paytda orzularni amalga oshiring ertaklar, yaxshilik va, albatta, go'zallik haqida o'ylashadi.

Hozirgi vaqtda bolalar kiyimlari assortimentini bir nechta mavjud quyidagilarga guruhlar bo'lish mumkin: mo‘ljallanishiga qarab , zamonaviy materiallarini va kiyimni ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarni qo‘llanishi bo‘yicha bo‘linadi.

Bolalarning yangi o'lchami tipologiyasi yosh chegaralarini belgilaydi:

- yangi tug'ilgan chaqaloqlar (tug'ilgandan 1 yoshgacha);
- yasli guruhi (3 yoshgacha);
- maktabgacha yoshdagi guruh (3 yoshdan 6,5 yoshgacha bo'lgan qizlar va o'g'il bolalar);
- kichik maktab yoshi (6,5 -11 yil 6 oy yoshdan qizlar va o'g'il bolalar);
- katta maktab guruhi (11 yoshdan 7 oygacha -14 yosh va 6 oygacha bo'lgan qizlar va o'g'il bolalar);
- o'smirlar guruhi (14 yosh 7 oydan 17 yoshgacha 11 oy).

Turli yoshdagi bolalar uchun kiyimlar kolleksiyalari va garderoblar yaratishda turli yosh guruhlar alohida loyihalanadi va tuziladi. Zamonaviy bolalar kiyimlari uchun odatiy turli qismlarning to'liqligi va kombinatsiyasiga erishish mumkin, bu bolaga osonlik tuhdiradi, birinchi navbatda, psixologik imkoniyat beradi, turli xil kiyimlarni o'zi uchun yangi usulda tanlashga va birlashtirishga imkon beradi; kompilyatsiya qilishda bolalarning ijodiy ishtiroki bilan kiyim detallarini almashinuvu, bolaga o'z uslubi va obrazini tanlashga yordam beradi va ijodkorlikga undaydi.

Bolalar kolleksiyasini yaratayotganda, unga qo'yiladigan talablarni istemolchi va ishlab chiqaruvchi talablarga bo'lish zarur.

O'z navbatida iste'molchi talablar qo'yidagilarga bo'linadi:

- ijtimoiy;
- funksional;
- ergonomik;
- estetik;
- ekspluatatsion.

Ijtimoiy talablar iste'mol bozorining talabiga xos ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik kabi asosiy talablarga javob beradigan turli assortimentdagi, zamonaviy jamiytdagi shaxsning shakllanishiga ko'maklashadigan bolalar kiyimlarini ishlab chiqarishga javob beradilar. Zamonaviy sharoitda muayyan iste'molchilar, ish beruvchilar va ommaviy ishlab chiqaruvchilar - original mahsulot dizaynining asosiy mijozlari-faoliyatini aks ettiruvchi dizaynerlar uchun talablarni shakllantirish ijtimoiy-madaniy va tarixiy-mintaqaviy xususiyatlarni kutadilar.

Funksional talablar bolalar ma'lum bir maqsad uchun kiyim talablariga muvofiqlik talablarini ifodalaydi (modelning kompozitsion tuzilishiga ko'ra, konstruktiv va dekorativ chiziqlar, materiallarni fizik va mexanik xususiyatlar, bolalarning yoshga bog'liq jismoniy xususiyatlari, tashqi ko'rinishi va psixologik rivojlanish). Bundan tashqari, modelning xarakteri, zamonaviyligi va bezak materiallari va rang echimlariga, bolalarning tilaklariga va didlari mos kelishi kerak. Bunday bolalar kiyimlari optimizm va quvonchli kayfiyati yaratish kerak [1].

Ergonomik talablar to'plamiga quyidagilar kiradi:

- antropometrik;
- gigienik;
- psixofiziologik.

Antropometrik talablar bolalar kiyimining mosligiga tegishli o'lchami, tana shakli va nisbati, turli yosh guruhlaridagi bolaning figurasining strukturaviy xususiyatlari, bajarilgan harakatlarni qamrab oladi. Asosiy e'tiborni "eng o'mizi - yeng" tarkibiy birligiga e'tibor berish kerak - uning turi kostyumning eng harakatlanuvchi qismlari sifatida eng o'mizi bilan bog'lanishlar [2].

Bolalarning xarakterli giperaktivligi uchun noqulay kiyim harakat qilishga xalaqit beradi va bolaning harakatini chegaralaydi. Tor, qalin kostyum tananing o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi - bu holda qon aylanishi buziladi va terining shikastlanishi ehtimoli bor. Tikuv buyumlarining konstruksiyasi sifatini baholash "qulaylik" va "konfor" tushunchalari eng ko'p ishlatiladi. Biroq, qulaylik yoki komfortlik ko'pincha sub'ektiv baholash hisoblanib, ob'ektiv baholashdan ajralib

turadi, chunki odam konstruksiya va ergonomik nuqtai nazardan, kiyimga noratsional moslashadi.

Shu bilan birga, bolalar doim xarakterda bo‘ladilar va kamdan-kam tinch holatda bulishini hisobga olgan holda, kiyim sifatini baholashda ular birinchi o‘ringa dinamik muvofiqlik ko‘rsatkichlari chiqadi.

Bolalarning kiyimlarining dinamik muvofiqligi ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun bolalarning eng xarakterli harakatlari va pozalari tanlanishi kerak.

Bolalar harakatlar to‘plamini tanlashda quyidagi kun davomida bolalar tomonidan amalga oshirilgan mushak-skelet tizimining ishlashiga bog‘liq harakatlarning tasnifi ishlab chiqish kerak.

Bolaning aniq turdagi kiyimni ekspluatatsiyada o‘ziga xos xarakterli xatti-harakatlarini modellashtirishda, shu harakatlarni aniqlash uchun ergonomik tadqiqotlar o‘tkazish kerak.

Gigienik talablar bu, birinchi navbatda, turli assortimentdagi bolalar kiyimlarining sosiy mo‘ljallanishini aniqlab, inson tanasi atrofida optimal mikroiklim yaratish orqali tananing zarur termal holati ta‘minlaydi va tanani salbiy iqlim ta‘siri, ifloslanish va zararlanishlardan himoya qilishdir.

Psixofiziologik talablar kiyimning xususiyatlarida odam tomonidan sezgilarda idrok etiladigan hissiyotlarni amalga oshiriladi, Kiyim bolalarga salbiy reaksiya va noxushlik alomatlarini olib kelmasligi kerak.

Amerikalik psixolog Bruno Gebning fikricha, bolaning rivojlanishida rangning roli muhimdir, ranglar gammasi hal qiluvchi faktor hisoblanadi. Bolalar kiyimida ranglarni uyg‘unligi, birinchi navbatda, kelgusi mavsumning ranglar modasiga emas, balki ilmiy asosda, bolaning yoshini va kiyim mo‘ljallanishini hisobga olgan holda asoslanishi kerak [3].

Kostyunga estetik talablarda modelning mukammal kompozitsiyasi va rang sxemasi, uyg‘unligi, kiyim va uning detallar mutanosibliigi, shaklning plastik ifodaliligi, uning tektonika, predmet muhiti bilan stilistik aloqasi, modelning yangiligi va dizaynlar, tijorat ko‘rinishi aniqlanadi.

Bolalar kiyimlari kolleksiyalarini ishlab chiqish uchun ekspluatatsion talablar juda muhim va kiyimning barqarorligi (uning geometrik ko‘rinishi) bilan bog‘liq shakl bir butun va uning qismlari, shakl yuzasi, moddiy, konstruktiv eritma va boshqalar) tekislik bo‘ylab ishqalanish, burma, ishqalanishga qarshilik va egilish, engil ob-havoga chidamlilik, takroriy cho‘zish, yirtiqqa chidamlilik, quruq tozalash va kir yuvish.

Turli yosh guruhlaridagi bolalar kiyimi kolleksiyasini loyihalashda barcha zamonaviy talablarga javob beradigan, bolalarning psixofizik rivojlanishi, badiiy loyihalash qonunlari va ergonomika hisobga olingan holda amalga oshirilishi kerak. Bolalar uchun kiyim kolleksiyasini ishlab chiqishda, tikuv buyumlarini sirt bo‘linish nuqtalarini, o‘sha joydagi materiallar qatlamlarini va turli materiallar qatlamlari optimal miqdorini tanlashni talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. С.И.Шарипов, М.Латипова. Предпосылки и особенности создания

современной детской форменной одежды // “Олий таълим инновацион фаолияти ва фаол тадбиркорлик интеграцияси ривожлантиришининг муаммолари” мавзусида илмий-амалий анжумани материаллари, Бухоро, 2019, 1-том, 168-170 б.

2. S.I.Sharipova (2021). Factors influencing the design of adolescent uniforms and determining their functions. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), pp. 1315-1319.


3. Б.Геба. Коллекции декоративных тканей, созданные с учётом психологических особенностей детей // *Heintex* 1988. №4.

## ТОЛАНИ ҚАДОҚЛАШНИНГ САМАРАЛИ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Рахимов Ҳакимбай Каримович, Ф.Б Исмойилов

Бухоро муҳандислик-технология институти

Халқаро амалиётда синалган кластер назариясига асосланган тажрибадан фойдаланиш иқтисодиётимизнинг тўқимачилик ва енгил саноат истиқболида муҳим аҳамият касб этади. Ҳар қандай мамлакат, худуд ёки вилоят иқтисодиётининг рақобатбардошлиги, энг аввало жаҳон бозоридаги рақобатбардошлиги орқали аниқланади.



1- расм. Толани қадоқлаш қурилмасини конструктив кўриниши.

Таклиф этилаётган толани қадоқлаш қурилмаси қуйидагича ишлайди. Тола ажратиш жараёнидан кейин тола аррали барабан 1 арралари орқали илиб олинади. Аррали тишларига яхши илаштириш мақсадида босиб берувчи чўтка лойихаланган. Арра тишларига мустаҳкам илашган толани колосник 3 устидан судраб ўтиши натижасида тола тозаланади. Ифлос аралашмалардан тозаланган толани арра тишларидан ечиб олиш мақсадида конденсор 4 ўрнатилган. Конденсор ҳаво оқими билан бир қаторда 5 таъминлагичларга узатади. Таъминлагичлар толани қозчали барабан 6 га бир маромда етказиб туради.



Қозикчали барабан остига тароқ 7 жойлаштирилган. Тароқ ва барабан тишлари орасидан тола қисман параллеллашиб игнали савағич 9 га узатади. Қозикчали барабан ва игнали савағич орсига ростлагич 8 ўрнатилган. Игнали савағич толани саваш билан бир қаторда параллеллаштириш учун хизмат қилади. Игнали савағич толани цемпилли барабан 10 тишлари орқали илиб янада параллеллаштиради. Барабан тишларидан толани ечиб олишда конденсор 11 хизмат қилади. Конденсорнинг тўрли юзасидан тола бир жуфт рифлали валиклар 12 орқали ажратилиб текслаб сиқиб узатувчи валиклар 13 га узатилади. Сиқиб узатилган холстни айланувчи бараблар ёрдамида ўровчи механизм 14 қадоклаш жараёнини бажаради. Машинанинг остига тушадиган майда ифлос аралашмалар ва чанг зарраларини машинадан ҳаво орқали сўриб чиқариш мақсадида компрессор 15 лойиҳаланган.

Ҳозирги кунда ушбу таклиф этилаётган қурилмани пахтани дастлабки ишлаш кластерларида қўллаш зарур. Агар шу машинани тайёрлаб ишлаб чиқаришга қўлланилса толани преслаш, тўкув корхоналарига ташиш, пресланган толани титиш каби харажатлар бўлмайди.

Ушбу технологиядан фойдаланиш нафақат иқтисодий самара балки толани преслаш вақтида шикастламай унинг табиий хусусиятларини сақлаб қолиш имконини яратади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ismoyilov F, Kuldashev E, Abrorov A, Ismoyilov I, Bozorov R Improvement of the machine for wool scutching for obtaining ecologically clean fiber E3S Web of Conferences 390, 01010 (2023)

2. Abrorov A, Kuvoncheva M, Ismoyilov F, Fayziev S, Mukhammadov M Computational analysis of multivariant physical and mechanical experiments on laser hardening of gin disc saws Journal of Physics: Conference Series 2573 (2023) 012038

3. F. B. Ismoyilov, E. I. Kuldashev, N. N. Sattarova and R. R. Bozorov Significance of using a screw cleaner at pretreatment of wool AIP Conf. Proc.2969, 060029 (2024)

4. Ismoyilov F., Khakimov Sh., Khodjayeva M. Loosening wool machines // International Journal of Recent Technology and Engineering, – 2019. – Vol. 8, Issue. 4. – P. 3650-3655. ISSN: 2277-3878.

5. Khakimov Sh.Sh., Ismoyilov F.B. Analysis of The Properties of Wool Raw Materials Obtained in Uzbekistan // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, – 2019. – Vol. 6, Issue. 6. – P. 9723-9728. ISSN: 2350-0328.

6. Ismoyilov F. B., Sattarova N. N. New loosening wool machines // International Journal on Integrated Education, – 2020. – Vol. 3, № 11 (2020). – P. 75-77. ISSN: 2620-3502.

## ПАХТАНИ ДАСТЛАБКИ ИШЛАШДА ТОЛАНИ ҚАДОҚЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ ТАХЛИЛИ.

**Рахимов Ҳакимбай Каримович, Ф.Б Исмойлов\***

*Бухоро муҳандислик-технология институти\**


Пахта толасини қайта ишлашда ресурстежамкор технологияларни ва кластер тизимида пахта хомашёсини ва ундан олинадиган толага ишлов бериш жараёни узлуксиз технологиясини яратишда тола тозалашдан сўнг холст ҳосил қилиб, рақобатбардош маҳсулот олиш ҳозирги кунда долзарб масалаларидан биридир.

Жумладан 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича ҳаракатлар стратегиясида, Пахта хомашёсини йетиштириш сотиш ва қайта ишлиш тизимида бозор механизмларини жорий этиш бунда аввало хомашё йетиштирувчиларнинг моддий манфаатларини оширишни кўзда тутди [1].

Ўзбекистон Республикасининг бозор муносабатларига ўтиш даврида пахта тозалаш корхоналари мутахассисларининг олдига ишлаб чиқариш харажатларини камайтириш билан юқори иш унумдорлигига эришиш, ишлаб чиқарилаётган толанинг сифатини ошириш ва қайта ишлаш жараёнида толанинг йўқолиб кетишининг олдини олиш вазифаларини қўяди.

Худудни ривожлантириш учун кластерли тузилмаларни шакллантириш қўшимча иш ўринларини яратиш, маҳаллий бюджет даромадларини ошириш, ваколатларни тақсимлаш, тадбиркорлик тузилмалари билан ўзаро таъсирлашиш, ахборот айирбошлашни жадаллаштириш ва янгиликларни тарғиб этиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг инновацион фаоллигини ҳамда худудлар инновацион жозибадорлигини юксалтириш, худудий иқтисодиётни диверсификация қилиш каби янги имкониятларни тақдим этади [2].

Иқтисодиётни инновацион тараққий эттиришда, иқтисодий ривожланишнинг анъанавий усуллари етарли даражада фойда бера олмаётган ҳозирги даврда, кластер назариясини амалиётга татбиқ этиш энг мақбул йўл ҳисобланади 1-расм.



1-расм. Кластер тизимининг умумий кўриниши

Кластер тизимини жорий этишда хомашёни ташиш харажатларини камайтиради. Агар пахтани дастлабки ишлаш корхоналарида толани пресламасдан холст олиш жараёни ташкил қилинса ишлаб чиқаришда иқтисодий самарани ошишига эришиш мумкин. Бунда пахтани дастлабки ишлаш жараёнидан кейин шу тизимда йигириш ва тўқиш жараёнлари бажариш керак. Пахтани дастлабки ишлаш корханасининг унумдорлигига тенг йигириш тўқиш технологиясини қўллаш муҳим.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ismoyilov F, Kuldashv E, Abrorov A, Ismoyilov I, Bozorov R Improvement of the machine for wool scutching for obtaining ecologically clean fiber E3S Web of Conferences 390, 01010 (2023)

2. Abrorov A, Kuvoncheva M, Ismoyilov F, Fayziev S, Mukhammadov M Computational analysis of multivariant physical and mechanical experiments on laser hardening of gin disc saws Journal of Physics: Conference Series 2573 (2023) 012038

3. F. B. Ismoyilov, E. I. Kuldashv, N. N. Sattarova and R. R. Bozorov Significance of using a screw cleaner at pretreatment of wool AIP Conf. Proc.2969, 060029 (2024)

4. Ismoyilov F., Khakimov Sh., Khodjayeva M. Loosening wool machines // International Journal of Recent Technology and Engineering, – 2019. – Vol. 8, Issue. 4. – P. 3650-3655. ISSN: 2277-3878.

5. Khakimov Sh.Sh., Ismoyilov F.B. Analysis of The Properties of Wool Raw Materials Obtained in Uzbekistan // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, – 2019. – Vol. 6, Issue. 6. – P. 9723-9728. ISSN: 2350-0328.

## KIMYO SANOATIDA YANGI INNOVATSION QOTISHMALARNI QO‘LLASHNING TEXNOLOGIYALARI

**Nasriddinov Eldor Yaminovich** ,,

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*

*Tel.:(99893)6866966; [nasriddinoveldor6966@gmail.com](mailto:nasriddinoveldor6966@gmail.com)*

**Xujaqulova Dilbar Jurakulovna**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*

*Tel.: (998995893234); E-mail: [xujakulovadilbar72@gmail.com](mailto:xujakulovadilbar72@gmail.com)*

**Aslonov Behzod Mavlon o‘g‘li,**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*

*Tel.: (99899)4869091; E-mail: [behzodaslonov1122@gmail.com](mailto:behzodaslonov1122@gmail.com)*

Kimyoda yangi materiallarni yaratish biomaslashuvchan xomashyoni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi, ularning asosiy farqi uning yaxshilangan tibbiy va texnik xususiyatlari. U mozaikli hidrofilik-hidrofobik sirt, uglerod va ftor o'z ichiga olgan qoplama bilan tavsiflanadi. Bu, shuningdek, molekulalar va hujayralar kabi biologik tuzilmalar ishlatilgan gibrud materialni o'z ichiga oladi. Ko'rib chiqilayotgan xom ashyoni qo'llash doirasi tibbiyot, oziq-ovqat va neft-kimyosanoatidir.

Bugungi kunda kimyoviy mahsulotlar sinflariga xos bo'lgan zamonaviy tuzilmalar va xususiyatlarning ma'lumotlar banklari shakllantirilmoqda. Molekulyar va supramolekulyar tuzilmalar loyihalashtiriladi, sintez jarayoni va ishlab chiqarish ishlarining texnologik

Qotishmalar tarkibiga ko'ra: gemogen, geterogen, intermetal qotishmalarga bo'linadi. Qotishmalar xossalari turli-tumanligi bilan sanoatda va maishiy turmushda keng qo'llaniladi. Qotishmalarni tarkibiga ko'ra quyidagilarga ajratish mumkin:

**Po'lat.** Tarkibi 1,7% gacha C va qo'shimchalardan Mn, Si, S, P bor bo'lgan qotishma hisoblanadi. Ular sof temirga qaraganda ancha qattiq hisoblanadi. Tarkibidagi moddalarga qarab quyidagilarga ajratish mumkin: marganesli po'lat; Fe 83%, Mn 12%, C 1% – sisternalar tayyorlashda va maydalashda; xrom po'lati - Fe 83,7%, Cr 12%, C 0,3% – zanglamaydigan po'lat sifatida; volframli po'lat Fe 70-85%, W 12-23%, Cr 2-6%, C 0,5-0,6% – tez kesar asboblarni tayyorlashda ishlatiladi.

**Cho'yan.** C 2% dan yuqori, Si, P, S, Mn bilan hosil qilgan qorishmalar kiradi. Bu qotishma temirga nisbatan ancha qattiq lekin mo'rt. Undan turli uskunalar, stanok va dvigatellarning kompuslari, kanalizatsiyalari va vodoprovod trubinalari, qozonlar, tovalar, plitalar tayyorlashda ishlatiladi.

**Bronza** – misning metallar bilan qotishmasi kiradi. Tarkibiga ko'ra qalayli bronza, alyuminiy bronza, kremniy bronza, qo'rg'oshinli bronzalarga bo'linadi. Bulardan badiiy quyma buyumlar tayyorlanadi.

**Latun** – mis va ruxning 30-35% gacha rux bo'ladi qotishmasidan tayyorlanadi. U nihoyatda katta plastik xususiyatga ega. Undan uy-ro'zg'or ashyolari, asboblari, mashinalarni detallari tayyorlanadi.

**Babbit** – qo'rg'oshinli babbitt tarkibi Pb 80-82%, Sn 16-18%; qalayli babbitt

tarkibi Sn 82-84% surma 10-12%, mis 6% boshqa metallar qo‘shib tayyorlanadi. Podshibniklar, mashinasozlikda, turli quymalar tayyorlashda ishlatiladi.

**Nixrom.** Tarkibi nikel 67,5%, xrom 15%, temir 16% va marganes 45% dan iborat bo‘lgan qotishma. Bu qotishma elektr qarshiligi katta va issiqqa bordoshli bo‘lganligi sababli elektr asboblari tayyorlashda ishlatiladi.

Kavshar «Tretnik» qalay 50% va indiydan 50% iborat bo‘lib, shisha va metallarni kavsharlashda ishlatiladi.

**Pobidit.** U qattiqligi jihatdan olmos yaqin turadi. Tarkibi; uglerod, volfram va kobaltdan iborat. Metallurgiyada tog‘-kon sanoatida tog‘ jinslarini burg‘ulashda ishlatiladi.

**Duraluyminiy** – alyuminiy 95%, magniy, mis, marganes qotishmasidan iborat. U juda yengil va mustahkam, po‘latdan 3 marta yengil, mustahkamligi jihatidan po‘latga teng. Samaliyotsozlikda ishlatiladi.

Titanik. Titan asosida olingan qotishmalar yuqori bosim va temperaturaga, korroziyaga chidamli bo‘lganligi sababli reaktiv dvigatellarning alohida qismlari tayyorlanadi. Texnikada 5000dan ortiq qotishmalar tayyorlanadi va ishlatiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Advanced Materials" - журнал, охватывающий широкий спектр тем по инновационным материалам.

2. "Journal of Materials Chemistry" - журнал, который публикует исследования в области химии материалов, включая инновационные химические материалы.

3. "Nature Materials" - научный журнал, посвященный передовым исследованиям в области материалов и их приложений.

4. "Advanced Functional Materials" - журнал, ориентированный на разработку новых функциональных материалов.

5. "Chemical Reviews" - обзорный журнал, включающий статьи по современным достижениям в химии, включая новые материалы.

## **РЕШЕНИЕ ЗАДАЧ ЛИНЕЙНОЙ ТЕОРИИ ТЕРМОВЯЗКОУПРУГОСТИ**

**Т.Мавланов<sup>1</sup>, А.Ж.Адизова<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> "Национальный исследовательский университет" Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства, Узбекистан

<sup>2</sup> Бухарский инженерно-технологический институт, Узбекистан

Использование прочностные резервы материала приводит к необходимости учета нелинейности. В известной монографии на основании работ Вольтерры развиваются идеи о представлении связи между деформациями, напряжениями и временем в виде ряда многократных интегралов. Там же предложены эффективные методы решения задач линейной теории термовязкоупругости, рассмотрены задачи динамики и прочности. Основываясь на выше изложенное, в одномерном и линейном случаях получим

уравнение движение вязкоупругой нити.

$$a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} = \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + a^2 \int_0^t R(t-\tau) \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} d\tau, \quad a^2 = E/\rho, \quad (1)$$

где  $E$  -модуль упругости;  $\rho$  -плотность.

К уравнению (1) необходимо присоединить соответствующие граничные и начальные условия. Для рассматриваемого участка нити примем закон изменения скорости линейным

$$v = v_0 - bt,$$

$b$  ускорение конца нити, определяемое непосредственным измерением. В данном случае  $b = 0.02$ . Полагая один конец нити закрепленным ( $u(0, t) = 0$ ), зададим закон движения другого конца

$$u(l, t) = v_0 t - 0.5bt^2.$$

Далее запишем начальные условия

$$u(x, 0) = 0; \quad \dot{u}(l, 0) = v_0$$

Так как граничные условия неоднородные, решение уравнение (1) представим в виде суммы двух функций  $z(x, t)$ ,  $y(x, t)$ .

$$u(x, t) = z(x, t) + y(x, t). \quad (2)$$

Вспомогательная функция  $z(x, t)$  должна удовлетворять условию  $z(x, t) = (x/l)u(l, t)$ . Другая неизвестная функция  $y(x, t)$  будет определяться как решение интегро-дифференциального уравнения

$$a^2 \frac{\partial^2 y}{\partial x^2} = \frac{\partial^2 y}{\partial t^2} + a^2 \int_0^t \Gamma(t-\tau) \frac{\partial^2 y}{\partial x^2} d\tau - (b/l)x, \quad (3)$$

с нулевыми граничным и начальным условиями. Уравнение (3) представим в виде

$$a^2 \frac{\partial^2 y}{\partial x^2} + (b/l)x = \frac{\partial^2 y}{\partial t^2} + a^2 \int_0^t \Gamma(t-\tau) \frac{\partial^2 y}{\partial x^2} d\tau \quad (4)$$

Решение (4) представим в виде суммы двух функций

$$y(x, t) = y_0(x) + y_1(x, t),$$

где  $y_0(x)$ -функция, зависящая от координаты  $x$  и удовлетворяет нулевым граничным условиям;  $y_1(x, t)$ -функция двух координат и удовлетворяет уравнению

$$a^2 \frac{\partial^2 y}{\partial x^2} = \frac{\partial^2 y}{\partial t^2} + a^2 \int_0^t \Gamma(t-\tau) \frac{\partial^2 y}{\partial x^2} d\tau \quad (5)$$

с нулевыми граничными условиями

$$y_1(0, t) = 0; \quad y_1(l, t) = 0 \quad (6)$$

и начальными условиями

$$y_1(x, 0) = -bx(l^2 - x^2)/6a^2l; \quad \dot{y}_1(x, 0) = 0. \quad (7)$$

В рассматриваемом случае  $y_0(x)$  можно принимать в виде

$$y_0(x) = bx(l^2 - x^2)/6a^2l \quad (8)$$

После применения к уравнению (5) процедуру Бубнова-Галеркина и используя метод усреднения, получим выражение для определения смещения сечений нити в произвольный момент времени

$$u(x,t) = x(v_0 t - 0.5bt^2)/l + \sum_{n=1}^{\infty} \exp(-0.5\Gamma_s \lambda_n t) [(-1)^n bl^2 \cos(1 - 0.5\Gamma_c) \lambda_n t / (6la^2) - (-1)^n 2v_0 l \sin(1 - 0.5\Gamma_c) \lambda_n t / (a(\pi n)^2)] \sin \lambda_n x / a + bx(l^2 - x^2) / 6la^2, \quad (9)$$

где

$$\lambda_n = \pi n a / l; \quad \Gamma_s = \int_0^{\infty} \Gamma(\tau) \sin \lambda \tau d\tau; \quad \Gamma_c = \int_0^{\infty} \Gamma(\tau) \cos \lambda \tau d\tau.$$

Деформация нити связана с перемещениями формулой

$$\varepsilon = \frac{\partial u}{\partial x} = (v_0 t - 0.5bt^2)/l + \sum_{n=1}^{\infty} \exp(-0.5\Gamma_s \lambda_n t) [(-1)^n bl^2 \cos(1 - 0.5\Gamma_c) \lambda_n t / (6la^2) - (-1)^n 2v_0 l \sin(1 - 0.5\Gamma_c) \lambda_n t / (a(\pi n)^2)] (\lambda_n a) \cos \lambda_n x / a + b(l^2 - 3x^2) / 6la^2, \quad (10)$$

Из решения (10) видно, что перемещения являются затухающими колебаниями. Отсюда следует, что процесс распространения возмущений в нити складывается из движения частиц нити, приводящего к возрастанию деформаций, и затухания амплитуды свободных ее колебаний.

#### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Мавланов Т. Динамика вязкоупругих осесимметричных и призматических конструкций. Расчеты на прочность М.: Машиностроение, 1987. Вып. 28, с. 186-199.
2. D.A.Zokirova, A.J.Adizova. “Torch Vibrations of a Viscoelastic Shell with a Viscous Liquid”. World wide journal of multidisciplinary research and development, June 2019, page 5-9. [https://discoveryjournals.org/engineering/current\\_issue/2019/A16.pdf](https://discoveryjournals.org/engineering/current_issue/2019/A16.pdf)
3. G.Abdieva, A. Adizova, T.Mavlanov, D.Rakhimova Modeling the process of deformation of viscoelastic textile materials. ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 11, Issue 4, April 2021, pages 322-327//Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492//ISSN:2249-7137//India. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=4&article=054>
4. A Adizova, G Abdieva, T Mavlanov. Modeling the process of deformation of viscoelastic threads. SCOPUS “AIP Conference Proceedings”, Volume 2402, Issue 1Published Online: 15 November 2021,USA. <https://aip.scitation.org/doi/pdf/10.1063/5.0071968>
5. **А.Ж.Адизова. Композицион материалларнинг статик ва динамик юкланишдаги таранглик характеристикаларини аниқлаш.** “Ученый XXI века”, международный научный журнал № 5-1 (86), апрель 2022 г. стр. 4-5. [https://uch21vek.com/5-1\\_2022.html](https://uch21vek.com/5-1_2022.html)
6. Sh M Salimov, G U Yusupov, G B Abdiyeva, Computer modeling of strain process of flexible rods with nonlinear and viscoelastic characteristics, International Scientific Conference, Construction Mechanics, Hudraulics and Water Resources Engineering CONMECHYDRO, 2020

7. **А.Ж.Адизова. Решение задач линейной теории термовязкоупругости.** “Ученый XXI века”, международный научный журнал № 5-1 (86), апрель 2022 г. стр. 4-5. [https://uch21vek.com/5-1\\_2022.html](https://uch21vek.com/5-1_2022.html)

## МЕХАНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ВОЛОКОН ПРИ ПРИЛОЖЕНИИ ВНЕШНИХ СИЛ

Т.Мавланов<sup>1</sup>, А.Ж.Адизова<sup>2</sup>

<sup>1</sup> "Национальный исследовательский университет" Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства, Узбекистан

<sup>2</sup>Бухарский инженерно-технологический институт, Узбекистан

Текстильные волокна характеризуются геометрическими, механическими, физическими и химическими свойствами.

Механические свойства волокон проявляются при приложении внешних сил, среди которых растягивающие и изгибающие силы имеют наибольшее значение. При приложении растягивающего усилия до полного разрушения волокна определяют следующие характеристики.

*Разрывное усилие (нагрузка)  $P_p$ , сН (сотые доли Ньютона) ( $r_c$ ),* – наибольшее усилие, испытываемое волокном к моменту его разрыва. Разрывной нагрузкой характеризуется прочность волокон.

*Разрывное напряжение  $\sigma_p$ , МПа,* характеризует разрывную нагрузку, приходящуюся на единицу площади поперечного сечения; оно определяется по формуле:

$$\sigma_p = 0,01 P_p / S \quad (1)$$

*Удельное разрывное усилие (нагрузка)  $P_y$ , сН / текс (гс / текс),* характеризует разрывную нагрузку, приходящуюся на единицу толщины:

$$P_y = P_p / T \quad (2)$$

При приложении растягивающей нагрузки волокно деформируется, изменяя свои размеры. Деформация оценивается следующими характеристиками.

*Абсолютное разрывное удлинение  $l_p$ , мм,* показывает увеличение длины волокна к моменту разрыва:

$$l_p = L_p - L_0 \quad (3)$$

где  $L_p$  – длина образца к моменту разрыва, мм;  $L_0$  – начальная длина образца волокна, мм.

*Относительное разрывное удлинение  $\varepsilon_p$ , %,* показывает, какую часть от первоначальной длины образца составляет его абсолютное удлинение к моменту разрыва:

$$\varepsilon_p = 100 l_p / L_0 \quad (4)$$

При приложении растягивающих усилий меньше разрывных и последующей разгрузке и отдыхе определяют полную деформацию и ее составные части (компоненты).

*Полная деформация  $\varepsilon_{пол}$ , %,* – деформация, которую приобретает волокно к



концу периода нагружения. Полная деформация (удлинение) волокна, возникающая под действием нагрузки близкой к разрывной (без доведения волокна до разрыва).

*Упругая деформация*  $\varepsilon_y$ , % – часть полной деформации, которая практически мгновенно (за десятитысячные доли секунды) исчезает при прекращении действия внешней силы. Она является следствием действия небольших изменений средних расстояний между звеньями и атомами макромолекул при сохранении связей между ними.

*Эластическая деформация*  $\varepsilon_z$ , % – часть полной деформации, которая возникает при нагружении и исчезает после разгрузки постепенно. Она связана с перегруппировкой и изменением конформации макромолекул, что, как известно, протекает во времени с различной скоростью.

*Эластичность волокна* показывает, какую долю в полной деформации составляет ее обратимая часть; чаще всего она выражается в процентах.

*Пластическая деформация*  $\varepsilon_p$ , % – не исчезающая часть полной деформации. Она обусловлена необратимыми смещениями структурных элементов волокон и отдельных макромолекул, а также возможным разрывом макромолекул под действием внешних сил.

Упругая деформация и часть эластической деформации с очень высокой скоростью проявления составляют быстро обратимую компоненту полной деформации, пластическая и часть эластической с очень малой скоростью исчезновения – остаточную компоненту, остальная часть деформации – медленнообратимую.

От соотношения упругого, эластического и пластического удлинения, которыми обладает волокно, зависит степень сменяемости текстильных изделий, их способность сохранять форму.

### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

2. Мавланов Т. Динамика вязкоупругих осесимметричных и призматических конструкций. Расчеты на прочность М.: Машиностроение, 1987. Вып. 28, с. 186-199.
2. D.A.Zokirova, A.J.Adizova. “Torch Vibrations of a Viscoelastic Shell with a Viscous Liquid”. World wide journal of multidisciplinary research and development, June 2019, page 5-9. [https://discoveryjournals.org/engineering/current\\_issue/2019/A16.pdf](https://discoveryjournals.org/engineering/current_issue/2019/A16.pdf)
3. G.Abdieva, A. Adizova, T.Mavlanov, D.Rakhimova Modeling the process of deformation of viscoelastic textile materials. ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 11, Issue 4, April 2021, pages 322-327//Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492//ISSN:2249-7137//India. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=4&article=054>
4. A Adizova, G Abdieva, T Mavlanov. Modeling the process of deformation of viscoelastic threads. SCOPUS “AIP Conference Proceedings”, Volume 2402, Issue 1Published Online: 15 November 2021,USA.

<https://aip.scitation.org/doi/pdf/10.1063/5.0071968>

5. А.Ж.Адизова. Композицион материалларнинг статик ва динамик юкланишдаги таранглик характеристикаларини аниқлаш. “Ученый XXI века”, международный научный журнал № 5-1 (86), апрель 2022 г. стр. 4-5. [https://uch21vek.com/5-1\\_2022.html](https://uch21vek.com/5-1_2022.html)

6. Sh M Salimov, G U Yusupov, G B Abdiyeva, Computer modeling of strain process of flexible rods with nonlinear and viscoelastic characteristics, International Scientific Conference, Construction Mechanics, Hudraulics and Water Resources Engineering CONMECHYDRO, 2020

8. А.Ж.Адизова. Решение задач линейной теории термовязкоупругости. “Ученый XXI века”, международный научный журнал № 5-1 (86), апрель 2022 г. стр. 4-5. [https://uch21vek.com/5-1\\_2022.html](https://uch21vek.com/5-1_2022.html)

## ҚАТТИҚ ЖИСМНИНГ МУВОЗНАТ ТЕНГЛАМАСИНИ МУМКИН БЎЛГАН КЎЧИШ ПРИНЦИПИ АСОСИДА ЧИҚАРИШ

А.Ж.Адизова, 300-22 ЕСТ гуруҳ талабаси М.Д.Холмуродова

*Бухоро муҳандислик-технология институти*

Мумкин бўлган кўчиш принципи берилган кучлар таъсиридаги маълум боғланишлар қўйилган механик системанинг мувозанат шартини ифодалайди. “Мувозанат” сўзи “тинч ҳолат”га эквивалент бўлмай, моддий нуқталар системасига қараганда кўпроқ унга таъсир этувчи кучлар системасига тааллуқлидир. Ҳақиқатан ҳам, моддий нуқтага таъсир этувчи кучлар ўзаро мувозанатлашган бўлишига қарамай, моддий нуқта тинч ҳолатда бўлмай, тўғри чизиқли текис ҳаракатда бўлиши мумкин.

1788 йилда Лагранж идеал, стационар ва бўшатмайдиган боғланишлар қўйилган моддий нуқталар системасининг мувозанати ҳақидаги мумкин бўлган кўчиш принципини баён этди. Бу принципни Ньютон қонунларидан фойдаланиб исботлаш мумкин.

*Мумкин бўлган кўчиш принципи. Актив кучлар таъсиридаги идеал, бўшатмайдиган ва стационар боғланишлар қўйилган механик система мувозанатда бўлиши учун система нуқталарининг ҳар қандай мумкин бўлган кўчишида барча актив кучлар элементар ишларининг йиғиндиси ҳамда система барча нуқталарининг бошланғич тезликлари нолга тенг бўлиши зарур ва етарлидир, яъни*

$$\sum A = \sum \bar{F}_k \cdot \delta \bar{r}_k = 0. \quad (1)$$


З а р у р л и г и.  $N$  та моддий нуқталардан ташкил топган механик система мувозанатда бўлсин. Системанинг бу мувозанат ҳолатидан ҳар қандай мумкин бўлган кўчишида барча актив кучлар элементар ишларининг йиғиндиси нолга тенг бўлишини исботлаймиз.

Системанинг бирор  $A_k$  нуқтасини олиб, унга таъсир этувчи актив кучлар ҳамда боғланиш реакция кучларининг тенг таъсир этувчиларини  $\bar{F}_k$  ва  $\bar{N}_k$  билан белгилаймиз (9-расм.)  $A_k$  нуқтага қўйилган боғланишлар таъсири боғланиш

реакция кучи билан алмаштирилганлиги туфайли бу нукта эркин нукта деб қаралади. Механик система мувозанатда бўлгани учун унинг ҳар бир  $A_k$  нуктаси ҳам мувозанатда бўлади. Шу сабабли

$$\vec{F}_k + \vec{N}_k = 0, (k = \overline{1, N}) \quad (2)$$

тенгламалар ўринли бўлади.



Системанинг ҳар бир  $A_k$  нуктасига  $\delta \vec{r}_k$  мумкин бўлган кўчиш бериб, (2) нинг иккала томонини  $\delta \vec{r}_k$  га скаляр кўпайтирамиз:

$$\vec{F}_k \cdot \delta \vec{r}_k + \vec{N}_k \cdot \delta \vec{r}_k = 0, (k = \overline{1, N}).$$

Бу тенгликларни кўшиб қуйидагини оламиз:

$$\sum \vec{F}_k \cdot \delta \vec{r}_k + \sum \vec{N}_k \cdot \delta \vec{r}_k = 0. \quad (3)$$

Система нукталарига қўйилган боғланишлар идеал боғланишлардан иборат бўлгани учун

$$\sum \vec{N}_k \cdot \delta \vec{r}_k = 0.$$

Шу сабабли (3) дан исбот қилиниши талаб этилган (1) тенгликни оламиз.

**Е т а р л и г и г и.** (1) шарт бажарилса, система мувозанатда бўлишини исботлаш учун мулоҳазани тескарисидан бошлаймиз. Дастлаб мувозанатда бўлган система нукталарига  $\vec{F}_k$  актив кучлар таъсир этиши натижасида (1) шарт бажарилишига қарамай, системанинг бирор  $A_k$  нуктаси ҳаракатга келади деб қарайлик. Бошқача қилиб айтганда,  $A_k$  нуктага таъсир этувчи  $\vec{F}_k$  ва  $\vec{N}_k$  кучларнинг тенг таъсир этувчиси  $\vec{R}'_k$  нолга тенг бўлмасин (2-расм). Дастлаб  $A_k$  нукта тинч ҳолатда бўлгани учун  $\vec{R}'_k$  куч таъсирида  $A_k$  нукта бу кучнинг таъсир чизиғи бўйича йўналган бирор  $d\vec{r}_k$  ҳақиқий кўчиш олади. Системага қўйилган боғланишлар стационар бўлгани учун  $d\vec{r}_k$  ҳақиқий кўчиш бирор  $\delta \vec{r}_k$  мумкин бўлган кўчиш билан устма-уст тушади ва бу кўчиш учун

$$\vec{R}'_k \cdot \delta \vec{r}_k = (\vec{F}_k + \vec{N}_k) \delta \vec{r}_k > 0$$

бўлади. Системанинг барча нукталари учун бундай тенгсизликларни ёзиб, уларни қўшсак,

$$\sum \vec{F}_k \cdot \delta \vec{r}_k + \sum \vec{N}_k \cdot \delta \vec{r}_k > 0$$

муносабатни оламиз.

Система нукталарига қўйилган боғланишлар идеал боғланишлардан иборат бўлгани учун

$$\sum \vec{N}_k \cdot \delta \vec{r}_k = 0.$$

Шу сабабли қуйидаги тенгсизлик ўринли бўлади:  $\sum \vec{F}_k \cdot \delta \vec{r}_k > 0$ . Лекин, бу натижа қабул қилинган (1) шартга зиддир. Бинобарин, бу шарт бажарилганда система мувозанатда бўлиши керак. Шундай қилиб, (1) шарт ҳақиқатан ҳам механик система мувозанатининг зарур ва етарли шартини ифодалашини

исботладик.

(1) тенглама *статиканинг умумий тенгламаси* дейилади. Бу принцип Лагранжнинг мумкин бўлган кўчиш принципи деб ҳам юритилади.

Мумкин бўлган кўчиш принципнинг Декарт координата ўқларидаги ифодаси қуйидагича ёзилади:

$$\sum (X_k \delta x_k + Y_k \delta y_k + Z_k \delta z_k) = 0. \quad (1)$$

Агар механик система нуқталарига стационар бўлмаган боғланишлар қўйилган бўлса, у ҳолда система нуқталари ҳаракатланувчи ёки деформацияланувчи сиртлар устида қолиши керак. Мумкин бўлган кўчиш эса вақтнинг ҳар бир пайтида сирт бўйлаб кўчишдан иборат. Бинобарин, стационар бўлмаган боғланишлар қўйилган системага мумкин бўлган кўчиш принципи қўллаш натижасида система нуқталарининг сиртлар устидаги нисбий мувозанати аниқланади.

Статикада чиқарилган қаттиқ жисм мувозанат тенгламалари мумкин бўлган кўчиш принципи асосида чиқарилган мувозанат шартининг хусусий ҳоли эканлигини кўрсатамиз.

Фараз қилайлик, эркин абсолют қаттиқ жисм берилган бўлсин. Жисмнинг умумий мувозанат шартини ёзамиз:

$$\sum (\bar{F}_k, \delta \bar{r}_k) = 0, \quad (k = \overline{1, n})$$

Бунда,  $\bar{F}_k$  – қўйилган куч,  $\delta \bar{r}_k$  – жисмнинг  $M_k$  нуқтасининг мумкин бўлган кўчиши. Абсолют қаттиқ жисмнинг ҳар қандай элементар кўчиши унинг илгариланма кўчиши билан кўзғалмас ўқ атрофидаги айланма кўчишига тенглиги кинематикадан маълум.  $M_k$  нуқта учун бу кўчиш қуйидагича ёзилади:

$$\delta \bar{r}_k = \delta \bar{r}_0 + [\delta \varphi, \bar{r}_k].$$

$\delta \bar{r}_k$  нинг қийматини мувозанат шартига қўйсак:

$$\sum (\bar{F}_k, \delta \bar{r}_0 + [\delta \varphi, \bar{r}_k]) = 0, \quad (k = \overline{1, n})$$

келиб чиқади. Бундан:

$$\sum (\bar{F}_k, \delta \bar{r}_0) + \sum (\bar{F}_k, [\delta \varphi, \bar{r}_k]) = 0.$$

Бу тенгликнинг иккинчи қисмини қуйидагича ўзгартириб ёзамиз:

$$(\bar{F}_k, [\delta \varphi, \bar{r}_k]) = ([\bar{r}_k, \bar{F}_k], \delta \varphi).$$

Шу кўзда тутилса, юқоридаги тенглама қуйидаги кўринишда ёзилади:

$$\sum (\bar{F}_k, \delta \bar{r}_0) + \sum ([\bar{r}_k, \bar{F}_k], \delta \varphi) = 0.$$

$\delta \bar{r}_0$  билан  $\delta \varphi$  – жисмнинг ҳамма нуқталари учун бир хилда бўлганидан, уларни йиғинди белгисидан ташқарига чиқаришимиз мумкин:

$$(\delta \bar{r}_0, \sum \bar{F}_k) + (\delta \varphi, \sum [\bar{r}_k, \bar{F}_k]) = 0, \quad (k = \overline{1, n}). \quad (5)$$

$\delta \bar{r}_0$  ва  $\delta \varphi$  – бир-бирига боғлиқсиз ихтиёрий катталиклар бўлганлигидан, улар олдидаги йиғиндилар ноль бўлганда, яъни:

$$\left. \begin{aligned} \sum \bar{F}_k &= 0, \\ \sum [\bar{r}_k, \bar{F}_k] &= 0 \end{aligned} \right\} \quad (6)$$

бўлганидагина (5) бажарилиши мумкин. (6) қаттиқ жисмга қўйилган кучларнинг бош вектори билан бош моментининг нолга тенглигини ифодалайди.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. П. Шоҳайдарова ва бошқалар. "Назарий механика". Т. Ўқитувчи 1990.- 407 б.
2. М.М.Муродов, Х.М.Иноятова, К.У.Уснатдинов. "Назарий механика" Т. ИСТИҚЛОЛ. 2004. -208 б.

## JISM HARAKATIDA UNING MASSASINING O'ZGARISHI

**A.J.Adizova,**

**300-22 YeST guruh talabasi T.Sh. Jumazarov**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*

Texnikada jismlarning massasi vaqtiga bog'liq ravishda o'zgaradigan masalalar ko'p uchraydi. Bunda jismlarning massasi undan zarralarning ajralishi yoki unda tashqaridan zarralarning qo'shilishi natijasida o'zgaradi.

$m$  massali  $r$  radiusli jism

$$r = r_0 + \alpha t, \quad (1)$$

To select the parameters of the experimental setup, we took this feature into account for selecting the initial parameters of this final distillation apparatus, which is currently used.

In our case, for the experimental setup, the following parameters were selected: the initial mass flow rate- $G_G$ , the density of the miscell- $\rho_L$ , the nozzle radius-- $r_{nozz}$ , and the nozzle diameter- $d_{nozz}$ .

To calculate the Weber number, you will need the initial velocity of the miscella, and it can be calculated from the parameters of the initial flow of the miscella using the following formula:

$$\omega_L = \frac{G_L}{S_L} \quad (6)$$

where,  $S_L$  – is the cross-sectional area of the misc nozzle, which is equal to:  
 $S_L = \pi \cdot r_L^2$

To calculate the Weber number, we first calculate the volume flow rate of the miscella<sup>5</sup>:

$$G_L = \frac{q_L}{\rho_L}$$

After determining the volume flow rate of the miscella, its initial velocity can be calculated:

$$\omega_L = \frac{G_L}{S_L}$$

Gas phase parameters: the volume flow rate of the gas phase is-- $G_G$ , the radius of the gas phase nozzle is- $r_G$ , the density of the gas phase at a temperature of 130°C is- $\rho_G$

Therefore, the cross-sectional area of the gas phase nozzle is determined as follows:

<sup>4</sup> Козырев А.В., Ситников А.Г. Испарение сферической капли в газе среднего давления. // Успехи физических наук. Том 171, № 7. Июль 2001 г. Стр. 766-774.

<sup>5</sup> Фролов С.М., Сметанюк В.А. Тепло- и массообмен капли с газовым потоком. // Химическая физика, 2006, том 25, № 4, с. 42-54.

$$S_G = \pi \cdot r_G^2$$

Thus, we determine the initial velocity of the gas phase using the following formula.

$$\omega_G = \frac{G_G}{S_G}$$

Now you can determine the relative speed of the phases.

$$\omega = |\omega_G - \omega_L|, \frac{M}{\text{сек}}$$

According to the above method, the following results were determined: - the length of the initial section of the gas jet when the initial volume flow rate changes.

Figure 1. Relationship between the length of the initial section and the initial flow rate.

As the gas flow increases, the length of the initial section increases. From this it can be seen that at a gas jet flow rate of 0.1, the length of the initial section will be in the range of 35-40 mm, and the length of the confuser of the designed installation is 180 mm. In the remaining parts of the confuser, after the initial section of  $\approx 140$  mm, the gas jet and the miscella jet are mixed.

Relationship between the Weber number and the initial relative velocity.

Figure 2. Relation of relative velocity and Weber number.

Figure 2 shows that when selecting the above initial data, the relative velocity was greater than  $\omega=90$  m/s in order to achieve the initial droplet crushing ( $We \geq 10$ ).

It can be seen that for a velocity greater than  $\omega=$ , the Weber number  $We > 10$ , so that when selecting the remaining initial data for the initial velocity of the gas phase,  $We > 10$ , the droplet is crushed.

To further determine the diameter of the drop, and to determine the evaporation time, we use one-dimensional ordinary differential equations for the drop.

To derive the equation of motion in a one-dimensional formulation, we use the second Newton's law:

$$m_d \frac{du}{dt} = -\frac{1}{2} K \cdot u^2 \quad (7)$$

where  $K = \frac{1}{2} \rho_g \cdot A^2 \cdot C_d$

Here:  $A$ —is the cross-sectional area,  $C_d$  is the drag coefficient of the drop.

$$m_d = \frac{4}{3} \pi \rho_{\text{ж}} R^3 = \frac{4}{3} \pi \rho_{\text{ж}} \left( R_0 - \sqrt{2 \cdot D \cdot t \cdot \frac{\rho_r}{\rho_{\text{ж}}}} \right)^3$$

Integrating both parts (7) we get

$$\int \frac{du}{u^2} = -\frac{1}{2} \int \frac{dt}{m_d} \quad (8)$$

We introduce the notation

$$b = 2 \cdot D \cdot \frac{\rho_r}{\rho_{\text{ж}}} \quad k1 = \frac{4}{3} \pi \rho_{\text{ж}} \quad a = R_0 \quad (9)$$

Given (9), equation (8) is written as

$$\int \frac{du}{u^2} = \int \frac{K dt}{k1(R_0 - \sqrt{bt})} \quad (10)$$



The left part of (10) is easily integrated; for the right part, we introduce the notation

$$a - \sqrt{bt} = z, \quad t = \frac{1}{b}(a - z)^2, \quad dt = \frac{2}{b}(a - z)dz \quad (11)$$

After inserting (11) into (10) on the right side, we get

$$\frac{K}{K_1} \int \frac{\frac{2}{b}(a-z)dz}{z^3} = \frac{K}{K_1} \int \frac{\frac{2}{b}adz}{z^3} - \int \frac{\frac{2}{b}z}{z^3} dz = \frac{K}{K_1} \left[ -\frac{2a}{b} \frac{z^{-2}}{-2} - \frac{2}{b} \frac{z^{-1}}{-1} \right] + C \quad (12)$$

Inserting (10) into (11) given (9) we get

$$-\frac{1}{u} = -\frac{2K}{K_1} \left[ -\frac{a}{b} \frac{1}{(a-\sqrt{bt})^2} + \frac{2}{b} \frac{1}{a-\sqrt{bt}} \right] \quad (13)$$

Modifying (13) we come to the equation

$$u = \frac{b \cdot K_1 \cdot (a - \sqrt{bt})^2}{2(a - \sqrt{bt}) - a} \quad (14)$$

The mass of particles evaporating per second from a drop, in our example, is equal to

$$\frac{dm}{dt} = -\frac{D \cdot \rho_g}{R} \cdot 4\pi R^2 \quad (15)$$

On the other hand,  $m = \frac{4}{3}\pi R^3 \rho_{\text{liq}}$ , so taking the derivative on both sides we get

On the other hand, so taking the derivative on both sides we get

$$\frac{dm}{dt} = \frac{4}{3}\pi \rho_{\text{ж}} \frac{dR^3}{dt} = 4\pi \rho_{\text{ж}} R^2 \frac{dR}{dt} \quad (16)$$

If we equate (15) and (16) by making some simplifications, we get,

$$\frac{dR}{dt} = -\frac{D}{R} \cdot \frac{\rho_g}{\rho_{\text{ж}}} \quad (17)$$

(17) we will convert to the form

$$R \cdot dR = -D \cdot \frac{\rho_g}{\rho_{\text{ж}}} dt \quad (18)$$

Integrating (18) and taking into account the initial condition, we get

$$R^2 - R_0^2 = -2 \cdot D \cdot \frac{\rho_g}{\rho_{\text{ж}}} t \quad (19)$$

From here

$$R^2 = R_0^2 - 2 \cdot D \cdot \frac{\rho_g}{\rho_{\text{ж}}} t \quad \text{и}$$

$$R = \sqrt{R_1^2 - 2 \cdot D \cdot \frac{\rho_g}{\rho_{\text{ж}}} t} \quad (20)$$

where  $R_1 = R_0^2$

Figure 3 shows the process of decreasing the drop radius over time for different initial values of the gas phase density. It can be seen that with a higher initial density of the gas phase, the drop radius decreases faster and tends to zero.

Figure 3. decrease in the size of the micelle drop relative to the initial density of the gas phase. (\*-  $\rho_{\text{ж}} = 0,4$ ; +-  $\rho_{\text{ж}} = 0,5$ .)

Figure 4 shows the process of decreasing the longitudinal velocity over time for different initial values of the gas phase temperature (density). It can be seen that at a higher initial temperature, the speed decreases faster.

Figure 4. Reduction of the gas phase velocity relative to the initial temperature of the gas phase. (\*-  $T_0=100^{\circ}C$ , +-  $T_0=130^{\circ}C$ .)

Thus, with the initial velocity of the gas phase of 100 m/s, after half a second, the velocity drops to about 9 m/s. at this stage, the drop radius in figure 1 is 0.00006=60 microns. After one second, the drop radius will be 0.00003=30 microns.

In the above proposed method, we studied the factors that effectively affect the hydrodynamic structures of phase flows, in order to improve the design of the apparatus, in which the final distillation process takes place on the basis of multi-stage spraying of a vegetable oil misc with a nozzle.

Using the proposed research method, we studied the structure of hydrodynamic phase flows on a new design of the final distiller by multi-stage spraying of vegetable oil misc. The calculated equation (1) is obtained for determining the mass of the volatile component, which depends on the diffusion coefficient and the radius of the misc drop during spray distillation with a nozzle. Based on the obtained calculation equation, the effect of the diffusion coefficient, which depends on the radius of the misc drop, is studied.

At the same time, the radius of the misc drop formed in the final distillation apparatus with a spray nozzle is determined. The process of crushing a misc drop is studied, and the effect of the ratio of the parameters of the external aerodynamic forces and the surface tension forces of the liquid on the Weber number is determined.

These studies can be used for solving problems on mass transfer processes in research works.

#### **The list of used literatures**

1. Островский Г.М. Новый справочник химика и технолога. Процессы и аппараты химических технологий. Ч. 2. СПб.: Проффессионал. 2006. -920 с.

2. Ф.Ю.Ҳабибов. Кунгабоқардан ёғ олшида хом ашёни пресшлашга тайёрлаш жараёни // “Қишлоқ хўжалик махсулотларини ишлаб чиқариш, сақлаш ва қайта ишлашнинг тежамкор технологиялари ва уларнинг инновацион ечимлари” мавзусида Республика илмий ва илмий-техник анжумани. 2017. Фарғона. -24-25 б.

3. Flock A.K., Guildenbecher D.R., Chen J., Sojka P.E., Bauer H.J. Experimental statistics of droplet trajectory and air flow during aerodynamic fragmentation of liquid drops // Intern. J. of Multiphase Flow. 2012. Vol. 47. P. 37–49.

4. М.С.Нарзиев, Ф.Ю.Ҳабибов. Использование методологии экспериментального планирования для изучения процесса окончательной дистилляции растительных масел // “Олий таълим инновацион фаолияти ва фаол тадбиркорлик интеграцияси ривожланишининг муаммолари” мавзусида профессор-ўқитувчилар, илмий изланувчилар, магистрлар ва талабаларнинг илмий-амалий анжумани материаллари. II-том. 17-19 апрель, 2019. - Бухоро. - 96-98 б.

М. S. Narziev, O. R. Abdurakhmanov, F. Y. Khabibov, Karimova, D. sh. Investigation of flow hydrodynamic structures in the final distillation of a cotton miccella. "Problems and prospects of development of innovative cooperation in research and training." Bukhara. 2017.- Pp. 52-53

5. Zhang Hui, Li Xingang, Gao Xin. A method for modeling a catalytic distillation process based on seepage catalytic packing internal. Chemical engineering science. 2013.-P.699-711.

## TIKUV MASHINASI TAVSIYA ETILGAN TARKIBLI G‘ALTAGIDAN CHIQUYOTGAN IPNING TARANGLIGINI ANIQLASH

Z.S.Vafayeva, Sh.H.Behbudov, N.U.Samadova

Tikuv mashinasi g‘altagining konstruksiyasi moki ipini o‘rash va yechishda taranglikning bir tekisligini ta‘minlaydi va bu ipning uziluvchanligini kamaytirishga, mashina ishining tezligini oshishiga olib keladi.

Tavsiya etilgan moki g‘altagini konstruktiv sxemasiga asosan ip tarangligini holat sxemasi 1-rasmda keltirilgan.

Tarkibli g‘altakka o‘ralgan ipni gazlamalarni tikish jarayonida chiqarib olish uchun g‘altakni qarshilik kuchi momentini, ya‘ni ishqalanish kuchi momentini yengish kerak bo‘ladi. Tadqiqotlar asosida ushbu ishqalanish kuchi momentini aniqlash formulasi quyidagicha olingan:

$$M_{ish} = \frac{2\pi f r_1 \cdot k}{a+t} (alq + C\Delta) \quad (1)$$

bu yerda, f-moki ipi bilan g‘altakning barmoqchasi orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti; a -barmoq eni; t-barmoqlar orasidagi masofa; C- rezinali vtulka bikrlilik koeffitsiyenti;  $r_1$ -ipni chiqarilayotgan holatidagi radiusi; q -moki ipini barmoq ta‘sir qiluvchi taqsimlangan bosim kuchini o‘rtacha qiymati; k -g‘altakning barmoqlar soni;  $\Delta$ - rezinali vtulka o‘rtacha deformatsiyasi qiymati; l –g‘altak eni ipni uzunligi;  $\pi=3,14$ .

U holda, g‘altakdan chiqarilayotgan ipning tarangligiga asosan:

$$T_1 = \frac{M_{ish}}{r_1} = \frac{2\pi f r_1 \cdot k (alq + C\Delta)}{(r_v + h_b + \Delta_1)(a+t)} \quad 2$$

bu yerda,  $r_v$ -rezina vtulka tashqi aylanalari radiusi;  $h_b$ -barmoqni vtulkalari chiqib turish balandligi;  $\Delta_1$ -o‘ralgan ip o‘ramlari qalinligi.

G‘altakdan chiqayotgan ip korpusi tashqi sirtida joylashgan prujinali plastina orasidan o‘tadi. Bunda ip bilan plastina va korpus orasidagi ishqalanish kuchini yengib o‘tish kerak bo‘ladi. U holda, g‘altakdan chiqayotgan ipning tarangligi  $T_1$ , prujinali plastinadan chiqishidagi ip tarangligi  $T_2$  bo‘lsa, hisob sxemasiga asosan (1-rasm):

$$T_2 = T_1 + F_{u1} \quad (3.)$$

bo‘ladi, bunda:

$$F_{u1} = C_1 \cdot \Delta\varphi f_1 l \quad (4)$$

$C_1$ -plastinali prujina bikrlilik koeffitsiyenti;  $f_1$ - prujinali plastina va ip orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti;  $\Delta\varphi$ -plastina deformatsiyalanishidagi burchagi.

U holda, moki ipini baxya hosil qilish zonasiga uzatilishidagi tarangligi:

$$T_2 = \frac{2\pi f r_1 \cdot k (\alpha lq + C\Delta)}{(r_v + h_b + \Delta_1)(a+t)} + \Delta\varphi f_1 l \quad (5)$$

Moki ipi va tikilayotgan gazlama orasidagi ishqalanish kuchi qo‘shimcha taranglikni oshiradi. Ushbu taranglik kuchi:

$$F_{u2}=f_2 \cdot P_m \quad (6)$$

bu yerda,  $f_2$ -ip va gazlama orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti;  $P_m$ -gazlamani deformatsiyalanishidagi bosim kuchi.

Moki va igna iplarini o‘zaro ta‘siridagi hosil bo‘ladigan taranglik kuchini aniqlaymiz. Bunda moki ipi igna ipini qamrov burchagi  $\beta$  bo‘lganida Eyler formulasidan foydalanib aniqlaymiz.

$$T_u=T_m e^{f_3(2\pi-\beta)} \quad (7)$$

bu yerda,  $f_3$ -moki va igna iplari orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti;  $T_m$ -kiruvchi taranglik kuchi;  $T_u$ -chiquvchi taranglik kuchi;  $\beta$ -qamrov burchagi;  $e = 2,72$ .

U holda, baxya hosil qilishdagi moki ipining umumiy tarangligi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$T_u = \left[ \frac{2\pi f r_1 \cdot k (\alpha l \square + C\Delta)}{(r_v + h_b + \Delta_1)(a+t)} + C_1 \Delta \varphi f_1 l + f_2 P_m \right] e^{f_3(2\pi-\beta)} \quad (8)$$

Parametrlarning berilgan qiymatlari chegarasidagi hisoblar asosida moki ipining baxyalarni hosil qilishidagi taranglik kuchlarini qiymatlari aniqlandi. Bunda, parametrlar qiymatlari o‘zgarishiga qarab, moki ipi tarangligini o‘zgarish qonuniyatlari grafiklar shaklida olindi.

$$1,2-T_u=f(k); \quad 3,4-T_u==f(M_{ish}); \\ 1,3- C_1=6,0 \cdot 10^2 \text{ n/m}; \quad 2,4- C_1=7,5 \cdot 10^2 \text{ n/m};$$

Jumladan, 2.-rasmda tashuv jarayonida mokining ipini o‘rtacha tarangligini ip bilan g‘altak orasidagi ishqalanish kuchlari momenti va barmoqchalar soniga bog‘liqlik grafiklari keltirilgan. Ularning tahliliga ko‘ra, moki g‘altagi barmoqlari bilan moki ipi orasidagi ishqalanish kuchi momenti  $0,6 \cdot 10^{-2}$  n/m dan  $3,6 \cdot 10^{-2}$  n/m gacha ortganida moki ipi tarangligi  $C_1=6,0 \cdot 10^2$  n/m bo‘lganida,  $T_u$  qiymatlari  $0,92 \cdot 10$  cH dan  $4,15 \cdot 10$  cH gacha chiziqli bog‘lanishda ortib boradi. Mos ravishda  $C_1=7,5 \cdot 10^2$  n/m bo‘lganida esa,  $T_u$  qiymatlari  $1,01 \cdot 10$  cH dan  $6,05 \cdot 10$  cH gacha ortib borishi aniqlandi.

### Адабиётлар рўйхати

1. Гарбарук В.Н. «Расчет и конструкторуирование основных механизмов челночных швейных машин». -Л., «Машиностроение» 1977 г., 232с.
2. Вальщиков Н.М. и др. «Расчет и проектирование машин швейного производства». –Ленинград: «Машиностроение», 1973 г.,
3. В.А. Зинавьев, А.П.Бессоков. Основы динамики машинных агрегатов. Изд-во. «Машиностроение», М, 1964 г., 229с.
4. И.И. Артобалеvский. Теория механизмов и машин, Изд-во. “физматмет”, М., 1968, 640с.

## MOKI IPI TARANGLIKLARINI GRAFIK BOG‘LIQLIKLARI

**Z.S Vafayeva, SH.H Bexbudov,N.U Samadova**

Ma‘lumki, moki g‘altagining tavsiya etilgan konstruksiyasida barmoqlar sonini ortishi bilan ip bilan ta‘sirlashish yuzasi ham ko‘payadi. Shuning uchun barmoqlar sonini moki ipi tarangligiga ta‘sirini o‘rganish muhimdir. 1 – grafiklarda ushbu

holatni, ya'ni  $K$  qiymatlarini  $T_u$  ni o'zgarishiga bog'liqligi keltirilgan.  $C_1=6,0 \cdot 10^2$  n/m bo'lganida va barmoqlar soni 8 tagacha ortganida  $T_u$  qiymatlari  $0,19 \cdot 10$  cH dan  $1,77 \cdot 10$  cH gacha chiziqli qonuniyatda ortib borsa,  $S_1=7,5 \cdot 10^2$  n/m bo'lganida esa, moki ipi tarangligi baxya qatorlarni hosil qilishdagi tarangligi  $0,21 \cdot 10$  cH dan  $2,23 \cdot 10$  cH gacha chiziqli bog'lanishda ko'payadi. Taranglikni kamaytirish uchun barmoqlar sonini kamaytirish kerak bo'ladi. Lekin, barmoqlarni 6 tadan kamaytirib yuborilsa, ipni g'altakka o'ralish notekisligi ortib ketadi. Shuning uchun moki ipi tarangligini ( $50 \div 55$ ) cH dan oshmasligini ta'minlash uchun  $K=(6 \div 8)$ ;  $M_{ish} \leq (3,0 \div 3,4) \cdot 10^{-2}$  n/m bo'lishi tavsiya etiladi.

Moki ipining tarangligini yuqori bo'lmasdan uning o'zgarish qamrovi kichikroq bo'lishi ko'p jihatdan plastinali prujina tarangligi va moki g'altagi rezinali vtulkasining bikrligiga bog'liq bo'ladi.

$$1,2-T_u=f(s); \quad 3,4-T_u=f(S_1); \\ 1,3- \Delta_1=6,5 \cdot 10^{-3} \text{ m}; \quad 2,4- \Delta_1=4,0 \cdot 10^{-3} \text{ m};$$

**1-rasm. Tikuv jarayonida mokining ipini baxya hosil qilishdagi o'rtacha taranglik kuchini o'zgarishini g'altak rezinali vtulkasi va taranglash plastinali prujinasi bikrlilik koeffitsiyentlariga bog'liqlik grafiklari.**

1-rasmda tikuv jarayonida mokining ipini baxya hosil qilishdagi o'rtacha taranglik kuchini o'zgarishini g'altak rezinali vtulkasi va taranglash plastinali prujinasi bikrlilik koeffitsiyentlariga bog'liqlik grafiklari keltirilgan. Tahlillarga asosan, quyidagilarni qayd qilish mumkin. Bunda  $C$  va  $C_1$  larning ortishi bilan moki ipining baxya qatorlarini hosil qilish jarayonidagi taranglik kuchi nochiziqli qonuniyatda ko'payib boradi. Jumladan, taranglovchi plastina bikrlilik koeffitsiyenti qiymatlari  $2,8 \cdot 10^2$  n/m dan  $7,9 \cdot 10^2$  n/m gacha ko'payganida moki ipining tarangligi  $\Delta_1=6,5 \cdot 10^{-3}$  m bo'lganida (g'altakka o'ralgan ip o'ramlari qalinligi),  $T_u$  ning qiymatlari  $0,84 \cdot 10$  cH dan  $5,43 \cdot 10$  cH gacha chiziqsiz bog'lanishda ortib boradi. Bunda g'altak rezinali vtulkasi bikrlilik koeffitsiyenti shu qiymatlarda olinganda esa,  $T_u$  ning qiymatlari  $0,26 \cdot 10$  cH dan  $2,23 \cdot 10$  cH gacha ko'payadi xolos. Demak,  $S_1$  qiymatini ortishi  $T_u$  ni o'zgarishigacha salmoqli ta'sir qiladi.

Agarda g'altakdagi ip o'ramlari qalinligi kamaysa, tarangligi mos ravishda ortib boradi. Ip o'ramlari qalinligi  $4,0 \cdot 10^{-3}$  m gacha kamayganda, baxyani hosil qilishdagi moki ipining taranglik kuchi  $C_1$  bo'yicha qaralganda  $T_u$  qiymatlari  $1,8 \cdot 10$  cH dan  $6,22 \cdot 10$  cH gacha nochiziqli qonuniyatda ko'payadi. Mos ravishda rezinali vtulka bikrlilik koeffitsiyenti  $S$  bo'yicha qaralganda esa,  $T_u$  qiymatlari mos ravishda  $1,05 \cdot 10$  cH dan  $3,17 \cdot 10$  cH gacha chiziqsiz bog'lanishda ortib boradi. Shuning uchun moki ipining taranglik kuchini ( $50 \div 55$ ) cH dan oshmasligini ta'minlash uchun mokining qayishqoq elementlari bikrlilik koeffitsiyentlari tavsiya qiymatlari: Takidlash kerakki, moki ipining tarangligiga moki g'altagi geometrik o'lchamlari to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.  $C=(5,45 \div 6,65) \cdot 10^2$  n/m;  $C_1=(6,5 \div 7,2) \cdot 10^2$  n/m:

$$1,2-T_u=f(\alpha); \quad 3,4-T_u=f(rv); \\ 1,3- C_1=6,0 \cdot 10^2 \text{ n/m}; \quad 2,4- C_1=7,5 \cdot 10^2 \text{ n/m};$$

Tikuv mashinasida baxyalarni hosil qilishda moki ipini taranglik kuchini o'zgarishini ipni g'altakdagi radiusi va barmoqchalar enini o'zgarishiga bog'liqlik

grafiklari keltirilgan. Qurilgan grafiklar tahlil qilinganda, moki g'altagi o'zgaruvchan (ip o'ramlari qalinligi) bo'lganida, ya'ni  $r_v$  qiymatlari  $0,25 \cdot 10^{-2}$  m dan  $1,5 \cdot 10^{-2}$  m gacha ko'payganida va  $C_1 = 6,0 \cdot 10^2$  n/m bo'lganida moki ipi taranglik kuchi baxyalarni hosil qilish vatqida  $3,85 \cdot 10$  cH dan  $1,76 \cdot 10$  cH gacha chiziqli qonuniyatda kamaysa,  $C_1 = 7,5 \cdot 10^2$  n/m bo'lganida esa,  $T_u$  qiymatlari  $6,19 \cdot 10$  cH dan  $2,23 \cdot 10$  cH gacha chiziqli bog'lanishda pasayib boradi. Chunki  $r_b$  g'altakdagi ip radiusi ortishi bilan ipni g'altakdan chiqarish osonroq bo'ladi, katta kuch sarf qilinmaydi. Lekin, g'altakdagi zaxirasini katta bo'lishi moki o'lchamlarini ortishiga olib keladi. Shuning uchun tavsiya qilingan moki g'altagidagi ipli o'ramlar bo'yicha radiusini  $(0,75 \div 0,95) \cdot 10^{-2}$  m dan kichik bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlash lozimki, moki g'altagi barmoqlari enini ortishi ip bilan ta'sirlashish yuzasini ko'paytiradi, mos ravishda ishqalanish kuchi ortadi, demak, taranglash kuchi ham ortadi. Olingan grafiklar analiz qilinganda, barmoq eni  $1,2 \cdot 10^{-3}$  m dan  $2,4 \cdot 10^{-3}$  m gacha ko'payganida va  $S_1 = 6,0 \cdot 10^2$  n/m bo'lganida  $T_u$  qiymatlari mos ravishda  $0,19 \cdot 10$  cH dan  $1,23 \cdot 10$  cH gacha juda kichik oraliqda nochiziqli bog'lanishda ortib boradi. Shuningdek,  $S_1 = 7,5 \cdot 10^2$  n/m bo'lganida esa,  $T_u$  qiymatlari  $0,41 \cdot 10$  cH dan  $2,09 \cdot 10$  cH gacha chiziqsiz bog'lanishda ortib boradi. Demak moki g'altagi barmoqchalari soni 8 tagacha bo'lishi uchun barmoqlarni enini tavsiya qiymatlari  $a \leq (1,4 \div 1,8) \cdot 10^{-3}$  m.

Moki ipining taranglik kuchi qiymatlariga ipning harakatlanish qismlaridagi ishqalanish ko'effitsiyentlari qiymatlari yetarlicha ta'sir ko'rsatadi.

$$1-T_u = f(f_2); \quad 2-T_u = f(f_3);$$

$$3-T_u = f(f); \quad 4-T_u = f(f_1);$$

### **3-rasm. Tikuv mashinasida moki ipining taranglik kuchini o'zgarishini ip harakati yo'nalishidagi ishqalanish zonalaridagi ishqalanish ko'effitsiyentlarini o'zgarishlariga bog'liqlik grafiklari**

3-rasmda tikuv mashinasida moki ipining taranglik kuchini o'zgarishini ip harakati yo'nalishidagi ishqalanish zonalaridagi ishqalanish ko'effitsiyentlari o'zgarishlariga bog'liqlik grafiklari keltirilgan. Bog'lanish grafiklari tahlili shuni ko'rsatadiki, moki ipining taranglik kuchiga  $f_1, f_2$ , va  $f_3$  qiymatlarini o'zgarishi chiziqli bog'lanishda ta'sir ko'rsatadi. Bunda eng asosiy ta'sir taranglovchi plastinali prujina bilan moki ipi orasidagi ishqalanish ko'effitsiyenti bo'lib  $f_1$  qiymatlari  $0,08$  dan  $0,3$  gacha ortganida  $T_u$  qiymatlari  $1,92 \cdot 10$  cH dan  $5,79 \cdot 10$  cH gacha chiziqli bog'lanishda ortib boradi. Shuningdek, moki ipini g'altak bilan orasidagi ishqalanish ko'effitsiyenti  $f_3$  ni ortishi  $T_u$  sezilarli darajada ko'paytiradi

***Arxitektura va qurilish buyumlari ishlab chiqarish sanoati  
samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari.***

**KIMYOVIY KOMPOZITSIYALAR YORDAMIDA GIPS QURILISH  
MATERIALLARINING SUV SHIMUVCHANLIGINI KAMAYTIRISH  
IMKONIYATLARI**

**Raximov Firuz Fazlidinovich PhD, dotsent.**  
**Saidova Gulnoza Iskandarovna 522-20 MMT guruh talabasi**  
*Buxoro muhandislik texnologiya instituti*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada qurilish materiallarining suv shimuvchanligini kamaytirish maqsadida mahalliy xomashyolar va sanoat ikkilamchi xomashyolari asosidagi polimer kompozitsiyalardan foydalanilgan. Shuningdek gost talablari asosida sinov usullari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** gips, suv talabchalik, suv shimuvchanlik, siloksan.

Hozirgi kunda gips va gips maxsulotlarining boshqa materiallarga nisbatan eng avzal tomonlaridan biri uning ekalogik tozaligi va inson hayotiga zararsizligidir. Bundan tashqari gips asosidagi materiallar zichligining o'rtachaligi yetarli mustahkamlikka egaligi issiqlik va tovush izolyatsion qobiliyatiga qisman ega ekanligi qurilish materiallari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo gipsning asosiy kamchiliklardan biri suv muhitiga chidamsizligi hamda namlik ta'sirida plastik deformatsiyaning me'yordan oshib kerishi va shu kabilar kiradi. Ushbu kamchiliklarni inobatga olgan holda gips asosidagi qurilish materiallari bino inshootlarning nam tegmaydigan qismlarida keng qo'llab kelinmoqda.

Dunyo miqyosida tabiiy xomashyoni tejash va nanga qarshi himoyalangan materiallar ishlab chiqarishga talab juda katta. Jumladan, qurilish materiallarini gidrofobligini oshirib ularni turli sohalarda unumli qo'llash, inovatsion g'oyalarni oldinga olib chiqish, hamyonbop va inson organizmi uchun zararsiz materiallarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Qurilish materiallarini gidrofobik himoyalash maqsadida kremniyorganik moddalardan keng qo'llanilib kelinmoqda.

Yuqoridagilarga asoslanib, gips tarkibli qurilish materiallarining xossalari yaxshilash, nambardosh gips maxsulotlarini yaratish maqsadida fenolfarmaldegid va teraetoksisilan asosida yangi turdagi polimer sintez qilindi va sintez maxsuloti asosida kompozitsiya yaratildi.

Ushbu polimer yordamida gipsning gidrofizik xossalari yaxshilash, shuningdek, xomashyo tejamkorligiga asoslanib iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida turli tarkibli kompozitsiyalar tayyorlandi. Kompozitsiya tarkibidagi komponentlarning gips massasiga (1200 g) nisbatan miqdorlari 1 – jadvalda keltirgan.

1 – jadval

## 1200 g massali gipsga nisbatan qo'llanilgan kompozitsiya tarkibi

Na mu na t/r	PV A, ml	Suv ml	Fenolformal degid teraetoksisil an, ml	Suyu q shish a, ml	Tika n, g	G'o'zapo ya, g	Keramz it, g	Chaq iq tosh, g	Marm ar, g
1		15	2	2	3		8		
2	2	15	2	2		3		8	
3		15	2	2	3				8
4	2	15	2	2	3				8
5	2	15	2	2	3		8		
6		15	2	2	3			8	
7		15	2	2		3	8		

Gidrofob gips olish maqsadida tayyorlangan 1 – jadval miqdorlari asosidagi kompozitsiyalar bilan sinov tajriba ishlari olib borildi. Ushbu ishlar GOST 23789-2018 ga muvofiq normal quyuvlikdagi gips xamirini olish va 40x40x160 mm o'lchamdagi gips namunalari tayyorlash uchun eng avval gipsning suvga bo'lgan talabi o'rganildi. Laboratoriya sharoitida Suttarda viskozimetri yordamida 1200 g gips namuna(etalon)ga nisbatan suvga bo'lgan talabchanligi 672 ml ekanligi aniqlandi va har bir kompozitsiya uchun suvning qiymatlari quyidagi jadvalda keltirilgan(2 – jadval).

2 – jadval

## Tayyorlangan kompozitsiyalarning Suttarda viskozimetri bo'yicha suv talabchanligi

Komponentlar	Etalon	1 namuna	2 namuna	3 namuna	4 namuna	5 namuna	6 namuna	7 namuna
Suv, ml	672	652	652	652	660	652	652	652
Kompozitsiya miqdori, g	Yo'q	30	32	30	32	32	30	30

2 – jadval qiymatlari shuni ko'rsatdiki, kremniyorganik polimer kompozitsiya qo'llanilgan komponentlar va gipsning suv talabchaligini nisbatan kamaytirgan. Bu esa o'z navbatida gidrofob kompozitsiya hosil bo'lganligining ilk belgisidir. Namunalar laboratoriya sharoitida quritildi. Quritilgan namunalarning siqilish, egilish hamda suv shimuvchanlik xossalari o'rganildi. Tahlil natijalari 3 – jadvalda o'z aksini topgan.

Gips gidrofizik xossalarini aniqlash maqsadida tayyorlangan namunalar dastavval quruq holatdagi massalari aniqlanib chiqildi. So'ngra 23789 – 2018 GOST talablari bo'yicha 1 sutka davomida suvda saqlandi va namunalar sirtidagi namlikdan tozalandi va suv shimuvchanlik(W) ko'rsatgichlari aniqladi(2 – jadval).



Gips namunalarining suv shimuvchanligi

Ko'rsatgichlar	Etalon	1-na'muna	2-na'muna	3-na'muna	4-na'muna	5-na'muna	6-na'muna	7-na'muna
Massa, g	323	330	343	304	318	310	339	331
W, %	27	18	20	28	25	28	21	21

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, tayyorlangan polimer kompozitsiyalar gips namunalarining suv shimuvchanligini kamaytirganini va eng yuqori ko'rsatgich keramzit asosidagi kompozitsiyada namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa tayyorlangan kompozitsiyalar gidrofob xossali ekanligidan dalolat beradi.

**Adabiyotlar**

1. Рахимов Ф. Ф., Шарипов А. А. Химические добавки для строительных материалов на основе гипса //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 24. – №. 3. – С. 185-188.
2. Rakhimov F. F. Organosilicon Polymer Compositions for Building Materials //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2023. – Т. 24. – С. 8-12.
3. Fazlidinovich R. F., Azimovich S. A. Chemical additives for obtaining plasticized gypsum //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 7. – С. 29-31.
4. Рахимов Ф. Ф., Шарипов А. А. Винилэтинилмагнийбромид асосидаги кремнийорганик полимер композициялардан фойдаланиб гидрофоб бетон олиш технологияси //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 24. – №. 3. – С. 189-193.
5. Рахимов Ф. Ф., Шарипов А. А. Мочевинаформалдегид асосидаги кремнийорганик полимер композициялар ёрдамида гидрофоб бетон олиш технологияси //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 24. – №. 3. – С. 180-184.
6. Rakhimov F.F., Sharipov A.A. Chemical Additives for the Production of Plasticized Gypsum //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 7-11.
7. Koldoshevna K.G., Fazlidinovich R.F. Qualitative analysis of aromatic oxide compounds //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 18. – №. 3. – С. 124-128.
8. Rakhimov F., Sharipov A., Abdullayev R. Obtaining gypsum with hydrophobic properties based on silicon polymers //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2789. – №. 1.
9. Firuz R., Gulhayo X. Gidroxinonning va gidroxinon asosida olingan kremniyorganik birikmaning kimyoviy tahlili //Involta Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 14-19.
10. Fazlidinovich R.F. et al. Kremniyorganik polimer kompozitsiya orqali gips nambardoshlilik xossasini oshirish imkoniyatlari //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 18. – №. 3. – С. 129-133.

## KIMYOVIY KOMPOZITSİYALAR BILAN ISHLOV BERILGAN GIPS NAMUNALARINING MUSTAHKAMLIK KO'RSATGICHLARI

**Raximov Firuz Fazlidinovich PhD, dotsent.**

**Saidova Gulnoza Iskandarovna 522-20 MMT guruh talabasi**

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xojalik chiqindilari va sanoat ikkilamchi maxsulotlari asosida qurilish materiallarining mexanik mustahkamligini oshirish imkoniyatlari keltirilgan. Shuningdek gost talablari asosida sinov usullari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** gips, siqilishdagi mustahkamlik, egilishdagi mustahkamlik, kompozitsiya

Dunyo miqiyosida zamonaviy texnologiyalar asosida nanga qarshi himoyalangan materiallar va nanga qarshi himoya vositalari ishlab chiqarish bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda va ushbu vositalar yordamida qurilish konstruksiyalari va materiallarini namdan himoyalash ishlariga katta e'tibor berilmoqda.

Dunyo miqiyosida tabiiy xomashyoni tejash va nanga qarshi himoyalangan materiallar ishlab chiqarishga talab juda katta. Jumladan, qurilish materiallarini gidrofobligini oshirib ularni turli sohalarda unumli qo'llash, inovatsion g'oyalarni oldinga olib chiqish, hamyonbop va inson organizmi uchun zararsiz materiallarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Qurilish materiallarini gidrofobik himoyalash maqsadida kremniyorganik moddalardan keng qo'llanilib kelinmoqda.

Qurilgan namunalarning siqilish va egilishdagi mustahkamlik xossalari o'rganildi. Tahlil natijalari 1 – jadvalda o'z aksini topgan.

1 – jadval

Turli kompozitsion tarkiblar asosida olingan gips namunalarining mexanik mustahkamlik ko'rsatgichlari

Mustahkamlik	Etalon	1-na'muna	2-na'muna	3-na'muna	4-na'muna	5-na'muna	6-na'muna	7-na'muna
Egilishga bo'lgan mustahkamlik, MPa	6,2	5,15	7,1	7,3	8,3	10	9	8,1
Siqilishga bo'lgan mustahkamlik, MPa	8	7	9,5	9	10,5	13	11	10

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, polimer tarkiblar tufayli gipsning suvga bo'lgan talabchanligining kamayishi va to'ldiruvchilarning kiritilishi hisobidan

mexanik xossalarning gips namunasiga nisbatan oshishiga olib kelgan.

Bir sutkalik suvda saqlangan namunalar laboratoriya sharoitida quritilib, egilishdagi va siqilishdagi mustahkamlik chegaralari aniqlandi(2 – jadval).

2 – jadval

Bir sutkalik suvda saqlangandan keyingi namunalar mustahkamlik chegaralari

	Etalon	1-na'muna	2-na'muna	3-na'muna	4-na'muna	5-na'muna	6-na'muna	7-na'muna
Egilishga bo'lgan mustahkamlik, MPa	2,7	1,95	2,3	1,95	2,2	2,25	2,25	2,25
Siqilishga bo'lgan mustahkamlik, MPa	5,5	2	4	3	4	4	6	5

Tadqiqotlar natijasida qishloq xo'jalik ikkilamchi maxsulotlari asosida tayyorlangan polimer kompozitsiyalar gips asosidagi materiallarning mexanik xossalari sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, qishloq xo'jalik chiqindilari selyuloza tolalaridan tashkil topganligi tufayli materialning egilishdagi mustahkamligini, polimer kompozitsiyalar suv talabchanligini kamaytirish orqali materialning g'ovaklik ko'rsatgichini kamaytirib siqilishdagi mustahkamligini oshirishga sabab bo'lgan.

#### Adabiyotlar

1. Ахмедов В. Н. и др. Паноев НШ Гидрофобизация в строительстве.(монография) //Издательство Бухара, Дурдона, с160. – 2018.
2. Рахимов Ф. Ф. Изучение магнитных характеристик слабого ферромагнетика FeVO<sub>3</sub>: Mg //Техника и технологии: пути инновационного развития. – 2015. – С. 179-181.
3. Рахимов Ф. Ф., Шарипов А. А. Химические добавки для строительных материалов на основе гипса //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 24. – №. 3. – С. 185-188.
4. Rakhimov F. F. Organosilicon Polymer Compositions for Building Materials //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2023. – Т. 24. – С. 8-12.
5. Fazlidinovich R. F., Azimovich S. A. Chemical additives for obtaining plasticized gypsum //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 7. – С. 29-31.
6. Рахимов Ф. Ф., Шарипов А. А. Винилэтинилмагнийбромид асосидаги кремнийорганик полимер композициялардан фойдаланиб гидрофоб бетон олиш технологияси //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 24. – №. 3. – С. 189-193.

7. Рахимов Ф. Ф., Шарипов А. А. Мочевинаформалдегид асосидаги кремнийорганик полимер композициялар ёрдамида гидрофоб бетон олиш технологияси //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 24. – №. 3. – С. 180-184.

8. Rakhimov, F.F., and V.N. Akhmedov. "Physico-chemical analysis of polyvinylethynyltrietoxysilane ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal India Issue 10." (2021): 1782-1787.

9. Rakhimov F.F., Sharipov A.A. Chemical Additives for the Production of Plasticized Gypsum //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 7-11.

10. Koldosheva K.G., Fazlidinovich R.F. Qualitative analysis of aromatic oxide compounds //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 18. – №. 3. – С. 124-128.

## **SEYSMIK MUSTAHKAM BINOLARNI LOYIHALASHNING ASOSIY TAMOYILLARI.**

**Bo`ronov Raxmiddin Yozilovich**

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada seysmik mustahkam binolarni loyihalashning asosiy tamoyillari, binolarni massasini yengillashtirish, bino tashqi devorlarini tovush va issiqlikdan himoyalash sifatini saqlagan holda uning seysmik mustahkamligini oshirish to`g`risida fikr va mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so`zlar:** seysmik mustahkamlik, rezonans, hajmiy rejalashtirish, monolitik binolar, issiqlik va tovush izolyatsiyasi, nosimmetrik, antiseysmik choklar, yig`ma-monolit, stvol devorli, karkassiz binolar, yirik panelli

Bino va inshootlarning seysmik chidamliligi, ma'lumki, ikki yo'l bilan ta'minlanadi: seysmik yuklarni kamaytirish va inshootlarning kerakli mustahkamligi. Monolit binolarni loyihalashda ushbu texnikaning ikkalasidan ham foydalanish kerak. Seysmik yukni kamaytirishga binoning massasini engillashtirish, zilzila paytida rezonans hodisalari xavfi minimal bo'lgan qurilish maydonchasini tanlash (mikroseysmik rayonlashtirish ma'lumotlariga ko'ra), binolar uchun oqilona hajmiy rejalashtirish, konstruktiv va texnologik echimlardan foydalanish va o'rnatish yo'li bilan erishish mumkin. Monolitik binolarning massasini sezilarli darajada yengillashtirish, ularning konstruksiyalarini birinchi navbatda yengil betondan tayyorlash, samarali issiqlik izolyatsiyasiga ega tashqi devorlarni qurish, tovush va issiqlik izolyatsiyasi talablari bilan belgilanadigan minimal qalinlikdagi ichki devorlarni qurish tufayli amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, og'ir betonni yengil beton bilan almashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda biz ikkita holatni unutmasligimiz kerak. Birinchidan, vertikal ravishda qurilgan yengil beton konstruksiyalar butun balandligi bo'yicha bir jinsli bo'lmaslikning ortishi bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, teng beton quvvatiga ega bo'lgan yengil beton devorlar og'ir betondan yasalgan devorlarga qaraganda 30-40%

yomon kesish qarshiligiga ega. Shuning uchun monolitik binolarning konstruksiyalarida og'ir betondan yengil betonga o'tish ixtiyoriy ravishda emas, balki chuqur texnik va iqtisodiy tahlil asosida amalga oshirilishi kerak. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan juda ko'p sonli dizayn ishlanmalarini o'rganish qurilish devorlari konstruksiyalarini ishlab chiqishda bajarilishi kerak bo'lgan ba'zi tavsiyalarni shakllantirishga imkon berdi.

Shunday qilib, bunga ko'ra, ichki devorlarni bir qatlamli qilish tavsiya etiladi, odatda og'ir betondan va faqat tegishli asoslar mavjud bo'lganda - kamida 1700 kg / m<sup>3</sup> zichlikdagi keramzit betondan tayyorlanishi mumkin. Tashqi devorlar zichligi 1500 kg / m<sup>3</sup> dan ortiq bo'lmagan keramzit betondan bir qatlamli va og'ir betondan kamida 120 mm qalinlikdagi yuk ko'taruvchi qatlam bilan ko'p qatlamli bo'lishi mumkin. Tashqi devorlarning qalinligi mustahkamlik va issiqlik o'tkazuvchanligi hisob-kitoblari bilan aniqlanadi. Minimal ruxsat etilgan devor qalinligi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Devor turi	Beton turi	Betonning zichligi Kg/m <sup>3</sup>	Devor qalinligi (mm)
Ichki kvartiralararo	Og'ir	2400-2500	160
	keramzitbeton	1700-1800	180
Tashqi, bir qavatli	keramzitbeton	1200 gacha	300(350)
		1300-1500	350(400)

Betonning mustahkamlik bo'yicha ruxsat etilgan minimal sinflari binoning qavatlarini soniga va uning hisoblangan seysmikligiga qarab belgilanadi (2-jadval).

2-jadval.

Devor turi	Bino qavatlarini soni	Hisobiy seysmikligi (ball)	
		7	8
Ichki devor	1-5	B5 (M75)	B7,5 (M100)
	6-9	B7,5 (M100)	B12,5 (M150)
	9 dan ortiq	B12,5 (M150)	B12,5 (M150)
Tashqi devor	1-2	B3,5 (M50)	B3,5 (M50)
	3-9	B5 (M75)	B5 (M75)
	9 dan ortiq	B7,5 (M100)	B7,5 (M100)
Yuk ko'tarmaydigan tashqi yig'ma devor	Har qanday qavatli	B5 (M75)	B5 (M75)


Binolar uchun hajmiy rejalashtirish yechimlarini ishlab chiqishning asosiy

tamoyillaridan biri, tuzilmalarning massalari va qattiqligining nosimmetrik va bir xil taqsimlanishini ta'minlashdir. Binoning burilish kuchlarini kamaytirish uchun qattqlik va massa markazlarining mos kelishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Monolit binolarning me'moriy ko'rkamligini oshirish uchun me'morlar ko'pincha binoning rejadagi shaklini haddan tashqari murakkablashtiradilar. Bu binolarning iqtisodiy ko'rsatkichlari va qulayligiga, shuningdek, seysmik qarshilikka salbiy ta'sir qiladi. Shu munosabat bilan, SH.N.Q.2.08.01-05 ko'p seksiyali va bir seksiyali binolarda tashqi devorlarning perimetri umumiy qavat maydoniga nisbati mos ravishda 0,3 va 0,4 dan oshmasligini talab qiladi.

Binolarning seysmik mustahkamligi ko'p jihatdan ichki rejalashtirish yechimiga bog'liq. Keling, masalan, ichki devorlarning qadami kabi ko'rsatkichni olaylik. Uning ortishi binoning massasining kamayishiga olib keladi, biroq ayni paytda devor va orayopmalarda zo'riqishlar kuchayadi; ularning umumiy qattiqligi pasayadi. Monolit binolarning seysmik chidamliligi ularda bo'ylama va ko'ndalang hamda rejada siniq chiziq shaklidagi devorlarni qurish orqali ta'minlanadi. Ushbu devorlarda teshiklar ochish, derezalar o'rnatish yoki kesish tavsiya etilmaydi. Qoida tariqasida, bino devorlarining vertikal loyiha o'qlari butun balandligi bo'ylab saqlanishi kerak. Agar turar-joy binolarining birinchi qavatlarida jamoat binolarini o'rnatish zarur bo'lsa, ularni birlashtirilgan holda loyihalash tavsiya etiladi.

Seysmik qurilish sharoitlari uchun monolitik binolarning ma'lum konstruktiv tizimlari orasida yuk ko'taruvchi yoki yuk ko'tarmaydigan tashqi devorlarga ega bo'lgan ko'ndalang-devorli konstruktiv tizimga ustunlik berish kerak (1-rasm). Birinchi holda, tashqi devorlar monolitik yoki yig'ma-monolit usulda, orayopmalari esa yig'ma yoki yig'ma-monolit usulda quriladi. Ikkinchi holatda esa yuk ko'tarmaydigan tashqi devorlar yig'ma panel yoki bloklardan montajlab qurilishi mumkin, bunday holda orayopmalarni monolit temir betondan qurish tavsiya etiladi.



1-rasm. Monolit binolarning konstruktiv sistemalari.

a) ko'ndalang-devorli;      b) kesishuvchi-devorli;      b) stvolli

Ba'zi hollarda shaharsozlik muammolarini hal qilish uchun stvol-devor konstruktiv tizimli binolarni loyihalashga ruxsat beriladi. Bundan tashqari, bunday binolarda gorizonta yuklarni faqat stvollar yoki stvollar va yuk ko'taruvchi ustunlar qabul qilishi mumkin.

Juda uzun va murakkab hajmiy rejalashtirish yechimiga ega bo'lgan binolarda antiseysmik choklar (bo'g'inlar) zilzila paytida ularni ta'sirlardan himoya qiladigan juft devorlarni qurish orqali amalga oshirilishi kerak. Juft devorlar orasidagi masofa – a, quyidagi formula bilan hisoblab topiladi : (1)

$$A = \delta_1 + \delta_2 + 20 \geq 250 \text{ mm. (1)}$$

Bu yerda:  $\delta_1$ ,  $\delta_2$  - loyihaviy seysmik yuklar ta'sirida qo'shni bino bo'linmalarining maksimal gorizontal siljishi.

Ma'lumki, monolit binolarning afzalliklaridan biri bu ularning ishining fazoviy xususiyati va plastik deformatsiyalar tufayli kuchlarni qayta taqsimlash qobiliyatidir. Biroq, bunday binolarda orayopmalar va tashqi devorlarning yig'ma elementlaridan foydalanish, monolitik devorlarni bir vaqtning o'zida qurish va texnologik choklarni o'rnatish natijasida yuzaga keladigan har xil turdagi gorizontal va vertikal bo'g'inlarning ko'payishi bilan bu afzalliklar kamroq bo'ladi.

Adabiyotlar

1. ГОСТ 6782.1-75 Пилопродукция из древесины хвойных пород. Величина усушки. Межгосударственный стандарт. Москва. ИПК. Издательство стантартов.

2. ГОСТ 6564-84. Межгосударственный стандарт. Пиломатериалы и заготовки. Правила приемки, методы контроля, маркировка и транспортирование. Издание официальное. Москва Стандартинформ 2007.

3. В.П. Болдырев. Сушка древесины. Издательство «ПРОФ ИКС» Санкт-Петербург 2002.

4. ГОСТ 3808.1-2019. Межгосударственный стандарт. Пиломатериалы и заготовки хвойных пород. Атмосферная сушка и хранение. Издание официальное. Москва Стандартинформ 2019.

5. Usmonov F.B., Qaxxorov H.A., Yaxshiyev Y.G' "Havo harorati va namligining o'zgaruvchan sharoitida ochiq omborlarda saqlanayotgan arralangan yog'och materiallarining deformatsiyasi". Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, Samarqand, SDAQU, 2024y.

## YOG'OCH NAMLIGI VA UNI ANIQLASH USULI.

**Yaxshiyev Yoqub G'afforovich**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti.*

Yog'och quriganida, tegishli namlikni olib tashlash, chizikli o'lchamlar va hajmning kamayishiga olib keladi. Ushbu hodisa yog'ochning qurishi deb ataladi. Shishish - bu yog'ochning chizikli o'lchamlari va hajmining oshishi, undagi bog'langan suv miqdori ortishi hisoblanadi. Yog'ochni nam havoda saqlaganda shishish jarayoni vujudga keladi.

Bu xususiyatlar qayta qisqarishga va asosan bir xil qonunlarga bo'ysunadi. Xuddi qisqarish kabi, yog'ochning eng katta shishishi tolalarning ko'ndalang bo'ylab tangensial yo'nalishda, eng kichik shishishi esa – tolalarning bo'ylama yo'nalishi bo'ylab kuzatiladi. Yog'ochning namligini aniqlash uchun turli usullar qo'llaniladi. Ulardan eng keng tarqalgani og'irlik bo'yicha va elektr namlik o'lchagichlar orqali o'lchashdir.

**Og'irlik usuli.** Taxtadan namuna arralab olinadi va bu namlik qismi deb ataladi. Namuna taxtaning oxiridan 300-500 mm masofada olinadi. Oxirgi qism tashlanadi,

chunki u odatda taxtaning qolgan qismiga qaraganda kamroq namlikka ega bo'ladi. 10-12 mm qalinlikdagi kesilgan qism o'rnashgan va yopishgan qirindilardan yaxshilab tozalanadi, shundan so'ng u darhol texnik tarozida grammning yuzdan bir qismi aniqligi bilan tortiladi. Namunaning bu dastlabki og'irligi (massasi) jurnalda qayd etiladi. Keyin namuna elektr pechga joylashtiriladi va 100-105 ° C haroratda quritiladi. Quritish vaqtida namuna vaqti-vaqti bilan olib tashlanadi va texnik tarozida tortiladi, har safargi tortish natijalari jurnalga qayd etiladi. Birinchi tortish namunani shkafga qo'ygandan keyin 5 soat o'tgach, qolganlari - har 1-2 soatda amalga oshiriladi. Namunaning vazni (massasi) o'zgarishni to'xtatganda, ya'ni, to'liq quruq holatga kelganda, namuna massasining oxirgi qiymati yoziladi. Taxtaning namligini aniqlash uchun odatda kamida ikkita namuna olinishi kerak. Namlikni aniqlashning og'irlik usuli ko'p - 5 dan 8 soatgacha vaqtni talab qiladi.

Mutlaq namlik - namuna bruschaning ichki suyuqlik massasining to'liq quritilgan massasiga nisbati bilan tavsiflanadi. Qiymat quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_t = (m - m_0) / m_0 \times 100\%$$

bu yerda, ( m ) va ( m<sub>0</sub> ) - nam va quritilgan bruschaning massas



**Elektr usuli.** Yog'ochning namligini yanada tezroq aniqlaydigan maxsus qurilmalar - elektr namlik o'lchagichlar hisoblanadi. Bunday holda, yog'ochning namligi bilvosita, uning omik qarshiligini o'lchash asosida aniqlanadi, bu yog'ochning gigroskopik namligining qiymatiga bog'liq. Gigroskopik namlik chegaralaridan tashqari, namlik qiymati va elektr qarshilik o'rtasidagi bog'liqlik sezilarli darajada zaiflashadi, shuning uchun tolaning to'yingan nuqtasidan yuqori bo'lgan yog'ochning namligini elektr bilan o'lchashda xatolik sezilarli darajada oshadi.




2-rasm. GEM namlik o'lchagich bilan yog'och (taxtalar) namligini o'rganish jarayoni


Kogon shahrida Buxoro mintaqaviy temir yo'lar unitar korxonasi xo'jaligining ochiq maydoni omborlarida saqlanadigan arralangan yog'och materiallarining haqiqiy hajmini aniqlash, o'zgaruvchan harorat va nisbiy havo namligining deformatik ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish maqsadida Kogon shahrining 2021 yil davomida ob-havo haroratini nisbiy ko'rsatkichlari oylar kesimida o'rganilib, ularning grafigi tuzildi. Quyida 2021yil yanvar oyi uchun harorat, havoning nisbiy



namligi, yog‘och namligi va yog‘och hajmining qisqarishi yoki shishishi natijasida o‘zgarishi grafiklari keltirilgan.



3-rasm. Yanvar oyi uchun harorat, havoning nisbiy namligi, yog‘och namligi va yog‘och hajmining qisqarishi yoki shishishi natijasida o‘zgarishi grafiklari: 1-o‘rtacha havo harorati; 2-o‘rtacha nisbiy namlik; 3-yog‘ochning namligi; 1 m<sup>3</sup> yog‘ochning qisqarishi yoki shishishi sababli 4 foizga o‘zgarishi.



4-rasm. Yog‘och namligining havoning harorati va nisbiy namlikka bog‘liqlik diagrammasi.

Mazkur ishda har bir shtabeldagi taxtalarning haqiqiy hajmi aniqlandi, kesimi 150x50 mm o‘lchamdagi taxtalarning qurish va shishish jarayoni, harorat va nisbiy havo namligining o‘zgarishiga qarab, yilning oylarida ochiq joylarda saqlanadigan sharoitda o‘rganildi. Yil davomida qurish yoki shishish natijasida yog‘och hajmidagi o‘zgarishlarning grafiklari tuzilgi.

Hisoblash amalga oshirildi va yetkazib berish vaqtida yog‘ochning dastlabki namligiga (20%, 25%, 30% va 35%) qarab harorat va havoning nisbiy namligining o‘zgarishi sharoitida arralangan yog‘och materiallarining yil davomida hajmining o‘zgarishi natijalar asosida diagramma tuzildi.

#### Adabiyotlar

1. ГОСТ 6782.1-75 Пилопродукция из древесины хвойных пород. Величина усушки. Межгосударственный стандарт. Москва. ИПК. Издательство стантартов.
2. ГОСТ 6564-84. Межгосударственный стандарт. Пиломатериалы и заготовки. Правила приемки, методы контроля, маркировка и транспортирование. Издание официальное. Москва Стандартиформ 2007.
3. В.П. Болдырев. Сушка древесины. Издательство «ПРОФ ИКС» Санкт-Петербург 2002.

4. ГОСТ 3808.1-2019. Межгосударственный стандарт. Пиломатериалы и заготовки хвойных пород. Атмосферная сушка и хранение. Издание официальное. Москва Стандартинформ 2019.

5. Usmonov F.B., Qaxxorov H.A., Yaxshiyev Y.G' "Havo harorati va namligining o'zgaruvchan sharoitida ochiq omborlarda saqlanayotgan arralangan yog'och materiallarining deformatsiyasi". Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, Samarqand, SDAQU, 2024y.

## GIPSNING GIDRATATSIYA JARAYONINI SEKINLASHTIRUVCHI OMILLAR

**Hamroyev Bobur Nodir, Aslonov Behzod Mavlon o'g'li**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*

**Annotatsiya:** Gips biriktiruvchi moddalar qattiqlashganda qattiq faza diskretdan uzluksiz holatga, suyuq faza esa uzluksiz holatdan diskret holatga o'tadi. Ushbu o'zgarishlarning natijasi "gips-suv" tizimining zarralari orasidagi molekulararo o'zaro ta'sir energiyasining o'zgarishidir. Namlikning energiya darajasi gidratsiya potentsialining qiymati bilan tavsiflanadi. Shu ma'lumotlar asosida gips moddasining fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish maqsad qilingan.

**Kalit so'zlar:** Gidratatsiya, angidrid, gips, patensialometrik tahlil, hidratlanish davri.

**Kirish.** Havoning nisbiy namligi 100% (o'rtacha = 1,0) da 7 kun yoki undan ko'proq vaqt davomida saqlanadigan gips bog'lovchining qotib qolish muddati qisqaradi, chunki bunda eng katta miqdorda  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  hosil boladi. Hosil bolgan digidrat kristallanish markazidir.

Sun'iy gidratlanish jarayonini belgilovchi kristall tuzilishdagi zarrachalarning kattalashishi va nuqsonlarning o'z-o'zidan tiklanishi gipsli bog'lovchilarning texnologik xususiyatlarini barqarorlashtirishni ta'minlaydi. Gips digidratning hosil bo'lgan kristallari kristallanish markazlari bo'lib, shuning uchun ular gips biriktiruvchining qotib qolish xususiyatiga ta'sir qiladi va gips toshining tuzilishini shakllantirishda ishtirok etadi.

Asosiy qism: 30-250°C past haroratli isitish hududida gips biriktiruvchining sun'iy gidratlanishidan so'ng termogrammalarda asl hemigidratning  $\text{CaSO}_4$  III ga aylanishi kuzatiladi (maksimal, endo-effekt 144,2 ° S). Ushbu diapazondagi massa yo'qolishi: 2,89% og'irlik. - qarimasdan; og'irligi 6,69%. - gidratlanish ( $p = 0,6$ ; 10,25% og'irlik. - gidratlanish  $p = 0,8$ ; 10,98% og'irlik. - gidratlanish ( $p = 1,0$ ).

Havoning nisbiy namligi 80% dan yuqori bo'lsa, adsorbsion jarayonlar eruvchan angidritning hemigidratga, so'ngra digidratga fazali o'zgarishi jarayonlari bilan birga keladi. Bu ( $p = 0,6$ ) da sodir bo'ladi, lekin transformatsiyalar kamroq darajada sodir bo'ladi.

**1-jadval. Turli sharoitlarda gips bog‘lovchining sun‘iy gidratlanishidan so‘ng qotib qolish vaqtining o‘zgarishi.**

Vaqtni belgilash, f da		Eskirmasdan	Sun‘iy gidratlanishning davomiyligi, kunlar		
			3	7	14
F ~ 0,6	Boshlash	5.5 - 6 min., 9.5 - 10 min.	7 - 7,5 min.	7,5 - 8 min.	7,5 - 8 min.
	oxiri		10,5 - 11 min.	11 - 11,5 min.	10,5 - 11 min.
F ~ 0,8	Boshlash		8 - 8,5 min.	6,5 - 7 min.	7 - 7,5 min.
	oxiri		11,5-12 min.	9,5 - 10 min.	10,5 - 11 min.
F= 1,0	Boshlash		6 - 6,5 min.	5,5 - 6 min.	5 - 5,5 min.
	oxiri		9,5-10 min.	8 - 8,5 min.	8,5 - 9 min.

**Xulosa**

5. Ibragimov R.R., Kuldasheva F.S. The possibility of using ultra-high-frequency energy in the technologies of sterilization of plant raw materials. Universum. Технические науки 11 (116). Nov.2023



## **СПОСОБ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВЕННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ИЗГОТОВЛЕНИЯ КАБЕЛЬНО-ПРОВОДНОГО ИЗДЕЛИЯ С ПРИМЕНЕНИЕМ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

**Цыпкина В.В, Акабировва Л.Х, В.П.Иванова**

*Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова  
Бухарский инженерно-технологический институт*

В кабельной промышленности вся технология описывается и поддерживается большими и емкими по содержанию потоками данных, которые играют важную роль в передаче информации о процессах производства, управлении оборудованием, контролем качества кабельного изделия и многими другими составляющими единого производственного процесса изготовления КПП.

Цифровой трансформации производственно-технологического процесса изготовления кабельно-проводниковой продукции, как способа повышения эффективности технологии. Изучены методы искусственного интеллекта, направленные на обработку данных производственного процесса. Обоснована задача разработки комплексной технологической платформы ориентированной на улучшение эффективности технологии изготовления кабельного изделия.

В условиях цифровизации производственного процесса работа с большим объемом информации, которая является содержательной частью любого производственно-технологического процесса, подлежащая анализу, высококачественной и быстрой обработки полученных данных, принятие правильного, единственно верного производственного решения является важным аспектом, обеспечивающим высокую эффективность работы всего кабельного предприятия. Следует отметить, что неправильные или несовершенные данные могут привести к ошибочным выводам и негативно сказаться на принятии решений, что в последствии очень плохо отразится не только на производственном процессе, но на финансово-экономическом положении кабельного завода в целом. Привлечение методов и технологий искусственного интеллекта (ИИ) поможет улучшить качество и достоверность производственных и технологических данных, скорость их обработку, а также анализ и оптимизировать процесс принятия решений [1-3].

Цифровая трансформация производственно-технологического процесса изготовления кабельно-проводниковой продукции строится с грамотно разработанной технологической платформы, которая является центром стратегического управления производственным процессом для кабельного предприятия, т.к. способна обеспечить эффективность и конкурентоспособность кабельного завода и используемых технологий в производственном процессе [4].

При этом основными компонентами и функциональными возможностями такой платформы являются:

**Управление данными:** Платформа должна обеспечивать сбор, хранение и анализ данных о производственных процессах, параметрах производства, качестве продукции и других ключевых аспектах. Это может включать в себя использование баз данных, системы управления данными и аналитические инструменты.

**Мониторинг и управление производственными операциями:** Платформа должна предоставлять возможности для мониторинга производственных операций в режиме реального времени, а также для управления оборудованием, персоналом и материалами. Это может включать в себя системы SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) и системы управления производством (MES).

**Планирование и оптимизация производственных процессов:** Платформа должна обеспечивать возможности для планирования производственных операций, оптимизации использования ресурсов и управления производственными заказами. Это может включать в себя использование систем планирования ресурсов предприятия (ERP) и алгоритмов оптимизации производства.

**Контроль качества и обеспечение качества продукции:** Платформа должна предоставлять возможности для контроля качества продукции на различных этапах производства и для принятия мер по обеспечению соответствия стандартам качества. Это может включать в себя использование систем управления качеством (QMS) и автоматизированных систем тестирования.

**Интеграция с внешними системами и устройствами:** Платформа должна быть способна интегрироваться с другими системами и устройствами, такими как поставщики материалов, системы отслеживания и мониторинга, а также системы управления складом.

**Аналитика и отчетность:** Платформа должна обеспечивать возможности для анализа данных и генерации отчетов о производственной деятельности, эффективности процессов, качестве продукции и других ключевых показателях. Это позволяет принимать обоснованные решения и улучшать производственные процессы.

Таким образом, технологическая платформа для кабельного предприятия является ключевым инструментом для централизованного управления и оптимизации всех производственных процессов, что способствует повышению эффективности и конкурентоспособности не только готовой кабельной продукции, но всего кабельного предприятия в целом.

### **Литература:**

1. Маклаков С.В. ВРwin и Erwin: CASE-средства для разработки информационных систем.– М.: Диалог-МИФИ, 2000г. — 304с.
2. Павлинов А. А., Кознов Д. В., Перегудов А. Ф., Бугайченко Д. Ю., Казакова А. С., Чернятчик Р.И., Иванов А.Н. О средствах разработки проблемно-ориентированных визуальных языков // Системное программирование. 2006. Т. 2. № 1. С. 116–141.

3. V.V. Tsyapkina, V.P. Ivanova, D. N. Isamukhamedov, A. U. Turabekov, S. M. Hayitmurodova; Ways to solve the system technical and economic issue - digital transformation of the technological process of manufacturing cable products. AIP Conf. Proc. 5 January 2023; 2552 (1): 070010. <https://doi.org/10.1063/5.0117074>
4. N. B. Pirmatov, D. B. Madrakhimov, V. P. Ivanova, V. V. Tsyapkina, M. J. Ortikova, R. F. Atamukhamedova; Determination of the degree of digitalization at the cable enterprise level. AIP Conf. Proc. 5 January 2023; 2552 (1): 070009. <https://doi.org/10.1063/5.0117025>
5. Akabirova L.X., Khamidov B.T., Dosumov Sh.R. Issledovanie procesa izmelcheniya materialov na osnove matematicheskoy model. // International magazine "UNIVERSUM" - Technicheskie nauki - Moscow, 2019. №10(67) - C.18-22 [02.00.00. №1].

## **TABIY GAZ TARKIBIDAN ETAN FRAKSIYASINI AJRATIB OLISH JARAYONINI TAHLIL QILISH**

**Doliyev Sh. Q katta o‘qituvchi, Nomozov N. B assistent  
Mustafoyeva A.N talaba**

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali*

Neft va gazning asosiy tarkibiy qismini uglevodorodlar tashkil qilib, ular qatlam sharoitida suyuqlik, gaz yoki aralashma holatida uchrashi mumkin. Bu holat qatlamdagi boshlang‘ich bosim va haroratga, shuningdek uglevodorodlarning fizik-kimyoviy xossalari bog‘liq. Odatda qatlamning yuqori qismida, ya’ni gumbazi va gumbaz atrofida, gaz holatidagi eng yengil uglevodorodlar joylashadi, qatlamning o‘rta qismida esa gaz va kondensat aralashma holatda joylashadi, qatlamning pastki qismida og‘ir uglevodorodlar, ya’ni neft joylashadi. Ko‘p hollarda uglevodorod konlarining qatlam chekkalari va ostini suv egallagan bo‘ladi.

Uglevodorodlarning qatlamda joylashishi har doim bir xil bo‘lavermaydi. Masalan, qatlam bosimi juda katta bo‘lsa, gaz holatidagi uglevodorodlar suyuq holatidagi uglevodorodlar tarkibida to‘liq erigan holda uchrashi mumkin. Umuman olganda uglevodorodlarning qatlam ichida joylashishi ularning zichligiga, fizik holatlariga, qatlam bosimi va haroratiga bog‘liq bo‘lib turli holda uchrashi mumkin.

Uglevodorodlarning qatlamda joylashishiga qarab tuzilgan tasniflari juda ko‘p bo‘lib, har bir keltirilgan tasnifning o‘z yutuqlari va kamchiliklari mavjud [1].

Hozirgi vaqtda tabiiy gazlar yer ostidan olingandan so‘ng konlarda qayta ishlanib, ularni tovar gaz holiga keltiriladi, shu bilan birga, undan etan, propan, butan, izobutan gazlari, oltingugurt, merkaptanlar, gazokondensat, hatto motor yonilg‘ilari ishlab chiqariladi. Tabiiy gazlar uglevodorod va nouglevodorodlar birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, ular qatlamda sof gaz holida, neft va suv tarkibida erigan holda uchrashi mumkin. Tabiiy gazlarning umumiy ko‘rinishi  $C_nH_{2n+2}$  ifodasi bilan aniqlanib, metan gomologlari qatoridan tashkil topgan bo‘ladi. Tabiiy gazlar qanday konlardan olinayotganligiga va tarkibidagi komponentlarning miqdoriga qarab tasniflanadi. Sarf signal o‘zgartirgichlarini sozlash jarayoni dinamik modeli quydagi

ket-ketma ketlikda qurishimiz mumkin.


1. Sof gaz konlari. Bunday konlarning qatlamlarida faqat gaz holatdagi uglevodorodlar to'planadi.

2. Neft hoshiyali gaz konlari. Bunday konlarda sof gaz holatidagi uglevodorodlar umumiy uglevodorodlar hajmining 34 qismidan ko'prog'ini tashkil qiladi, ya'ni  $1 > V_0 > 0,75$  bo'ladi.

3. Neftli gaz konlari. Bunday konlarda gaz holatidagi uglevodorodlar ko'proq va suyuq holatidagilari kamroq hajmni egallaydi, ya'ni  $0,75 > V_0 > 0,50$  bo'ladi.

4. Gazli neft konlari. Bunday konlarda gaz holatidagi uglevodorodlar suyuq holatdagi uglevodorodlarga nisbatan kamroq hajmni egallaydi, ya'ni  $0,50 > V_0 > 0,25$  bo'ladi.

Simulation bo'limidan tanlanadi va ular bir-biriga bog'lanadi.



1-rasm. Sarfni roslash texnologik sxemasi.

Jarayonda moddalar fraksiyaga ajralish uchun termodinamik usul tanlanadi. Termodinamik usul PENG-rob dan iborat. Dastlabki temperatura komponentlar uchun 300 C, bosim 30 bar, umumiy sarf 100 kmol/soat va ularning mol ulushlari metan(0,6), etan(0,1), propan(0,1) va isobutan(0,2) qiymatlari olingan.

Idish balandligi Length=1 metr va uning diametri= 0,5 metr qilib tanlandi. Bu qiymatlar o'zgartirilib tanlanishi ham mumkin.

Natijalar Result summarydagi Streams (1-jadval) orqali jarayondagi moddalarning fazalarga ajralgan miqdorini aniqlash mumkin[2, 3].

1-jadval

- Mole Fractions	F	F2	L	S1	V	W1
C1	0,6	0,6	0,107278	0,663255	0,663255	0,107278
C2	0,1	0,1	0,0744797	0,103276	0,103276	0,0744797
C3	0,1	0,1	0,185956	0,0889651	0,0889651	0,185956
IC4	0,2	0,2	0,632286	0,144504	0,144504	0,632286

Xulosa qilib aytganada bug' faza sifatida ajralayotgan etan miqdori umumiy 0,10 molyar ulushini, suyuq faza sifatida ajralayotgan etan 0,074 molyar ulushni ko'rsatmoqda. Tadqiqotdagi ajratib olinayotgan mahsulotlar faraksiya natijalarini jarayon uchun ishlatilgan parametrlarni o'zgartirib optimal qiymatlarni olish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari. Yusupbekov N.R., Nurmuhammedov H.S., Zokirov S.G. TOSHKENT.2011. 262-bet
2. Yusupbekov N.R., Muxamedov B.I., G‘ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish. –Toshkent: O‘qituvchi, 2011. -576 b.
3. Aspen plus: chemical engineering applications / Dr. Kamal I.M. Al-Malah. Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey Published simultaneously in Canada.2017

### TABIY GAZDAN POLIPROPILEN ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI TAHLIL QILISH

**Doliyev Sh.Q katta o‘qituvchi, Teshayev M talaba**  
*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali*


Polimer materiallar, jismlar va moddalarning xossalari ularni tashkil qilgan makromolekulalarning eng asosiy xarakteristikasi ikkita: kimyoviy tuzilishi (tabiati va tarkibi) va kattaligi molekulyar massasi. Ana shu o‘lchamning xususiyatlari va imkoniyatlari jihatidan ham polimer moddasi oddiy moddalardan ancha farq qiladi.

Polimerlarning tuzilishi shunchalik xilma-xilki ularni bu xarakteristikasini uni kimyoviy belgilariga qarab sinflarga bo‘lmasdan tushunib olish qiyin.

Makromolekulasining asosiy zanjirini tashkil qilgan elementlarga qarab 2 guruhga bo‘linadi:

a) faqat uglerod atomidan tashkil topgan bo‘lsa- karbozanjirli polimerlar deyiladi  $— C — C — C — C — C —$ .


Gomozanjirli polimerlarda asosiy zanjir bir xil atomlardan tashkil topgan bo‘ladi.



#### *1-rasm. Gomozanjirli polimer*

b) asosiy zanjirni tashkil qilgan atomlar 2 va undan ortiq elementdan iborat bo‘lsa polimerni geterozanjirli polimerlar deb yuritiladi.

Getero zanjirli polimerlarda asosiy zanjir ikki va undan ortiq atomlardan tashkil topgan bo‘ladi.



#### *2-rasm. Gomozanjirli polimer*


Polimerlar sintezining umumiy uslublari Quyimolekulali birikmalardan

yuqorimolekulali birikmalar polimerlarning sintezi 2 ta usul bilan amalga oshiriladi: polikondensatlanish va polimerlanish.

Polikondensatsiyalanishda monomerlar funksional guruhlar buyicha reaksiya tufayli birikadilar. Bunda reaksiyaning quyi molekulyar mahsuloti ajralib chiqadi.

Polimerlanishda makromolekulalar to‘yinmagan bog‘larni yoki halqani ochilishi hisobiga xosil bo‘lad


Polipropilen ishlab chiqarishning texnologik sxemasi asosan quyidagilardan iborat. Xom ashyoni qayta ishlash jarayonidan, polimerizatsiya jarayonidan, gazsizlantirish jarayonidan, qayta tiklash jarayoni, ekstruziya va granulatsiya jarayoni va saqlash, qadoqlash va jo‘natish jarayonlaridan tashkil topgan. Ushbu jarayonning texnologik sxemasi quyida ko‘rsatilgan (3-rasm).




**3-rasm.** Polipropilen ishlab chiqarish jarayonining blok diagrammasi.

PP ishlab chiqarish uchun olingan xom ashyo bir qanch abosqichlardan o‘tadi.

Polipropilen poliolefinlar guruhiga kiradi va qisman kristalli va qutbsizdir. Uning xususiyatlari polietilenga o‘xshaydi, lekin u biroz qattiqroq va issiqlikka chidamli. Bu oq, mexanik jihatdan mustahkam material bo‘lib, yuqori kimyoviy qarshilikka ega[1,2].



**4-rasm.** Polipropilen bog‘lanish struktura sxemasi



**5-rasm.** Polipropilen kristal bog‘lanish struktura sxemasi

1-jadval

Xususiyatlar	
Kimyoviy formulasi	$(C_3H_6)_n$
Zichlik	0.855 g/cm <sup>3</sup> , amorphous 0.946 g/cm <sup>3</sup> , crystalline
Erish nuqtasi	130 to 171 °C (266 to 340 °F; 403 to 444 K)

Xulosa qilib aytganda Polipropilen (PP), shuningdek, polipropen sifatida ham

tanilgan, turli xil ilovalarda ishlatiladigan termoplastik polimerdir. U monomer propilendan zanjir o‘sishi polimerizatsiyasi orqali ishlab chiqariladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Производство полимеров, в том числе биоразлагаемых: информационно-технический справочник по наилучшим доступным технологиям / Федеральное агентство по техническому регулированию и метрологии – ИТС 32-2017. – М: Бюро НДТ, 2017. – 401с.

2. Ровкина Н.М. Технологические расчеты в процессах синтеза полимеров: сборник примеров и задач / Министерство образования Российской Федерации, Ровкина Н.М, Ляпков А.А., Томский политехнический университет – Т: Издательство ТПУ, 2004. – 167с.

## **TEKNOLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISHDA ELEKTR MANBA PRINSIPIAL CHIZMALARINI TAHLIL QILISH.**

**Doliyev Sh.Q katta o‘qituvchi, G‘ulomova Sh talaba**  
*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali*

Elektr manba tizimlarida boshqarish apparatlari sifatida rubilniklar, paketli o‘chirgichlar tumblerlar ishlatiladi. Avtomatlar boshqarish va ximoya funksiyalarini barobar bajaradilar.

Saqlagichlar tarmoq va alohida elektr qabul qiluvchilarni qiqsqa tutash va ortiqcha yuklamalardan ximoya qilish uchun ishlatiladi. Saqlagichlilil rubilniklar avtomatlardan sodda va arzon bo‘ladi.

Bu apparatlar manbasi ulangan joyda va shchit va avtomatlashtirish tizimlarining manba yig‘inmalarga kirishda o‘rnatiladi.

Manba tarmog‘i chizmasida ximoya va boshqarish apparatlari ko‘rsatiladi. Apparatlar alohida harf-raqam belgilanish, kuchlanishning nominal qiymati ko‘rsatiladi.

Taqsimlanish zanjirlari chizmasida manbaning kirishi va chiqishlarni ko‘rsatiladi hamda elektr qabul qiluvchilarga, ximoya va boshqaruv apparatlariga, transformatorlarga, manba yoritish lampalariga chiqishlar ko‘rsatiladi.

Chizmaning pastki qismida jadval berilib, ushbu manba shchitidan unda-elektr qabul qiluvchilar ro‘yxati keltiriladi, yana spesifikasiya bo‘yicha pozisiya nomerlari, quvvati, kuchlanishi va o‘rnatilish joyi ko‘rsatiladi. Shuningdek elementlarning harfli-raqamli belgilanishlari ko‘rsatiladi.


Manba chizmasidagi hamma zanjirlar markirovkalanadi. Shartli belgilanishlar, harfli belgilanishlar xuddi boshqarish va signallasch chizmalaridagidek GOST 2.710-81, GOST 2.755-87, GOST 2. 747-69, GOST 2.755-76 bo‘yicha amalga oshiriladi[1].

Manbani tanlash. Elektr manba tizimi manbasini asboblarni normal ishlashini ta‘minlovchi kuchlanish va quvvatiga mos ravishda tanlanadi. Odatda, o‘lchov asboblariga berilayotgan manbaning o‘zgarishi nominal qiymatdan  $-5 \div +10\%$  ga ruxsat beriladi.

Ta‘minlash va taqsimlash tarmog‘larining boshqarish va ximoyalash

apparatlarini (rubilniklar, avtomatlar, qisqa tutashdan saqlagichlar) manba shchitlari va yig'ilmalariga joylashtiriladi.

Elektr yuritmalari va asboblarning yuklamalari nisbatiga qarab, elektr yuritmalarga manbani alohida (elektr yuritmalar quvvati yuqori bo'lganda) yoki birga bitta manba shchiti va yig'ilmasidan amalga oshirish mumkin.




1-rasm. Elektr yuritmalarni boshqarish zanjiri sxemasi.

2. Elektr yuritmalarni boshqarish chizmalari va ularni boshqarishning prinsipial chizmasi chizilsin.

Boshqarish zanjiri manbasi fazalararo kuchlanish (380v) bilan yoki faza kuchlanishi (220v) bilan amalga oshiriladi.

Elektr yuritmani boshqarishning prinsipial chizmasi quyidagi rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. Mexanizmlarning elektr yuritmalarini boshqarish sxemasi.

Bu chizmada quyidagi belgilanishlardan foydalanilgan: KM kontaktori zanjiri ulanadi. SB1 va SB2 – yoqib o'chiruvchi knopkalar, KM-kontaktor magnitli, KK-issiqlik relesi, FU-qisqa tutashdan saqlagichlar, QS-rubilnik.

Elektr yuritma yoquvchi SB1 va o'chiruvchi SB2 knopkalar yordamida ishga



tushiriladi va o‘chiriladi. SB1 bosilganda KM boshqarish o‘ramidan tok o‘tib, kontaktor o‘zagi magnitlanib, yakorni tortadi va KM normal uziq kontaktlarni ulaydi. Bunda ulovchi kontakt SB1ning blokirovkalovchi kontakti va elektr yuritmaga manba’ni ulovchi KM kontaktlar ham ulanadi. Elektr yuritma ishga tushadi[2,3].

Elektr yuritmani to‘xtatish uchun SB2 o‘chiruvchi knopka bosilib, KM ga manba uziladi. Bunda blokirovkalovchi KM kontaktlari ham uziladi. Elektr yuritma ishdan to‘xtaydi. Elektr yuritmaga yuklama oshib ketganda, elektr yuritmani kuyishdan saqlash uchun, issiqlik relelari ishga tushadi va manbani uzadi. Elektr yuritmani qayta ishga tushirish uchun yoquvchi SB1 knopka bosilidi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Kimyoviy texnologiya asosiy jarayon va qurilmalari. Yusupbekov N.R., Nurmuhamedov H.S., Zokirov S.G. TOSHKENT.2011. 262-bet
2. Yusupbekov N.R., Muxamedov B.I., G‘ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish. –Toshkent: O‘qituvchi, 2011. -576 b.
3. Aspen plus: chemical engineering applications / Dr. Kamal I.M. Al-Malah. Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey Published simultaneously in Canada.2017

### **СПОСОБ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВЕННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ИЗГОТОВЛЕНИЯ КАБЕЛЬНО-ПРОВОДНОГО ИЗДЕЛИЯ С ПРИМЕНЕНИЕМ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

**Цыпкина В.В., Акабирова Л.Х., В.П.Иванова**

*Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова  
Бухарский инженерно-технологический институт*

В кабельной промышленности вся технология описывается и поддерживается большими и емкими по содержанию потоками данных, которые играют важную роль в передаче информации о процессах производства, управлении оборудованием, контролем качества кабельного изделия и многими другими составляющими единого производственного процесса изготовления КПП.

Цифровой трансформации производственно-технологического процесса изготовления кабельно-проводниковой продукции, как способа повышения эффективности технологии. Изучены методы искусственного интеллекта, направленные на обработку данных производственного процесса. Обоснована задача разработки комплексной технологической платформы ориентированной на улучшение эффективности технологии изготовления кабельного изделия.

В условиях цифровизации производственного процесса работа с большим объемом информации, которая является содержательной частью любого производственно-технологического процесса, подлежащая анализу, высококачественной и быстрой обработки полученных данных, принятие правильного,

единственно верного производственного решения является важным аспектом, обеспечивающим высокую эффективность работы всего кабельного предприятия. Следует отметить, что неправильные или несовершенные данные могут привести к ошибочным выводам и негативно сказаться на принятии решений, что в последствии очень плохо отразится не только на производственном процессе, но на финансово-экономическом положении кабельного завода в целом. Привлечение методов и технологий искусственного интеллекта (ИИ) поможет улучшить качество и достоверность производственных и технологических данных, скорость их обработку, а также анализ и оптимизировать процесс принятия решений [1-3].

Цифровая трансформация производственно-технологического процесса изготовления кабельно-проводниковой продукции строится с грамотно разработанной технологической платформы, которая является центром стратегического управления производственным процессом для кабельного предприятия, т.к. способна обеспечить эффективность и конкурентоспособность кабельного завода и используемых технологий в производственном процессе [4].

При этом основными компонентами и функциональными возможностями такой платформы являются:

**Управление данными:** Платформа должна обеспечивать сбор, хранение и анализ данных о производственных процессах, параметрах производства, качестве продукции и других ключевых аспектах. Это может включать в себя использование баз данных, системы управления данными и аналитические инструменты.

**Мониторинг и управление производственными операциями:** Платформа должна предоставлять возможности для мониторинга производственных операций в режиме реального времени, а также для управления оборудованием, персоналом и материалами. Это может включать в себя системы SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) и системы управления производством (MES).

**Планирование и оптимизация производственных процессов:** Платформа должна обеспечивать возможности для планирования производственных операций, оптимизации использования ресурсов и управления производственными заказами. Это может включать в себя использование систем планирования ресурсов предприятия (ERP) и алгоритмов оптимизации производства.

**Контроль качества и обеспечение качества продукции:** Платформа должна предоставлять возможности для контроля качества продукции на различных этапах производства и для принятия мер по обеспечению соответствия стандартам качества. Это может включать в себя использование систем управления качеством (QMS) и автоматизированных систем тестирования.

**Интеграция с внешними системами и устройствами:** Платформа должна быть способна интегрироваться с другими системами и устройствами, такими как поставщики материалов, системы отслеживания и мониторинга, а

также системы управления складом.

**Аналитика и отчетность:** Платформа должна обеспечивать возможности для анализа данных и генерации отчетов о производственной деятельности, эффективности процессов, качестве продукции и других ключевых показателях. Это позволяет принимать обоснованные решения и улучшать производственные процессы.

Таким образом, технологическая платформа для кабельного предприятия является ключевым инструментом для централизованного управления и оптимизации всех производственных процессов, что способствует повышению эффективности и конкурентоспособности не только готовой кабельной продукции, но всего кабельного предприятия в целом.

#### **Литература**

1. Маклаков С.В. ВРwin и Erwin: CASE-средства для разработки информационных систем.– М.: Диалог-МИФИ, 2000г. — 304с.
2. Павлинов А. А., Кознов Д. В., Перегудов А. Ф., Бугайченко Д. Ю., Казакова А. С., Чернятчик Р.И., Иванов А.Н. О средствах разработки проблемно-ориентированных визуальных языков // Системное программирование. 2006. Т. 2. № 1. С. 116–141.
3. V.V. Tsypkina, V.P. Ivanova, D. N. Isamukhamedov, A. U. Turabekov, S. M. Nayitmuradova; Ways to solve the system technical and economic issue - digital transformation of the technological process of manufacturing cable products. AIP Conf. Proc. 5 January 2023; 2552 (1): 070010. <https://doi.org/10.1063/5.0117074>
4. N. B. Pirmatov, D. B. Madrakhimov, V. P. Ivanova, V. V. Tsypkina, M. J. Ortikova, R. F. Atamukhamedova; Determination of the degree of digitalization at the cable enterprise level. AIP Conf. Proc. 5 January 2023; 2552 (1): 070009. <https://doi.org/10.1063/5.0117025>
5. Akabirova L.X., Khamidov B.T., Dosumov Sh.R. Issledovanie procesa izmelcheniya materialov na osnove matematicheskoy model. // International magazine "UNIVERSUM" - Technicheskie nauki - Moscow, 2019. №10(67) - С.18-22 [02.00.00. №1].

## **SANOAT KORXONALARIDA ENERGETIK BALANSLARNI TUZISH USLUBIYOTI**

**Sh. K. Rashidov, N. N. Mirzoyev**

Energetik balans korxonalarda elektr energiyasidan foydalanishni rejalashtirish va uning hozirgi holatini taxlil qilish uchun ishlab chiqiladi. Energetik balans energetika xo‘jaligidagi turli bo‘limlarni ichki bog‘lanish va kelajakda energetika xo‘jaligi rivojlanishini hisobga oladi. Energetik balans alohidagi jarayonlar, agregatlar yoki ularning guruhlari uchun tuziladi. Qo‘yiladigan vazifalarni bajarish uchun rejali yoki hozirgi davrdagi energiya iste‘moli va taqsimlanishini hisobga olishda energetik balanslar muhim hisoblanadi. Energetik balansni tuzishdan asosiy maqsad korxonaning ishlab chiqarishini rivojlanish dasturi asosida nisbiy energiya

isroflarini kamaytirish va energiya tejamkorlik bo'yicha samarali rejalarini tuzishdan iborat.

Energetika balansni tuzishga quyidagi talablarga e'tibor qaratish kerak:

- a) Ma'lumotlar shakli oddiy va umumiy korxonalar bo'yicha bo'lishi kerak.
- b) Energiya isroflarini alohida texnologik jarayonlariga, kuch va yoritish iste'molchilariga ajratish kerak;
- v) Balanslarni alohida uchastka, sex, yordamchi iste'molchilar va umumiy korxonalar bo'yicha tuzish kerak.

Keltirilgan talablarni hisobga olgan holda korxonalar uchun 2 xil balans tuziladi. Birinchisi ishchi formadagi balans, bu balans yordamida korxonaning uchastka va sexlarida bo'layotgan energiya isroflarini aniqlaymiz. Lekin bu balanslar yordamida texnologik agregatlari va jarayonlarida bo'layotgan energiya isroflari to'g'risida hech qanday ma'lumot olinmaydi. Yuqoridagilarni uchun umumiy analitik balansni yordamida olinayotgan elektr energiya miqdori transformator va korxonaning ichki elektr tarmoqlarida bo'layotgan isroflar, elektr iste'molchilarida bor elektr energiya isroflari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Umumiy holatda sanoat korxonalariga kelayotgan va iste'mol bo'layotgan barcha yoqilg'i va energetik manbaalarni xajmi va xarajatlarni turlari bo'yicha energetik balans tuzishda energetik balansni quyidagi turlaridan foydalanamiz.

<b>Energetik balans</b>	
Tuzilish prinsipi bo'yicha	Baholash prinsipi bo'yicha
Sintetik, analitik, planli, normalashtirilgan, optimal	Entropik, ekserjik

Umuman olganda sanoat korxonasining energetik balansni qurishni yuqoridagi energetik balans turlaridan kelib chiqib quramiz. Korxonaning energetika balansini muxim qismi bu transformator va tarmoqlardagi energiya isroflaridir. Tarmoqlardagi energiya sarflarini o'lchov bilan aniqlab bo'lmaydi. Sexdagi umumiy sutkali energiya sarflari quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Delta W_{sutka} = 3 * k_{forma} * I_{sut}^2 * R_{fider} * t_{sut} * 10^{-3}$$

bu yerda:  $t_{sut}$  - bir sutkadagi o'rtacha ish vaqti, soat;

$k_{forma}$  - yuklamaning grafigining shakl koeffisienti;

$I_{sut}^2$  - 1 sutkada liniyadan oqayotgan tokini o'rtacha miqdori, Amper;

$R_{fider}$  - fiderning ekvivalent aktiv qarshiligi, Om.

O'zgarmas yuklama bilan ishlaydigan iste'molchilar nasos, shamollatgichlar uchun :

$t_{sut}$  quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$t_{sut} = \frac{W_{aEE.sutka}}{P}$$

bu yerda:  $W_{aEE.sutka}$  - sutkadagi o'rtacha aktiv energiya sarfi, kWh;

$P$  - iste'molchining aktiv quvvati, kVt.

Yuklanish o'zgaradigan holda:

$$t_{sut} = \frac{W_{rEE.sutka}}{Q_r}$$

$k_{forma}$  - yuklanish grafigi formasining koeffisienti,  $k_{forma} = 1,1$

$$I_{sutka} = \frac{\sqrt{P_{sutka}^2 + Q_{sutka}^2}}{\sqrt{3} * u_n * t_{sut}} = \frac{P_{sutka}}{\sqrt{3} * u_n \cos \varphi_{ort}}$$

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki korxonaning ichki tarmoqlaridagi energiya isroflari umumiy energiya iste‘molining (1,5 – 2) %ni tashkil qiladi.

**Korxonaning elektr energiya olayotgan va ishlab chiqarayotgan fiderlari bo‘yicha energetika balansi**

Elektr tarmoqdan olinayotgan elektr energiya	Elektr energiyasi	
	Aktiv kVt.s	Reaktiv kVar.s
Kelayotgan elektr energiyasi:		
Fider 1	518	550
Fider 2	500	450
Fider 3	552	605
Fider 4	142	-
Kondensator batareyalar tomonidan ishlab chiqilgan	-	517
Jami	1712	1088

**Korxonaning strukturaviy energetik balansi**

Qurilma turlari va energiya sarflari		Elektr energiya sarflari	
		Ming kVt.s	%
1	Kuch elektr qurilmalari	814	47,5
2	Elektrotexnologik qurilmalar	528	30,9
3	Ko‘tarish – tashish qurilmalar	102,5	6,0
4	Shamollatgichlar	94,5	5,5
5	Yoritgichlar	85,8	5,0
6	Maishiy iste‘molchilar	18,6	1,1
7	Tarmoqdagi energiya isroflari	51,4	3,0
8	Hisobga kiritilgan qurilmalar	17,12	1,0
<b>Jami</b>		1712	100

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. *Mirzaev N. N.* Intellectual measurement of electrical energy consumption - monitoring device and software. Scopus conference: Rudenko International Conference “Methodological Problems in Reliability Study of Large Energy Systems“ (RSES 2023) E3S Web of Conferences. Volume 461, 2023, 01083. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202346101083>

2. *Mirzaev N. N.* Study on computerized measurement-control system for determining the condition of electrical network insulation and permitted connections for electrical energy consumption. Scopus conference: 4<sup>th</sup> International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering (ICECAE 2023) E3S Web of

Conferences. Volume 434, 2023, 01021.  
<https://doi.org/10.1051/e3sconf/202343401021>

3. Mirzoyev N.N. Information software and devices for energy efficiency management and control, *Chemical Technology, Control and Management*, 68-75 (2021)

4. Mirzoyev N.N. Analogical Model Development Methodology For Mathematical Modeling Of Energy Efficiency Control System, *The American Journal of Engineering and Technology* , 55-61 (2020)

5. Mirzoyev N.N. Intelligence devices for monitoring and control of energy efficiency of enterprises, *Chemical Technology. Control and Management*, 172-181 (2020)

## **KORXONALARDA MEHNATNING SOG‘LOM VA XAVFSIZ ISH SHAROITLARINI TA‘MINLASH**

**Sharipov Davlat Muxiddinovich**

*Buxoro neftni qayta ishlash zavodi*

Korxonalarda xavfsizlikni ta‘minlash va ish sharoitlarini yaxshilash ma‘muriyatning asosiy vazifasi sifatida mehnat qonunlarida yozib qo‘yilgan.

Ma‘muriyat tarkibiga kiruvchi rahbar xodimlar, ya‘ni xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanuvchi, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qiluvchi, ishlab chiqarishdagi xodimlarni boshqaruvchi, moddiy mablag‘larni taqsimoti zaruriy texnik tadbirlarga ishlatish va uni nazoratini olib boruvchi shaxslar kiritiladi. Ba‘zi bir hollarda avtomatik boshqarish tizimi ishlayotgan ishchi zimmasiga tushadi va uning xavfsizligi to‘liq boshqaruvchi kishi mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham sanoat jihozlarini loyihalashda, bu jihozlarni boshqarishi kerak bo‘lgan operator imkoniyatlarini ruxiy va fiziologik jihatlarini hisobga olish kerak bo‘ladi.

Albatta bir necha o‘nlab axborot, signal va boshqa belgilarni yuboruvchi nazorat-o‘lchov qurilmalari holatini hisobga olish va kerakli ko‘rsatmalar bilan ta‘minlab, texnologik jarayonni to‘xtovsiz davom ettirish ishchidan katta mahorat talab qilishi bilan birga uni kuchli toliqishga va ma‘naviy charchashga olib keladi. Shuning uchun ham mashina va mexanizmlarning boshqarish organlari aniq ko‘rinadigan va yengil boshqariladigan va farqlash oson qilib joylashtirishga katta e‘tibor beriladi. Ularni stanokni o‘ziga yoki bo‘lmasa stanokdan birmuncha olislikda joylashtirilgan boshqarish markaziga joylashtiriladi.

Mashina va mexanizmlarning inson hayotiga va sog‘ligiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan joylari xavfli zona deb ataladi. Xavfli zona asosan mashina va mexanizmlarning ochiq holdagi aylanadigan va harakatlanadigan qismlarida mujassamlanadi. Bu aylanayotgan qirquvchi asbob yoki detal, tasmali, zanjirli va tishli uzatmalar, dastgohlarning harakatlanuvchi ishchi stollari, konveyerlari, yuklarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib yuradigan yuk ko‘tarish mashinalari va h.k. Aylanuvchi qismlari ishchilarning kiyimidan yoki sochidan ilintirib olishi mumkin bo‘lgan mexanizmlar ayniqsa xavfli hisoblanadi.

Shuningdek xavfli zonalar qatoriga mashina va mexanizmlarda ishlaganda elektr tokidan zararlanish, issiqlik, elektromagnit, ionlashgan nurlar, shovqin, titrash, ultratovush, zaharli gaz va bug‘lar ta’siriga tushib qolish ham kiradi. Dastgohlarda ishlayotganda qirindilarning uchib ketishi, ishlatilayotgan asbobning sinib otilib ketishi, detal yaxshi siqib mahkamlanmaganligi natijasida otilib ketib ishchilarni jarohatlashi ham xavfli zonaga kiritiladi. Xavfli zonalar doimiy, harakatlanuvchan va vaqti-vaqti bilan paydo bo‘ladigan turlarga bo‘linadi. Doimiy xavfli zonaga tasmali, zanjirli va tishli uzatmalar, dastgohlarning qirqish zonalar va harakatlanuvchi vallar kiradi. Harakatlanuvchan xavfli zonaga prokatlash stanlari, potok liniyalari, konveyerlar, qirqish joyi o‘zgarib turadigan agregat dastgohlari va boshqalar kiradi.

Shovqin, vibratsiya va ultratovushlar hosil bo‘lishga ko‘ra jismlarning tebranishidan tashkil topib, bizning eshitish a‘zolarimiz tomonidan qabul qilinadi. Ular bir-birlaridan faqat tebranish chastotasi bilan va odamlar ularni har xil qabul qilishi bilan farq qiladilar.

20 Gs dan 20000 Gs gacha tebranishlarni tovush deb ataladi va ularni biz tovushdek eshitamiz. Shunday bir qancha tovushlarni tartibsiz qo‘shilishi shovqin deb ataladi. 20 Gs dan past bo‘lgan tebranishlar infratovush deb ataladi. 20000 Gs dan yuqori bo‘lgan tebranishlarni esa ultratovush deyiladi. Ultratovushlarning biz eshita olmaymiz, ularni faqat ba’zi bir uy hayvonlarigina eshita oladi.

Qattiq jismlarning tebranishiga va shu tebranishlarni jismlarning o‘zlari yoki boshqa qattiq jismlar orqali uzatilishiga silkinish deyiladi. Silkinishni biz chayqalishdek qabul qilamiz va ularni tebranish chastotasi 1 Gs dan 100 Gs gacha bo‘ladi.

Qattiq shovqin eshitish organlariga yomon ta’sir qilishi natijasida ishchilarning eshitish qobiliyati pasayib ketadi. Bunda, avvalo eng kuchli darajada yuqori tebranish chastotasiga ega bo‘lgan tovushlarni qabul qilish buziladi. Bu ko‘pincha yuqori chastotaga ega bo‘lgan pichirlab gapirishni yaxshi eshitmaslik bilan ifodalanadi. Juda ko‘p tebranishlarga ega bo‘lgan tovushlar kar bo‘lib qolishda asosiy rol o‘ynaydi. Past tovushlar yoki oz sonli tebranishlarga ega bo‘lgan tovushlar, garchi ularning kuchi yoki tebranish amplitudasi katta bo‘lganda ham deyarli zararsiz hisoblanadi. Bu qozonchalarda va qozonchalarda pnevmatik asboblardan ishlovchi hamda boshqa odamlardan ajralgan holda yakka ishlovchi boshqa kasb egalarida eshitish qobiliyatining tezda pasayib ketishi bilan ifodalanadi.

GOST 24346-80 “Titrash: atamalar va tushunchalar”da “titrash” deb nuqta yoki mexanik sistemaning, hech bo‘lmaganda bitta koordinat bo‘ylab, vaqt birligida navbatma-navbat ortib va kamayib turuvchi harakatiga aytiladi.

Titrash mashina va mexanizm qismlaridagi kuchlarning nomuvofiq harakati natijasida kelib chiqadi. Bunga mexanizmlarning chiziqli harakatini aylanma harakatga aylantirishdagi krivoship-shatun mexanizmlarining harakati, vibratsiya hosil qiluvchi shibbalash qurilmalari, shuningdek muvozanatlanmagan aylanma harakat qiluvchi qismlar, masalan qo‘lda ishlatiladigan silliqlovchi mashinalar. Stanoklarning silliqlovchi va qirquvchi qismlaridan kelib chiqadigan titrashlar misol bo‘la oladi.

Titrashning kelib chiqishiga ba’zan ishqalanuvchi va birikuvchi mexanizmlar

(masalan podshipniklar, tishli g'ildiraklar va h.k.) ham sababchi bo'ladi.

Umuman mexanizmlardagi muvozanatning buzilishi titrashning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Titrashning inson organizmiga ta'siri asosan uning mexanizmida kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi kuchlar bilan uzviy bog'liq. Bunda ta'sir ko'rsatuvchi va titrash hosil qiluvchi kuch butun sistemasiga yoki uning ayrim bir bo'lagiga ta'sir qilishi mumkin. Bundan ta'sir ko'rsatish darajasi ham o'z-o'zidan ma'lum. Bunga misol tariqasida muvozanati buzilgan holda yengil tebranish hosil qilayotgan mexanizm va o'nqir-cho'nqir yo'ldan harakatlanib borayotgan transport sistemasini taqqoslash mumkin.

Ishlab chiqarishda shovqin darajasini pasaytirish usullari

Sanoatda shovqin bir necha usullar bilan kamaytiriladi: shovqinni uning paydo bo'lish manbasida kamaytirish; ovozni izoyatsiyalash va ovozni yutish bo'yicha kompleks ishlar; shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish.

Mexanizmlar va texnologik jarayonlarni almashtirish. Eng samarali va eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri. Uskunalar yoki individual mexanizmlar kamroq shovqin yaratadigan yangilari bilan almashtiriladi. Zarbli mexanizmlari zarbsizlar bilan almashtiriladi. Bir-biri bilan to'qnashadigan qismlari metallardan emas, balki plastmassadan qilinadi. Mexanik tuzilmalar tebranuvchi tayanchlar, moslanuvchan qismlar bilan jihozlanadi.

Jihozlar yonida ovoz o'tkazmaydigan korpuslar va kabinalarning bo'lishi ishlab chiqarish shovqinini kamaytirishga yordam beradi. Korpus va kabinalar GOST 31326-2006 standartiga (ISO 15667:2000) muvofiq ishlab chiqariladi.

Shovqinni yo'qotish ishlab chiqarish binolarini qoplashda maxsus materiallardan foydalanish orqali ta'minlanadi. Bundan tashqari, xona individual ovoz yutgichlar bilan jihozlanishi mumkin.

Xona ovozni yutish koeffitsienti yuqori bo'lgan materiallar: shisha tola, mineral tola, neylon tola, ko'p qatlamli panellar, elastomerik materiallar bilan izolyatsiyalanadi.

Xulosa

Shovqinning ko'tarilishi ishchilarda kasbiy kasalliklarga olib kelishi mumkin va kasbiy jarohatlarning umumiy sababidir.

Sanitariya-epidemiologiya qoidalari butun ish smenasida ruxsat etilgan shovqin darajasini belgilaydi.

Uskunalarni modernizatsiya qilish, binolarni jihozlash va ishchilarni individual eshitish vositalari bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi orqali sanoat shovqinini kamaytirish mumkin.

Akustik omillarni tez-tez kuzatib borish va ishlab chiqarishda shovqin darajasini pasaytirish korxonaga egasining mas'uliyati hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мехнат муҳофазаси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Тошкент, 6 май 1993 й
2. Х.Э. Ғойипов. Мехнат муҳофазаси. Т., «Мехнат» 2000 й
3. Ў.Йўлдошев, У.Усмонов, О.Қудратов. Мехнатни муҳофаза қилиш. Тошкент. "Мехнат" 2001.




## METALAKRILAT HOSILASI ASOSIDA SOPOLIMERLAR SINTEZI VA REAKSIYA UNUMIGA TASHQI OMILLAR TA`SIRINI TADQIQ QILISH

G`aybullayeva A.F assistent, Choriyev M talaba


Buxoro muhandislik – texnologiya institute

Dodetsilmetakrilat va stirolning sopolimerlanish reaksiyalari. Sopolimerlar tarkibining o`zgarish dinamikasini aniqlash bilan tekshirilayotgan monomerlar sopolimerlanishi termometr bilan jihozlangan uch og`izli kolbada 60-85°C haroratda oralig`ida havosizlantirib o`tkazildi. Monomerlarning eritmadagi umumiy konsentratsiyasi 0,1 dan 0,9 mmol/g gacha o`zgartirildi. Initsiator (DAK) konsentratsiyasi 0,50 dan 0,80 % mol gachani tashkil qildi. Erituvchi sifatida toluol qo`llanildi. Bu natijalar asosida somonomerlarning turli konversiyalarida olingan sopolimerlarning o`rtacha tarkiblari hisoblab chiqildi. Sopolimerlanishga monomerlarning ma`lum konversiyasiga yetganda (15- 45 % intervalida) olingan reaksiyon massa benzol bilan suyultirildi va hosil bo`lgan sopolimer izopropil spirtida cho`ktirildi. So`ngra sopolimerlar vakuumda (20-30 °C) o`zgarmas massagacha quritildi. Sopolimerlanish reaksiyasini quyidagicha izohlash mumkin. [12]


1-rasm



Sopolimerlanish unumiga va molekular massasiga monomerlarning mol nisbati, va harorat o`rganildi va quyidagi rasmlarda keltirildi. Harorat 60-85 °C bo`lganda dosetsilmetakrilat va stirol monomerlarning 9:1 nisbatida bo`lganda sopolimerning unumiga stirol va initsiator miqdori o`rganilgan.




2-rasm: Stirol miqdorining 5-10 % va haroratning sopolimerning unumiga ta`siri




3-rasm: Initsiator miqdorining 0,50-0,80 % va haroratning sopolimerning unumiga ta`siri

2 va 3- rasmda sopolimerlanish reaksiyasida stirolning miqdori 5-20% va inisiator 0,50 -0,80 % bo`lganda harorat 60-75 °C gacha oshganda sopolimer unumi ortganligi 75 °C dan 85 °C bo`lganda va inisiatorning 0,70 % dan oshganda reaksiya unumi pasayganini ko`rishimiz mumkin. Bunda haroratning ortishi barcha polimerlanish va sopolimerlanish reaksiyalarni hosil bo`lishida zanjir o`sish reaksiyasini tezlashtirishi va inisiatorning miqdori oshganda sopolimerlanish reaksiyasida polidespersiyalik xususiyati bilan izohlanadi.



4-rasm Stirolni miqdorining 5-10 % va haroratning sopolimerning molekular massasiga ta`siri



5-rasm: Inisiator miqdorining 0,50-0,80 % va haroratning sopolimerning molekular massasiga ta`siri

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, sopolimer tarkibida monomerlarning dastlabki aralashmasidagi stirolni miqdorining 5 dan 20% gacha oshishi sopolimerning molekular massasi 6000 dan 8000 gacha ortishiga, stirolni monomerining konsentratsiyasi 20% dan 5% gacha kamayishi esa sopolimerning molekular massasi kamayishiga olib keldi, bu stirolni yuqori reaksiya faolligi bilan izohlanadi. Haroratning sopolimerlar unumi va molekular massasiga ta`sirini o`rganish shuni ko`rsatdiki, haroratning 60°C dan 80°C gacha o`zgarishi, sopolimer unumiga sezilarli ta`sir qilmasdan molekular massaning kamayishiga olib keldi. Bunda haroratning ortishi barcha kimyoviy reaksiyalarni, shu jumladan sopolimerlar hosil bo`lishida zanjir o`sish reaksiyasini tezlashtirishi bilan izohlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.S.F.Fozilov.,B.A.Mavlonov.,Sh.A.Mavlonov.,D.F.Asadova.,A.F.Gaybullayeva.,H. S.Fozilov.Obtaining Higher Fatty Alcohols Based on Low Molecular Polyethylene and Their Useage as Lubricating Additives for Diesel Fuels. *International Journal on Integrated Education*, 3(12), 44-46.
2. Ражабов, Р. Н., Фозилов, С. Ф., Гайбуллаева, А. Ф., & Фозилов, Х. С. (2021). Газконденсатидан олинган дизел ёқилғиларини сифатини яхшиловчи композицион кўп функционали присадкалар олиш технологиясини ишлаб чиқиш. *Science and Education*, 2(11), 438-443.
3. Mizrobjon Xalim O`G`Li Zaripov, & Saidjon Abdusalimovich G`Aybullayev (2021). PIROLIZ KINETIKASINING MATEMATIK MODEL. Academic research

in educational sciences, 2 (9), 619-625.

4. Gaybullayeva A. F., Sharipov M. S., Gaybullayev S. A. ТАБИЙ ГАЗЛАРДАН ГЕЛИЙ ОЛИШНИНГ КРИОГЕН УСУЛИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 571-579.

5. Шарипов, М. З., Фозилов, С. Ф., Мавлонов, Б. А., & Гайбуллаева, А. Ф. (2021). ПОЛУЧЕНИЕ И ИЗУЧЕНИЕ ВЫСШИХ ЖИРНЫХ СПИРТОВ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В НЕФТЕХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.


## МЕТАЛАКРИЛАТ HOSILASI ASOSIDA SINTEZ QILINGAN SOPOLIMERLARNING DIZEL YOQILG`ISIDA TA`SIRINING MORFOLOGIK O`ZGARISHLARI

**Mavlonov Sh.B dotsent, G`aybullayeva A. F asistent**

*Buxoro muhandislik–texnologiya instituti*

[shoxrux-mavlonov@mail.ru](mailto:shoxrux-mavlonov@mail.ru)

Yuqori parafinli uglevodorodlar sovuq sharoitlarda yuqori elastik xossalarini yo'qolishi bilan tavsiflanadi. Suyuqliklarning harakatchanligi yo'qolishi odatda parafinlarning kristallanishi bilan bog'liq bo'lib, mikrokristallarning katta o'lchamli konkretsiyalaridan iborat kristallar hosil bo'ladi (1- a-rasm). Parafin kristallanishi natijasida quvurlar devorlarida cho'kindi hosil bo'ladi (1- b-rasm), yoqilg'i filtrlari tiqilib buning natijasida filtr nasoslarning ishdan chiqishiga olib keladi (1- c-rasm) [1].



**1-rasm. Parafin mikrokristallari (a), neft quvurlarini parafinlash (b) va avtomobil yonilg'i filtri (c)**


Sovuq iqlimda va past haroratlarda neftni qazib olish va neft va neft mahsulotlarini tashishning texnik muammolarini hal qilish uchun maxsus (so)polimer prisadkalar qo'llaniladi [2].

Sinov usullari va tadqiqot natijalari. Tadqiqot uchun dizel yoqilg'isining (DY) quyidagi namunalari tayyorlangan:


- namuna 1 - asosiy dizel yoqilg'isi;
- namuna 2 - dizel yoqilg'isi + 0,4% MA va ST sopolimeri

Sintez qilinga DDMA va ST sopolimerini nazariy jihatdan uning tarkibidagi funksional va alkil guruhlarining dizel yoqilg'isida depressorlik xossalarini ya`ni

filtrlanishning chegaraviy va qotish haroratiga ta'siri mexanizmini o'rganildi va natijalar quyidagi rasmda keltirildi.



**2-rasm. -15 °C da 1:1 nisbatda DDMA va ST + DY k'orinishi**



**3-rasm. -25 °C da 1:1 nisbatda DDMA va ST + DY k'orinishi**

-15 °C prisadkali dizel yoqilg'isida birlamchi zarrachalar aniqlikga ega bo'lmagan markazlarda bir-birining ustiga yig'iladi va yanada mustahkam zanjirsimon tuzilishga ega bo'ladi. 2-rasmda -25 °C prisadkali dizel yoqilg'isi zanjirga o'xshash zarracha tuzilmalari bir-biri bilan o'zaro bog'lanadi. Parafin molekulalarining bir-biriga yaqinlashgan va bir-biri bilan bog'lanadi va birlamchi zarrachaning ingasimon kristall aglomerat strukturaga aylanadi. Yuqori aniqlikdagi skanerlovchi elektron mikroskop yordamida namunalarning atom tuzilishini to'g'ridan-to'g'ri tasvirlashga imkon beradi yuqoridagi ramlarning qismida birlamchi zarrachalarning nanostrukturallari berilgan. Shakl 2- b ko'rsatadiki, dizel yoqilg'isidan foydalanganda, birlamchi zarralar odatiy yadro-qobiq tuzilishini bajaradi. Yadro tartibsiz kristalli bo'lmagan uglevodorodlardan iborat bo'lib, qobiq ko'p qatlamli uglevodorodlarning kristallanishi natijasida hosil bo'lgan mikrokristalli strukturaning bir turidir. Biz parafin uglevodorodlari orasidagi interfeys aniq ekanligini va birlamchi zarrachalarning tashqi qirradi bir nechta amorf materiallar bilan osongina ajralib turishini kuzatdik. 2 va 3 ramdagi b-qismida ko'rsatilganidek, dizel yoqilg'isida birlamchi zarrachalarning yadrolari ozgina o'zgarishlarni ko'rsatadi. 1-b-rasmda ushbu asosiy zarrachalarning tashqi uglevodorod qatlamlari dizel yoqilg'isidan foydalanganda bir-birini aniq kesib o'tishini ko'rsatadi. Shakl 2 -b ko'rsatadiki, bir nechta qo'shni birlamchi zarralar prisadkadan foydalanganda bir xil tashqi uglerod qatlamlarini taqsimlaydi. 2-b-rasmda depressor prisadkadan foydalanganda qo'shni birlamchi zarralar orasida kamdan-kam hollarda o'zaro faoliyat qatlamlar

mavjudligini ko'rsatadi. Parafin uglevodorodlarining yadro qobig'ining tuzilishi yoysimon o'xshash amorf material bilan o'ralgan cheklangan yoyga o'xshaydi.

Bugungi kunda depressor ta'sir qilish aniq mexanizmi mavjud emas, ammo sintez qilgan prisadkalarining kimyoviy tuzulishi jihatidan n-parafin uglevodorodlariga ta'sirini tushuntirish mumkin. Depressor prisadkalar parafin kristallarining o'sishini kechiktirish yoki oldini olishga yadrolar sirtini o'zgartirish orqali erishiladi. Dizel yoqilg'isida intez qilingan prisakaning fizik va reologik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish parafin kristallanish entalpiyasi samarali ravishda kamaytirishini aniqlandi. Yuqorida keltirilgan rasmlarda ko'rsatilgan SEM ma'lumotlarini o'rganish natijasida dizel yoqilg'isining erituvchi va molekulyar massa xossalariga qarab, sintez qilingan depressor prisadkaning ta'siri ikkala mexanizmini ham namoyish qilishi mumkin: yadro markazida barqaror kuchsiz parafin kristallari hosil bo'lganligi va kristallar o'sishi ingibitori sifatida ta'sir qilganini ko'rishimiz mumkin. Parafin uglevodorodlarida polipropilen uglevodorod zanjirlari elastik tuzilmalarini hosil qiluvchi kristallanish effekti sifatida ishlaydi. PP-MA sopolimerlari yoqilg'ida bir-biriga yopishib qolishiga yo'l qo'ymaydi, natijada parafinlarning nozik dispersiyalari barqaror kristall shaklda barqarorlashadi. Demak, sintez qilingan sopolimerlar depressantlar past haroratlarda uch o'lchamli strukturaning shakllanishiga yo'l qo'ymaydigan yuqori molekulyar og'irlikdagi birikmalar ekanligi isbotlandi. Fazoviy struktura molekulalararo o'zaro ta'sir kuchlari hisobiga parafinli uglevodorodlar tomonidan hosil bo'ladi. Depressant molekulalar parafin mikrokristallari yuzasiga adsorbsiyalanib, ularning o'sishiga to'sqinlik qiladi. Adsorbsiya jarayoni uchun depressant molekulalarining parafin mikrokristallarining hajmi va shakliga mos kelishini talab qiladi. Depressant molekulasining tuzilishi va polimerning molekulyar og'irlik taqsimoti katta ahamiyatga ega malum bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.F.Fozilov., B.A.Mavlonov., Sh.A.Mavlonov., D.F.Asadova., A.F.Gaybullayeva., H. S.Fozilov. Obtaining Higher Fatty Alcohols Based on Low Molecular Polyethylene and Their Useage as Lubricating Additives for Diesel Fuels. *International Journal on Integrated Education*, 3(12), 44-46.
2. Ражабов, Р. Н., Фозилов, С. Ф., Файбуллаева, А. Ф., & Фозилов, Х. С. (2021). Газконденсатидан олинган дизел ёқилғиларини сифатини яхшиловчи композицион кўп функционалли присадкалар олиш технологиясини ишлаб чиқиш. *Science and Education*, 2(11), 438-443.
3. Mizrobjon Xalim O'G'Li Zaripov, & Saidjon Abdusalimovich G'Aybullayev (2021). PIROLIZ KINETIKASINING MATEMATIK MODEL. *Academic research in educational sciences*, 2 (9), 619-625.
4. Gaybullayeva A. F., Sharipov M. S., Gaybullayev S. A. ТАБИЙ GAZLARDAN GELIY OLI SHNING KRIOGEN USULI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 571-579.
5. Шарипов, М. З., Фозилов, С. Ф., Мавлонов, Б. А., & Гайбуллаева, А. Ф. (2021). ПОЛУЧЕНИЕ И ИЗУЧЕНИЕ ВЫСШИХ ЖИРНЫХ СПИРТОВ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В НЕФТЕХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.

## Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o`qitishning zamonaviy metodlari

### ELEKTRON SOG'LIQNI SAQLASH ISTIQBOLLARI

**Isamova G.R.**

*“Med invest innovatsion tibbiyot texnikumi”*

Zamonaviy dunyoda inson hayotining ko'plab sohalari turli xil axborot manbalari bilan bog'liq. So'nggi paytlarda sohada elektron sog'liqni saqlash kabi tushuncha paydo bo'ldi. Xo'sh, elektron sog'liqni saqlash o`zi nima? Uning afzalliklari va kamchiliklari qanday?

Elektron sog'liqni saqlash - bu telemeditsina kabi variantlar orqali sog'liqni saqlashga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llash usuli bo'lib, pandemiya davrida tibbiyot mutaxassislari bilan video qo'ng'iroqlar bo'yicha maslahatlardan so'ng ko'pchilik yaxshi ma'lum bo'ldi. Bu usul barcha sohalarda va vaqt cheklovisiz tibbiy yordam ko'rsatishni osonlashtirishi tufayli davom etishi kutilmoqda.

Elektron sog'liqni saqlash nafaqat masofaviy maslahatlashuvlarni, balki boshqa tibbiy mahsulotlar va xizmatlarni, masalan, mobil telefonlar yoki planshetlarga o'rnatilishi mumkin bo'lgan mobil ilovalarni ham qamrab oladi. Misol uchun, ko'p kishilar kaloriya iste'molini boshqarish uchun yoki jismoniy aktivlik uchun mobil ilovalardan foydalanadilar. Bundan tashqari, yurak urish tezligi, qadamlar, uyqu sifati va boshqalarni o'lchaydigan soatlar yoki aqlli uzuklar kabi taqiladigan qurilmalar mavjud. Shuningdek, tibbiy mutaxassislar tashxisga integratsiyalashtirilgan monitoring ma'lumotlari orqali bemorning tarixini yaxshilashlari mumkin bo'lgan aqlli futbolka, ko'zoynaklar va boshqalar mavjud.



BigData - elektron sog'liqni saqlashning yana bir muhim ustunidir. Bu xavf omillarini va dori vositalarining mumkin bo'lgan yon ta'sirini aniqlash uchun davolash usullarini moslashtira oladigan katta ma'lumotlarni tahlil qilish. Pandemiya davri bu ma'lumotlardan hayotni saqlab qolish uchun qanday foydalanish mumkinligiga misol bo'ldi.

Ammo bu ishlab chiqilgan yoki kelajakda qo'llaniladigan yagona texnologiyalar emas. Chat-botlar, shuningdek, ko'plab odamlarning kasallik haqida tez-tez so'raladigan savollariga javob berish yoki shifokor qabuliga yozilish va boshqa davolash usullarida o'zining hechog`lik aktualligini ko'rsata oldi.

Aytish kerakki, tibbiyotda allaqachon 3D va 4D bosib chiqarish loyihalari mavjud. Ultratovush tekshiruvlari 4D formatida chop etiladi, bu esa, masalan, homilaning rivojlanishi haqida aniqroq ma'lumot beradi. 3D formatda tibbiy buyumlarni chop etish imkoniyatidan tashqari bioprinting, ya'ni organlar va to'qimalarni 3D bosib chiqarish imkoniyatlari ham mavjud.

Boshqa loyihalar, shuningdek, oyoqlar, tovon, qo'llar yoki boshqa tana a'zolarining protezlarini bosib chiqarishni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi kelajakka eshiklarni ochadi, shuning uchun ular o'z foydalanuvchilari uchun tobora ko'proq foydalaniladi va yaxshilanadi. Bu ilovalar faqat odamlar bilan chegaralanib qolmaydi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, elektron sog'liqni saqlash xarajatlarni kamaytirishi va ko'proq shaxsiylashtirilgan yordamni taklif qilishi, bemorni kuchaytirishi, dori-darmonlarga rioya qilish kabi jihatlarni yaxshilashi va bemor ma'lumotlarini yanada samarali boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, u doimiy va tezkor bemorlarni jalb qilish imkonini beradi, klinisyenlarning veb va ilovalar orqali foydali va ishonchli ma'lumotlarga kirishini yaxshilaydi.

Raqamli sog'liqni saqlash-bu elektron sog'liqni saqlash, mobil sog'liqni saqlash, tele sog'liqni saqlash, sog'liqni saqlash ma'lumotlari kabi tarkibiy qismlarni qamrab oladigan va shular bilangina cheklanmagan keng tushuncha. U sog'liqni saqlash tizimlarini kuchaytirishga imkon beradigan masalan, to'g'ridan-to'g'ri uyda sog'liqni saqlash xizmatlarini ko'rsatish va kerakli miqdordagi xizmatlarni olmaydigan aholi guruhlari uchun tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, yuqumli kasalliklar tarqalishini aniqlashga yordam berish, shuningdek raqamli vositalarni birlashtirish bilan tibbiy yordamning yanada tezkor va samaraliroq yechimlarini taklif etadi.

Shu bilan birga, raqamli sog'liqni saqlash texnologiyalaridan foydalanish nafaqat yangi imkoniyatlarni ochib beradi, balki bir qator muhim savollarni tug'diradi. Raqamli sog'liqni saqlash odamlarga ko'rsatiladigan yordamning yuqori standartlarini ta'minlay oladimi? Raqamli qurilmalarga kira olmaydigan odamlar uchun nima qilishimiz mumkin? Raqamli qurilmalarga kirish imkoniga ega bo'lmagan yoki ulardan qanday foydalanishni bilmaydigan odamlar e'tibordan chetda qolmasligi uchun nima qilishimiz kerak? Qanday qilib biz bemorlarning shaxsiy ma'lumotlarini to'g'ri himoya qilishni kafolatlay olamiz, shunda odamlar bunday xizmatlardan qo'rqmasdan foydalanishlari mumkin?

JSSSTning o'n uchinchi umumiy ish dasturi bilan kelishilgan Evropa ish dasturi aholining sog'liqni saqlash xizmatlari bilan universal qamrab olinishini ta'minlash orqali mintaqadagi barcha mamlakatlar aholisi uchun sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u raqamli sog'liqni saqlash ushbu istiqbolli qarashni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Digital Health Flagship Initiative boshqa asosiy tashabbuslar, jumladan, xulq-

atvor, madaniy va ruhiy salomatlik bilan bog'liq; bir vaqtning o'zida yaxshi amaliyot namunalari va yangi imkoniyatlarni aniqlash uchun hamkorlik modelini yaratishga qaratilgan. Tibbiyot mutaxassislari va bemorlarning xavfsizligini ta'minlash va tibbiy yordamning uzluksizligini ta'minlash uchun epidemiyalarni kuzatish va onlayn maslahatlar berish uchun kontaktlarni kuzatish ilovalari kabi raqamli vositalardan foydalanish raqamli texnologiyalardan qanday foydalanish mumkinligiga misoldir.

Ushbu raqamli sog'liqni saqlash usullari mintaqa mamlakatlari tomonidan allaqachon qabul qilingan va biz bilan abadiy qolishi mumkin. Fuqarolarga yetarli darajada tibbiy xizmat ko'rsatish va sog'liqni saqlash tizimlari tomonidan yangi texnologiyalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ta'minlash uchun ushbu sohada yetakchilik va bilim almashishni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

#### Adabiyot

1. “Raqamli iqtisodiyot-kaдрлар тайёрлашнинг долзарб йўналишлари” Гулямов С.С., Аюпов Р.Х., Абдуллаев М.К. – “Iqtisodiyotvainnovatsiontexnologiyalar” ilmiyelectronjurnali, No1, yanvar-fevral, 2020 yil

2. Ермолаева Е.В., Павлова Л.А. Медицинская профессия: требования современного общества // Общество и здоровье: современное состояние и тенденции развития. М., 2013.

## INSONIYATNING DAVLAT-JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTUGAN O'RNI.

**Xalilov Tohir Normurodovich**

*Jondor tuman 2-son kasb hunar -maktabi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston “inson-jamiyat-davlat” konsepsiyasining jamiyat hayotidagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda, jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g'oyaga tayanishi, hamda “Davlat inson uchun”, “inson jamiyat davlat” tamoyillari asosida tashkil etilganligi va Yangi O'zbekistonda milliy dasturida ko'rsatilganligiga asoslanadi. Mazkur tamoyilga amal qilish esa, inson va uning manfaatlarini davlat siyosati va islohotlarining asosiy mezoniga aylanayapti. Bu nafaqat yurtimizda, balki butun Jahon siyosatida bunday islohotlarning demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi inson manfaatlarini, haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilganining e'tirof etilishi ham ana shu maqolada tanishib chiqish mumkin.

Kalit so'zi: Yangi O'zbekiston, Yangi o'zbekiston strategiyasi, xalqaro umuminsoniy fazilarlar, umu bashariy qadriyatlar, xalqaro umum etirof iqtisodiy, ijtimoiy hujjatlar, inson Qadri.

#### KIRISH

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat tomonidan Taraqqiyot huquqi to'g'risidagi konvensiya loyihasi ishlab chiqilyapti. Qolaversa, 35 yildan buyon Taraqqiyot huquqi to'g'risidagi deklaratsiya amal qilmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidenti taqdim



etayotgan Taraqqiyot strategiyasi xalqaro hamjamiyatning rivojlanish tendensiyalariga, butun dunyoning taraqqiyot trendlariga to'la mos keladi. Shuni ham aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma qarori bilan Barqaror taraqqiyot maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha konstitutsiyaviy parlament komissiyasi tuzilgan. Parlament komissiyasi Barqaror taraqqiyot maqsadlari ijro etilishini parlament nazorati yo'li bilan ta'minlamoqda. Binobarin, Taraqqiyot strategiyasini amalda tatbiq etishda ham parlamentning roliga alohida e'tibor qaratilayotgani juda muhim. Yangi O'zbekiston - xalqchil davlat. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" loyihasida "Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" g'oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi "Xalqchil davlat" milliy dasturini ishlab chiqish vazifasi zimmamizga yuklangani bejiz emas.

Albatta, ushbu Dastur loyihasi, ilg'or xorijiy davlatlarning tajribasini inobatga olgan holda, belgilangan muddatda ishlab chiqiladi va taqdim etiladi. "Yo'l xaritasi" loyihasida yana bir muhim vazifa - Xalq qabulxonalarining huquqiy maqomini takomillashtirish masalasi uchun mas'ul etib belgilanganmiz. Xalq qabulxonalari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish va ularning davlat boshqaruvi tizimidagi maqomini mustahkamlashga qaratilgan Konstitutsiyaviy qonunni qabul qilish bo'yicha ishlarni allaqachon boshlab yubordik. Yangi O'zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Bu davrda "inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri - eng muhim qadriyat" degan tamoyil e'tirof etilmoqda. Shu munosabat bilan milliy qonunchilik va huquqiy amaliyotda "shaxs -jamiyat - davlat" tamoyilini mustahkamlash kerak. Zero, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan "davlat - jamiyat - inson" tamoyili "inson - jamiyat - davlat" tamoyiliga o'zgartirilmoqda. Xalq bilan bevositamuloqot qilish, yurtdoshlarimizning dardu tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo'yicha mutlaqo yangi demokratik tizim - Xalq qabulxonalari o'tgan besh yilda faoliyat yuritib kelmoqda va o'zini oqladi. Bundan tashqari barcha davlat organlari faoliyatida "xalq dardiga kuloq solish", muammolarni joyida hal etish va xalqni rozi qilish bo'yicha samarali ishlar qilinmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi loyihasining 11-maqsadida "Xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini takomillashtirish" muhim vazifa etib belgilanmoqda. Xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish, davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonini raqamlashtirish, murojaatlarni tezkor va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, eng asosiysiy, "Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" g'oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi "Xalqchil davlat" milliy dasturi ishlab chiqish belgilanmoqda. O'z navbatida, "Yo'l xaritasi" 46-bandida qiynoqlarning oldini olish bo'yicha preventiv mexanizmlarni takomillashtirish haqida so'z boradi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi ushbu vazifaning asosiy ijrochilaridan biridir. Bunda, birinchidan, qiynoqlarning oldini olish bo'yicha tegishli xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish taqozo etiladi. Ikkinchidan, qiynoqlarning oldini olish bo'yicha preventiv milliy mexanizmning

qonuniy asoslarini rivojlantirish kerak bo'ladi. Hamkor tashkilotlar bilan har ikki masala bo'yicha, umuman, Taraqqiyot strategiyasi ijrosi doirasida o'zaro hamji hatlikda faol ish olib boramiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya 2024 yil
2. www.lex.uz.[1]
3. www.norma.uz[2]
4. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni .[3]
5. www.strategy.uz.[4]

## **HARORATNING METTALL KESUVCHI DASTGOHLARNING STATIK ANIQLIGIGA TA`SIRI**

**R.N.Isamov**

*Buxoro muhandislik texnologiyasi instituti*

Po'lat va cho`yanning termik kengayish koeffitsientlaridagi farq tufayli prezitsion dastgohlarning statik aniqligidagi mumkin bo'lgan o'zgarish xonada doimiy haroratni saqlab turish bilan cheklanadi.

Prezitsion mashinalar, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri yoki isitish moslamalari bilan isitishdan va isitiladigan yoki sovutilgan havo oqimlarining ta'siridan himoyalangan bo'lishi kerak, shuning uchun jilvirlash dastgohlari kabi prezitsion dastgohlar kerakli haroratni saqlab turadigan avtomatik ishlaydigan konditsioner qurilmalar bilan jihozlangan maxsus xonalarga o'rnatiladi.

Metall kesish dastgohlarida mexanik ishlov berish jarayoni issiqlik ajralishi bilan kechadi. Ishlov berishda ajralib chiqadigan issiqlik dastgohni to'la quvvatda ishlatish shuningdek, yuklama va kesish tezligining oshishi bilan absolyut qiymatda oshib boradi. Ajralib chiqadigan issiqlikning bir qismi atrof muhitga tarqalsa, asosiy qismi dastgohning issiqlik o'tkazuvchi materialdan tayyorlangan qismlari orqali qabul qilinadi. Dastgoh qismlarining notekis qizishi ayrim qismlarining deformatsiyalanishiga, o'lchamlarining va alohida ishchi yuzalarining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Natijada, kesuvchi asbob va ishlov beriladigan tayyorlanmaning nisbiy holati o'zgaradi va ishlov berishdagi xatolik ortadi.

Metall kesish dastgohlarida issiqlikning ajralib chiqishi asosan podshipniklardagi ishqalanish, gidrotizimda va kesishdagi ishqalanish natijasida yuzaga keladi. Tekshiruvlarga ko'ra [1], o'rta o'lchamdagi mod.3151 doiraviy jilvirlash dastgohida quyidagi miqdorda issiqlik ajralib chiqishi aniqlangan: jilvirlash babkasi podshipniklarida 0.2 kkal/sek, gidravlika tizimida 0.27 kkal/sek, kesishda va MMS tizimida 0.96 kkal/sek, detalda 0.03 kkal/sek. Bu miqdordagi issiqlik 1 litr suvni 1 minutda qaynatish uchun yetarli hisoblanadi.

Aniq dastgohlar sirasiga kiruvchi jilvirlash dastgohining ishlash paytida qizishi, kesuvchi asbob (jilvirlash toshi) yuza qismining detal o'qiga kesish kuchi ta'sirida texnologik tizimda yuzaga keluvchi elastik deformatsiyalardan ko'ra sezilarli

siljishiga olib keladi. Issiqlik ayniqsa, detalning berilgan o'lchamini jilvirlash babkasining tirgaklari orqali yoki surish mexanizmining tirgaklari orqali jilvirlash toshiga nisbatan belgilashda yuqori aniqlikda ishlovchi avtomatik tsikli jilvirlash dastgohlariga katta ta'sir ko'rsatadi.


B.T.Breev [1] silliqdash dastgohlarini isitish ta'sirida ish qismiga nisbatan bir necha yuz millimetrga va hatto 0,1 mm dan ko'proq siljishini ko'rsatadigan bir qator misollar keltiradi 3A182 mashinasi, bu bo'ylab silliqdash g'ildiragining o'qiga nisbatan og'ish, u oldingi podshipnikda 0,07 mm, orqa podshipnikda esa 0,11 mm ga yetgan.

Dastgohning isishi kesib kirish bilan silliqdash paytida o'lchov moslamasi yordamida o'lchamlarni avtomatik nazorat qilish bilan ham, ishlov beriladigan detalning shakliga ta'sir qiladi, silliqdash g'ildiragi va ishlov beriladigan detalning o'qlari orasidagi parallellikni buzadi va val bo'yinchasining sezilarli darajada konuslanishiga, ko'pincha 2-3-chi aniqlik sinflarining joizligidan tashqariga chishiga olib keladi.

[1] ga ko'ra, tokarlik va vertikal frezalash dastgohlarining podshipniklar va tishli uzatmalarida ishqalanish natijasida shpindel kallagining qizishi natijasida shpindellarning millimetrning bir necha yuzdan bir qismiga siljishiga olib keladi, ba'zan esa 0,1 mm dan oshib ketadigan qiymatlarga yetadi.

Ish paytida qizishdan yuzaga keladigan dastgohlarning deformatsiyasi dastgoh qismlarining katta massaga ega ekanligi tufayli sekin (1-4 soat) sodir bo'ladi va dastgohning to'xtatilgandan keyin sovishi undan ham sekinroq (10-20 soat) sodir bo'ladi.

Ekspirimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, (1-rasm) qizdirilganda, siljishlar birinchi navbatda nisbatan tez sodir bo'ladi va keyin asta-sekin sekinlashadi, bu joy almashishning o'sishini to'xtatish va mashinani to'xtatish bilan tavsiflangan termik muvozanatga erishgandan so'ng, dastgohning sekinlashishi bilan ham sodir bo'ladi.



1-rasm. Tokarlik dastgohi shpindelining, oldingi babkaning temperaturaviy deformatsiyalanishi natijasida siljishi

Issiqlik rejimining barqarorlashuvi dastgohning konstruktsiyasiga, uning massasiga, issiqlik taqsimotiga va issiqlik uzatish sharoitlariga bog'liq. Qizishdan oldin va keyin aynan shu dastgohda ishlov berilgan detallarning shakl aniqligidagi farq ruxsat etilgandan katta bo'lishi mumkin. Shuning uchun dastgohni ish holatida

sinab ko'rish, agar u uzoq muddat ishlamay turgan bo'lsa, dastgohni qizdirgandan keyingina unda detalga barqaror aniqlikda ishlov berish mumkin. Smenada yoki smenalar oralig'ida vaqtincha to'xtashlar dastgohning sekin sovishi tufayli uni oldindan qizdirishga zarurat tug'dirmaydi.

**Adabiyot:**

1. Бреев Б.Т. Влияние нагрева шлифовальных станков на точность их работы.- «Станки и инструмент».

2. Маталин А.А., Френкель Б.И., Панов Ф.С. Проектирование технологических процессов обработки деталей на станках с числовым программным управлением. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1977. – 240 с.

3. Энтелис С.Г., Берлинер Э.М. Смазочно-охлаждающие технологические средства для обработки металлов резанием: справочник. – М.: Машиностроение, 1986. – 352 с.

**KOMPYUTER SHOU  
ZAMONAVIY AKT VOSITALARIDAN FOYDALANIB INTELLEKTUAL  
O'YINLARNI TASHKIL ETISH XUSUSIDA.**

**Nodira Po'latova<sup>1</sup>, Dilrux Raxmatova<sup>1</sup>**  
*Jondor tuman 2-son kasb- hunar maktab<sup>1</sup>*

Bugungi kunda zamonaviy axbarot maydonidagi harakatlar shu qadar tezkor-ki, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi deb beparvo qarab bo'lmaydi. Yot g'oyalarni yoshlarimiz orasida juda tezlik bilan tarqalishiga zamonaviy axbarot almashinuvi vositalari, asosan INTERNET juda qo'l kelmoqda. Buning uchun o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlarida turli fan va sport to'garaklarga ishtirokini va ko'plab fanlardan bellashuvlar o'tkazib turishlarini tashkil qilish kerak va zarurdir.

O'quvchilarga zamon talabi darajasida ta'lim - tarbiya berish hozirgi kunning asosiy masalalaridan biridir. Kasb-hunar maktabida ko'plab fanlardan turli xil bellashuvlar o'tkazilib turadi. Quyida tavsiya qilayotganimiz **“Kompyuter- shou”** intellektual o'yin musobaqalarini tashkil etishdan maqsad, nafaqat kasb-hunar maktabi o'quvchilarini, balki butun kasb-hunar maktabi jamoasini kompyuter savoqlarini olish, uning sirlaridan voqif bo'lish istagida bo'lgan bilimga chanqoq o'quvchilarni mamlakatimiz bo'ylab qizg'in borayotgan kompyuterlashtirish jarayoniga hissa qo'shish, zamonaviy axbarot texnologiyalaridan oz bo'lsada xabardor qilishdan iboratdir.

Tashkil etilgan kompyuter savodxonligi bellashuvida o'quvchilarning olgan ta'surotlari uzoq vaqt xotiralarida saqlanib qoladi, o'z iste'dodlarini va bilimlarini namoyish qilishda erkinlik yaratadi.

O'yin uchun sahna quyidagicha tashkil qilinadi: sahnaning ikki tomonida ikkala guruh uchun stol va stullar, stol ustida bittadan Nootbuk kompyuterlari joylashtiriladi. Guruhdagi qatnashuvchilar soni 6 hafardan 10 nafargacha bo'lishi mumkin. Shuningdek hakamlar hay'ati joylashgan stol ustida yana bitta

kompyuter joylashtiriladi . Bu kompyuter proyektorga ulangan bo'ib, sahnaning orqa tomon devorida “ Bu o'yin Odam savdosini oldini olish va Ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlariga qarshi kurashish muammolariga bag'shlanadi”, “INTERNET-99”, “ WINDOWS-114”, “ Xush kelibsiz” kabi yozuvlar ( “begushaya stroke”) namoyish etib boriladi.

Va nihoyat Boshlovchi bellashuv boshlanganligini e'lon qilib Guruhlarni sahnaga taklif qiladi .Bellashuv ishtirokchilari musiqa sadolari ostida zalga kirib kelishadi va oz o'rinlarini egallashadi.Boshlovchi barchani bellashuv shartlari, hakamlar hay'ati bilan tanishtirib o'tadi va sahnaga INTERNET guruhini taklif qiladi.

**1- shart “ Tanishuv”** .bu shart bo'yicha guruh a'zolari o'z chiqishlarida kompyuter savodxonligi hozirgi zamon talabi ekanligi,uning imkoniyatlari, odam savdosi shuningdek missionerlik g'oyalarini targib qiluvchilarni fosh etuvchi sahna ko'rinishlarini namoyish qilishadi.

**Bizning guruh:** INTERNET.

**Bizning shior.**Kompyuter taraqqiyoti ,XXI -asr komoloti

**Bizning maqsad:** Komil inson bo'lib yetishish,

Boshlovchi sahnaga WINDOWS guruhini taklif qiladi.Ular ham shu tarzda o'z chiqishlarini namoyish qilishadi.


Birinchi shart –“Tanishuv” tugagach o'yin davom etadi.Boshlovchi ikkinchi shartni e'lon qiladi.**Ikkinchi shart :**“10 savolga , 10 javob”.Bunda fanga oid 5 ta, boshqa sohaga oid 5 ta qiziqarli savollarga navbat bilan guruhlardan taklif qilingan o'quvchilar javob berishadi.(har bir to'g'ri javob 2 ball bilan baholanadi)

1. Ma'lumotlar omborini yaratish uchun kompyuter bo'lishi shartmi? (yo'q)
2. Modem- axborotni qog'ozga chiqaruvchi qurilma. (yo'q)
3. inbox.uz- milliy pochta xizmatimi. (ha)
4. Kompyuter virusi kasallik-mi ? (yo'q)
5. Matematk formula – matematik model bo'ladimi? (ha).
6. Yoshlar ijtimoiy harakati- (Komolot)
7. Har bandi 7 misradan iborat she'riy janr bu - (Musabba))
8. Kompyuter virusi kasallikmi? – (Yo'q)
9. ½ kattami yoki 0,5. (Teng)
- 10.Printer axborotni qog'ozga chiqaruvchi qurilma. (Ha)

**Boshlovchi uchinchi shartni e'lon qiladi.** Bu shartga ko'ra stol ustiga qo'yilgan kompyuterlar oldiga ikkala guruhdan bittadan tez va bexato yoza oladigan o'quvchilar taklif qilinadi.Ular kompyuterning matn muharriridan foydalanib maxsus tanlab olingan ,tarbiyaviy ahamiyatga ega bolgan she'r yoki matnni kompyuterda tez va bexato yozishlari talab qilinadi.Har bir yo'l qo'yilgan xato (harfni tushirib qoldirish yoki ortiqcha yozish, kichik va katta harflarni yozishdagi, tinish belgilardagi) 1 ball jarima bali bilan baholanadi va umumiy baldan ayirib tashlanadi.

Matn yozib bo'lingandan so'ng hay'at a'zosi kompyuter yoniga taklif qilinadi va u matnning imloviy va uslubiy xatolarini tekshirib natijani e'lon qiladi.

**Boshlovchi 4- shartni e'lon qiladi .Bu shartda fanga oid savollardan tuzilgan krassvordlarni guruhlar almashib yechishlari kerak.**  
INTERNET guruhi krassvordi.



**1. Model turlaridan biri.**

*(Fizik)*

**2. Stels – qanday virus**

*isoblanadi.*

**3. Yagona maqsad yolida bir vaqtning o'zida**

*ham yaxlit, ham*

*o'zaro bog'langan tarzda faoliyat ko'rsatadigan elementlar*

*majmui bu-..... .*

**4. Tarmoq ishini tashkil qiluvchi**

*maxsus kompyuter.*

**5. Ijrochi bajarishi uchun mo'ljallangan buyruqlar**

*ketma-ketligi.*

**6. Algoritmni asosiy**

*xossalardan biri.*


**7. Axborotni kompyuterdan uzatish kabeliga**

*o'tkazuvchi electron qurilma.*

**8. Boshqarish mobaynida eng kam vaqt va mehnat yoki**

*eng kam miqdorda narsa va energiya sarflansa bu ..... boshqarish deyiladi.*

WINDOWS guruhi krasvordi.



**1. Belgilangan papka yoki fayllardan nusxa olish buyrug'i.**

*2. Pochta qutisi va elektron adres bilan abonentlarni ta'minlaydi*

**3. Pozitsion bo'lmagan sanoq tizimi.**

**4. Ma'lumotlarni chop qiluvchi qurilma.**

**5. Axbarot o'lchov birliklaridan biri.**

**6. Ma'lumotni tovush orqali uatuvch pochta.**

**7. Elektron matnli va grafik axbarotlarni chiqruvchi vosita.**

**8. Turli ko'rinishdagi ma'lumotlarni kompyuterga**

*kirituvchi qurilma.*

**9. Kompakt disklarni o'quvchi qurilma.**

Barcha shartlar hakamlar hayati tomonidan baholanib boriladi va g'olib guruh

aniqlanib taqdirlanadi. **Boshlovchi:** Bugungi “Odam savdosini oldini olish” va “Ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlariga qarshi kurashish muammolari”ga bagʻshlab oʻtkazilgan “**Kompyuter- shou**” intellektual oyinimiz nihoyasiga yetdi. Sizlarga navbatdagi tadbirda uchrashguncha **Xayr** deb qolamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Й.С.Савриев Исследование технологии экстракции жмыхов масличных семян.
2. Й.С.Савриев,. Ш.Ш.Хакимов Исследование и оптимизация технологии экстракции хлопковых жмыхов.
3. Savriyev Y.S., SH.SH.Hakimov., K.H.Majidov Technological features of olive seeds.

### **INSON QADRI HAR NARSADAN ULUG‘.**

#### **Sodiqova Mehriqul Ibrohimovna**

*Buxoro viloyat Jondor tuman 2-son kasb-hunar maktabi maxsus fan o‘qituvchisi*

#### **Ismatullaeva Mohlaroyim Nusratillo qizi**

*Buxoro Davlat Universiteti talabasi*

“Ilm inson vujudining xushmanzara bog‘idir va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir.

Yumshoq ko‘ngillik hodisalar to‘la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo‘ladi va insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo‘ladi

Insoniyat tarixida shunday davrlar borki, unda oz sonli yo‘lboshchilar yetakchiligida qisqa vaqt ichida ming yillarda qo‘lga kiritish mumkin bo‘lgan natijalarga erishganlar. Temuriylar davlati ham ko‘plab olimlarga ijod qilish uchun zamin yaratdi. Shunday buyuk ajdodlarimizdan biri Mir Alisher Navoiydir. U zot xalq orasida insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surib, turli millat va elatlar o‘rtasida do‘stlikni ulug‘ladi. U zot doimo ilmu-hunar o‘rganish va hakimlar suhbatini tinglashni afzal bilgan. Mol-dunyoga hirs qo‘yish va ta‘magirlikni qoralagan. Alloh taolo Ra‘d surasining 28-oyatida: **“Iymon keltirganlar va Allohning zikri ila qalblari orom topganlar. Ayo, Allohning zikri ila qalblar orom topmasmi?”** — deydi.

Xondamir o‘z izohida Alisher Navoiy haqlarida shunday deydi: “Alisher Navoiy yoshlik va yigitlik vaqtlarida doimo hakimlar suhbatini talabgori edi”. Navoiy hazratlari vazir va hokim lavozimlarida ishlagan vaqtlarida ham, keyinchalik ham badiiy ijod bilan shug‘ullanish, madrasa va xonaqoxlar bunyod etish yo‘lida say‘-harakatlarni tark etmaganlar. O‘z jamg‘armasidan to‘rtta katta masjid va xonaqoxlar qurdirgan. Navoiy xalqparvarlik, saxiylik va shu kabi ezgu ishlarga boshqa insonlarni ham targ‘ib etganligini ko‘rish mumkin.

Odamiy ersang, demag‘il odami,  
Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Bu mashhur baytning ma'nosi shuki: "Haqiqiy inson bo'lsang, xalq g'ami bo'lmagan kishini komil inson deb hisoblama".

Hazrati Anas roziyallohu anhudan keltirilgan rivoyatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat qiladilar: «**Mening ba'zi bir xos ummatlarim bo'ladi. Ularni oila mening zikrimdan mashg'ul qila olmaydi.**»

Alisher Navoiy o'z hikmatlarida insoniylik qadr qimmatu to'g'risida shunday serma'no so'zlarni qoldirib ketgan. Darhaqiqat inson qadri har narsadan ulug'.

Amr ibn Shuayb otasidan, u kishi bobosi roziyallohu anhumdan rivoyat qiladilar:

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Kichikligimizda rahm qilmagan, kattalarimizni qadrlamagan bizdan emas" dedilar.

Payga'mbarimiz sollallohu alayhi vasallamning bizdan emas deyishlari juda og'ir so'zdir. Bu musulmon emas, mening ummatim emas deganlaridir. Nima uchun yoshi kattalarni qadrlash yoshlarni e'zozlash kerakligi to'g'risida payg'ambarlar, donishmandlar, xalq ichida yurgan ko'pni ko'rgan ziyoli olimlaru, yoshi ulug' bo'lgan otaxonlarimiz bu haqda bot-bot eslatishadi.

Bir shu yurtida shu zaminda yashab yurgan ekanmiz bir-birimizni hurmat qilishimiz, bir-birimizni qadrlashimiz shart va zarurligi hattoki hadislardayam aytib o'tilgan. Chunki qadr-qimmat yo'qolsa yoshlarning izzati, keksalarning hurmati, insonning insoniylik fazilati yo'qoladi, hayot barbot bo'ladi. Zotan insonni ulug'lash, e'zozlash, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish dinimizning maqsadlaridan biridir. Lekin ming afsuski hozirgi kun haqiqatlaridan biri shuki molu davlat ketidan quvib, tirikchilik dardida yurib, mansab izidan quvlab qadr qimmat degan tushunchalarni sal chetga surib qo'ymadikmikin. Hozirgi kecha kunduzda hayotimiz davomida shunday kishilarni ko'rdikki qadr-qimmat, hurmat degan tushunchalarni pul bilan o'ldaydiganlar topiladi. Shunday kishilarni ko'rdikki ota-onasini, aka-ukalarini qadrlamay ularni holidan xabar olmay qanaqangir yetti yot begona bo'lgan "akaxon" u "opaxon" larini qadrlaydigan, ularni yo'qlab turadigan, qimmatbaho sovg'a salomlar bilan siylaydigan o'z manfaati uchun hurmat ko'rsatadigan soxta mehribonlarimiz ko'paygan.

Mehr oqibat, qadr-qimmat ham qanaqadir manfaatlar yo'lida, nafs yo'lida qurbon bo'lmadimikin?

Hayotda yana shunday "saxovatpesha" kishilarni uchratamizki u kishi saxovatpesha bo'lib turli xil ziyofatlar, xudoyilar, qurbonliklar, to'ylar tashkil qilib xalqqa o'zlarini ko'z-ko'z qiladilar lekin bechorahol akani, singilni, hattoki qarovsiz qolgan ota-onani, kasalmand yotgan qarindoshni holidan xabar olmaydi.

"Ey mo'minlar, sadaqangizni odamlarga ko'rinish uchun sarflaydiganlar kabi Allohga va oxirat kuniga iymon keltirmaydiganlar kabi sening hadyatingizni eslatish bilan halok qilman" deyilgan Qur'oni karimda.

Shunday ekan xayru-ehsonni ham, mehr muhabbatni ham, qadr qimmatni ham o'z oilamizdan, atrofimizdan, mahallamizdan, yaqinlarimizdan boshlashimiz shart va zarur.

"Inson qadrini ulug'lash - yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq



va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash demakdir” dedi prezidentimiz.

Shunday ekan aziz hamyurtlarimiz insonig qadr qimmatini har narsadan ustun qo‘yib, bir-birimizni har doim qadrlab yurib asl o‘zbek yurtiga munosib bo‘laylik.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoevning so‘zlariga ko‘ra, o‘tgan qisqa davrda jamiyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy qiyofasi tubdan o‘zgargan. Olti yil oldingi xalq bilan bugungi fuqarolarning dunyoqarashi o‘rtasida katta farq bor.

O‘zbekiston Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda davlat rahbari inson qadr-qimmatini, sha’ni va g‘ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o‘rinda turishi kerakligini ta’kidladi, deb prezident matbuot kotibi. Prezident mavzuni davom ettirib, bu savollarning barchasiga javobni puxta ishlangan huquqiy normalar orqali Konstitutsiyada aks ettirish – davr taqozosi ekanini bildirgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoev Sh.M. <https://daryo.uz/2022/06/20/shavkat-mirziyoyev-inson-qadr-qimmatini-shani-va-gururi-bundan-buyon-barcha-sohalarda-birinchi-orinda-turishi-kerak>.

3. С.А. Буронов. Методические советы по разложению функций многих переменных в ряд тейлора. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskiye-soveti-po-razlozhenie-funktsiy-mnogix-peremennyx-v-ryad-teйлора/viewer/0842,2022>.

### **O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARIDA YUKSAK INSONIY FAZILATLAR TALQINI “DUNYONING ISHLARI” QISSASINI O‘RGANISHDA YANGI PED TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH mavzusida yozgan maqolasi**

#### **Polvonova Baxtigul Bobir qizi**

*“Gilam paypoq”, “Alla” va “Haqqush” boblarini o‘rganishda innovatsion usullardan foydalanish. Jondor tuman 2-son kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

“Dunyoning ishlari” asarni o‘qitish va u orqali yosh avlodni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Chindan ham qissani o‘qish jarayonida ta’lim oluvchilar, inson qadri, ezgulik g‘labasi, mehr-oqibat, himmat saxovat, bagrikenglik kabi fazilatlarni o‘zida o‘zlashtiradi. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfida o‘rganiladigan “Dunyoning ishlari” qissasi xarakterlidir.

Adibning “Dunyoning ishlari” qissasini o`qitishni maqsad qilinar ekan dastavval ijodkorning tarjimai holi, ijodiy biografiyasi to`g`risida ham ma`lumot berib o`risha ehtiyoj tug`iladi. Maktabda badiiy asar o`rganilar ekan, uni ilmiy va didaktik tahlil etib xulosalar chiqarishga uruniladi. Badiiy asar tahlilidan ilmiy xulosalar chiqarmoq uchun yozuvchining pozitsiyasining tushunish kerak bo`ladi. Buning uchun esa ijodkorlarning tarjimai holi bilan tanish bo`lish talab etiladi. Shundagina u yoki bu hayotiy hodisaga adib qanday munosabatda bo`lganligidan xabardor bo`lish mumkin. Maktab adabiy ta`limida yozuvchilar hayoti va ijodi, tarjimo holini ikki sababga ko`ra o`rganiladi:

1) Adiblar millat ahlining diqqat e`tiborida turgan kishilar, ularning shaxsiy hayoti va tabiatida o`quvchilar uchun namuna bo`ladigan jihatlar ko`p. Binobarin, yozuvchi hayoti o`quvchilarga ma`naviy namuna maktabi sifatida o`rgatiladi.

2) Adiblarning hayot yo`li, sa`jijasi asarlarida o`z nuqsini qoldiradi. Binobarin, ijodkorlarning hayot va ijod yo`llari va shaxsiyatlari borasidagi ma`lumotlar ularning asarlarini tushunishga kalit hamdir.

Yozuvchi biografiyasi haqidagi ma`lumot hamma sinflarda ham beriladi. Ammo o`smir yoshidagi o`quvchi bilan o`spirin yoshidagi o`quvchining adiblar tarjimai holini o`rganish o`ziga xos didaktik jarayonlar tarzida kechadi.

O`smir yoshidagi bolalar yoki 5-6-sinflarning o`quvchilari hali adabiy asarlar yaratish badiiy zaruriyat ekannini unchalik tushunmaydilar. Buning ustiga ular adib shaxsiyatining badiiy asarda aks etishini ham to`liq anglamaydilar. Shu sababdan ham 5-8-sinflarning darsliklarida yozuvchilar haqida o`quvchilarga eng umumiy ma`lumotlar berish bilan kifoyalanadi. Odatda, 5-8-sinflarda adiblarning biografiyalarini o`rganishiga alohida soat ajratilmaydi. Binobarin, yozuvchi haqida uzoq to`xtalish zaruriyati yo`q. Shuning uchun darsliklarda o`quvchilarning o`zlari o`qib olishlari mumkin bo`lgan ma`lumotlar beriladi.

“Dunyoning ishlari” qissasiga kirgan hikoyalarni o`rganganda bir qancha noan`anaviy metodlarni qo`llash mumkin. Quyida ana shu usullardan ba`zilari haqida qisqacha ma`lumot berib o`tamiz:

**“Qarorlar shajarasi”** metodi bir qadar murakkab mavzularni o`zlashtirish, ma`lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to`g`risini topishga yo`naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

**Burchaklar usuli.** Bunda muhokama etilayotgan muammo bo`yicha o`zining nuqtai-nazarini bildirish imkoniyati beriladi. Ishtirokchilar ikki-uch guruhga bo`linadilar va dars mavzusi bo`yicha bahs yuritib, ishtirokchilar orasidan, agar kimdir o`z fikrini o`zgartirsa, guruhni almashtirishiga ruxsat beriladi.

**“Aqliy hujum” metodi.** Mazkur metod o`quvchilarning mashg`ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta`minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag`batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang -barang g`oyalarni to`plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish ye chish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo`lgan fikrlarni yengishga o`rgatish uchun xizmat qiladi.

**Muammoli o'qitish texnologiyasi** – bu rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyasi bo'lib, faol bilim orttirish jarayonini rag'batlantiradi va fikrlashning mantiqiy ketma-ketlik stilini shakllantiradi. Bu texnologiya oliy maktabda eng samarali texnologiyalardan biri hisoblanadi. Muammoli o'qitish mohiyati o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'qishida muammoli vaziyatlarni tashkil etish va o'quv (yaxshisi, hayotiy) masalalar, muammolar va savollarni yechish yo'li bilan yangi bilimlarni ozlashtirish faoliyatini boshqarishdan iborat.

**«Bumerang» texnologiyasi** orqali dars jarayonida yoki turli adabiyotlardan, tarixiy manbalar, matnlar bilan mustaqil ishlash jarayonida o'quvchilarning o'rganilgan materialni yaxshi eslab qolish imkonini beradi, og'zaki nutqni rivojlantiradi va o'z fikrini erkin bayon eta olish malakalarini shakllantiradi, shuningdek, bir dars davomida barcha o'quvchilarni baholash imkonini beruvchi texnologiya hisoblanadi. «Bumerang» texnologiyasidan yangi mavzuni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin.«Bumerang» texnologiyasining texnologik tavsifi quyidagicha ekanligini ko'rsatish mumkin: da'vat, anglash, fikrlash hamda sharhlash bosqichlari.

Umuman olganda, ushbu metodlarni qo'llash asosida O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida yuksak insoniy fazilatlar talqini haqida o'quvchilarda keng ma'lumotlar berish, asarning tarbiyaviy ahamiyatini yoshlar ongiga singdirishda qo'llash imkoniyati yuzaga keladi. Ayniqsa, asardagi “Qarz” va “Iltijo” boblarini o'rganishda ana shu usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

## **2.2. “Qarz” va “Iltijo” boblarini o'rganishda noan'anaviy metodlarning ahamiyati**

“Qarz” hikoyasida qissaning bosh qahramoni Hakima ayaning insoniy fazilatlaridan yana biri qalamga olinadi. Hakima aya kamtargina nafaqasini ham qo'shnilarining farzandlari xursandchiligiga sarflaydi. O'tgan yili ularga tufli olib bergan bo'lsa, bu yil uch oyoqli velosiped, ko'ylak sovg'a qiladi. O'g'illariga esa qarz oldim, qarzimni uzyapman”, deb bahona qiladi.

Shu o'rinda xalqimizning “Bitta bolaga yetti qo'shni ota-ona” degan ibratli fikri yodimizga tushadi. Darhaqiqat, bolajon xalqimizning qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'larning farzandlariga ham o'z bolasidek qarashlari ma'lum. Qissa qahramoni – Ona qo'shnilarining farzandlarini ham o'z farzandidek ko'rib, ularning tug'ilgan kunlariga turli sovg'alar tuhfa qiladi va ulug'vor ezguliklar yaratadi.

Professor N.Shukurov yozadi: «O'.Hoshimov onasi haqidagi xotiralarini alohida-alohida hayotiy lavhalar tarzida hikoya qilib berar ekan, ularning xronologik tartibini saqlamaydi. Yo'q, u asosan, ko'nglida paydo bo'lgan farzandlik kechinmalari, tuyg'ulari, fikrlari bilan xotirasiga kelgan lavhalarni berib boraveradi. Ko'p novellalar muayyan bir o'y, tuyg'u, kechinma ifodasi bilan boshlanadi va yakunlanadi. O'rtada ona hayoti haqidagi lavhalar beriladi. Kechinma lavhaning, hikoyaning davomi sifatida ulanib ketadi va bir-birining ta'sir kuchini oshiradi»

Darhaqiqat, qissada ona qiyofasi keng va to'laqonli tavsiflanadi. Bu tavsiflanish jarayonida adibning adabiy mahorati va individual uslubi ko'zga tashlanadi. Jumladan, «Qarz» novellasida ona xarakteri sahna ortida tasvirlansa-da oddiy dialog yordamida qahramon siyratining bir qirradi ochiladi. Oddiy hazildan

boshlangan savol-javob Poshsha xola tiynatida mujassam mehr-oqibat, bolajonlik xislatlarini bo'rttirib yuboradi. Lavha adog'ida ayol tilga olgan qarzning mohiyati oydinlashadi. Voqealar tizimining leytmotivi yuqorida ta'kidlanganidek, «bir farzandga yetti mahalla ota-ona» tezisiga hamohangdir.

Qissaning "Iltijo" deb nomlangan bobida insonning ona oldidagi farzandlik burchi hech qachon to'lab bo'lmas qarz ekani nihoyatda ta'sirchan ifodalanadi. Chunki onalarimizning hayotdagi o'rni beqiyosdir. Ular bizni dunyoga keltiradi, oq sut berib boqadi, uzoq tunlar beshigimizni tebratib, atrofimizda parvona bo'ladi, parvarishlab voyaga etkazadi. Buni teran idrok etgan yozuvchi onani qo'msash, uning beqiyos mehri oldidagi qarzdorlik tuyg'ularini g'oyat samimiy tasvirlay oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ё.С.Савриев Исследование технологии экстракции жмыхов масличных семян.

2. Ё.С.Савриев, Ш.Ш.Хакимов Исследование и оптимизация технологии экстракции хлопковых жмыхов.

3. Savriyev Y.S., SH.SH.Hakimov., K.H.Majidov Technological features of olive seeds.

4. Savriyev Y.S., SH.SH.Hakimov., K.H.Majidov Structure of some olive seeds.

## **DEVIANT XULQ-ATVORDAGI O'SMIRLAR JINOYATCHILIGINI PSIXOLOGIK YECHIMLARI.**

**Olimov L.Y.**

*Osiyo Xalqaro Universiteti dotsenti*

**Saidova Sh.Sh.**

*Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti*

#### **Anatatsiya:**

O'smirlar ijtimoiylashuvida ota-ona va bola munosabatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish tadbirlari, eng avvalo, xulq og'ishini keltirib chiqaradigan shart-sharoit va sabablarni bartaraf qilishni taqozo qiladi. **Deviant xulq-atvor** — mikroijtimoiy munosabatlar (oilaviy, maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlariga xos bulgan ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog'liq me'yordan og'uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni "g'ayriintizomiy" deb atasak ham bo'ladi. Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo'lishiga namoyish, agressiya, o'qishdan qochish va daydilik, bolalar va o'smirlar orasidagi aroqxo'rlik, giyohvandlik va u bilan bog'liq g'ayriijtimoiy harakatlar, jinsiy tavsifdagi g'ayriaxloqiy xatti-harakatlar, o'ziga suiqasd qilishga urinishlarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

#### **Kalit so'zlar:**

O'smirlar psixologiyasi, deviant xulq-atvor, xulq og'ish, tarbiya, turmush tarsi, motiv, g'ayriintizomiy, munosabat, g'ayriaxloqiy, g'ayriijtimoiy.

O'smirlar ijtimoiylashuvida ota-ona va bola munosabatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish

tadbirlari, eng avvalo, xulq og‘ishini keltirib chiqaradigan shart-sharoit va sabablarni bartaraf qilishni taqozo qiladi. Masalaning dolzarbligidan kelib chiqqan holda, bugungi kunda butun dunyo miqyosida, shu jumladan, respublikamizda o‘smirlar o‘rtasida xulq og‘ishining oldini olish borasida bir qator ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”, degan ta’kidi, yurtimizda yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishga alohida e’tibor berilayotganining dalolatidir. Buyuk mutafakkir Ibn Sino deydi: “agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g‘azab kuchli qizdiradi, qayg‘u kuchli ozdiradi, hafsalasizlik nafsoniy quvvatni bo‘shashtirib, mijozni balg‘amlikka moyil qiladi. Xulqning mo‘tadilligi natijasida, ham nafas, ham badan sog‘lom bo‘ladi”. Ibn Sino axloqqa oid ko‘plab muammolarni odamning ruhiy holati va ma’naviy xossalarining his-hayajonli paydo bo‘lishi asosida talqin etadi. **Deviant xulq-atvor** — mikroijtimoiy munosabatlar (oilaviy, maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlariga xos bulgan ijtimoiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog‘liq me’yordan og‘uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni “g‘ayriintizomiy” deb atasak ham bo‘ladi. Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo‘lishiga namoyish, agressiya, o‘qishdan qochish va daydilik, bolalar va o‘smirlar orasidagi aroqxo‘rlik, giyohvandlik va u bilan bog‘liq g‘ayriijtimoiy harakatlar, jinsiy tavsifdagi g‘ayriaxloqiy xatti-harakatlar, o‘ziga suiqasd qilishga urinishlarni misol qilib keltirsak bo‘ladi. Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor me’yorlaridan chetga chiqqan o‘smirlarni “qiyin o‘smir” yoki “tarbiyasi og‘ir o‘smir” deyiladi. “Tarbiyalash og‘ir” deganda, pedagogik ta’sirga qarshilik ko‘rsatish tushuniladi. Tarbiyalash og‘ir, qabul qilingan me’yor va qoidalarga tarbiyalanuvchi tomonidan amal qilinmasligini fanda deviatsiya (og‘ish) hodisasi orqali o‘rganiladi. Deviatsiya (og‘ish) ham insonga, ham uni o‘rab turgan olamga xos bo‘lgan o‘zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy sohada o‘zgaruvchanlik faoliyatga bog‘liq bo‘lib, insonning atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatini aks ettiradigan xulq-atvorda o‘z ifodasini topadi. Avval aytib o‘tganimizdek, xulq-atvor me’yordan chetga chiqqan bo‘ladi. O‘smirning me’yordagi xulq-atvori uning ijtimoiylashuvi, rivojlanishi, ehtiyojlariga mostushuvchi mikrosotsium bilan o‘zaro munosabatida aks etadi. Agar atrofdagilar o‘smirning u yoki bu xususiyatlariga o‘z vaqtida e’tibor qaratishsa, uning xulq-atvori doimo me’yorda bo‘ladi. Bunday me’yordan og‘ishgan xulq-atvor jamiyat tomonidan bola shaxsiyati xususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida kelib chiqadi, degan tushuncha paydo bo‘ladi. Aftidan, me’yordan og‘ishgan xulq-atvor ijtimoiy dezadaptatsiya ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Bolalar va o‘smirlar dezadaptatsiyasi haqida gapirganda, bu jarayonga giriftor bo‘lgan bolalar toifalarini anikutab olish lozim: 1) maktabga qatnamaydigan maktab yoshidagi bolalar; 2) yetim bolalar; 3) ijtimoiy yetimlar. Ular tuzuk ovqatlanishmaydi, jismoniy,

ruhiy, jinsiy qiynoqlarga duchor bo'lishadi; 4) giyohvand va toksin moddalar iste'mol qiluvchi bolalar; 5) jinsiy intizomsiz bolalar; 6) g'ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etgan bolalar. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra ularning soni kattalarga qaraganda, ikki hissa tez oshmoqda. Axborot inqilobi, qadriyatlarning uyg'unlashuvi va moliyaviy bozorlarning integratsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ushbu davrda insonlarning ma'naviy-ruhiy olamini izdan chiqarishga qaratilgan turfa shakldagi mafkuraviy, ma'naviy tahdidlar sodir bo'lmoqda. Bunday vaziyatda shaxsning axloqiy tarbiyasi, ma'naviy kamoloti masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Ma'lumki, shaxs ma'naviy kamolotida oilaviy tarbiyaning o'rni beqiyos. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi o'ta keng va ahamiyatlidir. Biroq keyingi paytda oilada farzandlar tarbiyasida, ularni kamol toptirishda bir qator muammolarga duch kelinmoqda. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi salbiy munosabatlar bolalarda xulq og'ishi hamda psixosomatik kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xulq og'ishi va tarbiyasida nuqsonlarga ega o'smirlarning ota yoki onasidan birining spirtli ichimlikka ruju qo'yishi holati ham oilada tarbiyalanayotgan bolalarga salbiy ta'sir etib, ularning alkoholizm ko'chasiga kirib ketishlariga sabab bo'ladi. Shu boisdan "Ota-onalardan birining jamiyat va axloq me'yorlariga zid bo'lgan xulqqa ega bo'lishi" holati bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga va tarbiya buzilishiga sabab bo'lishi kuzatiladi. Oilaviy tarbiya inson ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi. Oila birlamchi hayotiy ko'nikmalarni, Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat kabi yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashda katta imkoniyatlarga egadir. Oilada farzandlarni tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda mavjud muammolar, nuqsonlar bolalarning xulq-atvoriga, shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy-axloqiy jihatdan sust rivojlanganlik va shaxsdagi o'ziga xos xususiyatlar (o'zgaruvchanlik, qo'zg'aluvchanlik, beqarorlik, hissiyotga beriluvchanlik, tobelik, jur'atsizlik va boshqalar) bolalar va o'smirlarda deviant xulqning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi esa ijtimoiy turmushda vujudga kelgan turli xil nizoli vaziyatlardan chiqib ketishiga yordam beradi. Voyaga yetmaganlarda deviant axloq, xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi yana bir omil ota-onalarda farzandlar tarbiyasiga doir bilimlarning yetarli emasligidir. Bolalarga profilaktik ta'sir ko'rsatishda o'smirning shaxs sifatidagi shakllanishi jarayonini, uning o'ziga xos xususiyatlarini, xarakter xislatlari va psixologiyasini hisobga olgan holda ish tutish yaxshi natija berishini unutmaslik lozim. Farzand tarbiyasida ularning yoshga oid va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olish o'ta muhimdir. Shuningdek, ularda o'ziga ishonch, o'z xulqini yaxshilash motivlarini quyidagicha shakllantirish zarur: – bolalarni o'z xulq-atvorini o'zi baholashga o'rgatish; – farzandiga bo'lgan ishonch; – oilada oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag'batlantirish; – tarbiya berishning optimal strategiyasini aniqlash; – bolalarga mustaqil faoliyat (o'qish, o'yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish; – "Oila markaz"lari, amaliyotchi psixologlar, mahalla fuqarolaryig'ini va shifokorlar bilan maslahatlashish. Ayrim oilalarda bolalar va o'smirlarga yetarlicha shart-sharoit yaratib berilmasligi hamda ular faoliyatini cheklash – ularda infantillik (o'zini nochor,

yordamga muhtoj his qilish), muammoli vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyatining susayishi kabilarga olib keladi. O‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta‘sir etuvchi sabablarni o‘rganar ekanmiz, ularning sub‘ektiv va ob‘ektiv ko‘rinishlarini bir-biridan farqlash lozim bo‘ladi. Tarbiya buzilishining sub‘ektiv sabablariga o‘smir shaxsining qiziqish va ehtiyojlari, dunyoqarashi va ma‘naviy olami, maqsad va yo‘nalishlari, qadriyatlarini, huquqiy ongi, hayotiy rejalari, turmush tarzi va motivlari (hayotiy yo‘nalishi, maqsad va qarashlari) kiradi. Sub‘ektiv shart-sharoitlarga esa aholining demografik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, xususan, etnopsixologik jihatlari, xarakteri, temperamenti, yoshi va jinsi kiradi. Ob‘ektiv sabablar sifatida jamiyatdagi nosog‘lom muhit, shart-sharoit, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, kichik ijtimoiy guruhlardagi ijtimoiy-psixologik muhit, kishilar bilan bo‘ladigan o‘zaro shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Tarbiya buzilishining ob‘ektiv shart-sharoitlari esa, jamiyatdagi tashkiliy va texnik xatoliklar, boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, qonun va qoidalarning talabga javob bermasligi va boshqalardan iboratdir. Shuningdek, tarbiya buzilishining kelib chiqish sabablarini aniqlash, eng avvalo, u yuzaga kelgan ijtimoiy muhit xususiyatlarini o‘rganib chiqishni taqozo qiladi. Chunki tarbiya buzilishini umumiy ko‘rinishda oladigan bo‘lsak, u biror bir shaxsga xos bo‘lgan sub‘ektiv xulqatvor natijasi emas, balki sub‘ektiv va ob‘ektiv jarayonlar, shart-sharoitlar, munosabatlar natijasi sifatida ifodalanishini kuzatishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ijtimoiy jarayonlarning individual xatti-harakatlarga ta‘siri masalasiga oydinlik kiritish zarur bo‘ladi. Oilalarda nosog‘lom psixologik muhitning mavjudligi oilaviy munosabatlar noxushligi, oilaviy ajrashishlar, ota-onalardan biri yo‘qligi, oilaviy tarbiyadagi yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlar hamda oilaning tarbiyaviy ta‘sirga ega emasligi holatlari bolalar va o‘smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, o‘smirdagi dezadaptatsiya (ijtimoiy sharoitlarga moslashuvning zaiflashuvi yoki butunlay yo‘qolishi)langan xulqni tuzatishning keyingi sharti o‘smir psixikasidagi o‘zgarishni o‘z vaqtida aniqlash va tibbiy, psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish hisoblanadi. O‘smirlarda tarbiya buzilishining kelib chiqishida moddiy yetishmovchilik ko‘pincha sabab sifatida emas, balki xulq og‘ishining kelib chiqishi uchun qiziqish va shart-sharoit tarzida xizmat qilgani kuzatiladi. Demak, aytish mumkinki, o‘smirlarda tarbiya buzilishining kelib chiqishida iqtisodiy yetishmovchilik omili asosiy sabab sifatida namoyon bo‘lmaydi. U faqatgina muayyan shart-sharoit sifatida xizmat qiladi xolos.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 1 iyul, 2017 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. -T.: «Ma‘naviyat», 2008. – 270 b
3. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta‘lim va tarbiya haqida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. –B. 88–89 b
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи. 1 июль, 2017 й.

6. Раҳимов С. Абу Али ибн Сино таълим ва тарбия ҳақида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. –Б. 88–89 б

7. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т.: «Маънавият», 2008. – 270 б

## **СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ ОРГАНИЗОВАННОЙ ПРЕСТУПНОСТИ У ПОДРОСТКОВ.**

**Олимов Л.Й.**

*Азиатский Международный университет доц.*

**Саидов Ш.Ш.**

*Азиатский Международный университет магистр.*

### **Аннотация:**

В этой статье представлена классификация организованной преступности и преступных группировок, психология преступной деятельности преступных группировок, описание принадлежности человека к преступным группировкам и информация по психологии допроса.

### **Ключевые слова:**

иерархическая система, внутренняя психология, организованная преступность, преступная группировка, преступное соучастие, профилактические мероприятия, функциональная система.

### **Abstract:**

This article presents the classification of organized crime and criminal gangs, the psychology of criminal activity of criminal gangs, a description of a person's membership in criminal gangs and information on the psychology of interrogation.

### **Key words:**

hierarchical system, internal psychology, organized crime, criminal gang, criminal complicity, preventive measures, functional system.

Организованная группа-форма участия в преступлении; согласно Уголовному праву Узбекистана (УК Республики Узбекистан, 29мод), предварительное объединение 2 и более лиц в одну группу для совместной преступной деятельности. Организованная группа может принимать форму совместного выступления. При этом все лица, организованные для совместного участия в преступной деятельности, принимают непосредственное участие в совершении преступления группой путем предварительного сговора. В настоящее время для таких групп характерна такая организованность, при которой лица, участвующие в группе, имеют определенные обязанности, а также между ними происходит распределение должностей и обязанностей. В обоих проявлениях может быть ступенчатая структура, и это может привести к подчинению и координации соблюдается обоснованное подчинение. Однако, как правило, уровень организованности в таких группах, несмотря на их широкое распространение, не так высок по сравнению с преступным сообществом, и в этом плане они стоят на нижнем "ярусе" организованной преступности. Создание, руководство или участие в вооруженных



организованных группах оценивается отдельно. Вооруженность группы выражается в наличии оружия хотя бы у одного из членов данной группы, о чем четко осведомлены остальные члены группы. Само создание вооруженной организованной группы является деянием, достойным уголовной ответственности. Отличительной чертой организованной преступности является создание основной преступной группы и ее разделение на подсети, причем каждая подгруппа организована в иерархическую (не путать с другими, где каждый знает место преступления) систему в зависимости от ранга преступников. Эта иерархическая система состоит из трех частей.

1. Управление;
2. Мальчишеский;
3. Распределение функций (обязанностей) между преступлениями.

Интеграционные отношения в вертикальном положении-это отношения между правоохранительными органами и государственными органами. Интегративные отношения-основаны на ролевых обязанностях в среде членов преступной группы (т. е. в соответствии с характером преступной деятельности роли, обязанности распределяются в среде членов преступной группы.) Преступная группа совершает действия следующим образом;

- Сбор информации, необходимой для совершения преступления различными способами;
- Постоянная коррупция в правоохранительных органах и других органах;
- Умелое использование основных социально - экономических институтов с целью придания внешней легитимности их действиям;
- Распространять слухи и опасения по поводу силы своих собратьев;
- Создание системы управления, необходимой для освобождения от ответственности за действия капитанов групп;
- Совершение различных преступлений с целью осуществления злых намерений и установления власти на территории.

Для выживания преступной группы необходимо постоянно расширять сферу своей деятельности по мере возможности. При отсутствии таких действий преступная деятельность прекращается. Чем сильнее развита внутренняя психологическая и функциональная система преступной группы, тем более целенаправленной становится ее деятельность и четко определяются роли и задачи в ее составе. Среди участников преступной группы преобладают только рабочие отношения, личных отношений не может быть. В преступной группировке постоянно сталкиваются 2 противоборствующие силы: первая сила способствует ахиллесову сухожилию, а вторая пытается его распространить. Организованная преступность óта опасно и представляет собой "вершину" преступности. Он выражает деятельность в стиле преступного сообщества, отличного от его обычных соучастников. Организованная преступность - устойчивое явление, не поддающееся нормальным профилактическим мерам преступности, так как криминогенная зависимость участников преступного сообщества усиливается постоянными межличностными эффектами, в то время как попытка одного из членов

группировки выйти из преступной среды приводит к безжалостному изъятию. Организованная преступность отличается широким охватом. Преступность с точки зрения психологии совершение преступного поведения отличается от других критериев. Преступное поведение всегда сопровождается эмоциональностью, психологической напряженностью, потому что человек, связанный с несправедливой агрессией, знает, что он нарушил закон, и он также знает, что ему грозит суровое наказание. При опросе о преступлении, совершенном преступной группой, в основном каждый член группы подвергается индивидуальному опросу. Обращается внимание на тон речи подозреваемых, каждое выражение их лица и записывается каждое произнесенное ими слово. После расследования эти буквально сравниваются. Это очень помогает в поиске основного преступника преступная группа естественно состоит из преступников. Каждого члена группы знает личность õz то есть его образ жизни до того, как он вошел в группу. В последние годы исследования, проведенные экспертами, показали, что основной процент тех, кто оказался вовлечен в группу: безделье, материальная недостаточность и семейные беспорядки. Если каждый район и инспекторы будут работать с такими преступниками индивидуально, обеспечивая их занятость и интерес к более широкому кругу преступлений, мы надеемся, что охват видов преступлений будет значительно сокращен.

#### **ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**

- 1) “Сомнение в подлинности криминального профиля: доказательный подход” Chiflet, Paskal 2015 год
- 2) “Erkin va farovon demokartatik O’zbekistonni birgalikda barpo etamiz”- Sh.Mirziyoyev- 2021 yil
- 3) “Юридическая психология” 2017 год
- 4) “Black criminal stereotypes and racial profiles” Welch Kelly -2017 year
- 5) “Psychology-science of intelligence and behavior” Gross, Richard- May 25, 2019 year
- 6) “Identifying a lie by looking at a person's facial expressions” -Poll Ekman - 2010

### **INKLYUZIV TA’LIMDA DIDAKTIK O’YINLARDAN FOYDALANIB TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI**

**p.f.n .D.K Mo‘minova**

*Bux DPI “Pedagogika” kafdrasi o’qituvchisi*

**Annotatsiya** :Inklyuziv ta’lim nazariyasi fanini o’qitishda innovatsion texnologiyalar va didaktik o’yinlardan foydalanib ta’lim samaradorligini oshirish usullari va ulardan foydalanish tartib qoidalari Shuningdek talabalar bu usullardan nazariyada egallagan bilimlarini amaliyotda tatbiq qila olishi va tahlil qilishni, o’quv-tarbiyaviy, ilmiy-tekshirish ishlarining olib borilishi jarayonlarida kerakli zamonaviy vositalardan foydalana bilish tajribasi hamda malakalariga ega bo’lishi batafsil tushuntirib o’tilgan.

**Аннотация:** Методы повышения образовательной эффективности с использованием инновационных технологий и дидактических игр в обучении теории инклюзивного образования и правила их использования. Также учащиеся должны уметь применять и анализировать полученные теоретически знания из этих методов на практике, учебной и образовательных, подробно объясняется, что они обладают опытом и навыками использования необходимых современных инструментов в процессе проведения научных исследований.

**Annotation:** Methods of increasing educational efficiency using innovative technologies and didactic games in teaching the theory of inclusive education and the rules of their use. Also, students should be able to apply and analyze the knowledge acquired in theory from these methods in practice, educational and educational. , it is explained in detail that they have the experience and skills to use the necessary modern tools in the process of conducting scientific research.

**Tayanch soʻzlar:** Inklyuziv taʼlim, innovatsiya texnologiyalar , didaktik oʻyinlar, aqliy rivojlanish, emotsiya, motivatsiya, ruhiy holat,

“Inklyuziv taʼlim nazariyasi” sohasi mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlikni qoʻllab-quvvatlash uchun nafaqat aniq individga, maʼlum bir guruhga, balki jamiyat va davlat uchun zarur va muhim hisoblanadi. Shuningdek, “Ijtimoiy ish” sohasi jamoatchilik amortizatori rolini bajaradi, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi uchun tanglikni oldini olish va osoyishtalikni qoʻllab-quvvatlashni taʼminlashda muhim ahamiyat ega.

### **Inklyuziv taʼlimning zamonaviy tendensiyalari**

Taʼlim muassasalari sharoitida aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarni oʻqitishda sinf oʻqituvchisining oʻzigina samarali natijalarga erisha olmaydi. Buning uchun innovatsion texnologiyalar va didaktik oʻyinlardan foydalanib taʼlim samaradorligini oshirish usullari hozirgi kundagi muhim vazifalardan biri hisoblandi. Buning uchun esa sinfda doʻstona munosabat muxitini yaratish lozim.(2)Biz quyida doʻstona munosabat muhitini yaratishga yordam beradigan oʻyin usullarini tavsiya etamiz



**«ICHKI AYLANALAR» o'yini.**

**O'yindan ko'zlanga maqsad:** bolalar o'rtasida do'stona munosabat muhitini shakllantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish.

**O'yin jihozi:** stullardan ibora ikkita aylana; birida stullar tashqariga, ikkinchisida ichkariga qaratilgan hodatda qo'yiladi.

**O'yinning borishi:** Sinf teng ikki guguxga bo'linadi: biri ichki stullar aylanasiga, boshqalari esa tashqi stullar aylanasiga o'tiradilar. Bunda har kim o'z sherigiga qarab o'tiradi. O'quvchilarga muxokama qilish uchun savol beriladi. Yaxshilab o'ylab olganlaridan so'ng o'quvchilarga sheriklari bilan savolni muxokama qilish uchun bir ikki daqiqa beriladi. Ma'lum signaldan so'ng tashqi aylanadagilar bir o'rin chapga surilishadi va ayni savolni yangi sheriklari bilan muxokama qilishadi. Tashqi aylanadagi o'quvchilar o'zlarining eng birinchi sheriklari surilib kelgunga qadar yoki yetarlicha yangi sheriklari bo'lgunlarivaa davom etadi. [1]

**«KUNGABOQAR» o'yini**

**O'yinning maqsadi:** bolalar o'rtasida do'stona munosabat muhitini shakllantirish

**O'yin jihozlari:** Gul bargi shaklida qirqilgan rangli qog'ozlar. Bolalarning har biri uchun o'z tamg'asifat rangli qog'ozdan yasalgan shakllar yoki nakleykalar. Xar bir bolaning foto surati. Yelim.

**O'yinning borishi**

1). Bolalarga bugun yangi o'yin o'ynalishini ma'lum qilish. 2). Hamma bolalar uchun o'z shaklini rangli qog'ozdan qirqib olishiga yordam berish.3). Har bir bolaning fatusuratini bosh qismini dumaloq qilib kirqib olib, alohida A4 format qog'ozning o'rtasiga yopishtirish.

4). Har bola rasmining atrofiga oldindan tayyorlab qirqib chiqilgan gul barglarini xuddi kungaboqar guli kabi aylana qilib solishtirib chiqish (bunda bollar faol ishtirok etadilar); [2]

5). Bolalar qarang har biringizning rasmingizni gul ichiga joylashtirdik. Endi har kuni har biringizni mana shu rasmingizni doskaga osib qo'yaman. Qolgan bolalar esa bu rasm atrofidagi baglariga agarda rasmi ilingan bola unga biror bir yordam bersa yoki biror bir yaxshilik qilgan bo'lsa o'z tamg'asini uning kungaboqar guli barglariga yepishtirib qo'yib, rahmat aytadi. Biz kun yakunida har bir boladan bu tamg'ani nima uchun, qanday yordam berganligi uchun yopishtirganligini so'raymiz. O'yinimiz yakunlanganda har bir bolaning kungaboqarida shishtirilshan tamg'alarni sanaymiz. Qani kimning kungaboqar guli barglarida tamg'alar ko'p bo'larkin.

Mazkur o'yinlardan dars jarayonida, jismoniy daqiqalarda va darsdan tashqari vaqtlarda foydalanish mumkin.[3]



Inklyuziv ta'limda didaktik o'yinlardan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirish usullari.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi Qonuni.–T., 2023.
2. Grigoryans N.A Saidakbarova.T, Fayziyeva Z.Sh. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar inkluziv ta'limi.-T.O'XTV, A. Avloniy nomidagi XTRXMOI, UNICEF, 2005.
3. P.Pulatova Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika). T.: «G'afur G'ulom», 2007.

## **АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИОННЫХ ПРОФЕССИЙ РАБОТНИКОВ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА (АПК) И КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ УЗБЕКИСТАНА**

**Н.Н. Бебутова<sup>1</sup>, Х.А. Комилова<sup>2</sup>-магистр**  
*Бухарский инженерно-технологический институт<sup>1</sup>*  
*Бухарский инженерно-технологический институт<sup>2</sup>*  
*[nbebutova@gmail.com](mailto:nbebutova@gmail.com), +99899:702-06-60*

Сегодня в Узбекистане уделяется особое внимание улучшению условий труда работников народного хозяйства. Безопасные условия труда работающих на открытом пространстве во многом определяются их обеспеченность их высококачественной спецодеждой, надежно защищающей от воздействия неблагоприятных климатических и производственных факторов.

Особенную остроту эта проблема имеет для республик Узбекистан, занимающих самую южную зону в стране и характеризующихся продолжительным сухим жарким летом.

В экономике Узбекистана ведущим среди межотраслевых комплексов

является АПК. В нем сельское хозяйство занимает главное место. Агропромышленный комплекс (АПК)-совокупность всех отраслей экономики, участвующих в процессе заготовки и доставки продукции сельского хозяйства потребителям.


К предприятиям агропромышленного комплекса относят объекты по выращиванию сельхозпродуктов, их переработке и обслуживанию оборудования, предприятия текстильной и лёгкой промышленности, электроэнергетические предприятия и другие. Это огромный блок отечественного аграрного и промышленного сектора, который в значительной мере характеризует общие проблемы современной промышленной безопасности человека на производстве, так как статистика аварийности показывает, что вопросы индивидуальной защиты работников и, соответственно, качество и надежность защитной одежды требует существенного совершенствования.

В состав АПК также входят отрасли легкой и пищевой промышленности, перерабатывающие сельхозпродукцию. Кроме того, в него входят предприятия по производству и ремонту сельскохозяйственной техники, отрасли химической промышленности по производству минеральных удобрений и ядохимикатов, применяемых в борьбе с вредителями растений. Хотя, в сущности, эти отрасли относятся к тяжелой промышленности, в АПК они составляют первую группу, а сельское хозяйство-вторую, в третью же группу входят отрасли по переработке сельхозпродукции.

Многоотраслевые фермерские хозяйства наряду с производством успешно перерабатывают сельскохозяйственную продукцию. Однако невозможно развивать сельское хозяйство без промышленности. Сельское хозяйство начинается с промышленности (создание средств производства, минеральных удобрений) и им же и завершается (переработка произведенного сырья). Связь между этими двумя отраслями называется агропромышленной интеграцией, и она все более углубляется.

Анализ структуры АПК Узбекистана позволил выявить основные классификационные профессии работающих, которых можно разделить на следующие виды:

1. Сельхозработники, занимающиеся земледелием – хлопкоробы, овощеводы, хлеборобы;
2. Сельхозработники, занимающиеся животноводством–выращивающие крупный и мелкий рогатый скот, птицеводы, работники рыбных хозяйств;
3. Работники, занимающиеся переработкой сырьевых продуктов - текстильщики и швейники, пищевики.



**Рис.1. Диаграмма распределения основных классификационных профессий АПК Узбекистана**

Как видно из диаграммы (рис.1), наибольшую профессиональную группу работающих на открытом пространстве в АПК составляют сельхозработники. Сельхозработы на полях Узбекистана ведутся почти круглогодично, с февраля по декабрь, но в особо трудных условиях протекают летние работы на сельскохозяйственных полях, когда температура воздуха в дневные часы достигает 50° и выше.

Большую профессиональную группу работающих длительное время на открытом пространстве в Узбекистане представляют работники АПК, численность которых особенно возросла за последние годы независимости.

Выдаваемая обычно работникам АПК специальная одежда, не соответствует условиям их труда и вызывает справедливые нарекания со стороны потребителей. Поэтому, создание рациональной специальной одежды для работников АПК с учетом климатических условий данной зоны и специфики труда является важной народно-хозяйственной задачей, стоящей перед учеными и работниками швейной промышленности.

### **Библиография**

1. Pulatova S., Bebutova N. Ergonomic design of overalls for agricultural workers of Uzbekistan //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2020. – Т. 548. – №. 2. – С. 022006.
2. Бебутова Н.Н «Исследование и разработка рациональной конструкции спецодежды для работников агропромышленного комплекса

Узбекистана» Диссертация на соискание степени доктора философии (PhD). Ташкент 2021. 122 с.

## ТАРКИБИЙ БАЛКАЛАР.


Бухоро муҳандислик технология институти

Н.С.Бибутов. 800 ТВМ гуруҳи талабаси Р.Жумакулов

bibutov0707@mail.ru + 99893 450 62 35

Таркибий балкалар деб, таркибидаги барча элементлар (деталлар) ўзаро парчин миҳ ёки пайванд бирикмалар билан бириктирилган мураккаб шаклли кесимни ташкил қилувчи балкага айтилади.

Таркибий балкаларни ҳисоблашда, бириктирувчи элементлар бириктирилувчи деталларни бикр боғланишини ҳосил қилиб бир бутун балка каби ишлашни таъминлайди деб қабул қилинади. Шунинг учун балкаларда кучланишларни аниқлаш учун бир бутун балкаларни мустаҳкамликка ҳисоблаш формулаларидан фойдаланамиз.



1 - расм. Таркибий кесим

Парчин миҳ ўрни учун тайёрланган тешик таркибий балка кесимини заифлаштиради, шунинг учун таркибий балкаларни ҳисоблашда балка кесимининг  $I_{\text{НЕТТО}}$  инерция моменти қуйидагича аниқланади:

$$I_{\text{НЕТТО}} = I_{\text{БРУТТО}} - I_T$$

бу ерда,  $I_{\text{БРУТТО}}$ -балка заифлашган кесимининг тўлиқ инерция моменти.

$I_T$  –парчин миҳ ўрни учун тайёрланган тешик кесимининг инерция моменти

Парчин миҳли бириктирилган таркибий балка ( 1 -расм) таркибида вертикал девор тўртта тенг томонли бурчак, битта ёки бир нечта горизонтал лист бор.

Балка кесимини танлаш учун унинг

баландлигини  $h = 1,2 \sqrt{\frac{W}{\delta}}$  тақрибий формуладан топамиз. Балка деворининг қалинлигини уринма кучланиш бўйича мустаҳкамлик шартидан танланади Кўндаланг куч  $Q$  бутунлай деворга таъсир қилганлиги учун уни баландлиги  $h$  ва қалинлиги  $\delta$  бўлган тўғри тўртбурчак деб қабул қилиб, қуйидагича

ҳисоблаш мумкин:

$$\delta \geq \frac{3Q_{\text{max}}}{2[\tau] \cdot h}$$



Талаб қилинган нетто инерция моменти :  $I_{\text{НЕТТО}} = W \cdot \frac{h}{2}$

Парчин мих ўрни учун тайёрланган тешиқлар балка кесимини тахминан 15% га заифлаштиради. Унда керак бўлган брутто инерция моменти:

$$I_{\text{БРУТТО}} = \frac{I_{\text{НЕТТО}}}{0,85}$$

Токчага бириктирилувчи бурчак томонларининг ўлчамлари балка баландлигига тахминан  $\frac{1}{10}$  нисбатда олинади

Девор ва бурчак брутто инерция моментларини ҳисоблаймиз:

$$I_{\text{СТ}} = \frac{\delta \cdot h^3}{12} \quad \text{ва} \quad I_{\text{УГ}} = 4 \left[ I_{\text{ХБ}} + A_{\text{Б}} \cdot y_{\text{Б}}^2 \right]$$

буерда  $I_{\text{ХБ}}$  – бурчак кесимини  $x$  ўқиға нисбатан инерция моменти

$A_{\text{Б}}$  бурчак профилининг кесим юзаси

$y_{\text{Б}} = \frac{h}{2} - z_0$  бурчак оғирлик марказидан  $x$  ўқиғача бўлган масофа

Горизонтал листларнинг инерция моменти

$$I_{\text{Л}} = 2 \cdot \left[ \frac{b \cdot h_{\text{Л}}^3}{12} + b \cdot h_{\text{Л}} \cdot (y_{\text{Л}})^2 \right]$$

буерда  $y_{\text{Л}} = \frac{h}{2} + \frac{h_{\text{Л}}}{2}$  листни оғирлик марказидан таркибий

балка кесим юзасининг марказий горизонтал ( $x$  симметрия) ўқиғача бўлган масофа

$$I_{\text{БРУТТО}} = I_{\text{Л}} + I_{\text{СТ}} + I_{\text{УГ}}$$

инерция моментини топамиз

Парчин мих тенг томонли бурчакни балканинг горизонтал токчаси ва вертикал деворларини бириктириш учун ишлатилади. Тенг томонли бурчакни вертикал қисми балка деворига бикрлик қирраси ролини ўйнайди. Кесимни заифлашиши парчин мих ўрни учун тайёрланган тешиқлар ҳисобига балка кесим юзасини ва унинг инерция моментини кескин камайиши билан белгиланади. Инерция моментини камайиши балка кесимини

$I_{\text{БРУТТО}}$ - инерция моментидан тешиқлар кесим юзаларини нейтрал ўқға нисбатан инерция моментини -  $I_{\text{ОТВ}}$  айирмасига тенг

$$I_{\text{НЕТТО}} = I_{\text{БРУТТО}} - I_{\text{ОТВ}}$$

Ушбу инерция моментини ҳисоблашда тенг томонли бурчакнинг вертикал қиррасидаги тешиқ кесим юзаси эътиборга олинмади, чунки бу тешиқ юзасининг марказий ўқида нормал кучланишнинг қиймати таркибий балка хавфли кесимидаги кучланишдан кичик. Заифлашган кесимнинг қаршилик

моменти: 
$$W = \frac{I_{\text{НЕТТО}}}{\frac{h}{2} + h_{\text{П}}}$$

Парчин миҳ қадами  $a$  -ни ҳисоблаш учун 2 та шартдан фойдаланамиз:

- 1) икки қирқимли парчин миҳни қирқилишга  $a \leq 2 \cdot \frac{\pi d^2}{4t_F}$
- 2) парчин миҳни эзилишга  $a \leq \frac{d\delta[\sigma_{sm}]}{t_F}$

буерда  $t_F = \frac{Q \cdot S_1}{I}$  1 см.га тўғри келувчи куч

### Адабиётлар.

1. Н.С.Бибутов Материаллар қаршилиги. Дарслик. “Дурдона” нашриёти. Бухоро, 2024 й. 317 бет
2. Н.С.Бибутов, А.Х.Ҳожиев Материаллар қаршилиги. Дарслик. “Дурдона” нашриёти. Бухоро, 2020 й. 640 бет

## МУРАККАБ ҚАРШИЛИҚДА ИЧКИ КУЧ ФАКТОРЛАРИНИ АНИҚЛАШ

**Н.С.Бибутов. 802 ТВМ гуруҳи талабаси Б. Ҳакмуродов**

*Бухоро муҳандислик технология институти*


*bibutov0707@mail.ru* + 99893 450 62 35

Берилган системада (1-расм, а) юк ва конструкция битта текисликда жойлашмаган. Бундай системанинг кесимида олтига ички кучлар ҳосил бўлиши мумкин.  $F$  куч таъсиридан системанинг бирорта оралиқи ҳам марказий чўзилиш ва сиқилишга учрамайди, шунинг учун ички бўйлама куч  $N = 0$ , кўндаланг кучлар  $Q_z$  ва  $Q_y$  ларнинг таъсири кичик бўлганлиги учун уларни эътиборга олмаймиз. Шунинг учун  $M_z$  ва  $M_y$  эғувчи моментлар ва  $M_x = M_{\phi}$  буровчи момент эпюраларини курамиз.

1-расм, б да конструкциянинг ҳар бир участкаси учун координата ўқлари кўрсатилган;  $x$  ўқи участканинг бўйлама ўқи билан мос тушади,  $y$  ва  $z$  кўндаланг кеасимнинг ўқлари ҳисобланади.

**СВ-оралиқ.** Эғувчи моментлар  $M_x$ ,  $M_z$  ва  $M_y$  синиқ стержен қирқилиш текислигидан бир томонда қолган кучларни кесилган кесим марказидан ўтган ўқларга нисбатан куч моментларининг йиғиндисига тенг

$$0 \leq x \leq 0,8m \quad M_x = 0 \quad M_y = 0 \quad \text{ва} \quad M_z = -F \cdot x$$



**ВА-оралиқ.**  $0 \leq x \leq 1,2\text{м}$   $M_x = 0,8F$   $M_y = 0$  ва  $M_z = -F \cdot x$

Ушбу тенгламалар бўйича  $M_x$  ва  $M_z$  эпюралари курилган.


СВ оралиқда фақат эгувчи момент  $M_9 = 0,8F$  ҳосил бўлади.

ВА оралиқда буровчи момент  $M_x = M_6$  ва эгувчи момент  $M_9 = M_z$  ҳосил бўлади. Силиқ стерженнинг таянч кесимида буровчи момент  $M_6 = 0,8F$  ва эгувчи момент  $M_9 = 1,2F$  энг катта қийматга эришади. Бу кесимда буровчи момент таъсирдан буралишдаги уринма кучланиш

$\tau_6 = \frac{M_6}{W_\rho}$  ҳосил бўлади. Уринма кучланиш стержен кесимининг четки

нуқталарида (2-расм,а) максимумга эришади

$$\tau_6 = \frac{M_6}{W_\rho} = \frac{0,8F}{\frac{\pi \cdot d^3}{16}} = \frac{12,8F}{\pi \cdot d^3} \quad (1)$$



АВ оралиқнинг таянч кесимида эгувчи момент таъсирдан ҳосил бўлган нормал кучланиш  $\sigma_9 = \frac{M_x}{W_x}$  стержен кесимининг четки нуқталарида максимумга эришади.

$$\sigma_9 = \frac{M_9}{W} = \frac{1,2F}{\frac{\pi \cdot d^3}{32}} = \frac{38,4F}{\pi \cdot d^3} \quad (2)$$

Демак кесимнинг сиртидан ажратилган материал заррачаси нормал ва уринма кучланишлар таъсирида, шунинг бу материл текис кучланганлик ҳолатида (2-расм,б). Текис кучланганлик ҳолатидаги кубикнинг мустаҳкамлиги бош кучланишлар бўйича текширилади.

$$\text{III назария} \quad \sigma_1 - \sigma_3 \leq [\sigma] \quad (3)$$

$$\text{буерда} \quad \sigma_{1,3} = \frac{1}{2} \left[ \sigma_{\max} \pm \sqrt{\sigma_{\max}^2 + 4\tau_{\max}^2} \right] \quad (4)$$

4- формулага 1 ва 2 формулаларни келтириб қўямиз:

$$\sigma_{1,3} = \frac{1}{2} \left[ \frac{38,4F}{\pi \cdot d^3} \pm \sqrt{\left( \frac{38,4F}{\pi \cdot d^3} \right)^2 + 4 \left( \frac{12,8F}{\pi \cdot d^3} \right)^2} \right] = \frac{F}{2\pi \cdot d^3} [38,4 \pm 46,6]$$

$$\text{буердан} \quad \sigma_1 = \frac{F}{2\pi \cdot d^3} [38,4 + 46,6] = \frac{85F}{2\pi \cdot d^3} \quad (5)$$

$$\sigma_3 = \frac{F}{2\pi \cdot d^3} [38,4 - 46,6] = -\frac{8,2F}{2\pi \cdot d^3} \quad (6)$$

5 ва 6 формулаларни 3 формулага келтириб қўямиз

$$\frac{85F}{2\pi \cdot d^3} + \frac{8,2F}{2\pi \cdot d^3} \leq [\sigma] \quad \text{ёки} \quad \frac{46,6F}{\pi \cdot d^3} \leq [\sigma] \quad \text{ва} \quad d = \sqrt[3]{\frac{46,6F}{\pi \cdot [\sigma]}}$$

### Адабиётлар.

1. Н.С.Бибутов Материаллар қаршилиги. Дарслик. “Дурдона” нашриёти.  
Бухоро, 2024 й. 317 бет
2. Н.С.Бибутов Техник механика. Дарслик. “Дурдона” нашриёти.  
Бухоро, 2024 й. 515 бет

## О‘QUV JARAYONIDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Kamalova F.R**

*Buxoro muxandislik-texnologiya instituti*

**Annotatsiya.** Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi sifat bosqichi amalga oshirilayotganligi tayyorlanayotgan kadrlar sifatini yanada oshirish, zamon talablariga mos bo‘lgan malakali mutaxassislarni yetishtirish vazifasini qo‘ymoqda. Hozirgi bozor iqtisodiyoti esa faqat kitobiy bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmasdan, balki ularga tayangan holda mustaqil fikrlaydigan ishlab chiqarish va hayotiy masalalarga ijodiy yondashib ularning yangi variantdagi yechimlarini topish hamda eng samaraligini tanlash qobiliyatiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashni talab qilmoqda.

Respublikamizda ta’lim tizimini zamonaviy darajada rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari qatorida ta’lim jarayonida

hozirgi eng ilg‘or shakl va usullar, zamonaviy innovatsiyalardan foydalanishni kengaytirib borish alohida o‘rin tutadi. Ta‘lim sohasidagi innovatsiyalar orasida interfaol ta‘lim o‘ziga xos ijobiy sifatlarga ega bo‘lganligi tufayli, turli fanlar pedagoglari tomonidan amaliyotga joriy etib borilmoqda. Hozirgacha interfaol metodlar va ulardan foydalanish masalalariga bag‘ishlab ko‘p adabiyotlar nashr qilingan. Shunga qaramay mazkur masala bo‘yicha ko‘pgina hal etilishi lozim bo‘lgan, o‘z yechimini kutayotgan bir qancha ilmiy-nazariy, metodik va amaliy muammolar mavjud ekanligi ma‘lum

Interfaol ta‘lim jarayonini tashkil qilish, olib borish, rahbarlik qilish va boshqarishda eng asosiy omil sifatida muloqot, shaxslararo kommunikatsiya usullari va ulardan ilmiy pedagogik, psixologik xulosa va tavsiyalarga muvofiq samarali foydalanish eng jiddiy, aslida esa, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shularni hisobga olgan holda interfaol ta‘lim jarayonidagi kommunikatsiya usullari ko‘rib chiqilgan va bunda tinglash jarayoni va uning samaradorligini hal etuvchi masalalar birmuncha batafsil bayon qilingan

Ishlash jarayonida maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlanishi ishlarni olib borayotganlar ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda ishlatiladigan texnologiya shaxsiy tarkibning bilim saviyasi, guruh tabiati, va sharoitga qarab tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo‘lar. Bularning hammasi ushbu ishlarni tashkil etuvchilarga bog‘liq.

“Interfaol” so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, (“inter” – o‘zaro, “akt” – faol harakat, faollik, ta’sirchanlik) o‘zaro harakat, birgalikdagi faoliyat ma’nolarini anglatadi. O‘zaro, birgalikdagi faoliyat jarayonida o‘qituvchi-tinglovchi, tinglovchi-tinglovchi orasida ta‘lim maqsadlariga erishish yo‘lida tashkil etiluvchi hamkorlik kuzatiladi.

Shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘quv materiallarining ma’nosiga tushunib esda olib qolish yo‘li oqilona yo‘l bo‘lib qolmasdan, balki u mexanik esda olib qolish jarayonidan o‘zining samaradorligi bilan keskin darajada ajralib turadi. Bunday o‘zaro harakat turlariga o‘quvchi va o‘qituvchining maqsadli harakatini kiritish mumkin. Interaktiv o‘qitishda o‘qituvchi o‘quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo‘lib, o‘quvchi bu faoliyatning subekti sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda o‘qitish tizimidagi eng samarali interaktiv o‘qitish metodlari va texnologiyalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo‘ladi:[1

Interaktiv o‘qitish metodlari va texnologiyalari har bir o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi. Xususan, psixologiya fanini o‘qitishda ham yuqoridagi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish mumkin. Biz yashab turgan XXI asrni haqli ravishda mo‘jizalar davri deb ko‘rsatish mumkin. Chindan ham bugungi kunda hal bovar qilmaydigan ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda

Yoshlarni o‘z bilimini mustaqil oshirishga ilmiy va siyosiy axborotlarning kuchayib borayotgan oqimiga yondashishga o‘rgatishni hayotining o‘zi ilgari surmoqda. “Keys-stadi”, “FSMU”, “Xulosalash (Rezyume)”, “Klaster”, “Charxpalak”, “Aqliy hujum”, “Skarabey”, “Venn diagrammasi”, “Tushunchalar

tahlili”, “Akvarium”, “Pinbord”, “BBB”, “Juftliklarda ishlash”, “Beshinchisi ortiqcha” texnologiyalari va ogʻzaki, amaliy, koʻrgazmali, muammoli izlanish, bahs-munozara boshqa metodlar.

Quyidagi interfaol oʻqitish metodlarini oʻquvchilarda, talabalardagi quyidagi munosabatlarning shakllanishiga oʻz tasirini koʻrsatadi.

-«TARMOQLAR» metodi - oʻquvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni oʻrgatishga qaratilgan.

- «3x4» metodi - oʻquvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli gʻoyalarni bera olishi, taʼlim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, taʼrif bera olishiga qaratilgan.

Boʻlajak oʻqituvchilarda har bir dars uchun mos keluvchi eng qulay metodni tanlash malakasini shakllantirish oʻta muhim masala. Chunki toʻgʻri tanlangan metod oʻquv jarayonini samarali boʻlishiga imkon yaratadi. Oʻquv jarayonini samaradorligini oshirmasdan turib malakali mutaxassislarni yetishtirish masalasini hal etish mumkin emas. Demak, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, maʼnaviy rivojini taʼminlab beruvchi malakali mutaxassislar yetishtirish faoliyatida qatnashuvchi har bir pedagog har bir vaziyat uchun optimal metodni tanlay olish malaka va koʻnikmasiga ega boʻlishi shart. Boʻlajak pedagoqlarda yuqorida qayd etilgan malaka va koʻnikmalarni shakllantirish maqsadida mazkur keys ishlab chiqildi. Keys yechimini topish jarayonida talaba metod tanlashda ahamiyatga ega boʻlgan bir qancha omillarni oʻrganishi, ularni tahlil etishi, qiyoslashi va yagona eng qulay metodni koʻrsatishi hamda uni asoslab berishi talab etiladi. Innovatsiya texnologiyalari pedagogik jarayon hamda oʻqituvchi (pedagog) va talaba faoliyatiga yangilik, oʻzgartirishlar kiritish boʻlib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan toʻliq foydalaniladi. Interfaol metodlar – jamoa boʻlib fikrlashdir, yaʼni pedagogik taʼsir etish usullari boʻlib taʼlim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning oʻziga xosligi shundaki, ular faqat oʻqituvchi (pedagog) va oʻquvchi-talabalarning birgalikda faoliyat koʻrsatishi orqali amalga oshiriladi.

Shu kunning muhim vazifasi yoshlarning aqliy faoliyatini tafakkurini oʻstirishga, mustaqil ishlash qobiliyatini takomillashtirishga qaratilgan koʻnikma va malakalar hosil qilishni taqazo etadi. Demak, jamiyatimizning tamal toshini qoʻyuvchi barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy mezonini yoshlarning mustaqil fikrlay olishi, oʻrgangan bilim va tajribani amaliyotga qoʻllay bilishidir. Oʻquv jarayonini tashkil etish, samarali natijaga erishish koʻp jihatdan toʻgʻri, optimal metodni tanlashga bogʻliq. Eng qulay va yuqori samara beruvchi metodni tanlashda oʻqituvchi bir qancha omillarni xisobga olishi, ularni tahlil qilishi va shu taxlil «QISHLOQ VA SUV XOʻJALIGINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI» mavzusidagi anʼanaviy XVIII – yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent - 2019 yil, 28-29 mart 551 asosida maʼlum vaziyatga mos tushuvchi metodni tanlash malakasiga ega boʻlishi talab etiladi.

### **Adabiyotlar**

1.Атаева, Г. И., Акабирова, Л. Х., & Камалова, Ф. Р. (2020). О дистанционном образовании. In Материалы конференции (Vol. 10, p. 91). FIRUZA Kamalova,

[19.04.2023 16:42]

2.Rakhmatovna, K. F. (2020). Education of ecological culture in students. *Problemy pedagogiki*, (3 (48)), 26-28.

3.Salimovna, K. F., Huseynovna, A. L., & Rakhmatovna, K. F. (2020). Modern problems of teaching mechanical engineering. *Problemy pedagogiki*, (3 (48)), 24-26.

4. Kamalova, F. R. Субханова Н.Х. Акабирова Л.Х. Современные уроки и компьютерные технологии “Научно-практическая конференция «SMART Education и его возможности» (2020)

5.Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012. y 212 b

6..Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.y 172 b

## **TALABALARNING ONGIGA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SINGDIRISH.**

**R.Z.Halimov<sup>1</sup>, G`F.Ramazonov<sup>2</sup>**

*<sup>1</sup>Buxoro muhandislik –texnologiya instituti, Buxoro sh, Ozbekiston*

*<sup>2</sup>Buxoro muhandislik –texnologiya instituti, 520-22 DPM guruh talabasi  
(+99891-444-76-34)*

Ma’lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish odam organizmini har tomonlama jismonan rivojlanishi va mustahkamlanishi, fiziologik funksiyalarning takomillashtirishi va sog‘lomlashtirishga olib keladi. Shug‘ullanuvchilarning yoshi, jinsi va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘g‘ri uyushtirilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari yuqori samara beradi. Aks holda ular jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtirish vazifasini hal qilish borasidagi ahamiyatini yo‘qotadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot istiqbolini belgilash va jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga imkon yaratmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta’minlamoqda. Turli sohalarda yo‘lga qo‘yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o‘z samarasini berayotgan bo‘lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a’zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat’iyat ko‘rsatishni talab etmoqda.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashtirishning ko‘zga tashlanayotganligidir. Globallashtirish o‘z-o‘zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo‘lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali

tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo'ladilar. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy barkamol avlod tarbiyasi va uning kamoloti, barqaror turmush tarzi madaniyati orqali yo'lga qo'yiladi. Unga asosiy mezon bo'lib individning sog'lomligi, salomatligi darajasi olinadi. Sog'lomlik, salomatlik esa inson jismining kamolotiga borib taqaladi va uning tamal toshini qo'yish biologik yoshining ilk davridan amalga oshiriladi. Sog'lom turmush, faol optimal harakat aktivligi o'zining nazariy asoslariga ega, lekin bu muammo hozirgi kungacha to'liq o'rganilmagan. Umumiy va maxsus adabiyotlarning taxlili va mustaqilligimizdan keyingi davrda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning taxliliy natijalari mavzu bo'yicha fundamental tadqiqotlar o'tkazish lozimligini qo'rsatmoqda. STT jismoniy madaniyati tarkibidagi sog'lomlashtirish trenirovkalarining nazariy va amaliy asoslariga oid bilimlar, amaliy malakalar jamiyat a'zosini sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatiga egaligidan dalolat berishi jismoniy madaniyatga egalilikning belgisi ekanligi isbotlangan. Mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan asoslangan o'ziga xos, sog'lom turmush tarzi madaniyati tarkib topmoqda. Bu madaniyatning tarkibiy qismi turli xildagi mashg'ulotlar bilan bog'liq. Bunday taraqqiyotni belgilovchi muhim omil sog'lom madaniy hayot, uning tarkibidagi millat salomatligidir. Boylik sanalgan salomatlikni saqlashda sog'lomlashtirish trenirovkalarining ahamiyati beqiyos. Sog'lomlashtirish trenirovkalari o'zining mazmun mohiyati bilan jismoniy madaniyat tarkibida vosita tarzida munosib o'ringa ega bo'lib, jamiyat a'zolarining organizmini kundalik hayotiy faoliyatga tayyorlash, shu faoliyat uchun zaruriy biologik quvvatni yuzaga keltirish va ulardan aqliy, jismoniy mehnat jarayonida foydalanishni nazarda tutadi. Bu trenirovkalar inson hayotiy faoliyati davomidagi maqsadli mashg'ulotlardan farqlanadi. Uning hozirgi kundagi ta'rifi tarkibiy qismida sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati va uning mashg'ulotlari o'zining munosib jihatlari bilan barkamol avlod tarbiyasini amalga oshirishda yetakchi vositalaridan biri sifatida hizmat qilmoqda

Jismoniy tarbiya jarayoni ko'p qirralidir. Bu jarayonda ta'lim ham, tarbiya ham beriladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ta'lim berish harakat ko'nikmalari, malakalarini hosil qilish, takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, shug'ullanuvchilarni jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi. Tarbiyaning hamma turlarining birligi, ularning o'zaro bir-biriga ta'sir o'tkazishi tub pedagogik qonuniyatlaridan biridir. Aqliy, ahloqiy va estetik tarbiyaning ma'lum tomonlari jismoniy tarbiya jarayoniga uzviy qo'shilib ketgan. Jismoniy tarbiyaning insonni mehnat va harbiy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillari jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillari hisoblanadi. Shu bilan birga jismoniy tarbiya jarayonining ta'lim va tarbiya tamoyillari ham qabul qilingan. Ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini ifodalovchi eng muhim boshlang'ich qoidalar tarbiya tamoyillari deb ataladi. Jismoniy tarbiya jarayonida umumiy pedagogik tamoyillar tadbiq qilinishi mumkin, chunki bu jarayon ta'lim va tarbiyaning xususiy hodisasidir. Jismoniy tarbiya sohasida xususiyatini aks ettirib, alohida ahamiyat kasb etadi. Tizimlilik va izchillik tamoyili jismoniy mashqlarni va harakatlarni bir xil tizimda



oddiydan murakkabga qarab rivojlanib boradigan shaklda o‘rganish masalalarini hal etadi. Jismoniy tarbiya dasturi talablari doimo bajarilib o‘rganilib boriladi. Yangi o‘quv materiallari o‘rganilgan jismoniy mashqlar bog‘lanadi va mustahkamlanadi. Dastur asosida avval oddiy mashqlar o‘rganilsa, sekin asta murakkab mashqlar texnika va taktikasi shakllantiriladi. Har xil darajadagi mashqlarni o‘rgatishda mashqlar oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib boriladi. Shu bilan birga ular har bir mashg‘ulot davomida o‘zgartirilib turiladi. Bilimlar va malaka hamda ko‘nikmalarni mustahkamlash tamoyili o‘quv materiallarini doimo takrorlash, mustahkamlash hamda rivojlantirib borishni taqozo etadi. Chunki, jismoniy harakatlar bajarish malaka va ko‘nikmalari mashqlarini takrorlab turilmasa mashqning malaka va ko‘nikmalari yo‘qolib boradi. Shuning uchun o‘quv materiallarni rejalashtirishda mashqlarni to‘g‘ri taqsimlash va ularni oddiydan murakkabga qarab bajarishni aks ettirish kerak. O‘rganiladigan jismoniy mashqlarni muntazam darsda mustaqil bajarishlari malaka va ko‘nikmalari mustahkamlanib takomillashtirib borishiga zamin bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya jarayonida mashqlarni o‘rganish darajasi o‘quvchilar onggiga va faolliligiga bog‘liq. Shuning uchun mashg‘ulotlar davomida onglilik va faollilik tamoyili keng foydalaniladi. O‘quv materiallarini o‘quvchilar tomonidan tushunish ularni o‘zlashtirish va mashqlarni ongli ravishda idrok etish va bajarish, shuningdek erishilayotgan natijalarni takomillashtirib borish onglilik tamoyili orqali amalga oshadi. Har bir mashg‘ulotda o‘quvchilar oldiga qo‘yilgan konkret vazifalar ularning faolliligini ta‘minlaydi. Ular mashqlarni bajarishda tashabbuskorlik ko‘rsatish, mashqlarning ijobiy ta‘sirini his eta olish ularni bajarishni idrok qilishlari bilan ta‘limning onglilik va faollilik tamoyili amalga oshadi. Har qanday ta‘lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati, tarbiyalanuvchilarning o‘zining bu ishga qanchalik ongli va faol munosabatda bo‘lishlariga ham bog‘liqdir. Jismoniy tarbiya jarayoni vazifalarini to‘g‘ri tushunish, ularni qiziqish bilan faol bajarish tarbiyaning borishini tezlashtiradi, hosil qilingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni chuqur takomillashtirish va ulardan hayotda ijodiy ravishda foydalanishga imkon beradi. Bu qonuniyatlar eng avvalo onglilik va faollilik tamoyilining asosini tashkil etadi. Jismoniy tarbiya jarayonida onglilik va faollilik tamoyili quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha qo‘llaniladi. Mashg‘ulotlarning umumiy maqsadi va konkret vazifalariga nisbatan tushungan holda munosabatda bo‘lishni va muhim qiziqishni tarkib toptirish. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga undovchi motivlar xilmaxildir. Ular pedagogik nuqtai nazaridan tasodifiy yoki kam ahamiyatli bo‘ladi. Lekin tarbiya jarayonida ular o‘zini oqlay boshlaydi. Onglilik va faollilik tamoyili jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining maqsadini tushunish va jismoniy barkamollikning istiqbolini anglash va unga yetishni maqsad qilib belgilash bilan ifodalanadi. Jismoniy tarbiya jarayonida beriladigan vazifalar ma‘lum jismoniy mashqlar tarzida bajariladi. O‘qituvchi bajarish uchun mashq berish bilan birga, shug‘ullanuvchilarga nimani bajarish va qanday bajarish kerakligini emas, balki shu mashqni bajarish tavsiya etilishini shu qoidaga rioya qilish kerak ekanligini ham tushuntirishi zarur.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. M.N.Norqobilov., Z.S.Mirxodjaeva., V.V.Mahmudov / Jismoniy madaniyat

va sport mashg'ulotlarida sog'lom turmush tarzini talabalar ongiga singdirishda pedagogik yondashuvlar / Monografiya. T., TIQXMMI, 2019, 138- BET.

2. Tojimatovna, N. D. (2022). Talaba qizlarda umumiy jismoniy tayyorgarlik salomatlikni yaxshilashning asosiy vositasidir. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 1(8), 543-546.
3. Nishonova, D. (2022). Pedagogical possibilities for further improving physical culture in the development of a healthy lifestyle for talented girls in higher education institutions. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 7, 198-200.

## TALABALARNING JISMONIY HARAKATLARGA O'RGATISHNING TAMOYILLARI

**R.Z.Halimov<sup>1</sup>, G`F.Ramazonov<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>*Buxoro muhandislik –texnologiya instituti, Buxoro sh, Ozbekiston*

<sup>2</sup>*Buxoro muhandislik –texnologiya instituti, 520-22 DPM guruh talabasi  
(+99891-444-76-34)*

Jismoniy tarbiya jarayoni ko'p qirralidir. Bu jarayonda ta'lim ham, tarbiya ham beriladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ta'lim berish harakat ko'nikmalari, malakalarini hosil qilish, takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, shug'ullanuvchilarni jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi. Tarbiyaning hamma turlarining birligi, ularning o'zaro bir-biriga ta'sir o'tkazishi tub pedagogik qonuniyatlaridan biridir. Aqliy, ahloqiy va estetik tarbiyaning ma'lum tomonlari jismoniy tarbiya jarayoniga uzviy qo'shilib ketgan. Jismoniy tarbiyaning insonni mehnat va harbiy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillari jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillari hisoblanadi.

Onglilik va faollilik tamoyili: Jismoniy tarbiya jarayonida mashqlarni o'rganish darajasi o'quvchilar onggiga va faolliligiga bog'liq. Shuning uchun mashg'ulotlar davomida onglilik va faollilik tamoyili keng foydalaniladi. O'quv materiallarini o'quvchilar tomonidan tushunish ularni o'zlashtirish va mashqlarni ongli ravishda idrok etish va bajarish, shuningdek erishilayotgan natijalarni takomillashtirib borish onglilik tamoyili orqali amalga oshadi.

Ko'rsatmalilik tamoyili. Pedagogika tajribasida ko'rsatmalilik tarbiyalanuvchilarning ko'rish, eshitish va idrok etish tuyg'ulariga ta'sir etib tarbiya vazifalarini amalga oshirish tushuniladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ko'rsatmalilik muhim rol o'ynaydi, chunki shug'ullanuvchining faoliyati asosan amaliy xarakterda bo'ladi va sezgi organlarini har tomonlama rivojlantirishdek o'zining maxsus vazifalaridan biriga egadir.

Bajara bilish tamoyili. Jismoniy tarbiyada o'quvchilarda o'rganilayotgan jismoniy mashqlar texnikasi va malaka va ko'nikmalari shakllangandan so'ng undan murakkabroq bo'lgan jismoniy mashqlar turkumiga o'rgatiladi. Oson mashqlar o'quvchilar faolligini susaytiradi. Shuning uchun ularni jismoniy darajasiga muvofiq

holda jismoniy mashqlar berish va ularni takomillashtirib borish kerak. O‘quvchilar organizmi bir xil shakldagi jismoniy mashqlarga moslanib qoladi. Mashqlar miqdori, hajmi, suratini orttirib borish bolalar organizmining jismoniy rivojlanib borishini ta’minlaydi. Aks holda bir xil shakldagi jismoniy mashqlarga o‘quvchilar organizmi moslashib qoladi va bu bilan ularning organizmi jismonan rivojlanmaydi.

Bajara bilish tamoyilida shug‘ullanuvchilarning jismoniy va ma’naviy kuchlari yordamida bajara olinadigan jismoniy harakatlar me’yorini belgilash tushunish mumkin. Shuningdek, mashqlarning kuchli shakllari shug‘ullanuvchilar imkoniyatidan yuqori darajada hisoblansa, u bajarib bo‘lmaydigan yuklama bo‘ladi. Keyingi muddatlarda bunday yuklamalar ham shug‘ullanuvchilar imkoniyatidan hisoblanishi mumkin. Agarda jismoniy yuklamalar organizmda jismoniy rivojlantirish va sog‘lomlashtirishni ta’minlasa ular bajarib bo‘ladigan yuklamalar hisoblanadi. Organizmga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi va sog‘liqqa putur yetkazuvchi jismoniy yuklamalar bajarib bo‘lmaydigan yuklamalar sanaladi. Shunga qaramay shug‘ullanuvchilar organizmi rivojlanishi bilan bajarib bo‘lmaydigan yuklamalar darajasi pasayib boradi. Bajarish mumkin bo‘lgan yuklamani bajarishga urinish ham pedagog va vrach nazorati ostida bo‘lishi kerak, chunki ular yuklamalarning organizmga salbiy ta’sirini bartaraf etish ko‘rsatmalarini berib turadilar. Jismoniy tarbiyaning har bir bosqichida ko‘rsatib o‘tilgan shartlardan tashqari, bajara olish me’yori tanlangan uslubning maqsadga muvofiqligi hamda umuman mashg‘ulotning tashkil etilishi orqali aniqlab olinadi. Malaka va ko‘nikmalar ilgari hosil qilingan malakalar bazasidir. Shuning uchun ham bajara olish masalasi ta’lim va tarbiyaning boshqa uslublari bilan, mashg‘ulotlar davomiyligi va qiyinchiliklarni muntazam oshirib borish uslublari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Jismoniy tarbiya jarayonida bajara olishning hal qiluvchi shartlaridan biri jismoniy mashqning davomiyligidir. Turli harakat shakllari o‘rtasidagi o‘zaro tabiiy aloqalardan hamda struktura jihatdan davomiylikka erishiladi. Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o‘rganiladigan harakat vazifalari kelgusi mashg‘ulot vazifalarini oson o‘zlashtirishni ta’minlasin. Bu qonuniyat ma’lumdan noma’lumga yoki o‘zlashtirilgandan o‘zlashtirilmagan vazifaga o‘tish deb ataladi. Bir topshiriqdan ikkinchisiga, osonidan qiyinroq‘iga o‘tishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shartlardan biri izchillikdir. Organizm imkoniyatlari sekin, demak talablar ham organizm imkoniyatlari haddan ziyod bo‘lmasligi lozim. Muntazamlilik tamoyili jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining shuningdek, jismoniy yuklama bilan dam olishni almashtirib turishning muntazamliligida namoyon bo‘ladi. Muntazam ravishda mashq qilishning samarasi beqiyos katta bo‘ladi. Jismoniy tarbiya jarayonining muntazamliligi asosan yuklama bilan dam olishning eng qulay navbatlashuviga qay darajada bog‘liq ekani xususiyatidir. Uzluksizlik-jismoniy tarbiya inson hayotining barcha davrlaridan uzluksiz davom etadigan jarayondir. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish tufayli organizmda sodir bo‘ladigan funksional va tarkibiy o‘zgarishlar ziddiyatga uchrashi, paydo bo‘lgan shartli reflektorli bog‘lanish so‘na boshlaydi, funksional imkoniyatlarning erishilgan darajasi pasaya boradi va hatto ba’zi regressiv o‘zgarishlar 5-7 kun mashq qilinmagandayoq bilinib qoladi. Ko‘rinib turibdiki, jismoniy tarbiya jarayoni uzluksiz bo‘lishi kerak, ya’ni sababsiz tanaffuslar bartaraf

etilishi kerak, shundan soʻnggina jismoniy yetuklikka erishishning sharoitlari yaratiladi. Mashqlarni takrorlash va yangilab turish, jismoniy tarbiya jarayonida, tarbiyaning boshqa koʻpchilik turlariga qaraganda, takrorlashga ancha keng oʻrin beriladi. Jismoniy tarbiya jarayoni uchun takrorlash bilan bir qatorda, variativlik, yaʼni mashqlarning va ularning bajarilish shartlarining tez-tez oʻzgartirib turish, yuklamalarni asta-sekin oshirib borish hamda ularni qoʻllanishning rang-barang uslublarini tadbqiq etish, umuman mashgʻulotlarning shakl va mazmunini oʻzgartirib turish ham muhimdir. Jismoniy tarbiya jarayonining uzluksizligi yuklama bilan dam olishni almashtirib turishni inkor etmay, balki muntazam navbatlashni taqozo etadi. Yuklama jismoniy mashqlarni organizmga taʼsir etish darajasi va organizm funksional imkoniyatlarni rivojlantirish omili hisoblanadi. Qayta tiklanishda yuklamaning oqibati va taʼsiri sifatida dam olish yuklama bilan uzviy bogʻliqligini eʼtiborga olinadi. Charchash va qayta tiklanish jarayonlarining organik bogʻlanganligi va birgalikda oʻtishi hisobga olinsa, yuklama bilan dam olishning oʻzaro bir-biriga bogʻliqligini tushunib olish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni koʻrsatadiki, ishlash va dam olish paytida kishining ishchanlik qobiliyati oʻzgarib turadi. Ishlab turgan vaqtda, agar yuklama ancha ortiq boʻlsa, ishlash qobiliyati pasayadi-kishi tez charchay boshlaydi. Bu hol oldinmi-kechroqmi ishni toʻxtatishga va organizmga xordiq berishga majbur etadi, bu xordiq vaqtida avvalgi yuklama baxs etgan kuch bilan qayta tiklanish jarayoni boshlanadi, qayta tiklanish jarayonlari ish vaqtida sodir boʻladi. Lekin ish qobiliyatini xordiq vaqtidagina tiklash mumkin. Jismoniy yuklama ancha ortiq boʻlganda shunga yarasha dam olish ishlash qobiliyatini dastlabki darajaga kelishi bilan tiklanish toʻxtamaydi. Bu jarayon asta-sekin davom etadi. Mazkur faza dam olish davom ettirilgan taqdirda ish qobiliyatining ishga kirishish oldidagi darajasigacha qaytishi bilan almashadi. Oshirilgan yuklamalardan ishchanlik toʻla tiklanmagan sharoitda foydalanish uchun shugʻullanuvchilar oldindan puxta tayyorgarlik koʻrgan boʻlishlari shart. Toʻla tiklanmagan holatda oʻtkaziladigan mashgʻulot samarasi boʻlmaydi. Mashgʻulotlarning bir-birini takrorlashi izchilligi ularni bajara olish masalalari bilan bogʻliqdir. Jismoniy tarbiya va sportda yuksak mahoratga erishish uchun shugʻullanuvchilarning imkoniyatlari rivojlanish qonuniyatlari, shu bilan birga trenirovka bosqichlarida qulay boʻlgan tarbiya jarayoni nazarda tutilishi kerak. Jismoniy tarbiya jarayonida ixtisoslashtirilgan mashgʻulotlar muhim ahamiyatga ega boʻladi. Dastlab zaruriy harakatlar, xususan qoʻl harakatlari malaka va koʻnikmalar shakllantiriladi, keyinchalik oyoq va gavda harakatlari boʻlgan asosiy malakalar takomillashtiriladi. Bu bilan tanlangan sport turi boʻyicha ixtisoslashish yuzaga keladi. Jismoniy tarbiya jarayonida harakat malaka va koʻnikmalarini ijobiy koʻchishidan maksimal foydalanib, salbiy koʻchishini esa imkoniyat boricha bartaraf etish zarur.

#### **Adabiyotlar roʻyxati**

4. M.N.Norqobilov., Z.S.Mirxodjaeva., V.V.Mahmudov / Jismoniy madaniyat va sport mashgʻulotlarida sogʻlom turmush tarzini talabalar ongiga singdirishda pedagogik yondashuvlar / Monografiya. T., TIQXMMI, 2019, 138- BET.
5. Tojimatovna, N. D. (2022). Talaba qizlarda umumiy jismoniy tayyorgarlik

salomatlikni yaxshilashning asosiy vositasidir. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 1(8), 543-546.

6. Nishonova, D. (2022). Pedagogical possibilities for further improving physical culture in the development of a healthy lifestyle for talented girls in higher education institutions. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 7, 198-200.

## **JISMONIY MADANIYAT JARAYONIDA HILMA-XIL USLUBLARDAN FOYDALANISH.**

**R.Z.Halimov<sup>1</sup>, G`F.Ramazonov<sup>2</sup>**

*<sup>1</sup>Buxoro muhandislik –texnologiya instituti, Buxoro sh, Ozbekiston*

*<sup>2</sup>Buxoro muhandislik –texnologiya instituti, 520-22 DPM guruh talabasi  
(+99891-444-76-34)*

Jismoniy tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiyaning o'rgatish kabi pedagogik uslublaridan keng foydalaniladi. Jismoniy tarbiya jarayonida hilma-xil uslublar qo'llaniladi. Bu uslublar bevosita, his-tuyg'u bilan idrok etishdan yoki so'zdan, yoki amaliy harakat faoliyatidan foydalanishga asoslanadi. Yuklama va dam olish jismoniy tarbiya uslublarining o'ziga xos tarkibiy qismi hisoblanib, tarbiya jarayonida foydalaniladi. Yuklamani tashkil qilish va uni dam olish bilan qo'shib bajarishning tartibi jismoniy tarbiya uslublari tuzilishining asosi bo'lib hisoblanadi. Yuklama samarasi uning hajmi va intensivligiga bog'liqdir

Yuklama hajmi berilgan jismoniy mashqlarning uzoq ta'sir qilishini hamda mashg'ulotlar davomida bajariladigan jismoniy ishning jami miqdori tushuniladi. Mashq yoki mashg'ulot miqdori unga sarf etilgan vaqt, bajarilgan ishning vazni, bajarilgan masofaning hajmi va boshqa ko'rsatkichlar me'zon hisoblanadi.

Yuklama intensivligi jismoniy ishning har bir mashq paytidagi ta'sir kuchi, jiddiyligining vaqt birligida birlashishi tushuniladi. Harakat tezligi ishning kuchliligi, og'irlikning vazni, tegishli yuklamaning umumiy hajmida tezlik va og'irlikda bajariladigan ishlar miqdori, mashg'ulotning mator zichligi va boshqalar intensivlik o'lchovi hisoblanadi. Yuklama jismoniy tarbiyaning hilma-xil uslublarini tuzishda, standart-amalda har bir ta'sir etishda o'zgarmas va ta'sir etish jarayonida o'zgaruvchan bo'ladi. Yuklamadan foydalanishning maqsadga muvofiqligini aniqlashni jismoniy tarbiyaning uslubiy tamoyillari belgilab beradi.

Dam olish jismoniy tarbiya uslublarining tarkibiy qismi hisoblanib, passiv-harakatsizlik va aktiv-yengil mashg'ulot shaklida bo'ladi. Yuklama qismlari orasidagi interval qanchalik qisqa, uzoq bo'lishi har xil uslublarda ta'sirning nimaga qaratilganligi va tiklanish jarayonlarining qonuniyatlariga qarab belgilanadi. Bunday intervallar uch xil: to'la, qattiq va ekstremal intervalga bo'linadi.

To'la yoki oddiy intervalda yuklamaning navbatdagi ta'siri paytigacha ish qobiliyati to'la tiklanadi. Bu bilan barcha funksiyalar qo'shimcha zo'r berishsiz ish faoliyatini davom ettiradi. Qattiq intervalda yuklamaning navbatdagi qismi to'la

tiklanmagan fonga tushadi. Ishning samarasi o'zgarmagani bilan fiziologik va psixiologik jarayonlarni keskinlashib borishi sodir bo'ladi.

Ekstremal intervalda yuklamaning navbatdagi qismi tiklanish qonuniyatlari natijasida paydo bo'lgan yuqori ishchanlik qobiliyati fazasiga to'g'ri keladi. Shunga qaramay bu intervallar natijasida erishilgan samara barqaror emas.

Jismoniy tarbiya uslublarini asosiy vazifalaridan biri mashqlarni o'rgatish va amalga oshirish faoliyatidir. Harakatli mashqlarni o'zlashtirishga bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xil usulda yondashiladi.

1. Harakatli mashqlarni tarkibiy elementlarga bo'lib o'rgatish.

2. Harakatli mashqlarni tarkibiy elementlarga bo'lmay o'rgatish.

Bu yondashish usullarida ham jismoniy tarbiya uslublari o'z aksini topadi. Shug'ullanuvchilar faoliyatlarini tartibga solish usullari gimnastika, o'yinlar va sport turlari shakllarida vujudga kelgan. Qat'iy reglamentlashtirilgan mashq uslublari. Qat'iy reglamentlashtirilgan mashq usulublari harakatli mashqlarni qat'iy reglamentlashtirilgan sharoitlarda ko'p marta qayta takrorlashdan iborat. Belgilangan harakat dasturida; yuklamaning qat'iy normalashtirish va mashq jarayonida uning dinamikasini to'la boshqarishda; dam olish intervalini qat'iy tartibga solish va ularni belgilangan tartibda yuklama bilan navbatlashishida qat'iy reglamentlashtirilgan mashqlar foydalaniladi. Harakatlarni o'rganish jarayonida mashq uslublari. Harakatli mashqlar dastlab yaxlit va qismlarga bo'lib o'zlashtirilishi mumkin. Harakat amallarini qismlarga bo'lib o'zlashtirishda harakatlar tarkibiy elementlarga bo'linadi va ular navbat bilan o'zlashtiriladi.

Qat'iy reglamentlashtirilgan mashq usuli ikki asosiy shaklga bo'linadi.

1) Mashqlarni qismlarga bo'lib, so'ng izchillik bilan birlashtirib bajarish;

2) Qismlarni tanlab chiqarib yuborish bilan bajariladigan yaxlit mashq.

O'rganilgan harakatlardan takomillashtirish uchun foydalanish har xil bo'ladi. Bu yerda uslubiyot yo'nalishi organizm imkoniyatlarini oshirish uchun qaratilgan talablarga bog'liqdir. Organizmning har xil funksional xususiyatlarini umumiy takomillashtirishga qaratilgan umumlashtirilgan mashq uslublari va organizmning ayrim funksiyalariga tanlab ta'sir ko'rsatishni ta'minlovchi tanlab bajariladigan mashq uslublari ham keng foydalaniladi. Jismoniy fazilatlarni rivojlantirishda usullarning yo'nalishi yuklamani reglamentlashtirish va uni dam olish bilan qo'shib bajarish tartibining qandayligiga bog'liq. Uni hisobga olib mashq jarayonlarini standartlovchi-standard mashq uslublari va mashq davomida ta'sir etuvchi omilning o'zgarishini belgilovchi o'zgaruvchan mashq uslublarini farqlash kerak. Shuningdek ular uzluksiz va interval mashq uslublariga bo'linadi. Shu bilan birga bir-biriga uyg'un keluvchi uslublar guruhi ham mavjud bo'lib ularga kombinatsiyalangan uslublarni kiritish mumkin.

Standart mashq uslublari. Standartlashtirilgan mashq jarayonida harakatlar ularning tuzilishi va yuklamaning asosiy paramentlarida biror bir jiddiy o'zgarishsiz takrorlanadi. Bunda har bir navbatdagi takrorlashda yuklama hajmi jihatdan ham, intensivligi jihatidan ham tashqi o'zgarishga uchramay turaveradi.

Standart uzluksiz mashq uslublari-asosan chidamlilikni tarbiyalashga qaratilgan. Bularda eng ko'p qo'llaniladigani bir tekis bajariladigan mashq uslubidir.

Standart-intervalli mashq uslubiga bir qator takroriy mashq uslublari kiradi, bu

uslublarda bir xil yuklama dam olishning nisbatan doimiy intervali orqali qayta tiklanadi.

Almashinuvchi mashq uslublari yangi marralarga yo‘l ochishda yetakchi rol o‘ynaydi. Almashinib turuvchi uzluksiz mashq uslublari asosan tabiiy siklli harakatlar yuzasidan bajariladigan mashqlarda qo‘llaniladi.

Almashinib turuvchi mashq uslublari. Bunda sur‘at va tezlik asosiy almashuv mezonini hisoblanadi. Standart bo‘lmagan dastur bo‘yicha masofada tezlikni tartibga solish bilan xarakterlanadigan almashinuvchi mashq uslubi bunga asosiy misol hisoblanadi. Yuklamalar mashq jarayonida surunkasiga emas, balki interval bilan bajarilsa, ta’sir kuchi va maqsadni almashtirish imkoniyati ortadi. Buning uchun almashinuvchi yuklamani dam olish bilan tizimli navbatlashuvchiga asoslangan uslublardan - intervalli almashinuvchi mashq uslublardan keng foydalaniladi. Bu usulda yuklama qat’iy ravishda ortiq yuksalib boradi. Bu xil keng tarqalgan uslublardan biri interval bilan bajariladigan o‘sib boruvchi mashq uslubidir.

Pastlab boruvchi mashq uslubi qarama-qarshi qonuniyatlarni aks ettirib, yuklamaning bir ta’siri ozayadi. Lekin umumiy vazifa o‘zgarmaydi, asosiy ta’sir kuchi saqlanib qoladi. Tartibga soluvchi mashq uslubida yuklamaning goh oshishi, goh pasayishini hisobga olib uni tartibga solib turiladi. Bu uslub siklli, asiklli barcha harakatli mashqlarda qo‘llaniladi. Bu uslubda yuklama goh oshish tomonga, goh kamayish tomoniga doimo o‘zgarib turadi.

Mashqning kombinatsiyalashgan uslublari. Sanab o‘tilgan uslublar amalda, yangi uslublar hosil qilinganday bo‘lib kombinatsiyalashadi. Bunga, bir tomondan, har qanday yuklamaning ham biror bir uslubni qo‘llashga imkon bermasligi sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan, hilma-xil uslublarning xususiyatlarini birlashtirish ko‘p hollarda yuklama bilan dam olishni ancha to‘g‘ri tartibga solish sababdir.

Takroriy almashinuvchi mashq uslublari. U takroriy va almashinuvchi mashqlarning shunday birgalikda kelishini ko‘rsatadiki, bunda almashinuvchi xarakterida bo‘lgan yuklama bir tartibning o‘zida ko‘p marotabalab takrorlanadi. Takroriy o‘sib boruvchi mashq uslubi. Bu uslubda yuklamaning standart shaklda qayta tiklanishi uni asta-sekin oshirib borish bilan almashtirib turiladi. Dam olish intervalining vaqti yuklamani oshirish mumkin bo‘ladigan qilib belgilanadi.

Almashinuvchi interval bilan bajariladigan takroriy mashq uslubi. Bunda yuklamaning tashqi tomonigina qat’iy takrorlanib, hajmi o‘zgarmaydigan bo‘lib qoladi. Organizmning javob ta’siriga kelganda, bu ta’sir dam olish intervalining tegishli o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi. Ko‘p seriyali interval mashq uslubi. Bu uslubda biror bir faoliyatni dastlab bo‘lib yuborish va so‘ngra qismlarni intervallarni tugatish hisobiga bosqichma-bosqich birlashtirish yo‘li bilan asta-sekin o‘zlashtirib boriladi. Harakatlarni kompleks qo‘llashdagi mashq uslublari. Jismoniy tarbiya jarayonida bir qator har xil harakatlarni birlashtirish va ularni qat’iy reglamentlashtirilgan mashq uslublari bilan yaxlit tartibda qo‘llash hollari bo‘ladi. Faoliyatning kompleks xarakterda bo‘lishi jismoniy sifatlarning bir-biri bilan organik bog‘langan holda har tomonlama o‘sishiga imkon beradi hamda harakat koordinatsiyalarini takomillashtirish uchun yaxshi sharoit yaratadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. M.N.Norqobilov., Z.S.Mirxodjaeva., V.V.Mahmudov /Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlarida sog'lom turmush tarzini talabalar ongiga singdirishda pedagogik yondashuvlar / Monografiya. T., TIQXMMI, 2019, 138- BET.

2. Tojimatovna, N. D. (2022). Talaba qizlarda umumiy jismoniy tayyorgarlik salomatlikni yaxshilashning asosiy vositasidir. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 1(8), 543-546.

3. Nishonova, D. (2022). Pedagogical possibilities for further improving physical culture in the development of a healthy lifestyle for talented girls in higher education institutions. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 7, 198-200.

## **ORGANIZATION OF PROJECT-BASED LESSONS USING MOBILE APPLICATIONS**

**M.M.Nafasov**

*Bukhara Engineering and Technology Institute, Bukhara, Uzbekistan*

Project-based learning (PBL) has become a popular educational approach, leveraging real-world problems to facilitate learning. With the rise of mobile technology, integrating mobile applications into PBL offers new opportunities for engaging and interactive lessons. Here's a closer look at how to organize project-based lessons using mobile applications effectively.

1. **Setting Clear Objectives and Learning Outcomes:** Before diving into the selection of mobile applications, it's crucial to establish the objectives and desired outcomes of the lesson. Clearly defined goals help in choosing appropriate apps and guide the learning experience. Educators should consider what skills or knowledge they want students to gain, ensuring the chosen apps align with these objectives.

2. **Selecting Appropriate Mobile Applications:** The next step involves selecting mobile applications that fit the project's needs. There is a wide range of apps available for various subjects and skills, such as coding, mathematics, science, and language learning. Educators should evaluate apps based on functionality, ease of use, and alignment with the lesson's objectives. For example, apps like "Google Classroom" facilitate collaboration, while others like "Trello" are excellent for project management.

3. **Designing Engaging Projects:** Once the objectives and tools are set, it's time to design the project. The project should be meaningful and relevant, encouraging students to apply their knowledge practically. Mobile applications can enhance this process by providing interactive and collaborative tools. For instance, using a video editing app, students can create documentaries, or with an app like "Kahoot!", they can develop interactive quizzes as part of their project.

4. **Facilitating Collaboration and Communication:** PBL often involves teamwork, and mobile applications are ideal for facilitating collaboration and communication. Apps like "Slack" or "Microsoft Teams" enable students to communicate effectively, share resources, and collaborate in real-time. It's crucial to



guide students in using these apps effectively, setting clear communication protocols and fostering a collaborative environment.

5. **Monitoring and Assessing Progress:** Throughout the project, monitoring student progress and providing feedback is essential. Mobile applications offer various ways to track student progress. Apps like “Edmodo” or “ClassDojo” allow teachers to assess students’ work, provide feedback, and monitor participation. Continuous assessment helps ensure that students stay on track and achieve the learning outcomes.

6. **Showcasing and Reflecting on Projects:** After completing the project, students should have an opportunity to showcase their work and reflect on their learning experience. Mobile applications can facilitate this by providing platforms for presentations or creating portfolios. Apps like “Seesaw” enable students to compile their work into a digital portfolio, allowing them to reflect on their achievements and receive feedback from peers and teachers.

7. **Continuous Improvement:** After the project, it's essential to review what worked well and what could be improved. Gathering feedback from students about their experience with the mobile applications and the project can provide valuable insights. This feedback helps in refining future project-based lessons and selecting mobile applications that better suit the students' needs.

Project-based learning (PBL) using mobile applications offers numerous benefits, but it also comes with certain barriers and challenges that educators should be aware of. Addressing these obstacles can help ensure successful implementation. Here are some common barriers to organizing project-based lessons using mobile applications and strategies for overcoming them (Table 1).

While project-based learning using mobile applications offers great potential, it's important to be mindful of the barriers that may arise. By addressing technical issues, bridging the digital divide, fostering digital literacy, managing classrooms effectively, aligning with the curriculum, and managing costs, educators can create engaging and effective project-based lessons.

Table-1.

	<b>Barrier:</b>	<b>Solution</b>
<b>Technical Issues</b>	One of the most common barriers to implementing mobile applications in education is technical issues. This includes connectivity problems, software compatibility, and device malfunctions.	To mitigate technical issues, ensure that all devices are properly maintained and that the necessary software is up to date. It's also helpful to have a reliable IT support team available to address issues as they arise. Testing the applications before starting the lesson can also help preemptively identify potential problems.
<b>Digital Divide</b>	The digital divide refers to the gap between those who have access to digital technologies and those who do not.	To bridge the digital divide, schools and educators should explore options for providing devices and internet access to students who need them.

Lack of Digital Literacy	Both students and teachers may lack the necessary digital literacy skills to effectively use mobile applications for project-based learning.	Providing digital literacy training for both students and teachers can help overcome this barrier. This training should cover the basics of using mobile applications and focus on the specific tools needed for the lessons.
Aligning with Curriculum	Aligning mobile application-based projects with the curriculum and learning objectives can be challenging. Teachers need to ensure that the use of technology supports educational goals rather than simply being an add-on.	When planning lessons, teachers should carefully select mobile applications that align with the curriculum and enhance learning outcomes. It's important to integrate technology purposefully, focusing on how it can facilitate the achievement of specific educational objectives.
Cost and Budget Constraints	The cost of mobile applications and related technologies can be a barrier, especially for schools with limited budgets. Subscriptions, licenses, and hardware upgrades can be expensive.	To address cost issues, schools and educators can seek out free or low-cost mobile applications and explore grants or funding opportunities for technology. Additionally, using open-source or freeware options can help minimize expenses while still providing quality learning tools.

Conclusion: Organizing project-based lessons using mobile applications can significantly enhance the learning experience, making it more interactive, engaging, and relevant. By setting clear objectives, selecting appropriate apps, designing meaningful projects, facilitating collaboration, monitoring progress, showcasing work, and continuously improving, educators can leverage mobile technology to create impactful learning experiences.

### REFERENCES

D. M. de Souza, J. C. Maldonado, and E. F. Barbosa, "ProgTest: An environment for the submission and evaluation of programming assignments based on testing activities," *Software Engineering Education and Training (CSEE&T)*, 2011 24th IEEECS Conference on, May 2011, pp. 1-10, ISBN: 978-1-4577-0349- 2.

Nafasov M.M. (2020). The effectiveness of the use of mobile technologies in the educational process // *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*. pp.142-166. DOI:10.36713/epra2013.

Beyer, Dirk. (2023). *Software Testing: 5th Comparative Evaluation: Test-Comp 2023*. DOI:10.1007/978-3-031-30826-0\_17.

Yves Le Traon, Tao Xie. Model-based testing, test case prioritization and testing of virtual reality applications. *Volume33, Issue8. December 2023*. DOI:10.1002/stvr.1868

Akhtamova L.A.K. FORMS OF CONDUCTING AN ELECTRONIC

LEARNING COURSE //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 1. – C. 392-400.

## **“O’QITUVCHI TALABA NIGOHIDA” MODULINI YARATISH (4-QISM).**

**Murtazoyeva Mohigul Sunnatillo qizi**

*Osiyo Xalqaro Universiteti “Umumtexnik fanlar” kafedrasida o’qituvchisi  
mohigulmurtazayeva21091993@gmail.com*

### **ANNOTATSIYA.**

Bu modul talablarning o’qituvchilar haqidagi fikrini, o’qituvchilar bilim salohiyati hamda xarakteri qay darajada ekanligi bilish uchun qo’llaniladi.

Modul. Wep sahifa yaratish texnologiy

**Kalit so’zlar:** Modulning test qismi. Borliqlar. ER moduli

**Universitet informatsion tizimida”O’qituvchi talaba nigohida” modulini yaratish (test qismi)**

**Masalaning qo’yilishi.**

Ta’lim jarayonida muhim elementlardan biri o’qituvchi faoliyati hisoblanadi. Ta’lim samaradorligini oshirishda o’qituvchining ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Shu asnoda bitiruv malakaviy ishida o’qituvchi faoliyatini “O’qituvchi talaba nigohida” nomli tahliliy darturni tuzish ko’zda tutilgan.

Bundan maqsad, oliy ta’lim muassasasida o’z xodimi haqida fikrga ega bo’lish nazarda tutilgan.

Dasturiy ta’minotda oliy ta’lim muassasasi rahbarlari tomonidan berilgan kriteriyalar asosida savollar ishlab chiqarilgan. Talaba bu testlarni yechish davomida o’qituvchi shaxsiga turli tomondan fikr bildirish imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu esa oliy ta’lim muassasasida o’qituvchining ta’lim jarayonidagi obrazini shakllantirish imkoniyatini beradi. Dasturiy ta’minot talabaga o’z fikrini bayon etish va o’z takliflarini yozib qoldirish imkoniyatini beradi. Dasturiy ta’minot ishi yakunida turli xil hisobotlarni tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

Biz bu masalani yechishda SQL server ma’lumotlar bazasidan, ASP.net web texnologiyalaridan foydalanib, ko’pgina etaplarni bajarib, natijani hosil qilganmiz. 2-bob davomida shu etaplarni ketma-ketligini ko’rib chiqamiz.

### **Borliqlar va ER modeli.**

“O’qituvchi talaba nigohida” modulini yaratishda bizga quyidagi jadvallar kerak bo’ladi.

- sp\_faculty
- sp\_kafedra
- sp\_pedagog
- sp\_fan
- sp\_kurs
- sp\_group

- sp\_blok
- baholash
- sp\_baholash\_detail
- fikr
- sp\_gfp

Jadvallar bilan ishlash uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi sifatida, Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi SQL tanlab olindi. Bu tizimini lokal va global tarmoqda ishlashni ta'minlash maqsadda foydalanuvchilar interfeyslari chiroyli interfeysda hosil qilish uchun ASP texnologiyasidan, web dasturlash tillaridan foydalanamiz. SQL va ASP dasturiy obyektini ishlab chiqishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Bundan ko'rinib turibdiki kompyuter inson imkoniyatlarini yanada kengroq oshiruvchi vosita bo'lib xizmat qilishi, vaqtining tejalishiga imkon yaratadi, chunki har qanday mutaxassis ham bu kabi katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashda xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan holdir. Yuqorida bajarilayotgan ish qilingan xatoliklarni oldini olish, tuzatish jarayoni ancha tez amalga oshiriladi. Chunki agar bu o'qituvchilar faoliyati tahlili qog'oz variantda bo'lsa uni natijasini hisoblashga to'g'ri keladi. Bunda asosan vaqt tejalishi bilan birgalikda qog'ozda bajariladigan ishlarning kamaytirishga imkon yaratadi, ancha miqdorda sarf xarajatlar tejaladi. Bu tizimning yana bir qulaylik taraflaridan biridir. Yuqorida keltirilgan jadvallarni yaratishda quyidagilardan foydalanamiz:

**Fakultet jadvali quyidagi maydonlardan iborat.**

	Column Name	Data Type
▶	kod	int
	nomi	varchar(50)

2.2.1-chizma. Fakultet jadvali

**Kafedra jadvali quyidagi maydonlardan iborat.**

	Column Name	Data Type
▶	kod	int
	nomi	varchar(200)
	fac_kod	int

2.2.2-chizma. Kafedra jadvali

**Pedagog jadvali quyidagi maydonlardan iborat.**

	Column Name	Data Type
▶	kod	int
	nomi	varchar(50)
	kaf_kod	int
	lavozim	varchar(50)

1. 2.2.3-chizma. Pedagog jadvali

### Fan jadvali quyidagi maydonlardan iborat.

	Column Name	Data Type
▶	kod	int
	nomi	varchar(150)
	kaf_kod	int

2.2.4-chizma. Fan jadvali

### Kurs jadvali quyidagi maydonlardan iborat.

	Column Name	Data Type
▶	kod	int
	nomi	varchar(10)
	fac_kod	int

2.2.5-chizma. Kurs jadvali

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ё.С.Савриев Исследование технологии экстракции жмыхов масличных семян.
2. Ё.С.Савриев, Ш.Ш.Хакимов Исследование и оптимизация технологии экстракции хлопковых жмыхов.
3. Savriyev Y.S., SH.SH.Hakimov., K.H.Majidov Technological features of olive seeds.
4. Savriyev Y.S., SH.SH.Hakimov., K.H.Majidov Structure of some olive seeds.

## DARSLARDA INTERFAOL O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.

### Sharofova Zebiniso Matyoqubovna.

*Buxoro shahar 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi fizika fani o'qituvchisi*

**Anotatsiya.** Darslarda metodlardan foydalanishdan maqsad, mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Metodlar, daraxt metodi, maqsad qo'ya olish, natijalar, “4 taraf” metodi.

Fanlarni o'qitish o'quvchilarda anchagina murakkabliklar tug'diradi. Ana shunday o'quvchilar uchun tushunarsiz yoki qiziqarli bo'lmagan jarayonlarda interfaol metodlardan foydalanish fanni o'rganishga mehr uyg'otish bilan birgalikda, ularning samarali bilim olishiga turtki bo'ladi.

Fanlarni o'qitishda mashg'ulotlar jarayonida quyidagi interfaol o'qitish metodlaridan foydalanilsa ham o'qituvchilarning tushuntirishi uchun ham o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun “Daraxt” metodi qo'llanilsa samarali natijalar beradi.

### **“Daraxt” metodi**

Daraxtning juda ko'p shakli mavjud. Baland, past, manzarali, mevali, mevasiz, butali. Ta'limda ham bu metodning shakli juda ham ko'p va bu shakllar pedagogik maqsadlarga ko'ra o'zgarib boradi. Aynan sizga taqdim etilayotgan shakli esa maqsadni aniq belgilab olishga qaratilgandir. O'ylab ko'ring mazkur metodni qo'lga kiritishdan sizning maqsadingiz nima? Balki sizning javobingiz: “O'quvchilarni dars jarayoniga yanada qiziqтира oladigan metodlarni o'rganish”dir. Yana bir savol, bir kunda o'z oldingizga necha marta maqsad qo'yasiz? Hayotimizda maqsadlar va ularni to'g'ri qo'ya olish juda ham muhim. Bu metodning quyidagi maqsadga yo'naltirilgan shaklini ta'limga olib kirishdan maqsad shuki, inson hamma qilishi zarur bo'lgan ishlarni o'z yodida saqlay olmaydi. Muayyan bir yumush, vazifa yoki siz qilishingiz lozim bo'lgan qandaydir bir topshiriq esingizdan chiqsa, demak bilingki sizning foydalilik natijangiz tushib ketadi. Lekin uni esingizdan chiqmaydigan qilib yozib qo'ysangiz, nimagadir qayd qilib borsangiz natijangiz yuqori bo'ladi. Maqsadlar ham aynan shunday. Yana shunday narsa borki, “Vaqtни boshqarish” (time management), ya'ni vaqtни to'g'ri boshqarish madaniyati. Bu hozirgi zamonaviy dunyo, shiddatli XXI asr uchun juda ham muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonida esa vaqtни to'g'ri boshqarib, maqsadlarni aniq belgilab olish darslarni samarali va interaktiv tashkil etishda yordam beradi.

Ushbu daraxt metodi birinchi bo'lib, Amerikada iqtisodiyot sohasida qo'llanilgan. Lekin bugungi kunda ta'limda, dars jarayonida faol qo'llanilib kelinmoqda. Hozirda ushbu metodning turlicha nomlari mavjud. Misol uchun, “Omad daraxti”, “Oila daraxti”, Gapiruvchi daraxt”, “Bilimlar daraxti” kabi. Bu metoddan qaysi maqsadda foydalanilsa, “daraxt” so'zidan oldin shu nom qo'yib nomlash maqsadga muvofiq.

Bugungi daraxt nomi “Maqsadlar” deb nomlanadi. Ushbu metod orqali darsimizda maqsad qo'yishni o'rganamiz. Siz jarayonni quyidagicha tashkil etishingiz kerak. Demak, ishtirokchilarga bu daraxt oddiy daraxt emasligini va bugun “Maqsadlar daraxti” ekanligini aytamiz. Ularga rangli olma yoki barg shaklidagi maxsus yopishtirgich qog'ozlar (stikerlar) tarqatiladi. Dars mavzusi va qisqacha rejasi bilan tanishtiriladi. So'ngra ishtirokchilarga topshiriq aytiladi: “Bugungi darsdan yoki mavzuni o'rganishdan maqsadingiz nima? Qo'lingizdagi stikerlarga yozing. Buning uchun 2daqiqа vaqtingiz bor”. Ishtirokchilar darsdan kutayotgan, O'rganishni xoxlagan bilim, ma'lumot yoki qandaydir hodisani bir jumla, yoki so'z ko'rinishida stikerlarga yozishlari va ushbu stikerlar bilan “Maqsadlar daraxtini” bezashlari ya'ni to'ldirishlari lozim. Bunda ushbu maqsadlarni daraxtga “yopishtirish” oldidan o'qib eshittirishlari maqsadga muvofiq.

O'quvchi xoh ikki qatorli jumla, xoh bir donagina so'z yozsin. Muhimi maqsad qo'yishni anglasin. Ayrim bolalar birinchi kun yoza olishmas. Lekin topshiriqни bajargan tengdoshlari yozgan maqsadlarni eshitib, ikkinchi kun yaxshiroq javob berishga harakat qilishadi. Keyingi darslardan boshlab esa, albatta, o'z maqsadlarini ifoda etib bera olishadi va eng muhimi, o'zlarining oldiga maqsad qo'yishni o'rgana boshlashadi. Katta-katta natijalarga erisha oladigan kichik-kichik insonlarni biz sekin- asta ana shunday tarbiya qilib boramiz.

Bugungi kunda maqsadli ta'lim juda ham muhimligini etiborga olsak, ushbu

metod orqali o'quvchilarga har bitta darsda o'z oldilariga maqsad qo'yishni va unga to'g'ri erishishni aynan shu usul yordamida yanada samarali o'rgatgan bo'lamiz.

#### **O'quvchilarga nima beradi**

- Darsda maqsad qo'ya olish, dars jarayonini rejalashtirish va undan muayyan natijalar kutish ko'nikmasi paydo bo'ladi;
- Nutqiy ko'nikmalari rivojlanadi;
- Mustaqil fikrlashga va kreativlikka o'rgatadi;
- Darsga qiziqishi, motivatsiyasi oshadi;
- O'quvchilar orasida o'zaro fikr va tajriba almashinuvi yuz beradi.

#### **O'qituvchiga nima beradi:**


- O'quvchilarning fikrlash doirasini tahlil qila olish imkoniyati paydo bo'ladi;
- O'quvchilarning maqsad qo'ya olish tajribasini rivojlantirishga erishiladi;
- Darsni o'quvchilarning belgilagan maqsad va istaklariga mos ravishda tashkillashtirishga undaydi, ya'ni maqsadli ta'lim prinsipidan foydalanish yuzaga keladi.

Bu metod orqali biz o'quvchilarning darsda maqsadli ishtirok etishlariga erishishimiz, qiziqqan sohalarini aniqlashimiz va shunga ko'ra har bir ishtirokchiga individual yondashish imkoniyatimiz bo'ladi.

Bu metodni barcha fanlarda ham qo'llashimiz mumkin.

#### **“4 TARAF” metodi**

“4 taraf “ metodi har qanday fan va undagi mavzularga moslashtirib tashkil qilish mumkin bo'lgan universal metodlardan biri hisoblanadi. Bu metod uchun ma'lum bir shakl, ya'ni maxsus chizma yaratilgan bo'lib, uni quyidagi rasmda ko'rishingiz mumkin.



Metodning sizga taqdim etilayotgan shakli “Men haqimda” deb nomlangan bo'lib, bundan asosan, ishtirokchilar bilan yaqindan tanishib olish, ular orasida jamoaviy ruhini paydo qilish va ishtirokchilarda o'z-o'zini tahlil qila olish ko'nikmasini rivojlantirish maqsad qilinadi. Jarayon “4 taraf” maxsus chizmasi

tushirilgan va savollar aks ettirilgan tarqatma qog'ozlarni ishtirokchilarga tarqatishdan boshlanadi.

Tarqatmalar barchaga tarqatilgandan so'ng, topshiriq sharti sharti tushintiriladi. Bunda o'quvchilar tarqatma materiallarida keltirilgan "4 taraf" metodining "Men haqimda" shaklida berilgan savollarga yozma tarzda javob berishlari lozim. Buning uchun ishtirokchilarga 2-3 daqiqa vaqt beriladi.

Savollar: "Ism sharifingiz", "Sizning 3ta ijobiy fazilatingiz", "Orzularingiz", va "1ta kamchilingiz" kabi punktlardan iborat.

Jarayon:

#### 1-ishtirokchi

- F.I.SH. Xo'janazarova Mohidil Shavkat qizi;
- 3ta ijobiy fazilatim: Sabrli, kirishimli, saxiy;
- Orzularim: magistraturaga kirish, turk tilini o'rganish, kutubxona qurish;
- 1ta kamchiligim: dangasa.

#### 2-Ishtirokchi


- F.I.SH. Soliyeva Zuhra Asadovna;
- 3 ta ijobiy fazilatim: vatanparvar, mehribon, kechirimli;
- Orzularim: o'quvchilarim yaxshi yutuqlarga erishishi, sayohatga chiqish;
- 1ta kamchiligim: ishga kech qolish.

Bu jarayon ishtirokchilarni o'zlarini tahlil qilishga, ijobiy fikrlari va kamchiliklari haqida o'ylashga, orzularini hamma bilan bo'lishish va o'zi, o'zligi haqida boshqalarga aytishga, o'zini namoyon qilishga undaydi, ichki komplekslarini yengishga yordam beradi. Bunda orzularni konkretlashtirish juda muhim. Ya'ni orzularni har bir elementlarigacha aniq qilib yozish. Maqsadni, orzularni yozib yozib borish juda muhim. Ko'plab tajribalar orqali shuni ayta olish mumkinki, yozilgan orzu va maqsadlar moddiylashish, real hayotda gavdalanish, amalga oshish xususiyatiga ega.

Nima uchun 3ta ijobiy va 1ta salbiy? O'zi haqida ijobiy fikrlarni eshitish doimo kishiga huzur bag'ishlaydi. Inson o'z kamchiliklarini taftish qilib, ularni to'g'rilab, xatolari ustida ishlab borgan kabi, o'z yutuqlari yaxshi fazilatlar uchun o'zini maqtab, o'ziga rag'bat berib ham borishi lozim.

"4 taraf" metodining ushbu men haqimda shaklidan qachon va qay maqsadda foydalanish mumkin? Ushbu metod o'quv yili boshida, o'quvchilarni bir biri bilan tanishtirish jarayonida qo'llanilsa, ayniqsa, samaralidir. Bunda o'quvchilar o'rtasida jamoaviylik, do'stona munosabatlar shakllanishiga sezilarli hissa qo'shgan bo'lamiz. Ushbu metodni boshqacha ko'rinishda, ya'ni ta'limiy shaklda o'tkazish mumkin. Masalan, FIZIKA darslari jarayonida qo'llamoqchi bo'lsak, quyidagicha amalga oshirishimiz mumkin.





Bunda o'quvchilar guruh yoki juftliklarga bo'lgan holda ular mazkur topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Bu usul ancha samarali va foydali bo'lib, ayniqsa, bu jarayonda rangli qog'oz va markerlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Yo'ldoshev J.G', Usmonov C. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T:O'qituvchi 2004.

Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari - T: 2006

Tajiyev M, Alimov A. Ya. va b. Pedagogik texnologiya -ta'lim jarayoniga tadbqiq'I. "Tafakkur", Toshkent-2010y.

Qurbonov K. Innovatsion ta'lim, pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan dars jarayonlaridan foydalanish. Buxoro-2018.

Ta'lim bo'yicha axborot texnologiyalari: tadqiqotlar. O'qish uchun qo'llanma Yuqori tadqiqotlar. Muassassalar.

### **BO'LAJAK MUHANDISLARNING YONG'IN XAVFSIZLIGI KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI**

**Norov Zulfiddin Zulfiqor o'g'li**

*Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi*

Hamimizga ayonki, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, oxirgi yillarda o'tkazilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar har bir insonda jamiyatdagi ma'naviy o'zgarishlarga, davlat va fuqaro munosabatlarida, xususan, jamiyat ma'naviy taraqqiyoti va ijtimoiy davlat qurish yo'lida qo'yilgan maqsad va vazifalar

bo'yicha es inson-jamiyat-davlat trilogiyasi asosida tashkil etilayotgani va bunda inson qadri har narsadan ulug'ligi, xususan, uning ta'limi davlat e'tibori markazida ekanligini ko'rishimiz mumkin. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" nomli asarlarida insonga munosabat tahlilini quyidagicha izohlaydilar: "Yurtimizda uzoq yillar davomida "davlat-jamiyat-inson" tamoyiliga amal qilib kelindi. Davlat qurilishi va boshqaruvi, barcha siyosiy tuzilmalar, ularning ish uslubi va faoliyati ham ana shu tamoyil asosida shakllandi. Aslida esa, avvalo, inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo'lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g'oyaga tayanishi hamda "Davlat-inson uchun", "inson-jamiyat-davlat" tamoyillari asosida tashkil etilishi darkor". Ayniqsa, 2023 yil 30 aprelda o'tkazilgan umumxalq referendumida yakdillik bilan qabul qilingan Yangi O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi islohotlar, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviyat va ta'lim sohasidagi yangi O'zbekiston strategiyasi mezonlarini ko'rsatib berdi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, professoro'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, bugun biz mutlaqo Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan, mamlakatimiz hayotining barcha sohalari yangilanayotgan, xalqimizni yuksalish sari yetaklayotgan - Harakatlar strategiyasining yangi bosqichdagi mantiqiy davomi 7 ta ustuvor yo'nalish va uni amalga oshirishga qaratilgan 100 ta maqsaddan tashkil topgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi samarali amalga oshirilayotgan zamonda yashayapmiz. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston jamiyatining bugungi kuni, yangi taraqqiyot bosqichining maqsad-muddolarini yaqqol va yaxlit ifodalaydi. Ayni paytda u mamlakatimizda keyingi yillarda keng quloq yoygan islohotlarning pirovard natijalariga erishishning samarali yo'llari va imkoniyatlarini ham o'zida aks ettiradi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Yangi O'zbekistondagi Yangi uyg'onish - Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini barpo etish yo'lida xalqimiz ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlod vakillari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bu borada ta'lim-tarbiya, ilm-fan, ma'rifat va madaniyat Uchinchi Renessansning mustahkam poydevori sifatida belgilandi.

Ana shunday vazifalardan kelib chiqib, endilikda o'quv jarayonini sifatini oshirish, eskicha dars berish usullaridan voz kechib, ish uslubini yangi bosqichga olib chiqish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash orqali yoshlarga ta'lim berishning zamonaviy va innovatsion usullaridan foydalanishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Shunday ekan, favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish sohasi uchun ham yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash masalasiga – bugun muhim masala sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va yong'in xavfsizligi ta'minlash masalasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yong'inlar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizda yil sayin yong'inlar sonining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda, bunda asosan,

yong‘in-qutqaruv xizmati xodimlarining aholi o‘rtasida olib borayotgan profilaktik tadbirlari, yong‘inlarni oldini olish yo‘lidagi sa’y-harakatlari zoe ketmayotganligidan dalolat beradi. Lekin, yong‘inlar oqibatida yetkazilayotgan ma’naviy va moddiy zararning hali ham katta miqdordaligi, insonlarning tan jarohati olish va halok bo‘lish holatlari afsuski, kuzatilmoqda. Bo‘lajak muhandislarning yong‘in xavfsizligi ko‘nikmasini shakllantirishda “B/B/B jadvali”, “Atamalar zanjiri”, Insert, to‘rtinchisi ortiqcha, SWOT kabi metod va texnologiyalardan foydalanib mashg‘ulotlarni tashkillashtirish tavsiya etiladi.

**Berilgan matnlarni o‘rgangan holda, “B/B/B jadvali” texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha topshiriq**

“B/B/B jadvali” – (Bilaman/-Bilishni hohlayman/ Bilib oldim) – talabada mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi va tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu usuldan mashg‘ulot jarayonidan tashqari uyga vazifa sifatida ham foydalanish mumkin.

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM

Mashg‘ulot jarayonida usuldan foydalanish uchun avvalo talabalarni jadval tuzish qoidasi bilan tanishtiriladi. “Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo‘naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning birinchi va ikkinchi bo‘limlarini to‘ldiradilar. Keyingi jarayonda talabalar mustaqil o‘qiydilar. Jarayon yakunida jadvalning uchinchi bo‘limi to‘ldiriladi.

**OU rusumli yong‘in o‘chirgichlarning taktik texnik imkoniyatlarini SWOT metodi orqali tushuntiring topshirig‘i**



**S** afzalligi (kuchli tomoni)

**O** imkoniyatlari (qo‘llanilishi)





**W** kuchsiz tomoni


**T** salbiy jihatlari

**Yong‘in xavfsizligi sohasidagi termin va atamalarni o‘zlashtirish (mos javoblarni belgilang) topshirig‘i**

yong‘inlarning oldini olish hamda ularni o‘chirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnik chora-tadbirlar, shuningdek kuchlar va vositalar majmuidan iborat tizim	A Yong‘in
vakolatli organlar, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar tomonidan yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini tekshirish va tekshiruv natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida amalga oshiriladigan nazoratdir	B Yonish
murakkab fizik-kimyoviy jarayon bo‘lib, yuqori harorat ta‘sirida yonuvchi modda (materiallar) havo kislorodi bilan reaksiyaga kirishib yonish mahsulotlariga aylanadilar, bunda ko‘p miqdorda nur, issiqlik va ajralib chiqadi	D Yong‘in xavfsizligini ta‘minlash tizimi
odamlarning hayoti va (yoki) sog‘ligiga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek atrof tabiiy muhitga zarar yetkazadigan, nazorat qilib bo‘lmaydigan yonishga yoki boshqacha qilib sodda tilda aytadigan bo‘lsak maxsus o‘choqlardan tashqarida nazoratsiz yonish	E Davlat yong‘in nazorati





**Guruhlarga ajrating topshirig‘i**


			
<b>A</b>	<b>B</b>	<b>F</b>	<b>D</b>

	
<b>Tutun yong‘in xabarlovchisi</b>	<b>Issiqlik xabarlovchilar</b>



**To‘rtinchi ortiqcha topshirig‘i**





Ushbu yondashuv qator muammolarni hal qiladi: masalan, ma'lumotning ko'rgazmaliligini oshirish muammosi: ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlarga ko'ra mashg'ulot vaqtida bir qator yonish jarayonlarini va yong'inning rivojlanishini haqiqiy namoyish etish mumkin emas. Bu bizga yong'in xavfsizligi sohasida qo'llaniladigan bir qator dasturlar bilan tanishish va o'rganish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 oktabr kunidagi "Yong'in xavfsizligi qoidalari tasdiqlash to'g'risida" gi 649- sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020 y., 09/20/649/1397-son.

Ro'ziyev R.R. "Yong'in xavfsizligi alifbosi" monografiya. B.: 2021. -221 b.

Axmetjanov M.M. Ro'ziyev R.R. "Yong'in xavfsizligi" darslik. B.: 2022. -487 b.

Axmetjanov M.M. va boshq.Kasbiy ta'lim metodikasi. Buxoro- «Durdona» nashriyoti, 2020. 494 b.

Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: «Просвещение», 1995. – 336 с.

Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. "Pedagogik texnologiya asoslari" "O'qituvchi" nashriyoti. 2004 yil – 104 bet [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

"Yong'in-portlash xavfsizligi" ilmiy-amaliy elektron jurnal. T.: 2021. -252 b.

## **“TEXNIK MEXANIKA” UMUMKASBIY FANINI O’QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI**

**Z.R.Asrayev**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro sh., O’zbekiston*

Yangi avlod kompyuterlarining tarqalishi, shaxsiy kompyuterlar imkoniyatlarining kengayishi, ilg’or telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish va ular asosida kompyuterli o’qitish vositalarini yaratish o’quv jarayonini faollashtirishga jalb qilish uchun sharoit yaratdi. Hozirda vizual modellashtirish texnologiyasi, bilimlarni boshqarish va sinash texnologiyasi, gipermatn, multimedia, gipermedia texnologiyalari kabi zamonaviy texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O’quv jarayonini ta’minlash uchun an’anaviy axborot resurslari bilan bir qatorda quyidagi o’quv qo’llanmalardan foydalaniladi: multimediali ixtisoslashtirilgan darsliklar, elektron o’quv-uslubiy majmualar, shu jumladan elektron darsliklar, o’quv qo’llanmalar, o’quv dasturlari, kompyuter laboratoriyalari, nazorat va sinov to’plamlari va telekommunikatsiya kanallari orqali uzatishga mo’ljallangan boshqa materiallar.

Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo’yicha nashrlarning tahlili shuni ko’rsatdiki, turli xil fanlar va turli xil ta’lim muassasalari uchun foydalanishning xilma-xilligi va o’ziga xosligi sababli, hozirgi vaqtda kompyuterli o’qitish dasturlarining aniq umumiy qabul qilingan tasnifi mavjud emas, ammo ularni sinfda ishlatish turi bo’yicha shartli ravishda taqsimlash mumkin: namoyish dasturlari, o’quv dasturlari, matematik modellashtirish uchun dasturiy ta’minot, bilim darajasini kuzatish va sinovdan o’tkazish uchun dasturiy ta’minot, simulyatorlar, axborot-ma’lumot tizimlari, avtomatlashtirilgan o’qitish tizimlar, elektron darsliklar, mutaxassislarni tayyorlash tizimlari, aqlli o’qitish tizimlari.

Shu o’rinda nazariy materiallarni va o’quv mashg’ulotlarni yetkazib beradigan, talabalarni bilim darajasini nazorat qilishni ta’minlaydigan, shuningdek, axborot qidirish faoliyati, matematik va simulyatsion modellashtirishni ta’minlaydigan hamda interaktiv qayta aloqa qilish kabi kompleks maqsadlar uchun mo’ljallangan elektron darsliklar alohida o’rin egallaydi.

Elektron darslik, shuningdek an’anaviy "qog’oz" darsligi, birinchi navbatda, o’rganilayotgan mavzu bo’yicha asosiy ma’lumotlarni o’z ichiga olgan o’quv materiallaridan tuziladi. Shu bilan birga, elektron darslik an’anaviy kitobga nisbatan afzalliklarni belgilaydigan bir qator o’ziga xos xususiyatlarga ega:

- o’rganilayotgan jarayonlar va hodisalarni modellashtirish va taqlid qilish;
- vizual ta’lim ma’lumotlarini namoyish etish: rangli tasvirlardan foydalanish materialni vizual tarzda namoyish qilish uchun xizmat qiladi, uni tushunishga yordam beradi;
- kompyuter animatsiyasi o’quvchiga ma’lumot uzatish tezligini oshirishga va uni tushunish darajasini kengaytirishga imkon beradi; darslikda tasvirlangan hodisa va jarayonlarning qanday davom etishini namoyish etadi, o’rganilayotgan

mexanizmlar tamoyillarini vizual tarzda aks ettirishga hissa qo'shadi, talabaga obrazli tasavvurlarni shakllantirishga, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarning mohiyatiga kirib borishga imkon beradi;

- ovoz - bu ma'lumotlarni uzatishning qo'shimcha usuli, o'rganilayotgan materialni yaxshiroq idrok etishga, o'qituvchilarning izohlari bilan boyitishga va o'quvchilar e'tiborini qo'shimcha tushuntirishni talab qiladigan joylarga yo'naltirishga imkon beradi;
- video - o'rganilayotgan materialning vizual namoyishini yanada to'liq ta'minlaydi, uning idrokini yaxshilaydi va charchoqni kamaytiradi;
- o'rganilayotgan material bo'limlari o'rtasida tezkor o'tish imkoniyati (ma'lumotlarni o'zaro bog'lash va boshqa faylga, fayl fragmentiga, veb-sahifaga o'tishga imkon beruvchi gippermurojaatlar);
- turli xil xizmatlar (ma'lumotnoma, kalkulyatorlar, oraliq hisoblash natijalarini saqlash) talabani ko'p mehnat talab qiladigan hisob-kitoblardan xalos qiladi, bu esa topshiriqni bajarish jarayonini tezlashtiradi, o'quv faoliyati samaradorligini oshiradi.

Yuqorida muhokama qilingan imkoniyatlardan tashqari, elektron darsliklar sizga yondashuvni individuallashtirish va o'quv jarayonini farqlash, talabani o'zini o'zi boshqarish rejimida ishlashini ta'minlash, xatolarni tashxislash va teskari aloqa bilan bilimlarni boshqarish, laboratoriya ishlarini, tajribalarni virtual reallikda o'tkazish imkonini beradi [1].

Elektron darslikning turlari va imkoniyatlarini keltiramiz.

Birinchi tur (semantik elementlar): elektron darslik yordamida fanning nazariy materiallarini o'rganish, muammolarni hal qilish va hisoblash ishlarini bajarish, kompyuter tajribalarini o'tkazish, oraliq va yakuniy nazorat orqali olingan bilimlarni tekshirish.

Ikkinchi tur (multimedia imkoniyatlari): taqdim etilgan materialning ravshanligi va o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga imkon beradigan video, ovoz, animatsiya, grafikalar yordamida o'quv materiallarini etkazishni o'z ichiga oladi.

Uchinchi tur (interfeys, xizmatlar): kompyuter o'qitish tizimining tuzilishini va foydalanuvchi bilan interfeysni belgilaydigan imkoniyatlarni o'z ichiga oladi - ko'p darajali menyu tizimini, ko'p oynali interfeysni, gipermatnli o'tish tizimini, matnni qidirish, turli xil xizmatlar (yordam, kalkulyator, oraliq hisoblash natijalarini saqlash va boshqalar).

To'rtinchi tur (Veb imkoniyatlari): talaba va o'qituvchi o'rtasida interaktiv aloqani ta'minlash (oddiy elektron pochadan on-layn konferentsiyalarni tashkil qilishgacha), Internetdagi o'quv va ilmiy ma'lumotlarni qidirishni tashkil qilish, dunyo olimlarining asarlari va boshqa imkoniyatlar [2].

Elektron darslik shaklida "Texnik mexanika" fani bo'yicha kompyuterli o'qitish tizimini yaratishda yuqorida keltirilgan standart imkoniyatlar ta'minlanishi kerak. Multimedia imkoniyatlariga, ya'ni texnik mutaxassisliklar uchun muhim bo'lgan mexanizmlarning to'liq harakatlanish tsiklini o'quvchilarga aniq ko'rsatib beradigan kompyuter animatsion modellarini yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim. To'rtinchi turdagi imkoniyatlar (veb-imkoniyatlar) elektron darslik va



texnologiyaning asosiy formatlarini tanlashda qoʻshimcha shartlarni belgilaydi, nafaqat oʻzaro muvofiqlik, balki Internet bilan ham moslikni taʼminlash kerak.

Asosiy natijalar quyidagicha:

1. Texnik mexanikadan nazariy materiallar, bilimlarni boshqarish moduli va turli hisoblashlarni oʻz ichiga olgan dasturlardan tashkil topgan elektron darslik shaklida tayyorlangan oʻqitish tiziminining umumiy konseptsiyasi ishlab chiqildi.

2. Matnli maʼlumot, kompyuterli animatsion modellar, oʻzini oʻzi va bilimlarni boshqarish modullari, kompyuterli hisoblashni oʻz ichiga olgan oʻquv materialini tayyorlash uchun asosiy formatlar tanlandi va ularni Internet orqali uzatish imkoniyati yaratildi.

3. Matematik modellar asosida qurilgan va mexanizmlarning harakatlanishining toʻliq tsiklini aks ettiruvchi kompyuter modellarini yaratish uchun dasturiy vositalar tanlab olindi.

Oʻtkazilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, “Texnik mexanika” fanidan ishlab chiqilgan elektron darslikni yanada rivojlantirish uchun qoʻshimcha dasturlarni takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha ish olib borish maqsadga muvofiqdir, jumladan:

- talabalar bilimlarini nazorat qilish uchun turli murakkablikdagi topshiriqlar banki, kursning barcha asosiy boʻlimlari boʻyicha mavzulararo sinovlarni va yakuniy nazoratni (shuningdek, oraliq nazoratni) taʼminlaydigan savollarni ishlab chiqish.
- hisoblash va grafik ishlar toʻplamini kengaytirish, koʻp sonli mexanizmlar va koʻplab mavzular boʻyicha hisoblash va grafik ishlarni yaratish, virtual eksperiment va hisoblash amaliyotini birlashtirish.

“Texnik mexanika” fani boʻyicha elektron darslik talabalar uchun kursni mustaqil oʻrganish, test va imtihonlarga tayyorgarlik koʻrish, masofadan oʻqish uchun foydali boʻladi. Bundan tashqari ushbu fan oʻqituvchilariga ham qoʻl keladi.

### **Adabiyotlar**

1. Башмаков А.И. Разработка компьютерных учебников и обучающих систем. – М.: Филинь, 2012.
2. Гура В.В., Дикарёв С.Б. Система проектирования электронных образовательных ресурсов. Ростов-на-Дону. Издательство ООО “ТБВР”, 2013. -125 с.

## **YONG‘IN XAVFSIZLIGI FANI O‘RGANISHDA KEYSLAR TO‘PLAMIDAN FOYDALANISH METODLARI**

**Ro‘ziyev Rustam Ro‘zimurodovich**

*Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi*

Jahonda bugungi kunda 200 dan ortiq mamlakatlarda 8 milliard aholi istiqomat qilib kelmoqda. Har yili dunyo miqyosida 10-12 million yong‘in qayd etilib, yong‘inlarda 100-120

ming kishi halok bo'lib, 350-400 ming kishi turli hildagi tan jarohatlari olmoqda. Ma'lumki, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va yong'in xavfsizligi ta'minlash masalasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yong'inlar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizda yil sayin yong'inlar sonining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda, bunda asosan, yong'in-qutqaruv xizmati xodimlarining aholi o'rtasida olib borayotgan profilaktik tadbirlari, yong'inlarni oldini olish yo'lidagi sa'y-harakatlari zoe ketmayotganligidan dalolat beradi. Lekin, yong'inlar oqibatida yetkazilayotgan ma'naviy va moddiy zararning hali ham katta miqdordaligi, insonlarning tan jarohati olish va halok bo'lish holatlari afsuski, kuzatilmoqda.

Dunyo tajribasidan yong'inlarning tahlili kadrlarni tayyorlash jarayonida, endilikda o'quv jarayonini sifatini oshirish, eskicha dars berish usullaridan voz kechib, ish uslubini yangi bosqichga olib chiqish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash orqali talabalarga ta'lim berishning zamonaviy va innovatsion usullaridan foydalanishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Xalqaro tajribalarga ko'ra, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning kasbiy motivatsiya, tashxislash, ixtirochilik, o'z-o'zini faollashtirish, mobillik, texnik axborotlarni izlab topish va ularga ishlov berish kabi muhim sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirishda intellektual axborot resurslarining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. Texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarni yong'in xavfsizligi sohasida tayyorlashda axborot-didaktik vositalarning yangi avlodini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish, shuningdek, talabalarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini keng miqyosda joriy etishga qaratilgan qator maqsadli dasturlar ishlab chiqilib, ta'lim muassasalarini global Internet tarmog'iga ulash, ta'lim muassasalarining ta'limiy saytlarini takomillashtirish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda bugungi kunda "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda tashkilotlar rahbarlari zimmasiga ob'ekt va hududlarda yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishi uchun shaxsiy javobgarlik yuklatilganligini e'tiborga olib, ularning mazkur yo'nalishdagi bilim saviyasi va mas'uliyatini oshirish maqsadida bir qator chora – tadbirlar belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston -2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonining 1- va 98 - maqsadlariga muvofiq, aholini, shu jumladan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmaganlarni, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari talabalarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari va usullariga o'rgatish, hamda mamlakatimiz hududlarida kompleks o'quv-amaliy yig'inlarini tashkil qilinishi belgilab qo'yildi. Oliy ta'lim talablari yetuk muhandis bo'lishi uchun yong'inning umumiy tavsifi va uning rivojlanishining o'ziga xos tomonlari, yong'in o'chirish bo'linmalari kelguniga qadar yong'in o'chirishni tashkillashtirish, insonlar, yong'in xavfi bo'lgan va qimmatbaho modda va materiallarni evakuatsiya qilish, yong'in o'chirish bo'linmalarini kutib

olish, yong‘in tarqalishining oldini olish, yong‘in o‘chirish bo‘linmalari kelganidan keyingi harakatlar bo‘yicha bilimlarini egallashi maqsadga muvofiq bo‘lib, yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bilan samarali bo‘ladi. Quyida biz **“Yong‘in xavfsizligi” fanida “Keyslar to‘plami” dan foydalangan hola mashg‘ulot o‘tish rejasi batafsil yoritildi.**

**Mavzu:** Yong‘in xavfsizligining nazariy asoslari.

**Qatnashchilar:** Talabalar

**Keys-stadining asosiy maqsadi:** Talabalarda yong‘in xavfsizligi fanining shakllanish tarixi, predmeti, maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, shaxsning kasbiy rivojlanish bosqichlari xaqida tushuncha va ilmiy tasavvur hosil qilishiga *oid ko‘nikmalarni shakllantirish.*

**O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:** talabalarda fanning o‘ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttiradi; yong‘in xavfsizligi sohasida shaxsiy va jamoaviy mahoratni shakllantiradi; o‘rganiladigan o‘quv materiallari bo‘yicha tarbiyaviy xulosalar chiqaradi; yong‘inlarda himoyalanihga oid motivlarni uyg‘otish, xavfsizlik qoidalarini o‘rganish orqali muammoli vazifalarni yechishda nazariy bilimlarini qo‘llaydi; muammoni aniqlab, uni hal qilish yechimlarini topadi.

**Ushbu keys-stadini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqlari zarur:**

**talaba bilishi kerak:** Yong‘inlar bo‘yicha dastlabki ma‘lumotlar, yong‘inga olib keladigan shart–sharoitlar, yong‘in xavfsizligi fanining rivojlanishi, yong‘inning kelib chiqish sabablari, yong‘inning xavfli omillari haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Talaba amalga oshirishi kerak: mavzuni mustaqil o‘rganadi; muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; vaziyatlarni to‘g‘ri ajratadi; ma‘lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi; o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi; o‘quv ma‘lumotlar bilan mustaqil ishlaydi; ma‘lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi; Talaba ega bo‘lmog‘i kerak: kommunikativ ko‘nikmalarga; taqdimot ko‘nikmalariga; hamkorlikdagi ishlar ko‘nikmalariga; muammoli holatlar tahlil qilish ko‘nikmalariga.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keys-stadining tavsifnomasi: Ushbu keys-stadining asosiy manbai “Yong‘in xavfsizligi” elektron darslik, “Yong‘in xavfsizligi” elektron darsligi, lavhali bo‘lib, yong‘in xavfsizligi fanidan olgan bilim va ko‘nikmalari asosida bayon etilgan. Keys-stadining asosiy ob‘ekti yong‘in xavfsizligi fanini kelib chiqishi va yong‘inlar haqidagi ma‘lumotlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan. Bu tashkiliy institutsional keys-stadi bo‘lib, ma‘lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o‘rtacha, tizimlashtirilgan bo‘lib, nazariy mashg‘ulotga mo‘ljallangan o‘quv mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko‘ra keys-stadi muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan. Ushbu keys-stadidan Yong‘in xavfsizligi fanining “Yong‘in xavfsizligining nazariy asoslari ” mavzusidagi dars soatida foydalaniladi. Keys-stadidan ko‘zlangan maqsad va tegishlicha tashkiliy-metodik

ta'minoti o'zgarganida qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'quv predmetlar ro'yxati: «Yong'in taktikasi», «Yong'in avtomatikasi», «Texnologik jarayonlarning yong'in xavfsizligi»

I. Keys-stadi:

**“Yong'in xavfsizligining nazariy asoslari ”**

**II. Matnni bosqichma- bosqich tahlil qilish va hal etish bo'yicha talabalarga metodik ko'rsatmalar.**

Keys-stadini yechish bo'yicha individual ish yo'riqnomasi

1. Avvalo, keys-stadi bilan tanishing. Muammoli vaziyat haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqing. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga harakat qiling.

2. Birinchi savolga javob bering.

3. Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni quyidagi harflar yordamida belgilang: **“D”** harfi – muammoni tasdiqlovchi dalillar, **“S”** harfi –muammo sabablarini, **“O.O.Y.”** harflari – muammoni oldini olish yo'llari.

4. Ushbu belgilar 2,3,4,5,6,7,8 savollarga yechim topishga yordam beradi.

5. Yana bir bor savollarga javob berishga harakat qiling. kompyuteringizda quyidagi jadvalni chizing muammoni tahlil qilish va yechish jadvali muammoni tasdiqlovchi dalillar muammoni kelib chiqish sabablari

Muammoni tasdiqlovchi dalillar	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muallif tomonidan taklif qilingan echim

Keys stadi quyidagi bosqich asosida tashkil etiladi:

I – bosqich. Talabalardan teng sonli kichik guruhlarini shakllantirish.

II. – bosqich. Kichik guruhlariga muayyan jarayonni o'rganish maqsadida shakllantirilgan muammoli savollardan iborat bo'lgan o'quv topshiriqlarini tarqatish va ularni topshiriqning didaktik maqsadi bilan tanishtirish.

III. – bosqich. Talabalarning bilish faoliyatini o'quv muammolarini hal etishga yo'naltirish.

IV – bosqich. Talabalarning muammoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha axborotlarini tinglash.

V – bosqich. Kichik guruhlar o'rtasida o'quv bahsi va munozara o'tkazish

VI – bosqich. Umumiy xulosa yasash.

“Keys stadi” qo'llanilganda talabalar avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llab, bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, aqliy faoliyat usullarini egallaydi, shaxs sifatida aqliy rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligi ortadi. Talabalarning bilish faoliyatining bu tarzda tashkil etilishi ularda ijodiy faoliyatni tarkib toptirishga imkon yaratadi. Dastur mazmunidagi faqat faktik materiallarni o'rganish nazarda tutilgan mavzularda insertdan foydalanish tavsiya etiladi. Insert – lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo'lib, talabalar tomonidan o'quv materialidagi asosiy g'oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida qo'llaniladi. Talabalarni insert yordamida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o'rganiladigan o'quv materiallari va maxsus jadval

tarqatiladi. Talabalar har bir abzasni o‘rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etiladi. Agar abzasda berilgan ma’lumot shu kungacha o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelsa, “Bilaman” – V, agar ma’lumotlar tushunarli va yangi bo‘lsa, u holda “Ma’qullayman” +, agar ma’lumotlar talabalar o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda “O‘rganish lozim”-, talabalar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda “Tushunmadim” -? belgisini qo‘yadi. Insertda foydalaniladigan maxsus jadval

Abzaslar №	“Bilaman” –V	“Ma’qullayman”+	“O‘rganish lozim”-	“Tushunmadim”-?
1.				
2.				
3.				
4				

Insert bilan ishlashning afzallik tomoni avval kichik guruh a’zolari o‘rtasida, so‘ng kichik guruhlar bilan o‘zaro o‘quv bahsi o‘tkazilishi, bahsda talabalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni to‘ldirish, bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish yuzasidan o‘qituvchi tomonidan berilgan axborot ta’lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Insertdan foydalanilgan o‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi axborot manbai funksiyasi bir muncha kamayib, talabalarning bilish faoliyatini boshqarish va nazorat funksiyalari ortadi. Shu sababli, o‘qituvchi bu masalalarni puxta rejalashtirishi va amalga oshirishi lozim.

Ta’lim-tarbiya jarayonida Insertdan foydalanishda quyidagi talablarga amal qilinishi:

- Talabalar insert vositasida har bir talaba yakka tartibda ishlaydi va jadvalni to‘ldirishi, boshqa talabalar belgilangan muddatda ishlashni yakunlaganlaridan so‘ng, fikrlarini taqqoslashi;
- O‘quv bahsi orqali kichik guruh a’zolarining jadvaldagi belgilarining bir xil bo‘lishini ta’minlash, ya’ni jadvaldagi keyingi ikki ustuni bo‘yicha bir xillikka erishish;
- O‘qituvchi o‘quv materiali asosida tuzilgan savol-topshiriqlari va kichik guruh a’zolarining jadvaldagi belgilari asosida o‘quv bahsini tashkil etishi lozim.

Ta’lim-tarbiya jarayonida talabalar tomonidan tushuncha va atamalarni mustahkam o‘zlashtirishga zamin tayyorlash muhim o‘rin tutadi, shu sababli o‘qituvchi har bir bob va mavzular mazmunidagi tushuncha va atamalarni “Atamalar zanjiri” tizimiga keltirishi kerak. “Atamalar zanjiri” bu atamalar va ularning ta’riflari bo‘lib, ulardan o‘qituvchi o‘tgan mavzuni yakunlash, yangi o‘rganilgan mavzu yuzasidan talabalarning bilimlarini mustahkamlash maqsadida mashg‘ulotning bir qismida foydalanilganligi sababli, lokal texnologiyalar guruhiga kiritish maqsadga muvofiq. Mazkur texnologiyadan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishga bir necha usulda yondoshish mumkin.

- Talabalar kichik guruhlariga ajratilib, guruh a’zolaridan kichik konsultant

tayyorlanadi. Kichik konsultant unga berilgan topshiriqdagi atamalar asosida guruh a'zolarini kartochka vositasida baholaydi. Bunda talabalar aytilgan atamalarning izohini aytishi yoki izohga qarab atamani aniqlashi mumkin. Har bir to'g'ri javob uchun kartochka berilganligi sababli, kartochkalar soni ularning to'plagan balini belgilaydi.

- Talabalarga bob va mavzular mazmunidagi tushuncha va atamalar ro'yxati beriladi. Ularning mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'zaro mantiqiy bog'langan zanjir Klaster holiga keltirish talab etiladi. Ushbu yondoshuv ko'p vaqtni talab etsa-da samaradorligi yuqori bo'lib, talabalarning mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

- "Atamalar zanjiri"dan o'tgan mavzuni yakunlash qismida foydalanilganda talabalarning kichik guruh a'zolaridan og'zaki holda atamalarni ketma-ket avvalgilarni takrorlagan holda mazmuni va mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq holda yangi atama qo'shishi talab etiladi. Guruhning birinchi ishtirokchisi bitta atama bilan boshlagan o'yin yakunida guruh a'zolari soniga teng atamalar zanjiri vujudga keladi. Ikkinchi bosqichda mazkur atamalarga ta'rif berish va ularni izohlash talab etadi. Yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholash uchun topshiriqlar.

### 1–topshiriq. Atamalar raqamini ularning ta'rifi bilan juftlang.

1	<b>Manzilsiz tizimlar</b>	A	mukammal tizim bo'lib, ular nafaqat yong'in ro'y bergan xonaning manzilini, balki yong'in haqida xabar uzatgan xabarlovchining o'rnatilish manzilini ham aniqlash imkonini beradi
2	<b>Qabul-nazorat pulti</b>	B	hozirgi kunda eskirgan bo'lib, yong'in joyini faqat shleyf chegarasida qabul-nazorat pulti tomonidan uzatilgan xabar orqali aniqlanib, yong'inning aniq joyi esa navbatchi - xodimlar yordamida barcha xonalarni ko'zdan kechirish orqali aniqlanadi. Yong'in o'chog'i vujudga kelgan joyini aniqlash va uni o'chirish vaqti navbatchi xodimlarning harakat tezligiga bog'liq bo'lib hisoblanadi.
3	<b>Manzilli tizimlar</b>	D	xabarlovchilardan kelayotgan telemetrik xabarni jamlovchi markaz bo'lib hisoblanadi. Issiqlik xabarlovchilarning stansiyasi doimiy ravishda havo haroratini nazorat qilib turadi, tutun xabarlovchilarniki esa tutun konsentratsiyasini. Ko'rsatkichlari o'zgargan sari xabarlovchi emas, balki aynan stansiya yong'in haqida xabar beradi. Bu esa yong'in joyini aniqlash ko'rsatkichini oshiradi.

4	<b>Manzil-analogli tizimlar</b>	E	yong‘in xabarlovchilaridan signallarni qabul qilish, yong‘in xabarlovchilarini elektr toki bilan ta‘minlash (elektr tokini iste‘mol qiladigan), yorug‘lik, ovozli xabarlash qurilmalariga va markaziy kuzatuv pultiga ma‘lumot uzatish, shuningdek yong‘in o‘chirish qurilmalarini uchun ishga tushirish impuls hosil qilish uchun mo‘ljallangan qurilma.
5	<b>Yong‘in xabarlovchisi –</b>	F	haroratning belgilangan ko‘rsatkichga yetishi yoki uning o‘shish tezligiga nisbatan ta‘mirlanishiga asoslangan
6	<b>Nuqtaviy yong‘in xabarlovchisi.</b>	G	(tutunli, issiqlik) – chiziqli masofa bo‘ylab yong‘in belgilariga nisbatan ta‘sirlanishga asoslangan yong‘in xabarlovchisi
7	<b>Chiziqli yong‘in xabarlovchisi.</b>	H	(tutunli, issiqlik) – chegaralangan hududdagi yong‘in belgilariga nisbatan ta‘sirlanishga asoslangan yong‘in xabarlovchisi
8	<b>Issiqlik xabarlovchilari –.</b>	I	yong‘in haqidagi xabarni vujudga keltiruvchi qurilma bo‘lib hisoblanadi
9	<b>Tutun yong‘in xabarlovchisi</b>	J	qo‘lda ishga tushirish orqali yong‘indan xabarlash va yong‘in o‘chirish tizimlaridagi yong‘in haqidagi xabarni hosil qilish uchun mo‘ljallangan xabarlovchi
10	<b>Qo‘lda ishga tushiriladigan yong‘in xabarlovchisi</b>	K	qattiq yoki suyuq moddalardan yonish yoki piroliz natijasida ajralib chiqqan atmosferadagi zarralardan ta‘sirlanishga asoslangan

**Berilgan matnlarni o‘rgangan holda, “B/B/B jadvali” texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha topshiriq.**

“B/B/B jadvali” – (Bilaman/-Bilishni hohlayman/ Bilib oldim) – talabada mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi va tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu usuldan mashg‘ulot jarayonidan tashqari uyga vazifa sifatida ham foydalanish mumkin.

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM

Mashg‘ulot jarayonida usuldan foydalanish uchun avvalo talabalarni jadval tuzish qoidasi bilan tanishtiriladi. “Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun

yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning birinchi va ikkinchi bo'limlarini to'ldiradilar. Keyingi jarayonda talabalar mustaqil o'qiydilar. Jarayon yakunida jadvalning uchinchi bo'limi to'ldiriladi.

Bu kabi metodlar talablarda yong'in xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi aloqaning mutlaqo yangi usullarini taqdim etadi, bu uning barcha ishtirokchilarini ta'lim jarayoniga faol jalb qilish, o'quv motivatsiyasini va shunga mos ravishda ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

O'zbekiston Respublikasining 30.09.2009 yildagi 226-sonli "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasining qonunlar yig'ma jildi. 2009 yil, 40-son, 432 bet. Milliy qonunchilik ma'lumotlar bazasi, 10.01.2018 y., № 03/18/459/0536, 2019 y., № 2, st. 47, 05.09.2019 y., № 03/19/564/3690; 25.12.2019 y., № 03/19/597/4193

Ro'ziyev R.R. "Yong'in xavfsizligi alifbosi" monografiya. B.: 2021. -221 b.

Axmetjanov M.M. Ro'ziyev R.R. "Yong'in xavfsizligi" darslik. B.: 2022. -487 b.

Axmetjanov M.M. va boshq. Kasbiy ta'lim metodikasi. Buxoro- «Durdon» nashriyoti, 2020. 494 b.

Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnye texnologii obucheniya. – M.: «Prosvetshenie», 1995. – 336 s.

Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. "Pedagogik texnologiya asoslari" "O'qituvchi" nashriyoti. 2004 yil – 104 bet [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

Passerman A.B. "Pojarный" uch. pos. Moskva stroyizdat 1991. -74 s.

"Yong'in-portlash xavfsizligi" ilmiy-amaliy elektron jurnal. T.: 2021. -252 b. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)

## **MAMLAKATIMIZ MAKTABLARIGA XORIJ MAKTABLARI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH.**

**Samadova N.U, Safarova Z**

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti*

*Jondor Buxoro viloyat Jondor tuman 2-son kasb-hunar maktabi*

Finlyandiyadagi eng yirik maktabda 960 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Eng kichigida esa - 11 nafar. Barcha maktablar mutlaqo bir xil jihozlangan, birdek imkoniyatlarga ega va bir xil moliyalashtirilgan. Deyarli barcha maktablar - davlat maktablari bo'lib, o'nlab xususiy maktablar bor. Ularning ota-onalar qisman to'lov kiritishlaridan tashqari yana bir farqi - o'quvchilarga bo'lgan talabning yuqoriligida. Qoidaga ko'ra, bu o'ziga xos "pedagogik" laboratoriyalar: Montessori, Fren, Mortan i Valdorf maktablari. Ingliz, nemis va fransuz tillarida ta'lim beriluvchi o'quv muassasalari ham xususiy hisoblanadi.

Finlyandiyada tenglik tamoyiliga rioya qilgan holda shved tilidagi parallel ta'lim tizimi mavjud - bog'chalardan tortib to universitetlargacha. Saam xalqining manfaatlari ham unutilmagan, mamlakat shimolida ona tilida ta'lim olish mumkin.

Yaqin vaqtlargacha finlarga maktab tanlash taqiqlangan edi, bolalar shunchaki



eng yaqin oradagi maktabga chiqishardi. Taqiq bekor qilindi, lekin ota-onalarning aksariyati baribir bolalarni yaqin oradagi ta'lim muassasasiga berishni ma'qul ko'rishmoqda, zero Finlyandiyada barcha maktablar birdek yaxshi.

### **Barcha fanlar**

1. Bir fanning boshqalaridan chuqurroq o'rgatilishi maqsadga muvofiq emas. U yerda, masalan, matematika san'atdan muhimroq hisoblanmaydi. Aksincha, qobiliyatli bolalar uchun alohida sinflar tashkil qilinishiga yagona sabab ularning tasviriy san'at, musiqa va sportga moyilligi bo'lishi mumkin.

### **Ota-onalar**

O'qituvchi o'quvchisining ota-onasi kim bo'lib ishlashini oxirgi navbatda, zarurart tug'ilgandagina biladi. O'qituvchilarga ota-onalarning ish joyiga doir savollar berish taqiqlangan.

### **O'quvchilar**

Finlar o'quvchilarni xususiyatlari yoki tanlovlariga qarab tasniflashmaydi.

Shuningdek, "yaxshi" va "yomon" o'quvchilar ham yo'q. O'quvchilarni bir-biriga taqqoslash taqiqlangan. Daho bolalar ham, aqliy salohiyati bo'shroq bolalar ham "o'ziga xos" hisoblanib, barcha bilan birga o'qishadi. Umuman olganda, jamoada nogironligi bo'lgan bolalar ham ta'lim oladi. Oddiy maktabda ko'rish va eshitish organlari kasalliklari bo'lgan o'quvchilar uchun sinf tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Finlar alohida munosabatga talabgor insonlarni jamiyatga maksimal darajada integratsiya qilishga harakat qilishadi. Bilimi kuchli va bo'sh o'quvchilar orasidagi farq - juda kichik.

### **O'qituvchilar**

O'qituvchilar ham bolalarga bor mehrini beradi, "sevimplilar" ajratilmaydi. Qoidadan har qanday chetga chiqish bunday o'qituvchi bilan shartnoma buzilishiga olib keladi. Fin o'qituvchilari faqat ta'lim beruvchi vazifasini bajarishlari kerak. Jamoada barcha o'qituvchilar - fiziklar ham, adabiyotchilar ham, mehnat o'qituvchilari ham birdek teng.

### **Katta yoshli kishilar (o'qituvchilar, ota-onalar) va bolalar huquqlari tengligi**

Finlar bu tamoyilni "o'quvchiga hurmat" deb atashadi. Bolalarga 1-sinfdan ularning huquqlari tushuntiriladi, ijtimoiy xizmatchiga katta yoshlilar ustidan shikoyat qilish ham shular jumlasidandir. Bu finlyandiyalik ota-onalarni ularning farzandi - mustaqil shaxs ekanini, ularga so'z bilan ham, "qamchi" bilan ham ozor yetkazib bo'lmasligini tushunishga rag'batlantiradi. Finlyandiya mehnat qonunchiligiga ko'ra, pedagog o'z kasbidan kelib chiqib o'quvchini taxqirlashga haqqi yo'q. Barcha o'qituvchilar faqat 1 yilga shartnoma imzolashadi, bu muddatni uzaytirish ham, to'xtatish ham mumkin. O'qituvchilarga juda yaxshi maosh to'lanadi: fan o'qituvchisi - 5000 yevrogacha, yordamchi - 2500 yevrogacha.

### **Individuallik**

Har bir bola uchun individual ta'lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Individuallik o'quvchilar tomonidan foydalanilayotgan darsliklar mazmuni, mashg'ulotlar, sinf va uy ishlari soni hamda ularga ajratilayotgan vaqt, shuningdek ta'lim materialiga ham tegishli.

Bir sinfning o'zida darsda bolalar turli murakkablikdagi mashqlarni bajarishadi. Baholash tizimi ham personal darajaga muvofiq. Agar "odatiy" mashq a'lo bahoga bajarilsa, ertasiga yuqoriroq darajali mashq beriladi, mobodo uddasidan chiqqa olmasa, hechqisi yo'q, yana oddiy mashq beriladi.

Finlyandiya maktablarida oddiy ta'lim bilan bir qatorda ta'lim jarayonining ikki noyob turi mavjud:

**"Bo'shroq" o'quvchilar ta'lim ini qo'llab-quvvatlovchi** — bu boshqa mamlakatlarda repetitorlar bajaradigan ish. Finlyandiya repetitorlik keng tarqalgan ta'lim usuli hisoblanmaydi, maktab o'quvchilari dars vaqtida yoki undan keyin kerakli o'quvchilarga qo'shimcha yordam ko'rsatishadi.

**Korreksion ta'lim** — materialni o'zlashtirishdagi umumiy barqaror muammolar bilan bog'liq. Masalan, bu ta'lim olib boriluvchi fin tilini tushunmaslik yoki eslab qolish yo matematik qobiliyatining yaxshi emasligi, yoxud ba'zi bolalarning asotsial xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Korreksion ta'lim kichik guruhlarda yoki individual tarzda o'tkaziladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

Mirziyoev Sh.M. <https://daryo.uz/2022/06/20/shavkat-mirziyoyev-inson-qadr-qimmat-shani-va-gururi-bundan-buyon-barcha-sohalarda-birinchi-orinda-turishi-kerak>.

## **CHIQUINDILARNI MEXANIK VA TERMIK QAYTA ISHLASH USULLARI**

**Hojiyev Oybek Odinayevich BuxMTI.**

**Ziyodullayeva Shaxina Vohid qizi**

*Peshko'tuman 1-son kasb-hunar maktabi talabasi*

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoning deyarli barcha mamlakatida qattiq maishiy chiqindilar salmog'i aholi jon boshiga har yili 1 foizga ortib bormoqda. Jahonda yiliga faqat maishiy chiqindilarning o'zigina qariyb 6 mlrd. tonnagacha hosil bo'lmoqda.

Chiqindilarning turi nihoyatda ko'p, va ular orasidan hozirda metall, plastmassa, qog'oz, shisha, yog'ochlardanigina ikkilamchi xom ashyo sifatida foydalanilmoqda, xolos.

Bugungacha ushbu sohada qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, ayrim noaniqliklar va to'ldirilishi lozim bo'lgan normalar bor. Shundan kelib chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi deputatlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunini takomillashtirish va uni yangi tahrirda qabul qilish borasida ish olib bormoqda.

Xususan, amaldagi qonunlarda chiqindilarni dastlabki saralash, turlari bo'yicha alohida to'plash, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish, takror foydalanish, shuningdek, ko'p miqdordagi foydali komponentlarga ega bo'lgan maishiy hamda ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash va ulardan takror foydalanishni tashkil etishning xuquqiy

asoslari belgilab berilmagan.

Chiqindilar monitoringi ularning hosil bo‘lish hisobini yuritish, pasportlash, chiqindilar ko‘mib tashlanadigan va utilizatsiya qilinadigan joylarning davlat kadastrini yuritishni tashkil etish va amalga oshirish mexanizmini belgilab beruvchi normalar mavjud emasligini ko‘rsatmoqda.

Shu bois milliy qonunchilikka chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasiga xususiy sektor vakillarini kengroq jalb qilishga qaratilgan choralarni ko‘rish, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasiga tadbirkorlik sub’ektlarini kengroq jalb qilish, ularga hududlarni biriktirib berish jarayonlarini soddalashtirish hamda ularga teng sharoitlarda faoliyat olib borish imkoniyatlarini yaratish bo‘yicha normalar kiritilmoqda.

Shuningdek, chiqindilarni chuqur qayta ishlash bo‘yicha ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy qilishga imtiyoz va preferensiyalar berishning huquqiy asoslarini mustahkamlash ham nazarda tutilmoqda.

Ma‘lumki, ishlab chiqarish korxonalaridan turli xil chiqindilar va shu bilan birga zararli moddalar ajralib chiqadi. Masalan, rangli metallurgiya sanoatidan – rangli metall tuzlari, mashinasozlik korxonalaridan-sianitlar, berilliy birikmalari, margimush va hokazolar, kimyo – sanoatidan benzin, efir, fenol metilakriat, stirol, xlorbenzol, katronlar va hokazolar, sellyuloza - qog‘oz ishlab chiqarish korxonalaridan metil spirti, skipidar, fenol va boshqalar, plastmassa va sintetik kauchuk ishlab chiqarish korxonalaridan davlat standartlariga mos kelmaydigan mahsulotlar, masalan, g‘ijimlangan plyonkalar, turli diametr va uzunlikka ega bo‘lgan sirtida tirqishlar, yorishmalar va g‘adir - budirliklari bo‘lgan mahsulotlar yig‘ilib qoladi. Bunday chiqindilar suyuq holatda ham, qattiq holatda ham bo‘lishi mumkin. Ularning turlari nihoyatda ko‘p, xavflilik darajalari xilma-xil, yillar davomida sekin-asta yig‘ilib, nafaqat atmosfera havosini, balki yer osti suvlarini ham ifloslantiradi.

Bundan tashqari, qattiq va suyuq chiqindilar guruhiga sanoat korxonalarini chiqindilaridan tashqari, gung, uy-ro‘zg‘or va shahar chiqindilari ham kiradi. Ularning hajmi, tarkibi, mexanik, fizik, biologik va kimyoviy xossalari, shuningdek, yig‘ilish me‘yorlari ham har xil bo‘lishi mumkin.

Hozirgi paytda sanoat korxonalarining eng asosiy muammolari texnologik jarayonlarni takomillashtirish, chiqindilar miqdorini kamaytirish, xom-ashyolarni va yoqilg‘ilarni tejash, ishlab chiqarishda isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, yuqori unumli yangi texnologiyalar, chiqindisiz va kam chiqindili texnologiyalarni amalga joriy etishdan iboratdir.

Ma‘lumki, 12.1.007–76 DAVAN bo‘yicha sanoat chiqindilari ularning zaharliligi va tashqi muhitga xavfliligi yuzasidan 4 ta guruhga bo‘linadi:

1. Favqulodda xavfli. Bu guruhga asosan zaharli gazlar va suyuqliklar kiradi.
2. Juda xavfli. Chiqindilar tarkibidagi simob, margimush, xrom, qo‘rg‘oshin, azot, tuz va boshqalar o‘zining xavfliligi bilan ushbu guruhga to‘g‘ri keladi.
3. O‘rtacha xavfli. Chiqindilar tarkibidagi misli birikmalar, nikelning xlorli tuzlari, qo‘rg‘oshin oksidi va boshqalar o‘zining xavfliligi bilan ushbu guruhga to‘g‘ri keladi.
4. Kam xavfli. Chiqindilar tarkibidagi fosfatlar, marganes, ruxning sulfat tuzlari

va boshqalar ushbu guruhga mansubdir.

Keyingi yillarda zararli chiqindilardan xalq xo'jaligida foydalanish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Foydalanishda gigienik qoidalarga qattiq amal qilish lozim bo'ladi.

Sanoat chiqindilaridan mineral va organik o'g'itlar, qurilish materiallari va ba'zi bir mahsulotlarni tayyorlashda xom-ashyo sifatida ishlatiladi.

Rasmiy manbalarga keltirilishicha, kimyo va neft sanoati korxonalaridan chiqadigan kuyqum (shlam) lar qoldiq qatlamlarining 1 mln tonnasi qayta ishlansa, undan 4300 tonna kobalt, metallurgiya kombinatlarining toshqol (shlak) laridan va issiqlik energiyasi ishlab chiqaradigan korxonalarining chiqindi kullaridan mineral o'g'itlar, sement va nihoyatda o'tga chidamli mineral tolalar olish mumkin. Ulardan beton quyish uchun to'ldirgich sifatida ishlatish, shuningdek kislotalar ta'sirida chidamli izolyatsiya materiallari tayyorlash mumkin.

Sanoat miqyosida shunday chiqindilar ham bo'ladiki, ulardan foydalanishning iloji yo'q. Ularni yoqish yoki qizdirish usullari bilan zararsizlantiriladi, shuningdek maxsus mo'ljallangan joylarda ko'miladi. Sankt-Peterburg shahrida qurilgan shunday usulda ishlaydigan zavod yiliga 65 ming tonna axlatlarni qayta ishlab, azotli organik o'g'itlarni qishloq xo'jaligi ehtiyoji uchun ishlab chiqaradi. Axlatlar tarkibidan temir, plastmassa, toshlar, shishalar va boshqa qattiq materiallar ajratib olingandan keyin, ular uzunligi 60 m va diametri 4 m bo'lgan aylanuvchi biobarabanga solinadi va axlatlar aralastiriladi, 1-3 kundan keyin ma'lum miqdorda namlik beriladi va biokimyoviy jarayonlar natijasida harorat 50-60°S gacha yetadi. Haroratning ta'sirida mikroorganizmlar faoliyati tufayli axlatlar gumusga aylanadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda sutkasiga 600-700 tonna axlatlarni yondiruvchi zavodlar qurilmoqda. Bunday zavodlarni aholi yashash joylaridan 1300-1500 m uzoqroq masofalarga qurish tavsiya etiladi, chunki ularning o'chog'ida chiqindilar 1000-1300° S atrofida yonadi va yuqori haroratda yongan axlatlardan tutun chiqmaydi, kuli esa chang ushlagich qurilmalari yordamida ushlab qolinadi. Undan chiqadigan issiqlikdan xalq xo'jaligining turli sohalarida foydalanish mumkin.

Agarda chiqindilar o'ta zaharli (simob, margimush, sariq fosfor, sinil kislotasi) va suvga yaxshi eruvchan bo'lsa, bunday chiqindilar ular yerdan o'ralar kovlanib, devori 10 mm qalinlikda tayyorlangan konteynerlarga joylashtirib ko'miladi. O'raning tagi, usti va barcha yon tomonlari beton bilan qoplanadi.

### **Adabiyotlar**

Valijonovich, R. S., Axmadjanovich, T. A., & Khoshimjon, Y. S. (2021). Causes and Consequences of Floods and Floods in The Safety of Life, Measures to Protect the Population and The Territory. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 25(1), 83-86.

Valijanovich, R. S., & Ahmadjanovich, T. A. (2021). CURRENT STATUS OF GROWING AND HARVESTING CORN AND CRUSHING COTTON. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1002-1006.

Turgunov, A. A., Yakubzhanova, Y. G., Yuldoshev Sh, K., & Mirzaliyev, Z. S. (2022). MAIZE, MAINTENANCE AND DEVELOPMENT OF WAYS TO OVERCOME DEFICIENCIES IN GROWTH FROM THE SUBSYSTE.

PEDAGOG.–2022, 4, 953-959.

Yakutkhan, Y. Khoshimjon o'gli, YS (2022). Educate the Population on the Types and Causes of Emergencies. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(5), 22-26.

## **ARID IQLIM SHAROITLARIDA AKKUMULATOR BATAREYASINI EKSPLUATATSIYA QILISH XUSUSIYATLARI**

**Hojiyev Oybek Odinayevich BuxMTI.**

**Sayfiddinov Mirshod Nodir o'g'li , Salimov Otabek Akmalovich**

*Peshko 'tuman 1- son kasb-hunar maktabi o'qituvchilari*

Akkumulator batareyalarining nosozliklari. Bunga bankalardagi kuchlanishning pasayishi, sulfatlanish va qisqa tutashishlar misol bo'la oladi. Sulfatlanish nosozliklarning eng qiyin bartaraf etiladigani bo'lib, u plastinka yuzalarini yirik  $Pb_2SO_4$  kristallari bilan qoplanishi natijasida sodir bo'ladi (akkumulator batareyalari ko'p saqlanganda, elektrolit zichligi yuqori bo'lganda, starter bilan ko'p qo'shilganda). Sulfatlanish kam tok kuchida (akkumulatorlar sig'imining 0,04 ga to'g'ri keluvchi) uzluksiz kuchlanish berish(zaradlash) bilan bartaraf etiladi.

Qisqa tutatish plastinkalardan aktiv massalarning to'kilishi natijasida sodir bo'ladi.

Akkumulator batareyasiga TXK va ta'mirlash texnologiyasi.

AKB ga TXK da uning sirti jipsligi, elektrolit sathi va zichligi, qarshilik bilan kuchlanishni tekshirishdan iborat. Elektrolit sathini me'yoriga keltirish uchun distillangan suv quyiladi. Elektrolit zichligi areometr yordamida tekshiriladi va farq 0,01g/sm<sup>3</sup> dan oshmasligi kerak. O'zbekiston sharoitida akkumulator batareyalaridagi elektrolit zichligi 1,25 g/sm<sup>3</sup> bo'lishi kerak.

Akkumulator batareyasini yuklama vilkasi bilan tekshirish, uning qizigan dvigatelni yurgazish tartibiga mos kelgan zaradsizlanish holatini aniqlashga imkon beradi.

Soz akkumulator batareyasining kuchlanishi yuklama vilka bilan tekshirilganda kamida 5 sekund davomida o'zgarasligi keraq Akkumulator batareyasi qopqog'idagi teshiklar tiqinlar bilan berkitilgan bo'lishi lozim. Elektrolitning zichligi 1,2 g/sm<sup>3</sup> dan kam bo'lgan akkumulatorlarni yuklama vilkasida tekshirish tavsiya etilmaydi.

Elektrolit zichligining 0,01g/sm<sup>3</sup> ga kamayishi akkumulator batareyasining 6% zaradsizlanganligini ko'rsatadi. Batareyaning zaradsizlanishi yozda kamida 50% ni, qishda 25% ni tashkil etsa, uni zaradlash kerak.

Akkumulator batareyasi uch oyda bir marta batareya haqiqiy sig'imining 1/10 dan 1/13 gacha tok kuchi bilan zaradlanadi.

Batareyalarni zaradlash ikki usul bilan:

- doimiy tok kuchi bilan;

- doimiy kuchlanish bilan zaradlanadi.

Birinchi usulda, batareyani zaradlash tarmog'iga ketma-ket guruhlab kuchlanishlar reostati orqali ulanadi. Batareya ikki bosqichda zaradlanib, birinchi bosqichda zaradlash, batareyaning bitta elementidagi kuchlanish 2,4V ga yetguncha, ikkinchi

bosqichda esa, tok kuchi 50 % ga kamayguncha bajariladi. Bu usulning kamchiligi shuki, zaradlash 10¼15 soat davom etadi hamda ulanadigan batareyalar bir xil sig'imda bo'lishi va tok kuchi har soatda nazorat qilib turilishi zarur.

Ikkinchi usulda, doimiy kuchlanish bilan har xil sig'imdagi va har xil darajada zaradlanadigan batareyalarni zaradlash mumkin. Batareyalarning bir xil kuchlanishdagilari guruhlarga ajratiladi va zaradlash qisqa vaqt davom etadi hamda tok kuchi rostlab turilishi zarur. Shuningdek, zaradlashni bevosita avtomobilning o'zida bajarish ham mumkin. Zaradlash jarayonining jadallashishi katta tok kuchi(50A) hisobiga olib boriladi. ATK larda qo'llaniladigan to'g'rilagichlar (vipryamitellar VAS-111, VSA-5 va h.k.) kuchlanish 80V gacha va tok kuchi 12A bo'lishini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarilayotgan (NEKSIYA, TIKO va DAMAS avtomobillariga qo'yilayotgan) 12V35AH va 12V55AH (MF) akkumulator batareyalarida mahsus indikatorlar bo'lib, ular akkumulatorni me'yoriy (yashil rang), zaradtalab (qora rang) va elektrolitning kamligini (rangsiz) ko'rsatadi. Indikatorning rangiga qarab, akkumulatorni zaradlash yoki unga elektrolit quyish zarurligini aniqlash mumkin.

Qo'rg'oshin-kislotali akkumulator batareyalarining ishlash shartlari va tartiblari akkumulatorning va avtotransport vositalarining konstruktiv xususiyatlaridan tashqari ekspluatatsiyaning yo'l-iqlim omillariga bog'liq.

Qo'rg'oshin batareyalari iste'molchilarga quruq zaryadlangan holda yetkazib beriladi. Ularni ishchi holatiga keltirish uchun talab etiluvchi zichlikdagi elektrolitni tayyorlash, uni akkumulatorlarga quyish, elektrodlar va separatorlar shimdirilishidan keyin zaryadlashni amalga oshirish zarur. Elektrolit A va B navli tarkibida 92-94 % (+15<sup>0</sup>S haroratda zichligi 1,83 g/sm<sup>3</sup>) tozalangan suvli akkumulator oltingugurtidan tayyorlanadi. Bunda elektrolit yuqori darajada toza bo'lishi kerak va faqat shundagina akkumulatorlarning ishonchli ishlashi ta'minlanishi mumkin. Elektrolit tayyorlash uchun oltingugurt kislotasi ta'siriga chidamli sopol, qo'rg'oshin, ebonit idishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Alohida hollarda distillangan suv bo'lmaganda elektrolitni mexanik aralashmalardan tozalangan yomg'ir yoki qor suvidan foydalanish mumkin. Foydalanishga qulay bo'lishi uchun 1,83g/sm<sup>3</sup> zichlikdagi kislotani 1,40 g/sm<sup>3</sup> zichligacha tozalagan suvda eritish lozim. Keyinchalik qo'rg'oshin batareyalarida elektrolitning zichligini iqlim sharoitlari talab etuvchi kattalikkacha pasaytiriladi. Elektrolitni tayyorlashda kislotani distillangan suvga sekin quyib, shisha yoki ebonit tayoqcha bilan uzluksiz aralashtirib turish kerakligini alohida qayd etish lozim. Suvni kislotaga solish qat'iy man etiladi, chunki suv kuchli oltingugurt kislotasi bilan to'qnashishi natijasida tez qizib, qaynaydi va kislota birgalikda sachraydi, oqibatda turli xil ko'ngilsiz hodisalarga olib keladi.

Elektrolit quyilishidan keyin akkumulator batareyalari uch soat davomida elektrodlar va separatorlarning singdirilishi uchun saqlanadi. Bu vaqtda elektrolit harorati biroz ko'tariladi, plastinalarning qo'rg'oshin oksidlari bilan kislota reaksiyasi natijasida zichlik esa bir oz tushadi. Zaryadlash vaqtida akkumulatorlar kuchlanishini elektrolit zichligi va haroratini nazorat qilish lozim. Elektrolit harorati +45<sup>0</sup>S dan oshganda zaryad toki kuchini yarmiga kamaytirish yoki harorat +30<sup>0</sup>S pasayishi uchun vaqtinchalik zaryadlashni to'xtatish kerak.

Akkumulator xizmat muddatini oshirish uchun elektrostarter yordamida dvigatelni ishga tushirish qoidalariga qat’iy rioya qilish muhim ahamiyatga ega, chunki ishga tushirish vaqtida razryadlanish katta kuchdagi tok bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun dvigatelni ishga tushirishda starterni 5-10 s ga yoqish, takroriy yoqishni 15 s o’tishdan oldin amalga oshirilmalik kerak.

Kuzatishlarni ko’rsatishicha, avtomobillarning ekspluatatsiyasi jarayonida akkumulator batareyasini shunday holatda saqlash kerakki, bunda u dvigatelni elektr starter bilan ishga tushirilishini ta’minlashga qodir bo’lsin. Akkumulator batareyasini ishchi holatda saqlashning eng muhim sharti uning yuqori darajada zaryadlanganligi va elektrolit haroratini ta’minlashdir.

Past haroratlarda akkumulatorlar elektroliti uchun zarur haroratni saqlashning turli usullari ma’lum. Ulardan eng oddiy xizmat ko’rsatilmaydigan batareyalarni shishapaxta va vatin bilan izotsiyalangan konteynerlarda joylashtirishdir. Hududimiz uchun ayniqsa muhim bo’lgan yuqori haroratlarda akkumulatorlar ekspluatatsiyasi xususiyatlariga kelsak, ular asosan elektrolitning ruxsat etilgan haroratidan oshish xavfi bilan bog’liq bo’lib, yuqori harorat uning intensiv bug’lanishiga olib kelishi mumkin. Ba’zi shaharlarda havo harorati ko’pincha elektrolitning yo’l qo’yiluvchi haroratiga yetadi ( $50^{\circ}\text{S}$ ). Bunda bevosita nurlar bilan yoritiluvchi yuzalar, ayniqsa to’q tusli yuzalar quyosh radiatsiyasi hisobiga kuchliroq isiydi. Masalan, ebonit monoblokli batareyalarni yozda, kunduzgi vaqtda ekspluatatsiya qilishda havoning  $40-45^{\circ}\text{S}$  haroratida elektrolit harorati ba’zida  $55^{\circ}\text{S}$  yaqin ko’tarildi. Shuning uchun yuqori haroratlarda akkumulatorlarning kafolatlangan xizmat muddatlarini ta’minlash uchun birinchidan, plastmassa monobloklardan foydalanish, ikkinchidan, batareyani bevosita quyosh nurlaridan yoritilishidan himoya qilish lozim.

### **Adabiyotlar**

- Valijonovich, R. S., Axmadjanovich, T. A., & Khoshimjon, Y. S. (2021). Causes and Consequences of Floods and Floods in The Safety of Life, Measures to Protect the Population and The Territory. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 25(1), 83-86.
- Valijanovich, R. S., & Ahmadjanovich, T. A. (2021). CURRENT STATUS OF GROWING AND HARVESTING CORN AND CRUSHING COTTON. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1002-1006.
- Turgunov, A. A., Yakubzhanova, Y. G., Yuldoshev Sh, K., & Mirzaliyev, Z. S. (2022). MAIZE, MAINTENANCE AND DEVELOPMENT OF WAYS TO OVERCOME DEFICIENCIES IN GROWTH FROM THE SUBSYSTE. *PEDAGOG.–2022*, 4, 953-959.
- Yakutkhan, Y. Khoshimjon o’gli, YS (2022). Educate the Population on the Types and Causes of Emergencies. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(5), 22-26.
- Khoshimjon, Y. S., & Mavludakhon, M. (2022). THE AMOUNT OF GRAIN LEAVING FROM THE CORE AND SHELL HOLE AND ITS REDUCTION. *Scientific Impulse*, 1(4), 371-374.

## ЦИФРОВАЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Неъматова Ферангиз Ёркиновна

Аннотация:

“В данной статье рассматривается роль литературы в современной школьной системе. Авторы анализируют различные подходы к преподаванию литературы и исследуют, как эти подходы влияют на развитие критического мышления и эмпатии у учащихся. Статья также обсуждает проблемы и вызовы, связанные с интеграцией современной литературы в школьную программу. Результаты исследования указывают на значительную роль литературы в формировании глобального взгляда учащихся и подчеркивают необходимость дальнейшего изучения этой темы.

Ключевые слова: Цифровизация образования, Цифровая трансформация, образовательные информационные технологии, цифровые технологии, компетенции XXI века.

Проблемы в школе: основные недостатки школ и трудности современных школьников

1: Эта статья рассказывает об актуальных проблемах современных российских школ и трудностях, с которыми могут столкнуться дети во время учебного процесса. Она охватывает психологические, образовательные и педагогические аспекты. Также вы найдете советы психологов о том, как избежать школьной дезадаптации и как защитить детей от насмешек со стороны одноклассников.

Несет ли школа ответственность за ребенка: какую ответственность школа несет

2: Согласно закону “Об образовании в Российской Федерации”, школа отвечает за выбор образовательной программы и её реализацию. Также она должна создавать необходимые условия для охраны и укрепления здоровья обучающихся.

Права ребенка и их родителей в школе по закону в 2024

3: Эта статья расскажет вам о правах родителей в школе. Вы узнаете о праве выбирать школу, форму обучения и язык, а также о том, что можно не платить за то, что должно быть бесплатным. Права родителей также включают отказ от навязанных факультативов и олимпиад.

Использование литературы

“Как написать научную статью в формате APA — полное руководство”

“Список использованных источников и литературы: основные правила и примеры”

“Как написать научную статью: полезные советы + пример оформления”

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Й.С.Савриев Исследование технологии экстракции жмыхов масличных семян.

2. Й.С.Савриев, Ш.Ш.Хакимов Исследование и оптимизация технологии



экстракции хлопковых жмыхов.

3. Savriyev Y.S., SH.SH.Nakimov., K.H.Majidov Technological features of olive seeds.

4. Savriyev Y.S., SH.SH.Nakimov., K.H.Majidov Structure of some olive seeds.

## **"ПУШКИН: ВЕЛИЧИЕ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ"**

**Самандарова Дилором Иззатовна**

Аннотация: В данной статье рассматривается жизнь и творчество известного русского поэта Александра Сергеевича Пушкина. Описывается его влияние на развитие русской литературы, особенности его стиля и темы, а также его значимость для культурного наследия России.

Ключевые слова: Пушкин, поэзия, проза, классика, романтизм, литературное наследие.

К \*\*\* (А. Пушкин)

Я помню чудное мгновенье:

Передо мной явилась ты,

Как мимолетное виденье,

Как гений чистой красоты.

В томленьях грусти безнадежной,

В тревогах шумной суеты,

Звучал мне долго голос нежный

И снились милые черты.

Шли годы. Бурь порыв мятежный

Рассеял прежние мечты,

И я забыл твой голос нежный,

Твои небесные черты.

В глуши, во мраке заточенья

Тянулись тихо дни мои

Без божества, без вдохновенья,

Без слез, без жизни, без любви.

Душе настало пробужденье:

И вот опять явилась ты,

Как мимолетное виденье,

Как гений чистой красоты.

И сердце бьется в упоенье,

И для него воскресли вновь

И божество, и вдохновенье,

И жизнь, и слезы, и любовь.

Александр Сергеевич Пушкин, русский поэт, прозаик и драматург, считается одним из величайших литературных деятелей не только в русской, но и мировой литературе. Его произведения оказали огромное влияние на развитие

русской культуры и языка.

Пушкин родился 6 июня 1799 года в Москве. Его творчество начало прославляться сразу после публикации его первых стихов в 1814 году. Он был активным участником литературной жизни своего времени, общался с другими писателями и поэтами, принимал участие в общественной жизни.

Самые известные произведения Пушкина - "Евгений Онегин", "Руслан и Людмила", "Медный всадник", "Капитанская дочка" и многие другие. Его стихи отличаются глубоким философским содержанием, красотой языка и метафор.

Александр Сергеевич Пушкин также был активным общественным деятелем. Он выступал за освобождение крепостных крестьян, за развитие образования и науки. Его трагическая гибель в результате дуэли с французским офицером Дантесом стала потрясением для всей страны.

Память о Пушкине увековечена не только его произведениями, но и многочисленными памятниками по всей России. Его имя стало символом русской литературной классики и высокого дарования.

Литература:

1. "Жизнь и творчество Александра Пушкина" - биографическая книга о поэте.

2. "Поэзия и проза Пушкина" - анализ стихотворений и произведений Пушкина.

3. "Пушкин и его время" - исследование эпохи, в которой жил и работал поэт.

4. "Пушкин и русская литература XIX века" - сравнительный анализ творчества Пушкина с другими литераторами своего времени.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Й.С.Савриев Исследование технологии экстракции жмыхов масличных семян.

2. Й.С.Савриев, Ш.Ш.Хакимов Исследование и оптимизация технологии экстракции хлопковых жмыхов.

3. Savriyev Y.S., SH.SH.Hakimov., K.H.Majidov Technological features of olive seeds.

4. Savriyev Y.S., SH.SH.Hakimov., K.H.Majidov Structure of some olive seeds.

## **MUHANDIS-PEDAGOGNING PEDAGOGIK MAHORATI**

**To‘xtayeva Zebo Sharifovna**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti professori, pedagogika fanlari doktori, Paxta va yengil sanoat texnologiyalari fakulteti dekani, [zebo-7171@mail.ru](mailto:zebo-7171@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada pedagogik faoliyatning maqsadi, texnik oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayon va pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi, muhandis-pedagogga qo'yiladigan talablar, pedagogik faoliyat obyekti va subyekting o'ziga xosligi, muhandis-pedagogning pedagogik mahorati haqida fikr yuritiladi.

**Tayanch iboralar:** ta’lim, tarbiya, pedagog, ta’lim, pedagogik jarayon, faoliyat, muhandis-pedagog, mahorat.

**Kirish.** Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko‘rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo‘lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim. Ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lgan muhandis-pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi. Pedagogik mahorat yaxlit tizim bo‘lib, uning tarkibida bir qator sifatlar ko‘zga tashlanadi.

Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o‘z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, obyekt va subyekt hamda vositalardan tashkil topadi.

**Tadqiqot materiallari va metodologiyasi.** Kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhandis-pedagog quyidagi majburiyatlarni bajara olishi zarur:

✓ muayyan mehnat vazifalarini, asosan, aqliy mehnat vazifalarini amalga oshirish;

✓ talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblar bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri tashkil etish;

✓ tanlagan kasbiga, talabalar va pedagogik jamoaga hamda jamiyatga bo‘lgan shaxsiy munosabatini chuqur anglash.

Pedagogik majburiyatlar sirasidan, yana shuningdek, kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy munosabatda bo‘lish, o‘ziga nisbatan talabchanlik, kasbiy bilimlarini boyitib va pedagogik malakasini oshirishga intilish, talabalar va ularning ota-onalari bilan o‘zaro hurmatga asoslangan va talabchan munosabatni o‘rnatish, murakkab pedagogik nizolarni ijobiy hal qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish kabilar ham o‘rin oladi.

Demak, muhandis-pedagog pedagogik faoliyat maqsadining o‘ziga xosligi o‘qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

✓ jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to‘la anglab, o‘z shaxsigacha qabul qilishi, jamiyat maqsadlarining “o‘sib”, uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;

✓ muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondashishi;

✓ ta’lim oluvchilar qiziqishlarini e’tiborga olishi, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirishi.

**Tadqiqot natijalari.** Quyida talabalarning loyihalovchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda pedagogik faoliyat obyektining o‘ziga xosligini ko‘rib chiqamiz. Bu faoliyatning obyektini insondir. Pedagog olimlar va tadqiqotchilarning fikricha, pedagogik obyektining o‘ziga xosligi quyidagilardan iborat:

1. Inson – tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o‘zining individual sifatleri, ro‘y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o‘zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta’kidlanganidek, har bir shaxs-takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o‘z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa

ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning obyekti bir paytning o'zida bu faoliyatning sub'ekti bo'lib hisoblanadi.

2. Pedagog doimo o'zgarib, ijodiy o'sib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan hatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni va pedagogik faoliyatga kreativ yondashuvni talab qiladi.

3. Ta'lim oluvchilarga pedagogdan tashqari atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham, ba'zan sezilmaydigan, ba'zan esa har tomonlama bir necha yo'nalishda ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va ta'lim oluvchining o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli o'tishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixik jarayonlarni qanday kechayotganligini bildiradi. Bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan holda, oltita yetakchi pedagogik qobiliyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

✓ kommunikativlik – muloqotga moyillik, odamlarga nisbatan ko'ngilchan bo'lish, mehribonlik;

✓ aql bilan sezish kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard bo'lish, ichki (hissiy) sezgirlik;

✓ shaxsning harakatchanligi, irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishonirish qobiliyatlari;

✓ hissiy barqarorlik – o'zini boshqara olishi;

✓ kelajakni eng maqbul holda bashorat qilish;

✓ kasbiy mustaqillik – ijod qilish qobiliyati.

**Muhokama.** Pedagogik texnika ikki turdagi ko'nikmalar guruhidan iborat:

✓ o'zini o'zi (gavdasi, hissiy holati va nutq texnikasi) boshqara olishi;

✓ pedagogik vazifalarni hal etishda ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlashni uddalash, ya'ni didaktik, tashkilotchilik malakalari, bevosita ta'sir etish texnikasi.

Pedagogik mahoratning biz yuqorida ko'rib chiqqan tarkibiy qismlari, uni tizimli xarakterga ega ekanligini anglatadi. Pedagogik mahoratning yaqqol tashqi belgilari:

✓ faoliyatni aniq maqsadga yo'naltirilganligi,

✓ vazminlik,

✓ mulohaza yuritish,

✓ ta'lim oluvchilar bilimining puxtaligi,

✓ eng maqbul vositalarni tanlanganligi,

✓ o'z faoliyatiga ijodiy yondoshuvi.

Bo'lajak o'qituvchi o'z mahoratiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

✓ psixologiya va pedagogika turkumidagi fanlarni chuqur o'rganish;

✓ umumta'lim va umumkasbiy fanlar, ularni o'qitish metodikasidan puxta bilimga ega bo'lish;

✓ pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o'tkazish;

✓ o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish, boshqalar tajribasini o'rganish;

✓ o‘z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o‘qib borish.

**Xulosa.** Muhandis-pedagog pedagogik texnikaning estetik xususiyatlarini amaliyotga tadbiiq etgan holda o‘qituvchi o‘z yo‘riqnomasini, o‘quvchilarga estetik ta’sir ko‘rsatish texnikasining metodlarini ishlab chiqadi.

Demak, muhandis-pedagoglarning mahoratini shakllantirish, innovatsion faoliyatga tayyorlash yo‘nalishlarini aniqlashtirish mumkin bo‘lib, pedagogik faoliyatga tayyorgarlik o‘quv-tarbiyaviy jarayonda shakllanadi va muhandis kadrlarning yangi avlodini tayyorlash jarayoni uchun xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. – М., 2003. – 144 с.

2. Tukhtayeva Z.Sh., Saidova Kh.Kh. Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology [IJERT] Volume 7, ISSUE 4, Apr.-2020. – Pages 258-261.

3. Тутолмин А.В. Формирование профессионально-творческой компетентности студента-педагога. Глазов: Изд-во Глазов. гос. пед. ин-та, 2006. – 256 с.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ПУТЁМ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ИНТЕГРАЦИИ**

### **Тухтаева Зебо Шарифовна**

*декан факультета технологии хлопка и легкой промышленности Бухарского инженерно-технологического института, доктор педагогических наук, профессор*

Законы «Об образовании» и «Национальная программа подготовки кадров» Республики Узбекистан являются основополагающими документами в областях обучения и воспитания всего населения страны и призвана сформировать у общества мировоззренческую картину развития образования, определить стратегию его развития. В национальной программе определяются цели, задачи, принципы, содержание и структура образования. Образование является социальной и духовной опорой жизнедеятельности человека, средством обеспечения демократических свобод, фактором национальной безопасности.

Содержание высшего образования, согласно национальной программе, строится в соответствии с достижениями культуры, науки и техники, потребностями личности, общества и государства.

Фундаментом образования и его важнейшим элементом является процесс обучения, специально созданный для достижения заданных целей. От его качества, в конечном счете, зависит качество образования в целом. Это качество, т.е. педагогическая эффективность и результативность процесса обучения, зависит от целостности его как системы, интеграции его

компонентов. Применительно к процессу обучения целостность это его научно-педагогическая обоснованность и способность посредством междисциплинарной интеграции обеспечивать целостное фундаментальное образование по всем дисциплинам.

Осуществление междисциплинарной интеграции, т.е. построение целостных моделей изучаемых явлений, позволило бы:

- создать условия для осознанного понимания обучаемыми этих явлений и облегчить решение познавательных и профессиональных задач;
- на основе предыдущего способствовать обеспечению интеграции образования;
- способствовать гармоничному развитию личности.

Таким образом, решение обозначенных задач тесно связано с проблемой интеграции. Существуют различные подходы к его определению. Проанализируем наиболее значимые из них. Самое общее понятие интеграции определяется как связь между явлениями в процессе развития в природе, обществе и познании, когда новое, сменяя старое, сохраняет в себе некоторые его элементы.

Интеграция предполагает необходимый элемент связи прошлого, настоящего и будущего, который позволяет диалектически сочетать старое с новым, осуществлять замену одной формы другой, более совершенной, находить новые формы и создавать предпосылки для их успешного развития.

Иначе говоря, интеграция обеспечивает то, без чего невозможно дальнейшее развитие, а именно:

- 1) включение в новое тех элементов содержания прошедшего, которые не утратили своей жизненности в новых условиях и в состоянии способствовать развитию;
- 2) включение в новое тех отдельных форм старого, которые в состоянии уместить в себе иное содержание и обеспечить его развитие.

Интеграция является объективной закономерностью развития природы и общества. Без интеграции невозможно продвижение вперед во всех областях человеческой деятельности, ибо «новое не возникает на пустом месте, не образуется из ничего. Оно имеет глубокие корни в прошедшем этапе развития, порождается прошлым, вырастает из ушедшего, как дерево из семени, и, в свою очередь, содержит в себе зародыш будущего».

Таким образом, интеграция в философии рассматривается как закономерность развития. Более того интеграция является проявлением таких основных законов диалектики, как закон отрицания отрицания, закон перехода количественных изменений в качественные, закон единства и борьбы противоположностей.

Роль интеграции в профессиональном обучении, обеспечение целостности педагогического процесса.

Переход от предметоцентризма к образовательным областям открывает возможность междисциплинарных переходов, дает целостную, а не мозаичную картину мира.

Одним из условий решения этой проблемы является переход от предметоцентризма к образовательным областям. Чаще всего в профессиональном образовании под этим понимается лишь согласование содержания изучаемого материала в рамках одного предметного блока. Одного согласования недостаточно, нужно учитывать перспективные цели по каждой дисциплине в профессиональном колледже. Под целями в данном случае понимается умения студентов применять аппарат дисциплины в качестве методологического, теоретического и технологического средства решения познавательных и профессиональных проблем.

Таким образом, создание образовательных областей можно трактовать как процесс объединения (интеграции) учебных дисциплин относительно исследования и решения различного рода задач.

Принцип перехода монофункциональных технических средств обучения к полифункциональным и новым информационным технологиям (НИТ) позволяет реализовать социальный заказ, обусловленный потребностью информатизации общества, интенсифицировать учебно-воспитательный процесс на всех уровнях.

Высшее образование как составная часть общего основного и средне-специального образования вносит свой вклад в достижение общей цели деятельности колледжа, обеспечивая усвоение учащимся основ учебных дисциплин, развитие их мыслительных и творческих способностей, вырабатывая научное мировоззрение.

Концепция высшего образования колледжа определяет цели образования как:

- формирование всесторонне развитой личности;
- изучение основных составляющих профессиональной картины мира;
- усвоение основных представлений о научном методе исследования и его месте в системе познания мира;
- формирование и развитие познавательных способностей.

Отметим некоторые аспекты современной концепции высшего образования. Она предполагает уровневую и профильную дифференциацию как наиболее соответствующую идеям личностно-ориентированного обучения, современным идеям мировой педагогики и психологии, требующим гармоничного сочетания в обучении интересов личности и общества.

Усиление прикладной направленности курсов специальных дисциплин на всех стадиях обучения должно обеспечить формирование навыков применения выпускниками достижений науки в их практической деятельности.

Для успешного реформирования профессиональных колледжей необходим комплекс мер, в основе которых лежат научно-педагогические методы. С их помощью можно добиться, чтобы каждая специальная дисциплина, изучаемая студентами, вносила фундаментальный вклад в их общее высшее образование. Это требует соответствующих действий со стороны

административных и методических органов колледжа, а также государства и общества в целом.

Фундаментальное образование должно быть целостным, для чего отдельные дисциплины следует рассматривать не как совокупность традиционных автономных курсов, а как единые интегрированные циклы фундаментальных дисциплин, связанных между собой общей целевой функцией, обеспечивая целостность образования как такового.

Сегодняшнее состояние специальных дисциплин пока не отвечает сформулированным критериям в полной мере. Требуются значительные и согласованные усилия преподавателей всего цикла специальных дисциплин, чтобы фундаментальность в этой сфере стала реальностью.

Интеграция специальных образований в профессиональном колледже должна обеспечиваться единством цели, содержания, методов и средств. Цели специального образования высшего колледжа углубляются и конкретизируются. В частности, к ним относятся:

- умение использовать полученные знания в практической работе;
- формирование профессиональных умений и навыков;
- развитие качеств, способствующих готовности к совершенствованию и продолжению образования.

Направленность учебно-воспитательного процесса на формирование личности обучаемого предполагает создание условий для развития мышления, памяти, внимания и воли. Эта цель должна быть достигнута во всем учебно-воспитательном процессе, в том числе и в процессе обучения специальным дисциплинам в профессиональном колледже.

Цели специального образования во многом определяют его содержание. В соответствии с законом содержание образования должно обеспечивать формирование у обучаемых естественнонаучной картины мира, соответствующей современному уровню знаний и ступени обучения. В этом проявляется единство содержания обучения в средне-специальном образовании.

Достижение целей высшего образования реализуется адекватными методами обучения, соответствующими идеологии развивающего обучения, методологии деятельного подхода, личностно-ориентированной педагогики, превращающих образование в сферу формирования личности учащихся, освоения ими способов мышления и различных видов деятельности. Особое значение в профессиональном образовании колледжа имеет овладение научным методом, который предполагает применение методов учебного эксперимента, исследовательского, проблемного, разнообразных активных методов обучения.

Для выполнения учебного плана и учебного материала важную роль при организации учебного процесса играет технология и методы преподавания. При изучении определённого предмета очень важна межпредметная связь общеобразовательных, общепрофессиональных и специальных дисциплин, а также методы и приёмы урока, дидактический материал, методическая обеспеченность относящийся к изучаемому предмету.



В ходе учебного процесса для обеспечения межпредметной связи у учащихся можно сформировать следующие профессиональные качества как:

- творческое отношение к изучаемому предмету;
- самостоятельное мышление, свободно и самостоятельно изъяснять свою точку зрения;
- постоянно работать над самообразованием;
- имеет глубокие теоретические и практические знания по обще и специальным дисциплинам;
- приспособление к производственному и технологическому процессу.

Исходя из всего сказанного можно сделать вывод что опираясь на методику изучения межпредметной интеграции при изучении определённой темы опираясь на степень полученных знаний, изучаемый материал можно объяснить более доступно и понятно. При этом усвоение материала проходит легко и быстро.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. – М., 2003. – 144 с.
2. Tukhtayeva Z.Sh., Saidova Kh.Kh. Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology [IJERT] Volume 7, ISSUE 4, Apr.-2020. – Pages 258-261.
3. Тутолмин А.В. Формирование профессионально-творческой компетентности студента-педагога. Глазов: Изд-во Глазов. гос. пед. ин-та, 2006. – 256 с.

## KONSTRUKSIYANI CHO’ZILISH VA SIQILISHDA MUSTAHKAMLIKKA HISOBLASH MASALALARI

**Katta o’qituvchi Zokirova D. A<sup>1</sup>, o’qituvchi-stajyor Yoshiyeva D. Y<sup>2</sup>**

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti<sup>1</sup>*

*TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti<sup>2</sup>*

Tajribalar yordamida materiallarning asosiy mexanik tavsiflari aniqlangandan keyin, shunday kuchlanishlarni topish mumkinki, bu kuchlanishlar ta’sirida mazkur materiallardan tayyorlangan konstruksiyalarning tarkibiy qismlari belgilangan muddat davomida o’zining mustahkamligini yo’qotmasdan xavf-xatarsiz ishlaydi. Odatda, bunday kuchlanishlarga mos ravishda materiallarning joiz (ruxsat etilgan) normal ( $\sigma_{adm}$ )\* va urinma ( $\tau_{adm}$ ) kuchlanishlari deb ataladi. Ba’zi adabiyotlarda  $\sigma_{adm}$  ni oddiy cho’zilish (siqilish),  $\tau_{adm}$  ni esa siljish (kesilish) da joiz kuchlanishlar deb ham yuritiladi. Ma’lumki, konstruksiya qismlari ishlash jarayonida qoldiq deformatsiyalar hosil qilmasligi maqsadga muvofiqdir. Shu bois, joiz kuchlanishning qiymati mutanosiblik yoki elastiklik chegaralaridan ortib ketmasligi shart. Boshqacha aytganda, joiz normal kuchlanish xavfli kuchlanish  $\sigma_x$  ning ma’lum qismini tashkil qilishi lozim:

$$\sigma_{adm} = \frac{\sigma_{o.ch.}}{n_{o.ch.}} \quad (1)$$

Bunda,  $n_{adm}$  qiymati birdan kichik bo'lgan miqdor bo'lib, mustahkamlikning ehtiyot koeffitsienti deb yuritiladi. Shuning uchun ham joiz kuchlanishlar oldindan yuqori tashkilotlar tomonidan qat'iy belgilanadi, unga amal qilish esa barcha muhandis-texnik xodimlar uchun majburiy hisoblanadi. Amaliy hisoblashlarda statik kuchlar ta'siridagi plastik materiallar uchun xavfli kuchlanishning qiymati oquvchanlik chegarasi  $\sigma_x = \sigma_{o.ch.}$  ga teng qilib olinadi:

$$\sigma_{adm} = \frac{\sigma_{o.ch.}}{n_{o.ch.}} \quad (2)$$

Bunda,  $n_{o.ch.}$ -oquvchanlik chegarasidagi mustahkamlikning ehtiyot koeffitsienti bo'lib, qiymati  $1,4 \div 1,6$  ga teng.

Statik kuchlar ta'siridagi mo'rt materiallar uchun xavfli kuchlanish o'rniga mustahkamlik chegarasi  $\sigma_u$  olinadi:

$$\sigma_{adm} = \frac{\sigma_u}{n_m}, \quad (3)$$

Bunda,  $n_m$ - mustahkamlik chegarasidagi mustahkamlikning ehtiyot koeffitsienti bo'lib, qiymati  $2,5 \div 3,0$  ga teng.

Yog'och materiallari uchun esa mustahkamlikning ehtiyot koeffitsienti 3 dan 8 gacha oraliqda tanlanadi. Cho'zilish yoki siqilishda sterjenlarning mustahkamlik sharti quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$\sigma_{max} = \frac{N_{max}}{A} \leq \sigma_{adm} \quad (4)$$

Bu formula asosida quyidagi uch xil masala hal qilinadi.

1. Mustahkamlikka tekshirish.

Bu quyidagi formula yordamida bajariladi:

$$\sigma_{max} \leq \sigma_{adm} \quad (5)$$

Agar sterjenga ta'sir etuvchi cho'zuvchi (siquvchi) kuchlar va uning ko'ndalang kesim o'lchamlari ma'lum bo'lsa, u holda ko'ndalang kesimdagi maksimal norma kuchlanishni aniqlab, uni joiz kuchlanish bilan taqqoslab ko'rish mumkin; amaliy hisoblashlarda ular orasida farq 5 % dan ortmasligi kerak.

2. Mustahkam kesim yuza tanlash.

Agar sterjenga ta'sir etuvchi kuchlar va uning materiali ma'lum bo'lsa, u holda sterjen ko'ndalang kesimining xavfsiz o'lchamlari quyidagi ifodadan tanlanadi:

$$A \geq \frac{N_{max}}{\sigma_{adm}} \quad (6)$$

1. Eng katta kuchni aniqlash. Agar sterjenning kesim yuzasi o'lchamlari va uning materiali ma'lum bo'lsa, u holda sterjen ko'tara oladigan maksimal kuch quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{max} \leq \sigma_{adm} \cdot A \quad (7)$$

Elastik jismlar deformatsiyasi tajribalar asosida kuzatilganda ta'sir qiluvchi normal kuchlanishlar nisbiy deformatsiyaga to'g'ri proporsionalligini aniqlash mumkin :

$$\sigma = E \cdot \varepsilon \quad (8)$$

Bu shart Guk qonuni deyiladi. (8) formuladagi  $\varepsilon$ -nisbiy uzayish. Nisbiy uzayish brusning absolyut uzayishi- $\Delta l$ ning boshlang'ich uzunligi nisbatiga tengdir:

$$\varepsilon = \frac{\Delta l}{l} \quad (9)$$

Ko'ndalang deformatsiyaning nisbiy miqdori :

$$\varepsilon' = \frac{\Delta a}{a} \quad (10)$$

Agar (8), (9) va (10) formulalarni keltirib qo'ysak, Guk qonunining boshqa ko'rinishini topamiz:

$$\Delta l = \frac{N \cdot l}{E \cdot A} \quad (11)$$

E-kattaligi proporsionallik koeffisienti bo'lib, u elastiklik moduli deyiladi. E-fizik konstanta, tajriba asosida topiladi. N /m<sup>2</sup>, kN /m<sup>2</sup> |larda o'lchanadi. E-materialning turiga qarab o'zgaradi va uning fizik-mexanik xossalarga bog'liq bo'ladi.

E·A-brus cho'zilish va siqilishdagi bikrligi deyiladi. Cho'zilish va siqilishdagi ko'ndalang nisbiy deformatsiya  $\varepsilon'$ -ning bo'ylama nisbiy deformatsiya -  $\varepsilon$  ga nisbati o'zgarmas son bo'lib, u Puasson koeffisienti deyiladi.

$$\mu = \frac{\varepsilon'}{\varepsilon} \quad (12)$$

Puasson koeffisienti –  $\mu$  ham E ga o'xshab materialning xossasini aniqlovchi kattalikdir.  $\mu$  – ning Qiymati 0 dan 0,5 oraliqda materialning turiga qarab o'zgaradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Закирова, Д. А. (2024). ИСПЫТАТЕЛЬНОЕ УСТРОЙСТВО НАПРЯЖЕНИЕ ПРИ КРУЧЕНИЕ. SCHOLAR, 2(5), 50–55. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10690952>
2. Закирова, Д. А. (2024). КИНЕМАТИКА БИПЛАНЕТАРНОГО МЕХАНИЗМА. SCHOLAR, 2(5), 43–49 стр. <https://doi.org/10.5281/zenodo.1069093>
3. Д.А.Закирова. Исследования различных случаев изгиба балки под действием продольной силы Научный журнал №3(94), 2023 Учёный XXI века <https://scipubplatform.online/index.php/uch21vek/issue/view/31/31>.

## BURALISHDA STERJENLARNI MUSTAHKAMLIKKA VA BIKRLIKKA HISOBLASH.

**Rahbar Zokirova D.A., 520-22DPM guruh talabasi Nurmurodov Sh.**

*Бухоро мухандислик технология институти, Бухоро шаҳри, Ўзбекистон*

Sterjenlarning bo'ylama o'qiga perpendikulyar tekislikda juft kuch momenti ta'sir qilsa, buralish deformatsiyasi hosil bo'ladi. buralish deformatsiyasi turli val va o'qlarning, fazoviy konstruksiyalarning, elementlarning ishlash jarayonida uchraydi. Buralish, asosan, burovchi moment ta'sirida kelib chiqadi. Buralish deformatsiyasining tavsifi ko'p jihatdan buraladigan konstruksiya kesim yuzasining shakliga bog'liq. Texnikada ko'pincha kesim yuzasi doiraviy yoki xalqasimon

bo'lgan elementlar uchraydi. Buralishda sterjenlarni mustahkamlikka va bikrlikka hisoblashni quidagi masalada ko'rish mumkin.

Masalani bajarish uchun berilganlar. Doira qirqimiga ega po'lat valga tashqi momentlar qo'yilgan. Siljishiga qarshiligi  $[\tau] = 130 \text{ MPA}$

Talab qilinadi

1. Burovchi moment epyuralari qurilsin.
2. Mustahkamlik va bikrlilik shartidan shartidan foydalanib val diametri aniqlansin va standart buyicha tanlansin ( $d = 30, 35, 40, 45, 50, 60, 70, 80, 90, 100, 125, 140, 160, 170, 200 \text{ mm}$ ).

1-Masala.

Doira qirqimiga ega po'lat valga tashqi momentlar qo'yilgan:

$M_1 = 30 \text{ kNm}; M_2 = 10 \text{ kNm}; M_3 = 20 \text{ kNm};$  buralishdagi mustahkamlik sharti  $[\tau] = 100 \text{ mPa}, a = 2 \text{ m}; b = 3 \text{ m}; c = 1 \text{ m}; G = 8 \cdot 10^7 \text{ kN/m}^2$  (-rasm).

**Talab qilinadi:**

1. Burovchi moment epyuralari qurilsin.
2. Mustahkamlik va bikrlilik shartidan foydalanib val diametri aniqlansin va standart bo'yicha tanlansin ( $d = 30, 35, 40, 45, 50, 60, 70, 80, 90, 100, 125, 130, 140, 160, 170, 200 \text{ mm}$ ).
3. Buralish burchagi epyuralari qurilsin.

**Yechish:**

Sterjenning tayanch kesimidagi  $M_A$  reaktiv momentini topamiz;

$$\sum M_A = 0; M_A = M_1 - M_2 + M_3 = 30 - 10 + 20 = 40 \text{ kNm};$$

Sterjenning uzunligi bo'ylab burovchi momentining o'zgarishini aniqlaymiz;

$$\text{I-I oraliq: } M_{b1} = -M_A = -40 \text{ kNm};$$

$$\text{II-II oraliq: } M_{b2} = -M_A + M_1 = -40 + 30 = -10 \text{ kNm};$$

$$\text{III-III oraliq: } M_{b3} = -M_A + M_1 - M_2 = -40 + 30 - 10 = -20 \text{ kNm};$$

$$|M_{bmax}| = |M_{b1}| = 40 \text{ kNm}.$$

Buralishdagi mustahkamlik shartiga ko'ra sterjenning diametrini aniqlaymiz;

$$d = \sqrt[3]{\frac{16 \cdot |M_{bmax}|}{\pi[\tau]}} = \sqrt[3]{\frac{16 \cdot 40}{3,14 \cdot 100 \cdot 10^3}} = 0,127 \text{ m};$$

$d = 130 \text{ mm}$  qabul qilamiz.

Sterjenning buralish burchagini aniqlaymiz:

$$\varphi_A = 0;$$


$$\varphi_B = \frac{M_{b1} \cdot a}{GJ_\rho} = \frac{-40 \cdot 2}{8 \cdot 10^7 \cdot 0,1d^4} = \frac{-80}{8 \cdot 10^6 (0,130)^4} = -35,01 \cdot 10^{-3} \text{ rad};$$

$$\varphi_C = \varphi_B + \frac{M_{b2} \cdot b}{GJ_\rho} = -35,01 \cdot 10^{-3} - \frac{10 \cdot 3}{8 \cdot 10^6 (0,130)^4} =$$

$$= -48,13 \cdot 10^{-3} \text{ rad};$$

$$\varphi_D = \varphi_C + \frac{M_{b3} \cdot c}{GJ_\rho} = -48,13 \cdot 10^{-3} - \frac{20 \cdot 1}{8 \cdot 10^6 (0,130)^4} = -56,88 \cdot 10^{-3} \text{ rad}.$$

Burovchi moment va buralish burchaging epyurasini chizamiz:



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Д.А.Закирова. Испытательное устройство кручения. Научный журнал №3.(94),2023 Учёный XXI века <https://scipubplatform.online/index.php/uch21vek/issue/view/31/31>.
2. 9.D.A.Zakirova To'gri balkaning deformatsiyalanishi. Научный журнал №3.(94),2023 Учёный XXI века <https://scipubplatform.online/index.php/uch21vek/issue/view/31/31>.
3. Nabiev. A. Xasanov. S. Materiallar karshiligi Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T. Fan texnologiyasi.2005-380b.
4. Matkarimov.P.X. Materiallar karshiligi. T..O'qituvchi ,2004.-354

## TEXNIK OLIY TA'LIMDA UMUMKASBIY VA IXTISOSLIK FANLARI INTEGRATSIYASI MASALALARI

**Saidjonova Parvina Shuxratovna**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada oliy ta'limni modernizatsiyalash jarayonida umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlash masalalari, integratsiyalash asoslariga ta'sir etuvchi omillar, bu masalaning pedagogik, psixologik va falsafiy jihatlarini haqida fikr yuritilgan, respublikamiz va xorijlik olimlarning ta'lim integratsiyasiga oid fikrlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *oliy ta'lim, ta'sir etuvchi omil, falsafa, psixologiya, pedagogika, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari, integratsiya asoslari, integratsiya darajalari, integrativ yondashuv.*

Mamlakatimizda ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish, yoshlarning dunyoqarashini o'zgartirish, etuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari hamkorligini ta'minlash, ta'limni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda fan, ta'lim va ishlab chiqarish uzviyligi va integratsiyasini ta'minlash, dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda zamon talablari bilan chambarchas bog'lash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ta'lim sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim xizmatlarining mavjudligi va samaradorligini oshirish" va "zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng ko'lamda yo'lga qo'yish" kabi ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda ta'lim oluvchilarda yaxlit va tizimli integrativ bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va baholash muhim o'rin tutadi, - deya e'tirof etilgan.

Ayniqsa, texnik oliy ta'lim oldida, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni modernizatsiyalashning muhim vazifalaridan biri sifatida qator masalalarni isloh qilish, yuqori malakali muhandislarni texnik-texnologik va integrativ yondashuv vositasida tarbiyalash, xorijiy tajribalarni va sohaning so'nggi yutuqlarini o'rganish, qo'llash hamda takomillashtirishga hissa qo'shish kabi dolzarb va keng qamrovli muammolar echimi turibdi. Bu vazifalar ta'lim va ishlab chiqarish faoliyatining barcha sohalarida maqsadga muvofiqlik mezonlarini, ayniqsa, yangi g'oyalarni tashuvchilar va ularning kelajakdagi ijrochilarini shakllantiradigan "ta'lim-innovatsiya" muhitini yaratish, ishlab chiqarish jarayonida innovatsion va nostandart echimlarni topa oladigan muhandislarni tayyorlash orqali hal qilinadi.

Ma'lumki, iqtisodiy qayta qurish sharoitlarida mehnat bozorida ma'lum kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyoj doimo o'zgarib turadi. Kasbiy ta'limda mutaxassislarning tayyorgarlik darajasi bu o'zgarishlarga tezda moslashuvchan

bo‘lishini taqozo etadi. Bu yoshlarning mehnat bozoridagi kasbiy harakatchanligini va yangilanayotgan ishlab chiqarish sharoitlarida tezda moslashuvini ta‘minlaydi.

Jumladan, texnik oliy ta‘limda umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta‘minlash asosida ta‘lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi metodikalarni yaratish va ta‘lim jarayoniga joriy etish o‘quv faoliyatini kafolatlangan natijalarga olib kelishi mumkin.

Integratsiya masalasi globallashgan jamiyat sharoitida ta‘limning rivojlanishida muhim omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Ijtimoiy muassasa sifatida ta‘limni zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda rivojlantirish va ularning negizida innovatsion ta‘limni shakllantirish muhim masaladir. Shu nuqtai nazardan, har bir oliy ta‘lim muassasasi oldidagi dolzarb vazifa – o‘quv jarayonining shakllarini aniqlash, o‘ziga xos ta‘lim mazmunini belgilash va eng muhimi, ularni ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashuvida kelajak mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga joriy etishdir.

Rossiyalik psixolog V.A.Mazilovning fikricha, integratsiya hozirgi kunda eng ko‘p qirrali va murakkab vazifalardan hisoblanadi. Integratsiyani ta‘minlash jarayonini fan yuzasidan to‘plangan bilimlar asosida psixologiyaning alohida tarmoqlari darajasida ko‘rib chiqish lozim. Integratsiya har bir fanning metodologik, nazariy, amaliy muammolari echimi vositalaridan biri bo‘lib, shu jihatlari bilan integratsiya - psixologiyaning muhim strategik masalasi sifatida yuzaga chiqadi. Fanlarning o‘zaro aloqadorligi va sinflanishi masalalari bilan esa azaldan falsafa fani shug‘ullanib kelgan.

Bu borada Platondan Aristotelgacha turli faylasuflarning qarashlari mavjud. Integratsiyaning falsafiy va psixologik jihatlarini anglamasdan turib, u bilan bog‘liq muammolarni hal etish qiyin. Zamonaviy psixologiya aslida fiziologiya bilan bog‘liq. U ichki reallik, ya‘ni faqat insonning ichki dunyosi bilan bog‘liq bo‘lmasdan, uning tashqi tabiati va hissiyoti, jamiyatdagi shart-sharoit va qonuniyatlar bilan bog‘liqdir. Demak, har qanday yaxlit jarayonning ichki dunyosini o‘rgainshda uning quyidagi komponentlarini e‘tiborga olish lozim [3; 21-23-b.]:

- ✚ motivatsiya;
- ✚ emotsiya (hissiyot)lar va his qilish (kechinmalar);
- ✚ iroda;
- ✚ psixikaninig mazmuni.

Integratsiya ichki tuzilishga ko‘ra uning o‘rni va o‘zaro bog‘liqligini namoyon etadi, manzarasi va rivojlanish dinamikasini ko‘rsatadi. Buning natijasida yaxlit ichki dunyo shakllanadi, motivatsiya, hissiyot, his qilishni o‘rganish asosida xulq-atvor, munosabatning barqaror shakllari namoyon bo‘ladigan shaxsiy fazilatlarining shakllanish jarayoni ochib beriladi, yuqorida ko‘rsatilgan shaxsiy fazilatlar asosida insonning ichki dunyosi dinamikasi, inson hayotining ichki haqiqatini ochib berish mumkin.

Demak, integratsiya yangi bilimlar va mahoratni egallashning chuqurligi va to‘liqligi, mavjud bo‘lgan bilimlar va mahorat bilan naqadar mustahkam va ko‘p tomonlama aloqadorligi bilan bog‘liqdir. Integratsiya – ta‘lim-tarbiya jarayonini muayyan ketma-ketlik asosida tashkil etilishini ifodalovchi muhim sifat bo‘lib, u

ma'lum bosqichda avvalgi bosqich o'quv faoliyati mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishini, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ta'minlaydi [2; 71–76 b.].

Tadqiqotchilar fan va ta'limdagi yangiliklarni o'zlashtirish jarayonida quyidagi talablarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydilar:

– jarayonlarning o'zaro bog'liqligi – tizimlilik, ya'ni oliy ta'lim tizimi turlari va bosqichlari uzviyligi, integratsiyasi;

– fanlar bloklari orasidagi integratsiya – umumkasbiy va ixtisoslik blok fanlarining o'zaro integratsiya jarayonlari;

– fanlar bloklari ichidagi integratsiya, ya'ni ta'lim jarayonida fanlar mazmuni, ta'lim metodi, texnologiyasi va o'qitish vositalarining o'zaro bog'liqligi [2; 24-25 b.].

Integratsiyalash asoslariga ta'sir etuvchi bir qancha quyidagi asosiy omillar mavjud:

- fanlar rivojlanishining obyektiv qonuniyatlari;
- ilm-fan taraqqiyotini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini belgilash;
- Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari;
- ta'lim vazifalari;
- bilimlar sintezi;
- ta'lim jarayoni va mazmuni birligi;
- o'quv reja va dasturlarining bir-birini o'zaro belgilashi;
- moddiy texnik baza;
- pedagogik va axborot texnologiyalari [1; 84-b.].

Integratsiya – o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir. SHunday ekan, integratsiya jarayonlari tizim butunlik darajasini va tashkil etilganlik darajasini ko'rsatadi. Integratsiya jarayonlari oldin bog'lanmagan elementlarni biriktirish asosini hamda shakllangan tizimlarda ham yuz berib, natijada tizimni bir butunligi va tashkillanish darajasi oshishiga, element va tarkibiy qismlar o'rtasida aloqadorlikka olib keladi. Bir butunlikka birikkan tarkibiy qismlar turli xil darajada avtonomlikka ega bo'ladi.

Agar insoniyat rivojlanishidagi gumanitar, tabiiy va ilmiy-texnikaviy fanlarning ahamiyatiga nazar tashlasak, ular sub'ektiv tajriba va fan o'rtasidagi bog'lovchi ko'prik ekanligini ko'rish mumkin. Albatta, psixologiya kabi fanlar ko'prik emas, balki ustuvor ahamiyatga egadir, chunki psixologiya nafaqat hayotni ta'minlovchi omil bo'lgan va shunday bo'lib qoladi, u barcha sohalardagi asosiy yutuqlar manbai bo'lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yensh E.R. Zur Eidetik und Integration Typologie, 1941.// Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar / red.-sost. E. F. Gubskiy i dr., 2003. – 128 str.
2. Lixachev B.T. Философия воспитания. - М.: Prometei, 1995. - 282 s.
3. Mazilov V.A. Integratsiya a psixologii: metodologicheskie aspekty. Pedagogika. Psixologiya. Sotsiokinetika // Vestnik KGU. 2018. – № 2. – Str. 21-24.



4. Nazarov Q.N., To‘ychiev B.T., Xaydarov X., O‘tamurodov A., To‘xtarov I., To‘rayev Sh. Ijtimoiy falsafa. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2008. – 235 b.

## **TEXNIK OLIY TA’LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA PRINSIPLARINING MOHIYATI**

**Tursunova Gulbahor Sharofovna**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Tikuvchilik sanoatida innovatsion texnologiyalar kafedrasi dotsenti, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq etish qonuniyatlari, pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish mazmuni, shakllari, yo‘llariga qo‘yiladigan asosiy talablar hamda texnik oliy ta’limda pedagogik texnologiya prinsiplarining mohiyati haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya, jarayon, qonuniyatlar, texnologiyalar, talablar, oliy ta’lim, prinsip

Pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi yosh avlodni ijtimoiy hayot, tabiat, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlari bilan tanishtirish bilan birga ularni turmushga, mehnatga tayyorlashdan iborat bu maqsadni amalga oshirish notexnologik yoxud texnologik amallar yordamida tadbiiq qilinadi. Notexnologik jarayonga nisbatan, texnologik jarayon tez, aniq, ishonchli o‘tadi. Uning nazariy asosini amaliyotda qo‘llashning qay darajada mukammalligini aniqlash maqsadida jarayoni nazorat qilinadi va baholanadi.

Jumladan, pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq etish ma’lum qonuniyatlar, qoidalarga asoslanadi. Bu asoslar, qoidalar pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish mazmuni, shakllari, yo‘llariga qo‘yiladigan asosiy talablarni anglatadi. Boshqacha aytganda, ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etishning prinsiplari yoxud pedagogik texnologiyalar prinsiplari deb ataladi.

Pedagog olimlar N.Sayidaxmedov, M.Ochilovlarning tadqiqotlarining nazariy xulosalariga asoslanib, pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti quyidagi prinsiplarga asoslanadi deb e’tirof etish mumkin:

$$\begin{aligned} \int_{x_{2i-2}}^{x_{2i}} f(x) dx &\approx \int_{x_{2i-2}}^{x_{2i}} [A(x - x_{2i-1})^2 + B(x - x_{2i-1}) + C] dx = \\ &= \left[ \frac{A}{3} (x - x_{2i-1})^3 + \frac{B}{2} (x - x_{2i-1})^2 + C(x - x_{2i-1}) \right] \Big|_{x_{2i-2}}^{x_{2i}} = \\ &= \frac{2A}{3} h^3 + 2Ch = \frac{y_{2i-2} - 2y_{2i-1} + y_{2i}}{3} h + 2y_{2i-1} h = \\ &= \frac{h}{3} (y_{2i-2} + 4y_{2i-1} + y_{2i}). \end{aligned}$$

Nihoyat, bu ishni barcha  $[x_{2i-2}; x_{2i}]$  ( $i = \overline{1; m}$ ) oraliqlar uchun bajarib,

$$\int_a^b f(x) dx = \sum_{i=1}^m \int_{x_{2i-2}}^{x_{2i}} f(x) dx \approx \frac{h}{3} \sum_{i=1}^m (y_{2i-2} + 4y_{2i-1} + y_{2i}) = \frac{h}{3} \left[ y_0 + y_{2m} + 4 \sum_{i=1}^m y_{2i-1} + 2 \sum_{i=1}^{m-1} y_{2i} \right]$$

ya`ni

$$\int_a^b f(x) dx \approx \frac{h}{3} \left( y_0 + y_{2m} + 4 \sum_{i=1}^m y_{2i-1} + 2 \sum_{i=1}^{m-1} y_{2i} \right) \quad (7)$$

ga ega bo`lamiz. (7) simpson (parabolalar) formulasi deb yuritiladi.

### Adabiyot:

1. SH.I. Tojiyev. Oliy matematikadan masalalar yechish. T., "O`zbekiston", 2002 y
2. A.G. Kurosh. Kurs visshey algeabri. M. «Nauka». 1971 g.
3. M.J.Mamajonov, A.Abdurazoqov va boshqalar. Oliy matematikadan ma`ruzalar to`plami. FarPi., 2008 y

## QUVURLARNING GIDRAVLIK HISOBLARI

**N.SH.Ergasheva, D.U.Barakaev, F.J.Tolipboyev**

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti*

Gidravlik hisoblash vaqtida trubalarning uzunligi yoki hisoblashning gidravlik shartlariga qarab, ular ikki turga bo`linadi: uzun va qisqa turbalar.

Uncha uzun bo`lmagan va mahalliy qarshiliklari sezilarli bo`lib, umumiy

qarshilikning kamida 5 – 10% ni tashkil etadigan trubalar *qisqa trubalar* deb ataladi. Bularga misol qilib, nasoslarning soʻrsh trubasini, benzobakdan karbyuratorga benzin oʻtkazuvchi trubani avtotraktor va boshqa qurilmalar dvigatelarining moy oʻtkazuvshi trubalarini, gidrouzatmalardagi tutashtiruvchi trubalar va hokazolarni keltirish mumkin.

Ancha uzoq masofaga choʻzilgan va gidravlik qarshiliklarda majmuida asosiy qismni ishqalanish qarshiligi tashkil qilgan trubalar uzun trubalar deb ataladi. Bunday trubalarda mahalliy qarshiliklar alohida hisoblanmaydi va ishqalanish qarshiligining 5 – 10% iga teng deb qabul qilinadi. Bularga vodoprovod trubalari, neft va gazlarni tarqatuvchi trubalar va boshqalar misol boʻladi.

Trubalar ishlash sxemasiga qarab ikki turga boʻlinadi *sodda trubalar*. Sodda trubalar hesh qanday tarmoqlarga ega boʻlmagan trubalardir. Murakkab trubalar esa bir necha tarmoqlarga ega boʻlgan trubalardir. Bundan tashqari, trubalar tupik va yopiq trubalarga ajraladi. Bir yoʻnalishda suyuqlik oqadigan trubalar tupik trubalar deyiladi. Suyuqlikning biror yerga ikki va undan ortiq yoʻnalish boʻyicha berish mumkin boʻlgan trubalar yopiq trubalar deyiladi. Yopiq trubalar ishonchli boʻlib, uning ayrim qismlari buzilib, tamirlash davomida ham suv taʼminoti toʻxtamaydi.

### Sodda trubani hisoblashning asosiy tenglamasi

Trubalarni xisoblashda biz yuqorida keltirilgan ishqalanish va mahalliy qarshiliklar uchun chiqarilgan formulalardan foydalanamiz. Shuning uchun biz suyuqlik trubada qaysi tartibda oqishini ham bilishimiz kerak.

Avvalo oʻzgarmas diametrli sodda truba olamiz. Bunday truba ketma - ket joylashgan bir qancha toʻgʻri truba boʻlaklaridan tashkil topgan deb qarash mumkin. Bularda bosimning pasayishini barcha qarshiliklarning ygʻindisi koʻrinishida hisoblaymiz

$$H = H_{l_1} + H_{M_1} + H_{l_2} + H_{M_2} + \dots + H_{l_n} + H_{M_n}.$$

Yuqorida keltirilgan formuladan foydalanib quyidagi

$$H = \lambda \frac{l_1}{D} \frac{v^2}{2g} + \zeta_1 \frac{v^2}{2g} + \lambda \frac{l_2}{D} \frac{v^2}{2g} + \zeta_2 \frac{v^2}{2g} + \dots + \lambda \frac{l_n}{D} \frac{v^2}{2g} + \zeta_n \frac{v^2}{2g}.$$

munosabatni chiqaramiz. Bu formula boʻyicha bosimning pasayishini hisoblash murakkab va koʻp vaqtni oladi, chunki truba juda koʻp boʻlaklarga ajratilgan boʻlishi mumkin. Oxirgi munosabatda tezlikni sarf orqali ifodalab  $\left( v = \frac{4Q}{\pi D^2} \right)$  va oʻhshash hadlarni gruppallab, quyidagini olamiz:

$$H = (l_1 + l_2 + \dots + l_n) \frac{\lambda}{D} \frac{v^2}{2g} + (\zeta_1 + \zeta_2 + \dots + \zeta_n) \frac{v^2}{2g} = \lambda \frac{\sum l_i}{D} \frac{v^2}{2g} +$$

$$\sum \zeta_i \frac{v^2}{2g} + \frac{8\lambda}{g\pi^2 D^5} \sum l_i Q^2 + \frac{8}{g\pi^2 D^4} \sum \zeta_i Q^2$$

Yoki 
$$H = \left( \frac{8\lambda}{g\pi^2 D^5} \sum l + \frac{8}{g\pi^2 D^4} \sum \zeta_i \right) Q^2.$$

Qavs ichidagi miqdorni  $a$  bilan belgilasak, u holda

$$H = aQ^2.$$

O'lchov birligi  $s^2/m^5$  bo'lgan  $a$  miqdor trubaning qarshiligi deb ataladi va

$$\alpha = \frac{8\lambda}{g\pi^2 D^5} \sum l_i + \frac{8}{g\pi^2 D^4} \sum \zeta_i$$

bo'ladi.  $\alpha$  miqdor trubaning uzunligi, diametri, mahalliy qarshiliklar koefitsientlariga bog'liq bo'lib, kvadrat qarshilik sohasida o'zgarmas bo'ladi.

$$\frac{8\lambda}{g\pi^2 D^5} = A_e \frac{c^2}{m^6}$$

ko'rinishda, ikkinchi hadning yig'indi oldidagi miqdorni

$$\frac{8\lambda}{g\pi^2 D^4} = A_m \frac{c^2}{m^5}$$

ko'rinishda belgilaymiz va ularni o'zaro quyidagicha aytamiz  $A_l$  – solishtirma ishqalanish qarshiligi (ya'ni 1 m trubaning ishqalanish qarshiligi) va  $A_m$  – solishtirma mahalliy qarshilik (trubaning shakli o'zgaragan qismining  $\zeta = 1$  bo'lgandagi qarshiligi).

U holda 
$$\alpha = A_e \sum l_i + A_m \sum \zeta_i$$

Bu yerda  $A_l$  va  $A_m$  – umumlashgan parametrlar bo'lib, truboprovodlarni hisoblashda mahsus jadvallardan olinadi.

Bazi umumlashgan parametrlar bir oz boshqacharoq ko'rinishda olinadi. Bu holda mahalliy qarshilikni ekvivalent uzunlik bilan almashtirsak

$$H = \lambda \frac{l + l_{ekv}}{D} \frac{v^2}{2g} = \frac{8\lambda}{g\pi^2 D^5} (l + l_{ekv}) Q^2$$

hosil bo'ladi. Oxirgi tenglikka

$$A = \sqrt{\frac{g\pi^2 D^5}{8\lambda}}$$

belgilashni kiritamiz va uni trubaning sarf xarakteristikasi deb ataymiz. U holda

$$H = \frac{l + l_{ekv}}{A^2} Q^2$$

Bu belgilashdan ko'rinish turibdiki

$$A^2 = \frac{1}{A_e}$$

$A^2$  ning turli hollardagi miqdori ham  $A_l$  va  $A_m$  kabi jadvallardan olinadi.

Yuqorida ko'rganimizdek  $\frac{H}{l} = J$  ekanligini hisobga olsak, B.A. Baxmetov

formulasini olamiz

$$Q = A\sqrt{J}$$

Uzun trubalar uchun bosimning pasayishi osonroq hisoblanadi va ushbu ko'rinishda yoziladi:

$$H = A_e L Q^2 \text{ yoki } H = \frac{1}{A^2} Q^2.$$

Ko'p hollarda trubalarni hisoblash formulasi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$Q = K\sqrt{H}$$

va  $K$  ni sarf koefitsienti deb ataladi.

Yuqoridagilar bilan solishtirsak, sarf koefitsiyenti uchun ushbu munosabatni olamiz:

$$K = \frac{A}{\sqrt{l + l_{ekv}}}$$



bu holda  $\frac{1}{K^2} = \alpha$  bo`ladi. Suyuqlik kvadratik qonunga bo`ysunganda  $\lambda$  va  $\zeta$  Rey-nolds soniga bog`liq bo`lmagani uchun yuqorida aytganimizdek  $K^2$  va  $A_v$  lar uchun trubaning diametri va g`adir-budirligiga qarab jadval ko`rinishida ifodalanadi,  $A_m$  esa bu jadvalda faqat diametrga bog`liq. Laminar soha uchun yuqoridagi formulalardagi trubaning qarshiligi  $\alpha$  va qarshilik koeffitsiyenti  $K$  formula yordamida hisoblab topiladi. Bunda  $\lambda$  Puazeyl formulasi bo`yicha hisoblanadi:

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:

1. E.A. Tursunova, A.A. Mukolyans “Suyuqlik va gaz mexanikasi” O`quv qullanma. ToshDTU.; 2014.
2. A.A. Karimov, A.A. Shokirov, A.A. Mukolyans “Gidravlika asoslari, naoslar va kompressorlar” O`quv qullanma. NOSHIR.; T. 2013.

## TRUBANING TEJAMLI DIAMETRINI TOPISH HAQIDA TUSHUNCHA

**O.O.Yuldosheva, N.S.Mustafoyev, S.T.Musayev**

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti*

Trubalar sistemasini loyixalashda berilgan uzunlikdagi trubadan suyuqlikni oqizib, berilgan sarfni olish uchun kerak bo`lgan bosimni hisoblash masalasi muhim o`rin tutadi. Trubaning asosiy tenglamasidan ko`rinadiki, berilgan uzunlik va sarfga diametr ortishi bilan qarshilik koeffitsiyenti kamayib boradi, demak, shu sarfni ta`minlovchi bosim ham kamayadi. Bu o`z navbatida suvni trubadan oqizish uchun sarf bo`ladigan energiyaning kamayishiga olib keladi, ya`ni suyuqlikni trubadan haydovchi nasos kamroq elektroenergiyasi sarflaydi. Ikkinchidan, truba diametrining ortishi unga sarf bo`ladigan kapital mablag`ning ortishiga olib keladi (diametri katta trubaga ko`proq metal sarf bo`ladi).

Bu masala xususiy holda shunday hal qilinadi: trubalarning standart diametrlarini hisobga olgan holda diametrning turli variantlari uchun butun sistemaning (uning o`z xarajatini o`zi qoplashini vaqtini nazarga olib) bir yillik qiymati (amortizatsiyaga bo`ladigan xarajat)  $A$  hisoblanadi. So`ngra truba diametrining har bir varianti uchun uni foydalanishiga sarf bo`lgan xarajat  $M$  ni hisoblab chiqiladi, bunga elektr energiya, odamlarni ishlatish, doimiy xarajatlar va hokozalar kiradi. Trubaning yillik xarajati  $M$  amortizatsiya  $A$  ekspluatatsiya  $E$  xarajatlarning yig`indisiga teng. Trubaning yillik xarajatining minimal qiymatiga to`g`ri kelgan diametri eng tejamli diametr  $D_{op}$  bo`ladi.

Trubaning diametri  $D$  topilgandan keyin,  $Q$  va  $l$  ma`lum bo`lgan holda bosimni topish qiyin emas. Yuqorida ko`rsatilgan usul juda murakkab va qiyin bo`lgani uchun undan odatda katta va murakkab truba sistemalarini loyihalashda foydalaniladi. Odatdagi hisoblashlarda ko`rilayotgan trubaga o`xshash trubalar uchun juda ko`p texnika-iqtisodiy hisoblar davomida aniqlangan optimal tezlik  $v_{opt}$  yoki optimal qiymatlik  $l_{opt}$  ning qiymatini berish yo`li bilan aniqlanadi. Suyuqlikning sarfni  $Q$  va  $v$  ma`lum bo`lgan holda diametirni topish qiyin emas.

$$Q = v_{opt} \frac{\pi D^2}{4}$$

$$D = \sqrt{\frac{4Q}{\pi v_{opt}}}$$

Bundan

**Sifon truba.**

Havoni nasoslar yoki ejetorlar yordamida so`rib olish mumkin. Sifonlarni hisoblash boshqa trubalarni hisoblashdan farq qilmaydi. Masalan, sifonning ikkita kesmi uchun Bernuli tenglamasini yoziladi. Bu kesmalar 0-0 va 2-2 bo`lsa, u holda

$$z_1 + \frac{p_0}{\gamma} + \frac{v_0^2}{2g} = z_2 + \frac{p_2}{\gamma} + \frac{v_2^2}{2g} + h_{0-2}$$

bo`ladi.  $p_0 = p_2 = p$  atm, va  $v_1 = v_2 = 0$  deb hisoblasak, bu tenglama quyidagicha yoziladi:

$$z_1 = z_2 + h_{0-2}$$

yoki  $z_1 - z_2 = H$  ekanligini nazarga olib,  $h_{0-2}$  qarshilikni hisoblash uchun esa ishqalanish va mahalliy qarshiliklar formulasidan foydalanib, oxirgi tenglamani ushbu ko`rinishga keltiramiz:

$$H = \alpha Q^2$$

Shunday qilib, sifonlarda sarf oddiy trubalardagidek qarshilik va sathlar farqi orqali aniqlanadi. Uning ko`tarilishi balandligi  $H_0$  esa sarfga ta'sir qilmaydi. Lekin bu qonun  $H_0$  ning ma'lum chegarasigacha bo`ladi.  $H_0$  ning ortib borishi bilan sifonning yuqoridagi 1-1 kesimida absolyut bosim  $p_1$  kamayib boradi. Bu bosim to`yingan bug` bosimiga tenglashishi bilan kavitasiya boshlanadi. Bu avval sarfning kamayishiga so`ngra, bug`larning to`planishiga (bug` tiqini hosil bo`lishiga) va suyuqlik oqimining to`xtashiga olib keladi. Shuning uchun sifonlarni hisoblashda va qurishda uning yuqori nuqtasidagi bosim  $p_1$  juda kamayib ketmasligini nazarda tutish kerak. Agar sifonning sarfi, uning o`lchamlari ma'lum bo`lsa, absolyut bosim  $p_1$  ni hisoblash mumkin. Buning uchun 0-0 va 1-1 kesimlar uchun Bernuli tenglamasini yozamiz:

$$\frac{p_1}{\gamma} + \frac{v_0^2}{2g} = H_1 + \frac{p_1}{\gamma} + \frac{v_1^2}{2g} + h_{0-1}$$

Agar tezliklar kichikligi uchun ularni nolga tenglasak:

$$\frac{p_1}{\gamma} = \frac{p_0}{\gamma} - H_1 - h_{0-1}$$

bo`ladi. Bosimning mumkin bo`lgan minimum qiymati ma'lum bo`lsa,  $p_1$  ni unga tenglashtirib oxirgi tenglamadan  $H_1$  ni oshirish uchun yana bir usulni qo`llash mumkin. Buning uchun sifonning pastga ketgan uchida mahalliy qarshiliklar (eshikcha va h.) yordamida umumiy qarshilikni oshirish kerak. Bu holda albatta sarf kamayadi.

**Parallel ulash.** Endi bir qancha parallel ulangan sodda trubalardan tashkil topgan murakkab trubani ko`ramiz. Sodda trubalarning sarflari  $Q_1, Q_2, Q_3, \dots, Q_n$ , qarshiliklari  $a_1, a_2, a_3, \dots, a_n$  bo`lsin. Umumiy sxemadan ko`rinib turibdiki, murakkab trubaning sarfi sodda trubalar sarflarining yig`indisiga teng.

$$Q = Q_1 + Q_2 + Q_3 + \dots + Q_n = \sum Q_n.$$

Har bir sodda trubadagi bosimning kamayishi ham, murakkab trubadagi bosimning kamayishi ham  $A$  va  $B$  nuqtalardagi to`la bosimlarning ayirmasiga teng:

$$H_A - H_B = H_1 = H_2 = H_3 = \dots = H_n = H.$$

### **Tarmoqlarga bo`lingan trubaning xarakteristikasi.**

Truboprovod sistemasi bir qancha qismlardan iborat bo`lib, ular ketma-ket va parallel ulangan trubalardan tashkil topgan bo`lsa, u holda bu qisimlarning har biriga ketma-ket va parallel ulash qoidalarini qo`llab, xarakteristikalarni yoki tenglamalarni tuzib olamiz. So`ngra bu qisimlarning har birini ayrim truba sifatida qarab va parallel yoki ketma-ket ulash qoidasidan foydalanib sistema uchun xarakteristika yoki tenglama tuzamiz. Bu qoidaga asosan har qanday murakkab trubalar sistemasini hisoblash mumkin.

### **Nasosdan ta'minlanuvchi truba**

Yuqorida biz turli usulda ulangan trubalar sistemasini ko`rdik, biroq ularning suv bilan ta'minlanishi qanday amalga oshirilishi haqida to`xtalib o`tmadik. Bunday hol balandlikka o`rnatilgan katta idishdan ta'minlanuvchi trubalar sistemasi uchun yoki nasosdan ta'minlanuvchi sistemalarning qismlari uchun o`rinli. Sanoat va qishloq xo`jaligida trubalarni nasos orqali ta'minlash hollari ko`p uchrab turadi. Bu holda trubalar sistemasidagi bosim ustiga nasos hosil qilgan bosimni ham qo`shish kerak bo`ladi. Shu maqsadda nasosdan ta'minlanuvchi sodda trubalarni ko`ramiz.

Nasos pastki idishdan  $p_0$  bosimli suyuqlikni so`rib, yuqoridagi  $p_1$  bosimli idishga chiqarib bersin. Nasos o`qining pastki sathdan balandligi  $H_1$  geometrik so`rish balandligi deyiladi va bu balandlikkacha suyuqlik harakat qilayotgan truba so`rish trubasi deyiladi. Suyuqlikning yuqori sathining balandligi  $H_2$  zo`riqish geometrik balandligi deyiladi va suyuqlikni bu balandlikka ko`tarishda qatnashuvchi truba haydash (magnetatelnaya ili napornaya) trubasi deyiladi.

So`rish trubasi uchun ( $0 - 0$  va  $1 - 1$  kesimlar uchun ) Bernulli tenglamasini yozamiz:

$$\frac{p_0}{\gamma} = H_1 + \frac{p_1}{\gamma} + \frac{\alpha_1 v_1^2}{2g} + h_{0-1}$$

Bu tenglamadan ko`rinadiki, nasosning suyuqlikni  $H_1$  balandlikda ko`tarish, unga kinetik energiya berishi va gidravlik qarshiliklarni yengishi birinchi idishdagi  $p_0$  bosimdan foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Shuning uchun bu bosimdan shunday foydalanish kerakki, nasosga kirish oldidan suyuqlikda kavitasiya hodisasini vujudga keltirmaydigan darajadagi chegirma bosim ( $p_1$ ) saqlanib qolsin.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

3. A.A. SHokirov, A.A. Karimov. “*Ixcham gidravlika*” O`quv qullanma. T.; 2010.
4. Q.SH. Latipov. “*Gidravlika, gidromashinalar va gidropnevmo-yurit-gichlar*”. Darslik. T.;1994.
5. Q.SH. Latipov. “*Gidravlika va gidroyuritmalar*”. Darslik. - T., 1992.

## **STATIK MOMENT OG`IRLIK MARKAZI.**

**N.SH.Ergasheva, M.A.Ruziyeva, B.J.Shamsiddinov**

*Buxoro muhandislik texnologiya instituti*

Aytaylik,  $n$  ta  $A_1, A_2, \dots, A_n$  moddiy nuqtalarning qandaydir sistemasi berilgan bo`lib, ularning massalari mos ravishda  $m_1, m_2, \dots, m_n$  bo`lsin. Bu  $A_i(x_i; y_i)$  ( $i=1, 2, \dots, n$ ) har bir nuqtadan koordinat o`qlarigacha bo`lgan masofalarining uning massasiga ko`paytmasi

$$x_i m_i, y_i m_i, \quad i=1, 2, \dots, n \quad (*)$$

$m_i$  massaning mos ravishda Oy va Ox o`qlariga nisbatan *statik momentlari* deyiladi.

Agar bu moddiy nuqtalarning barchasi bitta tekislikka joylashgan bo`lsa, bu tekislikda kiritilgan Dekart koordinatalar sistemasida  $A_i(x_i; y_i)$  ( $i=1, 2, \dots, n$ ) bo`lib, bu sistemasining mos ravishda Ox va Oy o`qlariga nisbatan *statik momentlari*

$$M_x = \sum_{i=1}^n m_i y_i, \quad M_y = \sum_{i=1}^n m_i x_i \quad (**)$$

bo`ladi.

(\*) va (\*\*) formulalardan geometrik figura va jismlarning momentlari va og`irlik markazlarini koordinatalarini topish uchun foydalanamiz.

Bu moddiy nuqtalar sistemasining og`irlik markazini  $C(x, y)$  desak, mexanikadan ma`lum

$$x_{ii} = \frac{\sum_{i=1}^n m_i x_i}{\sum_{i=1}^n m_i} = \frac{M_y}{M}, \quad y_{ii} = \frac{\sum_{i=1}^n m_i y_i}{\sum_{i=1}^n m_i} = \frac{M_x}{M} \quad (1)$$

formulalar o`rinlidir.

Agar yassiy sistema Ox va Oy o`qlariga nisbatan simmetrik bo`lsa, unung *statik momentlari* no`lga teng bo`ladi.

Agar tekis egri chiziq yoki tekis shakl qaralayotgan bo`lsa, (1) formulalar yaroqsizdir.

**a) Tekis egri chiziqning og`irlik markazi.** Faraz qilaylik, tekis to`g`rilanuvchi AB yoy (19-rasmga qarang), o`zining

$$x=x(t), \quad y=y(t), \quad t \in [0, T] \quad (2)$$

parametrik tenglamalari bilan berilgan bo`lib, parametr  $s$  sifatida A nuqtasidan boshlab hisoblangan qaralayotgan  $C(x; y)$  nuqtasigacha bo`lgan yoy bo`lagining uzunligi undan tashqari, bu nuqtadagi yoy zichligi  $\rho(t)$  dan iborat deb qabul qilingan bo`lsin. Agar AB yoy uzunligini  $S$  bilan belgilasak,  $t \in [0; T]$  bo`lishi ravshandir.  $[0; T]$  kesmani (ya`ni AB yoyni) ixtiyoriy tanlangan

$$0=t_0 < t_1 < \dots < t_{i-1} < t_i < \dots < t_{n-1} < t_n = T$$

tugun nuqtalari yordamida,  $n$  ta bo`laklarga ajratamiz va  $i$  - bo`lakdan AB yoyda  $A_i(x(t_i); y(t_i))$ , bu yerda  $t_i \in [t_{i-1}; t_i]$ , nuqtani olib, bu bo`lakcha birjinsli va uning zichligi  $\rho(t_i)$  ga teng hamda uning massasi  $A_i$  ( $i = \overline{1; n}$ ) nuqtada mujassamlangan deb faraz qilamiz. Bu vaqtda AB yoyni taqriban  $n$  ta massasi  $m_i = \rho(t_i) \Delta t_i$  bo`lgan

$A_i$  ( $i = \overline{1, n}$ ) moddiy nuqtalar sistemasi bilan almashtirsak, bu sistemaning og'irlik markazi  $(\bar{x}; \bar{y})$  uchun (28) formula asosida

$$\bar{x} = \frac{\sum_{i=1}^n x(t'_i) \rho(t'_i) \Delta l_i}{\sum_{i=1}^n \rho(t'_i) \Delta l_i}, \quad \bar{y} = \frac{\sum_{i=1}^n y(t'_i) \rho(t'_i) \Delta l_i}{\sum_{i=1}^n \rho(t'_i) \Delta l_i}$$

ni olamiz.

Endi  $AB$  yoy og'irlik markazi sifatida  $\max \Delta s_i \rightarrow 0$  dagi  $(\bar{x}; \bar{y}) \rightarrow (x, y)$  nuqtani qabul qilsak (bunday chekli limit mavjud va u oraliqni bo'lish usuliga hamda  $i$ -oraliqdan olingan  $t'_i$  ning o'rniga bog'liq emas degan faraz asosida),

$$x = \frac{\int_0^T x(t) \rho(t) dl}{\int_0^T \rho(t) dl}, \quad y = \frac{\int_0^T y(t) \rho(t) dl}{\int_0^T \rho(t) dt}$$

ga ega bo'lamiz.

Maxrajdagi integral  $AB$  yoyning massasi ekanligidan, oxirgilardan

$$m = \int_0^T \rho(t) dl, \quad x = \frac{1}{m} \int_0^T x(t) \rho(t) dl, \quad y = \frac{1}{m} \int_0^T y(t) \rho(t) dl, \quad (3)$$

formulalarga kelamiz.

$$L = \int_a^x \sqrt{1 + (f'(\xi))^2} d\xi, \quad 0 \leq x \leq b,$$

$$dl = \sqrt{1 + (f'(x))^2} dx$$

bo'lib, (31) dan

$$L = \int_a^b \sqrt{1 + (f'(x))^2} dx,$$

$$x = \frac{1}{L} \int_a^b x \sqrt{1 + (f'(x))^2} dx, \quad y = \frac{1}{L} \int_a^b f(x) \sqrt{1 + (f'(x))^2} dx \quad (4)$$

formulalarni olamiz.

Agar birjinsli tekis  $AB$  yoy u yotgan tekislikdagi biror to'g'ri chiziqqa nisbatan simmetrik joylashgan bo'lsa, uning og'irlik markazi simmetriya o'qida yotishi tabiiydir. Haqiqatdan ham,  $AB$  yotgan tekislikda  $xOy$  Dekart koordinatalar sistemasini kiritib,  $Oy$  o'qni yoyning simmetriya o'qidan iborat qilib olsak va bu yoy  $y=f(x)$  tenglamaga ega bo'lsa, u biror  $[-a; a]$  kesmada juft funksiyadan iborat bo'ladi (21-rasm), agar  $f'(x)$  ham  $[-a; a]$  da uzluksiz deb faraz qilsak,  $x\sqrt{1+(f'(x))^2}$  funk og'irlik markazining absissasi

$$X = \frac{1}{L} \int_{-a}^a x \sqrt{1 + (f'(x))^2} dx = 0$$

bo'ladi (kezi kelganda, simmetrik oraliq bo'yicha toq funksiya integrali nolga tengligini eslatamiz). Bu yoyning og'irlik markazi  $Oy$  o'qida, ya'ni yoyning

simmetriya o`qida yotishini tasdiqlaydi. Bu holdan mexanikada amaliy masalalarni hal qilishda foydalaniladi.

Qutub koordinatalar sistemasida  $\varphi=\varphi_1$ ,  $\varphi=\varphi_2$  nurlar bilan chegaralangan uzluksiz  $p=f(\varphi)$  egri chiziq yoy bo`lagi og`irlik markazining koordinatalari quyidagi formulalar bilan hisoblanadi:

$$x_c = \frac{\int_{\varphi_1}^{\varphi_2} p \cos \varphi \sqrt{p^2 + (p')^2} d\varphi}{\int_{\varphi_1}^{\varphi_2} \sqrt{p^2 + (p')^2} d\varphi}, \quad y_c = \frac{\int_{\varphi_1}^{\varphi_2} p \sin \varphi \sqrt{p^2 + (p')^2} d\varphi}{\int_{\varphi_1}^{\varphi_2} \sqrt{p^2 + (p')^2} d\varphi}$$

Adabiyotlar:

1. T. Jo`rayev va boshqalar. *Oliy matematika asoslari*. T. «O`zbekiston», 1995 y. I,II qism.
2. Y. U. Soatov. *Oliy matematika*. T. «O`qituvchi», 1994 y. I qism.

## ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА КОНЕЧНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ ДЛЯ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧИ МЕХАНИКИ ДЕФОРМИРУЕМОЙ ТВЕРДОГО ТЕЛА

**М.Ш. Ахмедов, М.А. Нарзуллоев, Н.Т. Ботаев**

*Бухарский инженерно -технологический институт*

Наиболее распространенным методом расчета сложных конструкций является метод конечных элементов (МКЭ) [1,2]. Его особенность состоит в том, что конструкция, представляющая собой непрерывную среду, заменяется ее аналогом, составленным, как из кубиков, так и из конечного числа блоков-элементов, поведение каждого из которых может быть определено заранее. Взаимодействие элементов позволяет представить общую картину деформирования системы. Характеристики жесткости каждого из этих элементов определяется заранее. Напряженно-деформированное состояние такой сложной конструкции может быть определено с помощью МКЭ. Достоинство метода в его универсальности: возможности использования элементов различных типов, произвольности рассматриваемой области, простые приемы построения элементов высокой точности. В варианте метода, рассматриваемом ниже- методе перемещений, -при стыковке элементов требование удовлетворения естественных краевых условий необязательно. Этот наиболее известный вариант МКЭ использует формулировку принципа возможных перемещений:  $\delta A = \delta R_1 + \delta R_2 = 0$ .

В матричной форме для трехмерного тела ее можно представить следующим образом:

$$\iiint \{\sigma\}^T \{\delta \varepsilon\} dx dy dz = \iiint \{q\}^T dx dy dz + \iint \{p\}^T \{\delta u\} dS$$

Это же состояние может иметь вид:

$$\iiint \{\sigma\}^T \{\delta \varepsilon\} dx dy dz = \iiint \{\delta u\}^T dx dy dz + \iint \{p\} \{\delta u\}^T dS$$

Векторы объемных, поверхностных сил и перемещений следующее:

$$\begin{aligned} \{q\} &= \{x, y, z\}^T \\ \{p\} &= \{p_x, p_y, p_z\}^T, \{u\} = \{u_1, v_1, w_1\}^T \end{aligned} \quad (1)$$

Условия равновесия (1) не зависят от чего свойств материала и справедливы как для линейной, так и для нелинейной системы. Для линейно упругого тела, имеющего начальные деформации, физические соотношения принимают вид:

$$\{\sigma\} = [D]\{\varepsilon\} - [D]\{\varepsilon_0\}, \quad (2)$$

где  $[D]$ -матрица упругих констант,  $\{\varepsilon_0\}$ -вектор начальных деформаций.

Метод конечных элементов использует процедуры различных вариационных методов. В рассматриваемом варианте метода необходимо задаться полем перемещений, но не по всей области, а лишь в пределах элемента. Перемещения задаются в виде полиномов по степеням  $x, y, z$ :

$$\{u\} = [A]\{\alpha\}, \quad (3)$$

где  $[A]$ -матрица, зависящая от координат элемента,  $\{\alpha\}$ -вектор коэффициентов полиномиального разложения функций перемещений.

Количество коэффициентов соответствует числу степеней свободы элемента, а сами коэффициенты связаны с узловыми перемещениями. Если обозначить вектор узловых перемещений элемента через  $\{u_n\}$ , то поле перемещений определяется зависимостью:

$$\{u\} = [\phi]\{u_n\} \quad (4)$$

Воспользуемся соотношениями между деформациями и перемещениями, тогда получим:

$$\{\varepsilon\} = [B]\{u_n\} \quad (5)$$

Матрица  $[B]$ , связывающая деформации с узловыми перемещениями, имеет важное значение в дальнейшем расчете. Вектор напряжений определяется уравнениями (2), а; учетом (5) он будет иметь вид:

$\{\sigma\} = [D][B]\{u_n\} - [D]\{\varepsilon_0\}$ . Рассмотрим отдельно левую и правую части условия равновесия (1). После подстановки вектора деформаций в левую часть равнения (1) оно будет выражено через узловые перемещения и некоторый интеграл, обозначенный символом  $[K]$ :

$$\iiint \{\delta\varepsilon\}^T [D] \{\varepsilon\} dx dy dz = \delta \{u_n\}^T \iiint [B]^T [D] [B] dx dy dz \{u_n\} = \delta \{u_n\}^T [K] \{u_n\}$$

Здесь  $[K]$ -матрица, содержащая основную информацию о поведении малого участка деформируемой, системы. Она называется матрицей жесткости элемента и является основной характеристикой системы в МКЭ. В правой части уравнения (1) интегралы по объему и по поверхности можно представить следующим образом:

$$\begin{aligned} & \iiint (\{\delta\varepsilon\}^T [D] \{\varepsilon_0\} + \{\delta u\}^T \{q\}) dx dy dz + \iint \{\delta u\}^T \{p\} dS = \\ & = \delta \{u_n\}^T \iiint [B]^T [D] \{\varepsilon_0\} dx dy dz + \delta \{u_n\}^T \iiint [\phi]^T \{q\} dx dy dz + \delta \{u_n\}^T \iint [\phi]^T \{p\} dS \end{aligned}$$

Этими соотношениями определяется вектор (P) внешних сил, приведенных к узлам внешних сил. Таким образом, считая известными матрицу  $[\phi]$ , связывающую перемещения в любой точке элемента с узловыми перемещениями и матрицу  $[B]$ , соответствующую соотношениям между деформациями и перемещениями узлов элемента по формуле (5), определяют матрицу жесткости  $[K]$  и вектор внешних узловых сил (F):

$$[K]=\iiint [B]^T [D] [B] dx dy dz$$

$$\{F\}=\iiint [B]^T [D] \{\varepsilon_0\} dx dy dz + \iint [\phi]^T \{q\} dx dy dz + \iint [\phi] \{p\} dS$$

Для каждого элемента условия равновесия принимают вид:  $[K]\{u_n\}=\{F\}$

Для оценки сходимости полученного приближенного решения, соответствующего данной разбивке, к точному решению необходимо производить более мелкую разбивку расчетной области. Затем следует провести сравнение решений, соответствующих обеим разбивкам.

### Литературы

1. Авлиякулов Н.Н., Сафаров И.И. Современные задачи статики и динамики подземных трубопроводов. Тошкент, Fan va texnologiya 2007, 306 с.  
Мирсаидов М.М., Трояновский И.Е. Динамика неоднородных систем. Ташкент Фан, 1990, 107 с.

## “TEKNOLOGIYA” FANINING MAZMUNI VA MOHIYATI

**Ravshanova D.K**

*Buxoro tuman 36- maktab o‘qituvchisi.*

**Hamidova Parvinabonu Xamzaevna-36 maktab o‘quvchisi,**

**Hamidov Aslbek Xamzaevich-36 maktab o‘quvchisi**

***E-mail: [hamroyev2010@mail.ru](mailto:hamroyev2010@mail.ru)***

O‘zbekiston Respublikasining “Harakatlar strategiyasi”da ta’lim sifatini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalari alohida o‘rin egallaydi. Harakatlar strategiyasidan ko‘zlangan asosiy maqsad - O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha yoshlar uchun mo‘ljallangan harakatlar strategiyasiga yanada kengroq jalb qilishdir.

Yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar bo‘lib O‘zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta’minlash maqsadida ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda, shunga javoban bu ishni samarali va amaliyotga joriy etishda natijaviylikka e’tiborni qaratamiz.

Hunari bor xor bo‘lmaydi. Maktabni bitirayotgan o‘quvchilarning hammasi ham oliy ta’limda o‘qishni davom ettirishmaydi va ro‘zg‘or tashvishlari uchun biror kasb-hunarning boshini tutishga intiladi. Bu esa ma’lum bir vaqtni olishi tabiiy. Davlat rahbarining bevosita tashabbusi bilan endilikda mamlakatimizdagi umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya bilan bir vaqtda kasb-hunar sirlarini ham o‘rganish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ana shu jihatga alohida e’tibor qaratilib, o‘quvchilarning maktab davridayoq aniq bir kasb-hunarni puxta o‘zlashtirishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Biror kasb-hunarni puxta o‘zlashtirish uchun esa “Texnologiya” fanining o‘rni beqiyosdir.

Texnologiya (*grekcha: techno* – hunar, usta va „logos“ – fan, ta’lim)– ilmiy-



praktika asosida xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirishning usullari.

Texnologiya - ilmiy bilimlarni inson hayotida amaliy maqsadlar yo'lida yo inson muhitini o'zgaritish va manipulyatsiya qilish qilish maqsadida qo'llanilishi. U shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy maqsadlarga erishish uchun (ayniqsa, bunda jarayon qaytalanishi alohida ahamiyatga ega) qo'llanilishi sifatida ta'riflanadi.

Texnologiya (*yunoncha techne*– san'at, mohirlik, o'quv)–sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi va boshqalar.

Amalda texnologik jarayonlar qanchalik puxta ishlangan, tavsiya etilayotgan usullar chuqur tajriba va ilmiy yondashuvga asoslangan bo'lsa, tayyorlanadigan mahsulot (avtomobil, bino yoki inshoot va shunchalik sifatli bo'ladi. Texnologiyaning fan sifatidagi roli va vazifasi mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishdan iborat texnologiya Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnologiya ham yangilanib va o'zgartirib turiladi. Har qaysi sohada texnologiyani ishlab chiqish uchun texnologik hujjatlarni ishlab chiqish, tipaviy texnologik jarayonlar, standartlashtirilgan jihozlar va uskunalardan foydalanishning yagona tartibi bo'lishi lozim.

Texnologiya va uni o'qitishi metodikasi fani pedagogika, psixologiya, tasviriy san'at, tabiatshunoslik fanlari bilan bog'lanadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishi asosida ularni to'garak ishlariga, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganishi va ommalashtirishga, mustaqil ishlar, ma'ruzalar, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishi yozishga jalb qilish tavsiya etiladi. Texnologiya fanning asosiy maqsadi ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beriladi. O'quvchilarni amaliy ishga tayyorlash va ularni mehnat malaka va ko'nikmalarini egallashlarini o'rgatadi va ta'minlaydi.

Texnologiya fanining tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, o'quvchilarning aqliy o'sishida eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarini tarbiyalaydi. O'quvchilarning fanni o'zlashtirish jarayonida darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, texnik vositalardan unumli foydalanish, uzatish qurilmalari yordamida slaydlardan va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanishda pedagogik texnologiya yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, interfaol usullarni, ta'limiy vositalarni va ta'limiy o'yinlarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Fanni o'qitishdan maqsadi-o'quvchilarni boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining mazmuni va vazifalari, o'qitish usullari, ta'limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifalari-boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining asosiy vazifalari o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, bilim berish va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasblar haqida ma'lumot berish izchilligini takomillashtirish, malaka talabi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.

O'quvchilarning texnologiya fanini ko'nikmalarini shakllantirishda maktab mahalla, oila va jamoatchilikning birgalikdagi harakatlari, o'z-o'ziga xizmat qilishni tashkil qilish, kasb turlari haqida ma'lumotlar berish, kasblar bilan kengroq tanishtirish, texnologiya fanini faxriylari murabbiyligini rivojlantirish haqida uslubiy ko'rsatmalar berish.

O'quvchilarda texnologiya fanini unumdorligi va mahsulot sifati kabi tushunchalarni tarkib toptirish. Mahalliy sanoat, hunarmandchilik, amaliy sanat turlari bilan tanishtirish. Milliy ustachilikning zamonaviy bo'lgan ganchkorlik, kulolchilik, gilamdo'zlik, kashtachilik, etikdo'zlik kabi ish turlari bilan tanishtirish jarayonida mehnatga munosabatni tarbiyalash.

O'quvchilar bilimiga qo'yiladigan talablar:

- Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini darsligining xususiyatlari mazmuni vazifalari va maqsadi.

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinflar bo'yicha texnologiya fanini tayyorgarligi va talablar ularning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan baho mezonini texnologiyasi.

- Asosiy o'quv vositalari darslik o'quv qo'llanmasi va boshqa vositalar hamda ulardan foydalanish metodikasi.

- Texnologiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan barcha metod va usullarni bilish.

- O'quv bilish faoliyatini tashkil qilishning asosiy va yordamchi shakllari.

- Dars ishlanmasida o'quv jarayonini o'quv material, unga mos metod, vosita va o'qitish shaklini tanlab rivojlantirish.

- Dastur asosida joriy rejalashtirish.

- Dastur. Darslik, metodik qo'llanma, tavsiyalarni tahlil qilib qisqacha taqriz yoza olish.

- O'zlari qiziqqan mavzu asosida kurs va bitiruv ishi tarzidagi ilmiy izlanishlarning bajarilishini uddalay olish.

- Turli jarayonlarni bajaruvchi turli xom-ashyolar bilan ishlovchi ishchilarning ish xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lish.

- Turli xom-ashyolarga ishlov berishda ishlatiladigan asboblardan unumli foydalana olish.

- Tayyorlanadigan, yasaladigan, buyumlar chizmasini, shartli tasvirini o'qiy olish.

- Yasaladigan buyumlar andozasi, chizmasini tuza olish.

- Texnika xavfsizligi qoidalarini bilish, texnologiya fanini tozaligi va madaniyatiga amal qilish.

- Ilmiy asoslarga suyangan holda zamonaviy ishlab chiqarish hamda turli sohalarda ishlaydigan ishchilar texnologiya fanini xususiyatlari haqidagi bilimlarni berish.

- Pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyatini anglab etish.

- Axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalana bilishlik.

Texnologiya fanini va uni o‘qitish metodikasi fani pedagogika, psixologiya va yosh psixologiyasi fanlari bilan bog‘liq. Texnologiya fanini va uni o‘qitish metodikasi ta‘limning boshqa metodik predmetlari, ona tili, matematika, tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya bilan uzviy bog‘lanadi. Predmetlar aro bog‘lanishni to‘g‘ri amalga oshirishda o‘qituvchi buni hisobga olishi juda muhimdir. Bulardan tashqari boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi yuqori sinflarda o‘qitilishiga qaramasdan chizmachilik, fizika, biologiya, kimyo fanlaridan, to‘qimachilik, oziq-ovqat metallurgiya asbobsozlik sanoatlari. Qishloq xo‘jaligining tarmoqlari haqida tushunchalarga ega bo‘lmog‘i talab etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. M.Satbayeva Texnologiya fani va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
2. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Texnologiya fani va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.; TDPU, 2007.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: Navro‘z, 2013.
4. The Exquisite Book of Paper I lowers: A Guide to Maicing Unbelievably Realistic Paper USA, 2014 Paperback New York, Boston.

### **TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISH METODIKASI “TEXNOLOGIYA” FANINING MAZMUNI VA MOHIYATI**

**Ravshanova D.K**

*Buxoro tuman 36- maktab o‘qituvchisi.*

**Hamidova Parvinabonu Xamzaevna-36 maktab o‘quvchisi,**

**Hamidov Aslbek Xamzaevich-36 maktab o‘quvchisi**

***E-mail: [hamroyev2010@mail.ru](mailto:hamroyev2010@mail.ru)***

Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi faninig mazmuni va fanning oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi faninig maqsadi talabalarni umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining “Texnologiya” fanini Davlat ta‘lim standarti (DTS) asosida tashkil etish va o‘qitish, pedagogika, psixologiya va maxsus fanlardan olgan bilimlarini mujassamlashtirgan holda ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirish yo‘llarini bo‘lajak texnologiya ta‘lim o‘qituvchilarini metodikaga oid bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Texnologiya fanini oqitish metodikasi fanida talabalar o‘qitish printsiplari va mazmuni, shakl va metodlari, texnologik ta‘limi yo‘nalishi bo‘yicha dasturlar mazmuni, texnologiya ta‘limi darslari va darsdan tashqari ishlarda o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, o‘quv va metodik adabiyotlarni o‘rganish hamda tahlil qilish, darslarni rejalashtirish, me‘yoriy hujjatlarni yuritish, texnologiya ta‘limi o‘quv xonalarining jihozlanishi, pedagogik amaliyotning maqsadi, vazifalari va

mazmuni, kurs ishlarini bajarish, o'quv-moddiy texnik baza tahlili, respublika ta'lim markazi, tashxis markazi faoliyati bilan tanishadilar.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi faninig vazifalari quyidagilar: - pedagogik-psixologik bilimlarni o'quvchilarda umummehnat va umumkasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida tadbiiq etish; - talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya ta'limi fanining maqsad va vazifalari, o'quv rejasida tutgan o'rni bilan tanishtirish; 6 - pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish; - texnologiya ta'limini o'qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini o'rgatish; - texnologiya ta'limida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar, texnologiya ta'limida o'qitish metodlari va shakllarini o'rgatish; - texnologiya ta'limi darslarini tashkil qilishni, rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqishni va tahlil qilishni o'rgatishdan iborat.

“Ta'lim to'g'risidagi” qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da texnologiya ta'limi faniga oid g'oyalarning aks ettirilishi Kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimini o'z rivojida shaxsning madaniyatini shakllantirish, jamiyatdagi hayotga moslashish, kasbiy va ta'lim dasturlarini bilib tanlash hamda keyin o'zlashtirish, jamiyat, davlat, oila oldidagi o'z mas'uliyatini anglab yetuvchi to'laqonli shaxsni tarbiyalash uchun huquqiy, tashkiliy, ruhiy pedagogik shart-sharoitlarni ta'min etishga qaratilgandir. Bu borada umumta'lim maktablari uchun tayyorlanadigan pedagoglarni va shu jumladan texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni tubdan o'zgartirish zaruratini keltirib chiqardi.

Ushbu zaruratni keltirib chiqargan ob'yektiv omillar quyidagilardir: - O'zbekistonning haqiqiy iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi sharoitlarini shakllantirish; - xo'jalik yuritishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishni davom ettirish; bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtirish va uni samarasini ko'tarish, respublika iqtisodiyotini xom ashyo ishlab chiqaruvchidan so'nggi mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ixtisoslashtirish; - ilg'or texnologiyalarni qayta ishlovchiga texnologiya ta'limidagi iqtisodiyot tarmoqlarini informatsion va ilmiy texnologik resurslarni yaratish va ulardan aktiv foydalanish, yangilanuvchi manbalarni qo'llash asosida qayta tashkil etish; - texnologiya ta'limi sohasidagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sura'tlarini ishlab chiqarish sohasida chuqur o'zgartirishlarga olib kelish maqsadida tezlashtirish; - aqliy mehnat hissasini oshirish, buning natijasida shaxsning ta'lim saviyasiga uning professional moslashuvi va safarbarligiga qo'yiladigan talablarning oshishi; - har bir mehnatni kasb egallash ta'lim jarayoni bilan yakunlash shaxsdan fuqaroviy kamolot, ijtimoiy faollik va mas'uliyatni talab etuvchilikni keng demokratlashtirish. Kasbiy tayorgarlikda milliy o'zlikni anglashni oshirish, vatanparvarlikni shakllantirishni, o'z vatani uchun g'ururlanish tuyg'usining, baynalminallik, o'z xalqining boshqa millat va elatlarning milliy-madaniy va tarixiy an'analariga hurmat tuyg'ularini shakllantirishni talab etuvchi respublikaning xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvi.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi pedagogika sohasining tarmoqlaridan biri sifatida “Texnologiya fanini o'qitish metodikasi” pedagogika faninig bir tarmogi sifatida o'z ob'yektivlari, vazifalari va tadqiqot metodlariga ega. Texnologiya ta'limi jarayoni, shu jarayonning barcha jihatlari: - o'quv materialining mazmuni; - o'qitish

metodlari; - o‘quvchilarning bilish faoliyati; - o‘qitish natijalari; - pedagogik texnologiyalardan foydalanish va boshqalar o‘rganish ob‘yektivini hisoblanadi. Bu jarayonning barcha tamoni o‘rganish o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

. Texnologiya metodikasi ham o‘z navbatida ayrim qismlardan iboratdir. Hozirgi davrda boshlang‘ish ta‘lim metodikasi sinflarda o‘quv ustaxonasida qo‘llaniladigan metodika. Qishloq xo‘jalik yeridagi tajriba-amaliy hamda mayishiy xizmat ko‘rsatish metodikalari mavjud. Maktab o‘quv ustaxonalarida texnologiya ta‘limi metodikasi o‘z oldiga o‘quvchilarni texnika asoslari bilan tanishtirish, o‘rgatish orqali ularda bilim va malakalarni texnologik tizim asosida oshirishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ydi.

Bizga ma‘lumki, bilim va ko‘nikma bir biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Maktabni bitirib chiquvchi yosh avlod texnik bilimlar malaka va ko‘nikmalar bilan qurollangan bo‘lishi kerak. O‘quvchilarda mehnat qilishga muhabbat, mehnat qilish birinchi ixtiyoriy ekanligini tarbiyalash texnologiya ta‘limi darslarida amalga oshiriladi.

Kasbiy tayyorgarlikni ajiralmas qismi o‘quv ustaxonasida olib boriladigan texnologiya ta‘lim darslaridir. Texnologiya ta‘limi darslaridan o‘quvchilar tikuvchilik, gazlamalarga ishlov berish hamda tikuv mashinalarida ishlov berish buyicha ma‘lumotga ega bo‘ladilar. Ishlov beruvchi asboblardan tanishadilar va shu asboblardan ish operatsiyalarini bajaradilar. Texnika taraqqiyoti elektrlashtirish, mexanizatsiyalash va ish jarayonini avtomatlashtirish yuzasidan bilimga ega bo‘ladilar. Sanoatning rivojlanishi va xalq xo‘jaligining barcha sohalaridagi texnika taraqqiyoti malakali ishchi kadrlar tayyorlash hamda ularning professional mahoratlarining oshirishiga borgan sari yuqori talablar qo‘yilmoqda.

O‘rganilayotgan kasblarni chuqur va puxta egallab olishlari ishlab chiqarish malakasini yanada mukammallashtirilishi va mehnat unumdorligini oshirishlari uchun ular hozirgi zamon texnikasi va texnologiyasi asoslarini bilishlari shart. Bularni kim o‘rgatadi? Xalq maorifi ishiga doimo g‘amxo‘rlik qilib, uning taraqqiyotiga keng yo‘l ochib bermoqda. Kishilar ko‘p zamonlardan beri mehnat tarbiyasi va ta‘limini unumli mehnat bilan birlashtirish haqidagi g‘oyalarni bayon etib kelganlar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**


1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. M.Satbayeva Texnologiya fani va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
2. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Texnologiya fani va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.; TDPU, 2007.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: Navro‘z, 2013.
4. The Exquisite Book of Paper I lowers: A Guide to Maicing Unbelievably Realistic Paper USA, 2014 Paperback New York, Boston.

#### **ИНКУБАЦИЯ ЖАРАЁНИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШНИНГ ТИЗИМЛИ ТАХЛИЛИ**

**Н.Р. Баракаев, М.С. Нарзиев, М.Д. Талабов**

Компютер техникасини ҳозирги жадал ривожланаётган даврида илмий изланишларни чуқур амалга ошириш ва керакли амалий натижаларни олиш учун, жараёнга таъсир этувчи факторларини, технологик параметрларининг ўзгариши қонуниятларидан келиб чиқиб ташкил қилишни ва амалга оширишни имконини беради. Технологик жараённи тадқиқ қилишнинг бир неча хил усуллари мавжуд: физик ва математик моделлаштириш, ҳамда комбинацияланган тадқиқот усуллари ва ҳ.к.

Бу усулларнинг ҳар бири, маълум маънода тизимларни, ускуналарни ва жараёнларни тадбиқ қилишга хизмат қилади ва ўз имкониятлари билан бир-биридан фарқ қилади.



Бу усулларни комплекс равишда олиб бориш, жараённи тизимли таҳлил қилиш, иерархик структурани ишлаб чиқиш асосида тадқиқ қилиш, илмий изланишларни йўналишларини, ташкил қилишни ва амалга оширишни имконини беради [1].

Тизимли таҳлил асосида тадқиқот объектини ўрганиш ва тадқиқот мақсадини қўйиш, тадқиқот объектининг кирувчи ва чиқувчи параметрлари ва жараён кўрсаткичларининг бир-бири билан боғлиқлигини келтириб чиқариш орқали объектни мақсадли ўрганиш жуда катта аҳамият касб этади.

Ишлаб чиқилган парандалар тухумларидан жўжа чиқариш инкубаторини бешта даражадан ташкил топган тизимли таҳлили ишлаб чиқилди.

Ушбу тизимли иерархик структура “Янада кенг юқори тизимларга ўтиш” методи асосида олиб борилди. Бунда парандалар тухумларидан жўжа чиқариш ускунасининг таҳлили, танланган методга мос ҳолда иерархияни пастки босқичидан бошлаб кейинги юқори босқичларини тизимли таҳлил орқали

ўрганиш билан амалга оширилди.

Ишлаб чиқилган тизимли таҳлил асосида ускуна элементлари ва инкубаторда жойлаштириладиган паррандалар тухумларини алоҳида қисмларга ажратиб, уларда кечадиган ҳодиса ва жараёнларни математик ёзувларини шакллантирилади. Олинган математик ёзувлар асосида унит адқиқ қилишни компьютер модели ишлаб чиқилиб, инкубаторда бериладиган иссиқлик ташувчи ва тухум ўртасида кечадиган иссиқлик алмашилиш жараёни технологик параметрларини аниқлаш имкони яратилади.

## **ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА ТАДБИРКОРЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ**

**Ботирова Наргиза Камоллидиновна**

*Бухоро туризм ва маданий мерос техникуми*

Мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш орқали халқнинг турмуш даражасини яхшилаш, аҳолининг реал даромадларини ошириш ва ёшларнинг бандлигини таъминлаш бугунги куннинг устувор вазифаларидан бири ҳисобланади. Ёшларни тадбиркорликка кенг жалб этиш, уларда ишбилармонлик компетенцияларини шакллантириш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан “Камбағалликни камайтириш ойлик ёки нафақа миқдорини кўпайтириш, ёппасига кредит бериш, дегани эмас. Бунинг учун, энг аввало, аҳолини хотин кизларни, ёшларни касбга ўқитиш, молиявий саводхонлигини ошириш, одамларда тадбиркорлик ҳиссини уйғотиш орқали уз узини бандлигини таъминлаш лозимлиги” таъкидлаб ўтилди ва ўз ўзини бандлигини таъминлаш мақсадида тадбиркорликни ривожлантириш бўйича кенг ишлар амалга оширилмоқда.

Ҳозирги кунда мамлакатда расман иш билан банд булмаган 1 миллион 400 мингга яқин аёллар ва ёшлар бўлиб, республика аҳолисининг 12-15 фоизи ёки 4-5 миллион киши камбағаллик даражасида кун кечирмоқда. Иқтисодий фаол аҳолининг 9,0 фоизи ёки 1,4 миллионга яқин киши ишга муҳтож, аёллар ва ёшлар ўртасида ушбу кўрсаткич мос равишда 12,5 ва 14,9 фоизини ташкил этмоқда [1]. Бу эса мамлакатимиз аҳолисини тадбиркорликка ўргатиш, касбий малакасини ошириш орқали камбағалликни камайтириш энг асосий масала ҳисобланади. Шунингдек, камбағаллик даражасидан ўрта синф даражасига ошириш учун камбағал ва ишсиз шахсларни замонавий касб-ҳунар ва тадбиркорлик компетенцияларини ривожлантириш, шу асосда улар учун доимий даромад келтирадиган меҳнат ва тадбиркорлик фаолиятига жалб қилиш ўта муҳимдир.

Янги профессионал таълим тизимида иқтисодиётнинг барча тармоқлари баробарида тадбиркорлик, кичик бизнес, оилавий бизнес, томорқа бизнеси, қурилиш, хизмат кўрсатиш, чорвачилик, паррандачилик, асаларичилик, балиқчилик

каби тез суръатларда раvнақ топаётган соҳалар учун ишчи касблар бўйича малакали кадрлар тайёрланиши кўзда тутилган. Бунда таълим олиш билан биргаликда таълим олуvчиларга тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиш бўйича зарур билимларни бериш ва уларни келгусида ўз бизнесини ташкил этиши юзасидан методик қўллаб-қувватлаш тадбирларини амалга ошириш мақсад этиб белгиланган. Ушбу мақсад ва вазифаларни амалга оширишда эса, аввало, тадбиркорлик фан ўқитувчиларида тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш ва юритиш бўйича компетенцияларни ривожлантириш лозим. Шу мақсадда, “Профессионал таълим муассасалари таълим олуvчиларида тадбиркорлик компетенцияларини шакллантириш” ўқув модули киритилган. Мазкур намунавий ўқув дастур “Профессионал таълим муассасалари таълим олуvчиларида тадбиркорлик компетенцияларини шакллантириш” профессионал таълим муассасалари тадбиркорлик фани ўқитувчилари учун мўлжалланган бўлиб, таълим муассасалари таълим олуvчиларида тадбиркорлик компетенцияларини шакллантириш йўллари, таълим олуvчиларни ўз-ўзини банд қилиш йўллари ва ишга ёллаш имкониятлари, кредит тизими ва таълим олуvчилар учун имтиёзли кредитлар олиш имкониятлари ва бизнес-режа тузиш каби мавзулардан иборат.

Демак, бўлажак тадбиркорлар олдиларига қўйган юксак мақсадларига эришишда профессионал таълим муассасалари тадбиркорлик фани ўқитувчиларидан катта маъсулият талаб этади ва уларда тадбиркорлик компетенцияларини шакллантириш бўйича зарур билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш лозим.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 11 августдаги “Камбағал ва ишсиз фуқароларни тадбиркорликка жалб қилиш, уларнинг меҳнат фаоллигини ошириш ва касб-хунарга ўқитишга қаратилган ҳамда аҳоли бандлигини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-4804-сонли Қарори.

## **ХУДУД ИҚТИСОДИЙ ВА ИЖТИМОИЙ РИВОЖЛАНИШИДА КОРХОНАЛАРНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎЛЛАРИ**

**Ботирова Наргиза Камоллидиновна**

*Бухоро туризм ва маданий мерос техникуми*

Мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислохатларнинг асосий вазифаларига - корхоналарнинг экспорт салоҳиятини ошириш, ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш, импорт қилинадиган маҳсулотларни ўзимизда ишлаб чиқариш шу билан корхоналарнинг рақобатбардошлигини ошириш киради. Юқорида қайд этилган вазифалардан Республикамиз иқтисодиёти олдида турган асосийси бу корхоналарнинг экспорт салоҳиятини оширишдир.

Корхоналарнинг экспорт салоҳиятини ошириш биринчи навбатида корхоналарнинг инвестицион фаоллигини оширишни талаб қилади.



Республикамизда инновацияни давлат томонидан қўллаб қувватлашнинг асосий йўналишлари қуйидагилардан ташкил топган:

- 1) истиқболи йўналишдаги илмий тадқиқотларнинг (фундаментал, изланиш, амалий) ривожланишини қўллаб қувватлаш;
- 2) инновацион фаолиятни мутахассислар билан таъминлаш;
- 3) инновацион фаолликни оширишга йўналтирилган турли хил дастурларни ишлаб чиқиш;
- 4) алоҳида фирма (корхоналар)нинг инновацион фаолиятининг самарадорлигини оширишга рағбатлантирувчи таъсир кўрсатувчи фискал ва бошқа дастакларни давлат томонидан тартибга солиш;
- 5) фаннинг турли соҳаларининг (академия, тармоқ ва олий ўқув юрти) ўзаро алоқасини самарали ташкил этишда давлат воситачи сифатида иштирок этиши ва олий ўқув юртлари (университет, институт, академия) билан саноат корхоналари орасидаги инновация ишламалари бўйича корпорацияни рағбатлантириш;
- 6) инновацион ишламаларга давлат буюртмаларини шакллантириш;
- 7) вилоятлардаги инновацион фаолиятни тартибга солиш;
- 8) инновацион фаолиятни ҳуқуқий базасини такомиллаштириш;
- 9) инновацион жараёнлар бўйича халқаро алоқаларни тартибга солиш.

Ушбу вазифаларни муваффақиятли бажарилиши корхоналарга инновацион лойиҳаларни жалб қилишни кўпайтириш ва уларнинг самарадорлигини оширишни талаб қилади. Ривожланган давлатлар тажрибасидан келиб чиққан ҳолда ва республикамиз миллий иқтисодиётининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда инновацион фаолиятни кучайтириш ва инновацион лойиҳаларнинг самарадорлигини ошириш учун қуйидагиларни таклиф этамиз:

1) Соф фойданинг инновация учун йўналтирилган қисмини даромад солиғи бўйича имтиёзлар бериш. Ушбу таклиф корхоналарнинг фойда учун тулайдиган солиғини дастлабки даврларда камайтирсада, кейинчалик инновацион фаолият натижасида олинadиган қўушимча фойда орқали олдин тўланмаган фоизларни қоплайди. Ривожланган мамлакатларда ушбу методдан кенг фойдаланилади. Масалан Данияда ушбу курсаткич 50 %, Италияда 40 % ни ташкил қилади

2) Корхоналар тезлаштирилган амортизация ажратмасини жорий қилиш. Маълумки, корхоналарда инновациянинг асосий манбаиларидан бирибу амортизация ажратмасидир. Ушбу таклифга асосан корхоналарга амортизация ажратмаси нормаларини қўпайтиришга рухсат берилиши лозим. Бунинг натижасида ишлаб чиқаришни ривожлантиришга йўналтириладиган амортизация ажратмаси улушини қўпайтиради. Бу эса уз навбатида корхонада мавжуд машина ва дастгоҳларни қисқа даврларда янги, замонавий техникалар билан алмаштиришга имкон яратади.

3) Инновацион ва инвестицион лойиҳаларни жорий қилиш натижасида ишлаб чиқарилadиган маҳсулотни солиқга тортишда имтиёзлар бериш лозим. Ҳозирги даврда инновацион лойиҳаларни жорий қилиш натижасида ишлаб чиқариладиган маҳсулотларнинг ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари доимий павишда ишлаб чиқарилadиган маҳсулотларнинг таннархига нисбатан юкори

булади. Бу эса корхоналарнинг керакли микдорда фойда олишини таъминламайди. Шунинг учун, инновацион фаолият натижасида олинadиган фойдага 1-2 йил фойда солиғи олинмаса корхоналарни янги маҳсулотлар ишлаб чиқаришга қизиқтирар эди.

4) Хориждан олиб келинган олиб келинган машина ва дастгоҳларга мулк солиғи тўлашда имтиёзлар бериш. Чунки ҳозирги вақтда ушбу солиқ ставкаси 3,5 % ни ташкил қилади ва кўпчилик иқтисодиёт соҳасидаги олимларнинг фикрича жуда юкори.

5) Хорижий инвесторларга давлат томонидан кафолатни кучайтириш. Чунки ҳозирги вақтда хорижий молиявий институтлар умумий инновациядар қарз олувчининг улуши камида 50% булсагина кредит ажратади, аммо кўпчилик корхоналининг 50% ни тўлаш имконияти йук. Шунинг учун саноатининг корхоналарнинг иқтисодиётдаги ўрнини ҳисобга олиб хорижий инвесторларга давлат томонидан инновацияларни қайтариб беришни кафолатлашни такомиллаштириш мақсадга мувофиқ булар эди.

б) Корхоналарнинг инновацион фаоллигини оширишда махсус фондларнинг ташкил этилиши муҳим аҳамиятга эга. Ҳукаमतимиз қарори билан 2018 йилдан бошлаб йирик саноат корхоналарида инновацион фондларнинг ташкил этилиши жуда муҳим аҳамиятга эга. Ушбу фонд йирик корхоналарда фақат инновацион лойиҳаларни жорий қилишда фойдаланидади, агарда ишлатилмай қолса қелгуси йилга қолдирилади. Бизнинг фикримизча кичик корхоналарда ҳам шундай инновацион фондларни ташкил этиш мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки республикаимиз иқтисодиётида кичик бизнес корхоналарнинг улуши йилдан йилга кўпайиб бормокда.

Бизнинг фикримизча, инвестицияларни жалб қилишдаги айрим муаммолар мавжуд, улар қуйидагилар:

- инвестицион лойиҳа бўйича маркетинг тадқиқотларининг чуқур олиб борилмаслиги ва бу лойиҳанинг қелгусидаги пул оқимлари ҳаракатининг барқарорлигига ҳамда кредитни қайтариш манбасининг ишончлилигига салбий таъсир этиши;

- инвестицион лойиҳалар ташаббускорлари дуч келаётган асосий муаммолардан бири- молиялаштиришнинг нокредит усулларида сўт фойдаланиши (лизинг, франчайзинг ва ҳ.к.);

- тижорат банкларининг кредит-молия муассасаларига ҳос бўлмаган вазибаларни бажариши. Кўп ҳолларда банклар назорат қилувчи ва кузатувчи органлар сифатида ҳаракат қилмокда ва бу ҳол инвестицион лойиҳалар ташаббускорларининг банк тизими билан муносабатига салбий таъсир кўрсатмокда;

- айрим ҳолларда инвестицион лойиҳаларнинг техник-иқтисодий асосномасини сифатсиз тайёрланиши.

Инвестициялардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш бўйича таклифлар қуйидагилардир:

- тижорат тузилмаларини кафолатга бўлган талабини таъминлаш мақсадида кафолат-гаров жамғармалари тизимини ривожлантириш;

- аҳоли бўш пул маблағларини инвестицион жараёнларга жалб қилиш

мақсадида қимматли қоғозлар бозорини янада ривожлантириш, турли қимматли қоғозларни муомалага чиқариш (уй-жой сертификатлари ва уй-жой облигациялари);

- ишлаб чиқаришни тузилмавий-технологик қайта қуришни жадаллаштириш мақсадида марказлашган кредит ресурсларнинг бир қисмини тез қоплайдиган инвестицион лойиҳаларни молиялаштиришга қаратиш, шу жумладан кичик бизнес объектларига йўналтириш;

- инвестицион лойиҳаларни молиялаштиришнинг ноқредит усулларида бўлган лизинг, франчайзинг, факторинг кабилардан фойдаланишни кенгайтириш;

Шундай қилиб, Ўзбекистонда амалга оширилаётган инновацион ва инвестицион сиёсат, авваломбор иқтисодий ўсишни барқарорлигини таъминлаш, иқтисодий тармоқлардаги тузилмавий ўзгаришларни амалга ошириш, диверсификация ва модернизациялашни ривожлантириш, рақобатбардош ва сифатли товарларни ишлаб чиқаришга, энг асосийси аҳолини ҳаётий даражасини оширишга қаратилгандир.

#### **Фойдаланган манбалар**

1. “2017 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли фармони.

## **ИССЛЕДОВАНИЕ УДЛИНЕНИЯ ДЛИТЕЛЬНОСТИ ЭКСПЛУАТАЦИИ ГЕЛИОПОЛИГОНОВ С ПЛОСКИМИ КОНЦЕНТРАТОРАМИ**

**Усмонов Ф.Б., Каххоров Х.А., Яхшиев Ё.Г.**

*Бухарский инженерно-технологический институт, г. Бухара, Узбекистан*

Анализ данных лабораторных экспериментов и производственных испытаний, проводимых в течение ряда лет, показал, что применение плоских отражателей при гелиотермообработке сборных железобетонных изделий позволяет увеличить суммарное суточное поступления солнечной радиации на поверхность гелиоприемника на 50÷110%, теплосодержание образцов бетона – на 15÷35%, суточной прочности на сжатие – 10÷36%.

Согласно /1/, для обеспечения суточной обрачиваемости форм и набора бетоном прочности не менее 50%  $R_{28}^{HT}$  требуется следующие количества энергии:

<i>Толщина бетона, мм</i>	<i><math>Q_{тр}</math>, кВт-ч/м<sup>2</sup></i>
100	2,5
200	3,9
300	6,0

Исходя из полученных результатов, мы попытались определить периоды обработки сборных железобетонных изделий только за счет использования солнечной энергии (с применений плоских отражателей), без традиционных топливно-энергетических ресурсов, но при сохранении суточной производительности, для различных толщин и марок бетона.

Потребность энергии отнесена к  $1\text{ м}^2$  солнцезащитной поверхности изделия. Согласно известной методики [1] и учитывая для обеспечения набора бетоном изделий прочности в суточном возрасте 45-50%  $R_{\text{нт}28}$ , нами, на основе полученных результатов приведенных в таблице-1, был построен расчетный график определения длительности эксплуатации гелиополигонов при применении плоского отражателя. График иллюстрирует ориентировочную длительность эксплуатации гелиополигонов при применении плоских отражателей при толщине изделий  $\delta=0,1\div 0,4$  м для регионов, расположенных в пределах от  $38^\circ$  до  $44^\circ$  с.ш. (рис.1.)

При расчете поступления солнечной радиации на поверхность изделия учитывались коэффициент пропускания потока солнечной радиации двухслойным светопрозрачным покрытием  $\Psi$ , коэффициент ослабления прямого радиационного потока за счет угла падения на светопрозрачную поверхность  $\beta$ , степень черноты изделия  $\epsilon$ , а при расчете тепловыделений бетона, содержания в нем цемента.

В таблице приведены результаты расчетов для изделий с толщинами  $\delta=0,1\div 0,4$  м из бетона классов В15-В30, при этом обработка проводилась в регионах, расположенных в пределах от  $38^\circ$  до  $44^\circ$  с.ш. Очевидно, что изделия толщиной до 0,2 м из бетона класса В315 (М200) можно изготавливать в теплоизолированных гелиокамерах, снабженных плоскими отражателями, с 15 февраля по декабрь, а из бетона класса В22,5 (М300) - с начала февраля по 15 декабря. Для изделий толщиной 0,3 м из бетона класса В15 (М200) - это период с марта по 20 октября, а из бетона класса В22,5 (М300) - с 15 февраля по 15 января. В другие сезоны года с целью круглосуточной эксплуатации гелиополигонов необходимо использовать дополнительный источник энергии [2,3].

Поступления тепла к изделию в зависимости от периода формирования

Месяц	Период выдерживания на солнце, час	Толщина, м	Требуемая энергия, кВт·ч/м <sup>2</sup>	Поступления солнеч. рад. на поверхность изделия Q <sup>1</sup> , кВт·ч/м <sup>2</sup>	Суммарная количество тепла Q <sup>1</sup> +Q <sup>2</sup> , кВт·ч/м <sup>2</sup>		
					B15 (M200)	B22,5 (M300)	B30 (M400)
Январь	10.00-17.00	0,1	2,5	2,4	3,246	3,318	3,54
		0,2	3,9		3,096	4,236	4,68
		0,3	6,0		4,938	5,15	5,82
		0,4	9,0		5,784	6,07	6,96
Февраль	9.00-17.00	0,1	2,5	2,8	3,646	3,718	3,94
		0,2	3,9		3,49	4,636	5,08
		0,3	6,0		5,338	5,55	6,22
		0,4	9,0		6,184	6,47	7,36
Март	8.00-18.00	0,1	2,5	3,69	4,536	4,6	4,83
		0,2	3,9		5,38	5,5	5,97
		0,3	6,0		6,22	6,44	7,11
		0,4	9,0		7,07	7,36	8,25
Апрель	8.00-19.00	0,1	2,5	4,14	4,986	5,058	5,28
		0,2	3,9		5,83	5,97	6,42
		0,3	6,0		6,85	6,85	7,56
		0,4	9,0		7,52	7,81	8,7
Октябрь	8.00-18.00	0,1	2,5	3,79	4,6	4,678	4,9
		0,2	3,9		5,45	5,59	6,04
		0,3	6,0		6,26	6,51	7,18
		0,4	9,0		7,1	7,43	8,32
Ноябрь	9.00-17.00	0,1	2,5	2,58	3,426	3,5	3,72
		0,2	3,9		4,27	4,41	4,86
		0,3	6,0		5,118	5,33	6,00
		0,4	9,0		5,96	6,25	7,14
Декабрь	9.00-17.00	0,1	2,5	1,88	2,726	2,8	3,02
		0,2	3,9		3,57	3,71	4,16
		0,3	6,0		4,41	4,63	5,3
		0,4	9,0		5,26	5,55	6,44

Таким образом, экспериментальным и расчетным путем обоснована возможность и целесообразность выпуска сборных железобетонных изделий и конструкции в гелиокамерах с применением плоских отражателей в течение 10 месяцев в году без подвода дополнительной традиционной энергии, с обеспечением суточного технологического цикла производства и началом формовки в любое время в течение суток.

Литература

1. Заседателев И.Б., Малинский Е.Н., Темкин Е.С.

Гелиотермообработка сборного железобетона. М.: Стройиздат. 1990.-312с.

2. Усмонов Ф.Б. Повышение эффективности использования плоских отражателей при гелиотермообработке бетона. //В книге сборных научных трудов. БФ ТИИМ, Бухара, 2016, С.72-75.

3. Усмонов Ф.Б., Усмонова Г.Ф. Разработка и исследование интенсивной тепловой обработки сборного железобетона с использованием солнечной энергии. – Бухара: Дурдона, 2018, 135с.

## RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SANOATDA RAQAMLI TRASFORMATSIYALASHNING AHAMIYATI

**Karimova Oygul Ro'ziyevna**

*G'ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi*

Raqamli iqtisodiyot bu – gibriddunyo sharoitlarida mavjud bo'ladigan iqtisodiyotdir. **Raqamli (elektron) iqtisodiyot** hamda **elektron tijorat** bu – axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishning o'ziga xos xususiyati bo'lgan iqtisodiyot turidir. Bu iqtisodiyot axborot-kommunikatsiya va moliya texnologiyalarining rivojlanganligi, shuningdek, birgalikda gibriddunyoda barcha iqtisodiy faoliyat sub'ektlari – tovarlar va xizmatlar yaratish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayoni ob'ektlari va sub'ektlarining to'laqonli o'zaro aloqa qilish imkoniyatini ta'minlaydigan infratuzilma ochiqligi tufayli mavjud bo'ladi [1].

To'laqonli o'zaro aloqa qilish uchun barcha iqtisodiyot ob'ektlari va sub'ektlari sezilarli raqamli tarkibiy qismlarga ega bo'lishlari lozim. Masalan, hozirgi paytda sanoatda sezilarli darajada yaxshilanadigan raqamli tarkibiy qismlari (dasturiy ta'minot va datchiklar) tovar qiymatining yarmidan ko'pini tashkil qiladi. Kelajakda ko'plab tovarlar va xizmatlar qiymatining sezilari qismi uning raqamli tarkibiy qismi bilan belgilanadi. Bunday tovarlar "aqlli" buyumlar deb ataladi. Raqamlashtirishda mahsulot yoki xizmatlarning asosiy xususiyatlari jiddiy yaxshilanishi (masalan, mahsulot havfsizligi o'shadi va uning ekspluatatsiya qiymati kamayadi) yoki yangi xususiyatlar (ovoz bilan boshqarish, internet yoki mobil telefondan turib masofadan boshqarish kabilar) paydo bo'lishi lozim [2].

Kognitiv texnologiyalar yordamida intellektuallashtirilgan internetda axborot izlab topish mashinalari bir so'rovga javob tariqasida minglab javoblar beradi. Bu ma'lumotlar inson idrok qilishi uchun ochiq, ishonchli va to'liq bo'lishga musobaqalashib, to'plangan ma'lumotlarni o'zlari qayta ishlay boshlaydilar va natijada bu dunyoni biz uchun "shaffof" qiladi. Iste'molchi ishlab chiqaruvchini mustaqil ravishda topadi, avtomatik hujjataylanmansii hisobga olgan holda esa u to'gridan-to'g'ri barcha kontragentlari bilan o'zaro aloqa qilishi mumkin bo'ladi. Shu tariqa **M2C (manufacturer to customer, ishlab chiqaruvchi – iste'molchiga)** biznes modeli va bunda ushbu iste'molchi uchun zarur original xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish mumkin bo'lgan **C2M (customer to**

**manufacturer**) modeli paydo bo‘ladi.

Bulutli hisoblash platformalari (**Cloud Computing**) – yangi axborot texnologiya konsepsiyasi bo‘lib, u eng kam espluatatsion xarajatlar talab qiladi yoki u orqali provayderga murojaatlar tezkor taqdim etiladi va kerak bo‘lgan hisoblash resurslari talablarga binoan hamma joyda va qulay tarmoq ulanishi bilan ta‘minlanishni ko‘zda tutadi. Ma‘lumot uzatish tarmoqlari, serverlar, ma‘lumot saqlash qurilmalari, servis dasturlari – birgalikda ham, alohida ham bulutli texnologiyalarning tarmoq resurslariga misol bo‘lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bulutli texnologiyalar (**Cloud technologies**) – bu kompyuter resurslarini Internetdan foydalanuvchiga so‘rov bo‘yicha (**on demand**) onlayn-servis sifatida taqdim eta oladigan ma‘lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir. Shuni ham aytish zarurki, bulutli texnologiyalar vujudga kelayotgan raqamli iqtisodiyot poydevoriga ulkan hissa qo‘shgan va qo‘shayapti. Bu hissa faqatgina texnologik tarkibiy qismlar bilan chegaralanmaydi, balki iqtisodiy va g‘oyaviy tarkibiy qismlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Bulutli texnologiyalar rivojlanishi, masalan, talab bo‘yicha ishlab chiqarish (**production on-demand**), xizmat sifatidagi dasturiy ta‘minot (**software as a service**) kabi kelajak biznes- modellarining aksariyati uchun asosiy g‘oyaga va ko‘plab iqtisodiy o‘zaro aloqalar uchun tamoyilga aylanadigan tushunchalar paydo bo‘lishiga olib keldi.

Buyumlar Interneti (**IoT**) esa – ko‘plab texnologiyalarni birlashtiradigan, datchiklar bilan jihozlanganlik va internetga barcha uskunalarning ulanishini ko‘zda tutadigan kontseptsiya bo‘lib, masofadan turib real vaqt rejimida, ya‘ni avtomatik rejimda jarayonlarni monitorig va nazorat qilish va buning asosida ularni boshqarishga imkon beradi. Bugungi kunda ushbu sohada ikkita yirik yo‘nalish shakllangan: buyumlar Interneti (**IoT - Internet of Things**) va buyumlar sanoat Interneti (**IIoT - Industrial Internet of Things**). Instrumental jihatdan ushbu texnologiyalar bir-biriga juda o‘xshashib ketadi, asosiy farq esa bajarilishi lozim bo‘lgan vazifada: agar buyumlar internetining asosiy vazifasi bu - xilma-xil (modellar va bashoratlar tuzishda ustuvor foydalaniladigan) ma‘lumotlar to‘plash bo‘lsa, buyumlar sanoat Internetining bajarilishi lozim bo‘lgan vazifasi ishlab chiqarishni avtomatlashtirishdan iborat (datchiklar ko‘rsatkichlari bo‘yicha resurslar va quvvatlarni masofadan turib boshqarish). **OVUM, Mashine Research** va **Nokia** kompaniyalari tahlilchilarining bashoratlariga ko‘ra, 2020 yilga kelib, tarmoqqa ulangan sanoat qurilmalarining soni 530 mln birlikdan ortdi, 2025 yilga kelib esa ularning soni 20 dan 200 mlrd birlikkacha bo‘lishi kutilmoqda.

Ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarish resurslarini boshqarish texnologiyalarini rivojlantirish, jumladan, ulardan virtual foydalanish manfaatlarida, raqamli iqtisodiyot infratuzilmalarini yaratish va o‘zgartirish davlat dasturlariga binoan bajariladi: Germaniyada **Industrie 4.0**, AQSHda **Advanced Manufacturing Technology**, Xitoyda esa asosiy e‘tibor ilg‘or texnologiyalar joriy qilish, sifat va innovatsiyalarga qaratiladigan ishlab chiqarishni rivojlantirish strategik konsepsiyasi, Buyuk Britaniyada **Innovate UK**, Avstraliyada **National Digital Economy**. **IoT**-platformalar yaratish va joriy qilish bo‘yicha loyihalar, amaliy dastur servislari ishlab chiqarish Rossiyada ham amalgi oshirilmoqda. Internet tashabbuslarni rivojlantirish

jamg'armasi internetni rivojlantirish yo'l xaritasini ishlab chiqdi hamda buyumlar interneti Assotsiatsiyasini ta'sis etdi. Rosstandart doirasida faoliyat ko'rsatadigan «Kiberfizicheskie sistemi» standartlashtirish bo'yicha yangi texnik qo'mita faoliyati doirasida buyumlar interneti sohaida standartlar ishlab chiqish va qabul qilish rejalashtirilgan.

Hozirgi davrda biz texnologiyalar qanday qilib ommaviy xizmat ko'rsatish sohasini tubdan o'zgartirayotganini ko'ryapmiz. Vositachilarni olib tashlaydigan, mijoz va ta'minotchi o'rtasidagi aloqalarning to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilishiga olib keladigan **Uber** kabi yangi biznes-modellar paydo bo'ldi. Bu o'zgarishlar moliya sektori va telekommunikatsiyalarda ham ro'y berdi. Sanoatda ham bir qancha printsiplial o'zgarishlar kuzatilmoqda, chunki raqamli korxonalar va insonning raqamli qiyofadoshi – robotlar paydo bo'lishi butun insoniyat funktsional modelini jiddiy ravishda o'zgartirib yuborishi mumkin. Natijada axborot texnologiyalari asta-sekinlik bilan odamlarning o'rnini egallab boradi. Huddi mana shu holat raqamli iqtisodiyotning namoyon bo'lishi hisoblanadi.

To'g'ri, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot tufayli qanday keskin o'zgarishlar ro'y berishi hozircha hech kimga ma'lum emas. Hozirgi texnik- texnologik qoloqlik sharoitlarida sanoatning raqamli o'zgarishi tez ro'y berishiga ob'ektiv va sub'yektiv sabablarga ko'ra, bir qancha shubha-gumonlar mavjud.

Korxonalarining yuqori sifatli raqamli transformatsiyasi uchun biznesga ITtexnologiyalarni faol joriy etishni qo'llab-quvvatlovchi institutsional asos yaratish, tadbirkorlik sub'yektlarining turli sohalarda ko'rsatilayotgan xizmatlar haqida xabardorligini oshirishni hisobga oladigan kompleks strategiya zarur. Iqtisodiyot va raqamli savodxonlikni rivojlantirish vositalarini ishlab chiqish [3]. O'zbekiston rahbari tomonidan tasdiqlangan 2030 yilgacha bo'lgan davrda rivojlanish strategiyasida ham ana shu maqsadlar belgilangan. Ko'rsatilayotgan xizmatlar va sanoat mahsulotlari hajmini 2,5 barobar oshirish ustuvor vazifalar qatorida. Bunda elektron hukumat tizimini rivojlantirish, sanoat, aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish, ta'lim, sog'liqni saqlash, tibbiyot kabi sohalar kiradi.

Biznesni raqamli platformaga o'tkazish jarayonida biznes-jarayonlar va davlat boshqaruvi jarayonlarini tekshirish, ushbu sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash bo'yicha vazifalar majmuasini hal qilish zarur. Optimallashtirish natijalari asosida raqamli transformatsiya loyihasini samarali ishga tushirish lozim.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish sohasidagi davlat siyosatini tubdan yangilash choratadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (PF-5975) T.: 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni 2020 PF-4699.

3. Гулямов С.С. Роль умного образования и умной медицины в цифровой экономике. ШИФО-инфо №26, стр. 23-30.



## **SANOAT KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA BOSHQARUV QARORLARINING O’RNI**

**Karimova Oygul Ro’ziyevna**

*G’ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi*

Qaror - bu bajarilishi lozim bo’lgan ishning aniq bir yo’lini tanlab olishdir. Boshqacha qilib aytganda, qaror - bu u yoki bu yo’lni tanlab olishda bir to’xtamga yoki muayyan bir fikrga kelishdir. Bunday qarorlarni har birimiz bir kunda o’nlab-yuzlab, bir umr davomida esa ming-minglab qabul qilamiz. Masalan, kiyim javonidagi qaysi bir kiyimni tanlab kiyish, taomnomadan qaysi ovqatni, manzilga yetib olishda transport turini, kasbni tanlash va hk. Bunday misollarni ko’plab keltirishimiz mumkin.

Qaror qabul qilish zaruriyati mavjud holatning bo’lishi lozim bo’lgan holat bilan mos tushmasligi natijasida yuzaga keladi. Masalan, davlat tomonidan qat’iy belgilab qo’yilgan narx bozor iqtisodiyoti sharoitida o’z funksiyasini bajara olmaydi. Shu sababli narxlarni erkinlashtirish to’g’risida qaror qabul qilinadi.

Qaror qabul qilish imkoniyatining muqobil yo’llari bo’lganda vujudga keladi va rahbar ulardan birini, eng maqbulini tanlaydi. Qarorning eng samarali variantini topish uchun rahbar “etti o’lchab bir kes” maqoliga rioya qilishi darkor.

Qaror qabul qilish menejerni fikri-zikrini doim band qilib turadigan tashvishdir. Menejer juda xilma-xil masalalar yuzasidan-ishlab chiqarish va kadrlarga oid, tashkiliy va xo’jalik masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Menejer qarorni yakka boshchilik asosida, yordamchilarni va jamoatchilikni jalb qilib qabul qilishi mumkin. Boshqaruvga oid har qanday qaror samarali bo’lsagina, u maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Qaror qabul qilish - bu tashkilot rahbarining oldidagi maqsadga erishish uchun o’z vakolati va omilkorligi doirasida qarorning mavjud variantlaridan eng maqbulini tanlash jarayonidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rahbar qabul qiladigan qarorning ahamiyati ortib boradi. Iqtisodchilarning fikricha, sex (bo’lim)ning boshlig’i qabul qiladigan bitta qaror shu sex (bo’lim)ning besh-olti oylik ishiga ta’sir qilar ekan. Qabul qilinadigan qarorning oqilligi bir necha omillarga bog’liq. Ulardan asosiylari quyidagilardir:

- qaror qabul qilish jarayonida axborotning to’laligi va sifati;
- qaror qabul qiluvchi rahbarning shaxsiy sifati;
- qaror qabul qilishda tashkiliy masalalarning oqilona yechilish darajasi (masalan, qaror qabul qilishda mutaxassislarni jalb etish, qaror qabul qilish tizimining takomillik darajasi, qarorni ijrochilargi yetkazish, nazorat qilish va bajarilish darajasi va hokazo).

To’g’ri qarorni tanlashda muayyan tamoyillarga tayanish va qarorga bo’lgan talablarni hisobga olish, qabul qilinadigan qaror maqsadini xo’jalik maqsadiga muvofiqlashtirish, mehnat jamoasi manfaatlarining jamiyat manfaatlariga muvofiqligini aniqlash, mehnat va moddiy resurslardan tejimli foydalanish, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalarini hisobga olish zarur.

Ma'lumki, qaror qabul qilish zaruriyati mavjud, amaldagi holatning muammoni hal etish uchun talab etiladigan holatga mos tushmasligi natijasida yuzaga keladi. Ana shu yerning o'zida muammo kelib chiqadi. Bu muammoning yechimi quyidagi savollarga javob berishni talab qiladi:

- Nima qilish kerak (masalan, iste'molchilarning yana qanday yangi talablarini qondirish kerak yoki mahsulotning qanday sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash lozim)?
- Qaysi vositalarni (qanday texnologiyani) qo'llash lozim?
- Ishlab chiqarish xarajatlari qay darajada, qanday miqdorda bo'lishi kerak?
- Kim javobgar bo'lishi kerak?
- Kimga va qaysi baxoda sotish lozim?
- Bu ishlab chiqarish yoki xizmat investorga va jamiyatga nima beradi?
- Qaysi muddatlarda bajarilishi kerak?
- Qaror qabul qilishda rahbarning vakolati va javobgarligi ham muhim ahamiyatga egadir.

Qarorlar, odatda tezkor boshqaruvni amalga oshirish maqsadida qabul qilinadi. Strategik va taktik boshqaruv maqsadida esa iqtisodiy tahlilga, optimallashtirishga asoslangan oqilona qarorlar qabul qilinadi.

Qayd qilinganlarni umumlashtirib aytganda, boshqaruv qarorlari quyidagi talablarga javob berishi kerak (1-jadval):

**1-jadval.**

**Boshqaruv qarorlariga qo'yiladigan talablar**

T/r	Talablar	Izoh
1	Ilmiy asoslangan bo'lishi lozim	Boshqaruv qarorlari muayyan ishlab chiqarish holatini tahlil qilishdan kelib chiqishi, iqtisodiy, texnikaviy va boshqa ijtimoiy qonunlarning amal qilishini hisobga olishi, hozirgi zamon fan-texnika yutuqlari negizida qabul qilinishi lo'nda va aniq bo'lishi lozim.
2	Bir-biri bilan aloqador va yakdil bo'lishi kerak	Muayyan vazifani hal etishda ko'pincha asosiy masalalardan kelib chiqadigan qo'shimcha vazifalarni hal etishga to'g'ri keladi. Bu vazifalar qaror qabul qilinayotgan bosh vazifaga bo'sundirilishi lozim. Barcha qaror, ko'rsatma, qoidalar bir-biri bilan bog'lanadi. Shuningdek, ular oldindan qabul qilingan va amaldagi qarorlar bilan muvofiqlashtiriladi.
3	Huquq va javobgarlik doirasida bo'lishi lozim	Rahbar qarorni o'ziga berilgan huquqlar doirasidagina qabul qilishi mumkin. Bu yerda gap boshqarishning barcha bo'g'inlarida huquq va javobgarlik ko'lami nisbati to'g'risida boryapti. Huquqlar katta, mas'uliyati esa kam bo'lsa, ma'muriy o'zboshimchalikka, o'ylamasdan qaror qabul qilishga yo'l ochiladi. Huquqlar ozu, mas'uliyat katta bo'lsa, bu ham hech qanday naf keltirmaydi.

4	Aniq va to'g'ri yo'nalishga ega bo'lishi kerak	Har qanday qaror va aniq bajaruvchiga tushunarli bo'lishi lozim. Qarordan bir necha ma'no kelib chiqishiga va uni turlicha talqin qilish yoki tushunishga yo'l qo'ymaslik kerak.
5	Vaqt bo'yicha qisqa bo'lishi kerak	Axborotlar bilan ishlash vaqtini tejash maqsadida qisqa muddatli qarorlar qabul qilinishi lozim.
6	Vaqt bo'yicha aniq bo'lishi lozim	Har qanday qarorning bajarilish muddati aniq ko'rsatilishi kerak. Aks holda uning bajarilishini ob'ektiv nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'linmaydi.
7	Tezkor bo'lishi kerak	Har qanday qaror o'z vaqtida, ya'ni ishlab chiqarishdagi vaziyat talab qilgan vaqtning o'zida qabul qilinishi zarur. Kechikib yoki shoshqaloqlik bilan qabul qilingan qarorning har ikkisi ham zararlidir.
8	Samarali bo'lishi lozim	Qabul qilingan qarorning samaraliligi deganda qo'yilgan maqsadga eng kam harajat bilan erishish tushuniladi

### Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. 2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O’zbekiston Respublikasi ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi PF-5712-son Farmoni // «O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami», 2019 yil 6 may, 18-son, 348-modda.

Saati T. Prinyatie resheniy. Metod analiza iyerarxiy.-M.:“Radio i svyaz”, 1993.-278 s.

3. Terelyanskiy P.V., Kremenov S.I. Realizatsiya metoda analiza ierarxiy dilya otsenki konkurentosposobnosti kompyuternix firm // Vestnik VolGU. Seriya 3: Ekonomika. Ekologiya. 2008. №2. S.35-43

4. <http://www.tomakechoice.com/mpriority.html> - sayt “Programmnie sistemi podderjki prinyatiya optimalnix resheniy”.

### ИЗМЕНЕНИЕ КОЭФФИЦИЕНТА ПОГЛОЩЕНИЯ БЕТОНА СОЛНЕЧНОГО СПЕКТРА С ТЕЧЕНИЕМ ВРЕМЕНИ ПРИ ПЕРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРАХ

Усмонов Ф.Б., Каххоров Х.А., Яхшиев Ё.Г.

*Бухарский инженерно-технологический институт, г. Бухара, Узбекистан*

Анализ ряда экспериментальных исследований, полученных нами при применении плоских отражателей свидетельствуют о неравнозначности повышения интенсивности солнечной радиации на поверхность гелиопокрытия ( $J_0$ ) и суточной зрелости свежеуложенного бетона (S), в особенности в летний период года, составивших соответственно 50-60% и 5-8% в сравнении с

гелиотермообработкой бетона без применения плоских отражателей [1].

В связи с этим поставлена цель, установить картину изменения коэффициента поглощения свежеуложенного бетона от величины воздействующей длины волны солнечного спектра, при переменных технологических факторах, таких как в/ц, консистенция бетонной смеси.

Исследования проводились на приборе «Пульсар» определяемом коэффициенты отражения, поглощения и цветность материалов. Во всех экспериментах, во-первых, не было граничащего материала между измерительным устройством и свежеизготовленным бетоном, типа светопрозрачного материала, во-вторых, прикладывание измерительного устройства, возможно, было только после образования на поверхности бетонной смеси корки новообразований, что в условиях лаборатории требовало не менее 1 часа времени после формовки.

В экспериментах использовали портландцемент Навоийского завода М400, кварцевый песок  $M_{кр}=2,34$ , гранитный гравий  $\Phi_r=5-20$  мм. Пределами измерения длин волн спектра ( $\lambda$ ) были от 0.38-1,1 мкм, что в целом охватывает пределы длин волн спектра солнечной радиации с максимальным энергетическим потенциалом. Во всех экспериментах изменения коэффициента поглощения оценивалось, начиная с возраста 1 часа после приготовления и формования бетонной смеси.

В экспериментах сравнивались составы бетонов с В/Ц=0.4, 0,8, при этом ОК=1-4см = const сохранялось во обоих составах. Соотношение компонентов соответственно вышеуказанным в/ц следующее: 1:1.62:2.27; 1:3.67:5.1 ;

На рис.1 приведена картина изменение коэффициента поглощения бетона различных длин волн ( $\lambda$ ) в зависимости от В/Ц. Заметно снижение коэффициента поглощения бетона солнечного спектра с повышением  $\lambda$  от 0,38 до 0,596 мкм, что на данном участке является почти прямолинейным, при этом на данном участке коэффициент снизился на 6-7%. В пределах  $\lambda =0.596-0.71$  мкм наблюдается выравнивание коэффициента поглощения, а в дальнейшем незначительный его рост, по сравнению с предыдущим участкам на 2-3%. Снижение В/Ц положительно отразилось на коэффициенте поглощения бетона, по-видимому, в силу большего содержания вяжущего компонента, интенсивного протекания гидратационных процессов и энергичного распространения сети новообразований, вследствие чего и большего тепловыделения.

При установлении изменении коэффициента поглощения бетона с течением времени, оценивалось его среднее значение при воздействии лучей с длинами волн от 0.4 до 0.6 мкм, как лучей с наибольшим энергетическим потенциалом, в соответствии с [2].

Изменение во времени коэффициента поглощения бетона спектра длин

волн в зависимости от В/Ц приведенные на рис.2 свидетельствуют о росте данного коэффициента в течение первых 3-5 часов, причем чем ниже В/Ц, тем этот рост значительней. В дальнейшем же происходит медленное снижение коэффициента, достигшего к концу первых суток 16-17%, к концу вторых суток 28-30%. Такое интенсивное и ритмичное снижение коэффициента поглощения бетона спектра солнечной радиации объясняется выделением в результате гидратационных процессов минералов портландцемента, свободной окиси кальция, имеющее белый цвет и способствующий отражению падающих лучей.




Рис. 1. Изменение коэффициента поглощения бетона солнечного спектра в зависимости от В/Ц: 1- В/Ц = 0.4; 2- В/Ц = 0.8




Рис. 2. Изменение коэффициента поглощения бетона солнечного спектре с течением времени в зависимости от В/Ц: 1- В/Ц = 0.4; 2- В/Ц = 0.8

На рис.3 приведена картина изменение коэффициента поглощения бетона спектра длин волн, в зависимости от консистенции бетонной смеси. В экспериментах консистенция бетонной смеси принималась, в первом случае, ОК=7-8 см, во втором ОК=1-4 см, в третьем - Ж=20-25 сек. Принятые пропорции компонентов смеси составили, соответственно: 1:2.77:3.83, 1:2.37:3.31, 812

1:2.21:3.08 введенное количество воды затворения 160,180 и 190 л на 1 м<sup>3</sup> бетонной смеси. При этом В/Ц=0.55=const сохранялось во всех случаях.

В соответствии с рис.3 тенденция к аналогичному, почти прямолинейному снижению коэффициента поглощения бетоном спектра длин волн до  $\lambda = 0.596$  мкм, также сохраняется, независимо от начальной консистенции бетонной смеси. Сохранена в дальнейшем картина изменения коэффициента поглощения бетона с  $\lambda > 0.71$  мкм, как в экспериментах с переменными В/Ц. Однако, в данном эксперименте четко вырисовывается действие увеличения начального водосодержания.

Поскольку своей глянцевой поверхностью вода, по видимому, старается отражать лучи, то коэффициент поглощения бетона с начальной подвижностью ОК = 7-8 см составляет 97 – 98% аналогичной величины бетона с начальной Ж = 20-25 сек.

Изменение коэффициента поглощения во времени в зависимости от начальной консистенции бетонной смеси, график которой представлен на рис.4 подтвердила вышеприведенный анализ рис.2 о постепенном и ритмичном снижении, данного коэффициента во времени. Причем интенсивность снижения коэффициента тем выше, чем больше вяжущего в смеси, а следовательно чем больше выделяемой свободной окиси кальция.




Рис.3. Изменение коэффициента поглощения бетона солнечного спектра в зависимости от начальной консистенции бетонной смеси  
 1 - Ж= 20-25 сек; 2 – ОК = 1-4 см; 3- ОК = 7-8 см.




Рис.4. Изменение коэффициента поглощения бетона солнечной спектра с  $\mathcal{J} = 20-25$  сек; 2 - ОК = 1-4 см; 3 - ОК = 7-8 см

Таким образом, полученные результаты позволяет качественно повысить эффективность использования поток солнечного излучения при гелиотермообработке бетона. Коэффициент поглощения бетона солнечной радиации убывает с течением времени после начала гелиотермообработки, поэтому наиболее эффективно использовать солнечный тепловой поток в первые часы твердения бетона.

#### Литература

1. Усмонов Ф.Б. Повышение эффективности использования плоских отражателей при гелиотермообработке бетона. //В книге сборных научных трудов. БФ ТИИМ, Бухара, 2016, С.72-75.
2. Усмонов Ф.Б., Усмонова Г.Ф. Разработка и исследование интенсивной тепловой обработки сборного железобетона с использованием солнечной энергии. – Бухара: Дурдона, 2018, 135с.

### ИККИТА БУЗИЛИШ ЧИЗИФИГА ЭГА БЎЛГАН КВАЗИЧИЗИҚЛИ АРАЛАШ ТИПДАГИ ТЕНГЛАМА УЧУН ЧЕГАРАВИЙ МАСАЛА

**Расулов Хайдар Раупович,**

*Бухоро давлат университети, Бухоро ш., Ўзбекистон,  
+998-88-303-44-34*

Иккинчи тартибли иккита бузилиш чизиғига эга бўлган аралаш типдаги хусусий ҳосилали дифференциал тенгламаларнинг амалий аҳамияти кенг бўлиб, бир қатор механик, физик, биологик, кимёвий ва иқтисодий масалаларни математик моделлари аралаш типга тегишли тенгламалар орқали ифодаланади.

Масалан:

- изотроп жисмда иссиқлик манбалари ва иссиқлик ютувчилар бўлмаганда стационар темперетура тақсимоти масаласи аралаш типдаги тенгламага олиб келинади, бунда  $U$  – температура бўлиб, координаталар функцияси сифатида қаралади;

- агар иссиқлик манбалари жисмда тақсимланган бўлса ва уларнинг қуввати вақт ўтиши билан ўзгармаса,  $u$  ҳолда температура бир жинсли бўлмаган эллиптик тенгламани қаноатлантиради;

- бузилиш чизиғига эга бўлган аралаш типдаги тенгламалар эса фильтрация назариясида бир жинсли бўлмаган ғовакли қатламлар орқали масса ўтиш жараёнларини ўрганишда, замонавий космологияда материянинг ҳолатларини кўриб чиқишда учрайди.

Булардан ташқари, қуйидаги бошқа амалий масалани кенгроқ кўриб чиқамиз. Ф.Франкль ясси деворли идишдан товуш тезлигидан юқори тезликда суюқлик ёки газнинг оқиб чиқиш (идиш ичида тезлик товуш тезлигидан паст) масаласи А.С.Чаплыгиннинг

$$K(y)U_{xx} + U_{yy} = 0 \quad (K(0) = 0, K'(y) > 0)$$

тенгламаси учун чегаравий масалага келиши кўрсатилган [1-2].

Аралаш типдаги тенгламалар деб қаралаётган соҳанинг бир қисмида эллиптик, иккинчи қисмида гиперболик типга тегишли бўлган тенгламаларга айтилади, уларни ажратиб турувчи чизиқда (бузилиш чизиғи) эса тенглама параболик типга тегишли ёки аниқланмаган бўлиши мумкин.

Умумий назарияни инобатга оладиган бўлсак,  $y = 0$  чизиғида С.А. Чаплигин тенгламасининг типни ўзгаради. Бу дастлабки ўрганилган аралаш типга тегишли тенглама ҳисобланади.

Ушбу йўналишда фундаментал илмий ишлар қуйидаги

$$yU_{xx} + U_{yy} = 0$$

аралаш типдаги битта бузилиш чизиғига эга бўлган тенглама учун чегаравий масалалар XX асрда Ф.Трикоми (ҳозирги вақтда ушбу масала Ф.Трикоми масаласи номи билан юритилади) томонидан чуқур ўрганилган ва таҳлил қилинган. Умумлашган Ф.Трикоми тенгламаси

$$y^m U_{xx} + U_{yy} - C(x, y)U = F(x, y)$$

учун эса чегаравий масалалар С.Геллерстедт [2] томонидан ўрганилган.

Кейинчалик битта ва иккита бузилиш чизиғига эга бўлган аралаш типдаги тенгламалар учун чегаравий масалалар А.С.Чаплыгин, К.И.Бабенко, М.С.Салохитдинов, Т.Д.Джураев, Т.Ш.Кальменов, М.М.Смирнов ва уларнинг ўқувчилари томонидан ўрганилган [2-3]. Шу йўналишдаги адабиётлар рўйхати [3] да батафсил келтирилган.

Ушбу мақолада  $\Omega$  соҳасида иккита бузилиш чизиғига эга бўлган

$$|xy|^m (U_{xx} + sgn y U_{yy}) + 2qyU_x + 2pxU_y + C(x, y)U = f(x, y, U), \quad (1)$$

$$2|q| < 1, 2|p| < 1, m = const > 0$$

квазичизиқли тенглама учун қуйидаги чегаравий масала ўрганилган:  $\Omega = \Omega_1 \cup \Omega_2 \cup \Omega_3$ , бунда  $\Omega_1$  соҳаси  $y > 0$  жойлашган бўлиб, учлари  $O(0,0)$  ва  $A(1,0)$  нуқталарда бўлган силлиқ  $\Gamma$  – чизиқ ва  $Ox$  ўқининг  $OA$  кесмаси,  $\Omega_2$  соҳаси  $y < 0$  да жойлашган бўлиб,  $OA$  кесмаси,  $x + y = 0$  ( $OD$  нинг тенгламаси),  $0 \leq x \leq 0,5$  ва



$x - y = 1$  (DA нинг тенгламаси)  $0,5 \leq x \leq 1$ ,  $\Omega_3$  соҳаси  $y < 0$  да жойлашган бўлиб,  $OD$ ,  $x - y = 1$  ( $CD$  нинг тенгламаси)  $0 \leq x \leq 0,5$  чизиғи ва  $Oy$  ўқидаги  $OC$  кесмаси  $-1 \leq y \leq 0$  билан чегараланган.

**Таъриф.** (1) тенгламани қаноатлантирувчи  $U(x, y) \in C[\bar{\Omega}] \cap C^2[\Omega_1 \cup \Omega_2 \cup \Omega_3]$  функцияга тенгламанинг регуляр ечими деб аталади.

**Чегаравий масала.** (1) тенгламани қуйидаги шартларни қаноатлантирувчи регуляр ечимини топинг:

$$U|_{\Gamma} = \varphi(s), 0 \leq s \leq L,$$

$L$  : -  $\Gamma$  эгри чизиғининг  $A$  нуқтадан бошлаб ўлчанган узунлиги;

$$U(0, y) = \tau(y), -1 \leq y \leq 0;$$

бирикиш шартлари:

$$\begin{aligned} U(x, +0) &= U(x, -0), 0 \leq x \leq 1, \\ \lim_{y \rightarrow +0} y^{2p} U_y &= \beta \lim_{y \rightarrow -0} (-y)^{2p} U_y, 0 < x < 1, \\ \lim_{\xi \rightarrow -0} U(\xi, \eta) &= A(\eta) \lim_{\xi \rightarrow +0} U(\xi, \eta), \end{aligned}$$

$$\lim_{\xi \rightarrow -0} \frac{\partial}{\partial \xi} \int_{-\eta}^{\xi} (\xi - t)^{-\lambda} U(t, \eta) dt = B(\eta) \lim_{\xi \rightarrow +0} \frac{\partial}{\partial \xi} \int_{-\eta}^{\xi} (\xi - t)^{-\lambda} U(t, \eta) dt,$$

бунда  $\xi = x + y$ ,  $\eta = x - y$ ,  $0 < \eta < 1$ ,  $\beta, \lambda \in R$ ,  $0 < \lambda < 1$ .

Айтиш жоики, илмий изланишларда таклиф қилинган математик усуллар ва тенгламаларнинг хусусиятлари илмий ишларда олиб борилган изланишларга ўхшаш бўлсада, уларнинг ўртасида кескин фарқ қиладиган жиҳатлар мавжуд.

Юқорида келтирилганлардан келиб, чиқиб битта бузилиш чизиғига эга [1-2] ва иккита бузилиш чизиғига эга бўлган аралаш типдаги тенгламалар учун қўйилган чегаравий масалаларни ечиш йўллари [3-5] таҳлил қилинганда бир қатор ўхшашликлар ва фарқли жиҳатлар намоён бўлади.

Фарқли жиҳатлари таҳлил қилинганда қуйидагилар намоён бўлади: ўзгарувчи коэффицентли тенглама учун Грин функцияси тузиш жуда мураккаб. Хусусан, ушбу чегаравий масалани ечишда: - қаторлар назарияси; - Грин функцияси ва хоссалари; - Грин ва Остроградский формулалари; - Эйлернинг  $\Gamma(a)$  ва  $B(a, b)$  функциялари ва уларнинг хоссалари; - Гауссинг бир ўзгарувчили  $F(a, b; c; z)$  ва икки ўзгарувчили  $F(a, b; c; d; e; z_1, z_2)$  гипергеометрик функциялари ва хоссалари; - Горн тенгламалар системаси ва хоссаларидан кенг фойдаланилади.

